“UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

Digital object identifier
Google Scholar
OpenAIRE

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami

Toshkent, O‘zbekiston

2024-yil 30-mart

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI QO‘YISHDA FILOLOGIK TADQIQOTLARNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

Toshkent, O‘zbekiston

COLLECTION OF MATERIALS

from the international scientific and practical conference

THEORETICAL AND PRACTICAL IMPORTANCE OF PHILOLOGICAL RESEARCH IN LAYING THE FOUNDATIONS OF THE THIRD RENAISSANCE

Tashkent, Uzbekistan

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-практической конференции

ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Ташкент, Узбекистан

Uchinchi renessans poydevorini qo‘yishda filologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati / –Toshkent. – 2024. – 394 b.

Ushbu to‘plamga 2024-yil 30-mart kuni Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Turkshunoslik fakulteti “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi tomonidan o‘tkazilgan “**Uchinchi renessans poydevorini qo‘yishda filologik tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyati**” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materillari kiritilgan.

Maqola va tezislarda keltirilgan ma’lumotlarga, uslubi va imlosiga mualliflarning o‘zlari javobgar.

Ma’sul muharrir
Shirin Sadikova
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar
Qudratulla Omonov,
filologiya fanlari doktori, professor
Suvon Meli,
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati
Urak Lafasov
Tobashar Yuldashev
Shirin Sharasulova
Anvar Allambergenov
Shahnoza To‘ychiboyeva
Yulduz To‘raxo‘jayeva
Laylo Hamdam-Zoda
Shahnoza Yakubova
Liliya Belix
Dilfuza Shakirova
Gulnoza Saydaliyeva

Maqolalarni to‘plab, nashrga tayyorlovchi
Dilrabo Tilovova

Ushbu to‘plam Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti kengashining 2024-yil 30-mart kungi 08-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

CHET TILINI O‘RGANISHDA TILNING VA SHAXSNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Muyassar Axmedova,
ps.f.d**.,** *Umumiy psixologiya kafedrasi prof. v/b.,*
E-mail: muyassaraxmedova1968@gmail.com

Dildora Jo‘raqulova,
ps.f.n., dos. v/b. *Toshkent davlat pedagogika universiteti*
E-mail: dildorazurakulova085@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada bugungi kunda chet tilini o‘rganishga e’tibor yuqoriligi bayon etilgan. Unda jamiyat tarqqiyoti rivojlangani sari chet tillariga qiziqish ortib borayotganligi va uning bir qator sabablari mavjudligi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, chet tilini o‘rganishning psixologik xususiyatlari ilmiy manbalar asosida bayon etilgan. Bunda tilni o‘rganish uchun o‘quv faoliyati predmetini o‘ziga xosligi ham ahamiyatlidir. Chunki u boshqa fan predmetlaridan tubdan farq qiladi. Ya’ni chet tilidagi “so‘z”larning hid, rang, shakl, hajm xususiyatlarining yo‘qligi shaxs xotirasida saqlaniishida idrokning rolini yuqoriligi maqolada ifodalangan. Shu sababli kishining bilimi va chet tilda gapirish iqtidori turlicha bo‘ladi. U har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi.*

Shuningdek maqolada til o‘zlashtirish jarayonida odamlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, ko‘nikmalari, vokelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta’sir o‘tkazish uslubi tarkib topishi mumkinligi ifoda etilgan.

Kalit so‘zlar: *extiyoj, motivatsiya, qobiliyat, e’tiqod, til, tafakkur, his-tuyg‘ular, xarakter, qiziqish, ko‘nikma.*

Аннотация: *В статье описывается важность изучения иностранного языка сегодня. Показано, что интерес к иностранным языкам возрастает с развитием обществаи тому есть ряд причин. Также на основе научных источников описаны психологические особенности изучения иностранного языка. В этом случае важна и уникальность предмета учебной деятельности по изучению языка, потому что он принципиально отличается от других предметов, иначе говоря, в статье выражена важность роли восприятия в сохранении иноязычных «слов» в памяти человека без особенностей запаха, цвета, формы, размера. Поэтому знание и умение человека говорить на иностранном языке различны, они не всегда совпадают, между ними нельзя поставить знак равенства.Также в статье утверждается, что в процесс овладения языком могут быть включены воображение, интересы, чувства, навыки, способы прогнозирования, наблюдения и влияния на исход реальности.*

Ключевые слова: *желание, мотивация, способность, убеждения, язык, мышление, чувства, характер, интерес, умение.*

Abstract: *The article describes the importance of foreign language learning today. It shows that the interest in foreign languages is increasing with the development of the society and that there are a number of reasons for it. Also, the psychological features of learning a foreign languageare described based on scientific sources. In this case, the uniqueness of the subject of educational activities for language learning is also important. Because it is fundamentally different from other subjects. That is, the importance of the role of perception in the retention of foreign language «words» in the memory of a person without the features of smell, color, shape, size is expressed in*

the article. Therefore, the knowledge and ability of a person to speak a foreign language is different. It doesn’t always match.

In the process of language acquisition, people’s imaginations, interests, feelings, skills, ability to anticipate, notice, influence the outcome of reality can be included.

Key words: *desire, motivation, ability, belief, language, thinking, feelings, character, interest, skill.*

Kirish. So‘nggi yillarda jamiyat tarqqiyoti rivojlangani sari chet tillariga qiziqish ortib borayotganligi sezilarli ko‘zga tashlanadi. Tilarni o‘rganishga intilishning juda ko‘p sabablari mavjud. Shulardan biri – kishi butun dunyo bo‘yicha sayohat davomida chet el vakillari, davlatlari, madaniyati va tarixini o‘rganishi, hamda ular bilan suhbat qurish jarayonida o‘zining ilmiy salohiyatini oshirib borish mumkin. Shuningdek turli tillarni qancha ko‘p va yaxshi o‘zlashtirsa, insonning xarakteri, xulqi, muomala madaniyati o‘zgarib, mukammallashib boradi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, kishining bilimi va shu tilda gapirish iqtidori har doim ham bir-biriga to‘g‘ri kelavermaydi. Ayrim insonlarga til o‘rganish juda ham oson, ayrimlariga esa o‘ta qiyin tuyuladi.

Asosiy qism.

Til – insonlar o‘rtasidagi muloqotning eng muhim vositasi, fikr va hissiyotlarni ifodalash, yangi ma’lumotlar, bilimlarni o‘zlashtirishning asosiy mexanizmi. Boshqalar ongi va hissiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatish uchun mazkur til sohibi uni yaxshi bilishi lozim.

Ma’lumki yer sharini ko‘p qismini egallagan aholi aynan ingliz tilida so‘zlashishadi. Mamlakatimizda ham bog‘chalarda, maktablarda, oliy o‘quv yurtlarida, turli tayyorlov kurslarida ingliz tilini o‘rgatish va o‘rganishga e’tiboryuqori.

Tillarni o‘rganish murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun unda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelish mumkin, ya’ni psixologik muammolar ana shular jumlasidandir. Bu muammolarni bir qancha psixolog olimlar katta qiziqish bilan o‘rganishgan.

Chet tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklar haqida so‘z borganda til tushunchasining psixologik xususiyatlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. I.A.Zimnyaya tilning xususiyatiga quyidagini taklif qiladi: “til – bu murakkab sistemali ta’limot bo‘lib, u inson tushuncha tafakkurini vujudga keltiradi”, hamda insonning muomala vazifasini bajaruvchi funksiyasini rivojlantiradi[6].

Gumboltd ta’kidlashicha, til – bu millat qalbi. Unda to‘liq “milliy” xarakter aks etgan. Til – ijtimoiy–tarixiy mahsulot bo‘lib, u har hil avlodlar o‘rtasida muloqot uchun xizmat qiladi. Til – bu eng tirik, eng sarob va mustahkam aloqa bo‘lib, yashab

bo‘lgan, yashayotgan va kelajak avlodlarni bir-biriga bog‘lab turuvchi buyuk vatarixiy bir butunlik hisoblanadi.

Chet tili boshqa makatab dasturidagi o‘quv predmetlaridan farqi bor. Yana chyet tili ona tilidan ko‘p jihatlari bilan ham farq qiladi. Uning farqini L.S.Vigotskiy ta’kidlab o‘tganidek: egallash yo‘li yo‘nalishida; muloqotda kirishuvchaligida;vazifalarning hammasi amalga oshishida; bolaninig tilini rivojlanishida (2-5 yosh). Bunda L.S.Vigotskiy aniqlab olgan yo‘li ona tili uchun pastdan - tepaga, chet tilini o‘rganish uchun esa, tepadan-pastga xarakterlidir, deb hisoblagan. Shundan ko‘rinib turibdiki, ona tili va chet tillarini o‘rganish bir- biriga qarama-qarshi kechadigan jarayondir. Sababi, ona tilini inson yoki bola o‘zi bilmasdan ham turib o‘rganishi mumkin, lekin chet tilini o‘zi boshidan boshlab, maxsus, tayyorlangan holda o‘rganadi[7].

Natijalar va muhokama. Til kommunikatsiyasi talablariga fikrlarning ifoda etish vositasidek tavsifnoma berish zarur. Bu sifatda, ya’ni tilning kommunikatsiya funksiyasida ona tili ham chet tili ham to‘la namoyon bo‘ladi. Ammo ona tili birinchi navbatda tabiiy, natural mavjutlilik shakli va emotsional iroda sferasining belgisi bo‘lib qoladi. Muloqotga kirishish darajasida ham ona tilining ustunlik xususiyati kuzatiladi. Bola chet tilini qancha yaxshi o‘rgansada, ona tilida so‘zlashish xususiyati yuqori turadi. Yana bir asosiy jihati shundaki, bola maktabda odatda ona tili orqali so‘zlashadi va chet tilida o‘rgangan so‘zlarini amaliyotda qo‘llashi juda kam yoki umuman qo‘llamaydi. Shuning uchun ham masalan, chet tilda o‘rgangan so‘zlarini aksariyat hollarda miyasida saqlanib qoladi, ayrim hollarda qo‘llaydi. Chunki boshqa tildan o‘zlashtirayotgan so‘zlarning hech qanaqa hidi, rangi, shakli, hajmi, katta-kichikligi bo‘lmagani uchun xotirasida (mexanik tarzda) saqlanishi qiyin bo‘ladi.

Matematika, tarix, geografiya, biologiya, himiya, fizika fanlariga qaragnda til o‘quv predmetlar orasida yashash tarzi uchun eng kerak bo‘ladiganidir. Chunki til orqali inson o‘z fikrini obyektiv holda bayon eta oladi va muloqotga kirishadi. Til axborot saqlovchi, tahlil qiluvchi va olib yuruvchi vosita hisoblandi. Tilni o‘rganish uchun o‘quv faoliyati predmetini o‘rganib chiqish lozim.

Chet tilini predmetsizligi odatda boshqa fanlarga nisbatan (matematika, jo‘g‘rofiya, tarix, biologiya, ximiya, fizika va boshqalar) real borliqning bilimini bermaydi. Chet tili tillarning funksiyasi, qoidalari, talablari kabilarga asoslanadi[7].

Kommunikativ faoliyatga biryoqlama “qo‘shilish” qandaydir (ingliz) tilini o‘zlashtirishga yordam beradi. Maktabda bola o‘rganayotgan tilida muloqada bo‘ladi, lekin muhitdan tashqari emas. Bu narsa bolaning xotirasida so‘z bo‘lib saqlanibqoladi. Ingliz tilidagi “so‘z”lar hid, rang, shakl, hajmdan mahrum. Shu xususiyat chet

tilini o‘zlashtirishda idrokning roli sustligi sababli so‘zlarni xotirasida yaxshi saqlab qolmasligiga sabab bo‘lishi mumkin. Inson ona tilini o‘zlashtirayotganda o‘zi bilmagan holda o‘zlashtiradi. Bu tabiiy holat. Chunki bola tilning o‘zlashtirayotganda borliqni bilish uchun qurol sifatida foydalanadi. Bu jarayonda tabiiy uning odamiy, spetsifik (kommunikativ, bilim orttirishlilik va boshqa ijtimoiy) ehtiyojlari qoniqtiriladi.

Maktab sharoitida o‘qitilayotgan chet tili xuddi ona tilidek borliqni anglash, jamoaviy tajribani oshirmaydi. U ushbu axborotni tarqatuvchisi axborotning shakli va borlig‘i individual jamoaviy g‘oyasida bo‘ladi. Demak, chet tili o‘zlashtirish jarayonida o‘quv faoliyatini belgilash kerak. Bunday predmet sifatida masalan, tarixdan, madaniyatdan, xalqning an’anasidan, shu tilda gapirayotgan odamning gapidan ma’lumotlar bo‘lishi mumkin.

Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlarni maqsadga muvofiq ravishda qondirish til xususiyatiga bog‘liq bo‘ladi. U o‘z navbatida shaxslararo munosabat, barkamol avlod, komil inson g‘oyalarining takomillashishini anglatadi. Uning muvaffaqiyati shaxsning ruhiy dunyosi, extiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, qobiliyati, e’tiqodi kabi insonning fazilatlariga bevosita bog‘liq. Dastlabki ona tilini o‘zlashtirish shaxsning individual-tipologik xususiyatlarini shakllanishi, namoyon bo‘lishi bilan birga kechadi. Til o‘zlashtirish jarayonida odamlarning tasavvurlari, qiziqishlari, his-tuyg‘ulari, ko‘nikmalari, voqelik natijasini oldindan sezish, payqash, ta’sir o‘tkazish uslubi tarkib topishi mumkin.

Xulosa. Shunday qilib chet tillarini o‘rganish uchun til xususiyatining ijtimoiy psixologik asoslarining tushunish hamda ularni bosqichma-bosqich o‘zlashtirib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun shaxs til xususiyatining asosiypsixologik sifatlarini to‘g‘ri tahlil qila olishi va undan oqilona foydalana olishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Артемов В.А. Психология обучения иностранному языку, М.; Просвещение,1999.
2. Ахмедова М.Х. Психолингвистические проблемы преподавания иностранного языка // Вестник современной науки. 2016. 12-2 (24). 51-54.
3. Ахмедова М.Х. Психологические особенности обучения иноязычному говорению // Молодой ученый. 20014. №3. С.819-821.
4. Axmedova M.X., Axmedova M.K. Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar // Development of pedagogical creativity in modern education in, 2023.
5. Axmedova M., Shodiyeva N., Raxmanova N. Intellektual faoliyatida ichki nutq // Academic research in educational sciences. TMA Conference. 2023. 4. 403-407.

6. Зимняя И.А. Психология обучения иностранному языку в школе. М.; Просвещение,1991.
7. Леонтьев А.А. Речевые ошибки как проблема психологии; в сб. Материалы 3 Всесоюзного съезда общества психологов СССР, т.1, Общая психология и психофизиология., М.; 1998.
8. Akhmedova M.Kh. Spirituality of youth in speech activity // Academicia: An International Multidisciplinary. 2021. 1077-1080.
9. Ahmedova M. Kh. Psycholinguistic features not literary words // Linguistics and Culture Review. 2021/11/18. 5. S2. R.1115-1121

HEGELMI GEGEL: O‘ZLASHTIRILGAN SO‘ZLAR IMLOSIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Ravshan Jomonov,
O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya: *Rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlardagi* ***Gg (Гг)*** *harfi bilan yoziladigan orfogrammalarning ayrimlari munozaralidir. 1940-yilda o‘zbek kirill alifbosining qabul qilinishi bilan Yevropa tillaridagi* ***h*** *harfli so‘zlar ayni rus tilidagi shaklda, ya’ni* ***г*** *bilan berila boshlagan. Bu esa o‘zbek imlosida bir qator chalkashliklarga sabab bo‘lgan. Mazkur maqolada ayni shu muammoni qay tarzda hal etish masalalari ko‘rsatib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar*: orfografiya, so‘z o‘zlashtirish, manba til, vosita til, qabul qiluvchi til, o‘zlashtirilgan so‘zlar imlosi, Yevropa tillarida Hh harfi bilan yozilgan so‘zlar, tovush va harf mosligi.*

Abstract: *Some of the orthograms written with the letter Гг (Гг) in words acquired through the Russian language are controversial. In 1940, with the adoption of the Uzbek Cyrillic alphabet, words with the letter h in European languages began to be given in the same form as in Russian, i.e. with г. This caused a number of confusions in Uzbek spelling. This article shows how to solve this problem.*

Key words: *orthography, word acquisition, source language, medium language, recipient language, spelling of acquired words, Hh words in European languages, sound and letter correspondences.*

Аннотатция: *Некоторые орфограммы, написанные буквой* ***Gg*** *(Гг) в словах, заимствованных через русский язык, вызывают споры. В 1940 году с принятием узбекской кириллицы слова с буквой* ***h*** *в европейских языках стали даваться в той же форме, что и в русском, т.е. с* ***г****. Это привело к путанице в узбекской орфографии. В этой статье показано, как решить эту проблему.*

Ключевые слова: *орфография, усвоение слов, исходный язык, язык-носитель, язык-реципиент, написание заимствованных слов, слова с буквой* ***Hh*** *в европейских языках, звуковые и буквенные соответствия.*

Hozirgi o‘zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biri – imloni takomillashtirishdir. Negaki, o‘zbek lotin alifbosining to‘liq qo‘llana boshlagani bir qator amaliy muammolarni keltirib chiqardi. Binobarin, Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarni lotincha alifboda aks ettirishda munozarali holatlar ham bor. Bunday holatlarni aniqlash, ularni lotinchaga transliteratsiya qilish muammosini hal etish, ya’ni ma’lum bir orfografik qoidalar yaratish – hozirgi o‘zbek orfografiyasining eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki yozuv amaliyoti, lisoniy ehtiyojlar bunday munozarali holatlarga aniqlik kiritishni, o‘zbek imlosining milliy xususiyatlarini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Chunki “adabiy til normasi nazariy aralashuvsiz, ya’ni lisoniy va nolisoniy nazariyalar ishtirokisiz yaratilishi, paydo bo‘lishi va rivojlanishi mumkin emas. [1, 341].

Bugungi lisoniy vaziyatdan kelib chiqadigan bo‘lsak, rus tili orqali o‘zlashtirilgan so‘zlardagi **Gg** harfi bilan yoziladigan orfogrammalarning ayrimlari munozaralidir. Aslida, Yevropa tillarida Hh bilan yoziladigan so‘zlar 1929-1940-yillarda amalda bo‘lgan o‘zbek lotin alifbosida **Гг** harfi bilan yozilgan. Buni 1929-yilda tasdiqlangan imlo qoidalarida aniq ko‘rish mumkin: “19. Ovro‘paning “h”si ham, “ç”si ham o‘zimizda “h” va “ç” bilan yoziladir: *hegemonija, Çek*” [2, 124]. Ko‘rinadiki, Yevropa tillaridan o‘zlashtirilayotgan *h* harfli so‘zlar o‘zining adekvat harfi bilan ifodalangan, tovush va harf orasida mutanosiblik yuzaga kelgan, o‘zbek tilining fonetik xususiyatlariga to‘liq amal qilingan. Ayni shunday yondashuv 1934- yilgi qoidalarda ham o‘z aksini topgan: “24. d) ovropacha h blan kirgan so‘zlar ruslar kabi “g” bilan emas, “h” blan yoziladi: *Henrih, hegemonija, hektar* каби” [3, 34]. Demak, 1929-1940-yillardagi lotincha alifboda Yevropa tillarida *h* harfi bilan yoziladigan so‘zlar o‘zining to‘g‘ri orfografik yechimini topgan: quyi-faringal, jarangsiz, sirg‘aluvchi [h] fonemasi uchun o‘zbek tilida ham jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshi [h] fonemasi qabul qilingan. Natijada o‘zbeklar nutqiga mos, talaffuzi qulay bo‘lgan vaziyat paydo bo‘lib, bunday leksemalarning o‘zlashib ketishi osonlashgan.

1940-yilda o‘zbek kirill alifbosining qabul qilinishi bilan h harfli so‘zlar ayni rus tilidagi shaklda, ya’ni Гг bilan berila boshlagan. “41. O‘zbek adabiy tiliga rustili orqali grek-latin umuman G‘arbiy Yevropa tillaridan kirgan h (h) tovushli so‘zlar jonli talaffuzga muvofiq г bilan yoziladi: *гегемония, горизонт, гидроген, гидростанция, гипотеза, гигиена, бухгалтер, гектар va sh.k.”* [4, 26]. Agar qoidaga e’tibor berilsa, “jonli talaffuzga muvofiq” degan jumlalar qo‘llangan. Lekin bunday jonli talaffuz o‘zbeklar jonli nutqiga xosmi yoki ruslarning jonli talaffuziga xosligi ko‘rsatilmagan. Nazarimizda, rus tilidagi talaffuz ko‘proq hisobga olingan, imkon qadar ruscha so‘zlarning shaklini buzmaslik maqsadida mana shunday yo‘l tutilgan. Natijada, Yevropa tillarida h harfi bilan yozilgan, o‘zbekcha bo‘g‘iz tovushiga mos keladigan fonema [**h**)] h bilan emas, balki г harfi bilan yozilib, [g] tarzida talaffuz etiladigan bo‘lgan.

Rus tili orfografiyasiga doir tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, Yevropacha Hh ning rus tilida Гг bilan berilishi azaldan bahsli masala bo‘lib kelgan. Binobarin, akademik Y.K.Grotning e’tirof etishicha, “Undosh tovushlar orasida faqat bittasio‘ziga tegishli harfga ega emas, bu – *благо* va shu kabi so‘zlarda eshitiladigan г tovushidir. Har gal rus alifbosining kamchiliklari haqida gap ketganda ushbu harf e’tiborni o‘ziga tortadi hamda uni to‘ldirishga urinishlar bo‘ladi. Bu narsa h harfli xorijiy so‘zlarni ruscha transkripsiyada г orqali berishda nomutanosiblik tufayli kelib

chiqqan. Aslida esa ruscha g o‘zining asosiy talaffuzi bo‘yicha boshqa bir lotincha harf (g) ga mos keladi” [5, 134].

Tekshirishlardan ma’lum bo‘ladiki, Hh harfli so‘zlarni rus tilida to‘g‘ri aks ettirish asosiy orfografik muammo sifatida rus tilshunoslarining doimo diqqat markazida turgan. Bu borada bildirilgan fikr-mulohazalarning aksariyati h ni g bilan emas, balki x bilan berishga qaratilgan. Jumladan, V.I.Kuznetsova bu haqda shunday yozadi: “...Xorijiy so‘zlarni rus tilida berishda fonemalarning barcha tizimini to‘liq aks ettirishni hisobga olish lozim. Masalan, inglizcha va nemischa nomlardagi [**h**]ni rus tilida g bilan emas, balki x bilan berish maqsadga muvofiqdir, ya’ni *Hull*ni *Галл* yoki *Гулл* emas, balki *Халл*, *Yohannesburg*ni *Иоганнесбург* tarzida emas, *Иоханнесбург* shaklida berish kerak” [6, 98]. Tadqiqotchi o‘z ishida, asosan, inglizcha [h] fonemasi haqida fikr bildirgan bo‘lsa-da, ushbu qoidani Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan barcha so‘zlardagi h ga tatbiq etish mumkin. Chunki roman- german tillarida Hh harfli so‘zlar deyarli bir-biriga yaqin talaffuzga ega, rus tilida esa ayni shu fonema, jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshi mavjud emas. Shunday ekan,mazkur tovushga yaqinroq bo‘lgan [x] fonemasi bilan ularni almashtirish orfografik nuqtayi nazardan o‘zini oqlaydi. O‘zbek adabiy tildida esa [h] tovushi mavjudligi sababli bunday so‘zlarni Hh harfi bilan yozish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bunday fikrni A.V.Superamskayaning ishida ham uchratish mumkin: “Lotincha so‘zlarga ergashgan holda h harfli boshqa xorijiy sozlarni ham ruscha г bilan bera boshlaganlar. Biroq ruscha [г] portlovchi, jarangli tovush bolib, [jhb;bq jarangsiz, frikativ [h] ga mutlaqo mos kelmaydi. Xorijiy h ni ruschada г bilan berish tarafdorlarining fikricha, ruscha [г] undoshining hosil bolish o‘rni xorijiy [h] ning hosil bolish o‘rniga mos kelmaydi. Ammo ruscha [г] ham frikativ [x] hosil bo‘lgan joyda yuzaga kelsa-da, ukraincha [h]ga o‘xshab talaffuz etilmaydi. Ayni paytda ta’kidlash joizki, [h] artikulatsion-akustik jihatdan [x] ga birnuncha yaqin boladi” [7, 212]. O‘zbek tilshunosligida ham Yevropa tillaridagi Hh harfli so‘zlarni kirilchaalifboda aks ettirish bo‘yicha ba’zi mulohazalar o‘rtaga tashlangan. Lekin ularning aksariyatida bunday leksemalarni rus tilidagi shaklda, ya’ni г bilan berish qo‘llab- quvvatlangan. Aniqroq aytganda, masalaning tub mohiyati o‘ylab ko‘rilmaan, ruscha talaffuz va imlo afzal ko‘rilgan. Faqatgina S.Otamirzayevaning bir maqolasida ushbu muammo bo‘yicha obyektiv fikrlar bildirilgan: “Chet tildan kirgan so‘zlarni qabul qilishda tovush sostavi masalasining yana bir qiziq tomoni shundaki, biror tovush mansub bo‘lgan tilda ham, qabul qilgan tilda ham mavjud bo‘lgani holda vositachi tilda bo‘lmagani sababli, o‘zgarib o‘tishi mumkin. Masalan, faringal undosh **[h]**ko‘pgina g‘arb tillarida ham, o‘zbek tilida ham mavjud, biroq rus tilida bo‘lmagani

tufayli rus tili orqali kirib kelgan so‘zlarda tilorqa [г] tarzida talaffuz qilinadi: *Гамлет, Генри, Герцен, гербарий, герцог, Гейни, гармония* va boshqalar. Bunday so‘zlarning hammasida [h] ga qaytish qiyin, chunki talaffuz ancha o‘zlashib ketgan. Shuning uchun turdosh otlar talaffuzida rus tilidan qabul qilinganicha qoldira berish, *Hamlet, Henri* kabi atoqli otlarda esa [h] ni tiklash zarurdir” [8, 88].

Nazarimizda, rus tilida Гг bilan yoziladigan, asli Yevropa tillaridan o‘zlashtirilgan so‘zlarning aksariyatini o‘zbek lotin alifbosida h harfi bilan yozish mumkin. Bunday leksemalar sirasiga, avvalo, joy nomlari va kishi ismlarini bildiruvchi so‘zlarni kiritish mumkin. Masalan, *Гамлет, Гамбург, Гегель, Голливуд,Гарвард* kabi so‘zlar. Aslida, ayni shu nomlar o‘zbek lotin alifbosida Hh bilan yozilishi lozim. Chunki ayni shu holatda ularning yozilishi ham asl manbaga muvofiqbo‘ladi, ham talaffuzda qulaylik kelib chiqadi. Binobarin, *Hamlet, Hamburg, Hegel, Hollivud, Harvard* tarzidagi yozilishlar orqali o‘zbeklar nutqida mavjud bo‘lgan bo‘g‘iz undoshi - [h] o‘z o‘rnini topadi.

Bizningcha, Yevropa tillarida Hh harfi bilan yoziladigan, ammo rus tilida Гг bilan beriladigan ayrim so‘zlar imlosini qayta ko‘rib chiqish vaqti allaqachon yetilgan. Negaki, lotincha alifbomizning grafik imkoniyatlari hamda manba til va qabul qiluvchi til orasidagi o‘xshashlikni ta’minlash mana shunday yo‘l tutishnitaqozo etadi. Mana shundagina imlo borasidagi lisoniy qaramlikdan qutulib, tarixiy haqiqat imkon qadar qaror topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гавранек Б. Задачи литературного языка и его культура // Пражский лингвистический кружок. – М.: Прогресс, 1967.
2. 1929 йилги Самарқанддаги тил-имло конференцияси материаллари. Ўзбекистон давлат нашриёти. 1932.
3. Politexnik maktab va pedagogika. –Toshkent, -1934, 3-son.
4. Бирлашган ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари: SSSR Fanlar akademiyasi Ozbekistan filialinin Axbarati. 2-san. –Toskent: OzFAN nasrijati, 1940.
5. Грот Я.К. Филологические разыскания. Т.2. 2-изд. – СПб: 1876.
6. Кузнецова В.И. Фонетические основы передачи английских имен собственных на русском языке. –Ленинград: Учпедгиз. Ленинград.отд., 1960.
7. Суперанская А.В. Теоретические основы практической транскрипции. –М.: Наука, 1978.
8. Отамирзаева С. Ўзлаштирилган сўзларнинг орфоэпиясига доир баъзи мулоҳазалар \\ Ўзбек тили нутқ маданиятига оид масалалар. –Т.: Фан, 1973.
9.

FRAZEOLOGIZMLARNING O‘ZBEKCHA MUQOBIL VARIANTLARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI
(Ingliz tilidan tarjimalar misolida)

Xayrulla Hamidov,
f.f.d. Professor, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Marxabo Abdullayeva,
PhD, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: *Inglizcha asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish, asosan XX asrning 30-yillaridan amalga oshirila boshladi. Qisqa vaqt ichida bu sohada anchagina yutuqlarga erishildi. Shundan keyin o‘tgan 80-90 yil ichida jamiyatimizda adabiy muhitda muayyan o‘zgarishlar sodir bo‘lib, bu o‘zgarishlar tarjima taraqqiyoti va yo‘nalishiga ham ta’sir etmay qolmadi. Tarjimalarda shu o‘zgarishlar e’tiborga olinib, ingliz va amerika adabiyotidan o‘zbek tiliga detektiv asarlarning tarjimalari amalga oshirilgan. Badiiy asar tarjimoni oldida hamisha asliyatdagi milliy o‘ziga xoslikni me’yor doirasida berish masalasi ko‘ndalang turadi. Chunki har qanday asar o‘sha xalqning milliy hayoti bilan bog‘liq voqelikni aks ettiradi. Shunday yozuvchilar borki, ularning asarlarida yorqin milliy chizgilar tiniq ajralib turadi. Frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlari bo‘yicha turli tillar materiallari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilganligiga qaramasdan, hali ularning strukturaviy xususiyatlari tahlili mavjud emas.*

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, milliylik, tarjimada muqobillik, Ingliz adabiyoti, bevosita va bilvosita tarjimalar, tarjimon muommolari.*

Абстракт: *Перевод английских произведений на узбекский язык стал осуществляться в основном с 30-х годов XX века. За короткий период времени в этой области был достигнут большой прогресс. После этого в последние 80-90 годы в литературной среде нашего общества произошли определенные изменения, которые повлияли на развитие и направление перевода. Эти изменения были учтены при переводах, на узбекский язык были переведены детективные произведения из английской и американской литературы. Перед переводчиком художественного произведения всегда встает вопрос передачи оригинального национального самосознания в рамках нормы, так как любое произведение отражает реалии национальной жизни этого народа. Есть писатели, в творчестве которых отчетливо выделяются яркие национальные линии. Несмотря на то, что научные исследования структурных особенностей фразеологизмов проводятся на материалах разных языков, анализ их структурных особенностей до сих пор отсутствует.*

Ключевые слова: *фразеологизм, национальность, альтернатива перевода, английская литература, прямой и косвенный переводы, проблемы переводчика.*

Kirish qismi: Bilvosita tarjima jarayonida noqardosh xalq asarlani to‘plamlardan foydalanish tarjimada ba’zi noaniqliklar kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Personajlar nutqi ifodasining stilistik qayta tiklanishi tarjima amaliyotining ham, nazariyasining ham o‘ta murakkab, ayni kezda muhim sohalaridan biri bo‘lib,

muallif maqsadining asliyat tilidan xabardor bo‘lmagan kitobxonga to‘la-to‘kisyetib borishi har qaysi personajning tarjimada “o‘z tilida gapirishiga, o‘z dunyoqarashi doirasida o‘ylashiga, fikr-mulohaza yuritishiga, o‘ziga xos harakatlar qilishiga bog‘liqdir!”

Roman va hikoyalar tarjimalarida milliylik ulug‘langan va tarjimonning yuqorida eslatilgan frazeologizmlari, undagi xususiyat – yaxshilik istagida yumshoqroq ohangda tarjimada berilgan. Ma’lum bir millat an’analari, urf-odatlarining tarjimalarda aks etishida badiiy davr voqea-hodisalarini tasvirlash muhim o‘rin tutadi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga bilvosita tarjimasida milliylikning ifoda etilishi noqardosh xalqlar ijtimoiy-madaniy hayotining o‘zbek kitobxonlariga benuqson yetkazilishiga xizmat qiladi. Tarjimonlar tomonidan juda katta mashaqqat bilan o‘girilgan “O‘nta negr bolasi”, “Puaro tergov qiladi” va“O‘rmondagi sirli qotillik” kabi roman va hikoyalarning qiyosiy-tipologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, tarjimada ularning mazmun-mohiyati saqlangani holda milliy xususiyatlarning ba’zilari tarjimon nazaridan chetda qolib ketgan va bu noqardosh xalq hikoyalarining ommalashishiga sabab bo‘lgan holatlarni keltirib chiqargan.

Adabiyotlar metodologiyasi:

Frazeologizmlarning strukturaviy xususiyatlarini rus va ingliz tillaridagi frazeologizmlar Ye.F. Arsentyeva (2006), frazeologizmlarning grammatik xususiyatlari M.R. Ramazanova (2000), rus va nemis tillarida frazeologizmlarYe.P. Kuznetsovalar (2002) tomonidan o‘rganilgan.

Asosiy qism: A.V.Kunin tomonidan ishlab chiqilgan tasnif asosida frazeologizmlarni tahlil qilishga kirishamiz:

Romanda keltirilgan komponentlarga murojaat qilamiz:

The sweat was rolling down his face[WN,79] – *Uning yuzidan ter oqardi;* aslida so‘zma-so‘z tarjimada esa “uning yuzi terlab ketgan edi” deya bersa ham bo‘lardi, “uning yuzidan duvillab ter yoki marjon-marjon ter oqardi” bu o‘zbekchilikka xos bo‘lgan milliy kolorit bilan ko‘chma ma’noda berilgan tarjimadir.

But there was no sign of sleeping draughts – Ammo u xushsiz yotardi; bevosita tarjimada – *uyqusirash belgilari yo‘q edi;*

Rogers helped by pulling out the drawers of the dressing-table - Rojers stolning tortmasini tortib, yordam berdi; bevosita tarjima – *kiyinish stolining javonini ichkariga surib qo‘ydi, agar o‘tish yo‘lagiga xalal bergan bo‘lsa, sal nariroqqa surib qo‘yish*;

came out of the drawing-room window to meet them –ularni kelishini derazadan poylab turgandi; bevosita so‘zma-so‘z tarjimada – *ularni(mehmon)kutib olish uchun mehmonxona derazasidan kuzatib turdi;* izohi shundan iboratki, biror o‘zbek xonadoni, oilasi yo‘qki, mehmonni xursandchilik bilan kutib olmagan,xullas, har doim ham kelavermaydigan noyob mehmonlarni o‘zgacharoq bir izzat bilan kutib olish kerak bo‘ladi. Ziyofat so‘ngida mehmonni eshikdan tashqariga kuzatib chiqish, uning tashrifidan benihoya xursand bo‘lganligini izhor qilish va yana tashrif buyurishini so‘rab qolish ham mehmonnavozlik qonun-qoidalari sirasiga kiradi.

The meat is delicious. Its done to a turn – so‘zma-so‘z tarjimasida “go‘sht mazali, bu burilish” ma’nosini bersa-da, asardagi frazeologizmlar tarjimasiga tayanib *“*go‘shtning mazali pishgani davramizga ajoyib ko‘tarinki kayfiyat berdi”;

He has no table manner – he eats like a pig – eats very greedly and unpleasantly (disapproving) so‘zma-so‘z tarjimasida “U tarbiyasiz. Xuddi cho‘chqaga o‘xshab ko‘p ovqat yeydi”; asardagi umumiy tarjimada “U o‘zinitutish odobiga rioya qilmagan holda ko‘p va beo‘xshov ovqatlanadi” tarzida berilgan bo‘lib, cho‘chqa so‘zi tushirib qoldirilgan. Ma’lumki, cho‘chqa sof diniy nuqtai nazardan musulmon xalqlarida harom sanaladi va uning go‘shtini yeyish taqiqlanadi. Turkiy xalqlarning an’analarida cho‘chqa salbiy mazmun kasb etadi vauning go‘shti azaldan yeyilmay kelinadi. Aytilganlar bilan birga, o‘zbek, qirg‘iz, qozoq va boshqa turkiy xalqlarning lingvomadaniyatlarida cho‘chqa so‘zi haqoratni bildiradi. Ruslarda cho‘chqa a) ifloslik, b) nonko‘rlik, d) tarbiyasizlik; inglizlarda pig – ochofatlik; vetnamlarda cho‘chqa ahmoqlik ramzi bo‘lib keladi.

She’s quite thin, even through she eats like a horse – *“*u ozg‘in bo‘lishiga qaramasdan, otday ko‘p ovqat yeydi” bu frazeologizmda insonning ko‘p va betartib ovqatlanishi ifodalangan;

Don’t decide now – sleep on it and see how you feel in the morning – so‘zma-so‘z tarjimasida “hozir muhokamani to‘xtataylik, ertaga yana davom ettiramiz”, asarda esa “tong otsin ertaga bir nimani o‘ylab toparmiz”, ya’ni muammoni o‘ylamaslik haqida fikrlar ilgari surilgan;

He went out like a light as soon as he went to bed –“U yotog‘iga yotishi bilan chiroq kabi o‘chadi”, boshi yostiqqa tegsa bo‘ldi kabi;

It was just a silly argument – I wouldn lose any sleep over it. – “Buahmoqona tortishuvdan ko‘ra uxlaganim yaxshi edi (agar xafa bo‘lmasang)”; asarda esa qisqacha “yaxshisi birozgina dam olaylik, kayfiyatni tushirmay” tarzida;

The bottom has dropped/fallen out of the housing market – “xaridorlar narsalar sotib olishni to‘xtatishdi”, aslida esa “odamlar gavjumligidan do‘konning tomi bosib qoladi” deb o‘ylab do‘konga kirmaslik;

Oil prices shot sky – high last month – “neftning narxi o‘tgan oyda osmonga qarab ko‘tarildi” tarzida berilgan.

O‘.K.Yusupov fikriga ko‘ra, avval ekvivalentga ega bo‘lgan va ega bo‘lmagan frazeologik birliklar aniqlab olinadi. Taniqli olim ularning semantikasi, obrazlilik (metaforik); qayta tushunib yetganlik; komponentlarning soniga ko‘ra; komponentlarning joylashish tartibiga ko‘ra; komponentlarning morfologik yasalishiga ko‘ra; valentlik; variativlik; qiyoslanayotgan frazeologik birliklarni boshqa birliklar bilan sinonimik va antonimik aloqalariga ko‘ra turlarga ajratgan.

Ingliz tilidan rus tiliga, so‘ngra rus tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan adabiy namunalar “ko‘p bosqichli”, “pog‘onador” tarjimalar hisoblanadi. Bunday tarjimalar G‘.Salomov ta’rifi bilan aytganda, “in’ikosning in’ikosi”ga aylanadi.Chunki ularda bayon etilgan hodisa yana qayta aks ettiriladi. Bunda, tabiiyki,asliyatdan bir emas, ikki bor uzoqlashish yuz beradi. Natijada, asarda aks etgan milliy o‘ziga xoslik qashshoqlashadi. Tasvirlangan voqealarni til boyligigamoslashtirish hollari yuz beradi. Hatto, ba’zan ayrim o‘ziga xos milliy birliklar anglab bo‘lmaydigan darajada o‘zgarib ketadi. Bunday holat bevosita tarjimalarda emas, balki asosan vositali tarjimalarda kuzatiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuqorida sanalgan hikoyalar asliyat asosida tarjima qilinmagan, ularning ba’zilarida nimalarnidir qo‘shish yoki ayrim epizodlarni tushirib qoldirish hollari juda ko‘p uchraydi.

Haqqoniylik – ekvivalentlikning asosiy xossasi hisoblanadi, ya’ni tarjima matni asliyatniki kabi haqqoniy bo‘lsa, ekvivalentlik ham mukammal bo‘ladi. Bu yerda gap asliyat matnining obyektiv voqelikka nisbatan haqqoniyligi haqida emas, har qanday matn insonni o‘rab turgan voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalash usuli ekanligi haqida bormoqda. Matn har qanday moddiy obyekt singari o‘zining moddiy obyektivligi bilan haqqoniydir. Aynan ana shu haqqoniylik tarjima ekvivalentligini baholashda etiborga olinmog‘i kerak.

Semantik xususiyatlariga ko‘ra, “O‘nta negr bolasi” romani va “Puaro tergov qiladi” detektiv hikoyasidagi frazeologizmlar quyidagi guruhlarga ajratildi: inson hayotining turmush tajribalariga ko‘ra; axloqiy xususiyatlariga ko‘ra; tashqi ko‘rinishiga ko‘ra; mehnat faoliyatiga ko‘ra. Mazkur frazeologik birliklar ichki xususiyatiga ko‘ra yana kichik guruhlarga tasniflandi:

Mehnat faoliyatiga ko‘ra:

No bees, no honey; no work, no money – Mashaqqatsiz baxt kelmas, mehnatsiz taxt kelmas; Asalarisiz asal bo‘lmaydi, mehnatsiz pul bo‘lmaydi.

The early birds catches the worm – Kim erta tursa, unga Xudo rizq beradi; Barvaqt qilingan harakat, hosilga berar barakat.

An old dogs barks not in vain – Qari it bekorga akkilamaydi. Qari bilanni pari bilmaydi – ekvalenti bilan tarjimada berilsa ham bo‘lardi.

An oak is not felled with one stroke –Musulmonchilik – astachilik (maqol).

If two men ride on a horse,one must sit behind – Har bir ishni o‘z ustasi bajarishi kerak.

A cat in gloves catches no mice – Mehnatsiz rohat bo‘lmas, savobsiz jannat; Mehnatsiz ish bitmas; Mehnat qilmay rohat ko‘rmas, urug‘ sepmay ekin o‘rmas.

Raise in the world..... Dunyo ko‘rmay, dunyo kishisi bo‘lmas.

Inson hayoti, turmush tajribalariga ko‘ra:

To send owls to Athens – O‘rmonga o‘tin olib bormoq; Daryo bo‘yidaquduq qazimoq. So‘zma-so‘z tarjimasida *“boyqushlarni Afinaga yuborish”* ma’nosi Yevropa xalqi uchun odatiy ishlatiladigan frazeologizm (ibora) hisoblanadi. Azaldan ma’lumki, boyqush daraxtzor o‘rmonda yashaydi uniAfinaga yuborish bu ahmoqona fikrdir. Ekvivalent variantida o‘zbekcha iboraga tayanib, o‘rmon joyda o‘tib ko‘p bo‘lsa, unga o‘tin ko‘tarib borish – mantiqsizlik ekanini bildiradi. Romanda bu frazeologizm orolga ketayotgan Rojersningnutqidan olingan:

To count one’s chickens before they are hatched – Jo‘jani kuzda sanaydilar; Laylakning ketishiga boqma, kelishiga boq; Olinmagan buzoqqa qoziq qoqma.

Wait for the cat to jump – Vaziyatga qarab o‘zgarmoq (mustaqil fikrga ega emaslik).

Curses like chickens come home to roost – O‘zi qazigan chohga o‘zi tushmoq; o‘zining nayrangiga o‘zi tushmoq; Birovga choh qazima, o‘zing unga tusharsan.

Little stroke fell great aoks – Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitar, besabrlar o‘z oyog‘idan yitar.

Wait and see – Sabr qilmoq, toqat qilmoq; Hayot ko‘rsatadi, tirik bo‘lsak ko‘rarmiz.

A hard nut to crack – Tishi o‘tmaydi, kuchi yetmaydi, qo‘lidan kelmaydi.

When pigs ply –Tuyaning dumi yerga tekkanda, qizil qor yoqqanda, hech qachon; kelasi qovun pishig‘ida.

He killed two birds with one stone – Bir o‘q bilan ikki quyonni o‘ldirmoq.

Axloqiy xususiyatlarga ko‘ra:

The bull must be taken by the horns – Fursatni qo‘ldan bermay, dadillik bilan ishga kirishmoq; asosiy masalani hal qilishga o‘tmoq, shijoat bilan katta, og‘ir ishni boshlab yubormoq.

Gather your rosebuds while you may – Temirni qizig‘ida bos.

The highest tree has the greatest fall –Baland dorga osilma.

All lay loads ob a willing horse – Hamma ishni astoydil ishlaydigan odamga tashlab qo‘ymoq.

What can you expect from a hog but a grunt? – Tarbiyasiz, qo‘pol odamdan hech narsa kutib bo‘lmaydi.

1. Tashqi ko‘rinishiga ko‘ra:

There is no rose without a thorn – Gul tikansiz bo‘lmas, dur sadafsiz.

As like as two peas – Ikki tomchi suvdek o‘xshash; Bir olmaning ikki pallasiday.

Look like a million dollars/bucks – Ajoyib ko‘rinmoq, yaxshi ko‘rinishga ega bo‘lmoq, juda go‘zal.

A rose between two thorns – ikki erkak o‘rtasida o‘tirgan go‘zal ayol (ikki tikan o‘rtasidagi gul).

Frazeologizmlar alohida shakllanganini va komponentlar ko‘p jihatdan oddiy so‘zlardan unchalik farq qilmasligini inobatga olib, tarjimon ularni erkin birikmalar sifatida qabul qiladi va bu ularni so‘z sifatida tarjima qilishga olib keladi. Iboraning mazmunan noto‘g‘ri qabul qilinishi matnning buzilishiga sabab bo‘ladi. Matnda har qanday moslashuv frazeologik shaklga kirishi kerak yoki, judabo‘lmasa, stilistik jihatdan ekspressiv, asl nusxasiga yaqinlashtirilgan holda ifodalanishi kerak.

Xulosa qismi: Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, frazeologizmlarning tarjimasida ularning ma’nosini har doim frazeologizm bilan berishga harakat qilish va bunda ularning obrazlilik xususiyatlarini, albatta, hisobga olish kerak bo‘ladi. Tarjima asarning milliy xususiyatini buzmagan holda originalning milliy xususiyatlarini bera olishi kerak. Frazeologizmlarda tahlil qilingan barcha tarjima ishlari asliyati bilan unchalik mos kelmaydi.

Umuman, tarjima qilinayotgan asarning o‘ziga xosligi, bo‘yoqdorligini saqlab qolish, o‘quvchiga yetkazish vazifasi tarjimon oldiga asarning g‘oyaviymazmuni va badiiy kuchini to‘la ochib berishdan tashqari, asarning milliy ruhi, obrazlar xarakteridagi milliy o‘ziga xoslikni saqlash va o‘quvchiga yetkazish vazifasini ham qo‘yadi. Zero, tarjimalarning milliy o‘ziga xosligi, dastavval, uning

mazmunida, shu asarda aks etgan maishiy hayotning betakror talqini, obrazlarning realligi va tilida ko‘rinadi. Har qanday asarning tilida ifodalangan milliy ruhni berish g‘oyatda mushkul. Chunki har qaysi xalqning tili shu xalqning hayoti bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, uning fikr tarzini aks ettiruvchi frazeologik birliklar, tasviriy ifodalar va maqollarga boyligi bilan o‘ziga xos joziba kasb etadi. Tarjimonning ijodiy mahorati mana shu badiiy ifodalarning milliy rangini yo‘qotmagan holda tasvirlab, uni o‘zga tilda qayta yaratishda namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳамидов Х. Ўзбек қисса ва романлари турк тилида. Монография. – Тошкент: 2022. – С.132.
2. Таржима санъати. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 3-китоб. −Б.223.
3. Саломов Ғ. Ўзбекистонда таржимачилик. – Тошкент: Фан, 1988. – Б.227.
4. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. –С.79.
5. Гарбовский Н.К. Теория перевода. – Ташкент: Издательство Московского университета, 2007. − С. 342.
6. Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте (на материале русского и английского языков) Монография. – Казань., 2006. –С.171
7. Рамазанова Р.М. Структура и семантика фразеологических единиц лакского языка: Дисс. канд. филол. наук. – Махачкала, 2000. – С.18
8. Кузнецова Е.П. Фразеологические единицы со структурой предложения в русском и немецком языках: Дисс.канд. филол. наук. – Майкоп., 2002. − С.92
9. Hamidov Xayrulla. (2024). OYBEKNING “QUTLUG‘ QON” ROMANI TURK TILIDA. *Konferensiyalar | Conferences*, *1*(4), 461–466. Retrieved from https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1826
10. Xayrulla Hamidov. Turk tili frazeologiyasi va o‘zbekcha-turkcha tarjima masalalari. (Monografiya). 2024/1. 232 Bet.
11. Xayrulla Xudoyorovich Hamidov and Arzu Karausta 2023. TERMS RELATING TO JOURNALISM IN TURKISH LANGUAGE AND THEIRTRANSLATION. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS*. 3, 08.05 (May 2023), 71–75.
12. ERGASHEV, D. D. (2023). ANALYSIS OF LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF UNITS IN TRANSLATIONS. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 9, pp. 56-59).

13. Nasretdinova, Mukhlisa Nizometdinovna, and Xamidova Ruxshona. «Methods of Analysizing New Words by Reading Texts.» *European Journal of Higher Education and Academic Advancement* 1 (2023): 22-25.
14. Abdullayeva, Markhabo Raxmonkulovna. «TRANSLATION PROBLEMS OF VERB PHRASEOLOGISMS EXPRESSING NATIONAL COLOR.» *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.Special Issue 25 (2022): 347-352.
15. Teshaboeva, Ziyoda. (2020). Comparative Analysis Of English Translations Of Phrazeological Uniits In «Baburname». 221-235.
16. Тешабоева З. Қ. Бобурнома” нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликларнинг когнитив ва лексикографик тадқиқи. Филол. Фан. доктори (DSc) дисс. автореф. – 2017.

O‘ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘QITISH MUAMMOLARI (TURKIYA TAJRIBASI)

Zilola Xudaybergenova,
Filologiya fanlari doktori, professor
Bartin universiteti, Turkiya
E-mail: zkhudaybergenova@bartin.edu.tr

Annotatsiya: *O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi natijasida dunyoning turli mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘rnatildi. O‘zbekistonda g‘arb va sharq tillarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortishi barobarida chet davlatlarda ham o‘zbek tilini egallash, o‘zbek adabiyoti durdonalarini tarjima qilib tanitishga qaratilgan faoliyat ham boshlandi. O‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari, usullari va muammolari kabi masalalar til o‘qitish sohasi uchun alohida tadqiqot obyekti sifatida maydonga chiqdi. Har bir chet davlatda millatning milliy mentaliteti, milliy dunyoqarashi, o‘zbek tilini o‘qitishning moddiy-texnik ta’minoti bilan bog‘liq holda hal qilinishi zarur bo‘lgan muammolarning yuzaga kelishi tabiiy hol. Mazkur maqolada Turkiyada o‘zbek tilini o‘qitish tajribasi asosida aniqlangan muammolar va ularning yechimi haqidagi fikr-mulohazalar jamlangan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, Turkiya, o‘zbek tilini chet tili sifatida o‘qitish, o‘zbek tili ta’limi, o‘zbek tili ta’limi mazmuni.*

Abstract: *As a result of the independence of Uzbekistan, political, economic and cultural relations were established with various countries of the world. Along with the growing interest in learning western and eastern languages in Uzbekistan, activities aimed at acquiring the Uzbek language and introducing the masterpieces of Uzbek literature in foreign countries have alsostarted. Specific features, methods and problems of teaching the Uzbek language as a foreign language have emerged as a separate research object for the field of language teaching. In every foreign country, it is natural that there are problems that need to be solved in connection with the national mentality of the nation, the national worldview, and the material and technical support of teaching the Uzbek language. This article summarizes the problems identified based on the experience of teaching the Uzbek language in Turkey and opinions about their solutions.*

Key words*: Uzbek language, Turkey, teaching Uzbek as a foreign language, Uzbek language education, content of Uzbek language education.*

Bugungi integratsiya va globallashuv davrida turli o‘lkalar va millatlar orasida insonlararo muloqot uchun bo‘lgan ehtiyojlar borgan sari ortib bormoqda. Zero, chet tilini bilish farqli millatlar vakillari orasida muloqot o‘rnatishning eng muhim shartlaridan biri bo‘lganligi sababli zamonaviy bilim dunyosida insonlarning til o‘rganishga bo‘lgan istagi va qiziqishi sur’at bilan kuchaymoqda. Xususan, so‘nggi paytlarda boshqa xorijiy tillar qatorida o‘zbek tili o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning ham nihoyatda ortganligini e’tirof etmoq darkor. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarida 2016-yildan keyingi yangi davrining boshlanishi, albatta, bu vaziyatning o‘rtaga chiqishiga sabab bo‘ldi.

Bugungi kunda Turkiyada oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili qanday o‘rgatilmoqda? Gapning ochig‘i, yangi vaziyatlar shart-sharoitida xorijiy tilni, bu

holatda esa, o‘zbek tilini o‘rganish uchun yangi bir yondashuvga zarurat borligima’lum bo‘ladi. Chunki dunyo shiddat bilan o‘zgarmoqda, globallashuv jaryoni, ya’ni ekonomik, siyosiy va madaniy integratsiya jamiyatning barcha jabhalarini bosqichma-bosqich qamrab olmoqda. Turli mamlakatlarning tillari va madaniyatlari orasida bir-biriga aralashuv va birlashuv jarayonlari ro‘yobga chiqmoqda. Bu vaziyatda xorijiy til o‘qituvchilari til, madaniyat va xorijiy til dunyo manzarasini o‘rgatish masalasini hal qilish bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Ayni zamonda, farqli madaniyatlar vakillarining o‘zaro samarali muloqotining asosiy shartlari qatorida ikki tarafning o‘zaro anglashishi, o‘zaro hurmat hamda madaniyatlarga nisbatan tolerant bo‘lishi bu qoidalar sirasiga kiradi. Zero, o‘zbek va turk tillari bir til oilasiga mansub bo‘lishiga qaramay, Ye.M.Vereshchaginning fikrigako‘ra: “ikki milliy madaniyat hech bir zamon to‘lalagicha bir-biriga mutanosib bo‘lmaydi, bu holat har bir madaniyatning milliy va millatlararo unsurlardan o‘rtaga chiqadi” [2]. Shu bilan birga, jamiyatning bugungi kundagi taraqqiyoti bosqichida millatlararosi munosabatlar yangi shakllarda amalga oshirilayotganini e’tirof etish lozim. Xususan, e-pochta, Skype, Telegram, What’sApp, Zoom kabi dasturlar orqali ovozli, ko‘rinishli aloqa va matnlarning almashinuvi, sosial xizmatlar, Facebook, Twitter va boshqa o‘z bloglari, sahifalarini yaratish platformalari va yana bir qator turli elektronik aloqa vositalari keng qo‘llanilib bormoqda. Elektronik vositalarning takomillashuvi “aloqaning tabiatini tubdan o‘zgartirgan, kompyuter vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqot shakli”ning rivojlanishiga, “global dunyo” tushunchasining yanada ko‘proq qo‘llanilishiga yo‘l ochdi [4, 15]. Bunday bir davrda o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishning mazmun-mohiyati, vositalariga bo‘lgan talablar ham o‘zgarishi tayin.

O‘zbek tili ta’limining mazmuni uch qismdan tashkil topadi.

Bular:

1. Maqsad: o‘zbek tilini muloqot sifatida o‘rgatishning unsurlari. Bularga lingvistik, so‘zlashuv, sosio-madaniy, kognitiv ko‘nikma va malakalarni kiritishimiz mumkin.

2. Faoliyat: matnni o‘qish, tinglash, yozish va muloqot qilish ko‘nikmalarini qamrab oladi.

3. Ta’lim muhitining xususiyatlari – ta’lim manbalari, moddiy-texnik ta’minot, internet, ijtimoiy sahifalar, elektron pochta va boshqa axborot texnologiya vositalari kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xorijiy tilda muloqot qilish malakasini va bu malakaning unsurlari – lingvistik, so‘zlashuv, sosiomadaniy va kognitiv ko‘nikmalarni shakllantirish, nafaqat o‘zbek

tilini, balki har qanday xorijiy til o‘rganishning maqsadidir. Bu maqsadga erishish uchun til birliklarini o‘rganish, so‘zlashuv, tinglash, o‘qish, yozish ko‘nikmalarini, mintaqaviy, jo‘g‘rofiy va asosiy madaniy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, asosiy muloqot va shaxsiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi uchun kerakli bo‘lgan ma’lumot va ta’lim muhitining yaratilishini taqozo etadi.

Matnning o‘zbek tilini o‘qitilishining bosh birligi sifatida diqqat markazida tutilishi, internetning qo‘llanilishi, ijtimoiy sahifalar va boshqa axborot texnologiyasi vositalari, programmalarining samarali tatbig‘i talablarning xorijiy tilni o‘rganishga motivatsiyasini, ya’ni rag‘batini orttirishga ko‘mak beradi. Masalan, dunyodagi eng so‘nggi voqealar haqidagi xabarlar (sport, madaniyat, siyosat va boshqa sohalarda),til egalarining nutqi (mashhur kishilarning nutqlari, seminarlar, qiziqarli televizon dasturlari, kinolar, video –kliplar va boshqalar) darsning mazmunini boyitadi, bu esa boshqa til, ayni vaziyatda o‘zbek tilini va o‘zbek madaniyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yanada kuchayishiga sabab bo‘ladi.

2. Undoshlarning talaffuzi va yozma shakli o‘rtasidagi farqli jihatlari kuzatib boriladi.

Tinglab tushunish ko‘nikmasi orqali tovushlarning talaffuzi(og‘zaki nutq) va ularing yozuvdagi shakli(yozma nutq) o‘rtasidagi o‘xshash hamda farqli jihatlarini kuzatish bilan birga matn orqali berilgan axborotni qabul qilishlari ya’ni tushunishlari zarur.

Matnga alohida to‘xtaladigan bo‘lsak, boshqa darsdagi matnlardan farqli o‘laroq matn sarlavhasiz berilgan. Buning asosiy sababi o‘quvchi matnni o‘qib tushunishi bilan birga matndagi ma’lumotlardan foydalanib, fikrlarini umumlashtirgan holda unga o‘zi nom berishi kerak. Bu usul avvalo, o‘quvchiga ma’lumotni tahlil qilib, unga mos sarlavha topishga o‘rgatadi. Berilgan matnni qisqa ifodalashga, fikrni ixcham bayon etishga o‘rgatadi. Shuningdek, o‘quvchida matn qanchalik taassurot qoldirganini kuzatamiz, uning ma’lumotlarni to‘plash va saralash orqali mantiqiy to‘g‘ri xulosa chiqara olish ko‘nikmalarini kuzatish mumkin. Berilgan matn tasviriy matn turiga xos bo‘lib, unda Toshkentda usta Shirin loyihasiva g‘oyasi asosida qurilgan Toshkent kuranti haqida ma’lumot berilgan. Matning so‘ngida o‘quvchilarga noma’lum so‘zlarning(ular aslida me’morchilikka oid terminlar) izohi alohida qayd etilgan bo‘lib, o‘quvchilarning keng qamrovli axborotniyaxshi tushunishi uchun xizmat qiladi. Aynan bu ma’lumotdan keyingi darslarda izohli lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish uchun ham foydalanish mumkin. Berilgan topshiriqlardagi ilk vazifa matnga sarlavha qo‘yish orqalima’lumotlarni mustahkamlashdir. Shu sahifada yana quyidagi topshiriqlarini ham ko‘rishimiz mumkin:

2. Toshkent kuranti Toshkentning ramzi hisoblanadi. Shaharning boshqa ramzlarini sanang. Bu topshiriqni biroz tahrirlagan holda viloyatlarga mos qilib aynan o‘zlarining shahar yoki tumanidagi tarixiy obidalarni ham sanashni tavsiya qilamiz. Masalan, Shahrisabzdagi obidalarni sanang; Namangan viloyatida e’tiborga sazovoz qanday inshoatlarni bilasiz kabi topshiriqlar berilishi ham mumkin. Chunki hamma o‘quvchi ham Toshkentga kelmagan bo‘lishi yoki undagi obidalar haqida ma’lumotga ega bo‘lmasligi mumkin. Bu esa o‘quvchini bu mashqqa e’tibor bermay mavzuni o‘zlashtirilmaslik va jarayonning faol ishtirokchisiga aylanmay qolishiga olib keladi. Bu esa bugungi kunda DTS va Milliy o‘quv dasturi talablarini bajarishga monelik qiladi.[2] Shu sababdan o‘quvchilardan aynan o‘z hududiga oid ma’lumotlar so‘ralsa,

[2] 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli farmoni va uning 1-ilovasi

ular bilan bog‘liq topshiriqlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Agar zarurat tug‘ilsa o‘qituvchi aynan Toshkent haqida o‘zi bilgan va o‘quvchilari uchun qiziq, yangi ma’lumotlarni aytib o‘tishi joiz.

3. Ajratilgan so‘zlardagi undosh tovushlar talaffuziga diqqat qiling. O‘pkadan chiqayotgan havo og‘iz bo‘shlig‘ining qayerida to‘siqqa uchrayotganiga e’tibor bering.

Topshiriq orqali o‘quvchilar matnga alohida e’tibor bilan yondashishlari va undagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni tahlil qilishlari kerak. Bu topshiriq orqali o‘quvchilarning grammatik bilimlari mustahkamlanadi. Ya’ni quyi sinflardan boshlab har sinf kesimida (konussimon spiral) kengaytirib borilgan undosh tovushlarga oid bilimlarni qay darajada ekanligini ko‘rishimiz mumkin: a) talaffuz va yozuv o‘rtasidagi munosabatni qay darajada anglaganlarini ko‘ramiz; b)xatolarini to‘g‘irlaymiz, xatolar ustida ishlanadi. Matnda quyidagi so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan: *quyoshga, yodgorlik, shahar markazida, Toshkent, xiyobonida*. Berilgan so‘zlardagi undoshlarning talaffuzi va yozilish qoidalari xususida alohida to‘xtalish zarur. Ayrim o‘quvchilar ***Toshkent*** so‘zini ***Toshken***,***Toshkend*** tarzida; ***xiyobonida*** so‘zini ***hiyobonida***; ***quyoshga*** so‘zini ***quyoshka*** kabi tarzida yozishlari yoki talaffuz qilishlari mumkin. (1-jadval) Bu bilan biz jarangli va jarangsiz undoshlarning so‘z oxirida qo‘llanishi, o‘zakka qo‘shimcha qo‘shilganda asos tarkibida bo‘ladigan o‘zgarishlarga ularning e’tiborini qaratamiz. Yozuvda yo‘l qo‘yiladigan xatolarning oldini olamiz.

T\r	To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
1.	Toshkent	Toshken, Toshkend
2.	Xiyobonida	Hiyobonida
3.	Yodgorlik	Yotgorlik, yodgorlig
4.	Shahar markazida	Shaxar markazida
5.	Quyoshga	Quyoshka

Bundan tashqari aynan mana shu darslikning 162-sahifasidagi 116-darsga berilgan matn xabar mazmunli matnga kiradi. Ya’ni biror voqea-hodisa haqida xabar berish maqsadida tuzilgan yoki havola qilingan matn informativ matn hisoblanadi. Badiiy matnda informativlik o‘ziga xos tarzda bo‘ladi. Oddiy xabardan farq qiladi. Estetik maqsad yuklangan bo‘ladi. Matnda “Ajratilgan so‘zlar ma’nosini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan topib, yozing” topshirig‘i berilgan. Bu usul orqali o‘quvchilar lug‘at va uning turlariga yuzlanishishadi. Aynan izohli lug‘at orqali o‘zlariga notanish bo‘lgan so‘zlar ustida ishlaydi, ularning ma’nolarini bilib oladi.(2-jadval)

T\r	Ajratilgan so‘zlar	Izohli lug‘atdagi ma’nosi
1.	Taxallus	biror ijodkor (shoir, yozuvchi, olim va shu kabi) yoki siyosiy arbobilaning o‘zi uchun tanlab olgan ikkinchi nomi
2.	Timsol	tushuntirish uchun yoki asos, dalil, isbot sifatida keltirilgan ayrim namuna; misol
3.	Mavhum	aql bilan fikr-lash orqali tasavvur etiladigan abstrakt
4.	Afsonaviy	faqat afsonalarda mavjud bo‘lgan, olamda yo‘q, xayoliy.

Dars jarayonida shu kabi topshiriqlarga duch kelamiz. Bunday matnlar bilan ishlashda asosan interfaol metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiq. Bu esa o‘qituvchidan pedagogik mahorat talab qiladi.Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu jarayonda o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga, kerakli ko‘nikma va malakalarni egallashlariga, albatta, nutq o‘stirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Ona tili darslarida “matn bilan o‘qitish texnalogiyasi” orqali ularning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirib borish mumkin. Matnlar orqaliberilayotgan topshiriqlar faqatgina usha matnga tegishligina bo‘lib qolmay, balki berilayotgan mavzuning umumiy mohiyatini ham ochib berishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quvchi nafaqat matn bilan ishlaydi, aksincha berilayotgan topshiriqlar orqali avval egallagan bilimlarini ham mustahkamlashga muvofaq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 5-sinf ona tili darslik., G‘afur G‘ulom nashriyoti, T-2020
2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli farmoni va uning 1-ilovasi
3. Ona tili o‘qitish metodikasi., A.G‘ulomov, M. Qodirov, M.Ernazarova, A.Bobomurodova, N.Alavutdinova, V.Karimova, T-2020
4. Ona tili o‘qitish metodikasi., X.Xaitov, B-2022

MAHMUD KOSHG‘ARIY QIYOSIY TILSHUNOSLIK ASOSCHISI

U.P.Lafasov,
f.f.n., dotsent (TDSHU)
E-mail: lafas1963@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘kuzbeklarning buyuk olimi Mahmud Koshg‘ariyning qiyosiy tilshunoslik sohasiga asos solganligi aytilgan. Tilshunos turkiy so‘zlarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini sharhlaganligi, turkiy tilga xos har bir tovushning talaffuz (fiziologik), eshitilish (akustik) xususiyatlarini izohlaganligi bayon qilingan. Shuningdek tilshunos olim turkiy so‘zlarning til hamda nutq birligi sifatidagi ahamiyatiga alohida to‘xtalganligi, turkiy lahjalardagi termin va lug‘aviy birliklarni, ayrim hollarda ularni o‘zga tillar bilan taqqoslab tahlil qilganligi haqida dalillar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘kuzbeklar, tilshunos Mahmud Koshg‘ariy, “Devonu lug‘atit turk”, qiyosiy tilshunoslik, tovushlar, til birligi, nutq birligi, terminlar, lug‘aviy birliklar.*

Аннотация: *В данной статье освещается деятельность великого узбекского учёного Махмуда Кашгарий, который является основателем сравнительного языкознания. Особое внимание уделяется тому, что лингвист изложил фонетические, лексические и грамматические особенности тюркских слов, произношения (физиологические), слуховые (акустические) особенности каждого звука, характерные для тюркского языка. Автор приводит свидетельства того, что ученый-лингвист уделял особое внимание значению тюркских слов как языковых и речевых единиц, анализировал термины и лексические единицы в тюркских диалектах, в некоторых случаях сравнивая их с другими языками.*

Ключевые слова*: окузбеки, лингвист Махмуд Кашгарий, «Девону Лугатит Тюрк», сравнительное языкознание, звуки, языковая единица, речевая единица, термины, лексические единицы.*

Abstract: *This article mainly talks about the great Okuzbek scientist Mahmud Koshgari, who founded the field of comparative linguistics. Full information is given on how the linguist scientist interpreted the phonetic, lexical and grammatical features of Turkish words. It is stated that the pronunciation (physiological) and hearing (acoustic) characteristics of each sound specific to the Turkish language are explained. The linguist also emphasized the importance of Turkish words as a language and speech unit. There are evidences that he analyzed terms and lexical units in Turkish dialects, in some cases comparing them with other languages.*

Key words*: Okuzbeks, linguist Mahmud Koshgari, “Devonu Lugatit Turk”, comparative linguistics, sounds, language unit, speech unit, terms, lexical units.*

Turkiylarning aslzodasi bo‘lgan o‘kuzbeklarning buyuk tilshunosi ***Mahmud Koshg‘ariy*** (1029-1126) jahon tilshunosligining noyob durdonasi bo‘lgan “*Devonu lug‘atit turk*” (“*Turkiy so‘zlar devoni*”) asarini 1072-yilda bitgan va kitob bizning davrimizgagacha yetib kelgan. Olim “*Javohirun nahv fil-lug‘atit turk*” (“*Turkiy tillar sintaksisining javohirlari*”) nomli asar yozgani haqida ma’lumot bor, ammo kitob haligacha topilgani yo‘q.

Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “*Devonu lug‘atit turk*” tilshunoslik qomusi bilan jahonda birinchi bo‘lib qiyosiy tilshunoslik sohasiga asos solgan[1], yevropaliklar mazkur sohaning mavjudligini yetti asr kech anglab yetishgan. Olim o‘z asaridaYofas (*Tur*) avlodlarining mulk(davlat)i *Turon* ekanligini tasdiqlagan holda *Buyuk Turonning xaritasi*ni chizgan. Yofasning to‘qqiz o‘g‘lidan tarqalgan ellar turlar ekanligini va ular turkiy tilda so‘zlashishini e’tirof etgan. Qadimiy uch bobo til(*turkiy, forsiy, hindiy*)dan bittasi bo‘lgan turkiy tilning o‘zga tillar bilan aloqasi,turkiy til va lahjalarining qiyosiy tasnifini ilmiy asoslagan.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy lug‘aviy birliklarning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini izohlagan. Ayrim so‘zlarining boshqa tillardagi muqobilini ham bergan. Muallif turkiy tilga xos har bir tovushning talaffuz (*fiziologik*), eshitilish (*akustik*) xususiyatlarini sharhlagan. Turkiy tillar unlilar tizimiga asoslanganligi uchun arab yozuvi turlarning tilidagi talaffuz qamrovlarini to‘liq ochib bera olmasligini bayon qilgan. Shu bois tilshunos yozuvda qo‘shimcha belgilar orqali tovushlarning talaffuzdagi holatini aniq ifodalashga harakat qilgan.

Mahmud Koshg‘ariy jahon tilshunosligida ilk bor turlar tilidagi unlilarning cho‘ziq-qisqa, yo‘g‘on-ingichka talaffuzi bilan ma’no nozikliklarini yuzaga keltirishi haqidagi izohlarni bitgan. So‘ng turkiy tilda undoshlarning qattiq-yumshoqligi, jarangli-jarangsizligi, o‘ziga mos tovushni talab qilish holatlarini, bir tovushning ketma-ket kelgan holda ma’noga ta’sir qilishi kabi masalalarning yechimini ko‘rsatib bergan. Hozirgi tilshunoslikdagi *geminatsiya, singormanizm, tovush tushishi va tovush almashishi, assimilyasiya, metateza, reduksiya* singari fonetik hodisalar Mahmud Koshg‘ariy tomonida til ilmida ilk bor asoslab berilgan.

Buyuk tilshunos so‘zning til hamda nutq birligi ekanligini anglagan holda uning ifoda ko‘lamiga, ma’nosiga va lug‘aviy birlik sifatidagi ahamiyatiga alohida-alohida to‘xtalgan. Har bir masalaga mas’uliyat bilan yondashib, ularning yechimiga jiddiy e’tibor qaratgan. Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillar uchun juda muhim hisoblangan **paronimlik** (*at*-hayvon, *a:t*-ism; *altun*-tilla, *altin*-quyi; *azig‘*-ovqat; *asig‘*-foyda; *qurt*-hashorat, *qurut*-yeydigan qurut), **omonimlik** (*qoj(y)*-qo‘y, *qoj(y)*-to‘nning qo‘yni, *qoj*(y)-vodiyning tekis joyi; *toj*(y)-askarjoy, *toj*(y)-sopol idishning loyi, *toj*(y)-“tuy” nomli qush), **sinonimlik** (***turkiy***: *qatun*-aslzoda ayol (Alp Er Tonga//Afrosiyobning qizlariga nisbatan qo‘llangan), *quchuj*-sayyida xotin, *og‘lag‘u*-sayyida xotin, *urag‘ut*-xotin, *kis*-xotin, *tishi*-xotin; yag‘mocha: *kishi*-xotin;barsg‘ancha: *achi*-keksa xotin; turkiy: *sig‘ir*-sigir, *ing*ak-sigir; ***chigilcha***: *ud*-sigir),

[1] Р.Расулов. Умумий тилшунослик (дарслик). – Тошкент: “Фан ва технология маркази”. 2010, 51-бет.

antonimlik (erkak tomon: *ichi*-aka, *ini*-uka; ayol tomon: *aka*-aka, *yurj*-uka; erkak tomon: *eka*-opa, *singil*-singil; ayol tomon: *acha*-opa, *baldiz*-singil) hamda **uyadoshlik** (tikuvchilikka oid atamalar: *j*(y)*igna*-igna, *teman//temana-juvoldiz*, *j*(y)*o‘ksak-angishvona*; mansabga oid atamalar: *xoqon*-Turondagi besh xonlik hukmdori, mulk egasi, *xan*-Turondagi bir xonlik hukmdori, mulk egasi; meva nomlari: *to‘lo‘g ero‘k*-shaftoli, *sarig‘ ero‘k*-o‘rik, *qara ero‘k*-olxo‘ri, *amshuj*-sariq olxo‘ri) masalalariga jiddiy yondashgan holda ilmiy asoslagan.

Sho‘rolar davrida turkiy tillarda paronimlik hamda omonimlik hodisalarining juda muhim ekanligini bilmaslik yoki e’tibor bermaslik natijasida turkiy xalqlar tarixi, etnografiyasiga aloqador ko‘plab qo‘pol va jiddiy xatolarga yo‘l qo‘yilgan. Masalan: *mu**ng**+ul-aslzoda, mu**n**+**g**ul-mongol, altun-tilla, altin-quyi; el-xalq, el-joy, urug‘-elning ma’lum bo‘lagi, urug‘-tabaqa*. Tilshunos olim hozirgi kunda keng o‘rganilayotgan ma’no ko‘chish hodisalari (*metafora, metoniniya, sinekdoxa, vazifadoshlik*)ni aniq farqlagan va misollar bilan izohlab bergan.

Mahmud Koshg‘ariy hindlar asos solgan grammatik nazariyaga ko‘ra so‘z turkumlarini uch (*ism, fe’l, yordamchi so‘zlar*)ga ajratgan, turkiy tilda muhim bo‘lgan fe’l turkumidagi avvaldan ma’lum *nisbat, mayl, zamon, yasalish* masalalarini keng tahlil qilgan. Shuningdek so‘zlarning yumshoq va qattiq talaffuz qilinganda ma’no farqlash masalasini ham izohlangan. Mahmud Koshg‘ariy qiyosiy tilshunoslikka asos solish asnosida quyidagi masalalarga urg‘u bergan:

1. Turlarning tilidagi lug‘aviy birliklarni ***boshqa til oilasiga mansub tillar***dagi ifodalar bilan qiyoslab sharhlagan:

O‘zga til so‘zlarining qiyosiy bayoni				
turkiy tilda	**bulg‘or tilida**	**turkman tilida**	**un tilida**	**kujo tilida**
mum	***awys***[2]	–	–	–
taqag‘u-tovuq	–	***taquq***	–	
toj(y)-sopol	–	–	***kestar***	–
chatir//chachir	–	–	–	***shatir***

2. Turlarning tili va lahjalarida lug‘aviy birliklar orasida ***islom diniga xos terminlar***ning muqobili mavjudligi ko‘rsatgan. Mazkur diniy terminlarning qadimiy, mukammal va asosli ekanligini ham e’tiborga olgan. Ushbu terminlarning turli turkiy lahjalarda o‘zga xos shaklda qo‘llanishini ham izohlagan:

[2] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: “ЎзФан”, 1960. 91-bet.

Islom diniga xos terminlar			
turkiy	**arabiy**	**ruscha**	**inglizcha**
Ulug‘ Tangri, Ezi, Bajat (arg‘ucha)	*Alloh*	*Бог*	*Allah*
J(y)alinguq	*Odam alayhissalom*	*Адам*	*Adam peace be upon him*
j(y)alnguq	*odam*	*человек*	*human*
tabug‘	*ibodat qilish*	*молиться*	*to pray*
j(y)alawaj// yalavach	*rasul*	*пророк*	*messenger*
jek	*shayton*	*сатана*	*the devil*
kirdgo‘ndi	*imon keltirdi*	*верить в бога*	*To believe*
nom	*din va shariat*	*религия и шариат*	*religion and sharia*
junmaq	*tahorat*	*ритуальное омовение*	*ablution*
j(y)o‘ko‘nch (qipchoqcha)	*namoz*	*намаз*	*prayer*
öj(y)la (o‘g‘izcha), özla (qipchoqcha)	*peshin namozi*	*полуденный (пешин) намаз*	*noon prayer*
ikindi	*asr namozi*	*послеобеденный (аср) намаз*	*Asr prayer*
qo‘ydi, boshatti (arg‘ucha)	*taloq berdi*	*дал развод*	*divorce*
tamu//tamug‘	*do‘zax*	*ад*	*Hell*
uchmaq	*jannat*	*рай*	*paradise*
bu ajun (chigilcha) ol ajun (chigilcha)	*bu dunyo u dunyo*	*этот и другой свет*	*this world after life*
j(y)azuq, arinchu	*gunoh*	*грех*	*Sin*
mengiz (odam rangi, bug‘doy rang)	*odam rangi*	*цвет кожи человека*	*color of the skin*
Tengri o‘lukni tirgizdi	*Alloh o‘likni tirgizdi*	*Бог воскресил мертвеца*	*God revived the dead*

3. Turlarning tilidagi ***til ilmiga tegishli lug‘aviy birliklar***ni sharhlagan. Ushbu terminlarning sinonimlari va muqobillarini ham berishga harakat qilgan:

“Devonu lug‘atit turk”da	**Boshqa tildagi tarjimalari**		
turkiy	**forsiy**	**ruscha**	**inglizcha**
***o‘n**-un, tovush*	صدا	*звук*	*sound*
til	زبان	*язык*	*language*
***til**-so‘z*	حرف	*слова*	*words*
***saw**-so‘z*	حرف	*слова*	*words*
***til**-so‘zlar to‘plami*	فرهنگ	*словарь*	*dictionary*
***til**-so‘zlashish*	سخنگو	*речь*	*speech*
***bitik**-yozuv*	نامه	*письмо*	*letter*
***bitik**-tumor (o‘g‘uzcha)*	–	*амулет*	*amulet*
***bilik**-bilim*	دانش	*знание*	*knowledge*
bitmoq	نوشتن	*писать*	*write*
bitik	کتاب	*книга*	*book*
***saw**-otaso‘z*	ضرب المثل	*пословицы*	*proverb*
***saw**-so‘zlashish*	سخنگو	*речь*	*speech*
***saw**-qissa*	داستان	*повесть*	*story*
***saw**-hikoya*	حکایت	*рассказ*	*tale*

4. Turlarning tiliga ***arab tilidan o‘zlashgan ayrim lug‘aviy birliklar***ni tahlil qilar ekan, bu masalaning asl mohiyatini ham ko‘rsatib bergan. Mahmud Koshg‘ariy *tubutlar* Yamandan qochib kelib turklarga qo‘shilgan va bola-chaqa qilgan bir kishidan tarqalgan Banu Sobitning avlodlari[3] ekanligini alohida qayd etgan. Shuningdek tangutlar turklarning bir toifasi hisoblanishi, asli kelib chiqishi arablar[4] ekanligini qayd etgan. Tilshunos ushbu asoslardan so‘ng turlarning tiliga arab tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklarga misol keltirgan:

Turkiyga o‘zga tildan o‘tgan so‘zlarning qiyosiy bayoni	
arabiy	**turkiy**
aba	***ata*** (*ota*), ***aba*** (tubutcha), ***dada*** (o‘g‘uzcha)
uma	***ana*** (*ona*), ***uma*** (tubutcha), ***aba*** (o‘g‘uzcha), ***apa*** (qarluqcha)
ari (asal)	***asal ari***, ***ari yog‘i*** (jikilcha), ***bal*** (qipchoqcha)
askar	***jangchi***
lashkar	***qo‘shin***
mick	***mushk***, ***kun*** (mushk ko‘pigi)

[3] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. 3-том. – Тошкент: “ЎзФан”, 1963. 458-бет.
[4] Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. 3-том. Тошкент: “ЎзФан”, 1963. 458-бет.

5. Turlarning tilidan ***boshqa xalqlarning tillarga o‘zlashtirilgan lug‘aviy birliklar***ni ham izohlagan. Ushbu so‘z va terminlarning keng ommalashgani hamda faol qo‘llanishini qayd etgan. O‘sha lug‘aviy birlikni kitobxon yaxshi anglashi o‘zning fikrini badiiy lavha va hikoyalar bilan mustahkamlagan. Biror shaxs yoki joyga aloqador lug‘aviy birliklar mohiyatini aniq tushuntirishga harakat qilgan:

Turkiydan boshqa tilga o‘tgan so‘zlarning qiyosiy bayoni			
turkiy	**arabiy**	**forsiy**	**uncha**
toj(y)-sopol	–	–	***kestar***
j(y)***alma***-paxtali to‘n	***jalmaq***	***jalma***	–
kanda-maxsus chuqur	***xandaq***	–	–
jara-yomg‘ir yopinchig‘i	***jaraq***	–	–
tag‘-iz	–	***dag‘***	–
tiz-yuqori	–	***diz***	
Alp Er Tonga (***tonga***-yo‘lbars jinsli bir hayvon, filning kushandasi)	–	***Afrasiyob***	–

6. Tilshunos olim turlar so‘zlashadigan ***lahjalardagi to‘liq farqlanuvchilug‘aviy birliklarni*** qiyoslagan. Ushbu so‘zlarning har biriga mas’uliyat bilan yondoshgan holda ifodalarni sinchkovlik bilan jiddiy tahlil qilgan. Ularning ma’nosi, yozilishi va talaffuzidagi farqlarga alohida e’tibor qaratgan. Har birining ma’nosi hamda ifoda ko‘lamiga alohida e’tibor qaratgan holda misollar keltirgan:

Lahjalardagi to‘liq farqlanuvchi so‘zlarning qiyosiy bayoni			
turkiy	***o‘g‘uzcha***	***arg‘ucha***	***chigilcha***
yo‘q	–	*dag‘//zag‘* (yo‘q)	–
qo‘ydi (taloq qildi)	–	*boshatti* (taloq qildi)	–
bek (bek)	–	*tarxon* (bek)	–
kend (shahar)	*kend* (qishloq)	*ulush* (shahar)	*ulush* (qishloq)
–	*ögo‘r* (kunjut)	–	*ko‘ch* (kunjut)
–	*sindu* (qaychi)	–	*qiftu* (qaychi)
–	*chetuk mush* (urg‘ochi mushuk)	–	*kowuk mush* (erkak mushuk)
–	*sen* (oddiy senlash)	–	*siz* (hurmat bilan sizlash)
turkiy	***o‘g‘uzcha***	***qipchoqcha***	***chigilcha***

ari j(y)*og‘i* (asal)	*ari j*(y)*og‘i* (asal)	*bal* (asal)	–
j(y)*alig‘* (otning yoli)	–	*yol//jol* (otning yoli)	–
turkiy	***kanjakcha va xo‘tancha***	***yaboqucha va yamakcha***	***chigilcha***
quburg‘a, uki//ukki (boyqush)	*o‘hu*	*jabaqulaq*	–
turkiy	***o‘g‘uzcha***	***qipchoqcha***	***chigilcha***
azin (bo‘lak)	*azruq* (*bo‘lak*)	–	–
bolg‘a	*cheko‘k* (*bolg‘a*)	–	–
quj(y)ug‘// quzug‘	*chat* (*quduq*)	–	–
qum	*qajir* (*qum*)	–	–
ug (aql)	*sag‘* (*aql*)	–	–
chanchurg‘a (chumchuq)	*secha*	–	–
namat	*kecha*	–	–
echki	*kechi*	–	–
aba (ota)	*dada*	–	–
tewej (tuya)	*dewe* (tuya)	–	–
urq (urug‘)	*boj(y)*-urug‘	–	–
chatir//chachir (chodir)	*j*(*y*)*ashir*	–	–
turkiy	***kanjakcha va xo‘tancha***	***qipchoqcha***	***chigilcha***
ukiz	**h**ukuz	–	–
turkiy	***xalachcha***	***qipchoqcha***	***chigilcha***
q*izim*	**x**izim	–	–
q*anda*	**x**anda	–	–

7. Mahmud Koshg‘ariy turlar so‘zlashadigan ***lahjalardagi tovush orqali farqlanuvchi lug‘aviy birliklarning*** fonetik o‘zgarishlariga e’tibor qaratgan. Tilshunos olim so‘zlarning talaffuzidagi hamda yozilishidagi tafovutlarga jiddiy e’tibor bergan. Tovush o‘zgarishining sabablarini tushunishga harakat qilgan:

Lahjalardagi tovush orqali farqlanuvchi so‘zlarning qiyosiy bayoni			
turkiy	***o‘g‘uzcha***	***qipchoqcha***	***arg‘ucha***

aj(y)*ig‘*-ayiq	*azig‘*	*azig‘*	
bardim-bordim	*bardam*	–	*bardum*
izrik-qattiq narsa	–	–	*irik*
ko‘rindi	–	–	*közo‘ndi*
chog‘i//chug‘i-sotiladigan mol	–	–	*chag‘i*-
qoj(y)-*qo‘y*	–	–	*qon*
yinju-inju	*jinju*	*jinju*	–
yutti-yutti	*jutti*	*jutti*	–
yetti-yetakladi	*jetti*	*jetti*	–
yilig‘-iliq	–	*jilig‘*-iliq	–
qaj(y)u-qaysi	–	*xaysi*-qaysi	–
azriq-giyoh	*ajriq*	–	–
ajaq-idish	*janaq*-idish	–	–
almila-olma	*alma*	–	–
men	*ben*	–	–
chatir//chachir	*j*(*y*)*ashir*-chodir	–	–
tamur-badandagi ter	*tamar*	–	–
qoshni-qo‘shni	*qonshi*	–	–
öngdun-oldindan	*öngin*	–	–
jilik-suyak	*ilik*	–	–
yerdosh-hamshahar	*j(y)erdash*	–	–
bazram-bayram	*mayram*	–	–
ewat-to‘g‘ri	*emat*	–	–
acha-opa, *eka*-opa	*eza*	–	–
kemi-kema	*kimi*	–	–
turkiy	***o‘g‘uzcha***	***qipchoqcha***	***chigilcha***
	bashmaq-to‘piq	*bashmaq*	*bashaq*
yorlig‘-xoqon farmoni	–	–	*j(y)arlig‘*

Xulosa sifatida shuni aytish joizki, butun dunyo til ilmida ilk bor ulug‘ tilshunos Mahmud Koshg‘ariy til va lahjalarni ***qiyosiy*** tarzda o‘rganish sohasiga mukammal ilmiy asarlar yaratish orqali amalda tamal toshi qo‘ydi. Ushbu sohalarni mavjudligi, unga aloqador ilmiy asoslarni yevropaliklar va sho‘ro olimlari 700 yildan keyin anglashgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Расулов Р. Умумий тилшунослик (дарслик). – Тошкент: “Фан ва технология маркази”. 2010, 51-бет.
2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. 1-том. – Тошкент: “ЎзФан”, 1960. 91-bet.
3. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. Уч томлик. 3-том. – Тошкент: “ЎзФан”, 1963. 458-бет.
4. Lafasov U. P. Til nazariyasi (Tilshunoslik). – Тошкент: “TDSHU”, 2023. 132-bet.
5. Lafasov U.P. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Тошкент: “TDSHU”, 2021. 28-bet.

ПУТИ АКТИВИЗАЦИИ МНОГОЗНАЧНОЙ ЛЕКСИКИ РУССКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ СОПОСТАВЛЕНИЯ С РОДНЫМ (УЗБЕКСКИМ) ЯЗЫКОМ УЧАЩИХСЯ

Эльвира Ураева,
Агентство по оценке знаний и квалификаций при Министерстве высшего образования науки и инноваций, кандидат педагогичечских наук
E-mail: e.uraeva@дтм.uz

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы обучения многозначности – одного из неотъемлемых признаков естественного языка.*

Необходимость обогащения речи многозначными словами при обучении языкам обусловлена требованиями коммуникативности обучения, природой многозначных слов, использование которых способствует углублению знания языка и умениям употреблять слова во всем их многообразии.

При усвоении семантики многозначного слова обучаемые сталкиваются наряду со сложностями русского языка с трудностями, обусловленными влиянием одной языковой системы на другую. Поэтому учет данных сопоставительного анализа лексических систем русского и узбекского языков – одно из необходимых условий выработки оптимальной методики раскрытия значения многозначных единиц и их активизации вречи.

Важным основанием лингвистической базы методики обучения в группах с узбекским языком обучения русской многозначной лексике (наряду с учетом специфических особенностей и своеобразия данного пласта лексики в системе самого русского языка) является опора на данные сопоставительного анализа явления полисемии в русском и узбекском языках. Разработка вопросов обучения правильному, точному восприятию и употреблению различных значений многозначного слова неразрывно связана с предварительным выявлением сходства – расхождения в объеме значений активизируемых многозначных русских слов и их значений в родном языке учащихся.

В статье делается акцент на максимальном учете как явления транспозиции, так и интерференции в сопоставляемых языках и выработке эффективных методических средств по преодолению возникающих специфических трудностей при усвоении многозначной лексики.

Ключевые слова: *многозначность, эмоционально-экспрессивная оценка, коммуникативность, семантика, сопоставление, соподчиненность, тип, эквивалент, иерархия, восприятие, воспроизведение, сходство, расхождение.*

Annotatsiya: *Maqolada tabiiy tilning ajralmas belgilaridan biri bo‘lgan polisemiyani o‘rgatish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Tillarni o‘qitishda nutqni ko‘p ma’noli so‘zlar bilan boyitish zarurati ta’limning kommunikativligi talablari, ko‘p ma’noli so‘zlarning tabiati bilan bog‘liq bo‘lib, ulardan foydalanish til bilimlarini chuqurlashtirishga va so‘zlarni barcha xilma-xillikda ishlatish qobiliyatiga yordam beradi.

Rus ko‘p ma’noli leksikasini o‘zbek tili guruhlarida o‘qitish metodologiyasining lingvistik bazasining muhim asosi (rus tili tizimidagi ushbu leksikaning o‘ziga xos xususiyatlari va o‘ziga

xosligini hisobga olgan holda) rus va o‘zbek tillaridagi polisemiya hodisasini qiyosiy tahlil qilish ma’lumotlariga tayanishdir.

Maqolada taqqoslanadigan tillarda transpozitsiya va interferentsiya hodisalarini maksimal darajada hisobga olish va ko‘p ma’noli so‘z boyligini o‘zlashtirishda yuzaga keladigan o‘ziga xos qiyinchiliklarni yengish uchun samarali uslubiy vositalarni ishlab chiqishga e’tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *polisemiya, hissiy-ekspressiv baholash, kommunikativlik, semantika, taqqoslash, bo'ysunish, tur, ekvivalent, ierarxiya, idrok, ko'payish, o'xshashlik, kelishmovchilik.*

Annotatsiya: *The article addresses issues related to teaching polysemy - one of the inherent features of natural language. The necessity of enriching speech with polysemantic words in language instruction is driven by the communicative requirements of education, the nature of polysemous words, the use of which contributes to a deeper understanding of language and the ability to use words in all their diversity.*

An important foundation of the linguistic methodology for teaching Russian polysemous vocabulary in groups with Uzbek as the language of instruction (considering the specific features and uniqueness of this lexical layer within the Russian language system) is based on the data of comparative analysis of polysemy in Russian and Uzbek languages.

The article emphasizes maximizing consideration of both transposition and interference phenomena in the compared languages and developing effective methodological tools to overcome specific difficulties in acquiring polysemous vocabulary.

Keywords: *ambiguity, emotional and expressive assessment, communication, semantics, comparison, subordination, type, equivalent, hierarchy, perception, reproduction, similarity, divergence.*

При обучении языкам в формировании умений употреблять слово с учетом смысловых и стилистических качеств, законов сочетаемости особая роль принадлежит уяснению многозначности – одного из неотъемлемых признаков естественного языка. От правильного выбора того или иного значения многозначного слова для точной характеристики отдельных явлений действительности и взаимоотношений между ними, а также эмоционально-экспрессивной оценки зависят ясность и четкость содержания высказывания, его выразителность и сила воздействия на собеседника, читателя.

Необходимость обогащения речи многозначными словами при обучении языкам обусловлена требованиями коммуникативности обучения, природой многозначных слов, использование которых способствует углублению знания языка и оперированию словом во всем его многообразии.

Одним из признаков естественного языка является многоплановость его единиц, находящая своё отражение в полисемантичности значительной части элементов лексической системы языка, что является одной из проблем при обучении неродному языку.

Полисемия не нарушает закона единства слова и понятия. В то же время многозначность – это ярчайшее доказательство того, что основу значения

слова составляет понятийное содержание, которое является его источником и базой.

Внутренняя смысловая сторона языка наиболее подвижна. Она теснеевсего контактирует с процессом речевой коммуникации, содержание которой определяется бесконечным многообразием ситуаций общения, что и необходимо учитывать при обучении языку.

Многозначное слово – это система значений и подзначений, закономерно связанных как между собой, так и со значениями других слов. Установить смысловой объем какого-либо слова – значит выявить совокупность разных его значений, частоту их употребления, широту использования, а также единство самих этих значений в пределах данного слова и границу каждого из них. Семантическое единство слова заключается, прежде всего, в определении связи отдельных значений друг с другом. Следует подчеркнуть, что значения не утрачивают своей самостоятельности, а лишь «осложняются» в результате взаимодействия со значениями других слов.

Из вышеизложенного можно сделать следующий методический вывод: описание многозначного слова как системы соподчиненных значений [основных (прямых) и производных (переносных)] дает возможность раскрыть в процессе обучения их связи и отношения как исходную базу для свободной ориентации обучаемых в лексике русского языка, в способах обозначения понятий и приемах переноса и переосмысления слов. Последнее имеет непосредственное отношение к решению задачи качественного обогащения словарного запаса обучаемых, в том числе и на материале глагольной полисемии, отличающейся от многозначности других частей речи более широким кругом и подвижностью значений.

Рациональная методика преподавания русского языка может быть построена только на основе прочной лингвистической базы, одним из оснований которой являются результаты сопоставительного изучения языков, выявления грамматических и лексических трудностей, вытекающих из сравнителного анализа языковых факторов.

Сопоставительный метод дает возможность преподавателю предсказатьте трудности, с которыми можно встретиться при обучении языку и на этой основе разработать соответствующие приемы работы.

Как показывает наш опыт работы, опора на родной язык действительно помогает учащемуся при выявлении сходных языковых явлений легче

усваивать материал по аналогии, а в случаях расхождения – предупреждать ошибки, связанные с языковой интерференцией.

Следовательно, межъязыковые сопоставления содействуют учету положительного переноса и отрицательной интерференции и тем самым дают возможность разработать соответствующие приемы работы.

Сопоставляя факты разных языков, легко заметить, что нередко лексическое значение одного языка не находит себе лексического эквивалента в другом языке и его содержание передается описанием. С отмеченными различиями связан и различия в объеме значений.

Многозначность слов одного языка становится особенно ощутимой, когда этот язык изучается как неродной, поскольку слова в разных языках имеют имеют присущие природе этих языков законы функционирования, которые в каждом конкретном случае индивидуальны и разнообразны.

В связи с этим явление полисемии представляет собой одну из объективных трудностей изучения лексики русского языка в группах с узбекским языком обучения. При усвоении семантики многозначного слова они сталкиваются наряду со сложностями русского языка с трудностями, обусловленными влиянием одной языковой системы на другую.

В работе с многозначной лексикой, в частности с глагольной, очень важен момент определения сходства и расхождения в объеме значений тех илииных многозначных русских слов и их эквивалентов в родном языкеобучаемых.

В процессе восприятия и воспроизведения изучаемых языковых явлений обучающиеся, естественно, опираются на свой опыт, сформировавшийся у них на основе родного языка, лексика которого значительно отличается от лексики русского языка по своим семантическим закономерностям и средствам их выражения. Поэтому учет данных сопоставительного анализа лексических систем русского и узбекского языков – одно из необходимых условий выработки оптимальной методики раскрытия значения многозначных единиц и их активизации в речи.

Практика работы преподавателей-словесников и наш личный опытработы подтверждают, что сознательное рассмотрение языков, изучение лексико-семантических групп в русском и узбекском языках, помогают более глубоко раскрыть семантику и фунциональное своеобразие словарного составакаждого из сопоставляемых языков. Это тот случай, когда по мнению

Е.Д.Поливанова, «привлечение фактов родного языка дает положительные результаты».

Знание лексико-семантических расхождений в русском и родном языках дает возможность учащимся не только отталкиваться от родного языка, но и опираться на него. Кроме того, по нашему глубокому убеждению, слова методически целесообразно сопоставлять не только в прямом, но и переносном значениях.

При употреблении многозначных слов русского языка обучающиеся часто сводят сложную систему отношений между полисемией изучаемого языка и её эквивалентом в узбекском языке к простейшей схеме «один кодному».

Отсюда следует вывод, что в учебном процессе наряду с совпадающими лексико-грамматическими вариантами (ЛСВ) многозначных слов в русском и узбекском языках необходимо фиксировать и те, которые могут вызвать неадекватную реакцию у нерусского обучаемого.

Исследователи многозначности (М.А.Исмаилова, М.Х.Тохтаходжаева, У.Ш.Турсунова, Р.Д.Джумаев, М.Р.Саттарова и др.) выявляют четыре типа семантических соответствий и расхождений русских и узбекских многозначных глаголов.

1-ый тип – слова с частичным расхождением объемов соотнесенных слов.

Данный тип имеет две разновидности:

1) слова с большим числом значений в русском языке, чем в родном (н-р., выбрать – танламок, направить-йўлламоқ и др.);
2) слова, имеющие меньшее число значений в русском языке, чем в родном (открывать – очмоқ, задевать- тегмоқ, ждать-кутмоқ и др.).

2-ый тип – слова с разными способами выражения одних и тех же значений в сопоставляемых языках.

Данный тип имеет два самостоятельных подвида:

1) значения многозначного узбекского слова выражено в русском языке одним словом (унифицированно), а в узбекском – несколькими словами (дифференцированно):

двери – эшиқ тутқичи
ножа – пичоқ сопи (дастаси)
ручка:
портфеля – портфель банди
кресла – кресло ёни (суянчиғи)

2) расхождения в способах выражения характерны не только для отдельных значений многозначных слов, но и для самих слов.

Данный факт позволяет выделить ещё один особый разряд лексики, в котором разным русским словам в узбекском языке соответствует одно слово. К данному подвиду относится большинство многозначных глаголов:

брать — олмоқ
получать — олмоқ

прийти — келмоқ
приехать — келмоқ

3-й тип – слова с полным расхождением в объеме значений и способах их выражения.

Анализируемый тип разделяется на два подвида:

1) с полным несовпадением значений одинаково или близко звучащих слов:

алыча (дерево) — олча (узб.) — вишня (дерево)
алыча (плод) — алыча (рус.) — вишня (плод)

2) с полным расхождением в объемах значений и способах их выражения в двух языках:

не впустить — тутмоқ
отстранить — ЗАДЕРЖАТЬ — кечиктирмоқ
арестовать — ушлаб олмоқ

4-ый тип – слова с полным совпадением объемов значений и способов их выражения.

Этот тип многозначных билексем наглядно представлен во многих академических русско-национальных словарях. Так, например, глагол *работать* во всех его значениях и многообразных оттенках значений может быть представлен в узбекском языке одним эквивалентом – глаголом *ишламоқ,* что свидетельствует о совпадении значений в них.

Итак, важным основанием лингвистической базы методики обучения в группах с узбекским языком обучения русской многозначной лексике (наряду с учетом специфических особенностей и своеобразия данного пласта лексики в системе самого русского языка) является опора на данные сопоставительного анализа явления полисемии в русском и узбекском языках. Разработка вопросов обучения правильному, точному восприятию и употреблению различных значений многозначного слова неразрывно связана с

предварительным выявлением сходства – расхождения в объеме значений активизируемых многозначных русских слов и их значений в родном языке учащихся.

Наша задача при этом – максимально учесть как явления транспозиции, так и интерференции в сопоставляемых языках и с помощью эффективных методических средств помочь обучаемым преодолеть возникающие специфические трудности при усвоении многозначной лексики.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Данильченко С.Л. Комплексная система оценки качества образования как совокупность организационной структуры, методик, процессов и ресурсов // Международный журнал экспериментального образования. – 2017. – № 3-2. – С. 179-184.
2. Звонников В.И., Челышкова М.Б. Контроль качества обучения при аттестации: компетентностный подход. – М.: Университетская книга, Логос, 2009. – 272 с.
3. Зализняк А.А. Феномен многозначности и способы его описания // Вопросы языкознания. 2004.№2. С.20-45.
4. Карпенко А.С. Развитие многозначной логики. Изд. 3-е, перераб. И доп. М.:издательство ЛКИЮ, 2010.- 448 с.
5. Решетникова О.А., Демидова М.Ю. Новые подходы к разработке контрольно-измерительных материалов // Народное образование. №9. 2015.
6. Рогозная Н.Т. Типология лингвистической интерференции в русской речи иностранцев (На материале разноструктурных языков) : Дис д-ра филол. наук : 10.02.01 : Москва, 2003 381 с. РГБ ОД, 71:04-10/14
7. Douglas, Dan. Understanding Language Testing. London – New York, 2010.
8. ETS Standards For Quality And Fairness. Educational Testing Service, Princeton,1987.

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATI HAQIDA

Asadov To‘lqin,
Buxoro davlat universiteti,
o‘zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi dotsenti, f.f.n.

Jasmina Hamroyeva,
Buxoro davlat universiteti,
Filologiya fakulteti, 4-kurs talabasi.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada frazeologik birliklar, ularning qiyosiy tahlili, ayrim frzeologik birliklarning etimologiyasi, semantik-funksional vazifalari tadqiq qilingan. Shuningdek, etnofrazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari rus va turk tillari misollari bilan qiyoslangan holda tahlil etilgan, lingvokulturologiyaning nazariy jihatlari haqida ma’lumotlar berilgan, ma’lum bir xulosalar chiqarilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, frazeologiya, etnofrazema, milliy urf-odatlar, madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati, til tarixi, etnos.*

Аннотация*. В данной статье изучаются фразеологизмы, проводится их сопоставительный анализ, рассматриваются этимология некоторых фразеологизмов и их семантико-функциональные задачи. Также были проанализированы лингвокультурные характеристики этнофразеологизмов путем сравнения их с примерами из русского и турецкого языков, дана информация о теоретических аспектах лингвокультурологии и сделаны определенные выводы.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, фразеология, этнофраза, национальные традиции, история культуры, узбекская культура, история языка, этнос.*

Annotation*. This article explores phraseological units, their comparative analysis, etymology of some phraseological units, semantic and functional features. Also, linguocultural features of ethnophraseological units are analyzed by comparing Russian and Turkish examples, information about theoretical aspects of linguoculturology is given, and certain conclusions are made.*

Key words: *linguoculturology, phraseology, ethnophraseme, national customs, cultural history, Uzbek culture, language history, ethnicity*

KIRISH. Lingvokulturologiya yo‘nalishining shakllanishi haqida so‘z borar ekan, tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta’kidlaydilar[3]. Tilshunoslikda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, U.D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol o‘ynaganligi ta’kidlanadi[5].

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu borada bir qancha o‘quv qo‘llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e’tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanma hisoblanadi[4]. Mazkur o‘quv qo‘llanmada

lingvokulturologiya sohasining metodlari, obyekti va predmeti, yo‘nalishlari yoritib berilgan, muyyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko‘rsatilgan. “Til va madaniyat” masalasi ko‘p qirrali bo‘lib, unga tarixchi, tilshunos, faylasuf, psixolog, etnograf va adabiyotshunos turlicha yondashadi. Til va madaniyat aloqadorligi, madaniy belgilar, mental xususiyatlarning tilda ifodalanish darajasini *lingvokulturologiya* o‘rganadi.

O‘zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning nazariy masalalari borasida ham ishlar amalga oshirildi[3;7;8]. Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: “Til va madaniyat deganda, ko‘pincha, “nutq madaniyati” deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o‘rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko‘rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o‘rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo‘lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma’nosi “aqliy-ma’naviy yoki xo‘jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)” emas, balki “kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy hayotida qo‘lga kiritgan yutuqlari majmuyi (*madaniyat tarixi, o‘zbek madaniyati*)” demakdir.Shunday bo‘lgach, nutq madaniyatining o‘rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o‘rganish obyekti tamoman boshqadir”[3,10].

Shuningdek, tilshunos olima D.Xudoyberganovaning “Matnning antroposentrik tadqiqi”monografiyasida o‘zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlari ham ma’lum ma’noda o‘rganilgan[8]. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o‘rni, o‘xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o‘rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e’tibor berildi.

Lingvokulturologiyaning tadqiqot yo‘nalishlari o‘z obyekti va predmetiga, maqsad, vazifalariga ega[7].

ASOSIY QISM. Har bir xalq, millatning o‘z milliy an’analari, hayot tarzi bilan bog‘liq qadriyat va urf-odatlari mavjud bo‘lib, ularni asrab-avaylash, kezi kelganda uni targ‘ib etish borasidagi ishlarga ahamiyat qaratilmog‘i lozim. Xususan, tilga antroposentrik paradigma nuqtayi nazardan yondashish va bu paradigma

sohalaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiya va uning tadqiqiga bo‘lgan qiziqish ko‘pgina hodisalarni til va madaniyat uyg‘unligida qayta ko‘rib chiqish imkoniyatlarini ham yaratdi. Jumladan, barqaror birliklar va ularning tub o‘zagini tashkil etadigan frazemalarni yangi bosqichga olib chiqdi, desak yanglishmaymiz.

Har qanday madaniy belgilar shu xalq tili orqali namoyon bo‘ladi. Xususan, iboralarda lingvomadaniy belgilar ifodasi boshqa hodisalarga nisbatan kuchliroq bo‘ladi. Buning sababi shundaki, birinchidan, ibora kamida ikki so‘zdan iborat bo‘lib, bunday birlik, ya’ni so‘z birikmasi yoki gap holidagi jumla so‘zga nisbatan muayyan bir holatni, tasvirni yaqqolroq ko‘rsata oladi. Ikkinchidan, ibora, odatda, xalq turmush tarzi bilan o‘ta uyg‘un, ya’ni yonma-yon hayot kechiradi. Xalq turmushiningtarkibiy qismi, qolaversa, nisbatan qadimiy bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, frazeologik birliklar har bir xalq lingvomadaniy birligining tub obyektini tashkil qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu nuqtayi nazardan frazeologik birliklar *etnofrazemalar* nomi ostida ham o‘rganiladi. Negaki mazkur birliklarda ma’lum bir elatning etnosiga tegishli lisoniy birliklari mavjud bo‘ladi. Bu lisoniy birliklar shu xalq turmush tarzi, urf-odati, qadriyatlarining tarkibiy qismi sanaladi. Til tafakkur mahsuli ekan, albatta, shu til egalari yaratiq mahsuli bo‘lgan maqol, matal, ibora, naql, hikmatlarida o‘z mentaliteti, urf-odatlaridan kelib chiqib, o‘z qadriyatining voqeligi bo‘lgan “so‘z”dan foydalanadi.

O‘zbek tili lug‘at qatlami frazeologik birliklarga boy[6]. Milliy frazeologizmlar ma’lum bir millatning madaniyati, urf-odatlari, o‘ziga xos udumlari kabilarni yorituvchi va xalqlar hayoti, dunyoqarash va turmush tarzini, etik va estetik normalarini ifodalaydi. Milliy frazeologizmlar xalqning ijtimoiy-siyosiy va maishiy hayotini, xarakter-xislatlarini…, flora, faunasini, millatga xos urf-odat hamda marosimlarini ifoda etadi[2,25]. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlariga bag‘ishlangan Z.Jumayevaning “Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi” nomli ishida yuqoridagi fikrlarimizga hamohang tarzda shunday fikr keltiriladi: “Ishga cho‘loq, oshga qo‘noq” iborasining rus tilidagi muqobili sifatida ”A gde щi tut nas iщi” frazemasi keltiriladi. Frazeologiyadagi oziq-ovqat komponenti madaniy kodni belgilash tamoyiliga ko‘ra bir xil, teng tushunchani hosil qiladi. “Osh” bu yerda nafaqat yemak ma’nosida, balki milliy taomimiz sifatida ham belgilangan zaruriy mazmunni yoritib berish uchun xizmat qiladi. Shi (щi) ham ruslarning qadimiy milliy taomidir”[2,15]. Albatta, har bir xalqqa xos etnofrazemalar mavjud bo‘lib, ular shu xalq etnosini o‘zida namoyon eta oladi. Shu nuqtayi nazardan etnofrazemalarning til tarixi, milliy tilni o‘rganishimizdagi ahamiyati yuqori. O‘zbek xalqi uchun *do‘ppisi yarimta, kovushini to‘g‘rilab qo‘ymoq, oshga pashsha tushmoq,*

mahsi kiymoq, ro‘mol o‘ramoq, to‘nini teskari kiymoq, moshxo‘rdaga qatiq bo‘lmoq, choponi yelkasida, ataladan suyak chiqmoq, atlas ko‘ylakka bo‘z yamoq, holva degan bilan og‘iz chuchimaydi kabi etnofrazemalarda *do‘ppi, kovush, osh, mahsi, ro‘mol, to‘n, moshxo‘rda, chopon, atala/ adras, holva* va b.lar o‘zbek millatiga xos tarixiy so‘zlar – millatimizning etnosiga xos lisoniy birliklardir.

O‘zbek xalqi uchun madaniy kodlardan biri “do‘ppi” bo‘lsa, rus tilida bu kod, odatda, “shapka” so‘zi orqali ifoda etiladi. Masalan, o‘zbek va rus tili iboralari qiyoslanganda[1] o‘zbekcha *do‘ppi* so‘zi qo‘llangan frazeologik birliklarning rus tilidagi muqobili sifatida quyidagilar keltirilganligiga guvoh bo‘lamiz: bosh yorilsa, do‘ppi ostida, qo‘l sinsa, yeng ichida – ne vынosi sor iz izbы, do‘ppisini ol desa, kallasini oladi – peregnut palku, do‘ppini olib qo‘yib o‘ylamoq – shevelit mozgami, do‘ppisi yarimta – dela idut, kontora pishet. Albatta, mazkur misollar har ikkala tildagi integral ma’nolari bilangina umumiylik hosil qiladi. Ammo “bosh yorilsa, do‘ppi ostida, qo‘l sinsa, yeng ichida” etnofrazemasini rus tiliga aynan tarjima qilsak, “yesli raskoletsya golova, to pod shapkoy, yesli slomayetsya ruka, to pod rukavom” tarzida bo‘ladi[1,27]. Bilamizki, frazeologik birliklarni to‘g‘ridan to‘g‘ri bir tildan ikkinchi tilga o‘girish o‘zini oqlamaydi.

O‘zbek xalqi orasida kiyim-kechak bilan bog‘liq do‘ppisini osmonga otmoq, oyog‘ini bir etikka tiqib olmoq, do‘ppisi yarimta, do‘ppi tor kelmoq, bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan, paytavasiga qurt tushmoq kabilar keng qo‘llanadi. Bular ma’lum bir vaziyatda qo‘llanishi bilan alohidalik kasb etadi. Masalan, do‘ppisini osmonga otmoq iborasi inson (o‘zbek xalqi)ning ruhiy holati bilan bog‘liq. Bu ko‘pgina xalqlarga xos xususiyat aslida. Sh.Shomaqsudov ta’kidlaganidek, har bir xalqda o‘z shodligini bildirish maqsadida bosh kiyimini osmonga irg‘itish odati bor[11,53]. Aniqrog‘i,inson to‘satdan xushxabar eshitsa, shu xursandchiligi ifodasi uchun do‘ppisini boshidan olib, osmonga irg‘itadi. Bu oniy bir jarayon bo‘lib, kutilmaganda sodir bo‘ladi. Bunda insondan katta kuch talab etilmaydi. Aytmoqchimizki, favqulodda xursandchilikda kishi o‘z hayajonini do‘ppisi (umuman bosh kiyimi)ni irg‘itish bilan bosgandek bo‘ladi.

Kovushi ko‘chada qolmoq iborasi ham xalq turmushi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan. Bu ibora “birovlar e’tibori, nazaridan chetda qolgan holat” ma’no ifodasiga ega. O‘tmishda kovush kishi hayoti uchun muhim o‘ringa ega bo‘lgan, uning ko‘chada qolishi noodatiy hol hisoblangan. Mana shu haqiqat mazkur iboraning yuzaga kelishiga mantiqiy asos bo‘lgan bo‘lsa, ajab emas.

Do‘ppisi yarimta etnofrazemasining kelib chiqishi haqida shunday ma’lumot keltiriladi: “Ilgari vaqtlarda haddan tashqari xursand bo‘lib yurgan chapani odam

do‘ppisini yarim qaytoqi qilib, boshiga qo‘ndirib yurardi. Bu bilan o‘zining vaqti chog‘ligini bildirardi. Do‘ppini yarimta qilib yuradiganlar uy-ro‘zg‘or, bola-chaqa tashvishi tushmagan, bo‘ydoq, o‘spirin yigitlar o‘rtasida ko‘p bo‘lardi”[11,53]. Yoki do‘ppini yechib, irimigagina qoqib qayta boshga qo‘ndirish holati ham mavjud. Xuddi shunga o‘xshash holat boshqa xalqlarda ham kuzatilib qoladi. Masalan, shapkaasosiy bosh kiyim sanalgan xalqlarda (masalan, rus millatida) quvonchli onning ifodasi sifatida qo‘l bilan shapkani boshning old qismi – peshonaga qarab siljitish holati uchraydi.

Umuman, frazeologik birliklarni tillararo o‘zaro qiyoslaganda muayyan bir iboraning milliylik ko‘rsatkichi yorqinroq anglashiladi. Qolaversa, mazkur etnofrazemalarda qo‘llangan hamda milliylik ifodasini yaqqol ifoda etuvchi lisoniy birliklar (realiyalar) shu etnofrazemaning stimul so‘zi (mantiqiy urg‘uga ega so‘z) vazifasida keladi. Bu kabi (to‘n, chopon, kovush, atlas, adras, osh, palov, atala,belbog‘, mahsi, non, dasturxon va h.k.) leksemalar mentalitetimizning o‘ziga xos lingvokulturologik jihatlarini o‘zida umumlashtirgan bo‘ladi. Masalan, *yeng uchida, yeng shimirib* kabi etnofrazemalarning yuzaga kelishi ham muayyan bir madaniy belgilar – urf-odatlarimiz bilan bog‘liq. Ularning kelib chiqishi turmush tarzimizbilan bog‘liq bo‘lgan, ya’ni momolarimiz miliy kiyim sifatida uzun, yengli ko‘ylak ustidan kamzul, mursaklar kiyishgan. *Mursak* yengli ko‘ylak ustidan kiyiladigan ustki, yengsiz milliy kiyim bo‘lgan[10,646]. O‘zbek ayollari o‘tmishda yengilroq ish bilan mashg‘ul bo‘lganda yenglarini shimarmasdan, ya’ni qo‘l uchida bajarishgan, bunda yeng shimarishga zarurat bo‘lmagan. Ammo mas’uliyatli, e’tibortalab ishga kirishganlarida, albatta, yenglarini tirsaklarigacha shimarib olishgan. Provardida “qo‘l uchida”, “yeng shimarib” kabi etnofrazemalarning yuzaga kelishiga shart- sharoit yuzaga kelgan.

Mahsi kiymoq etnofrazemasi o‘zbek xalqi, umuman, Markaziy Osiyo ayollari uchun turmushga chiqmoq ma’no ifodasiga teng keladi. Bu so‘z etimologiyasigako‘ra, arabcha *mahs* so‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, “bo‘yamoq, surtmoq, yog‘lamoq” ma’nosini ifodalaydi. Oyoq kiyimining bunday nomlanishi unga “mahs tortish” mumkin bo‘lganidandir. *Mahs* so‘ziga nisbat qo‘shimchasi -*i* ning qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan mahsi so‘zi arab tilining o‘zida mavjud emas[9,98]. Turmushga chiqqan qizning kuyov xonadoniga milliy kiyimimiz, ya’ni mahsida kirib borishi ham “mahsi kiymoq” etnofrazemasining paydo bo‘lishiga asos bo‘lgan.

Ma’lumki, har bir xalqning frazeologik birliklari shu xalq tafakkuri, dunyoqarashi, bilim darajasi bilan ham belgilanadi. Muayyan bir xalqning frazeologik birliklarini o‘rganish bilan shu xalq tarixi, etnolingvistikasi, madaniy-

ma’rifiy salohiyatiga ham baho berib bo‘ladi. Masalan, tarixiy ildizlari bir bo‘lgan o‘zbek va turk tillarining frazeologik birliklari qiyoslanganda quyidagi iboralarning o‘zbek tili lug‘at qatlamida uchramasligi kuizatildi: *dunyo uyiga kirmoq (turmush qurmoq), echki qochirmoq (ruhi buzilmoq, aqli qochmoq), boshi portlamoq (bir masalani ko‘p o‘ylamoq), daraxt bo‘lmoq (ko‘p kutib charchamoq), o‘zini dev oynasida ko‘rmoq (o‘zini kuchli deb hisoblamoq), to‘rvaga kaklik (o‘ta oson kechgan ish), og‘zingni to‘pla (suhbatga diqqatli bo‘lmoq), dori yutmoq (qo‘rqinch bilan yashamoq), kallani dazmollamoq (lof urmoq) va h.k.*

XULOSA. Etnofrazemalar har bir xalqning tarixi, maishiy hayoti, milliy-madaniy jihatlarini aks ettiruvchi majoziy ma’nodagi muhim lisoniy birliklar sanaladi. Ularning aksariyati qabilachilik davridanoq shakllanib ulgurgan. Ularda maqollarda bo‘lganidek, umumlashgan xulosalar ifoda etiladi. Biroq frazeologik birliklarda milliylik, umumxalq ahamiyatiga daxldorlik ko‘proq kuzatiladi. Ular xalqimizning muhim ma’naviy boyligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduraxmonov M. Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – T.:O‘qituvchi, 1980.
2. Jumayeva Z. Frazeologik birliklarning semantik va lingvokulturologik tadqiqi. Fil. fan. fals. dok. (PhD) diss. avtoref. – Jizzax, 2021.
3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo‘llarini izlab... // O‘zbek tili va adabiyoti. – T., 2012. 5-son, 3-16-b.
4. Maslova V.A. Lingvokulturologiya: Ucheb. posobiye. – M.: Academia, 2001. Maslova V.V. Lingvokulturologiya v sisteme gumanitarnogo znaniya/ Kritika i semiotika. Vыp. 7. 2004. – S. 238-243.
5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati.–T.:Fan, 1964.
6. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – T., 2018.
7. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya.–T. Fan, 2013.
8. Xo‘janazarova U. Badiiy matnda etnomadaniyatni ifodalovchi kiyim-kechak nomlari qo‘llanishi // Yangi O‘zbekiston talabalari axborotnomasi. –T., 2023, aprel soni. 97-101-b.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli. –T.: O‘zb.milliy ens.si, 2006-2008.
10. Shomaqsudov Sh., Dolimov S. Keng uyning kelinchagi. –T.: O‘zb. davlat badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.

O‘ZBEK TILIDAN O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Nigora Umarova,
Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti,
“O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri
v.b., p.f.n., dotsent
E-mail: **umarovanigora22@gmail.com**

Annotatsiya. *Maqola o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganish masalalariga bag‘ishlangan. Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar o‘quv topshiriqlari hisoblanadi. Maqolada o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishda zarur bo‘lgan lingvodidaktik talablar, til va nutqiy kompetensiyalar, zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiy talablar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘quv topshiriqlari, til ta’limi, kompetensiya, nutqiy qobiliyat, psixologik omillar, ong, bilim va ko‘nikma.*

Аннотация. *Статья посвящена вопросам изучения педагогических и психологических основ совершенствования учебных заданий. Учебные задания являются важнейшими показателями, определяющими качество образования, и средствами, участвующими как в формирующем, так и в проверочном процессе. В статье представлены лингводидактические требования, языковые и речевые компетенции, необходимые для совершенствования учебных заданий, а также общие требования, которым должен отвечать современный урок.*

Ключевые слова: *учебные задачи, изучение языка, компетентность, речевая способность, психологические факторы, сознание, знания и навыки.*

Abstract. *The article is devoted to the study of the pedagogical and psychological foundations of improving educational tasks. Educational tasks are the most important indicators that determine the quality of education, and means involved in both the formative and testing processes. The article presents linguodidactic requirements, language and speech competencies necessary to improve educational tasks, as well as general requirements that a modern lesson must meet.*

Key words: *learning tasks, language learning, competence, speaking ability, psychological factors, consciousness, knowledge and skills.*

Til o‘qitish metodikasining eng muhim elementi – o‘quv topshiriqlari ekan, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati va o‘rni nihoyatda muhim. Bu o‘quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslarini o‘rganishni taqozo qiladi. “Ta’lim mazmuni sirasida talabalarga taqdim etilayotgan bilimlar ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondira olishi, ularni ijodkorlikka, bunyodkorlikka undashi lozim”[1]ligini belgilaydi.

[1]Yo‘ldosheva D. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari.–T.: “Fan”, 2006. – 11-b.

Ta’limning sifatini belgilab beruvchi eng muhim indikator, ham shakllantiruvchi ham sinash jarayonida qatnashuvchi vositalar o‘quv topshiriqlari – mashqlar tizimi, shuningdek savol va topshiriqlardir. Bular – o‘zbek tili ta’limi mazmunini, o‘qitish metodikaning asosini tashkil etadi.

Nutqiy qobiliyatni shakllantirish muvaffaqiyati motivatsion omillar va talabaning umumiy ta’limiy ko‘nikmalarini shakllantirish darajasiga bog‘liqdir. Tilshunoslik fanining asoschisi Gumbolt nutqni til mahsuli sifatida yuzaga kelishini[2], Do‘ Sossyur esa, til nutq orqali reallashuvini ko‘rsatib o‘tganlar. Do‘ Sossyur ijtimoiy hodisa bo‘lgan tilni imkoniyat, nutqni esa, yuzaga chiqadigan hodisa sifatida tilning ifoda vositalaridan foydalanilaishini alohida ta’kidlaydi[3].

Nutq nutq a’zolarining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Ruhiy hodisa bo‘lgan tilning ifoda vositalari nutq ixtiyoriga o‘tgach, haqiqatga aylanadi. Demak, nutq nutq faoliyatining mahsulotidan, ma’lum shaklga kirishidan iborat.[4] “...yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birortasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasining buzilishi, qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay iloji yo‘q”.[5]

Til tashuvchisining shakllanish darajasiga ta’sir qiluvchi psixologik shartlar orasida lisoniy qobiliyat alohida ahamiyatga ega. Insonda nutqning shakllanishi faqat maktab ta’limi jarayoni bilan cheklanib qolmaydi, balki insonning butun ongli hayotida davom etadi.

O‘zbek tili ta’limida nutqiy ko‘nikmalarnining shakllanishi psixologik omillarga ham bog‘liq bo‘lib, unda nutqiy ko‘nikmalar – doimiy intellektual rivojlanish: ruhiy jarayonlar (xotira – vizual va eshitish, fikrlash – mavhum va majoziy, kuzatish, tasavvur – reproduktiv va ijodiy); insonning ma’naviy boyligi – doimiy ma’naviy rivojlanish, axloqiy me’yorlar, avvalo, muloqot me’yoriga rioya qilish kabilarni o‘zi ichiga oladi.

Bu ham didaktik, ham psixologik (ruhiy) jarayon bo‘lib, jumladan, psixolog olim M. Neppning ta’kidlashicha, bola 2–3 yoshida o‘zbek tili grammatikasini egallay boshlaydi, chunki boshqa odamlarning nutqini anglab, so‘zlar kombinatsiyasi va jumlalar tuzilishida ongosti sezgilari orqali kodlangan ob’ektiv qonuniyatlarni, ko‘plab ajdodlarning tajribasini qabul qiladi. Odam ongida nutqi rivojlanishi bilan bir

---

[2] Гумбольдт В. О мышлении и речи // В. Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — М.:“Прогресс”, 1984.
[3] Соссюр Ф. Труды по языкознанию. М.:“Прогресс”, 1977. С. 52—53.
4 Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1972, 144 bet.
[5] Beruniy. Tanlangan asarlar, N1 tom, 64 bet. Keyingi ko‘chirmalar ham o‘sha asarning 64 betidan olindi.

qatorda, ongostida mumkin bo‘lgan harakatlarning ichki rejasi tuziladi, muayyan vaziyatda amalga oshiriladigan harakatlar modellari yaratiladi[6].

L.S.Vgotskiy, I.YA. Zimnyaya, A.A. Leontev, S.L. Rubinshteynlarning psixologik tadqiqotlari tahlili til tashuvchisini shakllantirishning muvaffaqiyati o‘zbek tilining kommunikativ rivojlanish darajasiga bog‘liqligi haqida gapirishga imkon beradi. I.YA. Zimnyayaning fikricha, “O‘zbek tilining kommunikativ rivojlanishi”ni ta’minlaydigan murakkab ko‘p qirrali hodisa sifatida ko‘rib chiqish kerak:

– lug‘at miqdori (leksik minimum);

– nutqiy malakalarni egallashning mohirlik darajasi;

– fikrini ongli ravishda izchil bayon qila olish qobiliyati suhbatdoshining replikalariga munosib javob bera olish, eshitganlariga munosabat bildirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan og‘zaki muloqot shakllarini bilish darajasi;

– matnni o‘qish sur’ati darajasi;

– yozma nutq ko‘nikmalarinining shakllanish darajasi;

– kognitiv qiziqishlarning shakllanish darajasi;

– umumiy dunyoqarash darajasi.[7]

Muloqot qilish uchun zarur bo‘ladigan kompetensiyalar quyidagilardan iborat:

– til kompetensiyasi;

– nutq kompetensiyasi;

– pragmatik kompetensiya;

– kommunikativ kompetensiya.

Mazkur talablarni amalga oshirish, kompetensiyalarni shakllantirish, albatta, til ta’limida maxsus o‘quv topshiriqlar tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, turli nutq vaziyatiga mos fikr ifodalash imkonini beruvchi, o‘zaro muloqotning samarali bo‘lishiga xizmat qiluvchi kognitiv-pragmatik ta’limning afzalliklarini o‘rganib chiqishni talab etadi.

Asosiy til birligi sifatida denotativ va konnotativ vazifalarni bajaruvchiso‘zni o‘rgatishda talabani uning ma’noviy qirralarini anglay olish hamda nutqiy vaziyatlarga mos ravishda to‘g‘ri qo‘llay olishga o‘rgatish o‘zbek tili ta’limining birlamchi vazifasidir.

---

[6]Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения –М., 2007. –512 с.
7Зимняя И.А. Личностно-деятельностный подход в обучении как фактор гуманизации образования // Русский язык за рубежом. 1991. -№ 3. - С. 91-95.

Biroq, buning o‘zi yetarli emas. Til ta’limining keyingi vazifasi o‘rganilgan so‘zlarni qo‘shish orqali so‘zlovchiga o‘z fikrini to‘liq, tushunarli yetkazib bera olish va ayni paytda suhbatdoshning ifodalagan fikridagi mazmun-mohiyatni anglash.

Til ta’limiga kompetensiyaviy yondashuvda aynan shu jihatlar e’tiborga olingan holda tayanch va tilga oid kompetensiyalar alohida ajratib berilgan. Tayanch kompetensiya tarkibida berilgan kommunikativ kompetensiyaning vazifasi belgilab berilgan.[8] Ushbu DTSdan xususiy kompetensiyalar tarkibiga til va nutqiy kompetensiyalar kiritilgan (DTS, 2017).

DTS talablari asosida o‘zbek tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish zarurati mavjud bo‘lib, unda quyidagi lingvodidaktik talablar bajarilsa, o‘quv topshirig‘i zamon talabiga mos va samarali bo‘ladi:

– bir o‘quv topshirig‘ini bajarish asnosida bir nechta nutqiy ko‘nikmani rivojlantira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi;

– talablarning o‘quv topshiriqlarni amalga oshirishga ongli yondashishi, bajarishda didaktik ketma-ketlikka rioya qilishi;

– o‘quv topshiriqlarini zamonaviy axborot manbalaridan topish uchun sun’iy intellekt bilan to‘g‘ri muloqot qila olishi;

– o‘quv lug‘atlaridan mavzu doirasida unumli foydalana olishi.

Takomillashtirilgan o‘quv topshiriqlari muammoli o‘qitishning quyidagi asosiy psixologik-pedagogik maqsadlariga muvofiq kelishi kerak:

– talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga;

– talabalarning faol izlanish va mustaqil masalalar yechish jarayonida olgan bilim va ko‘nikmalarini o‘zlashtirishlari, natijada bu bilim va ko‘nikmalar an’anaviy mashg‘ulotlarga qaraganda mustahkam bo‘lishiga;

– nostandart muammolarni ko‘ra oladigan, o‘rnata oladigan va hal qila oladigan talabaning faol ijodiy shaxsini tarbiyalashga mos topshiriqlar ishlab chiqishga erishish lozim.

Davlat ta’lim standartlari mazmunida ijodiy tafakkur sohiblarini tayyorlash, talabani mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish vazifasi ham mavjud. Shu ma’noda zamonaviy dars qanday tashkil etilishi, o‘qituvchi o‘z talablari bilan qanday muloqot qilishi, qanday topshiriq va savollar berish asosiy masala hisoblanadi. Bunday zamonaviy dars javob berishi kerak bo‘lgan umumiy talablar quyidagilardan iborat:

[8] Kompetension yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti. – Toshkent. 2017.

1. Eng yangi ilmiy yutuqlardan, eng yaxshi pedagogik amaliyotdan foydalanib, ta’lim jarayonini savol-javob asosida dars tashkil qilish.

2. Darsni o‘quv topshiriqlaridan o‘rinli va maqsadli foydalangan holda amalga oshirish.

3. Talabalarning bilish faoliyati uchun tegishli bo‘lgan barcha shart-sharoitlarni yaratish, ularning qiziqishlari, mayllari va ehtiyojlarini hisobga olib matnga yoki mavzuga o‘quv topshiriqlari ishlab chiqish.

4. Savol va topshiriqlar tuzishda fanlararo bog‘lanishlarni e’tiborda tutish.

5. Ilgari egallangan bilim va malakalar bilan bog‘lanish, talablarning erishgan bilim darajalariga tayangan holda takomillashtiruvchi mashq va topshiriqlar berish.

6. Shaxsning barcha muloqot uchun zarur bo‘lgan barcha nutqiy malaklarini rivojlantirish, natijalariga ko‘ra rag‘batlantirish va faollashtirish.

7. O‘quv topshiriqlarining barcha turlari orqali nutqning barcha bosqichlarida mantiqiyligi va emosi o‘zbeklligi mezonlarini hisobga olish.

8. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ta’lim resurslaridan samarali foydalanish.

9. O‘quv topshiriqlarini talabalarning hayoti, faoliyati, shaxsiy tajribasi bilan bog‘lash.

10. O‘quv topshiriqlari bilan ishlashda ijodiy tafakkur va amaliyotda kerak bo‘ladigan bilim, ko‘nikma hamda malakalarni shakllantirishni ko‘zda tutish.

11. O‘quv topshiriqlari talabada bilim olish, fikrlash, nutqiy ko‘nikmalarni egallashdan tashqari, o‘zlashtirilganlarni tahlil qilish, tashxislash, loyihalash va rejalashtirish vazifasini ham nazarda tutishi kerak.

Metodikaning eng kichik unsurlaridan biri bo‘lgan o‘quv topshiriqlari o‘zbek tili ta’limini to‘g‘ri yo‘lga olib chiquvchi muhim richaklardan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar, jumladan, o‘zbek tilini mukammal bilmasdan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham o‘zbek tili o‘qitish metodikasida nimani,qanday o‘qitish masalasi antik davrdan to bugungi kunga qadar muammo bo‘libkelgan. Bu tabiiy hol, albatta, taraqqiyot metodikaga bog‘liq bo‘lganligi bois, zamon o‘z talabini qo‘yadi, metodika mazkur buyurtmani bajaradi. Shuning uchun hamnimani qanday o‘qitish masalasi doimiy dolzarblikka egadir.[9] Bu borada o‘quv topshiriqlari masalasining “O‘zbek tili” darsliklari mazmunida berilishi, ularda o‘quv topshiriqlarining vazifa jihatidan farqlanishi, o‘quv topshiriqlariga munosabat tahliliy o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir.

[9] Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: “Bayoz”. 2018. 18-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo‘ldosheva D. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida ta’lim maqsadini belgilashning didaktik asoslari.–T.: “Fan”, 2006.
2. Гумбольдт В. О мышлении и речи // В. Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. — М.: “Прогресс”, 1984.
3. Соссюр Ф. Труды по языкознанию. М.:“Прогресс”, 1977.
4. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1972.
5. Beruniy. Tanlangan asarlar, N1 tom.
6. Нэпп М., Холл Д. Невербальное общение. Мимика, жесты, движения, позы и их значения –М., 2007.
7. Джон Дьюи. Общество и его проблемы John Dewey. The Public and its Problems. Denver, 1927. / Дж. Дьюи. Общество и его проблемы – Перевод с английского: И. И. Мюрберг, А. Б. Толстов, Е. Н. Косилова. – М., 2002.
8. Лернер И. Я. Дидактические основы методов обучения Текст. / И. Я. Лернер. – М.: Педагогика, 1981.
9. Kompetension yondashuvga asoslangan Davlat ta’lim standarti. – Toshkent. 2017.
10. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishning samarali usullari. O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. –T.: “Bayoz”. 2018.

XORIJIY TILNI O‘QITISHNING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Shirin Sadikova,
dotsent, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Iroda Jalolova,
G‘arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xorijiy tilni o‘qitish metodikasining turli fanlar bilan aloqasi, bu fanlarning metodika kursidan ilgari talabalar o‘rganib chiqqanliklari, didaktika (pedagogikaning ta’lim nazariyasi bo‘limi), nazariy fonetika, matn lingvistikasi, psixologiya va tilshunoslik metodikadan avval o‘rganilganligi xaqida taxlillar berilgan .*

Kalit so‘zlar: *Xorijiy til, tilshunoslik (lingvistika), ruhshunoslik (psixologiya), ta’limshunoslik (didaktika) matn lingvistikasi.*

Аннотатция: *В данной статье рассматривается связь методики преподавания иностранного языка с различными предметами, изучение этих предметов студентами до курса методологии, дидактики (кафедра педагогической теории педагогики), теоретической фонетики, лингвистики текста, психологии и лингвистики.*

Ключевые слова: *Иностранный язык, лингвистика, психология, педагогика (дидактика), лингвистика текста.*

Abstract: *This article examines the connection between the methodology of teaching aforeign language and various subjects, the fact that students study these subjects before the course of methodology, didactics (department of pedagogical theory of pedagogy), theoretical phonetics, text linguistics, psychology and linguistics. were studied before the methodology and analyzes were given.*

Key words: *Foreign language, linguistics, psychology, pedagogy (didactics), text linguistics.*

Kirish qismi: Tabiat va jamiyat hodisalari o‘zaro bog‘langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelik (tabiat va jamiyat) ning in’ikosi ekanligi uchun ulaming hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbayi bo‘la oladi.

Til – ijtimoiy hodisasini o‘z nuqtayi nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruhshunoslik (psixologiya), ta’limshunoslik (didaktika) o‘rganadi. Ijtimoiy hodisa bo‘lmish tilni o‘qitish metodikasi boshqa yaqin fanlarning ijobiy tajribalaridan bahramand bo‘ladi, ulaming yutuqlarini o‘ziga singdirib oladi.

Chet til metodikasi erishgan zamonaviy natijalardan pedagogika fanlarining boshqa sohalari ham foydalanishi so‘zsiz, albatta. Metodika ilmining qator fanlar bilan aloqadorligini atroflicha tadqiq etish uchun uning shu kunda qanday nazariy maqomga egaligi g‘oyasini ochish talab qilinadi. Birinchi bobdan ma’lumki,

“metodika” terminini eshitgan yoki o‘qigan kishi uni uchta tushuncha bilan fikran bog‘laydi.

Psixologiya tilida buni assotsiatsiya (lot. associatio - bog‘lash, birlashtirish) deb odatlanilgan. Muhokama qilinayotgan “chet til metodikasi” term ini kishi idrokida quyidagicha assotsiatsiya (bog‘lanish) uyg‘otadi: awalan, tilni o‘rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig‘indisi (mas. talafFuz o‘rgatish metodikasi) tushuniladi yoki o‘qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar (ongli-qiyosiy metod, intensiv metod) va, nihoyat, mustaqil pedagogik fan (o‘zining tushunchalar majmuasi, ilmiyprinsiplari mavjud soha) ko‘z oldiga keladi. Nisbatan mustaqil pedagogik fan hisoblanmish “Metodika” bir qancha fanlar bilan turlicha bog‘langan. Ayrim fanlarga nisbatan metodika kichik sistema holatida (mas, didaktikaga taqqoslasak) «yoki boshqa fanlar bilan munosabatiga ko‘ra qardoshlik (yaqinlik) huquqida ish ko‘radi. Ikkinchi toifaga ona tili o‘qitish metodikasi, ikkinchi til o ‘rgatish metodikasi kabilami kiritish mumkin.

Tahlil qismi: Metodikaning so‘nggi yillarda shakllanayotgan psixolingvistika fani bilan ham yaqindan aloqasi bor. Til va tafakkur birligi, til va madaniyat, voqelikni bilish shakllari haqida m etodika yaqin fanlar m a’lum otlaridan oziqlanadi. Shaxs kamolotiga ta’lim - tarbiya jarayonida erishiladi. Ta’limning asosiy funksional vazifasi obyektiv voqelikni bilish manbayi deb tan olingan amaliyotdir.

Chet tilda amaliyot - gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va yozuv, ularning mahsuli - o‘quvchilar uchun yangi ma’lumot olish va undan o‘z hayotida foydalanishdan iborat. O‘quvchi eshitish sezgisi yordamida til birligini idrok etadi, so‘ngra uni nutqharakat sezgisi yordamida og‘zaki bayon qiladi. Navbatdagi darslardan birida og‘zaki o‘zlashtirilgan til materiali yozib beriladi, ya’ni qo‘lharakat hamda ko‘ruv sezgilari, shuningdek, analizatorlari, faoliyati chog‘ida yozish va o‘qish bosqichidan o‘tadi. Til birliklarini tinglab tushunish, gapirish, yozuv, o‘qish, ta’limning ikkinchi yilida esa oldin o‘qish, keyin yozuvda o‘rgatilishi bilish nazariyasi qonun niyatlari talabiga to‘lig‘icha rioya qilish namunasidir.

Til birligi tovush tomonini idrok etish va uni og‘zaki aytish - bilish jarayonining jonli mushohada bosqichi. Grafik (o‘qishdagi) va motor (harakat) idroki ham shu bosqichga kiradi. O‘quvchilar birlik tovush va grafik shaklini va ular asosidasemantika (ma’no)sini, ayni paytda, uning funksiyasi (tushuncha tarafi)ni o‘zlashtirganlaridan so‘ng, ikkinchi bosqich - mavhum tafakkurga o‘tiladi.

Inglizcha - *a pen* so‘zini tushuntirish (taqdim etish) misolida aytib o‘tilgan fikrlami amaliy namoyish etish mumkin. Darslikda bu leksik birlik avval og‘zaki, so‘ngra yozma berilgan. Yozma shakli o‘tilganida o‘quvchilarga grammatik

abstraksiya, metodika ta’biri bilan qoida-umumlashma berishga to‘g‘ri keladi: “Ingliz tilida ot oldida artikl qo‘llanadi”.

Qisqa ta’rif-qoida bilish nazariyasidagi mavhum tafakkur bosqichiga mos keladi. Endi o‘quvchilar artiklni yangi so‘zlar bilan mustaqil qo‘llash ko‘nikmasini egallaydilar, ya’ni mavhum tafakkurdan amaliyotga o‘tish bosqichi kuzatiladi. Nutq faoliyati turlarini egallashda ham bilish nazariyasi tatbiq etiladi. Metodikadan ma’lumki, yuqori sinf o‘quvchilarida o‘qib axborot olish malakasini hosil qilish maqsad qilib qo‘yiladi. Olingan ma’lumot o‘quvchilarga umumiy ta’lim va tarbiya berish hamda ularni atroflicha rivojlantirishga mo‘ljallanadi. O‘qish jarayoniningo‘zi, gnoseologiya tilida aytganda, jonli m ushohadadir (ko‘ruv sezgisi ishtirok etadi). Axborot olish, ya’ni o‘qiganini tushunib yetish, mazmunini fahmlash mavhum tafakkur mahsulidir. Matndan o‘zlashtirilgan axborot o‘quvchilaming kelajagiga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi omil hisoblanadi, bu esa - amaliyotda foydalanish, deb tushuniladi. Haqiqatni, obyektiv reallikni bilishning dialektik yo‘li chet tilning operatsion (til) va motivatsion (nutq) tom onlarini egallash jarayoniga bevosita tatbiq etilishi misollar vositasida isbot qilindi. Metodikaning ilmiy soha sifatida rivojlanishida ruhshunoslik, ta ’lim shunoslik va tilshunoslik fanlarining ulkan ahamiyatga molikligini yana bir bor uqtirishni lozim topdik.

Chet til o‘qitishning ruhshunoslik asoslari. Chet til o‘qitish metodikasi psixologiya (ruhshunoslik) bilan ikki taraflama – nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog‘laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da va nutqning sodir bo‘lishi ham da uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq til materiali va nutq mexanizmlari vositasida yuzaga keladi.

Natija va muhokama: Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zaminida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko‘rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshituv, ko‘ruv, hid va ta’m bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish asosida ish ko‘radi. Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosigaham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar signali bo‘lib, so‘z bilan ifodalanadi.

Inson, hayvondan farqli o‘laroq, nutqni idrok etganida, uning mazmunigae’tibor beradi. Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tom oni deyiladi. Ichki tom oni esa nutqharakat, eshitish, ko‘ruv va qo‘lharakat timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi. Stereotiplaming

ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi. Ona tilida belgilar stereotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va nutqning shakllanish chog‘ida beixtiyor hosil bo‘ladi va ong ishtirokisiz (aniqrog‘i, deyarli ong ishtirok etmagan holda) faoliyat ko‘rsatadi. Chet tilni egallashda oldin o‘rganilgan tillar asosida o‘xshash elementlar (tovush, so‘z, gap tuzilishi) mavjud nerv bog‘lanishlari, yotelementlar esa - yangi bog‘lanishlar paydo etilishi tufayli ikkilamchi belgilar sistemasi yordamida yaratiladi.

Chet til o‘qitishning dastlabki bosqichida awalambor tovush, so‘z va gaplarning eshitish va nutqharakat timsollari vujudga keltiriladi, soniyan ko‘ruv va qo‘lharakat timsollari hosil qilinadi. Bu asnoda til birliklarining og‘zaki va yozma shakllari salbiy ta’siming oldini olish uchun zamon va makonda ajratib o‘zlashtirish va keyinroq ulami biriktirishga erishiladi. Sezgi va idrok obyektiv voqelikning in’ikosi shaklida analizatorlar orqali faoliyat ko‘rsatadi. (Analizatorlar va sezgilar mushtarak nomlar bilan ataladi.)

Ko‘ruv analizatori grafik (ko‘riladigan, yozma) timsollar va m azm unan bog‘lanishlarni sintezlashtiradi, ya’ni o‘qish uchun tegishli zaruriy psixik vositadir. Qo‘lharakat analizatori grafik (yozma) timsollar bilan mazmunan bog‘lashda ishtirok etadi.

Qadimdan ma’lumki, odamlar gapirish xususiyati va o‘ng qo‘lining ko‘proq ishlashi bilan ajralib turadi. (Amerikalik olimlardan P.Penfild va L.Roberts ma’lumotiga ko‘ra, yer sharining 30 foiz aholisi chap qo‘l bilan yozadilar.) Eshitish analizatorini mashq qildirishning chet til o‘rganishda ahamiyati katta, chunki u nutq oqimidagi fonemalar va ritm-melodiya hodisalarini farqlashda yetakchi rol o‘ynaydi. Eshitish analizatori nutqharakat analizatori bilan yaqin aloqada bo‘ladi.

Artikulatsiya bilan eshitish o‘zaro bog‘liq, ikkala analizator bir–birining ishini nazorat qilib turadi. Nutq faoliyati turlarini sodir etilishida analizatorlar o‘zaro harakati quyidagi tartibda kuzatiladi: gapirishda yetakchi – nutqharakat, qo‘shimcha -eshitish, o‘qishda - ko‘ruv, qo‘shimcha – nutqharakat analizatori xizmat qiladi.

Xulosa qismi: Chet til o'rganishda psixik jarayonlar – diqqat, idrok, xotira, tafakkur kabilar hisobga olinadi. Ular haqidagi ma’lumotlar psixologiya kursida o‘rganilgan. Chunonchi, diqqat – ongning muayyan obyektga yo‘naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shakli. Uning ikki turi – ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat mavjud. Ixtiyoriy diqqatning ixtiyorsizdan farqi shundaki, birinchisida ong ishtirok etadi. Narsa va hodisalar tashqi belgilarining inson ongida aks etish jarayoni idrok deyiladi. Shaxsning to‘plagan tajribasi bilan idrok bevosita bog‘liq bo'ladi, bu hodisa ruhshunoslar tilida appersepsiya deyiladi. Ushbu hodisa tufayli chet til o‘rganishda til

tajribasiga alohida e’tibor beriladi. Inson hayotida yig‘ilgan tajribaning in’ikosi, o‘rin olishi va saqlanishi psixik jarayon sifatida xotira nomini olgan.

ADABIYOTLAR:

1. Павлов И. П. Лекции о работе больших полушарий головного мозга (лекции 3, 11). — Полное собрание трудов, т. IV. — М. —Л., 1947. - 335-336- betlar.
2. Huse H.R.The Psychology of Foreign Language Study. Chapell Hill, 1931, p. 42. 29
3. Ergashev Doniyor Dovronovich. CONCEPT OF EQUIVALENCE IN A FOREIGN LANGUAGE. TADQIQOTLAR jahon ilmiy – metodik jurnali 2023 Bet 98-102.
4. ERGASHEV D. D. ANALYSIS OF LINGUISTIC CHARACTERISTICS OF UNITS IN TRANSLATIONS //International Conference of Education, Research and Innovation. – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 56-59.
5. ERGASHEV D. D. TILSHUNOSLIKDA ATAMALARNING SEMANTIK TAHLILI //TADQIQOTLAR. – 2024. – Т. 31. – №. 2. – С. 126-130.
6. Ergashev D. D. Teaching a foreign language with advanced techniques //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 401-409.
7. Sadykova S. B., Tuychibaeva S. S. К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ) //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 189-192.
8. Sadikova S. B. TA’LIM JARAYONIDA O ‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O ‘QITISH. – 2023.
9. Sadikova S. B. The Role of Philosophical and National Framework in Artistic Analysis //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 40-43.
10. Xayrulla Hamidov, & Arzu Karausta. (2023). TURKCHAGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN JURNALISTIKAGA OID TERMINLAR XUSUSIDA. *Konferensiyalar | Conferences*, *1*(1), 28–33. Retrieved from https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1130
11. Hamidov, Xayrulla, Tojiyeva, Afro‘Za UMAR SAYFIDDIN HIKOYALARI TARJIMALARIGA DOIR // ORIENSS. 2022. №Special Issue 28. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/umar-sayfiddin-hikoyalari-tarjimalariga-doir
12. Xayrulla Hamidov.Turk tili frazeologiyasi va o‘zbekcha-turkcha tarjima masalalari. (Monografiya).2024/1. Tom 1. Bet 232.
13. Baxtiyorovna S. S. O'zbek tilining intensiv kursi (xorijliklar uchin o'zbek tili. Boshlang'ich kurs). – 2021.

14. Djampulatova, Nigora. «THE ROLE OF THE COACHING APPROACH IN TEACHING A FOREIGN LANGUAGE.» *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences* 2, no. 1 (2023): 191-195.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОЯЗЫЧНОЙ РЕЧИ

М.Х. Ахмедова
к.п.н., доцент Национальный университет Узбекистана

Аннотация. *Изучая вопрос о психологических особенностях усвоения второго языка, очень важно иметь в виду то, что, с одной стороны, существуют психологические закономерности, а, с другой стороны, не психологические, а общественные требования и задачи в изучении второго языка.*

Особое место в психологическом обеспечении изучения иностранного языка занимает мотивация, побуждающая человека изучать иностранный язык. В данной статье мы рассмотрим основные аспекты такого явления, как мотивация в изучении языка.

Мотив является материальным или идеальным предметом, достижение которого выступает смыслом деятельности. Мотив представлен субъекту в виде специфических переживаний, характеризующихся либо положительными эмоциями от ожидания достижения данного предмета, либо отрицательными, связанными с неполнотой настоящего положения.

Мотивацию учащегося можно определить как направление и интенсивность усилия достижения к цели. А направление усилия означает, что изучающий язык ищет определенные ситуации деятельности или стремится к ним, или то, что определенные ситуации привлекают его.

Ключевые слова: *мотив, коммуникативная мотивация, познавательная мотивация, страноведческая мотивация, мышление, речь.*

Abstract*. When studying the question of the psychological features of learning a second language, it is very important to keep in mind, on the one hand, psychological patterns and, on the other hand, not psychological, but social requirements and tasks in learning a second language.*

A special place in the psychological support of learning a foreign language is occupied by motivation, which encourages a person to learn a foreign language. In this article, we will look at the main aspects of such a phenomenon as motivation in learning a language.

A motive is a material or ideal object, the achievement of which is the meaning of the activity. The motive is presented to the subject in the form of specific experiences characterized by either positive emotions from the expectation of achieving this object, or negative ones associated with the incompleteness of the present position.

A student's motivation can be defined as the direction and intensity of the effort to achieve a goal. And the direction of the effort means that the language learner is looking for certain situations of activity or aspires to them, or that certain situations attract him.

Keywords: *motive, communicative motivation, cognitive motivation, regional motivation, thinking, speech.*

В современном быстроразвивающимся мире и в эпоху глобализации практически всех областей общественной жизни вопрос изучения иностранного языка становится актуальным как никогда раньше. Под термином глобализация мы понимаем, что все больше и больше возрастает роль и значение коммуникации людей между собой, а следовательно – вербальной, в том числе на межнациональном уровне, которая требует знания иностранного языка.

Каждый образованный человек должен знать иностранный язык. Мы учим и обучаем иностранному языку для того, чтобы говорить на этом языке. Установка на овладение иностранным языком обусловливает содержание и организацию учебного процесса. Как ни странно, иногда людей привлекает сам учебный процесс, а не конечный результат приобретения умения. Для нас очень важно чтобы студенты были направлены на хорошее знание изучаемого языка, чтобы, слушая чужую речь, они могли выделить наиболее существенные её моменты и, высказывая свои мысли, умели использовать запас языкового материала и объединить его в связное целое.

Как известно, изучение иностранного языка – занятие довольно трудное. Оно требует усидчивости, концентрации, внимания, хорошей памяти, а также занимает порой очень долгое время. Есть лишь одна вещь, которая может облегчить данный процесс, и даже сделать его любимым занятием для человека - мотивация.

По мнению А.Н. Леонтьева мотив это - предмет потребности, ее непосредственное психологическое проявление. Потребность находит себя в конкретных мотивах, реализуется в них. Потребность — некая абстракция, обобщение, реально данное человеку на «языке мотивов». Мотив — это ответ на вопрос: что нужно для удовлетворения потребности? Мотив — это то психологически реальное, что побуждает и направляет деятельность, придает ей личностный смысл. Мотив принадлежит личности, которая «прилагает» его к той или иной деятельности. Из личностного он становится мотивом деятельности как бы вторично. Мотив для психологии — это реальность субъективная, отраженная; часть психического образа мира, выполняющая особые функции. Подобно исходным потребностям, мотивы образуют собственную иерархическую систему, которая выступает одним из проявлений направленности личности. [1]

Должна быть очень сильная мотивация для изучения иностранного языка. **Коммуникативная мотивация** заставляет студентов изучать иностранный язык, т.к. нашим студентам приходится пользоваться им на работе, в общении с

иностранцами. Языки открывают доступ к профессиональной литературе, к «живой» корреспонденции, к зарубежной прессе. Это и **познавательная мотивация**, которая приводит к углубленному изучению иностранного языка. Студенты в состоянии самостоятельно объяснять языковые факты, получать информацию в наиболее полном объёме и испытывать необходимость в углубленной работе над языком. Вот это и является нашей задачей при обучении иностранному языку – подвести их к сознательному подходу к изучению иностранного языка. Конечной целью обучения является неподготовленная речь, что имеет в виду готовность включиться в коммуникативное общение с учетом конкретного владения языковым материалом. Студенты обучаются использованию усвоенного материала длявыражения мыслей в соответствии с речевой ситуацией.

Изучающие иностранный язык редко ставят цель говорить на нем, как носитель изучаемого языка, поэтому зачастую отношение к изучению иностранного языка несколько пассивное. Заинтересовать людей может культура другой страны, люди, их быт, обычаи и нравы, а также туризм. **Страноведческая мотивация** вызывает интерес к стране, народу изучаемого языка, к его историческим и культурным традициям. Там, где нет иноязычной среды, страноведческая мотивация может стать эффективным видом мотивации изучения языка.

Иногда людей подталкивает к изучению иностранного языка совершенно неожиданный фактор: как, например, просмотр фильма, интерес, вызванный каким-либо одним фактом. Основной задачей является формирование речевых автоматизмов, направленных на переход репродуктивной речи в продуктивную речь. Развитие навыков устной речи совершенствуется главным образом на упражнениях продуктивного типа.

Есть ли разница между знанием языка и умением использовать его в языковой среде? Этот вопрос постоянно дебатируется на протяжении долгого времени.

Речь – процесс творческий, и каждый раз создается говорящим заново в зависимости от ситуации общения. На начальном этапе обучения мы подводим студентов к работе над подготовленной разговорной речью, которая носит менее творческий характер. Студенты воспроизводят выученный материал в заранее подготовленных фразах, диалогах, текстах. Здесь необходимо поддержать студента в его уверенности, что он может говорить. Студенты могут отвечать на вопросы преподавателя и сами составлять вопросы и задавать их

другим студентам. Ответы могут быть усложнены дополнительной информацией, не вызванной непосредственно вопросом. Можно попросить студентов прокомментировать вопрос или ответ, либо просмотренный отрывок. Изменение содержания информации с привлечением жизненного опыта студентов приведет их к творческой работе. Творческое мышление должно присутствовать в выполнении всех заданий. Если студент затрудняется в выражении мысли, можно помочь наводящими вопросами, употреблением ключевых слов.

Необходимо усложнять материал и задания, когда студент вынужден высказывать свою мысль без подготовки во времени и без прямых побуждений к говорению использовать усвоенный языковой материал. Создание речевой среды на занятии, интерактивное общение преподавателя и студентов помогает быстро сориентироваться в потоке речи. Главная цель нашей работы – не только использовать усвоенное. Но научить вкладывать в высказывание собственную мысль, как-то объяснить причину того или иного явления с их точки зрения, дать характеристику персонажам, дать критическую оценку услышанному или увиденному, изменить концовку, место действия. Можно дать теме новое направление, изменив время на много лет вперед или назад.

У студентов проблемы со спонтанной речью возникают в начальном периоде, далее сама специфика профессии приводит студентов к творческому мышлению. Конечная цель будет достигнута, если наши студенты будут активно участвовать в овладении языком и помогать нам в выполнении поставленной задачи.

В заключении хотелось бы привести цитату И. Гёте: «Научиться можно только тому, что любишь». Имея мотивацию, можно учить что-либо с удовольствием. Главное – поставить себе цель, для чего нам нужно то или иное знание. Когда это будет понятно, сам процесс обучения будет лишь в радость.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Леонтьев А. А. Общая методика обучения иностранным языкам –М.: Просвещение, 2011 г.
2. Зимняя И.А. Психология обучения неродному языку. М.: Русский язык, 1989.
3. Выготский Л.С. Вопросы теории и истории психологии. Собр. соч. Т.1 М.: Педагогика, 1982.
4. Герасимов А.М., Логинов И.П. Инновационный подход в построении обучения: Учебное пособие. М.: МАПКиПРО, 2001.

5. Ахмедова М.Х., Шакарова Ф.Д. Усиление мотивации в изучении русского языка. Материалы Республиканской научно-практической конференции «Русский язык и литература в Узбекистане-2019». НУУз, Т. 2019 г. с.211-213.
6. Ахмедова М.Х. и др. Psychological basis for the development of speech of students in non-native language. **Jour of Adv Research in Dinamical & Control Systems**. Vol.12, Issue-06,2020. June 07, 2020. Hh. 1195-1199.
7. Скалкин В.Л. Основы обучения устной иноязычной речи.- М: Русский язык, 1981. -248с.
8. Бекешина И. Э. Структура личности. М., 2005 г.
9. Богданов А. Н. Психология в изучении языков, Москва, 1995 г.

ПРОБЛЕМА РАСПРОСТРАНЕНИЯ КОНГЛИША В КОРЕЙСКОМ ЯЗЫКЕ (АМЕРИКАНИЗМЫ)

Малика Хасанова
студентка кафедры корейской филологии факультета Корееведения ТГУВ
xasanovaaam15@gmail.com

Ким Татьяна
Научный руководитель: PhD, доцент,
0009-0004-1232-9951

Аннотация: *Данная статья посвящена проблеме распространения Конглиша в контексте американизмов в корейском языке. Нам известно, что после разделения Кореи на два государства, в Северной Корее стали использовать больше русских слов, а в Южной Корее — английских. Анализируя феномен проникновения американской лексики и выражений в корейскую речь, авторы обращают внимание на факторы, способствующие этому явлению, а также на его последствия для языковой культурной идентичности корейского общества. После появления американизмов, когда английский язык стал широко распространяться в различных культурных контекстах, корейский язык начал впитывать их в свою лексику и грамматику, что привело к появлению Конглиша.*

В статье рассматриваются механизмы адаптации Конглиша в корейском языке, его влияние на языковую норму и коммуникационные практики. Кроме того, обсуждаются возможные стратегии сохранения языкового наследия и контроля за влиянием Конглиша в корейском языке.

Ключевые слова: *Конглиш, американизмы, корейский язык, популяризация, Южная Корея, глобализация, английский язык, адаптация, лексика, речь, халлю.*

Annotation: *This article is devoted to the problem of the spread of Konglish, in the context of Americanisms, in the Korean language. Delving into history, we know that after the division of Korea into two states, more Russian words began to be used in North Korea, and English words began to be used in South Korea. Analyzing the phenomenon of penetration of American vocabulary and expressions into Korean speech, the authors pay attention to the factors contributing to this phenomenon, as well as its consequences for the linguistic cultural identity of Korean society. After the emergence of Americanisms, when the English language became widespread in various cultural contexts, the Korean language began to absorb them into its vocabulary and grammar, which led to the emergence of Konglish.*

The article examines the mechanisms of adaptation of Konglish in the Korean language, their impact on the language norm and communication practices. In addition, possible strategies for preserving the linguistic heritage and controlling the influence of Konglish in the Korean language are discussed.

Key words: *Konglish, Americanisms, Korean language, popularization, South Korea, globalization, English language, adaptation, vocabulary, speech, hallyu.*

Введение: Одной из часто обсуждаемых в последнее время проблем является распространение конглиша в корейском языке. Лексика корейского

языка состоит в основном из заимствований. Примерно 80% лексики корейского языка являются заимствованиями из других языков, причем около 70% составляют китаизмы, а оставшиеся 10% – заимствования из других языков. Большую часть этих 10% составляют англо-американизмы. [10:715]. В наши дни также широко распространяется и такое понятие как конглиш.

Конглиш (**Ko**(rean + E)**nglish** = Konglish) – это смешение корейского и английского языков, в результате которого получается корейское слово английского происхождения[6:11]. Конглиш, как отдельная подгруппа заимствованной лексики, представляет собой новый слой в корейском языке. С глобализацией западной культуры, особенно американской, в последние десятилетия корейским языком заимствуются новые явления и понятия, преимущественно из американского английского.

Основная часть

Лексические заимствования легко узнаваемы даже для носителей английского языка, так как их значение и звучание практически не изменены. В то время как Конглиш образуется через адаптацию английских слов ивыражений с применением новых значений или форм, многие термины Конглиш были изобретены самими корейцами, именно поэтому носитель английского языка может даже не понять, что именно собеседник хочет до него донести. Так к примеру слово 파아팅 |ˈfaɪtɪŋ| с корейского языка переводится как «вперёд!», «давай!», в то время как на английском языке оно имеет значение «бой», «сражение». Рассмотрим другой пример, слово «미팅» - это пример корейского ложного друга, которое звучит как «встреча» на английском, но на самом деле означает «свидание вслепую».

В лексическом составе корейского языка выделяются три основных компонента: исходные корейские слова, заимствования из китайского и слова, в основном заимствованные из европейских языков. Процесс адаптации и заимствования слов в корейский язык начался в конце XIX века с открытия Кореи для внешнего мира. На начальном этапе заимствования в основном происходили через японский из европейских языков. После избавления от японского влияния основным источником заимствований в Северной Кореестал русский, а в Южной Корее – английский язык [3:2].

Благодаря тесным отношениям между Южной Кореей и США, присутствию американских войск на территории Южной Кореи, а также широкому внедрению обучения английскому языку в школах и университетах,

миллионной корейской диаспоре в США и растущему статусу английского как мирового языка наблюдается постоянное увеличение числа английских слов в корейском языке.

Как было упомянуто ранее, примерно 10% всех заимствованных слов в корейском языке являются иноязычными, причем 90% из них – англо-американизмы. Эти слова используются в различных сферах жизни корейцев, включая экономику, науку, культуру и политику, и часто встречаются в терминологии. Примеры таких заимствований включают «드레스» (платье), «텔레비전» (телевизор), «테니스» (теннис). Сегодня англоязычные заимствования постепенно вытесняют исходно-корейские слова. Значительно меньше слов заимствовано из других языков, таких, как немецкий (아르바이트 – подработка), французский (뷔폐 – буфет), испанский (마리네이드 – маринад) или русский (보드카 – водка) [5:164].

М. А. Брейтер отмечает, что около 15% новых англицизмов в корейском языке заимствуются из-за отсутствия аналогичного термина. Существует размытая граница между этой группой слов и предыдущей, так как иногдатрудно определить, является ли понятие новым для корейского языка [2:14]. Так, к примеру в корейском языке почти вся технология английского происхождения, например: 하드웨어 (hardware), 모니터 (monitor), 키보드 (keyboard), 마우스 (mouse), 레이저 프린터 (laser printer), 디스크 드라이브 (diskdrive), 하 드디스크 (hard disk), 모뎀 (modem), 포트 (port), 메모리 (memory), 소프트 웨어 (software), 인스톨 하다 (to install), 드라이버 (driver), 워소프트시트(softsheet), 데이터베이스 (database), 오퍼레이팅 시스템 (operating system) [2:42].

Однако слово может заимствоваться и в качестве нового наименования явления, уже имевшего в языке название. В последнее время часто можем наблюдать такую ситуацию в случае с корейским языком на примере английского. Например: 집사람 [jibsaram] – 와이프 (от англ. wife), 여보 [yeobo] – 하니 (от англ. honey), 의사 [uisa] – 닥터 (от англ. doctor) и др. [4:43].

Ключевые слова: *суффикс множественного числа, эпоха, грамматическое развитие, письменные памятники, диалект, узбекский литературный язык, фонетическое различие.*

Annotation: *This article is based on the development of plural suffixes found in ancient written monuments. Illustrated with examples from scriptures. It is explained that the additives were studied by several scientists until they came to a certain appearance, a mold. In this article, the stages of development of additives are divided into periods, and the purpose of this article is to show examples of additives for each period.*

Key words: *Plural suffix, era, grammatical development, written monuments, dialect, Uzbek literary language, phonetic difference.*

Kirish

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan barcha turkiy tillar singari agglyutinativ til hisoblanadi. So‘z shakllari so‘zning asosiga maxsus qo‘shimchalarni muayyan tartibda qo‘shilish yo‘li bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillardir. Qadimgi turkiy til morfemalari hozirgi o‘zbek adabiy tili va singarmonizmni qisman, ba’zan butunlay yo‘qotgan shevalardan singarmonistik turlarining mavjudligi bilan farqlanadi.

Lekin bu sof morfologik farq bo‘lmay, fonetik farq hisoblanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida morfemalari miqdor jihatidan qadimgi turkiy tildagi morfemalarga nisbatan ko‘p va mazmun semalari ham mazmudordir.

2. O‘rganilayotgan davr tilida hozirgi o‘zbek tilida mavjud bo‘lmagan morfemalar ham ko‘zga tashlanadi.

3. Qadimgi turkiy tilda so‘z va shakl yasovchi o‘zlashma morfemalar uchramaydi.

4. Qadimgi turkiy tilda murakkab morfemalar juda ozchilikni tashkil etadi.

Asosiy qism

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi qo‘shimchalarning tarixiy taraqqiyot tamoyillari qiziqarli va ayni damda muammoli bosqichlardan iborat. Qo‘shimchalar ma’lum bir ko‘rinishga, qolibga kelguniga qadar bir nechta olimlar tomonidan tadqiq qilindi. G‘.Aydarov, M.Tomanov, A.Qurishjanov va bosh olimlarning asarlari bu borada katta ahamiyatga ega. Mazkur maqolamizda qo‘shimchalarning taraqqiyot bosqichlarini guruhlarga ajratgan holatda har bir davrga tegishli qo‘shimchalarni misollar bilan ko‘rsatishdan iborat. Hozirgi o‘zbek adabiy tili grammatikasida mavjud ko‘plik qo‘shimchalarini qadimgi turkiy til morfologik holatidagi qo‘shimchalar bilan qiyoslab ko‘rsatish orqali mavzuni yoritib beramiz.

Natijalar va muhokama

-*lar* ko‘plik shakl hosil qilishning asosiy ko‘rinishi, shu sababli ham yodgorliklar tilida bu qo‘shimcha juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llaniladi. Tovush moslashishi bo‘yicha asosning so‘nggi bo‘g’ini qalin bo‘lsa -lar, ingichka bo‘lsa -ler shakli qo‘shilgan. -lar affiksining etimologiyasi bo‘yicha turkologiyada ko‘plab munozaralar mavjud. Polyak olimi T.Kovalskiy mazkur masalaga oid tadqiqotida -lar affiksining kelib chiqishi aslida chama sonni ifodalagan deydi. Ya’ni bir nechta, ko‘p ma’nosida. V.A.Bogoroditskiy esa qo‘shimchaning 3 shaxs egalik qo‘shimchasi men-ar yig’indisi sifatida qaraydi. Ya’ni avval ol-ar shundan keyin asos qisqarib -larshakliga o‘tgan deydi. Taniqli fin tadqiqotchisi G.Ramsted esa qo‘shimchaning kelib chiqishi mo‘g’ul tilidagi nar deb izohlaydi. Mo‘gulcha nar el, xalq degan ma;noni ifodalaydi. N.A.Baskakovning tadqiqotida lar yasovchi qo‘shimcha sifatida ismlar tarkibiga qo‘shilishini keyinchalik semantic o‘zgarish asosida shakllanganligini aytadi. -lar affiksining etimologik tarkibi haqidagi oxirgi fikrni Kononov aytdi. U -lar qo‘shimchasi dastlabki shakli -l hozirgi tungus tilidagi ko‘plik qo‘shimchasi, bu qo‘shimcha turkiy tillardagi -lar bilan birga -lan va -la qo‘shimchalari tarkibida saqlanadi deb hisoblaydi. -lar qo‘shimchasining -la qo‘shimchasi bilan asosdosh ekanligini B.A.Serebrennikov qo‘llab-quvvatlaydi.

-t qo‘shimchasi orxun-enasoy yozuvlarida unvon-darajani bildiruvchi tarqat-tarxan, tigin-tigit singari so‘zlarida uchraydi. Bu qo‘shimchani olimlar mo‘g’ul tilidan o‘zlashgan deb taxmin qilishadi. Chunki qo‘shimchaning qo‘shilish tartibimo‘g‘ul tiliga asoslangan, ya’ni qo;shimcha qo‘shilgan vaqtda so‘zning oxirgi tovushi tushib qoladi: tarqan-tarqat.

-t qo‘shimchasi zamon tomidan O‘rxun-Enasoy yozuvlaridan keyingi davrga tegishli yodgorliklarning hech qaysisida faol qo‘shimcha bo‘lmagan. X-XIII asrga tegishli yodgorliklarda ba’zi so‘zlar uchrasa ham ularda to‘lig‘i bilan-lar affiksi qo‘llanilgan. P.M.Melioranskiy o‘zining “Kultegina qo‘yilgan yodgorlik” asarida ba’zi so‘zlar tarkibida keluvchi -t qo‘shimchasini asosdan ajratishga bo‘lmasligini aytadi. Qadimgi yozma yodgorliklarni tadqiq qilgan olimlarning yana biri A.Gaben ko‘plik qo‘shimchalarining yana bir shakli -(a)n ham bo‘lgan deydi. Misol tariqasida eran so‘zini keltiradi. A.N.Kononov ham bu qo‘shimchani ko‘plik sifatida qaraydi va og‘lan so‘zini misol keltiradi. S.E.Malov esa biz so‘zidagi z harfini ham ko‘plik shakldeb qaraydi. O‘rxun-enasoy obidalarida -z ko‘plik hosil qiluvchi erkin qo‘shimcha sifatida qo‘llanilmaydi, bu o‘rinda olim meniz-ko‘kuz,og’uz so‘zlarini misol qilib ko‘rsatib ular birdan ortiq ekanligi bilan izohlaydi. Shuningdek, A.N. Kononov ham yuz, sagiz, otuz, toquz so‘zlarida -z ayni mana shunday qo‘shimsha deb ta’riflaydi. Ayrim olimlar mazkur qo‘shimchani qadimgi turkiy til davridagi ikkilikni bildiradigan alohida qo‘shimcha deb ham qarashgan. Ammo qadimgi turkiy tilga tegishli ko‘plab juft tushunchaga soz’larning barchasi ham -z qo‘shimchasi bilantugayvermasligi bu holatni hali tadqiq qilish kerakligini ko‘rsatadi.

Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ko‘plik -ağut qo‘shimchasi bilan ham hosil qilingan degan qarashlar bor. Biroq bu qo‘shimcha bilan yasalgan so‘zlar ko‘plikni bildirmaydi. Masalan, ST da: alpağut – pahlavon, *bayağut* – boyon. Xulosa qilib aytganda, qadimgi turkiy tillarda ham ko‘plik ma’nosini ifodalovchi –larshakli qo‘llangan. Faqatgina –lar shaklidan tashqari bir qancha qo‘shimchalardanham ko‘plik ma’nosini ifodalash uchun foydalanilgan

Yodgorliklar tilida ko‘plik qo‘shimchasi leksik shaklda ikki xil usulda amalga oshirilgan. Birinchi, ko‘plik ma’no alohida so‘zlarni qo‘shish bilan yasalgan bo‘lsa, yana so‘zlarni takrorlash orqali ham ko‘plik ma’no hosil qilingan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida quyidagi so‘zlar ko‘plik ma’noni ifodalaydi:

1. Urug‘, toifa, xalq nomlarini bildiruvchi jamlikni bildiruvchi so‘zlar: qibchaq-qipchaq, og‘uz-og‘iz, turk-turki.
2. Leksik ma’nolarda ko‘plik tushunchasi mavjud so‘zlar: ko‘z-ko‘z, adaq-ayaq, qulg‘aq-qulaq.

3. Yakkalab sanash mumkin bo‘lmagan ba’zi otlar: altun-oltin, kumush-kumush, sach-soch.

4. -lig‘, liq qo‘shimchalari orqali yuzaga kelgan ba’zi so‘zlar alohida ma’noda ham ko‘plik ma’nosida ham uchraydi: qag‘anliq-qag‘andiq, beglig-bektik.

Xulosalar

Yozma manbalarda *–an, -un , gun (g’un) ,g’in (gin) , qin* va boshqa shakllari ham uchraydi degan qarashlar mavjud. Ammo Mahmud Qoshg’ariy -an ko‘plik forma emasligini ta’kidlaydi. Qadimgi turkiy tilda *–d (t), -z (s) , an , un, g’un , gun* vaboshqa shakllarning otlarning ko‘plik kategoriyasini tashkil qilishiga shubha tug’diradi. Hozirgi o‘zbek tilida siz aslida tinglovchi ko‘pligidir. Biroq yoshi, martabasi ulug‘, hurmati bor kishilarga ham siz deb murojaat qilinadi. Tilimizda “sizlab gapir”, “senlab gapir” degan iboralar ham bor. Birinchisi hurmatni, keyingisi esa yaqinlikni, yosh va darajasi quyi kishilarga bo‘lgan murojaatni, kerak bo‘lganda salbiy ohangda hurmatsizlikni, hatto mensimay so‘zlashni ham bildiradi. Demak, hurmatning grammatik ko‘rsatkichlaridan biri so‘zning ko‘plik shaklidir. Tinglovchi va o‘zga ko‘pligini (siz, ular), otlardagi tinglovchilar va o‘zgalar egaligini (sizniŋ, ularnïŋ), fe’llardagi tinglovchilar va o‘zga kishilarning harakat va holatini (ya’nishaxs-sonni) bildiruvchi qo‘shimchalar, o‘rni bilan, hurmatni ham bildiradi. Masalan, dadamlar, ayïmlar deganda ko‘plikni emas, ularga bo‘lgan hurmatni ifodaymiz. Nutq jarayonida hurmat shu qadar kuchliki, hatto hurmatga sazovor kishining ish-harakati va holatiga, unga tegishli narsalarga ham hurmatni bildiruvchi qo‘shimcha qo‘shib so‘zlanadi. Masalan: *Dada, avqatïŋïznï yeb alïŋ* gapini olaylik. Avqat so‘zi otaga tegishli, shuning uchun unga hurmatni bildiruvchi *-ïz* qo‘shimchasini qo‘shib *avqatïŋïz d*eyiladi. Keyingi *yeb al-* fe’li ham otaga qarashli, shuning uchun u ham hurmat shaklida (yeb alïŋ). Endi Dadamlar *išdän kelgänläridä avqatlarïnï ïsïtïb berdim* gapidagi hurmatga e’tibor beraylik. Dadamlar so‘zidagi *-lar* otaga bo‘lgan hurmatni bildiradi; *kelgänläridä* so‘zi ham otaning harakati, shuning uchun ham u hurmat shaklida; avqat ham otaga tegishli, shundan kelib chiqib, unga ham -larqo‘shiladi. Endi ïsïtïb berdim so‘zi menga tegishli; shu yerda gapdagi hurmat darajasibir pog‘ona pastga tushadi: unga -lar qo‘shimchasi qo‘shilmaydi. Ko‘plik shaklihurmatni ifoda etganligini Mahmud Koshg‘ariy ham ta’kidlagan edi. Uning yozishicha, turklar sen so‘zini kichiklarga, xizmatchilarga hamda so‘zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llaganlar. O‘zlaridan yuqori hurmatli kishilarni siz deganlar. O‘g‘uzlar esa, aksincha, kattalarga sen, kichiklarga siz deb qo‘llaydilar. Ko‘plikda ham shuni ishlatganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Айдаров Г. «Язык орхонских памятников древнетюркской письменности VIII века». Алма-ата: Наука, 1971, 380 стр;
2. Айдаров Г. «Язык орхонских памятника Бильге-кагана», Алма-ата: Наука, 1966, 96 стр;
3. Айдаров Г. «Көне турки жазба ескерткиштеринин тили», Алма-ата: Мектеп- 1971, 272 бет;
4. Аманжолов, А.С. «Тюркская руническая графика», Алма-ата: Наука, 1980, 180 стр;
5. Азимов И., Раҳматов М., «Қадимги туркий тил», Тошкент-2005,134-бет;
6. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. «Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси», Т-2008;
7. Содиқов Қ., «Эски туркий матнлар», Т-2009.
8. Содиқов Қ., «Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши» Т-2006;
9. Ruslanovna, Allambergenova Muqaddas, and Allambergenov Davronbek Maxsudovich. «QADIMGI TURKIYLAR SHAKLLANISHI VA TURK ATAMASINING KELIB CHIQISHI.» *E Conference Zone*. 2022.
10. Allambergenova M. BITIGLAR USLUBI VA UNI TUSHINISH MASALASI //Barqaror Taraqqiyot va Rivojlanish Tamoyillari. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 103-106.

DEDUCTIVE AND INDUCTIVE WAY IN TEACHING GRAMMAR

Nargiza Fuzaylova,
Teacher, Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail:nargizafuzaylova@gmail.com

Abstract: *This article explores the differences between teaching grammar through inductive and deductive methods. By giving examples, inductive teaching promotes critical thinking and autonomy in learners by allowing them to independently uncover grammar rules. Conversely, deductive instruction gives learners clear direction by outlining the rules in advance. Knowing the subtle differences between inductive and deductive methods can help teachers choose the best strategy for teaching grammar based on learner preferences and learning objectives.*

Key words: *inductive, deductive, prescriptive, descriptive, reference, formal, monolingual classroom, authentic material, grammatical structures.*

Абстракт: *В этой статье исследуются различия между обучением грамматике индуктивным и дедуктивным методами. На основе приведения примеров автор показывает, что индуктивное обучение способствует критическому мышлению и самостоятельности учащихся, позволяя им самостоятельно раскрывать грамматические правила. И наоборот, дедуктивное обучение дает учащимся четкое направление, заранее излагая правила. Знание тонких различий между индуктивным и дедуктивным методами может помочь учителям выбрать лучшую стратегию преподавания грамматики, исходя из предпочтений учащихся и целей обучения.*

Ключевые слова: *индуктивный, дедуктивный, предписывающий, описательный, формальный справочный, одноязычный класс, аутентичный материал, грамматические конструкции.*

Abstrakt: *Ushbu maqola induktiv va deduktiv usullar orqali grammatika o'rgatish o'rtasidagi farqlarni o'rganadi. Induktiv o‘qitish misollar keltirish orqali o‘quvchilarda grammatik qoidalarni mustaqil ravishda ochishga imkon berib, ularda tanqidiy fikrlash va mustaqil ishlashni rivojlantiradi. Aksincha, deduktiv metod o'quvchilarga qoidalarni oldindan aytib berish orqali aniq yo'nalish beradi. Induktiv va deduktiv usullar o'rtasidagi nozik farqlarni bilish o'qituvchilargao'quvchilarning xohish-istaklari va o'quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda grammatikani o'qitishning eng yaxshi strategiyasini tanlashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar *: induktiv, deduktiv, ko'rsatma, tavsif va tasnif, havola rasmiy, bir tilli sinf, haqiqiy material, grammatik tuzilmalar.*

Introduction

In language education, there has long been discussion over the merits of teaching grammar deductively vs inductively. Inductive and deductive techniques to teaching grammar are examined in this abstract along with its features, benefits, and drawbacks. This abstract attempts to provide insights into how best to optimizegrammar instruction for learners by examining each method's efficacy in language learning contexts.

Deductive and inductive methods

There are some ways to teach grammar in the English language. Many instructors use deductive and inductive grammar teaching methods in their classes; however, teaching grammar through context is extremely effective. Is grammar by context useful? I try to discuss this question based on some scientists' opinions andmy own experience. According to Harmer (1999), «Teaching grammar in context will give learners an opportunity to understand how language works, and this will improve their communication skills». Taking this into account, students can effectively learn grammar by context and create something new for themselves.When instructors teach grammar by context, they pay attention to the meaning of the texts and can debate the texts in a small group and individually. The students are thengiven a task to find a grammar theme and identify grammar rules. It helps to develop their critical thinking, and in addition, they consolidate the new theme through doing tasks and exercises. Teaching grammar through context improves speaking and reading skills, and communicative ability is essential in learning context.

On the other hand according to my experience, teaching grammar in context is more effective than teaching it in isolation. Teaching grammar in isolation means teaching grammar in a traditional way, namely by rules. It is a bit difficult to learn grammar, especially at the beginner and elementary levels. They cannot understand rules in detail, and as a result, they cannot do exercises individually. Adults can acquire grammar rules in an isolated way because they feel responsibility and try to learn them. As Stephen noted (2007), «the main benefit of traditional grammar is that it gives learners a basic understanding of the building blocks of language, which can help in improving their writing skills». According to this, adult learners and intermediate-level students can learn grammar in a traditional way and try to complete writing tasks individually. It does, however, waste a lot of time for students,but it is an effective way to learn grammar. Grammar plays an important role in teaching and learning English. While I watch the video, I gain information about four types of grammar, such as prescriptive, descriptive, reference, and formal grammar. Prescriptive and descriptive grammar, according to this, are more relevant and appropriate in teaching students for new teachers. Prescriptive grammar mainly focuses on the traditional approach: what forms teachers should utilize, what functions they should follow, and how to use structures. This grammar helps to improve writing and speaking skills. Descriptive grammar refers to how to write and speak as a native English speaker. I think learners can be free when they learn this grammar because there is no right or wrong way to use language. As a learner, I

would like to use both of these grammar types. Because proper language learning requires the use of forms, structures, and examples,

According to Thornbury (1999), «grammar teaching has always been one of the most controversial and least understood aspects of language teaching.» Considering this, adult learners tend to follow grammar rules when they use a language. Incontrast, nowadays, teaching grammar is based on making examples, doing tasks, andcreating rules by themselves. There are several methods to organize interesting lessons; in addition, creativity is important when using methods during lessons.

Accordingly, I consider the deductive and inductive ways of teaching grammar. In my experience, I utilize both methods of teaching in my classes. If I want to save our time effectively, I use deductive grammar in my lessons. However, students can discover grammar rules by doing exercises and practicing inductive grammar. When I teach my elementary-level classes, I pay attention to using inductive grammar in many cases. Moreover, I motivate my pupils by encouraging good grades and praising them. They make up sentences by themselves and do tasks; after that, they learn themes easily, which enhances their interests and knowledge.

Conclusion

The comparison of deductive versus inductive grammar learning highlights the value of using a variety of teaching methods in language instruction. Teachers might modify their pedagogical approaches to maximize grammar education for students by acknowledging the advantages of both approaches. To meet the various demands and learning preferences of language learners, the integration of inductive and deductive approaches in grammar instruction can provide a well-rounded and all-encompassing learning experience.

REFERENCE

1. Bal Ram Adhikari (2020) *“Student Teachers’ Views on Grammar and Grammar teaching, and its communication to their students”* Tribhuvan University
2. Cagri Tugrul Mart (2013) *“ Teaching grammar in context: Why and How?”* Ishik University
3. Dixon, R. M. W. (2005). *A Semantic Approach to English Grammar*. Oxford University Press.
4. Leech, G. N. (2006). *A Glossary of English Grammar*. Edinburgh University Press. Ehrlich, E., & Murphy, D. J. (1991). *Schaum’s Outline of English Grammar*. McGraw-Hill Professional
5. Abdusamatovna F. N. Gaming in the classroom and Gamification //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 450-455.

6. Rakhmanberdiyeva K. S. FORMATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN STUDENTS //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 328-330.
7. Nargiza Abdusamatovna Fuzaylova. (2023). Genre in Academic Prose: What Makes Academic Prose Different from Other Varieties. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 25, 34-37. Retrieved from https://sjii.indexedresearch.org/index.php/sjii/article/view/1009
8. MAXMUDOVA U. F. PRAGMATIC PROBLEMS IN TEACHING ENGLISH //International Scientific and Current Research Conferences. – 2023. – C. 498- 503.
9. Technologies Of Organizing Independent Education In Teaching Students Foreign Languages (In The Case Of Non-Philological Universities). (2023). *Boletin De Literatura Oral - The Literary Journal*, *10*(1), 4005-4010. https://www.boletindeliteraturaoral.com/index.php/bdlo/article/view/787
10. Raxmanberdiyeva K. S. TALABALARGA CHET TILI O ‘QITISHDA MUSTAQIL TA’LIM TEXNOLOGIYASI TAHLILLARI //Scientific progress. – 2022. – T. 3. – №. 2. – C. 194-197.

TABIAT HODISALARINI ATOVCHI NOMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATI

Zohida Muqimova,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: zohidamuqimova@gmail.com

***Annotatsiya**. O‘zbek tili barqaror birliklarida tayanch vazifa bajargan tabiat hodisalarini nomlovchi birliklarning lingvomadaniy xususiyati yoritildi.*

Kalit so‘zlar: Lingvomadaniy kod, makoniy kod, predmetli kod, somatik kod, zoomorf kod.

Til – madaniyat mahsuli, uning muhim tarkibiy qismi, yashashining sharti, madaniyat kodlarining shakllanish omilidir” [Usmonova Sh. 2:14]. Keyingi yillarda dunyo filologlarining diqqat markazida bo‘lgan madaniy kodlarning o‘rni masalasi ham tilshunoslikda alohida ahamiyatga egadir.

Madaniy kod “Muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot”[Xudoyberganopva D. 3:60]dir. Madaniy kodlarni o‘rganish, ularni lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq qilish o‘zi mansub bo‘lgan millatning yashash hududi, turmush tarzi, mental xususiyatlari va milliy-madaniy xarakterini, ijtimoiy munosabatlarini, muomalasining axloqiy-madaniy me’yorlarini, milliy qadriyatlari, an’analarini atroflicha tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek tili barqaror birliklaridagi tabiat hodisalarini atovchi nomlar ham o‘zbek millatining milliy madaniyatini o‘zida yaqqol ifodalaydi. Tabiat unsurlari: suv, havo, olov, tuproq; tabiat hodisalari: shamol (el), bo‘ron, chaqmoq, momaqaldiroq, yomg‘ir, sel, do‘l, qor, muz, bulut, tuman va shu kabilar butun Yer sayyorasiga xos bo‘lib, uning har bir burchagida o‘zini turli yo‘sinda namoyon qiladi. Bularni har bir millat kishisi o‘z nigohi bilan ko‘radi va o‘z tafakkurida idrok qiladi. Mazkur maqolada o‘zbek tili ibora, maqol va topishmoqlarida tayanch komponent bo‘lgan shamol (el), bo‘ron, chaqmoq, momaqaldiroq, yomg‘ir, sel, do‘l, qor, muz, bulut, tuman so‘zlarining lingvomadaniy xususiyati yoritildi.

Shamol lingvomadaniy kodi (LK) o‘zbek xalqi iboralarida faol qo‘llaniladi. Masalan, *ko‘kragiga shamol tegmoq* iborasida *shamol* lingvomadaniy kodi “tang holatdan qutulib, erkin, yengil sharoitga chiqmoq, erkin nafas oladigan bo‘lmoq”, *shamolga uchmoq* (yoki *ketmoq*) iborasida “behuda ketmoq, sarf bo‘lmoq”, *shamolni ravo ko‘rmaydi* iborasida “hech narsani” ma’nosini, *qanday* (yoki *qaysi) shamol uchirdi*? iborasida esa “qanday sabab, nimaning sharofati bilan tashrif buyurdingiz, keldingiz?” ma’nosini ifodalaydi [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 8: 582].

Adabiyotlarda *Ko‘pchilik tikilsa, tog‘ qulaydi*; *Xalq puflasa, bo‘ron bo‘lar, Xalq tepinsa – zilzila* maqollari *Ko‘pdan quyon qochib qutulmas* maqolining varianti sifatida beriladi. Maqolning majoziy ma’nosidan ko‘pchilik birikib, hamjihat bo‘lib ishga kirishsa, har qanday mushkul ishning ham uddasidan chiqadi degan mazmun anglashiladi. *Xalq puflasa, bo‘ron bo‘lar, Xalq tepinsa – zilzila* maqolida ham ko‘pchilik qudratli kuch ekanligi, jamoadan ajralish, ko‘pchilikni yomonlash va unga yomonlik qilish salbiy oqibatlarga olib kelishi *bo‘ron*, *zilzila* lingvomadaniy kodlari vositasida ko‘rsatilgan.

Bo‘ri bo‘ronda quturar maqolida *bo‘ron* LK falokat, ofat, og‘ir siyosiy vaziyat ma’nolarini, *bo‘ri* zoomorf kodi tekintomoq odamlar qiyofasini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Ma’lumki, bo‘ri, ayniqsa, bo‘ron va izg‘irin avjiga chiqqan mahal o‘ljaizlaydi. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lgan paytda u o‘ljasiga osonlikcha erishadi. Berahm, yovuz kishilarning “bo‘ron”da ko‘zlangan yomon maqsadi yo‘lida “quturishi”, biror o‘ljaga erishishi bo‘rining ushbu xudbinligiga, tajovuzkorligigaqiyoslangan.

Yel o‘tar, cho‘qqi qolar, bosh ketar, do‘ppi qolar hamda *Suv oqar, tosh qolar, o‘sma ketar qosh qolar* maqollari bir mazmunni aks ettiradi. *Yel o‘tar, cho‘qqi qolar, bosh ketar, do‘ppi qolar* maqolida *yel* lingvomadaniy kodi ijtimoiy silkinishlarni, *cho‘qqi* makoniy kodi vatan, xalq, borliq, *bosh* somatik kodi inson hayoti, umri, *do‘ppi* predmet kodi esa insonning hayoti davomida orttirgan narsasi, boyligi ma’nosini o‘zida ifodalaydi. Ma’lumki, yel – engil, mayin shamol. *Yelday kelib,selday olsin* maqolida *yel* kodi “yengil, oson” ma’nosini *Yelning ishi sovurmoq, o‘tning ishi qovurmoq* maqolida esa *yel* kodi shamolning qum va tuproqni ko‘chirish, yong‘inlar maydonini kengaytirish, kerakli-keraksiz urug‘larni tarqatish, sovuq havoda organizmlarni halok qilish “kuchi”ni o‘zida jamlagan. Ushbu maqol ko‘chma ma’noga ega bo‘lib, undagi *yel* lingvomadaniy kodi shoshqaloq, o‘ylab ishqilmaydigan, *o‘t* lingvomadaniy kodi esa qiziqqon kishilar ramzini ifodalaydi.

Kuchingni yelga berma, yerga ber maqolida *yel* kodi “behuda, bekor, foydasiz” ma’nolarini anglatadi. Mazkur maqol orqali kishilarga kuchingni yel, ya’ni shamolga berma, yerga ber: gul ek, daraxt ek, yerni bog‘-u bo‘stonga aylantir deb nasihat qilinmoqda. *Kuchingni yelga berma, yerga ber* maqolining birinchi gapidan anglashiladigan mazmun *yelga uchmoq*, *yelga uchirmoq* (yoki *sovurmoq*) iboralarida ham ifodalanadi. *Yelga uchmoq* iborasi *havoga ketmoq* iborasi bilan, *yelga uchirmoq* (yoki *sovurmoq*) iborasi *havoga sovurmoq* (yoki *sovrilmoq*) iborasi bilan ma’nodosh bo‘lib, bir xil ma’noni ifodalayapti. Ushbu iboralarda *yel* so‘zi bilan *havo* so‘zi o‘zaro ma’nodosh hisoblanadi.

Yomg‘ir lingvomadaniy kodi ham xalq ibora va maqollarida keng qo‘llanilgan. Masalan, *Yog‘mir yog‘sa, to‘rg‘ay bolasin yashirar, Do‘l yog‘sa, o‘z boshin yashirar*; *Yomg‘ir tilasang, momaqaldirog‘idan qo‘rqma*. Yomg‘ir do‘l va momaqaldiroqqa nisbatan kuchsizroq tabiat hodisasidir. Mazkur maqollarda unchalik katta bo‘lmagan, zarari kam bo‘lgan ziyon-zahmat, ofat-kulfat yomg‘irga, kuchliziyon-zahmat, ofat-kulfat do‘l va momaqaldiroqqa o‘xshatilgan.

Muz suvning nol darajagacha sovushi natijasida qotgan holati yax [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6:301] bo‘lib, *Yoshlikda bilgani – toshga yozgani, Qarilikda bilgani – muzga yozgani* maqolida o‘z ma’nosida qo‘llangan. Inson xotirasining yoshligida kuchli bo‘lishi, xotirada muhrlangan bilimlar to umrining so‘nggigacha asqotishi toshga mustahkam qilib o‘yilgan naqshga, insonning keksalik davrida o‘rgangan bilimi esa tosh kabi qattiq bo‘lgan muzning quyosh chiqishi bilan erib ketishiga qiyoslangan. Bunda *tosh* lingvomadaniy kodi mustahkamlik ramzi bo‘lib kelgan. *Muz* lingvomadaniy kodi vositasida qarilikda olgan bilim vaqtinchaligiga, oz fursat ichida esdan chiqishiga ishora qilingan.

Muzdan suv tomadi, so‘zamoldan – bol maqolida *muz* lingvomadaniy kodida muzning erishiga ishora qilinib, xulqi xunuk, turqi sovuq odamdan be’mani, yoqimsiz gap chiqishi, alal-oqibat uning ahamiyatsiz bo‘lishi, “erib ketishi” uqtirilgan.

Murdor suvning to‘kiladigan joyi handak; *Iflos suv o‘raga tushadi, Toza suv – hovuzga*; *Iflos suv – botqoqda yaxshi* maqollarida *murdor suv*, *iflos suv* yomonlik, *toza suv* esa yaxshilik ramzi sifatida keltirilgan. *Muz erisa – suv bo‘lur, Suv sovisa – muz bo‘lur* maqolida ham *muz*, ham *suv* majoziy ma’noda odamni anglatib, *muz* qahri qattiq kishi, *suv* xushmuomalali inson timsolida kelgan, ya’ni maqolning ko‘chma ma’nosida qahri qattiq odamning ham yaxshi gap bilan ko‘ngli erishi, yomon gap sababli yaxshi, rahmdil, xushmuomalali inson qahri qattiq odamga aylanishi tasvirlangan.

Mazkur topishmoqlarda tirnoq, tuxum *muz* lingvomadaniy kodi vositasida yaqqol tasvirlangan. *Besh kampir, Besh kampirning orqasida besh muz yopishibturibdi* (*Qo‘l, barmoqlar, tirnoq*); *U nimadir, o‘tga tushsa, muz bo‘lar, O‘zga muzlar o‘tga tushsa, suv bo‘lar* (*Tuxum*). *Quv yog‘och-a, quv yog‘och, Quv yog‘ochda besh yog‘och, Besh yog‘ochga qor yoqqan, Qor ustiga qon tomgan* (*Qo‘l, barmoqlar,xina*) topishmog‘ida esa tirnoq *qor* lingvomadiniy kodi vositasida berilgan. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘zbek xalq topishmoqlarida *qor* lingvomadaniy kodi paxtani (*Qorday oppoq, Yungday yumshoq* (*Paxta*), tuxumni (*O‘zi dumaloq, Qor kabi oq* (*Tuxum*), (*Qoziqda qor turmas* (*Tuxum*), unni (*Past osmondan qor yog‘ar* (*Elak*), shakarni (*O‘zi oppoq qor emas, Non bo‘lmaydi, un emas* (*Shakar*), shirguruchni

(*Qozon ichida oppoq qor* (*Shirguruch*), balxitutni (*Bahor kelsa, ochilar, Bog‘ yo‘llarga sochilar. O‘zi qor kabi oppoq, Erimaydi u biroq* (*Tut*), (*Nega dov-daraxt oppoq, Hozir qishmas-ku, bahor. Ko‘kda oftob charaqlar, Daraxtda erimas qor* (*Tut*) ifodalab keladi.

Qor boshiga qor etadi, Xon boshiga xon yetadi maqolining ikkinchi qismidan o‘tgan zamonlarda xonlarning (tarixdan ko‘rinadiki, shohlar, podsholar, amirlar, beklar ko‘proq yerlarga ega bo‘lish maqsadida bir-birlari bilan urush qilishgan) taxt uchun tez-tez urushib, bir-birlarining boshiga yetishi anglashiladi. Xonlarning bir- birining urushi tufayli sodir bo‘lgan ko‘ngilsizliklar qor erib, suvga aylanib, kechroq eriydigan qorlarning ham tagidan oqib o‘tib, ularni eritib, yo‘q qilib yuborish tabiiy holatiga tashbeh qilingan. Xalqiga azob bergan, o‘z zolimligi, toshbag‘irligi bilan ommaga zulm qilgan xon-u beklar holati *qor* lingvomadaniy kodi orqali yanadayorqin ifodalangan.

Dono xalqimiz o‘zining bir qancha maqollarida saxiylik, jo‘mardlik, ochiqqo‘llik naqadar ulug‘ fazilat ekanini ulug‘lagan bo‘lsa, baxillik, ziqnalik, xasislik shu qadar iflos, tuban, yaramas illat ekanini qoralagan. *Saxiy bulut boqqa yomg‘ir quyadi* maqolida saxiy, jo‘mard, ochiqqo‘l inson saxiy bulutga tamsil qilinib,uning odamlarga yaxshilik qilish kabi ijobiy fazilati zarur payti yog‘iladigan foydali yomg‘irga o‘xshatilgan.

Bulutli kecha shabnamsiz bo‘lur maqoli qo‘chma ma’noga ham ega. Insoniyat g‘am-qayg‘uli kunlarida, qiyinchilik damlarida, xohlaydimi-xohlamaydimi, ko‘ziga yosh oladi. Bunda *kecha* so‘zining aniqlovchisi bo‘lib kelgan *bulutli* so‘zidagi *bulut* lingvomadaniy kodi g‘am-qayg‘u – yurakka tahdid soluvchi yoki dilni qorong‘i qiluvchi har bir narsa, voqea-hodisani anglatgan.

Ma’lumki, tuman – atmosferaning quyi qatlamlarida yuzaga keladigan mayda suv yoki muz zarralari [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 7:416]dir. *Yiling tumanli bo‘lsa, Og‘rig‘ing tumovli bo‘lar* maqolida *tumanli* so‘zining asosi bo‘lgan *tuman* so‘zida mana shu o‘z ma’nosi yashiringan. G‘amginlikdan oqqan ko‘z yoshi, ko‘z yosh bilan o‘tgan umr tuman tushganda sodir bo‘ladigan holatga, tumanli havoda turli xil revmatizm, bo‘g‘imlardagi og‘riqlar, shamollash kabi kasalliklarning avj olishiga o‘xshatilgan.

Tilab olgan yomg‘ir – boshga balo maqolida havo quruq kelgan paytlarda yomg‘ir yog‘ishini istagan elning umidi, biroq bir boshlagan yomg‘ir hadegandatinmay, ezib yog‘ib, eyrni zaxlatib, ishni orqaga surib, ekin-tikinga ziyon-zahmat yetkazishi *tilab olgan yomg‘ir* lingvomadaniy kodi vositasida ifodalangan. Tilab

olingan farzand, kelin yoki kuyovning ko‘ngildagiday bo‘lmasligi, noma’qul, beodob, dilozor bo‘lishi tilab olingan yomg‘irga o‘xshatilgan.

Jalada qolgan yomg‘irdan qo‘rqmas. Ushbu maqolda *jalada qolgan* birikmasi otlashgan sifatdosh bo‘lib, *jalada qolgan odam* birikmasi o‘rnida qo‘llanilgan. “Jala – shiddatli yomg‘ir” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5:617], yomg‘ir esa “Bulutlardan suv tomchilari holida tushadigan, yog‘adigan yog‘in” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 8:214]. Bunda *jala* lingvomadaniy kodi qattiq – shiddatli qiyinchilik, *yomg‘ir* lingvomadaniy kodi unchalik katta bo‘lmagan qiyinchilik ma’nosini anglatadi. Mazkur maqol ilgari qattiq qiyinchiliklar ko‘rgan odam uncha-muncha qiyinchilikdan qo‘rqmaydi, bardosh beradi degan ma’no-mazmunga ega.

Do‘stga lola bo‘l, Yovga jala bo‘l maqolida *jala* lingvomadaniy kodi *jala bo‘lmoq* qo‘shma fe’lining tarkibiy qismi bo‘lib, yov-g‘animga, dushmanga nisbatan jaladek shiddatli bo‘lish ma’nosini ifodalaydi. Maqolning birinchi qismidagi *lola*biomorf kodi orqali lolaning beozorligiga ishora qilingan. Dono xalq mazkur maqol bilan kishilarni do‘stga lola kabi beozor bo‘lishga, dushmanni esa shiddat bilan yo‘q qilishga da’vat etgan. *Ko‘p yomg‘ir yerni buzar, Ko‘p so‘z erni buzar.* Ayonki, yomg‘ir haddan tashqari ko‘p yog‘sa, ekinlarga zarar keltiradi, hosilning sifatinibuzadi. O‘zbek er-yigitlariga xos bo‘lgan milliy xususiyatlardan biri kamgaplikdir. Agar bu me’yor buzilsa, er yigitning qadri, hurmati, yaqinlari va jamiyat orasidagi mavqeyi yo‘qoladi. Maqoldan keraksiz, o‘rinsiz, behuda so‘zlarni gapirgan er kishi haddan ortiq ko‘p yog‘ib hosilning sifatiga salbiy ta’sir etgan yomg‘irga o‘xshatilganianglashiladi.

El kuchi – sel kuchi. Sel bu – jalaga nisbatan shiddatli, kuchli yog‘in. Mazkur maqolda bir maqsad yo‘lida birlashgan xalq kuchi sel kuchiga o‘xshatilib, el birdamlikka, yakdillikka undalgan.

Tegirmonda tug‘ilgan sichqon momaqaldiroqdan qo‘rqmas. Ushbu maqolda ikki xil lingvomadaniy kod qo‘llanilgan. Biri – *tegirmonda tug‘ilgan sichqon* zoomorf lingvomadaniy kodi, ikkinchisi – *momaqaldiroq* lingvomadaniy kodi. Yoshligidan ishlab-ishlab mehnatda chiniqqan, ko‘p qiyinchiliklarni boshidan o‘tkazgan kishi sichqonga, o‘tkinchi azob, qiyinchilik esa momaqaldiroqqa o‘xshatilgan. *Bunda sichqon* zoomorf lingvomadaniy kodi mehnatda chiniqqan kishi, *momaqaldiroq* lingvomadaniy kodi o‘tkinchi, vahimaga soluvchi g‘am-qayg‘u, azob ramzini ifodalagan.

Do‘l lingvomadaniy kodi *Yomg‘ir yog‘sa, to‘rg‘ay bolasin yashirar, do‘l yog‘sa, o‘z boshin yashirar; Ayrilgan yo‘lda qolar, Bo‘lingan – do‘lda* kabi maqollarda qo‘llangan bo‘lib, u *Yomg‘ir yog‘sa, to‘rg‘ay bolasin yashirar, do‘l yog‘sa, o‘z boshin*

yashirar maqolida ham o‘z ma’nosida, ham ko‘chma ma’nosida, *Ayrilgan yo‘lda qolar, Bo‘lingan – do‘lda* maqolida ko‘chma ma’noda ishlatilgan.

Yomg‘ir yog‘sa, to‘rg‘ay bolasin yashirar, do‘l yog‘sa, o‘z boshin yashirar. Birgina to‘rg‘ay emas, boshqa jonzotlar singari odamzod ham o‘z bolasini avaylab, ardoqlab o‘stiradi, ofat-kulfatdan, balo-qazodan asraydi, ko‘kragini qalqon qilib, hatto o‘ziga ziyon-zahmat etkazib, o‘z hayotini xavf ostida qoldirib bo‘lsa ham, uni mudofaa qiladi, eng so‘nggi nuqtaga etgandagina (masalan, muqarrar o‘lim xavfi tug‘ilgandagina) o‘zini ham saqlash harakatiga tushadi. Mazkur maqolda ota-onaning ana shu jasorati, oliyjanob fazilati o‘z ifodasini topgan [Ma’nolar maxzani. 1:114]. Bunda *yomg‘ir* lingvomadaniy kodi ofat-kulfat, balo-qazo, ziyon-zahmat ramzi bo‘lib kelgan. *Do‘l* lingvomadaniy kodi *yomg‘ir*ga nisbatan kuchli kulfat, balo-qazo, ziyon-zahmatni ifodalagan. *Ayrilgan yo‘lda qolar, Bo‘lingan – do‘lda* maqolida *do‘l* lingvomadaniy kodi vositasida ko‘pchilikdan ayrilish, yolg‘iz yashash, elga qo‘shilmaslik salbiy oqibatlarga olib kelishi uqtirilgan. Ushbu maqollarda *do‘l* lingvomadaniy kodi ofat-kulfat, balo-qazo, ziyon-zahmat ramzi sifatida qo‘llanilgan.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosaga kelish mumkinki, barqaror birliklar o‘zi tegishli xalqning ijtimoiy-madaniy va madaniy-tarixiy jihatlarini o‘zida yaqqol aks ettiradi. Barqaror birliklarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish ular ma’no- mazmunini chuqurroq tahlil etish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ma’nolar maxzani. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. – B. 114.
2. Usmonova Sh. Lingvomadaniyatshunoslik. – Toshkent: “Bookmany print” nashriyoti, 2022. – B.14.
3. Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Tubo nashr, 2022. – B. 60.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki jildlik. – 2-jild. S–H. – Moskva, 1981. – B. 222.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikkinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 617.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Uchinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 301.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Beshinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 416.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Oltinchi jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 582.

ПРИНЦИПЫ ОТБОРА УЧЕБНОГО МАТЕРИАЛА С ПОЗИЦИЙ СИСТЕМНО-КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА

Л. Х. Белых,
старший преподаватель кафедры «Узбекский язык и литература» ТГУВ

Аннотация: *Данная статья посвящена формированию коммуникативных навыков при работе с текстом. В работе с текстом последовательно развиваются и активизируются навыки говорения, ведения дискуссии, творческого высказывания на базе живой разговорной речи.*

Ключевые слова: *текст, языковая компетенция, коммуникативность, интерактивность, языковые средства.*

Annotatsiya: *Ushbu maqola matn bilan ishlashda muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga bag'ishlangan. Matn bilan ishlashda jonli so‘zlashuv tili asosida so‘zlash, muhokama o‘tkazish, ijodiy ifodalash ko‘nikmalari izchil rivojlantiriladi va faollashadi.*

Kalit so'zlar: *matn, til kompetensiyasi, muloqot, interaktivlik, til vositalari.*

В настоящее время повышение качества образования является одной из важнейших проблем, решение которой связано с модернизацией содержания образования, усовершенствованием способов организации учебного процесса. Лингвист А.А. Леонтьев считает, что для полноценного общения человек должен обладать целым набором умений: быстро и правильно ориентироваться в условиях общения, уметь спланировать свою речь, правильно выбрать содержание, найти адекватные средства выражения мысли и обеспечить обратную связь.

Студенты-иностранцы, обучающиеся в Ташкентском государственном университете востоковедения, составляют особый контингент. Они должны за короткое время научиться общаться с людьми в бытовой, учебной и культурной сферах. Срок пребывания иностранцев, как правило, ограничивается одним учебным годом, в связи с чем возникает необходимость разнообразить учебный материал, сформировать языковую компетенцию и обогатить знаниями об Узбекистане иностранных учащихся, приезжающих в нашу страну на небольшой срок.

Обучающийся, владеющий русским языком, должен решать практические языковые задачи в повседневной жизни, в профессиональной и учебной сферах, поддерживать социально-деловое взаимодействие; владеть основами русской языковой системы. Основной целью обучения русскому языку студентов-иностранцев вузов является знание русского языка как средства общения,

поэтому на уроках не только изучается грамматический и лексическийматериал, но и закрепляются навыки и умения, которыми должны овладеть учащиеся, чтобы говорить, читать, писать и понимать по-русски.

Содержание обучения заключается в том, чтобы студенты-иностранцы знали практические основы современного русского языка, научились самостоятельному и свободному ведению рассуждения на русском языке, сформировали умения в применении приобретенных знаний и навыков. В течение учебного года студенты-иностранцы наряду с изучением основ русского языка овладевают навыками диалогического и монологического высказывания.

Наиболее эффективным условием формирования коммуникативных навыков методисты считают работу с текстом. Текст – это фундамент создания на уроках русского языка развивающей среды, основа структуры построения учебника, через текст осуществляются все цели обучения: образовательная, развивающая, коммуникативная, воспитательная.

Текст можно и нужно рассматривать как конкретизированный фрагмент речи и со стороны речевой деятельности, и со стороны речевого общения.

Экстралингвистические факторы определяют объем текста как единичного проявления речи – речевой деятельности и речевого общения и зависят от целей общения. По мнению А.И. Новикова, основными признаками текста являются «не грамматические показатели связности, а такие его свойства, как целостность, завершенность, которые имеют смысловой, содержательный характер, что и определяет их как психологические, речевые, коммуникативные явления». В работе с текстом последовательно развиваются и активизируются навыки говорения, ведения дискуссии, творческого высказывания на базе живой разговорной речи.

Работа с текстом на уроках русского языка позволяет расширять творческий потенциал учащихся, пополнять их словарный запас, улучшать качество речи.

В процессе обучения студентов-иностранцев работа над связным текстом занимает очень важное место. Работая над тем или иным текстом и стилем речи (чаще всего научным, художественным или официально-деловым), студенты должны овладеть разными жанрами, типичными для выбранного стиля: научиться писать сочинения, рефераты, эссе и т.д.

Задача преподавателя состоит в том, чтобы, используя свой опыт, подготовить студентов к правильному восприятию, пониманию и осмыслению

полученной информации и дальнейшему употреблению ее в учебной деятельности. Особую роль в воспитании и развитии языковой компетенции приобретают тексты лингвострановедческой направленности. Лингвострановедение не только не потеряло своей актуальности в настоящее время, но и получило новое развитие. Расширение и углубление образовательного пространства, международных контактов в различных сферах жизни общества усилило возрастающую культурообразующую функцию образования и обусловило поиск новых подходов в практике преподавания русского языка. В этих условиях опора на культуру приобретает особое значение.

Текст – это основа создания на уроках русского языка развивающей языковой среды. Использование текста при изучении русского языка обеспечивает решение таких важных проблем образования, как приобщение студентов к духовному богатству народа и красоте русского языка. Студенты-иностранцы, обучающиеся в ТГУВ, должны прочитать и проработать тексты не только об Узбекистане, но и о России, ее городах, писателях, ученых и т.д. В текстах, направленных на духовно-нравственное воспитание, должны освещаться культура, отношение к прошлому, настоящему и будущему, национальные традиции и проблемы экологии, поэтому в программу обучения введены такие лексические темы, как: «Республика Узбекистан», «Ташкент – столица Узбекистан», «Жизнь замечательных людей», «Алишер Навои», «Древние города Узбекистана», «Великий Шелковый путь», «Природа и общество» и т.д.

На занятиях преподаватели не только знакомят студентов с личностными качествами ученых, писателей, поэтов, но и закладывают общеобразовательные и духовные ценности, знакомят с достижениями и успехами Республики Узбекистан за годы независимости и т.д.

При организации учебного материала по смысловым и речевым ситуациям перед преподавателем русского языка в группе студентов-иностранцев встают следующие задачи:

- научить правильно употреблять словосочетания, предложения;
- научить правильно выбирать языковые средства;
- автоматизировать эту последовательность.

При работе с текстом преподаватель должен учитывать основные принципы:

- коммуникативность;

- интерактивность (вовлечение учащегося в диалог-дискуссию);
- концентричность в подаче лексико-грамматического материала (повторяю – расширяю – узнаю);
- сюжетное построение.

Основными целями текста как коммуникативной единицы являются следующие:

- активизировать и частично корректировать полученные ранее лексико-грамматические знания и одновременно их углубить и расширить;
- интенсивно активизировать и развивать навыки устного общения на русском языке (в формах диалога, монолога, свободной дискуссии), а также в письменной речи;
- увеличить словарный запас;
- перевести словарный запас из пассивного в активный;
- совершенствовать навыки интеллектуального анализа как языковых явлений, так и явлений жизни вообще.

Таким образом, при работе с текстом важным принципом отбора учебного материала с позиций системно-комплексного подхода является принцип одновременного учета смыслового содержания речи и совокупности лингвистических средств, необходимых для адекватного выражения смыслового содержания. Специфика смыслового содержания является одной их основных характеристик текстов, что позволяет говорить об их коммуникативной значимости при обучении.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. Е. М. Верещагин, В. Г. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. Лингвострановедение в преподавании русского языка как иностранного Костомаров. М.: Изд-во Русский язык, 1990. - 233 с.
2. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. М., 1982
3. Метс Н.А., Митрофанова О.Д. Структура научного текста и обучение монологической речи. М., 1981
4. Новиков А.И. Семантика текста и ее формализация. М., 1983
5. Леонтьев А.А. Язык и речевая деятельность в общей педагогической психологии. М.; Воронеж, 2001.
6. Севбо И.П. Структура связного текста. М., 1969
7. Тер-Минасова С. Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учеб. пособие). - М. : Слово/Slovo, 2000. - 624 с.

BOLALAR NUTQIDA QO‘LLANILGAN FRAZEMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Aziza Davlatova,
NavDPI tayanch doktoranti
E-mail: akmalovna116@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek bolalari nutqida ishlatiladigan idiomalar hamda ularning bola nutqida shakllanishi to‘g‘risidagi nazariyalar tahlil qilingan. Shuningdek, bu idiomalarning mazmuni lingvokulturologik jihatdan tahlil etilgan. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek bolalari nutqidagi idiomalarning muloqotdagi ahamiyati yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *idioma, lingvokulturologik tahlil, retseptiv va perseptiv ko‘nikma, tilning madaniy merosi.*

Idioma bu tilning obrazli ifodalanishida foydalaniladigan frazemalarning bir turi bo‘lib, tag ma’no hamda majoziy ma’no birlashgan so‘zlar yoki so‘zlar guruhidan tashkil topadi. Bola nutqida idiomalar real hayotdagi voqelikni rang-barang farqli tarzda gavdalantiradi. Bolalarda nutq rivojlanish darajasiga, yoshiga, uning madaniy muhitiga ko‘ra idiomalardan foydalanish shakllanib boradi. Natijada, avvalo, bola idiomani retseptiv ko‘nikmalar orqali eshitib tushunadi, so‘ng uni perseptiv ko‘nikmalar orqali o‘z nutqida aks ettira boradi. Bolalar frazemalarni, avvalo, og‘zaki nutq akti davomida ota-onasi yoki atrofdagi shaxslararo muloqot, enaga, o‘qituvchilar bilan so‘zlashuv jarayonida o‘rganadi.

Idiomatik iboralar, asosan, ko‘pchilik uchun umumiy ma’lum bo‘lgan iboralar bo‘lib, bir madaniyat, ijtimoiy guruh uchun tushunarli so‘zlardir, ammo ularni tillararo tahlil qilganimizda ular madaniyat yoki tilga qarab farq qilishi mumkin. Bu iboralar hech qachon tom ma’noda, ya’ni so‘zlarning shaklan ma’nosida qabul qilinmasligi kerak. Chunki ularni ma’lum mazmunda tillararo tarjima qilishimkonsizdir, agar ular tarjima qilinganda ham juda katta farqli ma’noni o‘z ichiga oladi [3]. Umuman olganda, insoniyatga ma’lum bo‘lgan idiomatik iboralarni tushunish, eng oddiylarini ko‘rsatish uchun bolalar nutqida ishlatish qulay bo‘lgan misollar keltiramiz.

Tomasello o‘zining kuzatishlari natijasida, foydalanishga asoslangan nazariyasida dastlab tilni o‘rganishda muloqot jarayonida bolaning ishtiroki muhimligi va shu muloqot jarayoni muhitida bolaning tili shakllanishini keltiribo‘tadi [2, b. 223].

Ingliz tilida idiomalar bolalar nutqida, dastlab, o‘z ma’nosida tushuniladi. Kattalar bilan muloqot avtomatlashishi natijasida idiomalardan kontekstga, ya’ni nutq mazmuniga ko‘ra foydalanishni boshlaydi. Masalan: ***it is raining cats and dogs***

idiomasini ko‘radigan bo‘lsak, *mushuklar va itlar yomg‘iri yog‘moqda* deb tarjima qilinadi. Agar siz bu iborani tom ma’noda qabul qilsangiz, mushuk va itlar haqiqatan ham osmondan tushib, qon va boshqa ichki tana a’zolarini yerga sochayotgan deb o‘ylaysiz. Biroq, bu idiomatik iboraning asl ma’nosi shuki, aslida tashqarida juda qattiq yomg‘ir yog‘moqda, jala quymoqda semantikasini ifodalaydi. Birinchi marta “yomg‘ir yog‘ayotgan mushuklar va itlar” iborasini 1651-yilda Olor Iskanus she’rlar to‘plamida qayd etgan bo‘lib, unda ingliz shoiri Genri Vogan “yomg‘ir yog‘ayotgan it va mushuklardan” himoyalangan tomni nazarda tutgan. O‘zbek tilida esa bu idioma “ko‘chada chelaklab quymoqda” degan iboraga to‘g‘ri kelib, kuchli yomg‘ir yog‘ayotganini nazarda tutadi.

“She spills the beans” *– u loviyalarni to‘kib yubordi* degan mazmunda to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinsa, tub ma’noda bu idioma ingliz bolalarining barcha bo‘lgan voqealarni oila a’zolariga aytib berishi yoki sirlarni bolalarcha aytib qo‘yishiga nisbatan ishlatiladi. Bu idiomani o‘zbek tilidagi ekvavalentiga esa *“og‘zida gap turmaydi”* degan ibora mazmunida lingvokulturologik jihatdan barcha ma’lumotlarni barchaga aytib qo‘yish nazarda tutiladi.

Idiomalar til madaniy merosining katta qismidir va ular ona tilida so‘zlashuvchilarga o‘z fikrlarini juda aniq tarzda yetkazishga yordam beradi. Idiomalarni nutqda qo‘llash borasida izlanishlar olib borgan olimlar idiomalarni to‘g‘ri tushunish zarurligini ta’kidlab, ulardan to‘g‘ri foydalanish haqida mulohaza yuritadilar. Xususan, Nippold ta’kidlashicha, bolalar nutqida idiomalarni ishlatish va foydalanish ko‘nikmalari taxminan besh yoshdan boshlab shakllanadi va o‘smirlik davrida asta-sekin rivojlanadi, ko‘nikmalarni egallash yoshi idiom mahoratining tarkibiy qismiga qarab farqlanadi. Shuningdek, idiomalar quyidagi tartibda o‘zlashtiriladi: identifikatsiya, ya’ni anglash, talqin etish, tushuntirish va keyin idiomalardan nutqda foydalanish (Caillies va Le Sourn-Bissaoui, 2013; Nippold va Taylor, 2002; Grunwell va Kerbel, 1998). Nikolenko va Spector esa idiomani bolalar nutqida foydalanishiga idiomalarni aniqlash bolalarda besh yoshdan boshlanishi mumkin va bu ko‘nikma 12 yoshgacha rivojlanadi (Nikolaenko, 2004; Spector, 1996) [4], – deb takidlaydi.

Sassiari va Levoratolar esa idiomalarni bolalar keng informativ muhitda 7 yoshdan boshlab ishlatishini ta’kidlab, bolalarda idiomalarni muloqotda qo‘llashdan ko‘ra tushunish osonroq ekanligi haqida xulosaga kelishgan. Olimlar tomonidan amalga oshirilgan 3 ta tajriba-sinov jarayonida 264 nafar bola ishtirok etgan. Tajriba natijasi shuni ko‘rsatadiki, bolaning muloqot jarayonida ishlatilgan idiomalar hamda bolaning bu idiomalardan xabardorligi bola nutqida idiomalarni qo‘llashda asosiy rol

o‘ynaydi [1, b. 415]. O‘zbek tilshunosligida esa bolalar nutqida idiomalar tahlilini o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xullas, bolalar nutqida emotsional-ekspressiv bo‘yoqdorlik katta yoshdagilar nutqiga nisbatan kamroq kuzatiladi, biroq bolalar shu qadar so‘zga chechan, fikrlash doirasi kengki, ular nutqida emotsional-ekspressiv bo‘yoq idiomalar orqali ifoda etiladi. Ushbu idiomalar vositasida ona tiliga muhabbat, kattalarga nisbatan hurmat-e’tibor, Vatanga bo‘lgan mehr-muhabbat yuzaga chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Levarota M.Ch. and C Cacciari. Children’s comprehension and production of idioms: the role of context and familiarity // Journal Child language. – Great Britain, 1992. – 415 p.
2. Vulchanova M., Vulchanov V., Stankova M. Idiom comprehension in the first language: a developmental Study // Vigo International Journal of Applied Linguistics Vol. 8. – Vigo, 2011. – 223 p.
3. https://www.examples.com/education/kid-friendlyidioms.html#google_vignette
4. https://discovery.ucl.ac.uk/id/eprint/10088872/1/Benjamin%2C%20Newton%20%26%20Ebbels%20%28in%20press%29.pdf

NUTQIY ETIKETLARNING TARJIMALARDA BERILISHI VA ULARNING TALQINI

Dilnoza Xodjayeva,
Tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi, TIMC instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada nutq madaniyatida tildan foydalanish qoidalarini amaliy qo‘llay olish, talaffuz va urg‘u talablariga rioya qilgan holda, so‘z birikmasi, jumla yoki gaplar tuzishning me’yoriy imkoniyatlari hamda chegaralarini bilishni talab etilishi xaqida fikrlar bayon etilgan. Nutq madaniyatida asosiy e’tibor nutqning aniqligi, sofligi, mantiqiyligi, ifodaliligi, ta’sirchanligiga qaratilgan bo‘ladi. Garchi bu sifatlar nutqiy etiket uchun ham ahamiyatli bo‘lsa- da, uning birliklari takrorlanuvchanligi, bir zayldaligi va barqarorligi bilan ajralib turadi. Nutq madaniyati lisoniy bilim va malakalar yig‘indisi bo‘lsa, nutqiy etiket ma’lum millat vakillari nutqida atrof-muhit, muayyan shart- sharoitlar, turli urf-odatlar ta’sirida yuzaga kelgan ifoda shakllaridan iborat bo‘ladi.*

Kalit so‘zlar: *Nutqiy etiket, suhbatdoshlar, millat tilini, axlo- qiy madaniyatda, notiqlik, nutq madaniyati.*

Аннотация: *В данной статье приводятся мнения о практическом применении правил употребления языка в культуре речи, требовании знать нормативные возможности и пределы образования словосочетаний или предложений, соблюдении требований произношения и постановки ударения. В культуре речи основное внимание уделяется точности, чистоте, логичности, выразительности и эффективности речи. Хотя эти качества важны и для речевого этикета, его единицам свойственна повторяемость, единообразие и устойчивость. Речевая культура – это совокупность языковых знаний и умений, а речевой этикет – это формы выражения в речи представителей определенного народа под влиянием окружающей среды, определенных условий и различных традиций.*

Ключевые слова: *Речевой этикет, собеседники, национальный язык, нравственная культура, ораторское искусство, культура речи.*

Kirish qismi: Aloqa, idrok va tafakkur kuroli sifatida til, shuningdek, biz dunyoni qanday ko‘rishimizni tavsiflaydi, O‘tmish, bugun va kelajak o‘rtasidagi aloqani aks ettiradi... Har bir insonda tug‘ilganidanoq tilning muayyan ta’sirlarni yuzaga keltirishiga, ya’ni hatto keyinchalik inson boshqa ko‘plab tillarga sohib bo‘lganda ham mutlaqo yo‘qolmaydigan, narsalarni o‘ziga xos tarzda ko‘rishni ato qilishiga ko‘ra ona tillari unikaldir. Xorijiy tilni o‘rganish bu dunyoni boshqacha ko‘rish bilan, boshqacha yondashuvlar bilan tanishish usulidir.

Nutqiy etiket deganda, suhbatdoshlar tomonidan o‘zaro aloqa o‘rnatish va uni maqsadli yo‘nalishda olib borish, saqlash uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan va qo‘llanish zarurati talab darajasiga ko‘tarilgan turg‘un muloqot qoliplarining milliy xarakterdagi maxsus kichik tizimlari tushuniladi.

Rus tilshunos olimi N.I.Formanovskaya[1] nutqiy etiketga quyidagicha ta’rif beradi. «Nutqiy etiket tushunchasi nutqiy xulqni tartibga soluvchi qoidalar, suhbatdoshlar o‘rtasida aloqa o‘rnatish, ko‘zlangan maqsadda aloqani saqlab turishva uni to‘xtatish uchun jamiyat tomonidan qabul qilingan tizimidir.

So‘zlashuv hayotning ma’lum andozalari bilan bog‘liq tarzda bir butun qolipdagi jumlalarni keltirib chikaradi. Ular hayotiy vaziyatlarga va suhbat mavzulariga aloqador bo‘ladi. Ma’lumki, bunday jumlalarning barcha tiplari boshqasiga nisbatan muayyan farklanishda bo‘ladi, aks holda, ularning tiplari farqlanmaydi.

Ammo nutq madaniyati ham nutqiy etiket kabi aloqa-aralashuv jarayoni uchun xizmat qiladi, ularning o‘xshash jihati shundaki, ikkisi ham muloqotni belgilangan me’yorda, kelishmovchiliklar va qarshiliklarsiz, maqsadga muvofiq tarzda olib borishga qaratilgandir. Nutqiy etiket tushunchasini nutq madaniyatidan farqlash zarur. Nutq madaniyatida o‘ziga xos talab - me’yor mavjud. Ya’ni yuqori nutq madaniyatiga ega bo‘lish uchun nutk egasida bilim va malakalar yetarli bo‘lishi bilan birga, o‘z fikrlarini til birliklari yordamida to‘g‘ri, anik va ifodali yetkazib bera olish mahorati ham mavjud bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, nutq madaniyatiga ega bo‘lish deganda, o‘z fikrini turli, ifodali va ta’sirchan xolda yetkazish maxorati nazarda tutilsa, nutqiy etiket birliklarini o‘rinli qo‘llash uchun o‘zaro muloqot ishtirokchilarining ma’lum mahoratga ega bo‘lishi emas, balki umumiy qoida talablari ko‘proq inobatga olinadi.

Nutqiy etiket birliklarining vazifalari, ahamiyati, ularning ishlatilish o‘rinlarini to‘laqonli tushunish uchun sotsiolingvistika, paralingvistika, lingvopragmatika kabilarning nutqiy muomala etiketlari bilan bog‘liq nazariy xulosalaridan foydalanish zarur bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir xalqning o‘ziga xos madaniyati, urf-odatlari va shu qatorda, jamoatchilik orasida muloqotga kirishishda ma’lum etiket me’yorlari bo‘ladi.

Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko‘zga tashlanadigan munosabat ko‘rinishlaridan biri. U ko‘proq insonning tashqi madaniyati, o‘zgalar bilan bo‘lgan munosabatlarda o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala jarayonida inson o‘z harakatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo‘lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo‘yilgan xatti-harakatni taqozo etadi. Etiket keng qamrovli tushuncha

[1] Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методологический аспекты. - М.: Русский язык, 1982. - С.7.

bo‘lib, u, ma’lum ma’noda, umumbashariy miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o‘z ichiga oladi?

O‘zbek ma’rifatparvarlaridan biri Abdulla Avloniy «Millat tilini yo‘qotmaq millatning ruhini yo‘qotmaqdir», deb ta’kidlaganda, til va millat ruhining mushtarakligi haqidagi qarashlari V.Gumboldt[2] g‘oyalariga bevosita hamohanglikda tutashib ketadi.

Madaniyatlararo nutqiy kompetensiya atamasini ishlatganimizda madaniyatlar, ya’ni ikki va undan ortiq xalqlar madaniyati o‘rtasidagi nutqiy etiketlar tushuniladi. Bu o‘rinda turli madaniyatga ega bo‘lgan jamiyat a’zolarining o‘zaro farqli nutqiy odatlari uyg‘unlashuvi deyish mumkin. Turli ijtimoiy muhit vakillari o‘zarouchrashganda nima yuz berishini oldindan aniq aytib bo‘lmaydi, aksincha, ularning nutqiy faoliyatida har ikkala madaniyat shaklidan farqlanuvchi oraliq nutqiy etiket paydo bo‘ladi. Bunda pragmatika uchun nihoyatda qiziq faktlarni uchratish mumkin.

Inson ichki madaniyati va uning misolida ma’lum xalq madaniyatini ko‘rsatuvchi eng yirik vositalardan biri bu tildir. Shu sababli ham nutqiy etiket shakllari tilshunoslik fanining ham qiziqarli masalalarga boy o‘rganish obyekti bo‘la oladi. Ayniqsa, tahlillar qiyosiy tarzda olib borilganda, ish xarakteri yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Har bir tilda kishilar so‘zlashar ekan, ularning tabiatiga xos tarzda etiketlar shakllanadi va o‘ziga xos nutqiy etiket qoliplari urfga aylanadi. Ammo ularning shakllanishi o‘ta ijtimoiylashgan hodisalar asosida yuz bergani bois bir til doirasida olib borilgan kuzatishlarda ularning individual va uyg‘un tomonlari yuzaga chiqadi.

Nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolar fanimiz tarixida antik davr tilshunosligiga borib taqaladi. O‘zbek tilshunosligida nutqiy etiketni ifodalovchi vositalar, boshqa ko‘plab xalqlar tilshunosligi tarixida bo‘lgani kabi, dastavval, madaniyatshunoslik, odob-axloq me’yorlari qatorida o‘rganilgan. Bu davr adabiyotlarida o‘rganilgan nutqiy etiket, jumladan, muloqot shakllari til birligi sifatida emas, balki tarbiya ifodasi, inson shaxsiyatining namoyon etuvchi tushunchalar sifatida tahlil etilgan. Bu kabi asarlar mohiyatiga ko‘ra ilmiylikka nisbatan ko‘proq didaktik xarakterga ega hisoblanadi. Ularda pand-nasihat qilish,yo‘l- yo‘riq ko‘rsatish va asar maqsadiga ko‘ra ham o‘rganishdan ko‘ra o‘rgatish ustuvorligi seziladi. Bunday asarlar qatoriga Kaykovusning «Qobusnoma», Forobiyning «Fozil odamlar shaxri», Ahmad Yugnakiyning «Xibatul haqoyik», Sa’diy Sheroziyning “Guliston» va «Bo‘ston» Alisher Navoiyning “Mahbubul qulub»,

[22] Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. - М.: Прогресс, 1984. - С.68.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axlok», «Pandnomalar» kabilarni kiritish mumkin.

Nutqiy etiketni ifodalovchi birliklar keyinchalik fan doirasida o‘rganila boshlandi. Dastlabki davrlarda notiqlik, nutq madaniyati va nutk etikasi masalalari tarkibida o‘rganilgan mazkur birliklarning o‘zbek tilshunosligi fani doirasida tadqiq etilishida rus tilshunosligi vakillarining o‘rni katta bo‘ldi. Bajarilgan ishlar xarakteriga ko‘ra, nutk madaniyati, muloqotga kirishishi sirlari, usullari, bundan tashqari, uslub, axlok kabi masalalarga ko‘prok aloqador bo‘lsa-da, ularda nutqiy etiket birliklari ma’lumjixati bilan o‘rganilganligi, muximi, tadkikot obyekti ko‘rish mumkin. Jumladan, sifatida ajratilganligini rus tilshunosligida hamda o‘zbek tilshunosligida qator tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ko‘rinadiki, inson muloqot nutqiga oid tadqiqotlar u yoki bu yo‘nalishda turli nomlar ostida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, tilshunoslar bu masalalarga hamma davrlarda ham katta qiziqish bilan qarab kelganlar.

Adabiyotlar tahlili:

O‘zbek tilida nutq madaniyati, nutqiy odatlar masalalarining nazariy tadqiq etilishi hamda tilshunoslikda alohida tarmoq sifatida shakllanishida taniqli olimlar S.Ibrohimov, R.Kungurov, X.Doniyorovlar tamal toshini qo‘ygan bo‘lsalar, keyinchalik boshqa olimlar katta mehnat qilib, bu yo‘nalishda muayyan sohalarni shakllantirishga erishdilar. Jumladan, E.Begmatov, A.Rustamov, N.Mahmudov kabi yirik olimlar, asosan, leksik birliklar, so‘z kesimida ish olib borgan bo‘lsalar, B. O‘rinboyev sintaksis sohasida, E.Begmatov, Yo.Tojiyev, S.Mo‘minov, S.Karimov, Sh.Iskandarova, Z.Akbarova kabi olimlarning tadqiqotlarida esa muloqot jarayonining nutqiy va odatiy shakllari jihatdan tahlili masalasiga oydinlik kiritildi. A.Mamatov esa nutq madaniyati va til me’yorlariga oid atama va tushunchalarga izohberilgan lug‘at yaratdi..

O‘zbek tilshunosligida nutqiy odatlarning ilmiy asoslari bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu soha rivojida ko‘plab olimlar qatorida professor N.Mahmudovning alohida xizmatlari bor. Xususan, olimning ilmiy qarashlarida til va jamiyat munosabatlarining o‘ziga xos jihatlari nazariy asoslangan. Jumladan, uning «Til siyosati va siyosat tili», «Xalqaro til va ona tili”, “Fan tili va til fani», «Suz o‘zlashtirishda me’yor va milliylik», «O‘xshatishlar va milliy nigoh» nomli va boshqa ko‘plab ilmiy izlanishlarida o‘zbek tili nutqiy me’yorlarining o‘ziga xos tomonlari lingvokulturologik, antropotsentrik hamda kognitiv tilshunoslik yutuqlarini o‘ziga singdirgan yangicha qarashlar asosida chuqur tadqiq etib berildi. Tilda o‘xshatishlarning turg‘unlashuvi hodisasiga alohida urg‘u bergan olim uni xalq.

turmush tarzi, yashash odatlari bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi: «xalqning dunyoni ko‘rishi va anglashidagi o‘ziga xoslik, ya’ni milliy-madaniy va milliy-konnotativ ma’lumot bevosita ayni o‘xshatish etalonida o‘z tajassumini topadi». Professorning ilmiy izlanish omillarga bog‘liqligi aniqlangan manzarasining milliylik bilan bog‘liq jihatlari o‘xshatishlar vositasida yanada aniq namoyon bo‘lishini nazariy asoslagan olim «boshqa unsurlar implitsit ifodalana bilgani holda, o‘xshatish etaloni faqat eksplitsit ifodalanmog‘i shart, ya’ni o‘xshatish etaloni bevosita lisoniy ifodaga ega bo‘lmasa, o‘xshatish mazmunidagi ibora shakllana olmasligini ta’kidlaydi. Bundan tashqari, N.Maxmudov[3] nutq uslublari, jumladan, o‘zbek tilida ish yuritish masalalarining nazariy asoslanishiga katta hissa qo‘shdi. Olim davlat va jamiyat o‘rtasida til vositasining ahamiyatini yoritar ekan, nutqiy faoliyatda jamiyat kishilarining axloq normalariga daxldor kuyidagi qimmatli fikrlarni bayon etadi: «. jamiyat intizomi andazalari, kamida, taraqqiy qilgan tillarning barchasidagi so‘zlarning semantik sig‘imidan u yoki bu darajada o‘rin olgan bo‘ladi. Bu, shubhasiz, tilning boyligi va inja ifoda imkoniyatlari bepoyonligining, inson va nutqning bir-biriga naqadar musallamligining yana bir muhtasham shahodatidir»[2]. Ko‘rinadiki, jamiyat intizomi uning nutqiy munosabatlarida aks etar ekan, har bir tilning o‘ziga xos tomonlari bo‘lishi bilan birga, barcha tillarda mavjud bo‘lgan noziko‘xshashliklarga ham ega bo‘ladi.

Professor S.Mo‘minov[4] o‘z ilmiy izlanishlarida o‘zbek muloqot xulkini ilk bor ijtimoiy lisoniy aspektda o‘zbek kommunikantlari faoliyatining kompozitsion bosqichlari, kommunikantlar o‘rtasidagi munosabatning milliy o‘ziga xos xususiyatlari, muloqot xulqining jins, yosh, sotsial va hudud jihatidan xoslanishini atroflicha tadqiq etdi.

3.Akbarova[5] murojaatning inson nutqiy faoliyatidagi o‘rni, mavqei, bosqichlari, murojaat ifodalashning o‘ziga xos turli shakllari, murojaat maydoni strukturasi, murojaat ifodalovchi ekstralingvistik vositalar, murojaatning inson nutq faoliyatining ajralmas qismi sifatidagi universal hodisa ekanligini tadqiq etadi. Mazkur tadqiqot ishida murojaat shakllarining nutqiy jarayonlarda qo‘llanilishini xoslangan va xoslanmagan leksika, xoslangan va xoslanmagan gap shakllari o‘zbek tili materiallari asosida tadqiq etilar ekan, xoslanayotgan leksikani alohida ajratilgani diqqatga

[3] Махмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Тил тилсими тадкики. Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б.57.
[4] Муминов С.М. Ўзбек мулокот хулкининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан докт. дисс. автореф. - Тошкент, 2000. – Б.47.
[5] Акбарова З.А. Ўзбек тилида мурожат шакллари ва унинг лисоний тадкия Филол. фан номз дисс автореф. Тошкент, 2007. – Б.11.

sazovordir. Bundan tashqari murojaat ifodalashning ekstralingvistik vositalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Olima ularni shartli ravishda tasniflar ekan, ularni uch guruhga bo‘ladi:

a) ishora- xarakatga asoslangan jestikulyatsion vositalar;

b) tovushga asoslangan fonatsion vositalar;

v) rang vositasi.

Nutq madaniyatiga bag‘ishlangan mazkur ishlar aksariyati bir til doirasida o‘rganilgan. Ko‘rinadiki, nutq madaniyati doirasida o‘zbek tilshunosligida olib borilgan ishlar bir til qonuniyatlarinigina o‘rganish bilan cheklangan, shu asnoda qiyosiy planda olib boriladigan ishlarga extiyoj mavjuddir, deb aytishga to‘la asosimiz bor.

Holbuki, «vazifasi til va madaniyat, til va etnos, til va mentalitet o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni tavsiflash va o‘rganishdan iborat bo‘lgan bu.

Madaniyat so‘zi lotincha colore - so‘zidan olingan bo‘lib, yashamoq, g‘amxo‘rlik qilmoq, bezanmoq, ta’lim olmoq, saqlamoq, ehtiyot qilmoq, ma’naviy boy bo‘lmoq, bunyod qilmoq, qadrlamoq, itoat etmoq va bayram qilmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Lekin yuqoridagi talqinlar madaniyat tushunchasini to‘laqonli ochib bermaydi. Madaniyatni hayotning barcha jabhalaridagi eng oliy ko‘rinish sifatida qabul qilish mumkin. 1970-yillardan boshlab, dunyoning qator mamlakatlarida xususan, Angliyada madaniyatni anglash natijasi o‘laroq kishilar dunyoqarashida keskin o‘zgarishlar kuzatila boshladi.

Nutqiy etiketning o‘ziga xoslik xususiyati va madaniyatlararo farqlanishlar muloqotning tub mohiyatidan boshlab o‘rganish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda kechmaydi, balki tashqi ko‘rinish, yuz ifodasi, imo-ishora va jestlar orqali xabarlarni qabul qilishning o‘zida muloqot jarayoni boshlanadi[6].

Yes, right. A animated (illustration) book is a good idea

(Xa, to‘g‘ri. Rasmli kitob – bu yaxshi fikr)

Ba’zan tasdiq ma’nosini nolisoniy vositalar orqali ham ifoda etiladi. Masalan: «Eshitdingmi» dedim. Yerga qaradi. Uni ortiqcha uyaltirmaslik uchun eshikka qarab yura boshladim-da, «maylimi?» deb so‘radim. Javob o‘rniga «Osh yemay ketasizmi?» dedi. Bu uning ikkinchi turli qilib aytilgan «mayli» javobi edi» (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

[6] Хусанов Б. Гузомов В. Муомала маданияти. Тошкент, 2007. – Б.85.

Bu holda maqsad, ma’noni ifodalash lisoniy va nolisoniy vositalar yordamida faqat nutqiy etiket uchungina xos bo‘lgan ma’nodoshlik qatorini vujudga keltiradi: so‘z, so‘z birikmasi, gaplar bilan imo-ishoralar sinonimligi hosil bo‘ladi.

Sh.M.Iskandarova[7] «O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari» mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida turli tushunchalarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi «vazifa» so‘zining ma’nolari nutqiy etiketga tegishliligini, nutqiy etiketning eng asosiy vazifalaridan biri aloqa o‘rnatish bo‘lib, unda xususiy va ommaviy tarzdaaloqa o‘rnatish va muloqotni saqlash tushunilishini, bu vazifa so‘zlashuvchilarning yoshi, jinsi, tanish-notanishligi, muloqot sharoiti asosida o‘ziga xos o‘rin tutishini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Nutqiy etiketning ikkinchi vazifasi tinglovchiga qaratilgan iltifot, ya’ni konnotiv funksiyasidir. Iltifot vazifasi salomlashish, xayrlashish, uzr so‘rash, qutlash vaziyatlarida ko‘zga tashlanishi bilan birga uni kuchaytiruvchi maxsus lisoniy birliklar ham mavjud: «labbay -my tears, I’m all in ears», «marhamat- with pleasure,», «salomat bo‘ling -Be health» «uzr -Sorry « singari.

- Labbay, oyijon!» (O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi).

What did you say? Do you want to take Dr. Torres home with you? (Nima dedingiz? Doktor Torresni birga uyga olib bormoqchimisiz?)

Nutqning boshqaruv (regulyativ) vazifasi ham o‘zbek va nemis nutqiy etiketida muloqotning barcha vaziyatlariga to‘g‘ri keladi. Aloqa o‘rnatishda u yoki bu til birliklarini tanlab ishlatish so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi muloqot xususiyatini belgilaydi. Katta/kichik, erkak/ayol, boshliq/xodim va shu kabi boshqa qator munosabatlarda muomala nutqiy etiket birliklarini me’yorida va o‘rinli qo‘llanilishi bilan namoyon bo‘ladi. Shu asnoda uning boshqaruv funksiyasi amalga oshadi.

Xitob (appelyativ) vazifasi ham yuqoridagilarga o‘xshab, nutqiy etiketning barcha vaziyatlarida ko‘rinadi, u asosan, tinglovchining diqqatini jalb qilish uchun xizmat qiladi. Nutqiy etiketlarda uni taminlovchi vositaqlarning ham me’yori saklanadi. Nutqiy etiketning ta’sir etish (perseptiv) vazifasi adresant tomonidan qo‘llanilayotgan lisoniy va nolisoniy vositalar natijasida adresatning ta’sirlanishidan iborat bo‘lib, bu, ko‘pincha, tinglovchining imo-ishora, yuz ifodasi, ayniqsa, mimikalari bilan ifoda etiladi. Nutqiy etiketlarda ularning o‘rinliligi muhim sanaladi.

Hayajon vazifasi (emotiv) esa hamma birliklarga tegishli bo‘lmay, so‘zlashuvchilarning me’yoriy tarzda aloqa o‘rnatishlari va uni maqsadli olib borish

[7] Искандарова Ш.М. Ўзбек нутк Татининг мулоқот шакллари: Филол. фан номз.... дисс. автореф. Самарканд, 1993.

tabiatlari bilan bog‘lanadi. Bunda, ko‘pincha, muloqotga kirishuvchilarning yosh, jins va asosiysi xarakter xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

«Ajabmas, og‘zinglar oqarib qolsa. U yonimga cho‘kkaladi. - Oling, aylanay, zog‘oradan oling. Ertalab yopuvdim. Kimsanboydan xabar bormi?» (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Bu o‘rindagi tilak, umid, tasalli, dalda, taklif, xol so‘rash so‘zlovchi tomonidan me’yoriy holatni saqlash va etiket orqali o‘zini namoyon etish uchun ishlatilgan. Bu yerdagi masalalar tinglovchi uchungina muhim, so‘zlovchi esa o‘zbekona lutf - ko‘ngil so‘rash bilan muloqotni kerakli tarzda davom ettirishga harakat qilmoqda, unga berilayotgan muammolar u qadar ahamiyatli bo‘lmasa ham, aloqa-aralashuvning belgilanganidek saqlanishi zarur.

Demak, ko‘rinadiki, nutqiy jarayonga qo‘yiladigan talablar va til birliklarining vazifalari (boshqaruv, xitob, ta’sir etish, hayajon) nutqiy etiketda ifodalanishi bilan o‘zaro qorishib, singib ketadi. Nutqiy etiket bunday o‘rinlarda ularning me’yorda qo‘llanilganligi va o‘rinliligi bilan baholanadi. Bunda tilning segment birliklari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) bilan bir qatorda, supersegment birliklar (ovoz toni, balandligi, ohang, tovush sifati) ham o‘ta muhim sanaladi.

Xulosa qismi:

Hozirgi kunda yep yuzidagi qator mamlakatlar ko‘pmadaniyatlilikka ega bo‘lib, bu mamlakatlar aholisining tinch-totuv yashashi uchun kishilar o‘rtasida o‘zaro me’yoriy aloqani, nutqiy muloqotning o‘ziga xos xususiyatlarini puxta o‘rganish, tadqiq etish yanada dolzarb ahamiyatga ega. Madaniyatlararo ziddiyatlarning oldini olish uchun muhojirlar o‘z qadriyatlari va urf-odatlarini saqlagan holda, o‘sha mamlakat xalqlarining urf-odatlari hamda qadriyatlarini tubdan o‘rganishi, ularni hurmat qilishi zarurligi talab etiladi. Muloqot shakllari dastlab didaktika va madaniyatshunoslik masalalari qatorida o‘rganila boshlagan bo‘lsa, keyinchalik bu jarayonlarda lisoniy birliklar ishtiroki va ularning ahamiyati tilshunoslik fani doirasida tadqiqotlar obyektiga aylandi.

Har bir millatning muayyan urf-odatlari, e’tiqodlari asosida shakllangan o‘ziga xos nutqiy odatlari mavjud bo‘lib, bu belgilar ana shu xalqlarning tillarida yaqqol namoyon bo‘lib turadi.

Madaniyatlararo muloqot faqat lisoniy tarzda yuzaga chiqmasdan, balki ma’lum xalqlarning tashqi ko‘rinishi, ularning yuz ifodasi, imo- ishora hamda jestlari orqali ham aks etishi mumkinligini alohida ko‘rsatish zarur.

Ingliz tilshunosligida nutqiy odatlar Yevropa madaniyati ta’sirida, o‘zbek nutqiy odatlari sharq madaniyati ta’sirida shakllangan bo‘lib,ularni qiyosiy asosda o‘rganish ikki millat vakillari uchun ham ahamiyatli. O‘zbek va ingliz nutqiy etiketlarining

muloqot shakllari ma’lum nutqiy vaziyatlarning o‘zaro o‘xshash va farkli jihatlarini aniqlash orqali yoritiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maxmudov N. Til siyosati va siyosat tili // Til tilsimi tadqiqi Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.-B.5
5. Формановская Н.И. Русский речевой этикет: лингвистический и методологический аспекты. - М.: Русский язык, 1982. - С.7.
6. Ожегов С.И. Лексикология. Лексикография. Культура речи. - М.: Высшая школа, 1974. – С. 287.
1. Xayrulla Xudoyorovich Hamidov, & Arzu Karausta. (2023). TERMS RELATING TO JOURNALISM IN TURKISH LANGUAGE AND THEIR TRANSLATION. INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS, 3(08.05), 71–75.
7. Степанов А. О культуре речи. - М.: Искусство, 1961;
8. Голубовский Д.А. Невербальная коммуникация в древнерусских письменных источниках: опыт семантического анализа: Автореф. дис. канд филол.наук.- М., 2009.
9. Ночевник М.Н. Культура и этика общения. - Ташкент: Узбекистан, 1985.
1. Shodmonov E. Muomala munosabatlarida qo‘llanilgan so‘z-gaplarga doir. // Tilshunoslik masalalari. Toshkent, 1970;
2. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya. – Toshkent: Fan, 1972;
3. O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. Toshkent, 1974;
4. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo‘lishi va asoslanishi // Nutq madaniyatiga oid masalalar. Toshkent: Fan, 1978;
5. Rasulov.T. O‘zbek mulokot xulkining funksional xoslanishi: Filol. fan nomz diss. avtoref.- Toshkent, 2008. – B..24.
6. Akbarova Z.A. O‘zbek tilida murojat shakllari va uning lisoniy tadkiya Filol. fan nomz avtoref. - Toshkent, 2007. – B.11. diss
7. Mamatov A.E. Nutk madaniyati va til normasiga oid terminlar va tushunchalar izohi. Toshkent: Bayoz, 2014. – B.36.
8. Maxmudov N. Tiya siyosati va siyosat tili // Til tilsimi tadqiqi. Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. – B.176.
9. Maxmudov N. O‘xshatishlar va milliy nigoh // Til tilsimi tadqiqi Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017. - B. 168
10. TESHABOYEVA, Ziyodakhon. «A Comparative Analysis Of Phraseological Units In “Baburname” And Their Different English Translations.» Philology Matters 2019.1 (2019): 102-108.
11. Hamidov, Xayrulla TURKCHA MAROSIM NOMLARI VA ULARNING TARJIMASIGA DOIR // ORIENSS. 2022. №Special Issue 28. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/turkcha-marosim-nomlari-va-ularning-tarjimasiga-doir.

O‘ZBEK TERMINOLOGIYASIDA FIZIKAGA XOS TERMINLAR TADQIQI

E’zoza Qilichova
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti,
Filologiya va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: ms.qilichova@gmail.com

***Annotatsiya**: Ushbu maqola O‘zbek terminologiyasida fizikaga xos terminlar o‘rgangan olimlarning ilmiy ishlarini tadqiq qiladi va ular orasidagi farqlar va o‘xshashliklar muhokama qilinadi. Hozirgi davrdagi terminologik ilmiy ishlarning muhimligi ta’kidlanayotganini hisobga olib fizik terminlar o‘rganishning ahamiyati va dolzarbligi yuzasidan olimlarning fikrlari ko‘rib chiqiladi.*
***Kalit so‘zlar:** atamashunoslik landshafti, aloqa liniyalari, uzatish tizimlari, kognitiv makon modeli, fizik ensiklopediya.*

***Annotation**: This article examines the scientific works of scientists who studied physics-specific terms in Uzbek terminology and discusses the differences and similarities between them. Taking into account the fact that the importance of terminological scientific works in the current period is emphasized, the opinions of scientists regarding the importance and relevance of learning physical terms are considered.*
***Keywords**: terminological landscape, communication lines, transmission systems, cognitive space model, physical encyclopedia*

O‘zbekiston Respublikasining mustaqilligini e’lon qilishi bilan atamashunoslik landshafti jiddiy o‘zgarishlarga duch keldi. Tashqi aloqalar rivojlanishda davom etdi. Ayniqsa, ilmiy sohada ko‘plab xalqaro aloqalar o‘rnatila boshlandi. Bu ta’sirlar natijasida o‘zbek tilida yangi atamalar paydo bo‘ldi. Ushbu yangi g‘oyalar orasida fizik terminologik tizim ham alohida o‘rin tutadi. Shunday qilib, fan va texnologiya rivojlanishining hozirgi bosqichida fizik terminologiyani lingvistik nuqtayi nazardan tushunish bir xil darajada muhimdir. Haqiqatdan ham, asosan nazariy qiyinchiliklarni hal qilish uchun jismoniy so‘zlar tizimi, ularning rivojlanishini tartibga soluvchi qonunlar, ishlab chiqarish manbalari va ko‘lamini o‘z ichiga olgan bir qator ishlarni tuzish zarurati tug‘ildi.

Sanoat, tadqiqot va texnologiyaning barcha sohalarida yuqori darajadagi ilmiy-texnikaviy inqilob davrida bo‘lgan ushbu davrda yangi narsalar, obyektlar va tushunchalar paydo bo‘la boshlaydi. Natijada til lug‘atining materiali sezilarli darajada kengaytirildi. Natijada hozirgi leksikologiya oldida turgan asosiy masalalardan biri terminologiyadir. Shuni ta’kidlash kerakki, u yoki bu masala va atamalarni hal qilish tilshunoslik uchun, shuningdek, ishlab chiqarish, tadqiqot va texnologiyaning tegishli sohalari uchun juda muhimdir.

Fizika sohasiga xos til va terminologiyaga qaratilgan lingvistik tadqiqotlar bir nechtani tashkil q iladi. Ulardan biri “Aloqa liniyalari va uzatish tizimlariga oid

atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lugáti” Ushbu lug‘at texnika fanlari doktori professor M. Muxitdinovning umumiy tahriri ostida, A.Munavvarov, N.Perepada (2008) tomonidan tuzilgan. Aloqa liniyalari va uzatish tizimlariga oid atamalarning ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati respublikada birinchi marta nashr qilingan. Lug‘at Atamashunoslik va lug‘atlar xizmati mutaxassislarining, shuningdek, boshqa mutaxassislarning mehnati samarasidir. Lug‘atni tuzishda texnikaga oid xorijiy adabiyotlardan, ma’lumotnoma xarakteridagi nashrlardan, o‘quv qo‘llanmalaridan hamda Internet materiallaridan foydalanilgan. Lug‘at alifbo tartibida joylashgan 1400 dan ortiq atamani o‘z ichiga oladi.

Lug‘at aloqa va axborotlashtirish sohasi mutaxassislariga, ilmiy xodimlarga, tarjimonlarga, o‘qituvchilarga, aspirantlar va talabalarga mo‘ljallangan. Bundan tashqari, ushbu sohada ko‘plab avtoreferatlar e’lon qilingan.

Fizik teminlar o‘rganishga yana bir salomoqli hissa qo‘shgan olimalardan biri S.S. Elmurodovadir. “O‘zbek tilida fizika terminologiyalari” mavzusida Elmurodova Sohiba Saidmurodovna tomonidan (2022) yozilgan maqola fizikaga oid ilmiy atamalarning o‘zbekcha tarjimalari va moslashuvlari o‘rganilib, bu sohada qo‘llanilayotgan terminologiyaga alohida e’tibor qaratgan. Ushbu tadqiqot o‘zbek tilidagi fizikaga oid so‘zlarni tanlash va qo‘llashga ta’sir etuvchi lingvistik va madaniy jihatlarni yoritib, murakkab fizika g‘oyalarini o‘zbek tiliga tarjima qilishning qiyinchiliklari va usullarini o‘rganadi. Maqolada fizika sohasidagi ma’lumotlarning tillararo uzatilishi bo‘yicha muhim tushunchalar berilgan va o‘zbek tilida ixtisoslashgan ilmiy lug‘at yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, “Professional termin tizimini kognitiv modellash- (neftni qayta ishlash ingliz terminologiyasi asosida)” mavzusida Tikhonova Irina Borisovna (2010) Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyaga avtoreferat e’lon qilgan. Ushbu dissertatsiya ingliz tilidagi neftni qayta ishlash terminologiyasining xususiyatlarini lingvokognitiv jihatdan o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu dissertatsiyaning dolzarbligi sanoat terminologiyasini o‘rganish uchun zamonaviy tilshunoslikning eng yangi ilmiy paradigmalariga murojaat qilish bilan bog‘liq. Tadqiqot terminologiya, tilshunoslik va kognitiv fanning ilmiy salohiyatini integratsiyalashgan holda qo‘llash doirasida olib borilgan, bu atamani ilmiy bilimlarni olish, saqlash, qayta ishlash va uzatish vositasi sifatida talqin qilishning yuqori darajasiga kirish imkonini beradi.

Hozirgi vaqtda kognitiv fanda talabga ega bo‘lgan ramka tahlili elementlaridan foydalanish neftni qayta ishlash terminologiyasini jahon iqtisodiyotining yetakchi va ijtimoiy ahamiyatga ega sohalaridan kognitiv makon modeli sifatida ko‘rib chiqishga

o‘tishga imkon beradi. Bundan tashqari, antropotsentrik ilmiy paradigmani hisobga olgan holda, kognitiv yo‘nalish doirasida maxsus terminologik birliklarni bevosita va metaforik nominatsiya qilish mexanizmlarini o‘rganish dolzarb deb hisoblangan.

Tadqiqot obyekti ixtisoslashtirilgan adabiyotlarni doimiy ko‘rib chiqish, ingliz tilidagi neftni qayta ishlash bo‘yicha sanoat jurnallaridan maqolalar, ensiklopedik nashrlar va lug‘atlarni o‘rganish orqali tuzilgan umumiy hajmi 5188 terminologik birlik bo‘lgan ingliz neftni qayta ishlash atamalarining namunasi edi.

Shuningdek, Sh.M.Kamolxo‘jayev, X.A.Rizayev, R.B. Bekjonov tomonidan “Fizikadan ruscha-o‘zbekcha atamalar lug‘ati” [1991;5] yaratilib 20 000 ga yaqin so‘zlar tarjima qilingan va kitob holiga keltirilgan.

Bunda O‘zbek tiliga tarjima qilinuvchi fizik atamalari qo‘shma so‘z va so‘z birikmalari miqdorini ma’lum darajada qamrab olingan. Bunda fizika fanining barcha bo‘limlarini qamrab oluvchi fizik jarayon, o‘lchov birliklari fizik holat xususiyatiga tegishli atamalar va so‘z birikmalari tanlab olingan. Shu bilan birga, fizikqonuniyatlar, jarayonlarda qo‘laniluvchi fan va texnika sohalariga oid, fizika fanida ishlatiluvchi matematik tushunchalarga tegishli atamalar, fizika va boshqa tabiiy fanlar uchun umumiy hisoblanuvchi ba’zi so‘z birikmalari ularning muhimligi va qo‘llanilish doirasining kengligi e’tiborga olingan holda lug‘atga kiritilgan. Mualliflarfizika faniga yangi kirib kelayotgan atamalar hisobiga kengaytirishga harakat qilishgan. Lug‘atda ximiyaviy elementlar nomi ham keltirilgan. Chunki bu elementlarro‘yxati, ularning atomlar tuzilishi faqat ximiya faniga tegishli bo‘lmay, mutlaqo chuqur fizik mazmunga ham ega. Shuning uchun ham Mendeleyev jadvalidagi elementlar nomi lug‘atda o‘z o‘rnini topmasa lug‘at mazmunan ancha kambag‘allashar edi.

X.X.Xadjimuxamedov, R.R.Vildanov, A.X.Xadjimuxamedov (2005) tomonidan “Lazer fizikasi va texnikasidan ruscha-o‘zbekcha terminlar lug‘ati” ishlab chiqilgan va kitob holiga keltirilgan. Ushbu lug‘atda lazer fizikasi va kvant radiofizikasi mutaxassisligi bo‘yicha o‘qiladigan maxsus kurslar: lazerlaming qo‘llanishi, maxsus lazer o‘lchashlari, kvant elektronika, kvant-optik asboblar, ma’lumotni kvant-optik qayta ishlash, elektromagnit nurlaming jism bilan o‘zarota’siri kabi fanlardan 2500ga yaqin maxsus terminlar va so‘z birikmalari keltirilgan. Ular lotin va kirill alifbolarida berilgan. Ayrim termin va so‘z birikmalariga qisqa izohlar keltirilgan.

Lug‘at maxsus adabiyotlardan foydalanuvchi oliy va o‘rta maxsus ta’lim o‘quv yurtlarining talabalari, aspirantlar va ilmiy xodimlariga mo‘ljallangan.

Muhayyo Po‘latjonovna Azimova, Shohida Norqulovna Abdullayeva “Metallurgiya sohasiga oid terminlarning tasnifi va tavsifi” maqolasida ko‘plab fikrlar keltirilgan. Terminlarning tasniflanishi va tavsifi turli olimlarning nuqtayi nazari boyicha o‘rganilgan. Har bir sohaning o‘z terminlarining tasnifi mavjud bo‘lib, metallurgiya sohasiga oid terminlarning tasniflanishi ham dolzarb ishlardan biridir. Kitobda og‘ir metallar metallurgiyasi terminlari turlarga ajratilgan. Metallarning tasnifi va tavsifiga ko‘ra, ular ishlab chiqarilishi va ishlatilishida bir guruhdan boshqasiga o‘tgan.

M.I. Tolmacheva, V.N.Bakulin (2022) “Talabalar fizika fani terminologiyasini yangi chet tiliga o‘xshash o‘ziga xos til sifatida o‘zlashtirganlarida omonimiya va sinonimiyaning uslubiy muammolari”. Ushbu tadqiqotning dolzarbligio‘quvchilarning sinonim va omonim fizik miqdorlarni va ularning belgilarini tanib olish qiyinligi bilan bog‘liq. Fan tili chet tiliga o‘xshaydi, uning o‘z lug‘at boyligi, o‘z grammatikasi bor. Uni o‘zlashtirish muvaffaqiyatli professional faoliyatning kalitidir. Ushbu maqola talabalarning ilmiy terminologiyadan to‘g‘ri foydalanish muammosiga, shuningdek, kundalik obyektlarni ilmiy, xususan, texnik qurilmalar bilan bog‘lash muammosiga bag‘ishlangan. Tadqiqot maqsadi: talabalarning terminologiyani o‘zlashtirish darajasini, shuningdek, jismoniy obyektlarni aniqlash qobiliyatini aniqlash; fizik atamalar, fizik miqdorlar va ularning belgilarini yodlashning samarali usullarini aniqlash.

Maqolada fizik-texnik vositalar nomlarining kelib chiqishi tahlili berilgan, sinonimlar, paronimlar va omonimlarning fizik tilda qo‘llanilishiga misollar keltirilgan. Tadqiqot jismoniy va jismoniy bo‘lmagan mutaxassisliklarning birinchi va ikkinchi kurs talabalari o‘rtasida o‘tkazildi. Vazifa sifatida bir nechta test variantlari taklif qilindi: 1) rasmlarda va texnik qurilmalar qismlarida ko‘rsatilgan uy-ro‘zg‘or buyumlari o‘rtasida bog‘lanishni o‘rnatish; 2) berilgan so‘zlarning barcha mumkin bo‘lgan ma’nolarini sanab o‘ting; 3) bir xil fizik miqdorning turli sinonimlarini sanab bering; 4) bir xil belgi bilan belgilangan fizik omonim miqdorlarni sanab berish.

Shuningdek, Shohida Mo‘ydinovaning (2015) “Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha fizik atamalar lug‘ati” to‘liq ma’lumotnoma bo‘lib, fizik atamalarning uch tilda:ingliz, rus va o‘zbek tillariga tarjimalari va izohlari berilgan. Ushbu lug‘at fizika, muhandislik va tegishli fanlar sohalarida ishlaydigan talabalar, tadqiqotchilar va mutaxassislarga turli tillarda texnik terminologiyaga osongina kirish va tushunishga yordam berish uchun mo‘ljallangan. Aniq va qisqa ta’riflar bilan ushbu lug‘at fizika sohasida samarali muloqot qilishni istagan har bir kishi uchun qimmatli vositadir.

A.A.Abdurazzoqov, E.N.Nazirov (1988) “Yadro fizikasidan ruscha-o‘zbekcha terminlar lug‘ati” chop qilishgan. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining studentlar, pedagoglariga, o‘rta maktablarning o‘quvchi va o‘qituvchilariga, ilmiy hodimlar, tarjimon va muharrirlarga mo‘ljallangan.

Yadro fizikasi va yadro texnikasi bo‘yicha ushbu ruscha-o‘zbekcha tarmoq lug‘ati mualliflarning o‘zbek tilida maxsus hamda o‘quv adabiyoti yaratish faoliyati, lug‘atchilik tajribasi, o‘zbek fizika terminologiyasi sohasidagi tadqiqotlari,shuningdek o‘zbek tilida dars olib borish tajribasining yakunidir. Tabiiyki, mualliflar shu sohada ishlayotgan boshqa mutaxassislarning tajribalaridan ham mumkin qadar foydalanganlar. Ushbu tarmoq lug‘ati atom va yadro fizikasi, atom va yadro texnikasining 10000ga yaqin terminlari va terminoelementlarni o‘z ichiga olgan. Mualliflar lug‘atning ruscha so‘zligini yig‘ishda ushbu sohaning rus tilidagi bir qator o‘quv, ilmiy adabiyotlaridan, fizika ensiklopediyasining yangi nashri (1984) Katta Sovet Ensiklopediyasining bosh redaksiyasidan fizika sohasidagi ruscha-xorijiy, xorijiy-ruscha, umumiy va tarmoq terminologik lug‘atlardanfoydalanganlar. Lug‘at oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining studentlari, pedagoglarga, o‘rtamaktablarning o‘quvchi va o‘qituvchilariga, ilmiy hodimlar, tarjimon va muharrirlarga mo‘ljallangan. Ushbu lug‘atda atom yadrosi strukturasi, radioaktiv yemirilish jarayonlari va yadro reaksiyalari mexanizmi, elementar zarralar fizikasi, tezlatgichlar texnikasi, yadro energetikasi, yadro fizikasi va yadro texnikasining qo‘llanish sohalariga oid eng umumiy terminlar va terminoelementlar kiritilgan. Lug‘at so‘zligida predmet, xossa, prosess, o‘lchov birliklari, holat va boshqalarni bildiruvchi so‘z hamda so‘z birikmalari ham joy olgan.

Nazirov E.N, Nazirov D.E, Teshaboyev A.T. (2008) tomonidan “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi lug‘ati” ishlab chiqilgan. Ushbu tarmoq lug‘ati zamonaviy yarimo‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi, texnika va texnologiyasining 5000ga yaqin terminlari va terminelementlarining ruscha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha lugátini hamda yarimo‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasiga oid eng muhim 800dan ortiq terminlarning meýoriy ta’riflarini mujassamlagandir. Lugát oliy va o‘rta maxsus yurtlarining talabalari, o‘qituvchilariga, o‘rta maktablarning o‘qituvchi va o‘quvchilariga, aspirantlar va ilmiy xodimlarga, mualliflar, tarjimonlar va muharrirlarga mo‘ljallangan.

Bu zaruriy ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiqligi shubhasizdir, chunki respublikamiz xalq xo‘jaligida fizikaning va boshqa tabiiy fanlarning u yoki bu sohasiga asoslangan sanoat tarmoqlari bilan birga, tegishli fizika tadqiqot tarmoqlari ham rivojlanib bormoqda. Binobarin, mazkur sohada ishlash uchun yuqori

malakalimutaxassislar yetishtirish, ular uchun o‘quv adabiyotlarini yaratish fizika tarmoqlari tilini yanada takommillashtirishni talab qiladi.

Xususan, O‘zbekistonda elektron asboblar sanoati, radiotexnika sanoati vujudga kelgan va u juda tez sifatlar bilan rivojlanib bormoqda. Respublika Fanlar Akadem iyasining fizikaga oid institutlari laboratoriyalarida, universitetlarda, texnika va muallimlik oliy o‘quv dargohlarida yuqoridagi sanoat tarmoqlari bilan bog‘liq ravishda, yarim o‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi sohasida keng ko‘lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, shu soha bo‘yicha minglarcha yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlanm oqda. O‘z ilmiy muvaffaqiyatlari va xalq xo‘jaligiga tadbiq qilingan muhim ishlari bilan mamlakatimizda tanilgan, yarim o‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi sohasida ishlayotgan bir qator yirik olimlar, sanoat mutaxassislari yetishib chiqdi. Yarim o‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi bo‘yicha tadqiqotlarning va kadrlar tayyorlashning rivoji bilan bir qatorda uning tili va atamalarini yaratish va takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bu jarayon yarim o‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi bo‘yicha yaratilgan original darslik va o‘quv qo‘llanmalarida, oliy maktablar va o‘rta maktablar darsliklarida, o‘qituv amaliyotida o‘z aksini topmoqda. Bu tarmoqning eng muhim atam alari qisman ruscha- o‘zbekchaumum fizika atama lug‘atlariga ham kiritilgan edi. Darvoqe, shu amaliy ish jarayonida mazkur sohaning ko‘pchilik atamalari sinovdan o‘tdi, saralandi va barqarorlashdi. Yarim o‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi bo‘yicha mazkur ruscha o‘zbekcha va o‘zbekcha-ruscha tarmoq lug‘ati mualliflarning o‘zbek tilida maxsus va o‘quv adabiyoti yaratish faoliyatining, lug’atchilik tajribasining, shuningdek, o‘zbek fizika atam ashunosligi sohasidagi tadqiqotlarining hamda o‘qitish tajribasining mahsulidir. 1988-yili o‘zbek tilining O‘zbekiston respublikasida davlat tili maqomini olishi atamashunoslik sohasida ham bir qator masalalarni qayta qarab chiqish tabiiy fanlar, xususan, fizika tilini yanada takomillashtirishga yo‘l ochdi. O‘ZR Vazirlar mahkamasining 1995-yildagi “Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tish haqidagi ” farmoni munosabati bilan fan va texnika, ijtimoiy sohalarda hamda Ta’lim sohasida 2005-yil 1-sentabrdan boshlab lotin grafikasi asosidagi o‘zbek tiliningamaliyotiga joriy qilinishi munosabati bilan talabalar va o‘quvchilarga “Lotin yozuvi asosidagi o‘zbek alifbosiga o‘tish haqidagi farmoni munosabati bilan fan va texnika, ijtimoiy sohalarda hamda ta’lim sohasida 2005-yil 1-sentabrdan boshlab lotin grafikasi asosidagi o‘zbek tilining amaliyotga joriy qilinishi munosabati bilan talabalar va o‘quvchilarga lotin grafikasi asosidagi o‘zbek tilida yaratilgan yangiavlod o‘quv qo‘llanmalari tayyorlash va nashr qilish dolzarb masaladir. 2003-yilda krill alifbosi asosida nashr qilingan “Yarimo‘tkazg

ich terminlari lug‘ati” qayta ishlanib, O‘zbekcha va ruscha qism qo‘shilib, izohli lug‘at qismlari to‘ldirilib, shu kun talablari ehtiyojlarini qoniqtirish nuqtayi anzaridan, mualliflar tomonidan ruscha o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha jamlangan “Yarimo‘tkazgich terminlari” lugáti qayta ishlanib, o‘zbekcha ruscha qism qo‘shilib, izohli lugát qismi to‘ldirilib, shu kun talablari ehtiyohjlarini qoniqtirish nuqtayi nazaridan, mualliflar tomonidan ruscha o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha hamda yarimo‘tkazgichlar va dielektriklar fizikasi terminlarining izohli va etimologik lugát qismlari jamlangan “Yarimo‘tkazgichlar fizikasi lugáti” lotin grafikasi asosida nashrga tayyorlandi.

“Fizika-tabiat haqidagi umumiy fan; materiyaning tuzilishi, shakli, xossalari va uning harakatlari hamda o‘zaro ta’sirlarining umumiy xususiyatlarini o‘rganuvchisoha . Bu xususiyatlar barcha moddiy tizimlarga xos. Turli va aniq moddiy tizimlargaxos. Turli va aniq moddiy tizimlarda materiya shakllarining murakkablashgan o‘zaro ta’siriga tegishli maxsus qonuniyatlarni kimyo, geologiya, biologiya singari ayrim tabiiy fanlar o‘rganadi. Binobarin, fizika fani bilan boshqa tabiiy fanlar orasida bog‘lanish bor. Ular orasidagi chegaralar nisbiy bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan turlicha o‘zgarib boraveradi. Fizika fani texnikaning nazariy poydevorini tashkil qiladi. Fizikaning rivojlanishida kishilik jamiyatining rivojlanishi, tarixiy davrlarining ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlari ma’lum ahamiyatga egadir.” [1]

J. T. Ruzimurodov, Q.T. Xoliqov, J. Safarov, J. Jalilov, R.Hamroyev (2019) “Fizika darslarida elektron lug‘atlardan foydalanish” nomli maqolalaridagi yangi yondashuvlardan biri “Learning by doing” ta’lim konsepsiyasini yoritib berishgan. Ular maxsus fizik terminlardan iborat electron lug‘at tuzishgan va buni samarali tadbiq qilinishi uchun mazkur konsepsiyani ishlab chiqishgan. “Learning by doing” ta’lim konsepsiyasini hayotga tatbiq etishning asosiy muvaffaqiyat omillaridan biri zamonaviy adabiyotlar va o‘quv laboratoriya jihozlari bilan ta’minlanganligidir. Shuning uchun fizika va elektronika bo‘yicha interfaol adabiyotlarni ishlab chiqish yuqoridagi murakkab muammoni hal qilishning bir yo‘li bo‘lib xizmat qiladi. Interfaol qo‘llanma matn va video qo‘llanmani birlashtirgan majmuadan, laboratoriyaishlarini bajarish imkonini beruvchi simulyatordan iborat.”

Fizika atamalari lug‘ati fizika tushunchalari, nazariyalari va formulalari uchun ta’riflar va tushuntirishlarning keng to‘plamini taqdim etilgan. Ilova mexanika, termodinamika, elektromagnetizm va optika kabi turli mavzularni qamrab olingan. Foydalanuvchilar qidiruv satridan foydalanib so‘zlarni qidirishlari yoki kerakli

[1] https://idum.uz/uz/archives/10045

ma’lumotlarni topish uchun toifalarni ko‘rib chiqishlari mumkin. Ilova foydalanuvchilarga tushunchalarni osonroq tushunishga yordam beradigan misollar va rasmlarni ham o‘z ichiga oladi.

Shuningdek biz tadqiqotda fizik terminlarning mexanika, termodinamika, elektromagnetizm kabi semantik ko‘lamini qamrab olgan 5000dan ortiq lug‘át so‘zlarni jamlab, ingliz va o‘zbek tillari misolida maxsus ilova yaratdik.

Azimova M. P, Abdullayeva Sh.N (2021) “Metallurgiya sohasiga oid terminlarning tasnifi va tavsifi” maqolasida shunday fikrlar bildirishgan: “Terminlarning tasniflanishi va tavsifi turli olimlarning nuqtayi nazari boyicha o‘rganilgan. Har bir sohaning o‘z terminlarining tasnifi mavjud bo‘lib, metallurgiya sohasiga oid terminlarning tasniflanishi ifodalangan. Og‘ir metallar metallurgiyasi terminlari turlarga ajratilgan. Metallarning tasnifi va tavsifiga ko‘ra, ular ishlab chiqarilishi va ishlatilishida bir guruhdan boshqasiga o‘tadi”

Hozirgi o‘zbek tilining metallurgiya terminologiyasini tadqiq qilish, tasniflash, ingliz va o‘zbek tillarida shu sohaga oid terminologiyasini tadqiq etish zaruriyati mavjud. Metallurgiya terminlarini, xususan og‘ir metallar metallurgiyasi sohasida faol qo‘llaniladigan terminlarni o‘zbek va ingliz tillari materiali asosida atroflicha tadqiq qilish nafaqat nazariy, ko‘proq amaliy ahamiyatga ega. Binobarin, bugungi kunda geologiya sohasi rivojlanayotgan, bu sohaga katta e’tibor berilayotgan bir paytda metallurgiya terminlariga bo‘lgan talabni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ham ayni paytda ilmiy asoslangan, sifatli, mazmunan tushunarli, davr talabiga javob bera oladigan monolingual, bilingual va hatto trilingual (inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha, ruscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha, inglizcha-ruscha- o‘zbekcha) terminologik lug‘atlarni yaratish va takomillashtirish muammosi dolzarb bo‘lib turibdi.

Olimlar o‘z tadqiqotida metallurgiya sohasiga xos terminlarni: Ishlatilish funksiyasiga ko‘ra 3 mavzuiy ko‘lam asosida tadqiq etishsamara berishini ta’kidlashgan:

a) Qazishma metallurgiyasi terminlari
b) Mexanik metallurgiya terminlari
c) Fizik metallurgiya terminlari”

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurazzaqov.A.A, Nazirov. E.N. (1988). Russko-uzbekskiy slovar terminov po yadernoy fizike. b.231. O‘zbek sovet ensiklopediyasi bosh redaksiyasi.

2. Azimova M. P, Abdullayeva Sh. N. (2021).Metallurgiya sohasiga oid terminlarning tasnifi va tavsifi. Scientific progress volume 2 | Issue 6 | 2021 ISSN: 2181-1601. b-492-496.
3. Elmurodova S.S. (2022). Some research on the Terminologies of Physics inUzbek language. International Journal of Social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429,11(04), 200–202.
4. Kamolxo‘jayev Sh.M, Rizayev X.A, Bekjonov R.B. **(**1991**)** “Fizikadan ruscha-o‘zbekcha atamalar lugáti. 296 b. Toshkent “O‘qituvchi” nashriyoti. ISBN 5-645-00913-4.
5. Munavarov A, Perepada N. (2008). Russko-uzbekskiy tolkovыy slovar terminov, otnosyaщixsya k liniyam svyazi i sistemam peredachi. b 256 Arnaprint, Toshkent. ISBN 978-9943-356-01-6
6. Mo‘ydinova Sh. (2015). Inglizcha-ruscha-o‘zbekcha fizik atamalar lug‘ati.“Istiqlol nuri” nashriyoti. 68 b.
7. Nazirov E.N, Nazirov D.E, Teshaboyev A.T. (2008). Yarimo‘tkazgichlar fizikasi lug‘ati.
8. Qilichova E.X. (2023). Terminology in physics and Uzbek languages. “Globallashuv davrida turli tizimli tillar munosabati: muammo, yechim, istiqbollar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. b-189-194. Navoiy 2023.
9. Ruzimurodov J. T, Xoliqov Q.T, Safarov J, Jalilov J, Hamroyev R. (2019). Fizika darslarida elektron lug‘atlardan foydalanish. Fizikaning hozirgi zamon ta’limidagi o‘rni. Samarqand 2019. b.27-30
10. Tikhonova. I. B. (2010). Kognitivnoye modelirovaniye professionalnoy terminosistemы. Avtoreferat. b, 23**.** Kan poligrafiya markazi
11. Tolmacheva M.I, Bakulin. V.N. (2022). Metodicheskiye problemы omonimii i sinonimii pri osvoyenii studentami terminologii fizicheskoy nauki kak spetsificheskogo yazыka, analogichnogo novomu inostrannomu yazыku. // Ilmiy uslubiy elektron «Konsepsiya» jurnali. – 2022. – No 09. – B. 65–78. DOI:10.24412/2304-120X-2022-11064
12. Xadjimuxamedov X.X., Vildanov R.R., Xadjimuxamedov A.X. (2005). Lazer fizikasi va texnikasidan ruscha-o’zbekcha terminlar lug’ati.

Foydalanilgan saytlar:

1. www.ziyouz.com
2. Eduportalhttps://appagg.com/android/education/fizika-atamalari-lug-ati-38884863.html?hl=en
3. www.scientificprogress.uz
4. https://packpdf.com/books/uzbek/13238-sh-moydinova-inglizcha-ruscha-ozbekcha-fizik-atamalar-lugati
https://azkurs.org/fizikaning-hozirgi-zamon-talimidagi-orni.html?page=5-

5. https://www.dissercat.com/content/kognitivnoe-modelirovanie-professionalnoi-terminosistemy
6. https://cyberleninka.ru/article/n/metodicheskie-problemy-omonimii-i-sinonimii-pri-osvoenii-studentami-terminologii-fizicheskoy-nauki-kak-spetsificheskogo-yazyka
7. https://uzsmart.uz/kitoblar/view/8126
8. https://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/445
9. https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=7551.0
10. http://e-koncept.ru/2022/211064.htm

BADIIY MATNNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI ILMIY MUAMMO SIFATIDA

Iroda Jalolova,
G‘arb tillari kafedrasi katta o‘qituvchi,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tarjimalarda badiiy matnning lingvistik ekspertizasi ilmiy muommosi, matnda bayon qilinayotgan fikrning to‘liqligi matnning semantik yaxlitligi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘liq tugallangan, yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmunni to‘liq aks ettiruvchi sarlavhani tanlash orqali amalga oshirilishi xaqida ma’lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *matn, badiiy matnni bog`lovchi vositalar, badiiy nutq, matn tahlili, mazmunli matn, izoh mazmunli matn.*

Аннотатция: *В данной статье исследуется научная проблема лингвистической экспертизы художественного текста в переводах, полнота мысли, выраженной в тексте, связана с смысловой целостностью текста, а полная целостность текста реализуется путем выбора заглавия. что полностью отражает содержание предоставленной информации.*

Ключевые слова: *текст, связующие средства художественного текста, художественная речь, анализ текста, смысловой текст, смысловая интерпретация текста.*

Abstract: *In this article, the scientific problem of linguistic examination of literary text in translation, the completeness of the thought expressed in the text, is associated with the semantic integrity of the text, and the complete integrity of the text is realized by choosing the title which fully reflects the content of the information provided.*

Key words: *text, connecting means of a literary text, artistic speech, text analysis, semantic text, semantic interpretation of the text.*

Kirish qismi: Matn (lotincha: textus – mato; birikma) – ma’lum moddiy tashuvchiga bog‘langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to‘liq ketma- ketligi.

“Matn” tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo‘g‘rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e‘tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondoshuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi ma’lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqishni anglatadi.

I.R.Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: “Matn bu yozma hujjat shaklida ob’ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir”

Matn, o‘ziga xos tarzda, bir nechta jumlalardan tarkib topadi. Keng yoritilgan, murakkab hajmga ega bo‘lgan bir jumladan iborat yozuvni matn deb atash mumkin emas. Chunki matn bir nechta mustaqil gapga ajralishi mumkin, bunda gap bo‘laklari matnga emas, balki murakkab gapning sintaksis qonunlariga ko‘ra birikadi.

Asosiy qoida – matn ikki yoki undan ortiq jumladan iborat bo‘ladi. Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog‘lanish va bog‘liqliklar (ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko‘rinishi va ichki dunyosi, jonsiz tabiat ob’ektlari va boshqalar)ni aks ettiradi.

Nutq predmetining birligi gapning mavzusidir. Mavzu esa matnning semantik o‘zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir.

Tahlil qismi: “Matn mazmuni” tushunchasi nutqning axborot mazmuni kategoriyasi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, faqat matnga xosdir. U o‘quvchiga hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning barcha sohalardagi ahamiyatini muallifning individual munosabati orqali xabardor qiladi, unga semantik yaxlitlik beradi.

Katta matnda yetakchi mavzu bir qator kichik tarkibiy mavzularga, kichik mavzular esa o‘z navbatida paragraflar (mikro-mavzular)ga bo‘linadi.

Matnda bayon qilinayotgan fikrning to‘liqligi matnning semantik yaxlitligibilan bog‘liq bo‘lib, to‘liq tugallangan, yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmunni to‘liq aks ettiruvchi sarlavhani tanlash orqali amalga oshiriladi.

Shu tariqa matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi:

Matn – bu ma’lum bir mavzudagi bayonot;

Matn so‘zlovchining niyatini, asosiy g‘oyasini ifodalab beradi;

Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtonom (to‘liq) bayonotdir;

Matnda gaplar mantiqiy jihatdan bog‘langan bo‘ladi;

Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin;

To‘liq matn odatda boshlanish va yakunga ega bo‘ladi.

Natija qismi: Mantiqiy bo‘lgan minimal matn yozuv deb ataladi. Bundan tashqari, bunday matnni eslatma deb atash mumkin.

Funktsional uslublar	ilmiy uslub
	so‘zlashuv uslubi
	badiiy uslub
	ommabop (publitsistik) uslub
	rasmiy-idoraviy uslub

Turi	Hikoya
	Tasviriy
	Tavsifiy

Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining asosiy maqsadi badiiy matndagi badiiy ma'no va badiiy mazmunni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matnni baholashdan iborat bo‘lmog'i lozim. Badiiy matnning lisoniy tahlili maxsus tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Badiiy matndagi poetik aktuallashuv fonografik, leksik, morfologik va sintaktik vositalarning har birida o‘ziga xos tarzda kechadi. Badiiy matnning lisoniy -estetik butunlik sifatidagi tabiati ham shakliy, ham semantik mohiyatga ega bo‘lgan integrativ munosabatlarning mavjudligiga ko‘ra yuzaga keladi.

Badiiy matnning lisoniy tahlili kursining asosiy maqsadi badiiy matndagi badiiy ma’no va badiiy mazmunni aniqlash asosida lingvopoetik butunlik sifatidagi matnni baholashdan iborat bo‘lmog’i lozim. Badiiy matnning lisoniy tahlili maxsus tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim.

Kompleks tahlil biror bir ijodkorga bag'ishlangan bo‘ladi. Bunday tahlilni bir asarni turli sathlar bo‘yicha yoki bir necha asarni bir sath bo‘yicha o‘tkazish mumkin. Masalan:Abdulla Qodiriyning «O‘tkan kunlar» romani lingvopoetikasi (til sathlari bo‘yicha). Yoki Abdulla Qodiriy asarlari lingvopoetikasi. Bunda adib qalamiga mansub barcha asarlarning lisoniy xususiyatlari tekshiriladi va natijalar umumlashtirib tahlilga tortiladi. Bu oson ish emas. Shuningdek, bir yoki ikki kishining ishi ham emas. -Adib asarlarini har taraflama tekshirish, tahlil qilish, shu kungacha qilingan barcha ishlarni bir joyga to‘plash, tasniflash indeksli ma'lumotlar bazasini yaratish, zaruriy lug'atlarni tayyorlash va boshqa ishlarni amalga oshirish jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan lingvopoetikaning faoliyat doirasiga kiradi.

Badiiy matndagi poetik aktuallashuv fonografik, leksik, morfologik vasintaktik vositalarning har birida o‘ziga xos tarzda kechadi. Badiiy matnning lisoniy– estetik butunlik sifatidagi tabiati ham shakliy, ham semantik mohiyatga ega bo‘lgan integrativ munosabatlarning mavjudligiga ko‘ra yuzaga keladi.

Talabalarni matn va uning tiplari, birliklari; badiiy matn va uning mazmuniy turlari, badiiy matnda intertekstuallikning ifodalanishi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositaiar, badiiy matnning fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari hamda lingvopoetik tahlil tamoyillari bilan tanishtirish, shuningdek, mazkur kurs

bo‘yicha o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini o‘zbek adabiyotidagi eng sara badiiy asarlar tili tahlilida sinab ko‘rishga o‘rgatish.

«Badiiy matnning lisoniy tahlili» fanini o‘zlashtirishga qo‘yiladigan talablar: Talabalar mazkur fanni o‘zlashtirganlaridan keyin matn va uning to‘liq lingvistik ta’rifi, tiplari, birliklari haqida to‘g’ri tasavvurga ega bo‘lishlari; badiiy matn vauning mazmuniy turlari, badiiy matnda intertekstuallikning ifodalanishi, badiiy matnni shakllantiruvchi vositalar, til birliklari orqali namoyon bo‘ladigan estetik maqsadning yuzaga chiqish mexanizmlari haqida nazariy bilimlarga ega bo‘lishlari; badiiy matnning fono-grafik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni egallashlari; lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida muayyan bir badiiy asarni mustaqil holda tahlil qilish malakasini egallashlari lozim.

Xulosa qismi: Badiiy matnni tahlil qilishning tamoyil va usullari bo‘lganidek, o‘ziga xos tiplari ham mavjud. Tahlilning maqsadi, yo‘nalishi va qamrovini asar hajmi jihatini hisobga olib ikkiga ajratish mumkin.

Tematik tahlil deganda, biror bir badiiy asarni tilning bir jihati bo‘yicha va ma’lum tamoyil, usullar bo‘yicha tahlil qilish nazarda tutiladi. Tematik tahlil asosan, til sathlaridan biri bo‘yicha amalgam oshiriladi. Masalan, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” nomli romanini leksik-semantik jihatdan tahlil qilamiz, deylik. Asardagi lug’aviy birliklar (ayrim so‘zlar, iboralar, maqollar, matallar, aforizmlar) ajratib olinadi. Lug'aviy birliklar asar badiyatiga qay darajada xizmat qilishi, an’anaviy yoki individual ekanligi aniqlanadi. Matn komponentlarini birikish usullari alohida o‘rganiladi. Matn tiplari va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

Tilning barcha sohalarga xos birliklar va ularning muayyan bir asarda qo‘llanishini matnning umumiy mazmuni, janri, tarkibiy tuzilishibilan o‘zaro bog’liklikda olib o‘rganish kompleks tahlilning asosini tashkil etadi. Bu xildagi tahlil umumfilologik yo‘nalish, mazmun va xarakter kasb etadi. Shuning uchun matnni tahlil qilishdan avval adabiyotshunosiik va tilshunoslik bilan aloqador sohalarning tamal qonuniyatlaridan albatta xabardor bo‘lishimiz kerak.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Sadykova S. B., Tuychibaeva S. S. К МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ПРЕДЛОЖНО-ПАДЕЖНОЙ СИСТЕМЫ) //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 189-192.
2. Sadikova S. B. TA’LIM JARAYONIDA O ‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O ‘QITISH. – 2023.

3. Sadikova S. B. The Role of Philosophical and National Framework in Artistic Analysis //American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157). – 2023. – Т. 1. – №. 9. – С. 40-43
4. Xayrulla Hamidov, & Arzu Karausta. (2023). TURKCHAGA ARAB TILIDAN O‘ZLASHGAN JURNALISTIKAGA OID TERMINLAR XUSUSIDA. *Konferensiyalar | Conferences*, *1*(1), 28–33. Retrieved from https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1130
5. Hamidov, Xayrulla, Tojiyeva, Afro‘Za UMAR SAYFIDDIN HIKOYALARI TARJIMALARIGA DOIR // ORIENSS. 2022. №Special Issue 28. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/umar-sayfiddin-hikoyalari-tarjimalariga-doir
6. Xayrulla Hamidov.Turk tili frazeologiyasi va o‘zbekcha-turkcha tarjima masalalari. (Monografiya).2024/1. Tom 1. Bet 232.
7. Baxtiyorovna S. S. O'zbek tilining intensiv kursi (xorijliklar uchin o'zbek tili. Boshlang'ich kurs). – 2021.
8. ABDULLAYEVA, MARHABO RAXMONKULOVNA. «DUNYO TILSHUNOSLIGIDA “OQUV LUG „ATI” TERMININING PAYDO BO „LISHI TAXLILI.“.» *Language teaching: new approaches and innovations” mavzusida ilmiy-amaliy online konferensiya. TDSHU* 5 (2022): 50-53.
9. Hamidov,, X. , & Karausta,, A. (2023). TURKCHA JURNALISTIKA TERMINLARI TARKIBIDAGI G‘ARB TILLARIDAN O‘ZLASHGAN AFFIKSLARGA DOIR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3 (23), 395-401.
10. Комилова, Дилдора Шавкатовна. «БАДИИЙ ТАРЖИМАДА ҲИССИЙ БАҲОЛАШ ЛЕКСИКАСИНИНГ БЕРИЛИШИ (ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИ МИСОЛИДА)» Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 2, no. 10-2, 2022, pp. 848-851.
11. Shavkatovna, Komilova Dildora. «Nationality of General Human Feelings in Translations.» *Journal of Intellectual Property and Human Rights* 2.2 (2023): 63-67.
12. Maksudova, Dilshoda Kakhramonovna ACTIVATION OF THE QUALITATIVE MEANING OF COLOR-IMAGE IN TRANSLATIONS // ORIENSS. 2022. №11. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/activation-of-the-qualitative-meaning-of-color-image-in-translations
13. Maksudova, Dilshoda Kakhramonovna, and Aliyeva Muxlisa Baxodir Qizi. «Developing Lexical Competence in Educational Institutions.» *European Journal of Learning on History and Social Sciences* 1.2 (2024): 5-10.

C1 (HSK 5) DARAJASIDAGI SALBIY VA IJOBIY SO'ZLAR KLASSIFIKATSIYASINING YOZISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI (XITOY TILI MISOLIDA)

Charos Hamdamova,
SamDCHTI, Yaqin sharq tillari kafedrasi stajyor – o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada xitoy tilini o`qitish jarayonida qo`llaniladigan C1 (xalqaro HSK 5) darajasidagi maqtov so'zlar klassifikatsiyasi hamda ularning yozish kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni, HSK va CEFR imtihonlarida ulardan to`g`ri va unumli foydalanish qoidalari xitoy va o`zbek tillarida berilgan misollar orqali dalillangan.*

Kalit so‘zlar: *HSK, C1, yozish kompetensiyasi*, maqtov so`zlar, iltifot so`zlari, kamsituvchi so`zlar.

Xitoy tilini bilish darajasi imtihoni (HSK) hamda Tillar bo`yicha umumiy Yevropa tizimi imtihoni (CEFR) da talabgorlardan ushbu darajaga oid barcha so`z va iboralarni o`zlashtirishi, nutq jarayonida ulardan to`g`ri foydalanishi olishi talab etiladi. Biroq borgan sari, bu o`qitish tizimi o`zini oqlamasligi isbotlanmoqda. Sababi, HSK 5 darajasidagi imtihonni muvaffaqiyatli topshirish uchun talabgor jami 2500 ta so`z boyligiga ega bo`lishi kerak. Har bir so`zning tarjimasini, ularni qay holatda qanday qo`llanilishini, ularni gap va so`z birikmasi tarkibida kelishini bilishi, ularning inkor shaklini qanday bo`lishi (xitoy tilida turli so`z turkumiga oid so`zlar turlicha inkorga uchraydi) va ularni qo`llay olish singari bir qancha vaziyatlar talabgorga ancha qiyinchilik tug`diradi.

Yuqorida shu kabi qiyinchiliklar bartaraf etilmagan holda talabgorga HSK 5 hamda C1 imtihonini topshirish tavsiya etilmaydi. Sababi ushbu imtihonlarni topshirish uchun talabgor xitoy tilidagi istalgan matnni o`qib bemalol uni tahlil qila olishi, matn to`g`risidagi har qanday savolga javob bera olishi, matndagi ayrim gap yoki so`z birikmasini uning ma`nosiga hech qanday ta`sir ko`rsatmagan holda boshqa jumla yoki so`z birikmasiga almashtira olish qobiliyatiga ega bo`lishi lozim. Ko`rinib turibdiki, bu holatda bir qiyinchilik boshqa bir muammoni keltirib chiqarmoqda.

Xitoy tili darajasin bilish imtihonining 99- va 100- savollarida talabgor o`zining yozish kompetensiyasi yuzasidan bilim va ko`nikmalarini namoyon eta olishi lozim bo`ladi. Xususan, imtihonnning yozish qismidagi 99-savolda talabgorga
5 ta so`z taqdim etilib, talabgor matn tuzish jarayonida ushbu beshala so`zning barchasidan foydalangan bo`lishi hamda matn kamida 80 ta iyeroglifik belgidantashkil topgan bo`lishi talab etiladi. Ushb so`zlardanto`g`ri va to`liq va to`g`ri foydalanib matn tuzish imtihonning yozish qismidagi 99-savoldan yuqori ko`rsatgich

qo`lga kiritilishini ta`minlaydi. Ushbu so`zlardan foydalanib matn tuzish jarayonida talabgor nafaqat ularning to`g`riligi, balki rang-barangligiga ham e`tibor bergan bo`lishi va ularni to`g`ri qo`llay olishi lozim.

Hissiy rang – baranglikni ifodalovchi so`zlar, odatda, so`zlovchining muayyan holat va vaziyatga munosabatini, ma`qullashini, qabul qilishi yoki noroziligini, inkorni ifodalovchi so`zlardir. Xitoy tilida bu turdagi so`zlar bo`yoqdorligiga ko`ra, 3guruhga ajratiladi.

1. Neytral so`zlar;
2. Iltifot (maqtov) so`zlari;
3. Kamsituvchi (salbiy bo`yoqdor) so`zlar.

Xitoy tilida ayrim so`zlarning rang-barang, ya`ni qay sohada bo`yoqdor ekanligini bir qarashda aniqlash qiyin. Shuningdek, yana shunday so`zlar borki, ularda hech qanday bo`yoqdorlikning o`zi yo`q. Lekin ular ma`lum bir matnlarda ular kontekstga qarab maqtov yoki kamsituvchi so`zlarning hissiy bo`yoqdorligini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bois, talabgor imtihon topshirish jarayonida shu kabi so`zlar va ularning ishlatilishiga e`tibor berishi lozim. 有水平 *o`qimishli*, 没文化 *madaniyatsiz*, 黑车*noqonuniy taksi*, 绿色食品*yashil taomlar* singari so`zlar shular jumlasidandir.

Endi esa quyida xitoy tilida ko`p murojaat etiladigan ijobiy va salbiy bo`yoqdor so`zlar klassifikatsiyaga to`xtalamiz.

Xitoy tilida HSK 5 (C1) darajadagi 2500 ta so`z orasidan ijobiy bo`yoqdor – maqtov va iltifot so`zlarini quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. 爱 Ài Sevmoq fe`li ishtirokida	爱护 aihù G`amxo`rlik qilmoq
	爱情àiqíng Sevgi
	爱惜àixī Qadrlamoq
	爱心àixīn Mehr - muhabbat

2. 宝 Bǎo Qimmatli sifati ishtirokida	宝贝 bǎobèi Chaqaloq
	宝贵 bǎoguì Qimmatbaho
3. 热Rè Qaynoq sifati bilan	热爱 Rè'ài Jo`shqin muhabbat
	热烈rèliè Qizg`in
	热闹rènào Shovqin - suronli
	热情rèqíng ishtiyoqli
	热心rèxīn G`ayratli

Xitoy tilida HSK 5 (C1) darajasidagi salbiy bo`yoqdor – kamsituvchi so`zlar sifatida esa quyidagicha tasniflashimiz mumkin:

1. 小 Xiǎo Kichik sifati bilan	小气 xiǎoqì Xasis
	小偷 xiǎotōu O`g`ri
2. 失 Shī Yo`qotmoq fe`li bilan	失败 shībài Muvaffaqiyatsizlikka uchramoq
	失望 shīwàng

	Umidsizlikka tushmoq
	失业 shīyè Ishsiz qolmoq

Neytral (yuqoridagi ikki guruhga kirmaydigan) so`zlarni tahlil qilishdaquyidagi ikki muhim jihatga to`xtalib o`tish joiz:

1. Ayrim so`zlar ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligi yuzasidan allaqachon bir qarorga kelingan. Ayrim salbiy va ijobiy bo`yoqdor so`zlar yuzasidan ayrim hollarda haligacha bir to`xtamga kelish qiyin. Va yana ayrim so`zlar yuzasidan esa so`zlashuv amalga oshirilayotgan muhit, madaniyat, xarakter, narxlar singari bir necha omillar ta`siri bilan ularning ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligini aniqlash mumkin, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shuni ta`kidlash joizki, xitoy tilida HSK 5 (C1) darajasidagi so`zlarning barchasi ham to`lig`ich salbiy yoki ijobiy bo`yoqdor so`zlarga bo`linmaydi.

2. Ikkinchi jihat esa so`zlarning ijobiy yoki salbiy bo`yoqdorligining darajasi bevosita bog`liq. Misol tariqasida 可怕 *kěpà* hamda 恐怖*kǒngbù* so`zlarini olaylik. Ularning ikkisi ham o`zida salbiy ma`noni saqlagan so`zlar bo`lib, ular salbiy bo`yoqdorlikning darajasi tomonlama bir – biridan keskin farq qiladi. Sababi ushbu ikki so`z qo`llnilayotgan muhiy va ular bilan qo`llanilayotgan to`ldiruvchilar ham o`z navbatida farq qiladi.

Shu o`rinda bir jihatni ta`kidlash joizki, bu ikki so`zni tarjimasini o`rganib, insho jarayonida shu yo`l bilan ulardan foydalanish, talabgorlar, ayniqsa, chet ellik talabalar tomonidan yo`l qo`yiladigan qo`pol xatolardan hisoblanadi. Salbiy hamda ijobiy so`zlardan ularning darajasini bilgan holda foydalanish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 刘超英等编著, 新HSK5级速成强化教程– 北京语言大学出版社， 2013.5
2. Санжиева, И. Б. Соотношение уровней владения китайским языком в экзамене HSK и европейской системе: к постановке проблемы / И. Б. Санжиева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 25 (315). — С. 486-488. — URL: https://moluch.ru/archive/315/71924/ (дата обращения: 01.12.2023)

O‘ZBEK VA CHET TILI O‘RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Zebo Salimova,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti,
Turk filologiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga bo‘lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda, bunday bo‘lishiga sabablardan biri shu kungacha ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash esa ularni mustaqil fikrlashga kerakli masalalarni izlab topishga, tahlil va xulosa qilishga o‘rgatadi.*
Kalit so‘zlar: *texnologiya, multimedia, pedagogik texnologiya, axborot texnologiyalari, chet tili, IELTS, tendensiya.*

Abstract: *Nowadays, there is a growing interest in the use of interactive methods, innovative technologies, pedagogical technologies in education, one of the reasons for which todate students are taught only ready-made knowledge, and the use of modern technologies requires them to think independently. teaches to search, analyze and draw conclusions.*
Keywords*: technology, multimedia, pedagogical technology, information technology, foreign language, IELTS, trends.*

Bugungi tezkor rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan o‘sib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot ilgari qadam tashlamoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o‘zgarishlar, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnlogiyalardan foydalanib talabalarga yetkazib berish bugungi kundagi ta’limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Yurtimizda chet tillarni o‘qitilishida yangicha bosqich, yangicha davr boshlandi. Chet tili darslarining o‘qitilishi jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarni, interfaol, innovatsion usullardan, kommunikativ-axborot vositalaridan foydalanish talab qilinmoqda. Respublikamizda chet tilining o‘qitilishi, chet tili o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini baholashning umumyevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR, TOEFL, ILTS) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko‘ra umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o‘rganishga bo‘lgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani to‘rt aspektga (o‘qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innavatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion

texnoogiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy taxnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD disklarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: — kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rishi ham eshitishi mumkin; — chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; — ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; — CD playerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o‘rganish va o‘qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so‘zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo‘ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin.

Ta’lim jarayoniga zamonaviy — kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to‘g‘ri, unumli foydalanish, ular orqali o‘quvchida chet tiliga bo‘lgan qiziqishni orttirish, o‘qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta’limning innavatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug‘iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innavatsion ta’lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi va o‘quvchilrning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi ham ta’minlanadi. Ta’lim jarayoniga yangiliklarni olib kirish va ularni tadbiq qilish orqali ta’lim samaradorligini oshirish nazarda tutiladi. Chet tili darslarining o‘qitilishida turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanish ham darsga ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni ortishiga sabab bo‘ladi. O‘quvchilarning juft yoki kichik guruhlarda ishlashlari orqali esa o‘quvchilarning boshqalar bilan kommunikativ aloqa qilishlari uchun yordam

beradi. Ta’lim jarayonida grafik organayzerlardan foydalanish mavzuni yoritishda, uni o‘quvchilarga yetkazib berishda eng muhim visitalardan hisoblanadi. Bir mavzuni yoritishda bir necha xil grafik organayzerlardan foydalanish ham mumkin. Chet tilini o‘qitishda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirish maqsadga muvofiqdir. Grafik organayzerlar orqali bular berilsa, yodda saqlanib qolishi ham oson bo‘ladi.

Ta’lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma’naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta’lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta’lim - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor berilmoqda. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta’lim tizimini texnik jihatdan ta’minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to‘la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta’lim tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usul-laridan birio‘quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediali o‘quv kurslarini qo‘llash, o‘qituvchi va o‘quvchining interfaol o‘zaro aloqalarini ta’minlash, multimediali o‘quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalb etishdan iborat bo‘ladi.

Bizga ma’lumki, bugungi kunda ta’lim sohasi sifat va samaradorligini oshirishni zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalari vositalarisiz tasavvurqilish qiyin. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta’lim jarayonini didaktik va axborot ta’minotining yangi avlodini ishlab chiqish va joriy etish bosqichida ta’lim-tarbiya mazmunini o‘zlashtirishning muammolarini yechishga qaratilgan zamonaviy ta’lim- tarbiya texnologiyalarini yaratish dolzarb masala ekanligi ta’kidlangan. Shu jumladan, ta’limtarbiya jarayonida fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasi usullarini rivojlantirish, uni amaliyotga joriy etish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar hamda mustaqil bilim olish jarayonini individuallashtirish, shu bilan birga masofali ta’lim tizimi texnologiyasini, uning vositalarini ishlab chiqish, o‘zlashtirish, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari hamda masofali o‘qitish texnologiyalari asosida o‘quvchilarni o‘qitishni jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

Hozirgi paytda ta’lim samaradorligini oshirishdagi muhim omillardan biri texnik vositalardan foydalanishdir. Bu esa o‘z navbatida, til o‘rganishga nisbatan

qiziqishni va o‘tilayotgan darslarning sifatini oshiradi, o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini ta’minlaydi. Ta’lim jarayonida usullar to‘g‘ri tanlansa, ko‘zlangan natijaga qisqa yo‘l bilan erishish mumkin. Ta’lim-tarbiya sohasining to‘xtovsiz takomillashib borishi, o‘quv darslarini pedagogik innovatsiyalar asosida tashkil etish, oliy ta’lim muassasalari oldida turgan dolzarb vazifalardan bo‘lib uni muvaffaqiyatli amalga oshirish oliy ta’lim professor-o‘qituvchilari oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar butun dunyodagi ko‘plab o‘zgarishlarga guvoh bo‘ldi va bu o‘zgarishlar odamlarning turmush darajasi va farovonligini rivojlantirdi. Texnologiyalar turli sohalarga tatbiq etilgandan buyon butun dunyo global maydonga aylandi va odamlar bir necha soniyada barcha tadbirlarni juda samarali bajarishlari mumkin. To‘g‘ri, ta’lim sohasiga eng yangi texnologik yangiliklarni kiritish bilan ta’lim sohasi ham ko‘proq foyda keltirdi. Hozirgi avlodda zamonaviy o‘quvchilarning munosabatlari va ta’lim uslublarida keskin o‘zgarishlar yuz berdi. Ingliz tili kabi tilni o‘rganishda ular tilni o‘qitishning an’anaviy usullari va yondashuvlarini qabul qilmaydilar. Ammo ularni ingliz tilini o‘qitishning so‘nggi uslublari, uslublari va yondashuvlari juda qiziqtiradi. Xuddi shu holatni ikkinchi yoki chet tilini o‘rganuvchilarga ingliz tilini o‘rgatishda ham kuzatishimiz mumkin. Shunday qilib, ba’zi zamonaviy ingliz tili o‘qituvchilari vaziyatni o‘z vaqtida angladilar va ular eng yangi uslublar va yondashuvlarni amalga oshirish bilan bir qatorda o‘qitishda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirmoqdalar. Ingliz tilini o‘rganish o‘quvchilar uchun qiziqarli va hayajonli bo‘lishi uchun o‘qituvchilar doimo innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirishga va IELTS zamonaviy tendentsiyalaridan xabardor bo‘lishga harakat qilishlari kerak.

Texnologiya ta’lim sohasiga yangi o‘lchov olib keldi. Ushbu raqamli davrda bo‘r va doska uchun imkoniyat yo‘q va ular o‘rniga raqamli yoki aqlli yoki interaktiv oq taxtalar o‘rnatildi, shuning uchun o‘qituvchining yuki kamaytirildi va o‘quvchilarning kontsentratsiyasi oshirildi. Natijada, o‘quvchilar o‘rtasida tarkibga suyanishda ijobiy munosabat mavjud bo‘lib, o‘qituvchilar ularni kompyuter, noutbuk, mobil telefon, planshet va h.k. kabi mavjud texnologiyalardan foydalangan holda ularni ijobiy tarzda rag‘batlantirishga qodir. Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘zlarining sinflarida raqamli matnlar va haqiqiy materiallardan foydalanib, o‘quvchilarda o‘quv nuqtasiga qiziqish uyg‘otmoqda.

So‘nggi yillarda o‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish masalasi tobora ko‘payib bormoqda. Bu nafaqat yangi texnik vositalar, balki o‘qitishning yangi shakllari va usullarinii, o‘rganishga yangicha yondoshishdir. Chet

tilini o‘rganishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘z oldimizga qo‘ygan asosiy maqsadimiz – bu chet tilida talabalarni o‘qitish sifatini oshirish, ularning kommunikativ madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘rganish uchun texnologiyadan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko‘rsatish.

Biz bugungi kunda dunyoda kompyuterlar hukmronlik qiladigan davrdamiz. Xuddi texnologiya ishbilarmonlik aloqalarida, o‘yin-kulgida, musiqada, filmlarda va kundalik hayotimizning deyarli barcha jabhalarida katta ahamiyatga ega bo‘lganikabi, u ham ta’limda bir xil darajada muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 90% i maktabda, ishda yoki uyda qandaydir turdagikompyuter yoki mobil qurilmalardan foydalanish imkoniyatiga ega. Shunday qilib, sinflar va o‘qitish uslublari evolyutsiyasini texnologiya yo‘nalishida tortishayotganiniko‘rish ajablanarli emas.

So‘nggi yillarda yangi, texnologiya bilan birlashtirilgan sinf xonalari til o‘rganishda ommalashmoqda. Aralashtirilgan ta’lim, virtual sinflar va ta’limni boshqarish tizimlari – bu eng yaxshi pedagog mutaxassislar tomonidan ma’qullanadigan ushbu yangi o‘qitish metodikasi davrining namunalari. Ushbu usullar o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish, o‘qituvchining rolini engillashtirish vabarcha ishtirokchilar uchun tizimli, keng qamrovli o‘quv tajribasini ta’minlash uchun tilni o‘rganish texnologiyasidan foydalanishni o‘z ichiga oladi.

Texnologiyalarning eng ilhomlantiruvchi jihati – bu butun dunyodagi tomoshabinlarni qamrab olish qobiliyatidir. Tilni o‘rganishda bu mahalliy o‘qituvchilarni jalb qilish va talabalar ona tilida so‘zlashuvchilar tomonidan o‘qitiladigan kurslarga kirish – bu to‘g‘ri immersiyani ta’minlash demakdir. Til ta’limini onlayn ravishda qabul qilish deyarli har kimga ushbu kurs va uning manbalaridan foydalanish imkoniyatini beradigan eshikni ochadi.

Ta’lim markazlaridagi tillarni o‘rganish texnologiyasi kelajak emas, balki hozirgi ta’limdir. Sinfda yangi texnologiyalardan foydalanish tilni o‘zlashtirish yoki unga ega bo‘lish uchun mukammal qo‘shimcha bo‘ldi va texnologik qo‘llab-quvvatlash bilan birga ingliz tili kurslari o‘qishda muvaffaqiyat qozonishni istagan talabalar uchun eng samarali va kerakli hisoblanadi.

Bundan tashqari muvaffaqiyatli o‘qituvchilarni tayyorlashda ham texnologiyalar ko‘proq foyda keltiradi. Aslida, muvaffaqiyatli o‘qituvchilar - bular shaxslararo va shaxslararo munosabatlarning yuqori darajalariga ega va ular bolalar bilan tanishish uchun real imkoniyatlarga ega, qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar va ularning so‘zlarini chin dildan eshitish. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli

o‘qituvchilarga ega bo‘lishi kerak, o‘qitiladigan materialni va uning kamtarligini, sevimli shaxsiyatini va ularning o‘zaro munosabatini chuqur anglash va ularning o‘quvchilari bilan aloqa qilish va ularga bo‘lgan hurmat. Bundan tashqari, muvaffaqiyatli ingliz tili o‘qituvchilari mavjud texnologiyalardan maksimal darajada foydalanishlari kerak, o‘quv xonalari va shuningdek, o‘z o‘quvchilari uchun Internetdan yuklab olingan qiziqarli materiallardan foydalanadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Saydaliyev S. Chet tili o‘rgatish metodikasidan maruza matnlari - Namangan-2002;
2. Yo‘ldoshev J. Yangi pedagogik texnologiyalar yo‘nalishlari, muammolari. Xalq ta’limi 1999-yil;
3. Hoshimov O‘.H; Yoquvov I.Y. Ingliz tili o‘qitish metodikasi- Toshkent -2003 -yil;
4. Chet tillarini o‘qitish zamonaviy texnologiyasi masalalari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari - Toshkent 2007-yil;
5. Ziyonet.uz
6. Pedagog.uz
7. Literaryagency.uz

ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Дилфуза Шакирова,
старший преподаватель кафедры
«Узбекский язык и литература» ТГУВ
E-mail:dilfuzashakirova025@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы внедрения передовых стандартов высшего образования, инновационной деятельности преподавателя в повышении качества образования, ориентированного на внедрение технологии «Работа в малых группах» и «Обучение в сотрудничестве» в практическую деятельность образовательныхучреждений.*

Ключевые слова: *инновационные технологии, работа в малых группах, обучение в сотрудничестве, технология, совместная деятельность, достижение взаимопонимания.*

Abstract: *the article discusses the implementation of advanced standards in higher education, the innovative activities of teachers in improving the quality of education, focused on introducing the technology “Work in small groups” and “Learning in collaboration” into the practical activities of educational institutions.*

Key words: *innovative technologies, work in small groups, collaborative learning, technology, joint activities, achieving mutual understanding.*

Будущее развитие каждого государства зависит от степени развития образовательной системы.

В целях определения приоритетных направлений системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднятия на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, модернизации высшего образования, развития социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий, была утверждена Концепция развития системы высшего образования до 2030 года.

Внедрение передовых стандартов высшего образования, в частности поэтапный переход от образования, учебные программы которого направлены на получение теоретических знаний, к системе образования, направленной на формирование практических навыков, исходя из международного опыта является более эффективным.

Узбекистан идет по пути развития демократического, правового и гражданского общества и, в связи с этим, самой главной идеей является

воспитание гармонично развитой личности. Главное требование нашего государства, которое идет по пути прогресса, является подготовка кадров на основе развития современной экономики, науки, культуры, техники и технологий.

Главная цель образования в период глобализации и информатизации — это то, что учащиеся должны самостоятельно развивать свои способности в образовательной среде. Для достижения этих целей в ходе непрерывного образования необходимо предоставить возможности для свободного творчества учащихся. Образовательная практика современного ВУЗа доказывает необходимость использования информационно – педагогических технологий, направленных на конструирование оптимальных обучающих систем, проектирование учебного процесса, разработку методов и средств получения, преобразования, передачи, хранения и использования информации.

Для расширения эффективности образовательного процесса центральное место в образовании личности и обеспечении получения знаний учащимися должен занимать преподаватель с отличной подготовкой, применяющий современные педагогические технологии и интерактивные методы на практике. Чтобы преподаватель максимально эффективно использовал время обучения, ему нужно вооружиться всеми достижениями современных педагогических технологий, интерактивными методами, полученными знаниями и уметь использовать их на практике.

При определении статуса педагогической технологии полезно соотнести её с той научной концепцией, которая лежит в её основе, указать постановкуцелей, достигаемых с её помощью, и определить её сущностные признаки.Признаками педагогической технологии являются:

цели (во имя чего необходимо учителю её применять);

наличие диагностических средств, закономерности структурирования взаимодействия учителя и учащихся, позволяющие проектировать (программировать) педагогический процесс;

система средств и условий, гарантирующих достижение педагогических целей;

средства анализа процесса и результатов деятельности преподавателя и учащихся. В связи с этим неотъемлемыми свойствами педагогической технологии являются её целостность, оптимальность, результативность, применимость в реальных условиях учебного процесса.

Педагогическая технология должна включать в свой состав диагностические цели и содержание обучения, дидактические процессы и организационные формы обучения. Компонентами дидактического процесса являются: мотивация как создание устойчивого интереса обучаемого к учебной деятельности и превращение внешних целей во внутренние потребности; познавательная деятельность обучаемого, в результате которой происходит усвоение знаний; управление ею преподавателем, способы которого зависят от цели обучения. Опора только на занимательность не дает стойкой мотивации, для неё нужно создание мотивационных проблемных ситуаций или постановка специальных познавательных задач. Способ управления зависит от цели, если целью является знакомство, представление, то тип учения репродуктивный. В более широком аспекте так же называют и технологию обучения.

Концепции современных учёных – психологов и педагогов – ориентированы на внедрение технологии «Работа в малых группах» и «Обучение в сотрудничестве» в практическую деятельность образовательных учреждений. Работа в малых группах – это одна из самых популярных стратегий, так как дает всем обучающимся (в том числе и сенситивным личностям) возможность участвовать в работе, практиковать навыки сотрудничества, межличностного общения, в частности, умение активно слушать, вырабатывать общее мнение, разрешать возникающие разногласия.

При работе в малых группах – по мнению А.Г.Ривина:

* быстрее, нежели при фронтальном обучении, формируются понятия, умения, навыки: повышается прочность понимания и запоминания материала;

* учащиеся чувствуют себя комфортно, испытывают удовлетворение от совместной деятельности, у них возникает желание помочь однокурснику, снижается уровень агрессии, нетерпимость друг к другу, студенты начинают лучше чувствовать и понимать самих себя и сокурсников;

* увеличиваются возможности реализации творческих, индивидуальных способностей студентов и разнообразия их познавательной деятельности;

* формируются навыки, которые важны и значимы для жизни студента в обществе: чувство такта, ответственность, самостоятельность, учёт мнений, желаний и возможностей других студентов

Малые группы образовываются на разных этапах урока, исходя из психологических, дидактических и управленческих целей педагога и результатов наблюдения. Группа осуществляет свою деятельность в течении времени, необходимого для реализации поставленной задачи. По окончании

совместной деятельности группа предъявляет результаты своей работы. Зачастую педагогически важнее не результат, а сам процесс совместной деятельности студентов.

При организации групповой работы с учащимися необходимо ориентироваться на следующие аспекты:

В первую очередь следует выяснить, обладают ли учащиеся базисными знаниями и умениями, необходимыми для выполнения группового задания,так как нехватка знаний очень скоро дает о себе знать: учащиеся быстро теряют интерес и перестают прилагать усилия для выполнения задания.

Нужно стараться сделать свои инструкции максимально четкими с учетом того, что группа реально может воспринимать не более одной или двух инструкций за один раз; инструкции предпочтительно отображать на электронной доске. Предоставить группе достаточное время для выполнения задания. **Цель:** продемонстрировать сходство или различия определенных явлений, выработать стратегию и разработать план, выяснить отношение различных групп обучающихся к одному и тому же вопросу. **Задачи:** развитие навыков общения и взаимодействия в группе; формирование ценностно-ориентационного единства группы; поощрение к гибкой смене социальных ролей в зависимости от ситуации.

Методика проведения: прежде всего, при формировании практического задания следует исходить из того, что оно должно отвечать следующим критериям: не иметь однозначного и односложного ответа или решения; являться практическим и полезным для учащихся; должно бытьнепосредственно связано с жизненными ситуациями; вызывать профессиональный интерес у учащихся;

Основная группа (примерно 12 учащихся) разделяется на несколько малых групп (обычно по 2-4 человека). Количество групп и лиц в них определялось числом дидактических заданий, которые подлежали обсуждению в процессе занятия. Как было отмечено выше, малые группы формируются либо по желанию самих учащихся, либо по смежной тематике для обсуждения. Из основной группы выбираются спикер, оппонент и эксперт. Спикер занимает лидирующую позицию, организует обсуждение на уровне основной группы, формулирует единое из представленных частных мнений малых групп. Оппонент слушает выступления представителей малых групп, при необходимости задает вопросы и анализирует предлагаемые позиции во время дискуссии, затем формулирует дискутабельные вопросы по обсуждаемой теме.

Эксперт формирует оценочное суждение по позициям малых групп и общей дискуссии. **Подготовительный этап:** каждая малая группа между собой обсуждает практическое задание в течение отведенного времени. Основная задача данного этапа – сформулировать свою позицию по практическому заданию. **Основной этап:** на этом этапе заслушиваются суждения, предлагаемые представителями малых групп по практическому заданию. После каждого суждения по позиции оппонент задает участникам малых групп вопросы и выслушивает их мнения, после чего предлагает актуальные вопросы для дискуссии. Дискуссию проводит спикер. Далее эксперт дает свою оценку дискуссии и отдает предпочтение суждениям одной или нескольким малым группам. В завершении основного этапа спикер подытоживает суждения малых групп и эксперта и предлагает пути решения творческого задания. **Этап рефлексии:** В заключении преподаватель подводит итоги: дает свою академическую оценку о работе малых групп по решению практического задания и анализ эффективности предложенных путей решения.

Главным в условиях обучения в сотрудничестве является то, чтобы помочь товарищу вместе решить любые проблемы, разделить радость успеха или горечь неудачи. А главная идея обучения в сотрудничестве сводится к правилу – учиться вместе, а не просто что-то выполнять вместе!

Обучение в сотрудничестве предполагает именно сотрудничество, а не соревнование. Равные возможности предполагают, что любой студент должен совершенствовать свои собственные достижения. Это значит, что каждый обучаемый учится в силу собственных возможностей и потому имеет шанс оцениваться наравне с другими.

Если и продвинутый, и слабый студент затрачивает максимум усилий – каждый для достижения своего уровня – то будет справедливо, если их усилия в группе будут оценены одинаково: ведь и один, и другой сделал, что мог. А учитель приобретает роль организатора самостоятельной, познавательной, исследовательской, творческой деятельности студентов. Его задача больше не сводится к формальной передаче суммы знаний и опыта.

Роль учителя в контексте данной технологии – помочь обучаемым самостоятельно добыть нужные знания, критически осмыслить полученную информацию, уметь делать выводы, аргументировать их.

«По технологии сотрудничества учиться надо так, когда рядом с тобой твои товарищи, у которых можно спросить, если что-то не понял, можно обсудить решение очередной задачи. А если от твоего успеха зависит успех

всей группы, то ты не сможешь не осознавать ответственность и за свои успехи, и за успехи твоих товарищей. Именно от осознания данного фактаавторы метода обучения в сотрудничестве и отталкивались».

Практика показывает, что вместе учиться не только легче и интереснее, но значительно эффективнее. Причем важно, что эта эффективность касается не только академических успехов студентов, их интеллектуального развития, но и нравственного. Помочь другу, вместе решить любые проблемы, разделить радость успеха или горечь неудачи-также естественно, как смеяться, петь, радоваться жизни.

В процессе обучения ошибаются все. Только одним нужно больше времени и усилий, чтобы овладеть материалом, другим меньше. Как это сделать –дело методики!

Обучение в сотрудничестве (cooperative learning, Collaborative learning)- это методика объединения студентов в микрогруппы для совместного выполнения задания. Студенты работают в группе до тех пор, пока все вместе они не освоят предложенный материал, не придут к общему мнению по решению проблемы или не создадут какой-то творческий продукт (рассказ, рисунок, задание и т.д.). Обучение в малых группах по методике сотрудничества очень полезен для всех студентов. Совместная работа, которую каждый студент использует для собственного обучения и обучения окружающих, развивает умение общаться, слушать, коллективно решать проблемы, достигать взаимопонимания.

Подчеркнем, что позитивная взаимозависимость возникает тогда, когда для того, чтобы добиться успеха, каждый член группы нуждается в остальных ее членах. Работа каждого члена микрогруппы должна быть выгодна как для него самого, так и для остальных ребят и всей группы в целом.

Создать позитивную взаимозависимость можно разными способами, но в любом случае членов группы должно объединять нечто общее.

Прежде всего –это общая цель и взаимозависимость на основании ее.

Учитель ставит перед группой общую цель: например, члены группы должны вместе разобраться в смысле понятия или теории, затем каждый из них должен суметь объяснить материал какой-то другой группе.

Общая награда (взаимозависимость на основании общей награды). Члены группы выполняют контрольную работу и в дополнение к своей собственной оценке получают еще одну, если оценки всех членов группы были не ниже четверки (тройки, пятерки-как будет удобно учителю).

Роли (взаимозависимость на основании отдельных ролей).

Каждый член группы получает организационную роль. Для того, чтобы работа была успешно выполнена, необходимо, чтобы каждый хорошо выполнил свои обязанности.

Задания (взаимозависимость на основании отдельных заданий). Работа в группе разделяется на отдельные задания. Каждое задание выполняет один из членов группы. Чтобы вся работа была выполнена, необходимо, чтобы каждый член группы справился со своим заданием и результаты отдельных работ объединялись.

Главный лозунг групповой работы: «Мы все работаем друг для друга. Мы в одной лодке-или вместе выплывем, или вместе утонем».

Литература:

1. Ш.М.Мирзиёев. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года. Т. 2019.
2. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие под редакцией Е.С. Полат. М. 1999.
3. Андриянова В.И. О концептуальной базе использования современных технологий в учебно-воспитательном процессе. Ташкент. Фан. 2010.
4. Ишмухамедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. Т. 2008.-180б.
5. K.Shernazarova, N.Khodiyeva, D.Shakirova. Analysis Of Methods Of Monitoring Speech Skills And Skills In Teaching Foreign Languages. International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 9 – Issue 2, February 2020 Edition/
6. Yakubova Sh., Belykh L., Khamdam-Zoda L., Shakirova D., Saidaliyeva G. “Teaching The Verbs Of The Russian Language In The System-Functional Aspect, Taking Into Account Errors Made By Non-Native Students”. InternationalJournal of Scientific & Technology Research. Volume 9-Issue 3, March 2020 Edition.
7. Shokirova D., Ochilova N. “Issues Of National Methodological Identity And Expression Of National Color In Translation”. The American journal of social science and education innovations. Volume 3 Issue 02, 2021
8. Shakirova D.Z. “Analysis Of The Level Of Development Of Lingutic Competence”. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. Volume 2, issue 4/2. April 2022
9. Shakirova D.Z. “Level Of Development Of Linguistic Competence”.International scientific and practical conference “Modern psychology andpedagogy: problems and solutions” 18.05.2022

2. Catherine D. Marcum. History of Social Networking // Social Networking as a Criminal Enterprise. CRC Press,2014.(ingl.)–P.4. https://www.routledge.com/Social- Networking-as-a-Criminal-Enterprise/Marcum-Higgins/p/book/9781466589797
3. Yefimov 2015 // analiz-faktorov-effektivnosti-it-proektov-predpriyatiy (1).pdf
4. Internet i blog predskazali Vladimira Odoyevskogo v 1837 godu – Lenta.ru,2.10.2005 // Internet i blogi predskazal Vladimir Odoyevskiy v 1837 godu: Internet i SMI: Lenta.ru
5. Management Reviyew of EPA Bulletin Board Systems. EPA, 1990. (ingl.) – P. 8.
6. Makovskiy M.M. Sovremennыy angliyskiy sleng: ontologiya, struktura, etimologiya. 2-ye izd. – Moskva: LKI, 2007 // Makovskiy M.M. / Sovremennыy angliyskiy sleng: Ontologiya, struktura, etimologiya / ISBN 978-5-9710- 6684-2 (urss.ru)
7. 4-fevral – Facebook ijtimoiy tarmog‘i ishga tushgan // O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (mitc.uz)

O‘ZBEK TILINI YOT SO‘ZLARDAN TOZALASH VA TIL SOFLIGINI SAQLASH MASALASINING ISTIQBOLI VA MUAMMOLARI XUSUSIDA

Nurjahon Abdullayeva, *TDSHU turkshunoslik fakulteti2-bosqich magistranti*
E-mail:nurjahonabdullayeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek tilini yot so‘zlardan tozalash va til sofligini saqlash masalasining istiqboli hamda muammolari qisqacha tahlil qilinadi. O‘zlashmalarning til taraqqiyoti va rivojlanishi sohasidagi ahamiyati, xususan, o‘zbek tilining yaqin tarixdagi leksik tarkibi, unda o‘zlashgan qatlam so‘zlarining ulushi hamda mos ravishda o‘zgarib borishi misollar yordamida o‘rganilib, o‘zbek tilini yot so‘zlardan tozalash, tilning sofligini saqlashga bo‘lgan turli davrlardagi harakat va urinishlar qisman tahlil qilinadi, bu yo‘ldagi yutuq va kamchiliklar hamda bularga sabab bo‘lgan omillar haqida fikr va mulohazalar yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *O‘zlashma so‘zlar, tilning lug‘at sathi, lisoniy xilma-xillik, variativlik, til sofligi, ichki va tashqi manbalar, rus-internatsional so‘zlar, neytral leksika, tilni milliylashtirish, muqobil so‘zlar (alternativalar), atamashunoslik qo‘mitasi, til genofondi.*

Аннотация: *В данной статье кратко анализируются перспективы и проблемы очищения узбекского языка от иностранных слов и сохранения чистоты языка. На примерах изучается значение приобретений в области развития языка, в частности, лексический состав узбекского языка в новейшей истории, доля в нем слов ассимилированного слоя и соответствующие его изменения. Частично анализируются усилия и попытки в разные эпохи очистить язык и сохранить чистоту языка, обсуждаютсядостижения и недостатки на этом пути и факторы, их вызвавшие.*

Ключевые слова: *Заимствованные слова, словарный запас языка, языковое разнообразие, вариативность, чистота языка, внутренние и внешние источники, русско-международные слова, нейтральная лексика, национализация языка, альтернативные слова (альтернативы), терминологический комитет, языковой генофонд.*

Abstract: *This article briefly analyzes the prospects and problems of clearing the Uzbek language of foreign words and preserving the purity of the language. Using examples, the significance of acquisitions in the field of development of language is studied, in particular, the lexical composition of the Uzbek language in recent history, the proportion of words of the assimilated layer in it and its corresponding changes. Efforts and attempts in different eras to purify the language and preserve the purity of the language are partially analyzed, achievements and shortcomings along this path and the factors that caused them are discussed.*

Keywords: *Borrowed words, language vocabulary, linguistic diversity, variability, purity of language, internal and external sources, Russian-international words, neutral vocabulary, nationalization of language, alternative words (alternatives), terminology committee, languagegene pool.*

Har bir til o‘z taraqqiyoti davomida turli tillardan so‘z oladi, ichki va tashqi manbalarga ko‘ra boyiydi, lug‘at sathi tadrijiy ravishda kengayib, takomillashadi va shunga ko‘ra o‘z iste’molchisiga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim qilish

salohiyatiga ega bo‘lib boradi. Va bu har qanday rivojlanayotgan til uchun normal holatdir.

Bugun o‘zbek tili ham aynan shu jarayonni boshidan kechirmoqda. Shitobbilan kechib borayotgan globallashuv sharoitida, zamonaviy texnologiyalar tobora kunimizning, hayotimizning ajralmas qismiga aylanib, o‘zi bilan yangidan-yangi tushuncha va hodisa nomlarini lisoniy sathimizga olib kirayotgan bir davrda bu jarayon yana-da shiddatli tus olayotgani ayni haqiqat. Hattoki, shu sabab bo‘lsakerak, ayrim til muhofazakorlari “o‘zbek tili o‘z milliyligini yo‘qotish arafasida” degan xavotirli farazlarni ham o‘rtaga tashlamoqda. Xo‘sh, shu o‘rinda savol tug‘iladi, tilning ijtimoiylashuvini sun’iy ravishda to‘xtatish yoki nazorat qilish, uni majburiy bir tarzda milliylashtirish, kirib kelayotgan begona so‘zlar o‘rnini ichki manbalar orqali muqobillashtirish mumkinmi? Va bu qanchalar istiqbolli? Bu yo‘lda qanday muammolar mavjud? Mazkur maqolada aks etadigan fikr, tahlil vaxulosalarimiz orqali ushbu savollarga javob topishga harakat qilib ko‘ramiz.

Dastlab, o‘zbek tilining turli yillardagi lug‘at boyligi tarkibida yot so‘zlar ulushi miqdoriga nazar solsak. Ma’lumotlarga ko‘ra, eski adabiy tilimiz leksikasida arabcha so‘zlarning ulushi XX asrning boshlarida 33-35 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, Sovet hokimiyati yillarida bu foiz sezilarli darajada pasayib, arab va fors-tojik so‘zlari o‘rnini nisbatan rus so‘zlari egallaganligining guvohi bo‘lamiz.

Masalan, 20-yillarning o‘rtalarida A.K. Borovkov o‘tkazgan tahlil natijasiga ko‘ra, “vaqtli matbuot leksikasida arab so‘zlari 32,1 foizni, tojik so‘zlari 5,5 foizni, internatsional (xalqaro) so‘zlar 2 foizni, o‘zbek so‘zlari 60 foizni tashkil qilgan”[1] bo‘lsa, K.K. Yudaxin tomonidan tuzilgan lug‘atga sarf etilgan so‘zlar tahlil etilganda, “lug‘atdagi so‘zlarning 28,6 foizi arabcha, 16,9 foizi tojikcha, 4,7 foizi rus-internatsional, 50,3 foizi asli o‘zbek so‘zlaridan iborat bo‘lgan (33-bet)”[2]ligini ko‘rish mumkin. Professor Fattoh Abdullayevning “Til qanday rivojlanadi?” nomli risolasida esa o‘zbek tili lug‘at tarkibida yillar o‘tgani sari ruscha so‘zlar hissasi ortib borgani aniq hisob-kitoblar orqali dalillab berilganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ungako‘ra, “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1944-yil 1-yanvar soniga joylashtirilgan materiallarining leksik tarkibi quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan: “Gazetaning ushbu sonida hammasi bo‘lib, 7310 so‘z bor, shundan o‘zbekcha so‘zlar 53,6, arabchaso‘zlar 21,1, tojikcha so‘zlar 11,2, sovet-internatsional so‘zlar 13,9 foizni tashkilqiladi[3]”.

[1] Боровков А. К. Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит на основе русской графики. – Известия УзФАН, 1940, № 7. – С. 25-68
[2] Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi?. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 33-b.
[3] Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 33-b.

Ushbu jarayon, ya’ni tilimizda rus so‘zlari va u orqali kirgan internatsional so‘zlar ulushining ortishi bu bilan to‘xtab qolmay, vaqt o‘tgani sayin yana-da jadallashib, fan, sanoat, ishlab chiqarish va shu kabi boshqa ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy sohadagi yangiliklar, o‘zgarishlar sabab yana-da til sathimizda mustahkam o‘rin egallab boraverdi. Ushbu davrda *gazeta, jurnal, stol, stul, ruchka, tok, avtobus, trolleybus, tramvay, teatr, roman, epopeya, epilog, programma, syujet, konsert, assambleya, assistent, geometriya, asteroid, kometa, bakteriya, semantika, generator, kompyuter, kaloriya, sistema, struktura, kvadrat, texnika, texnologiya, mashina, atom, yadro, fizika, matematika, traktor, kombayn, raketa, avtomat, armiya, propozitsiya, sinonimiya, omonimiya, leksema, grammatika, morfema, spiral, stadion, infeksiya, inflyatsiya, punkt, parlament, palata* va shu kabi o‘zbekcha muqobilini topish va topganda ham bu muqobillarni faol qo‘llaniluvchi lisoniy sathga kiritish deyarli mumkin bo‘lmagan rus-internatsional so‘zlar qabul qilindi va ular neytral leksika maqomini oldi.

Faqatgina 90-yillarning boshiga kelib, o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi va sovet hokimiyati parchalanib, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganligi sabab tilimizda rus so‘zlari o‘z ta’sirini birozga bo‘lsa-da, yo‘qota boshladi. Xususan, o‘z paytida juda faol qo‘llangan *rayon (tuman), oblast (viloyat), redaktor (muharrir), redaksiya (tahririyat), adres (manzil), spravka (ma’lumotnoma), snoska (havola), spravochnik (qo‘llanma), broshyura (risola), jyuri (hakam), injiner (muhandis), kalendar (taqvim), konferensiya (anjuman), leksiya (ma’ruza)*[4] va h.k. kabi so‘zlar muqobillariga muvaffaqiyatli tarzda almashtirildi. Lekin bu bilan ushbu so‘zlar milliylashtirildi, o‘zbekcha muqobillariga almashtirildi, degan mulohaza, bizningcha, katta so‘roq ostida turibdi. Chunki aksariyat muqobillarni arab so‘zlari tashkil etdi.

Endilikda, rus so‘zlari ta’siri kamayganligi barobarida, davrga mutanosib ravishda ingliz so‘zlari “fathi” tilimiz milliyligiga rahna sola boshladi. Dunyoning yetakchi mamlakatlari tili, umuman, bugun fan-texnologiya tili bo‘lib qolgan ingliz tili tilimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadi. Va bu ta’sir yaqin o‘n yilliklarda sezilarli darajada oshishi kutilmoqda.

Tahlillarga ko‘ra, “Eski nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga 80 gayaqin inglizcha o‘zlashmalar kiritilgan bo‘lsa, yangi nashrdagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da 500 dan ortiq inglizcha o‘zlashma so‘zlar izohlangan. Shuningdek, O‘zbek

---

[4] Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.

tiliga o‘zlashgan inglizcha so‘zlarning izohli lug‘atida 350 dan ortiq so‘z, bundan tashqari, vaqtli matbuotda qo‘llanilayotgan neologizmlar, “Ingliz – o‘zbek – rus axborot texnologiyalari va internetga oid qisqacha atamalar lug‘ati”dagi inglizcha o‘zlashmalar hisobiga mingdan ortiq leksemalar qo‘shilgan[5]”ligining guvohi bo‘lish mumkin.

O‘zbek tili leksik tarkibi sofligining davrlarga ko‘ra bundayin o‘zgarib turishi, yod so‘zlarning tilimiz sofligiga bo‘lgan bundayin “xuruj”lari ko‘rib turganimizdek, har doim bo‘lgan. Shu o‘rinda “til sofligi” degan tushunchaning o‘zi ham biroze’tirozli tushuncha ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Chunki dunyoda biror til yo‘qki,boshqa tillardan so‘z olmagan, o‘zlashmalar hisobiga o‘z lug‘at sathini boyitmaganva mutlaq sofligini saqlab qola olgan bo‘lsa. Shu sababdan til sofligini saqlash, uni yot so‘zlardan himoya qilish kerak, degan fikr-mulohazalar biroz konservativ ruhkasb etadi, bizningcha va bu amalda ilojsiz ham. Tarixdan bilamizki, bundayin harakatlar, ya’ni tilni begona so‘zlardan tozalash, uni milliylashtirishga urinishlar bizda azaldan turlicha ko‘rinish va tamoyillar asosida bo‘lsa-da, bo‘lib kelgan.

Xususan, professor Fattoh Abdullayev bu haqida o‘z mulohazalarini bildirib o‘tar ekan, “hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, qayta qurish jarayoni, tabiiy juda ko‘p va xilma-xil tushunchalarni vujudga keltirdi. Adabiy til leksikasi ana shu yangidan-yangi tushunchalarni, albatta, ifoda etib berishi kerak edi” deydi va bu o‘z tilimizdan tashqari, boshqa tillarning lug‘at boyligidan keng miqyosda foydalanishni taqozo qilishini ta’kidlaydi. Shuningdek, bu yo‘lda o‘z ichki imkoniyatlarimizdan foydalanish borasida ba’zan ortiqcha xatti-harakat natijasida sun’iylikka yo‘l qo‘yilganligini ham ta’kidlab o‘tadi: “Ko‘plab darsliklar muallifi va shoir Elbek bir vaqtlar 550 tacha so‘z-terminlarni to‘plab, avval “Turkiston” gazetasida (1923, 168-198), so‘ngroq “Inqilob” jurnalida e’lon qilgan edi. Lug‘atning kirish qismida muallif quyidagilarni yozgan edi: *“Bu lug‘atni tuzishdan maqsad barcha chet so‘zlarni tilimizdan haydab chiqarish va haqiqiy o‘zbek atamalarini (terminologiyasini) yaratishdir. Lug‘atni tuzishda biz jonli tilda qo‘llanilayotgan so‘zlardan foydalandik, hozirgi tilimizda bo‘lmagan so‘zlarni eski tilda yozilgan asarlardan oldik, qiyinchilik tug‘iladigan bo‘lsa, biz bunday so‘zlarni o‘zimiz sun’iy yasadik”*. “Chig‘atoy gurungi” deb atalgan guruh vakillarining terminologiya yaratish haqidagi tasavvurlari ana shunday edi, – deydi olim va o‘zbek tili leksikasini “tozalashga” urinish, hech

[5] Yo‘lchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. 441-b.

shubhasiz, tilning umumiy rivojlanish tendensiyasini, taraqqiyot qonunlarini yaxshi tushunmaslikdan kelib chiqqan xatti-harakat edi[6]” deya baholaydi.

Olimning ushbu fikrlarida jadidlarning oydinlanma harakatiga nisbatan mavjud hukmron davr keltirib chiqargan biroz noxolislik kayfiyati sezilib tursa-da, ammo ilmiy asos yo‘q edi, deb ayta olmaymiz. Negaki, bu maqsad milliyat nuqtayi nazaridan qanchalar xayrli va ezgu bo‘lib ko‘rinmasin, ilmiy-lisoniy nuqtayi nazardan olib qaraganda tilning rivojlanish, taraqqiyot qonunlarini mensimaslik vauni zo‘rma-zo‘raki, majburiy bir tarzda muayyan bir qolipga tushirish bo‘lib ko‘rinaveradi. Sun’iy ravishda “burab” chiqarilgan bunday “milliy hosilalar” jamiyat,til foydalanuvchilari tomonidan aksar hollarda mutlaqo qabul qilinmasligi esa, afsuski, hech kimga sir emas.

Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining 1989-yil 26-dekabrdagi farmoyishi bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida tuzilgan va 2003-yilgacha o‘z faoliyatini olib borgan Respublika atamashunoslik qo‘mitasi[7] va uning faoliyatini eslab o‘tish o‘rinli. Ushbu qo‘mita atamalarni milliylashtirishni maqsad qilgani holda bir nechta muqobilliklarni ishlab chiqib, jamoatchilikka taklif etgan edi. Jumladan: “*radio – ovoznigor; samolyot – tayyora, uchoq; jurnal – oynoma, oybitik; gazeta – ro‘znoma, jarida; kafedra – minbargoh; avtobus – ko‘pkursi; respublika –jumhuriyat, direktor – boshqon, mikrofon – ovoznigor; telefon – durovoz[8]”* kabiso‘zlar uydurildi, ammo yakunda ushbu so‘zlarning “Atamalarni milliylashtirish harakati”ga hech qanday aloqasi yo‘qligi ma’lum bo‘ldi. Chunki, birinchidan, bular majburlab hosil qilingan kompozitsion yasalmalar edi va eng muhimi, bularning o‘zi ham begona bir tilga mansub so‘zlar edi. Shunchaki, bir begona tildan kirgan so‘zni ikkinchi begona tilga almashtirishdek biroz mantiqsiz harakat esa tabiiyki, tilni milliylashtirish siyosatida o‘zini oqlamasdi, til iste’molchilari tomonidan qabul qilinmasdi va amalda shunday bo‘ldi ham.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi qaroriga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida Atamalar komissiyasi qayta tashkil etildi. Komissiya oldidagi asosiy vazifalar etib:

- ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste’molga kiritish;

---

[6] Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 24-b.
[7] Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.
[8] Nurmonov A., A. Sobirov A., N. Qosimova N. va b. qa.. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013, 202-b.

- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalaridagi tushuncha va atamalarning turlicha izohlash ehtimolini istisno etadigan tarzda qonunchilik hujjatlarida qabulqilingan ma’nosiga muvofiq yagona shaklda va to‘g‘ri qo‘llanishini ta’minlash;
- normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida adabiy til qoidalari va normalariga, shuningdek, yuridik, texnik va boshqa maxsus qoidalarga rioya etilishini ta’minlash;
- boshqa tillarning qoidalari tufayli kelib chiqishi mumkin bo‘lgan nomuvofiqliklarni normativ-huquqiy hujjatlar normalariga ziyon yetkazmagan holda tahrir qilish;
- o‘zbek tiliga kirib kelayotgan yangi atamalarni qonunchilik hujjatlariga joriy etish va amalda qo‘llashning huquqiy muammolarini o‘rganish, ushbu sohadagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash;[9] kabilar belgilandi.

Ushbu komissiya faoliyati to‘g‘risida xulosa berishga hali erta bo‘lsa-da, biroq komissiyaning oldida turgan vazifalar g‘oyat dolzarb va mas’uliyatli ekanligini aytib o‘tishimiz lozim. Ushbu komissiya faoliyatiga xolis bir kuzatuvchi mutaxassis sifatida quyidagicha taklif va tavsiyalar berishni istardik:

- avvalo, o‘zlashgan (chet tillaridan qabul qilingan) atamalarning yangi imlo va izohli lug‘atlarini ishlab chiqish lozim. Bu bilan ushbu atamalarning qo‘llanilishidagi turli ma’noviy va imloviy tafovut hamda xatoliklarga barham berilishini ta’minlash mumkin.
- Ikkinchidan, ushbu chet tilidan qabul qilingan atamalarga o‘zbekcha muqobillarni (alternativalarni) ishlab chiqish bo‘yicha muayyan ishchi guruhi tashkil etilishi va ularning faoliyati jamoatchilik orasida yoritib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda ushbu ishchi guruh tomonidan taklif etiladigan muqobillarning talaffuz va tushunarlilik jihatlariga ko‘ra afzallik darajasi baholab borilishi (so‘rovnom, anketa va sh.k. shakllarda) til foydalanuvchilarining bevosita ushbu jarayonga bo‘lgan munosabatlarini tahlil qilishga, tegishli xulosalar chiqarish va jarayonning istiqbollik darajasini aniqlab borishga yordam beradi.
- Shuningdek, til sathiga kirib kelayotgan yangi tushuncha va atama nomlarini tilning ichki imkoniyatlari asosida qayta nomlashda sobiq atamashunoslik qo‘mitasi yo‘l qo‘ygan xatolardan xulosa chiqargan holda, iste’molchi qabul qilishi qiyin bo‘lgan mujmal yasalmalardan xoli tarzda yangi so‘zlar hosil qilish va tilga oson

[9] Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. https://lex.uz/ru/docs/-4717157

singuvchi bunday muqobillar topishda jamoatchilik takliflarini so‘rash, bu boradagi tashabbus va harakatlarni rag‘batlantirib borish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagi mulohazalarimiz bilan tilni milliylashtirish mutlaqo imkonsiz va yoki istiqboli so‘roq ostida turgan bir harakat deyish fikridan yiroqmiz. Shunchaki, tilni milliylashtirish uni majburiy bir tarzda izolyatsiyalash, uning o‘z foydalanuvchilariga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim eta olish salohiyatidan mahrum qilish evaziga bo‘lmasligi kerak deb hisoblaymiz.

Ya’ni til genofondi qanchalik boy va turli-tuman bo‘lmasin, u muayyan vaqtlardan so‘ng til foydalanuvchilari tomonidan mazkur qo‘llanilayotgan tilelementi sifatida, o‘sha tilga davrlar mobaynida turli tamoyillar asosida kirib, o‘rnashib qolgan, o‘z qatlamga aylanishga ulgurgan leksika sifatida qo‘llanila boshlashini (60 foizdan oshiqroq so‘zlari, aslida, boshqa tillarga mansub bo‘lganingliz tili[10] hamda qariyb teng yarmi arab va fors-tojik tillariga mansub, yoki mazkur tildagi unsurlar, qo‘shimcha va shu kabi boshqa quruvchi konstruksiyalar asosida shakllangan o‘zbek tili bunga yorqin misoldir) hisobga olgan holda, bu tabiiy jarayonga sun’iy ravishda aralashishni, uni zo‘rma-zo‘raki, “burab chiqarilgan” va o‘sha mavjud tushunchani to‘laqonli ifodalab ham bera olmaydigan mujmal yasalmalar orqali milliylashtirishni u qadar to‘g‘ri harakat deb hisoblay olmaymiz.

Qaytaga tilimizning lug‘at boyligini o‘zlashgan so‘zlar hisobiga yana-da kengaytirishni, faqatgina bu yo‘lda “qanday bo‘lsa, shunday olib qo‘ya qoladigan tayyor iste’molchi” yo‘lidan borishni emas, balki aniq qoida va tamoyillar asosida, keyinchalik imloda turli ikkilanish va farqliliklar keltirib chiqarmaydigan holatda o‘zlashtirishni tilimizning rivoji hamda taraqqiyoti uchun to‘g‘ri va manfaatli jarayon deb hisoblaymiz. Shuni ta’kidlashimiz lozimki, bu mulohaza tilda mutlaq muqobili mavjud bo‘lgan, o‘sha tushuncha yoki holatni to‘laligicha ifodalab bera oladigan muqobillik (alternativlik) ka ega o‘zlashmalarga taalluqli emas.

Fikrlarimiz yakuni o‘laroq shuni aytmoqchimizki, tilni milliylashtirish bor so‘zlarga qanoat qilib, tildagi yot so‘zlarni majburan siqib chiqarish, ularning kirib kelishini sun’iy ravishda to‘xtatish va yoki nazorat qilish hisobiga emas, balki muqobil ifodalarning mantiqli va to‘g‘ri shakllantirilishi hisobiga ro‘y beradi. Chunki har qancha jon kuydirilmasin, minglab so‘zlar uydirilmasin, ular iste’mol qilinmas ekan, yot so‘zlardan tushunilish va talaffuzga ko‘ra afzal ko‘rilmas ekan, harakat nolga tengligicha qolaveradi. Iste’molchida u yoki bu so‘zni tanlash huquqi doimo bo‘lishi lozim. Shuningdek, rivojlangan til har qaysi holatda ham o‘zfoydalanuvchisiga xilma-xil variantlarni taqdim qilish salohiyatiga ega lug‘at

[10] Ruzmetova G. “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmali iboralar”. BMI. – Urganch: 2015, 20-b.

boyligiga ega bo‘lishi kerak. So‘zlarni qo‘llashda milliylik yoki zamonaga mos qulaylikni tanlash esa har bir iste’molchining o‘z shaxsiy tanlovi, yana ham to‘g‘rirog‘i, tafakkur saviyasi belgilab beradigan jihat bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Боровков А. К., Изменения в области узбекской лексики и новый алфавит на основе русской графики. Известця УзФАН, № 7 1940.
2. Abdullayev F. “Til qanday rivojlanadi?”. Risola. – Toshkent: “Fan”. 1972, 24-33-b.
3. Yo‘lchiyeva M., Abduxamidova S., Omonova M. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan bir necha neologizmlar tahlili. Maqola. CARJIS. Volume 2, Issue 1/ 2022. 441-b.
4. Abdurahmonov G‘. “Muammolar hali ko‘p”. Maqola. “Sovet O‘zbekistoni gazetasi”. – Toshkent: 1990-yil 4-dekabr, 277-son.
5. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. va boshqalar. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. Darslik. – Toshkent: “Ilm-ziyo”. 2013, 202-b.
6. G. Ruzmetova. “O‘zbek tilidagi inglizcha o‘zlashmali iboralar”. BMI. – Urganch: 2015, 20-b.
7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 29-yanvardagi 40-son qaroriga 2-ILOVA. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasi to‘g‘risida NIZOM. https://lex.uz/ru/docs/-4717157

CHET TILINI SAMARALI O‘QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGILAR VA METODLARDAN UNUMLI FOYDALANISH

Marg‘uba Abdujabborova,
Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 2-bosqich talabasi
E-mail:Margubaabdujabborova8@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu tezisda ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar va ularning qo‘llanilishining foydasi haqida so‘z boradi.*
Kalit so‘zlar: *aqliy hujum, tezkor savol, klister usuli, insert metodi, pantomiman usuli.*

Annotation: *This thesis discusses modern methods of teaching English and the benefits of their use.*
Keywords: *mental attack, quick question, cluster method, insert method, pantomima method.*

Hozirgi davr ta’lim taraqqiyoti yangi yo‘nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion - inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma’nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo‘lgan munosabati va boshqalarni o'rgangan[1]. Ilmiy yo‘nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o‘zaro farqalanadi. “Yangilik”- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma’nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta’lim, ma’lum bosqichlari bo‘yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi[2]. Jahonilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlanib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Ilm dunyomizga ilg’or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Ta’lim sohalariga ilg‘or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o‘rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlar, marralar eshigini ochdi, desak xato bo‘lmaydi. Ingliz tili o‘qitishda zamonaviy metodlarning qo‘llanilishi darsni qiziqarli va samarali ta’sir o‘tkazadi:

1.“B.B.B” (bilamiz, bilishni xohlaymiz, bildik) metodi. Bu usul dars jarayonida talabalarning matnni tushinishini, uni tahlil qilish qobiliyatining o‘sishi uchun kerakli usul hisoblanadi.

2. Aqliy hujum’’(Brainstorming)- g’oyalarni generatsiya qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati talabalarda jamoa hamkorligi asosida muammo yechish jarayonlarini vaqt bo‘yicha bir qancha bosqichlarga: g’oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iboratdir.

3. “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving). Bu usulni qo‘llashuchun hikoyaning boshlanish qismi o‘qib beriladi va uning yakunlovchi qismini

topish talabalar hukmiga havola qilinadi. Bu usul talabada fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga yordam beradi.

4. “Tezkor savol” (Quick answers) Bunda talabalarga o‘tilgan mavzu yuzasidan savol beriladi. Bu metod o‘tilgan dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

5. “Pantomima”(Pantomime)- turli xildagi so‘zlarni imo-ishoralar orqali tushuntirish. Bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo‘lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarib talabalar charchagan paytlarida foydalanilsa maqsadqa muvofiq bo‘ladi.

6. “Hikoya zanjiri’’ (A chain story)- biror bir hikoyani aytib beriladi. Bu metod talabalarning og’zaki nutqini rivojlantiradi.

7. “Rasmlar so‘zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatishda , talabalarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga aloqador rasmlardan foydalanish lozim.

8. ’’Kuiz kartochkalar’’ (Quiz cards)- bunda talabalarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalarlar bir vaqtda darsda ishtirok etishini ta’minlaydi, bu esa vaqtni ancha tejaydi.

9. ’’Klaster’’usuli. Klasterlarga ajratish talabalarga biror bir mavzu yuzasidan erkin va ochiq tarzda fikr yuritishga yordam beradigan pedagogik strategiyadir. Bu metod asosan yangi fikrlarni uyg’otish, mavjud bilimlarga yana yangi fikr qo’shish uchun samarali usuldir.

10. ’’Insert’’metodi. Bunda talabalarga biror matn yoki hikoya taqdim etiladi va talabalardan uni qayta gapirib berishni talab etiladi. Bu usul matn bilan ishlanganda faollikni, kuzatuvchanlikni va tushunishni qo‘llab-quvvatlash uchun kuchli metod hisoblanadi[3].

Demak, yuqorida ko‘rsatilgani kabi har bir metodning chet tillarni o‘rgatishda samarali usullari bor ekan. O‘qitish jarayonida har bir darsda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan unumli foydalanish talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga jiddiy yondashishiga, bilim olishga qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi. O‘qituvchi hamda talaba o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha oladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda chet tillarini o‘rgatishga ehtiyoj yuqori bo‘lgan bir davrda, ta’lim jarayonida zamonaviy metodlardan, innovatsion ta’lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni tez va samarali bo‘lishiga olib keladi. Xususan, texnologik vositalar chet tili o‘rganishning har bir ko‘nikmalari(o‘qish, yozish , tinglab tushunish va gapirish)ga

qo‘l keladi. samarali foydalanangan holda yoshlarga chet tillarini mukammal o‘rgatish orqali yurtimiz ravnaqiga o‘z hissamizni qo‘shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bekmurodova.U.B. “Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida referat., Toshkent 2012-yi
2. Xatamova N.Q., Mirzayeva M.N. “Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar”(uslubiy qo‘llanma) , Navoiy. 2006,40 bet
3. Yoqubov I. “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”, (o‘quv qo’llanma). Toshkent,Sharq nashriyoti. 2003-yil

PROBLEMS ENCOUNTERED IN THE FIELD OF LITERATURE TEACHING IN TURKEY AND THEIR SOLUTIONS - THE EXAMPLE OF CHINESE LITERATURE TEACHING

Prof. Dr. Eyüp, SARITAŞ

Abstract: *Research on the field of Sinology in Turkey was initiated primarily by translating and examining classical sources in the field of Chinese Literature from disciplines such as philosophy, history and literature, and with the establishment of diplomatic relations between thetwo countries in 1971, teaching the Contemporary Chinese language was included in the curriculum. However, at the time we are talking about, research in the field of Chinese Literature teaching did not develop at an ideal pace as in the field of Contemporary Chinese teaching, and with the launch of China's Opening Policy, Modern Chinese Literature Teaching and Modern Chinese Literature Teaching of this period began to be studied. Research on Chinese Literature hasbegun to gain visibly importance. In this short research, we will try to make an evaluation and analysis on the methods followed and the course of development in the field of educational activities related to Classical and Modern Chinese Literature since the beginning of Sinology research in Turkey in 1935, and the problems arising in this field and the solutions to these problems. We will try.*

Key words: *Sinology in Turkey, Classical Chinese Literature, Modern Chinese Literature, Literature Teaching, Chinese Studies.*

ENTRANCE

After the Republic of Turkey was established in 1923, the policies to be followed in the cultural field soon began to be determined, and Ataturk's initiative was initiated by Ankara University, which was the first established during the republican period, to research Turkish history and culture, especially in the periods before Islam, from Chinese sources, with Turkish Sinologists using scientific methods. With this, the Sinology department was established. As in Turkey, research and teaching activities in the field of Sinology in France, Germany, the Netherlands, Sweden, Czechoslovakia and the Soviet Union consisted entirely of the translation and evaluation of Chinese classics written in the fields of philosophy, history and literature. However, although efforts have been made to conduct Classical Sinology research within a certain system and method in the European countries mentioned above since the first quarter of the 19th century, research in the field of Sinology in Turkey has not been able to develop at the desired pace. Among the most important reasons for this negative situation are the fact that there is almost no trained manpower in the field of Sinology, the geographical distance between Turkey and China, the fact that a diplomatic relationship has not yet been established between thetwo countries, and more importantly, the young Republic of Turkey's cultural deficiency in Sinology and China. Fields such as Contemporary China Studies are not

among their priority targets. Undoubtedly, this period of indifference did not last long and the German Sinologist Prof. , who served Turkish Sinology for 11 years. Dr. Thanks to the great contributions of Wolfram Eberhard (1909-1989), Sinological Research began to attract significant attention since the early 70s of the 20th century.

l. PURPOSE OF ESTABLISHMENT OF SINOLOGY RESEARCH IN TURKEY

Between 1937 and 1948, with the personal efforts of Mustafa Kemal Atatürk, the founder of the Republic of Turkey, German Sinologist Prof. was invited to work in the Sinology department established within the Faculty of Languages, History and Geography of Ankara University. Dr. While working in the department we mentioned, Wolfram Eberhard tried to make efforts to the extent of his means for the development of research in the field of Classical Chinese Literature. During his 11 years in the Department of Sinology, Eberhard wrote articles and books on important topics such as the tradition of essay writing in Classical Chinese Literature, classical Chinese storytelling and «The Place of the Chinese Novel in Chinese Life» . [1]Prof. had to carry out long-term studies in the field of Central Asian Turkish History, which was among the founding purposes of the Sinology department. Since Eberhard did not have the luxury of devoting all his academic time to Classical ChineseLiterature during the years in question, Ethnology of China during the Han (221 BC- AD 206) and Tang (618-807) periods. Since he also conducted research in fields suchas Northern Neighbors of China and Classical Chinese Philosophy, he did not have the opportunity to write many long-term works that could form a school of Classical and Modern Chinese literature, as in countries such as France and Germany.

As can be understood from what we have stated above, the purpose of establishing the Sinology department in Turkey is to firstly translate Turkish history and culture into Turkish and through scientific means, based on primary sources such as Official Chinese Annals, Chronological Works, Encyclopedic Works, Travelogues and Special History Books. Evaluating is neither analyzing. In his book Introduction to Sinology, published in 1946, Eberhard said , «Sinology should be a scientific science in Turkey», [2]which is of great importance in terms of Turkish History and Culture. When considered in this context, Chinese sources written in various periods are of great importance in terms of illuminating not only the Turks of Turkey, but also the history and culture of the distinguished Uzbeks. As a matter of fact, it is possible to find important records about the geography and culture of Uzbekistan in

[1]Wolfram Eberhard, “The Place of the Chinese Novel in Chinese Life”, **Ankara University Journal of the Faculty of Languages, History and Geography** , Volume 3, Issue 02, 1945.
[2]Wolfram Eberhard, **Introduction to Sinology** , Pinhan Printing House, Ankara 1946.

Chinese sources from the Han and especially the Tang Dynasty. On this occasion, in our opinion, it would be very appropriate to reinterpret and evaluate the history and culture of both brotherly peoples by collaborating with Uzbek and Turkish historians and systematically scanning Chinese sources.

ll. CLASSICAL CHINESE LITERATURE TEACHING AND RESEARCH IN TURKEY

While researching in the field of Classical Chinese Literature has been carried out since 1935, an effort has been made to give importance, as much as possible, to the translation and interpretation of not only classic works in the field of literature, but also works written in the field of philosophy into Turkish. First of all, itshould be noted that, during both the Han (221 BC-AD 206) and Tang (618-907) dynasties, works on philosophy were also considered literary works in the Ancient Chinese Literature world. was being done. Because the classical Chinese thinkerswho intended to write works in the field of philosophy during the Hun and Gokturk periods had to have the necessary knowledge and skills in the field of literature knowledge and writing literary works, as well as the knowledge they needed in the field of philosophy.

1901-1993), another German Turcologist and Sinologist, and Wolfram Eberhard (1909-1989), who worked in the Sinology department between 1935-1937. Because we do not have enough information to give an idea to those who areinterested, unfortunately, these two valuable German scientists have not left us any information about which education system they followed in the field of teaching Chinese literature. Prof. When Eberhard entered the official archives of the Faculty ofLanguages, History and Geography to do research on the records kept about him during his years in Turkey , Prof. Eberhard's realization that his personal file was lost is a very unfortunate and sad situation for the Turkish Sinology and Chinese Literature community.

lll. CONTEMPORARY CHINESE LITERATURE TEACHING AND RESEARCH IN TURKEY

Since 1935, when Sinology Research began in Turkey, research on Chinese Literature has focused on issues related to Classical Chinese Literature, some of these researches have focused on Classical Chinese poetry, and the other part has focused on literary genres of Chinese literature such as essays, stories and novels. As a literary genre, it is devoted to philosophical works. Prof. While Eberhard is writing works on Classical Chinese literature, instead of dealing with any literary work in a long-term study or translating any work into Turkish, he aims to introduce Classical

literature to the world of Sinology in his articles and to provide concise information to researchers and students interested in this field. and aims to provide solid information. For example, his article titled «The Place of the Novel in AncientChinese Society» is very valuable in this regard. Prof. Eberhard's first doctoral student, Prof. Muhaddere Nabi Özerdim, in his associate professor thesis MS lV.-V. By dealing with the Poems of the Turks who Established a Dynasty in the North of China in the 19th century [3], he has produced a work that cannot be easily completedin his field. Unfortunately, this work, which was not published as a book, sheds light on the aspect of Sinology science that serves the Ancient Turkish culture; It is ofgreat value for Turkish Sinology. As we have stated before, from the establishment ofthe Sinology department in Turkey until 1971, when diplomatic relations were established between Turkey and China, emphasis was placed on research on Classical Chinese historiography and Classical Chinese philosophy along with Classical literature. In order to ensure that they become familiar with Contemporary Chinese, courses on Contemporary Chinese have begun to be included in the curriculum, but almost no study of works on contemporary Chinese literature hasbeen included. With the beginning of the Opening Policy in China and the establishment of Confucius Institutes in Turkey, the number of students studying at undergraduate and graduate levels increased, and the establishment of Chinese Language and Literature departments at Erciyes, Istanbul University and Hacı Bayram Veli University, as well as the Sinology department established at Ankara University. Together, the syllabus of these departments includes translation into Turkish of the works of China's leading contemporary writers, such as Mo Yan, Hua Yu, and Lao She, who are Nobel Prize winners in Contemporary Chinese Literature and Contemporary Chinese Poetry, and who wrote works in the field of Contemporary Chinese Literature. By attaching importance to literary activities, many novels of these writers have been translated into Turkish.

Although, as we stated above, many novels of Contemporary Chinese writers have been translated into Turkish in Turkey, it is difficult to say that long-term research works on Contemporary Chinese novels are given importance. In this context, the author of these lines [4]tried to make his modest contributions to Turkish Sinology in the field of Contemporary Chinese literature by writing his work titled «The Past and Present of Chinese Village Literature» in 2018. Apart from thiswork

[3]Muhaddere Nabi Özerdim, ”MS lV-V. «Poems of the Turks Who Established a Dynasty in the North of China in the 19th Centuries»
Ankara University Faculty of Languages, History and Geography Journal , Volume 13, Issue 3, 1955.
[4]Eyüp Sarıtaş, **Past and Present of Chinese Village Literature** , Demavend Publishing House, Istanbul, 2018.

we mentioned, of course, there are works written as doctoral theses on Classical and Contemporary Chinese Literature in Turkey, but unfortunately, these theses did not have the opportunity to reach a wide audience because they were not published as books. Therefore, Turkish Sinology needs in-depth and detailed research on Contemporary Chinese Literature.

LV. PROBLEMS ENCOUNTERED IN TEACHING CLASSICAL AND MODERN CHINESE LITERATURE IN TURKEY

In the Chinese Literature education carried out until the 80s of the lastcentury, with the beginning of Sinology Research in Turkey, emphasis was given to subjects related to Classical Chinese Literature, but these studies were far from being detailed and systematic studies, and were more of a promotional nature. It appearedin article format. The main problems encountered in both Classical Chinese Literature Education and Modern Chinese Literature education in Turkey are asfollows:

a) From the 30s to the 80s of the last century, academics who taught Classical Chinese Literature within the scope of Sinology in our country did not encounter many problems in understanding Classical Chinese literature texts related to thisfield, since they received Classical Chinese education. Because during this period, education in the field of Sinology was aimed at helping students read and understand classical texts. Therefore, academicians and students working in this field were very weak in terms of speaking and practicing Chinese.

b) Especially during the period when the emphasis was on Classical Chinese Literature education, research on Chinese Literature was more of a promotionalnature, and instead of dealing with long-term works about the literary classics that constituted Classical Chinese Literature, emphasis was placed on research in the formof articles introducing Classical Chinese Literature.

c) Until the 60s of the last century, no interest was shown in translating Chinese classics into Turkish, and Turkey's first Sinologist, Prof. Dr. Muhaddere Nabi Özerdim's work titled Lun Yü, about Confucius, was translated into Turkish from its Classical Chinese original in 1963. As the opportunities to go to China increased and young academics gave more importance to Modern Chinese Literature research, they translated important Chinese classics such as Zhuang Zi and Dao De Jing to the Turks. When we look at the issue from this perspective, we see that research and translation activities, especially on Chinese classics, are at the ideal stage.

d) Since the 40s of the last century, the Ministry of National Education initiated a major project to translate world classics into our language, and the Confucianist

classic called «Lun Yü» (Conversations), which we mentioned above, was translated into Turkish. During this period, although great importance was given to the translation of English, German, Russian and Greek classics, especially French literaryworks, into Turkish within the scope of this project, only Lun Yü regarding Classical Chinese Literature was translated, and therefore there were large gaps in this field. Since the early years of the 21st century, not only the Ministry of National Education,but also the owners of publishing houses in Ankara and Istanbul have encouraged the translation of works on modern Chinese literature, and thus, many works on Modern Chinese literature have been systematically translated into Turkish. started to be given as much importance as possible.

e) Although he has translated Chinese classics, especially modern Chinese literature such as Mo Yan, Lao She and Hua Yu, the lack of in-depth research on the works of these authors has led to major deficiencies in this field in Turkey. For example, although Mo Yan's major works have been translated into Turkish, no detailed research work has yet been written on his literary style and the stylistic features of his works and how his novels are interpreted in China and Westerncountries.

V. SOLUTION SUGGESTIONS

Undoubtedly, one of the most important elements in philology education is literature education. In this respect, systematics and methodology should never be neglected in Chinese Literature education. Although the history of Sinology Research in Turkey started 88 years ago, many problems are encountered in our country in terms of content, structure and chronology.

A. One of the most important of these problems is that the classic works of educational activities in the field of Chinese Literature should be translated into Turkish, taking into account the years in which they were written, and immediately afterwards, research should be started with the literary classics we mentioned here.

B. In Classical Sinology Research, since the classical works were written in Classical Chinese, it is necessary for those who want to translate these classical works and conduct research on them to receive training in Classical Chinese.

C. As can be expected, today's young researchers who want to do research on Sinology and Contemporary Chinese Literature do not show much interest in this field due to the serious difficulties encountered in teaching Classical Chinese, instead they show more interest in contemporary and modern Chinese literature. Although many contemporary Chinese literature novels have been translated in Turkey to date, the translation activities we are talking about here are not within a certain system, but

are shaped according to the preferences of young Sinologists or publishing house owners who will publish the novels to be translated. Since such a system creates significant gaps, leading works in the field of Contemporary Chinese Literature and literature teaching should be translated within a certain system.

D. While giving Chinese Literature education courses to students, instead of introducing the works of classical and modern Chinese literature in outline, students should be given more structured and concise information in the context of the development process of Chinese Literature and literary theory .

E. Although many novels, especially about modern Chinese literature, havebeen translated into Turkish and continue to be translated in our country, almost no academic research has been conducted on the literary views of the authors who wrote these works and the literary styles they followed. For example, the novels of Mo Yan and Yu Hua have only been translated into Turkish, and no study has been conducted on the results of the research that brings up and examines the views of these two well-known writers on literature and the opinions of other Chinese writers aboutthem.

F. In order to produce more useful research products in the field of Chinese Literature, Turkish Sinologists should not be content with personally translating Chinese novels into Turkish, but should come together to discuss the development process of Classical or Contemporary Chinese literature, a critical approach to Classical Chinese literary products, or modern Chinese storytelling or They should carry out long-term scientific research projects that can fill important gaps in their field, such as the development process of the novel.

CONCLUSION

Since the initiation of China's Opening Policy, interest in Modern Chinese studies has increased noticeably in Turkey, and as a result, over 1000 students and young researchers have begun to study at various universities in China. A significant portion of these students turned their attention to modern Chinese literature, and when they returned to Turkey, they participated in academic life by opening courses in China in the Sinology and Chinese Language and Literature departments and the Schools of Foreign Languages of various universities. Although the students and young researchers we mentioned here have reached a sufficient level in terms of Chinese language proficiency, they have not reached a quality that can contribute to Chinese literature education in our country because the theses they wrote have mainlychosen topics related to Turkey. Academicians who have been working in the field ofChinese Language and Literature for many years have not produced research results

that are not connected to each other and that complement each other. Today, in the field of Chinese Literature education in Turkey, they produce the desired research products by following systematic, structural and scientific methods that contribute to the field. They have not been able to reveal it yet. In order to solve the problems encountered in the field of Chinese Literature in Turkey, first of all, the development processes of Chinese literature, Classical and Contemporary Chinese Literature, for undergraduate and graduate students studying in this field and for researchers working on other disciplines interested in Chinese Literature. There is an urgent need for long-term research on Chinese Literature to be carried out monographically and collaboratively in areas such as poetry, novels and modern Chinese drama, which also appeals to the field of literature. Although valuable doctoral theses have been written about Chinese Literature in Turkey, unfortunately, after these doctoral theses are accepted, they cannot reach the large masses of researchers who are interested in Chinese Literature because they are not published as books. In order to prevent this, arequirement for accepted doctoral theses to be published as books should be imposed,as is the case in Germany and some other Western countries. Therefore, when the doctoral theses written on Chinese Literature are published as books, it will be clear which China expert has done research on which Chinese literary work or on which topics, thus it will be possible to present research works that complement each other.

Chinese Literature in Turkey, as mentioned above, it should be sufficient to only translate and study the works of classical or modern Chinese literature, what methods should be followed in the education of Chinese Literature, and what methods should be followed in the field of poetry, novels, memoirs and Writing explanatory research works of important philosophical works, which are also considered literary classics, is also very important for Chinese literature education.

BIBLIOGRAPHY

1. EBERHARD Wolfram, “The Place of the Chinese Novel in Chinese Life”, **Ankara University Journal of the Faculty of Languages and History- Geography** , Volume 3, Issue 02, 1945.
2. EBERHARD Wolfram, **Introduction to Sinology** , Pinhan Printing House, Ankara 1946.
3. OZERDIM Muhaddere Nabi, ”MS lV-V. «Poems of the Turks Who Established a Dynasty in the North of China in the 19th Centuries», **Ankara University Journal of the Faculty of Languages, History and Geography** , Volume 13, Issue 3, 1955.
4. SARITAŞ Eyüp, **Past and Present of Chinese Village Literature** , Demavend Publishing House, Istanbul, 2018.

BUXORO ADABIY MUHITI VAKILLARINING TARJIMALARI TARIXIDAN LAVHALAR

Amonkeldi Axmatov,
T.f.f.d., dotsent Buxoro davlat universiteti
E-mail:amon.axmatov@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbek adabiyotining yetakchi tarmog‘i bo‘lmish Buxoro adabiy muhitining XX asrdagi faoliyati va adabiy aloqalari o‘rganiladi. Maqolada asosan Buxoro adabiy muhitining Ozarbayjon adabiy muhiti bilan aloqalari o‘rganiladi. Shuningdek, ozar adiblarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan tarjimonlar va she’rlaridan misollar keltiriladi.*

Kalit so‘zlar. *O‘zbek adabiyoti, ozar adabiyoti, Buxoro adabiy muhiti, adabiy tarjima, nazm, nasr, Anor, Ismoil Shixli, Kamola Agayeva, Akram Ayliyeli, Ahad Muxtor, Amonkeldi Axmatov, Toshpo‘lat Ahmad, G‘ayrat Murodov, Sulaymon Shodiyev.*

Аннотация*. В данной статье исследуются деятельность и литературные связи литературной среды Бухары, которая являлась ведушей в узбекской литератури в XX веке. В статье главным образом исследуются отношения между литературной средой Бухары и литературной средой Азербайджана. Также приведены примеры стихотворных произведений азербайджанских литераторов в узбекском переводе.*

Ключевые слова*. Узбекская литература, азербайджанская литература,литературная среда Бухары, художественний перевод, поэзия, проза, Анор, Исмаил Шихли, Камола Агаева, Акрам Айлиели, Ахад Мухтар, Амонкелди Ахматов, Ташполат Ахмад, Гайрат Муродов, Сулаймон Шодиев.*

Annotation. *In this article, the activities and literary relations of Bukhara literary environment, which is the leading branch of Uzbek literature, in the 20th century are studied. The article mainly studies the relations between the literary environment of Bukhara and the literary environment of Azerbaijan. Also, examples of poems and translators who translated the works of Uzbek writers into Uzbek are given.*

Key words. *Uzbek literature, Uzbek literature, literary environment of Bukhara, literary translation, poetry, prose, Anor, Ismail Shikhli, Kamola Agayeva, Akram Ayliyeli, Ahad Mukhtar, Amonkeldi Akhmatov, Tashpolat Ahmad, Ghairat Murodov, Sulaymon Shodiyev.*

Kirish (Introduction) O‘zbek adabiy aloqalri tarixida Buxoro adabiy muhitining ham o‘ziga xos o‘rni bor. Ko‘p asrli dabiy harakatchilik tarixida Buxoroda alohida xusisyatlari shakllangan adabiy aloqalar shakllangan. Shuningdek adabiy aloqalar jarayonida tarjima masalasiga ham muhim element sifatida qaralgan. O‘zbek va ozar xalqlarining iste’dodli vakillari o‘rtasida bugungi kunda ham ijodiy aloqalar davom etmoqda.

Asosiy qism (Main part). O‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakili Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyi ustoz sifatida ko‘rgan bo‘lsa, ozar shoiri Fuzuliy Alisher Navoiyni o‘ziga ustoz deb atagan. G‘afur G‘ulom aytganidek bu ikki qardosh xalq “biri biriga ustoz, biri-biriga shogird”. Ozarbayjon adiblari o‘zbek xalqining qahramonona hayotini va boy ma’naviy dunyosini badiiy ifodalash borasida ham

samarali mehnat qilganalr. Marvarid Dilbozning “O‘zbek qiziga”, Sulaymon Rustamning “O‘zbek qardoshim” asarlarida Nabi haziriyning ko‘plab she’rlarida o‘zbek xalqining hayoti va tarixiy merosi badiiy talqinda tasvirlangan.

Ozarbayjonning tanqili shoiri Sulaymon Rustam, Nabi Haziriy, Hadil Rizolar O‘zbekiston mavzusida she’rlar bitganlar. Jumladan Sulaymon Rustamning “O‘zbek qardosh” she’rida xalqlar do‘stligi va birdamligi g‘oyasi ifodalangan. O‘n ikki misradan iborat usgbu she’r o‘zbek yuqori salohiyat bilan yozilgan. Yana bir iste’dodli shoir Nabi Haziriyning “Xush kelding, qardoshim” she’ri ham do‘stlik mavzusiga bag‘ishlangan. Ushbu she’r o‘zbek adabiyoti va san’ati vakillarini ozar tuprog‘ida qarshilash vaqtida yozilgan.

Xush kelding, qardoshim, ona tuproqqa
Yam-yashil tovlanar tog‘lar yag‘rini,
Mehribon do‘stlarim, sizni quchmoqqa
Ochdi Ozarbayjon issiq bag‘rini.

Xalil Rizoning “Boku –Toshkent” she’ri o‘zining jo‘shqin tuyg‘ularga boyligi, yuksak poetikasi bilan kishi diqatini tortadi.

Respublikalarda har yili qaysidir bir davlat bilan alaoqlarga bag‘ishlangan tadbirlar o‘takazilib kelingan. Yoinki mashhur adiblarning turli respublikalarda yubileylari o‘tkazilishi odat tusiga aylantirilgan. Shunday an’analardan biri 1980- yilda O‘zbekiston SSRda Ozarbayjon kunlarining o‘tkazilishi bo‘lgan.

Respublikada tashkil qilingan Ozarbayjon SSR adabiyoti va san’ati kunlari Buxoro viloyatida ham qizg‘in nishonlangan. 1980-yil 6-iyun Anor, Ismoil Shixli, Kamola Agayeva, Akram Ayliyeli, Ahad Muxtor singari taniqli ozar adiblari viloyatga tashrif buyurgan [2,110]. Ko‘plab uchrashuvlarda ishtirok qilgan adiblar yangi asarlari bilan o‘zbek kitobxonlarini tanishtirganlar. Delegatsiya tarkibida kelgan Ozarbayjon san’atkorlari Buxoro aholisi e’tiboriga o‘z san’atlarini namoyish qilganlar.

Toshpo‘lat Ahmad adabiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz, jamiyatning har bir nuqtasida, adabiyotning har janrida shoir ijodining izlarini ko‘ramiz bor. Buxoro adabiy muhiti tarixida tarjima borasida ham samarali mehnat qilib ozar, rus, belorus, bolgar singari turli millatga mansub adiblar ijodidan namunalarni o‘zbek tiliga o‘girgan. Jumladan: Adabiy taxallusi Anor nomli Ozarbayjon yozuvchisining “Bir stakan suv” hikoyasini [3,87] o‘zbek tiliga o‘girgan. Shuningdek, Ozarbayjonlik Ahad Muxtor, Aliog‘a Kirchayli[5,179-192] she’rlarini o‘zbek tiliga o‘girgan.

Bir qator Ozarbayjon adiblarining ijodiy ishlari o‘zbek tiliga tarjima qilina boshlanib, Baxshulla Rajab Nabi Hazriyning “To‘rtliklarini” tarjima qilgan bir

vaqtda, Samandar Vohidov Rasul Rizoning “Bolalar” she’rini o‘zbek tiliga o‘giradi. Tojik xalq shoiri Loyiq She’rali she’rlari va yoqut xalq shoiri David Qug‘ultinovning “G‘aroyib qush” kitoblarini o‘zbekchaga o‘girib, nashr ettirganimdan so‘ng kattaroq bir ishga qo‘l urish havasi paydo bo‘ldi. Keyingi o‘n asr davomida Buxoromizda yashab o‘tgan forsiyzabon shoirlarni bugungi avlodlarga tanishtirish, ularning ruhlarini shod etishni ixtiyor qildim” deya eslaydi adib [4,450]. Shu tariqa, Abu Abdulloh Ro‘dakiydan to Sadriddin Ayniygacha kechgan o‘n asrlik Buxoro adabiy harakatchiligining 30 namoyandasi asarlaridan sara namunalarni o‘zbekchaga o‘girdi va “Buxoriylar bo‘stoni” nomida tartib berdi. To‘plam 1996-yilda “Buxoro” nashriyotida, 1998-yilda birmuncha to‘ldirilgan holda Toshkentda – “Yozuvchi” nashriyotida chop etildi. Mustaqillik yillarida mumtoz adabiyot bilan shug‘ullanganib, Navoiyning 50 ta g‘azaliga (jami 62 ta) muxammas bog‘ladi.

Nabi Haziriyning Baxshulla Rajab tarjimasi:

Zamin sahfasida yotgay vodiylar,
Taqdirin insonla zamon yozajak
Va turfa taqdirning rangin lahzasin
Misralab, misralab inson yozajak.

Natijalar va muhokama (Results and Discussions). Tarjimalar natijasida Samad Vurg‘un, Imron Qosimov, Rasul Rizo, Sulaymon Rustam, Jobir Navro‘z, Anor, Nabi Haziriy, Mirza Ibrohimov, Gulhusayn Husayn o‘gli, Akram Aylisli, Aliog‘a Kurchayli singari ozar adiblarining asarlarini o‘zbek kitobxonlari o‘z ona tillarida sevib o‘qimoqdalar. Shuningdek, respublikaning ko‘zga ko‘ringan shoir va yozuvchilarining asarlari ozar tiliga tarjima qilinib kitobxonlarga taqdim qilingan.

Buxoroga 1980-yilda kelgan ozarabayjon delegatsiyasi tarkibida kinochilar, tasviriy san’at ustalarining, kompazitorlarning, adiblarning yetuk namoyandalari bo‘lishgan. Adiblardan Anor, Ismoil Shixli, Kamola Agayeva singarilar. Kinoaktrisa D.Ahmedova, rassom A.Verdiyev, kompozitor F. Karayev, kinorejissor A.Aliyev va boshqalar viloyatda uchrashuvlar o‘tkazadilar. “Ozarbayjon davlat “GAYA” Estrada ansambli ikki uch kun davomida Buxoro mehnatkashlari huzurida o‘z san’atini namoyish etadi.

Xulosalar (Conclusions). Kuch –do‘stlikda degan shiorga amal qilgan xalqimiz. Ikkala xalq adabiyoti va san’ati namoyandalarining uchrashuvirespublikamiz madaniy juda katta voqea bo‘lgan. Ozarbayjon adabiyoti va san’ati kunlari xalqlar o‘rtasida asriy do‘stlik rishtalarining naqadar mahkam bog‘lananligi yana bir karra namoyish etilgan. Shu o‘rinda aytish kerakki, sovet davrida tarjima

borasida ham turli ta’qiqlar bo‘lib tarjimonlar aksariyat hollarda ittifoqdosh respublikalarning ijodkorlari asarlarini tarjima qilar edilar.

Adabiyotlar (References):

1. Axmatov A. Buxoro adabiy muhiti tarixi (XX asr) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro, 2022. –B.32.
2. Buxoro haqiqati, 1980-yil 6-iyun, 110 son.
3. Buxoro haqiqati, 1980-yil 7-iyun, 111 son; 1985-yil 5-may, 87 son.
4. Safarov O. Buxoro adabiy harakatchiligi tarixidan lavhalar. –Buxoro: Durdona, 2015. –B. 450.
5. Toshpo‘lat Ahmad. Buxoronoma. –Toshkent: Fan, 1997. –B.179-192.

BURHONUDDIN RABG‘UZIYNING “QISASI RABG‘UZIY” ASARIDAGI YA’QUB PAYG‘AMBAR QISSASI VA QISSADAGI PERSONAJLAR TALQINI

Taboshar Yuldashev,
f.f.n, dots. TDSHU

Soibjon Mirzayev,
TDSHU

Annotatsiya: *“Qisasi rabg‘uziy” asaridagi Ya’qub payg‘ambar qissasi, o‘g‘illari va ularning ajoyibotlari tavsifi.*

Tayanch so‘zlar: *Ya’qub payg‘ambar, Rubil, Loviy, Sham’un, Yahudo, Joda, Don, Yag‘sar, Yastoxir, Zabotuq, Qozur, Yusuf, ibn Yamin, Imloq, Ka’non, Misr, isroiliot, ahd sandig‘i.*

Abstract: *Description of the story of the Prophet Jacob, his sons and their miracles in the work “story of Rabguzi”.*

Keywords: *Prophet Jacob, Rubil, Levi, Sham'un, Judah, Joda, Don, Yagsar, Yastokhir, Zabotuk, Kazur, Yusuf, Ibn Yamin, Imlaq, Kanan, Egypt.*

Аннотация: *Описание рассказа о пророке Иакове, его сыновьях и их чудесах в произведении «Qisasi rabg‘uziy».*

Ключевые слова: *Пророк Иаков, Рубиль, Леви, Шамун, Иуда, Йода, Дон, Ягсар, Ястохир, Заботук, Казур, Юсуф, Ибн Ямин, Имлак, Канан, Египет.*

Jamiyatning madaniy boyligi, tafakkur chuqurligi, dunyoqarashining kengligi albatta o‘sha xalqning tarixi bilan chambarchas bog‘liq. Insoniyat tarixida juda ko‘plab buyuk sivilizatsiyalar shakllangan. Ular orasida Shumer, Akkad sivilizatsiyalari, keyinchalik Mesopotamiya, Bobil, qadimgi Misr va Yunon, Hind hamda Xitoy taraqqiyot o‘choqlari fanda ma’lum va mashhurdir.

Vatanimiz tarixi ham juda boy. Qadimiylikda moziyimiz yuqoridagi xalqlar tarixi bilan bellasha oladi. Arablar orqali islom dinining yurtimizga kirib kelishi tariximizda tub burilish bo‘lib, uning zarvaraqlarida yangi sahifa ochdi. O‘sha davrlarda halifalik dunyoning to‘rt burchagiga yetib borgan qudratli davlat edi. Halifalikda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy ilmlar ham chuqur o‘rganilgan va bugungi kundagi zamonaviy ilmlarning tamal toshi qo‘yilgan. Bu borada yurtimizdan chiqqan alloma ajdodlarimizning hissalari beqiyosdir. Buning natijasida islom olami ilm bobida boshqa xalqlardan ancha o‘zib ketgandi. Bizning yurtimizesa ushbu davlatning ilm markazi bo‘lib xizmat qildi. Davr taqazosi bilan allomalarimiz arab va fors tillarida salmoqli asarlar bitishgan. Ularning asarlari g‘arb va dunyo ilm maskanlarida darslik sifatida qo‘llangan, hozirgi kungacha qo‘llanilib kelinmoqda. Keyinchalik arab imlosiga asoslangan turkiy alifboda eski o‘zbek tilida

tosh bosadigan ilmiy va badiiy asarlar bitildi. Ular qatorida Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qisasi rabg‘uziy” asari alohida mavqega ega. Asar turkiy nasrda bitilgan. Odamning yaralishi va payg‘ambarlar tarixi diniy-falsafiy ruhda bayon etilgan. Bitik turkiy adabiyotning ilk didaktik namunasi hisoblanadi. Manba yaratilishida muallif Qur’on va hadis ilmlaridan, zamonasining diniy-falsafiy mavzudagi adabiyotlaridan foydalangan. Ushbu durdona asardagi Ya’qubpayg‘ambar qissasi o‘zining ajibliligi va personajlarning ko‘pligi bilan boshqa qissalardan ajralib turadi.

Tarixdan bizga ma’lumki, Ya’qub payg‘ambar nabiylar oilasida dunyoga kelgan. Bobosi Ibrohim alayhissalomga, otasi Is’hoq alayhissalomga, hamda o‘g‘li Yusuf alayhisalomga ham payg‘ambarlik berilgan. Yana, Ya’qubni ikkinchi ismi Isroil bo‘lib, uning naslidan tarqalgan xalqni Bani Isroil, ya’ni Isroil farzandlari deb nomlashadi. *Isroil – Ya’qub payg‘ambarning nomlaridan biri, Bani Isroil – Isroil bolalari deyilganda yahudiylar tushuniladi*[1]. Shunga ko‘ra yer yuzidagi barcha yahudiylar Ya’qub payg‘ambarning o‘n ikki farzandidan tarqalgan. Ya’qubni Isroil deb nomlanishiga bir qancha sabablar bor. Rabg‘uziy o‘z kitobida ushbu sabablarni quyidagicha keltiradi: *Savol: Ya’qub yalavoch*[2] *nadin Isroil atandi? Javob ul turur: Isr ma’nisi bulun bo‘lur, shaytonni bir vaqtda bulnamish*[3] *erdi. Aning uchun Isroil atandi. Hikoyatda kelmish: Ya’qub Bayt ul-Muqaddasda xizmat qilur erdi. Shayton alayhil-la’na tekma kecha kelib chirog‘larni o‘chirur erdi. Aymishlar, olti yuz chirog‘ yoqilur erdi. Ya’qub bir tunla saqladi. Shayton kelib chirog’in o‘chururda Ya’qub sekridi shaytonni tutub, bo‘ynini zanjirladi, bir tirgukka berk tikdi. Aning uchun Isroil atandi. Yana bir javob ul turur. Isr bulun bo‘lur, el tengrining oti turur. Isroil tengrining quli temaktur*[4].

Ya’ni Ya’qub payg‘ambarni Isroil deb nom olishiga ikki sabab keltirilgan. Birinchisi, hikoyada kelishicha, Ya’qub alayhissalom Bayt-ul Muqaddasda xizmatchi bo‘lgan. U Bayt-ul Muqaddasning olti yuzta chiroqlarini yoqardi. Shayton alayhil-la’na har kecha kelib chiroqlarini o‘chirib ketardi. Bu hol ko‘p takrorlangandan bezor bo‘lgan Ya’qub alayhissalom bir kechasi poylab, shayton chiroqlarni o‘chirayotganda uni asir (*Isr*) tushiradi. Bo‘ynini zanjirlaydi. *Isr* so‘zi asir ma’nosini beradi. Shuning uchun *Isroil* deb nom oldi. Ikkinchisi, *Isr* so‘zining *qul* ma’nosi ham mavjud. *Il* (Al) Tangrining ismidir. Shunda *Isroil* – tangrining quli demakdir.

---

[1] Алоуддин Мансур. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. “Шарқ”, – Т.: 1992. – В. 9.
[2] *Yalavoch* – payg‘ambar.
[3] *Bulnamish* – asirga olish.
[4] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 94.

Ma’lumki payg‘ambarlarga mo‘jizalar ato etilgan, ya’ni ular mo‘jizalar ko‘rsatib insonlarni o‘zlariga ergashtirganlar. Muallif ushbu qissada nafaqat Ya’qub payg‘ambarning mo‘jizalari, balki o‘g‘illarining ham g‘aroyib qobilyatlari haqida hikoya qiladi. Qissada aytilishicha Ya’qub payg‘ambarning o‘n ikki og‘ili bor edi. *Yana bir olami sifliyda yetti burjdin o‘n ikki yulduz tug‘di. Yetti burj qayu tesang: Ya’qub yalavoch, Shavsha, Za’ura, Sunbula, Qamar, Habiba, Rahil. Ya’qub olti xotunlari birla yetagu. O‘n ikki yulduzlar qayu tesang o‘n ikki o‘g‘lonlari turur: Rubil, Loviy, Sham’un, Yahudo, Joda, Don, Yag‘sar, Yastoxir, Zabotuq, Qozur, Yusuf,Ibn Yamin*[5]. Ya’ni, quyi osmonda bu yetti yulduzdan o‘n ikki burj paydo bo‘ldi. Yetti yulduz degani shunga ishoraki, Ya’qub alayhissalom va olti xotini Shavsha, Za’ura, Sunbula, Qamar, Habiba, Rahil bilan yettilikni tashkil qilar. O‘n ikki yulduzlar shuki, bular Ya’qub alayhissalomning o‘n ikki o‘g‘illari - Rubil, Loviy, Sham’un, Yahudo, Joda, Don, Yag‘sar, Yastoxir, Zabotuq, Qozur, Yusuf, ibn Yaminga ishoradir.

Muallifning yozishicha Ya’qub payg‘ambar o‘g‘illari achchig‘lanishsa g‘ayritabiiy quvvatga kirib atrofdagi barcha narsalarni xarobaga aylantirishar va shundan keyingina jahldan tushishar edi. Yoki bo‘lmasam Ibrohim payg‘ambar naslidan bo‘lgan kishi ularni orqasini silab jahldan tushirar edi. *Sham’un, Rubil achig‘landilar. Ya’qub o‘g‘lonlari achig‘lansalar viloyatni xarob qilmag‘uncha achig‘lari o‘chmas erdi. Magar Ibrohim yalavoch urug‘indin kim ersa ilkin orqasing‘a silasa achig‘i o‘char erdi*[6].

Shuningdek ushbu qissaning mantiqiy davomi bo‘lmish Yusuf payg‘ambar qissasida ham shunday keltiriladi: *Yusuf o‘z qarindoshlarining kuchin, quvvatin bilur erdi. Qachon ular o‘fkalasa*[7] *tuklari ura qo‘pub to‘nlaridin o‘ta chiqar erdi. Bir elni yolg‘uz buzmag‘uncha tiyanmas erdilar yo kendu*[8] *Ya’qub yalavoch urug‘indin kim ersa iligini orqalarig‘a sifasa*[9] *o‘fkalari bosilur erdi. Yahudo qarindoshlarig‘a aydi: “Mandin yiroq turung, bularg‘a bir tepunayin”. Yusuf Yahudoning o‘fkalanmishin ko‘rdi ersa yosh og‘lig‘a aydi: “Borg‘il ul erning orqasin qo‘lung birla sifag‘il”. O‘g‘lon borib sifadi ersa Yahudoning o‘fkasi bosildi*[10].

Yana *Yahudo qarindoshlaringa aydi: “O‘tru*[11] *turung”. O‘zi ilgaru kirdi, tayoqin boshi uza chevurdi, havoqa soldi, yana tutdi. Olam ichinda yig‘ochni havog‘a tashlab yana tutmak Yahudodin qoldi. Anda kezin bir un qildi, ul to‘quzi*

---

[5] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 101.
[6] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 96.
[7] *O‘fkalasa* – g‘azablansa.
[8] *Kendu* – o‘zi.
[9] *Sifasa* – silasa.
[10] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 149.
[11] *O‘tru* – qarshisida, yuzma -yuz turmoq.

ham un qildilar, farishtalarma ko‘kdin un qildilar. Ul unlar qo‘rqunchidin o‘n ikki ming erning yuraklari yorilib o‘ldilar[12]. Jang boshlanish arafasida Yahudo tayoqni boshi uzra o‘ynatib osmonga irg‘itib keyin ilib olardi(bu harakat Yahudodan odat bo‘lib qoldi). So‘ngra ular qattiq qichqirishdi. Ularning qichqirig‘iga samodan farishtalar ham qo‘shilishdi. Qichqiriq daxshatidan dushmanning urushga kelgan o‘n ikki ming askari yuraklari yorilib halok bo‘ldi.

Muallif boshqa bir qissada Ya’qub alayhissalomning farzandlarini jang maydonida mohirligini quyidagicha ta’riflaydi: *Malik yana beklaringa boqdi. Yigirmi to‘rt ming er birla otlanib keldilar. Yahudo aydi: “Ey Sham’un, kezik*[13] *sangakeldi”. Sham’un o‘tru chiqdi, aydi: “Eting La ilaha illollohu Ya’qub rasulullohi”. Cherik*[14] *Sham’ung‘a tepundilar*[15]*. Sham’un un qildi kofirlar jumla halok bo‘ldilar, sanadilar. O‘t kelib yigirmi to‘rt ming erni kuyurdi. Malikka xabar bo‘ldi, malik yaga‘ng‘a*[16] *mundi. O‘n ikki ming beklar otlanub keldilar. Yahudo qarindoshlaringa aydi: “Keling, bir yo‘li takbir qilaling”. Izi azza va jalla to‘rt saf farishta izdi, tekmasaf qirq ming farishta erdi. Yahudo qarindoshlari birla takbir qildilar, farishtalarmatakbir qildilar. Ya’qub o‘g‘lonlari tepinib kirdilar. Bular yerda, farishtalar ko‘kda. Kofirlar qo‘rqub qochdilar. Qutrumg‘a bordilar. Imloqdin azin*[17] *hech kim ersaqolmadi. Qamug‘*[18] *o‘ldilar*[19]. Muallif bu jangda ham Ya’qub farzandlarigafarishtalar yordam berganini hamda qichqiriq va takbir bilan jangda g‘alaba qilishganini yozadi. Adib asarda keltirgan voqea hodisani, ya’ni farishtalarning “Saf-saf bo‘lib kelishi”ni tasvirlashda “*Fajr*” surasining 22- oyatidan ilhomlanganligima’lum bo‘ladi[20].

Ya’qub qissasida yana bir kichik detal borki, u haqida Qur’onda faqat bir o‘rinda – Baqara surasi 248-oyatida shunday ma’lumot keladi: *Payg‘ambarlari ularga aytdi: “Uning podishoh bo‘lib saylanganligining alomati – sizlarga bir sandiq kelishidirki, unda Parvardigoringiz tomonidan xotirjamlik va Muso va Horun oilalaridan qolgan meros jo qilingan bo‘lib, farishtalar ko‘tarib turadilar”*[21]. Oyatda xabar berilgan sandiq nima va qanday buyum? U haqida ko‘proq

[12] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 97.
[13] *Kezik* – navbat.
[14] *Cherik* – qo‘shin, lashkar
[15] *Tepundilar* – talpindilar, hamla qildilar.
[16] *Yag‘an* – fil.
[17] *Azin* – boshqa, o‘zga.
[18] *Qamug‘* – barcha, hamma.
[19] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 98.
[20] Алоуддин Мансур. Фажр сураси 22-оят 467-бет – “Парвардигорингиз ва фаришталар саф-саф бўлиб келса”.
[21] Алоуддин Мансур. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. “Шарқ”, – Т.: 1992. – В. 30.

ma’lumotlar isroiliyot[22] qissalarida uchraydi va u ko‘proq “*ahd sandig‘i*” nomi bilan mashhurdir. Ushbu qissada esa quyidagicha keladi. *Ya’qub sanduq ochdi, Odam safiy to‘nin Sham’ung‘a berdi, Shis to‘nin Rubilg‘a berdi, Ibrohim qo‘chining munguzun*[23] *Yag‘sarg‘a berdi. Muso asosin Yahudog‘a berdi*[24]. Bundan ma’lumbo‘ladiki, ushbu sandiqda qadimgi payg‘ambarlarning buyumlari saqlangan. Rabg‘uziy qissadagi ushbu sandiq va undagi buyumlarni muqaddas va ilohiyligiga ishora qilib: *Ya’qub yalavoch Yusufg‘a bo‘lak*[25] *izmish*[26] *erdi. Ibrohim yalavochning dastori*[27] *erdi, Ya’qubg‘a meros tegmish erdi. Aning birla salom qilib kirdilar, ani o‘trusida qo‘ydilar. Taqi aydilar: “Ya’qub yalavoch aydi, bu dastor manga otam Ibrohimdin meros qoldi, man sanga izdim”. Yusuf ul bo‘lakka sevundi aning uchunkim, ul dastor kimga tegsa ul payg‘ambar bo‘lur erdi*[28] deb yozadi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Ibrohim payg‘ambardan qolgan salla oddiy salla emas, balki payg‘ambarlik ishorasidir. Lekin buni Yusufning akalari bilmaydilar. Yusuf esa buni anglaydi. Shuningdek, yuqoridagi fikrni quvvatlab Rabg‘uziy qissada shunday yozadi: *Tonglasi tekma biri bir darvozadin kirdilar. Yahudo bir qattig‘ un qildi. Misrxalqi qamug‘i behush bo‘ldilar, yukluk tishilar*[29] *o‘g‘lon tushurdilar . Sham’un yana bir darvozadin kirdi. Xalq ani ko‘rub qo‘rqub qochtilar. Bir tosh ko‘tirub Yusufning saroyig‘a urdi ersa saroy yemruldi. Yusuf bildikim alarg‘a kim ersa o‘tru turmas. Ibrohim yalavoch dastorin chiqarib alarg‘a qarshu tutdilar. Alarming unlari chiqmas bo‘ldi*[30]. Bundan bizga ma’lum bo‘ldiki, ushbu salla ko‘rsatilganda Ya’qub o‘g‘illarining g‘ayritabiiy kuchlari so‘nib qolar ekan.

Nosiruddin Burhonuddin Rabg‘uziy “Qisasi rabg‘uziy” asari bilan turkiy adabiyotda qissachilik janrini ochib berdi. Nafaqat ochib berdi. Balkim, sohani yuksak darajaga ko‘tara oldi. Asar sohaning ilk namunasi hisoblansada, mukammallik ko‘rinishiga ega bo‘la olgan. Rabg‘uziyning mahorati diniy-falsafiy ilm bilan badiiy ijodni yo‘g‘rintirgan. Va mukammallikka erisha olgan. Qissadagi hikoyatlar jamiyatning ruhiy-ma’naviy-siyosiy jihatdan kamol topishiga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy inoqlik va rivojlanish tendensiyasini ilgari suradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

[22] Isroiliot – yahudiy va nasroniylardan islomga o‘tib qolgan qadimgi qissalar.
[23] *Qo‘chining munguzi* – qo‘chqorning shoxi
[24] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 97.
[25] *Bo’lak* – sovg‘a, hadya.
[26] *Izmoq* – jo‘natmoq, yubormoq.
[27] *Dastor* – salla.
[28] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 145.
[29] *Tishilar* – ayollar
[30] Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. 1-китоб. Ёзувчи. – Т.: 1990. – В. 150.

1. Носируддин Бурҳонуддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. “Ёзувчи”, – Т.: 1990.
2. Алоуддин Мансур. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима. “Шарқ”, – Т.: 1992.
3. Илминский Н. Кисас-и Рабгузий. – Казан. 1895.
4. Носируддин Рабғузий. Қисаси ул-Анбиё. – Қозон. 1881.
5. Абдураҳмонов А. Туркий адабиётнинг қадимги даври. “Янги аср авлоди”. – Т.: 2005.

ODIL YOQUBOVNING “BILLUR QANDILLAR” QISSASIDA MILLIY QADRIYATLAR TALQINI

Anvar Allambergenov,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail:anvarallambergenov11@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Odil Yoqubovning “Billur qandillar” qissasida berilganmilliy qadriyatlar talqinlari tahlilga tortilgan. Milliy qadriyat tushunchasiga qisqacha ta’rif beriladi. Yozuvchining milliy qadriyatlarni talqin qilishdagi yondashuvi, o‘ziga xosligi va milliylikni berishdagi eng mayda detallargacha bo‘lgan e’tibori haqida to‘xtalinadi.*

Kalit so‘zlar: *millat, xalq, milliy qadriyatlar, milliylik, o‘ziga xoslik, tushuncha, tahlil,talqin, tasvir, mahorat, uslub, detal, obraz.*

Annotation: *This article analyzes the interpretations of national values given in Odil Yakubov's short story «Crystal Chandeliers». The concept of national value is briefly defined. The writer's approach to the interpretation of national values, originality and attention to the smallest details in giving nationality will be discussed.*

Key words: *nation, people, national values, nationality, identity, concept, analysis, interpretation, image, skill, style, detail, image.*

Аннотация: *В статье анализируется толкование национальных ценностей, данных в рассказе Одила Якубова «Хрустальные люстры». Автором даётся краткое определение понятия «национальная ценность». В статье уделяется особе внимание подходу писателя к трактовке национальных ценностей, оригинальности и внимании к мельчайшим деталям в передаче национальной составляющей.*

Ключевые слова: *нация, народ, национальные ценности, национальность, идентичность, концепция, анализ, интерпретация, образ, мастерство, стиль, деталь, образ.*

Biron bir xalq yoki millatga yoxud biron bir jo‘g‘rofiy hududga xos qadriyatlarni yoinki, qadriyat elementlarini o‘sha xalq ichida yashovchi o‘sha millat vakili kabi hech bir odam tasvirlab, tavsiflab bera olmaydi. Ijod namunalarini yaratishda ham bu tushuncha e’tibordan soqit qilinmaydi. Ma’lum bir millat, xalq yoki hududga tegishli urf-odat va marosimlarni: “o‘zimga tegishli”, deb hisoblaydigan ijodkor milliy qadriyatlarning eng mayda tafsilotlari va nuqtalarigacha topib o‘quvchiga yetkaza oladi. Xalq orasidan chiqqan iste’dodlar milliy qadriyatlarni kichik bir detal orqali ko‘rsatib berishi mumkin. Lekin o‘sha detalni topish, uniobrazli turda talqin qilish jo‘n ish emas. Buning murakkabligi bir necha omillarga bog‘liq. Birinchi omil, ko‘p gapirib, yozib yoki ko‘p narsalarni qamrab olib tasvirda chalg‘imay detalga ishlov berish. Ikkinchi omil, kichik ko‘lamdagi detalga ijodkor uslubi, mahorati hamda badiiy tasvir vositalari orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘llarini izlash kerak.

Odatga aylangan marosim yoki manzara, quloq qondi iboralar qaysidir ijodkorga begona, diqqati oshib kuzatishi orqali jarayonning ichidagi odamga nisbatan uning ilg‘ashi, tabiiy hodisalarni anglashi oson kechadi. Lekin mahalliyyozuvchidagidek milliy qadriyatlar uning qon-qoniga singmagan, turmush tarzigaaylanmagan bo‘ladi. Muhit ichida tug‘ilgan, voyaga yetgan iste’dod egalarigina o‘sha xalqqa mansub koloritning eng nozik ilg‘amlarini anglay oladi. Bu hozirgi kun uchun xos bo‘lgan tushunchalardir. Bu borada iqtidorli yozuvchiga to‘siq yoki mone’lik qiladigan o‘rinlar yo‘q.

Odil Yoqubovning “Billur qandillar” qissasi 1975-yilda yozilgan. Asar yozilgan vaqtga e’tibor qaratadigan bo‘lsak mustabid tuzum paytida milliylikni baralla gapirish, yozish, targ‘ib qilish mushkul ish edi. Muallif mahorat bilan obrazlarning xatti-harakatlari orqali sharqona, o‘zbekona milliy qadriyatlarni qissa davomida har xil ko‘rinishlarda talqin qilgan. Azal-azaldan ota-bobolarimiz urfiga ko‘ra safarga otlangan odamga kerakli narsalar bilan bir qatorda non ham qo‘shib berilgan. Sababi yo‘lga otlangan odamga non yo‘ldosh bo‘lishi, borgan joyiga non, tuz ko‘tarib borishi kerakligi irim qilingan. Qissadagi bosh obraz Hikmatillo otasining ma’rakalaridan so‘ng yana harbiy xizmatga qaytib borish uchun otlanar ekan uning qarshiligiga qaramasdan onasi: “Qaytib borganingda yor-birodarlaring qo‘lingga qaraydi. Uyalmay ikki qo‘lingni burningga tiqib kirib borasanmi, bolam?”[1] – deb qo‘yarda- qo‘ymay u-bu narsalar berib yuboradi. Bu odat chiroyli ko‘rinishda bugungi kunda ham davom etmoqda. Uzoq masofadan keluvchi odam yoki olis joyga boruvchilar o‘zi bilan bozorlik, mozorbosdi deb ataluvchi non, qand-qurs, meva-cheva va shunga o‘xshash narsalarni olib borishi an’ana tusiga kirgan. Qissadagi dastlabki milliy qadriyatlarning bir ko‘rinishi sifatida aynan shu o‘rin berilgan. Yozuvchi mustaqillikkacha bo‘lgan davrdagi butun ijodi davomida mafkuraviy tuzum bilan hisoblashgani aniq. Shuning uchun qissada milliy qadriyatlarning yorqin ko‘rinishlariboshdan oyoq berilgan deya olmaymiz. Shunday bo‘lsa ham muallif mahorati tufayli nafaqat o‘zbekona milliy qadriyatlar balki, sharqona, musulmonlarga xos bo‘lgan qadriyatlarni ham qissaga singdirib yuborgan. Bu esa Hikmatillo, Xosiyat aya, Begimqul, Nilufar kabi bosh obrazlarning ismlariga yashiringan ma’nolarda ham ko‘rinadi. Musulmonchilikka bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xoslikni ham obrazlarning dialoglaridan foydalanib berib o‘tish holatlari ham uchraydi. Shulardan biri,Hikmatillo harbiyga qaytish uchun Toshkentga kelib u yerdan Novosibirskka borishi kerak edi. Uning ixtiyorida bir, uzog‘i bilan ikki kun vaqt bor. Shu orada talabalikda ijarada turgan uyi Xosiyat ayanikiga boradi. U yerga borishi, kampir bilan so‘rashish

[1] Yoqubov O. Billur qandillar. Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1975-yil 3-bet

holatlari, harakatlarining hamma-hammasida milliy qadriyatlar bilan bog‘liq detallar talaygina.

Hikmatillo va Xosiyat aya so‘rashish jarayonida ayaning farzandlari haqida gap ketadi. Shunda aya: “Qiz bola birovning xasmi, iloyim borgan joyida o‘zidan tinsin”, – degan gapni ishlatadi. Xasm so‘zi lug‘atda – “birovning ixtiyoridagi narsa yoki kishi”[2] deb izohlangan. Xudosizlik hukm surgan zamonda qisqa ko‘rinishda bo‘lsada bu kabi so‘zlarning berilishi katta gap edi. Shu kabi vaziyatlardan yana birini aynan shu ikki obrazda kuzatishimiz mumkin. Kampirning uyni isitish bilan bog‘liq muammolari bo‘lib uni qisman bitkazib berish Hikmatilloning qo‘lidan keladi. “Hikmatillo ichida yana bir kulimsirab qo‘ydi-da, yengil odimlab ketti. Faqat bir narsa ko‘nglini sal xijil qilib turardi, u ham bo‘lsa ayaning gaz quviri edi!..Hikmatullo bir-ikki soat vaqtini ayamay, kampir bechoraning og‘irini yengil qilib duosini ola qolsa bo‘lardi!”[3] O‘zbek xalqi hamisha savob umidida, duo umidida beminnat holda odamlarning yordamiga shoshgan. Ayniqsa, yordamga muhtoj odam keksa, yoshi katta odam bo‘lsa, qolaversa, ayol kishi bo‘lsa. Har qanday vidjonli, iymon-insof egasi bu kabi holatlarda qo‘ldan kelganicha yordam beradi, agar yordam berish qo‘lidan kelmasa hech bo‘lmaganda muammoli vaziyatning yechimi uchun bir-ikki maslahatlar, takliflar berdi. Hikmatilloning holatini yaxshilab kuzatadigan bo‘lsak bu yerda kampir undan yordam so‘ramadi, shunchaki hol-ahvol so‘rashish asnosida nolimadi, faqatgina zaruratini aytdi. Shu voqeadan keyin Hikmatilloning xayolida ikki kuch bir-biri bilan olishar edi. Biri ayaning og‘irini qo‘lidan kelganicha yengillatish bo‘lsa, yana biri ixtiyoridagi atiga bir kunni changga bulg‘anib, qaroterga botib emas, shahar aylanib, tanish-bilish, yor-birodarlar bilan ko‘rishib ko‘ngil yozish bilan o‘tkazish o‘rtasidagi olishuv edi. Bu olishuv jarayonida Hikmatilloning xayoliga turli fikrlar keladi. “Ha, ishlagan o‘zar, ishlamagan to‘zar, deganlaridek, mehnat qilgan odam xor bo‘lmas ekan… Ayaning quvurini o‘rnatib bera qolsa ham bir joyi kam bo‘lib qolmas edi! Aya ham uning o‘z onasidek beva. Eri urushda halok bo‘lgan mushtipar ayol”.[4] Xayoldagi olishuv davom etaveradi. Shu kabi o‘ylar bilan band holda shahar ko‘chalarini kezib yurgan Hikmatilloning esiga harbiy xizmatdagi ba’zi voqealar tushadi. Muallif retrospektiv syujet turidan foydalangan holda milliy qadriyatlar talqinini yanada yorqin misollar bilan ko‘rsatishga urinadi. Milliylikdan, o‘zlikdan, ona vatandan, millatdan faxrlanish his-tuyg‘ularini aynan xayol retrospektivkasi orqali berishga urinadi. Bu urinish muvaffaqiyatli chiqib qissaningbir necha o‘rinlarida qo‘llaniladi. Bu usul orqali qissaning qiziqarliligi yanada

[2] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nahriyoti 2008-yil 4-jild 388-bet
[3] Yoqubov O. Billur qandillar. Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1975-yil 3-bet
[4] Yoqubov O. Billur qandillar. Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1975-yil 5-bet

orttirilgan, qolaversa voqealar davomiyligi ritmi buzilmagan. Bir yil oldin o‘zi yurgan, ko‘p e’tibor beravermaydigan manzara va ko‘rinishlar vatandan olisda, o‘zga millat vakillarining orasida bo‘lgan sog‘inchini yanada kuchaytiradi. “Ellik yillik to‘y-tantanalarini Hikmatillo o‘z qismida, televizorda tomosha qilgan edi. O‘shanda, kechasi batalon kulubida o‘tirib, soldatlar davrasida Toshkent ko‘chalarini, gul-gul yashnagan Qizil maydoni va maydonni to‘ldirgan qandaydir juda tanish, juda yaqin odamlar oqimini, ayniqsa karnay sadolari ostida o‘ynab borayotgan atlas ko‘ylakli qizlarni ko‘rganida va nihoyat do‘stlarining: “O-o, o‘zbechkalar ja boshqacha bo‘lar ekan-ku!” degan xitoblarini eshitganida, Hikmatilloning qalbi toshqinday jilovsiz bir quvonchga to‘lib, ko‘zlaridan yosh chiqib ketgan edi!”[5] Milliylikning ba’zi ko‘rinishlari aks etgan parcha orqali muallif bosh qahramonning sog‘inchini, sevinchini, faxr va iftixor tuyg‘ularining to‘lqinlanishini uning ko‘zlaridan chiqqan yosh orqali ifodalaydi.

Takror bo‘lsa ham ta’kidlash o‘rinli. Muallif “Billur qandillar” qissasini yozgan vaqtlari milliylik, o‘zlik, milliy qadriyatlar masalalarini bemalol tarannum qilishning imkoni yo‘q davrlar edi. Faqatgina iste’dodli ijodkorlargina mahorat bilan asarlarining qat-qatlariga milliylik, o‘zlik va o‘ziga xoslik masalalarini singdirib yuborgan. Odil Yoqubovning asarlarida ham, xususan, “Billur qandillar” qissasida ham milliy qadriyatlarning ana shunday talqinlarini kuzatishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Yoqubov O. Billur qandillar. Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1975-yil.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nahriyoti 2008-yil 4-jild.
3. Doniyarova Sh. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2011.

[5] Yoqubov O. Billur qandillar. Adabiyot va san’at nashriyoti. T.: 1975-yil 6-bet

HUJJATLI QISSADA SYUJET UNSURLARI

(Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasi misolida)

Anvar Allambergenov,
filolofiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti katta ilmiy xodimi
E-mail:anvarallambergenov11@gmail.com

Annotasiya: *Ushbu maqolada Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasi syujet nuqtayi nazaridan tahlilga tortilgan. Qissa voqealarining syujet elementlariga mos keladigan o‘rinlaridan parchalar keltirilgan. Tahlillar davomida nazariy adabiyotlardan syujet elamentlarining ta’riflari bilan bog‘liq ko‘chirmalar olingan. Tahlillardan kelib chiqqan holda maqola yakunida tegishli xulosalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Syujet, syujet unsurlari, qissa, hujjatli qissa, hujjatlar, arxiv materiallari, tarix, tarixiy haqiqat, yozuvchi, ekspozisiya, kulminatsiya, tugun.*

Аннотация: *В данной статье анализируется документальная повесть Алиназара Эгамназарова «Siz bilgan Dukchi Eshon» с точки зрения сюжета. Представлены отрывки из событий повести, соответствующие элементам сюжета. В ходе анализа были взяты выдержки, связанные с определениями элементов сюжета, из теоретической литературы. На основе анализа в конце статьи даны соответствующие выводы.*

Ключевые слова*: Сюжет, элементы сюжета, повесть, документальный рассказ, документы, архивные материалы, история, исторический факт, писатель, экспозиция, кульминация, узел.*

Abstract*: This article analyzes the documentary story “Siz bilgan Dukchi Eshon” by Alinazar Egamnazarov from the point of view of the plot. Excerpts from the events of the story corresponding to plot elements are presented. During the analysis, excerpts related to the definitions of plot elements were taken from the theoretical literature. Based on the analysis, corresponding conclusions are given at the end of the article.*

Key words: *Plot, plot elements, story, documentary story, documents, archival materials, history, historical fact, writer, exposition, climax, node.*

Hujjatli qissaning birlamchi muhim jihati uning aniq faktlarga tayanilgan holda yozilishidir. Adabiyotshunoslik bo‘yicha chop etilgan ko‘pgina kitoblarda fabula voqealarning hayotdagi yuz berish tartibi, syujet esa hayotdagi voqealarning badiiy asardagi tartibi deb bayon etilgan. Demak, hujjatli asarlarda faktlar yetakchilik qilishi birlamchi bo‘ladi degani hayotiy voqealarni fabula tarzda bayon qilish shart degan talabni qo‘ymaydi. Quruq faktlar, arxiv materiallaridan ko‘chirmalar, yillar, raqamlar, bayon qilinayotgan voqea yuzasidan chiqarilgan qarorlar va shu kabi ko‘plab xat va hujjatlar o‘quvchining hujjatli asarni o‘qishdan zeriktirishi mumkin. Bu holat esa hujjatli asarlarni faqatgina xoslar uchun bo‘lib qolishiga olib boradi. O‘zbek adabiyotida hujjatli asarlar kam bo‘lsada bor. Bular sirasiga: Abdulla Qodiriyning mashaqqatli hayot va ijod yo‘li bayon qilingan Xurshid Do‘stmuhammadning

“Yolg‘iz”, Nabijon Boqiyning “Qatlnoma” qissalari, shuningdek, Nabijon Boqiy qalamiga mansub Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti tilga olingan “Qizil toshbo‘ron” romani, Fozilbek Otabek o‘g‘lining “Dukchi Eshon voqeasi” qissasi, Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” qissasi kabi har xil janrlarda yaratilgan hujjatli asarlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

Tadqiqotimizga ob’yekt sifatida Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasini syujet nuqtayi nazaridan tahlilga tortishga harakat qilamiz. Avvalo muallif haqida to‘xtalib o‘tish o‘rinli nazarimizda. Alinazar Egamnazarov 1941-yil 1-mayda Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi Xonobod qishlog‘ida tug‘ilgan. Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistika bo‘limida (1959–1964) tahsil olgan. Mehnat faoliyatini 1964-yilda “Sirdaryo haqiqati” gazetasida oddiy xodimlikdan boshlab, keyinchalik “Toshkent oqshomi” gazetasida (1968–1987), “Sharq yulduzi” jurnalida (1987–1997), “O‘zbek Milliy ensiklopediyasi” nashriyotida (1998–2002), O‘zbekiston teleradiokompaniyasi Toshkent xalqaro radiosida (2000–2005) xizmat qildi. Alinazar Egamnazarov dolzarbijtimoiy-axloqiy mavzudagi maqolalari, ocherklari, feletonlari, hikoyalari, hajviyalari,hujjatli qissalari bilan adabiy jarayonda faol qatnashib keladi. “Ustozga ta’zim” (1980), “Muqaddas uy” (1986), “Ochig‘ini aytganda” (1986), “Yigirma milliondan biri” (1990), “Siz bilgan Dukchi Eshon” (1994), “Surgun” (1999), “Quvnoq muxbirning sarguzashtlari” (2000), “Oqlovdan so‘ng” (2011), “Latif hangomalar” (2013) kabi kitoblari nashr qilingan. Tarjimon sifatida bir qancha xorij yozuvchilari, jumladan, Susanna Gaziyans va Arkadiy Marning “Asrlar va mamlakatlar osha”(1991), Rajab Islombekning “Tahlikali zamonlar” (1997) kitoblarini o‘zbek tiliga tarjima qildi. Istiqlol yillarida u: mustaqilligimiz uchun kurashganlar, Stalin qatag‘oni qurbonlari haqida ko‘plab ocherklar, hujjatli qissalar, axloq-odob mavzusida maqolalar yozdi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi Alinazar Egamnazarov 2003-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan.Mustaqilligimizning 20 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi e’lon qilgan “Vatan uchun yashaylik” tanlovida “Ovloqdan so‘ng” kitobi uchun g‘olib deb topilgan.

Endi bevosita tahlillarga kirishsak. Hujjatli asarda hujjat birlamchiliginisaqlagan holda muallif o‘zining ijodiy niyatidan kelib chiqib: syujet unsurlarini tartibini o‘zgartirishi, ularni kuchaytirishi (voqealar rivojini tezlashtirishi yoki cho‘zishi, tugunni boshida yoki o‘rtasida berishi kabi) yoki o‘zgartirmasligi hammumkin.

Ma’lumki prolog syujetning tarkibiy qismi sifatidan syujet unsurlari qatorida sanalsada barcha asarlarda ham uchrayvermaydi. Prolog – “muallif tomonidan yozilib, adabiy asar boshida keltiriladigan, asarning qisqacha mazmuni, uning yozilishiga turtki bo‘lgan omillar va muallif niyati bayon qilingan o‘ziga xos muqaddima”.[1] “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida syujetning dastlabki unsurlaridan bo‘lmish prolog “Muallifdan” degan sarlavha bilan keltiriladi. “Mustamlaka zulmini ko‘rgan barcha xalqlar singari Turkiston xalqlarining ham o‘z ozodligi va mustaqilligi uchun kurash tarixi, bu yo‘lda jonini fido qilgan unutilmas qahramonlari bor. O‘tgan asr oxirida bo‘lgan (ya’ni XIX asr. A.A) Andijon qo‘zg‘olonining rahbari Muhammadali xalfa Sobir o‘g‘li – Dukchi Eshon ana shunday qahramonlardan biridir”.[2] Qolaversa, asar prologida yuqorida sanab o‘tilganlardan qissaning nima haqida ekanligi qisqacha berilgan, yozilishiga turtki bo‘lgan omillar va muallifning ushbu asarni yozishda bevosita yordam bergan qator tashkilotlar va ularning xodimlariga minnatdorchiligi izhor etilgan.

Syujet unsurlaridan yana biri bu ekspozisiyadir. Syujetning bu unsuri muallifning ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda asarning istalgan joyida berilishi mumkin. Lekin uning asos qismi asardagi asosiy tugun yuzaga kelgunicha berilishi lozim. Qolgan bo‘lak va qismlari asar bo‘ylab sochilib ketishi yoki yig‘iq tarzda berilgan bo‘lishi ham mumkin. “Ekspozisiya – syujet komponenti, personajlarning bevosita tugun yuzaga kelishi vaqtida kechgan hayoti, asosiy konflikt yetilgan shart- sharoitlar tasviri. Ekspozisiya o‘quvchini asar voqealari kechgan joy, voqea ishtirokchilari bo‘lmish personajlar, konfliktni yuzaga keltirgan shart-sharoitlar bilan tanishtiradi, uni syujet voqealarini idrok etishga tayyorlaydi”.[3] Tahlil qilayotganimiz “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida ekspozisiya “Samarqanddan kelgantelegramma” deb berilgan dastlabki qismdan boshlanadi. U yerda real hayotda Muhammadali xalfa ya’ni Dukchi Eshon qo‘zg‘olonining yuzga kelish omillari qanday bo‘lganligi haqida gap ketadi. Ta’kidlanganidek ekspozisiya tugunni yuzaga keltiruvchi omillarni badiiy asar sahniga olib chiqishi lozim. Hujjatlar asosida ekspozisiyaning berilishi bu hujjatli asardagi o‘ziga xosliklardan biri deyishimiz mumkin. Qissaning dastlabki qismida katta-kichik hajmli 10 ta telegramma keltirilgan. Bu telegrammalarning e’tibor tortar jihatlaridan biri shundaki, bularning kim tomondan yozilganligi va kimga yozilganligi, yozilish vaqtining aniq ko‘rsatilganligidadir. Ahamiyatlisi “maxfiy” tamg‘asi bilan berilgan telegrammalar to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan va ular yig‘ilib qissaning asosiy ekspozisiyasini tashkil

[1] Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. –T.: Yangi asr avlodi. 2010-yil 187-bet
[2] Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. –T.: Adabiyot. 2022-yil 9-bet
[3] Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 362-bet

qilgan. O‘quvchida telegrammalar mazmunidan kelib chiqib, bo‘layotgan voqealarni chetdan kuzatib turgandek taassurot uyg‘onadi. Ular orqali “isyonchilar”ning qo‘zg‘oloni va ularni bostirishdagi ko‘rilgan chora-tadbirlar haqida ma’lumot oladi. Qissaning “Isyonkor Eshon izidan” deb nomlangan qismida esa voqealarni “isyonkor”lar ichida turib kuzatish imkoniga ega bo‘ladi. Shu voqealar tasviri jarayonlarida muallif syujetning konsentrik, retrospektiv tiplaridan mohirona foydalangan. Masalan, qissaning dastlabki qismida keltirilgan telegrammalarning biridagi Dukchi Eshon ushlanganligidan xabardor bo‘lishimiz mumkin. Lekin muallif retrospektiv syujet tipini qo‘llagan holda Eshonning ushlanishi bilan bog‘liq tafsilotlarni beradi. “Eshonni ushlash shunday bo‘lgandi” deb gap boshlanadi vahujjatli asar tartibi taomili doirasida, faktlar, aniq raqamlar bilan batafsil bayon etiladi. Bu bayon quruq so‘zdan iborat emas. Xat, hujjat, dalil, isbot barchasi izma- izlikda berib boriladi. Bunday faktlarni bir biriga ulashda muallif mahorati, uslubiy o‘ziga xosligi yorqin namoyon bo‘ladi. Bir fakt ikkinchi faktga mohirona payvandlanadi. Shu zaylda bir xabarning ikkinchi xabarga ulanishi xuddi badiiylik mahsulidek taassurot uyg‘otadi.

Syujet unsurlari — ekspozisiya, tugun, voqealar rivoji, kulminasiya, yechim va epilogdan iborat. Lekin prolog va epilog bevosita syujetning tarkibiy qismi sifatida talab etilmaydi. Bu ikki unsur muallifning ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda badiiy asarda keltirilishi ham mumkin, keltirilmasligi ham mumkin. “Prolog (yu. Pro – oldidagi, logs – so‘z) — adabiy asarning kirish qismi, muqaddima. Prologlar mazmun mundarijasiga ko‘ra turlicha bo‘ladi: asarning yozilish sababini izohlash, asosiy mazmunni muhtasar bayon etish, asar vaqtigacha yuz bergan voqealarning qisqabayoni va hokozolar. Shunga ko‘ra prologlar turli badiiy-yestetik maqsadlarga xizmatqiladi: o‘quvchini asar voqealariga olib kirish, tasvirlanajak voqealarning yuz berish omillari haqida umumiy tasavvur berish, muayyan emosional-hissiy holat hosil qilish va hokozolar”[4]ni o‘z qamroviga oladi. “Siz bilgan Dukchi Eshon” qissasida prolognamo qismlar mavjud. Lekin aynan prolog keltirilmaydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak dastlabki qismda asar muqaddimasi berilmaydi, lekin asardagivoqealarning sabablarini ayonlashtiruvchi hujjatlar keltiriladi. Hujjatli qissaning hujjatlar bilan boshlanishi janrning to‘g‘ri tanlanganidan darak beruvchi dastlabki omil bo‘lib hisoblanadi.

Qissa ob’yekti sifatida tanlangan shaxs hayoti va u shaxs boshchiligidagi qo‘zg‘alon ko‘pchilik uchun qiziqarli hisoblanadi. Buning qator sabablari mavjud. Qiziqarli voqeani yanada ta’sirli qilib bayon etish bayonchining mahoratiga ham

[4] Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 236-bet

bog‘liq. E’tibor tortar o‘rinlarda badiiyat qorishmasini berish maqsadida tanlangan yo‘ldan og‘ish kuzatilmaydi. “Ertalab soat 6 da harbiylar Massa qishlog‘iga kirib borishdi. Bu qishloq oqsoqoli ham ishonchli yigitlardan 15 nafarini to‘plab, Qozonli Mozor tomonga borib, Eshonning yo‘lini kesishni buyurgan edi. Og‘abekov yigitlari olg‘a borib, kunduzi soat birga yaqin, sobiq bo‘lis boshlig‘ining otasi Qodirqulni uchratishdi. U o‘g‘li o‘rniga o‘n uch yigit bilan kelgan, bu yigitlar bitta birotar miltiq, 3 ta to‘pponcha 2 qilich bilan qurollangan edilar”.[5] Qissa ekspozisiyasining berilishida ham ko‘rish mumkunki yuz berayotgan voqeaning aniqligi, personajlar va qo‘llanilayotgan detallar sonining nihoyatda aniqligi hujjatli qissa ekspozisiyasining butunligini ta’minlagan. Bu butunlik asar qahramonlari va ularning harakat etayotgan o‘rinlarining butun tafsilotlarigacha berilishi va keyingi harakatlar uchun o‘quvchida taxminiy taassurotlar uyg‘otishida kuzatiladi.

“Ekspozisiyaning hamma qirralari asar boshida to‘la tasvirlanishi shart emas, aksincha, eng yaxshi yozuvchilar asar kompazisiyasiga oid ikkinchi darajalitafsilotlarni bayon etishni keyinroqqa qoldirib, qahramonlarni tezroq harakatga keltirishga intiladi”.[6] Shu ma’noda Alinazar Egamnazarov ham ekspozisiyaning ayrim qirralarini asarning avvalida berib o‘tgan bo‘lsa, ba’zi qirralarini asarning boshqa o‘rinlarida beradi. Asar syujetning qaysi bir unsuri keltirilsa ham Muhammadali xalfa ya’ni Dukchi Eshon tashqaridan kuzatiladi. Uning kechinmalari va holati ichdan ochilmaydi. Bu holatni hujjatli qissa yo‘sinining taqozosi deya izohlashimiz mumkin. Ba’zi adabiyot nazariyasi kitoblarida asarning umumiy ekspozisiyasidan tashqari yirik obrazning ham o‘ziga xos mustaqil ekspozisiyasi bo‘lishi qayd etilgan. Hujjatli asarda hujjat birlamchi bo‘lganligi boisdan bu qissada obraz ekspozisiyasiga ko‘p ham e’tibor qaratilavermaydi.

Syujetning asosiy unsurlaridan biri bu – tugun. “Siz bilgan Dukchi Eshon”hujjatli qissasida berilgan tugun hayotiy voqeaning badiiy asardagi bo‘yalmagan,bejalmagan, haqqoniy aksi. Qissada tugun “Isyonkor Eshon izidan” deb nomlangan bobda beriladi. Tugun berilishidan oldin, tugungacha bo‘lgan sabablar ham atroflicha ko‘rsatib o‘tiladi. “Tugun – epik va daramatik asarlardagi voqeaband syujetningmuhim unsuri, voqealarning boshlanishiga turtki bo‘lgan voqea, asar konflikti qo‘yilgan joy. Tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya’ni u syujetda har vaqt hozirdir. Tugun odatda asarning boshlanishida, ekspozisiyadan (agar u bo‘lsa) keyinroq beriladi. Muayyan badiiy-estetik maqsadni ko‘zda tutgan holda tugunning

[5] Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. Toshkent. Adabiyot 2022-yil 24-bet
[6] Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent. O‘qituvchi. 2005-yil 112-bet

o‘rni o‘zgartirilishi ham mumkin”.[7] Qissa avvalida qo‘zg‘olon boshlanganligi haqida bosqinchilar o‘zlarining yuqori turuvchi turli xil tashkilot rahbarlariga xabarlar va rahbarlarning qo‘zg‘olonni bostirish bilan bog‘liq bo‘lgan topshiriq ma’nosidagi maxfiy nomi ostidagi telegrammalari aynan berilgan. Tugunni keltirib chiqargan omillar esa biroz tahliltalab. Shu ma’noda faktlar va ma’lumotlar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun muallif tomonidan biroz izohlashlar, sharhlashlar beribo‘tiladi. Izoh va sharhlar keltirilgan ma’lumotdan og‘ishmagan holda shu ma’lumot doirasida berilgan. Shu tariqa tugunga olib keluvchi omillar bir-bir ko‘rsatib o‘tilgan.

Syujetning keyingi borishi voqealar rivoji bilan bog‘lanib ketadi. “Voqealartuguni yuzaga kelgach, u qandaydir tarzda o‘sib rivojlanib boradi. Syujetdagi voqealarning ma’lum tugundan keyin kengayib, chuqurlashib borish jarayoni – voqearivoji deyiladi. Tugun to‘satdan kutilmaganda yuzaga kelishi mumkin. Biroq voqea rivoji bir-biriga bog‘liq jarayonga aylanib, uzoq davom etadi. Ya’ni voqealar rivoji voqealar tuguni bilan voqealar kulminasiyasi oralig‘ida kechadi”.[8] Qissada voqealar rivoji ba’zi o‘rinlarda muallif tilidan topilgan ma’lumotlar asosida berilsa, ba’zi o‘rinlar asar qahramonlarining bizgacha yetib kelgan hujjatlar asosida masalan, Asalbibi Ortiqboy qizining hikoyasi, Muhammadali xalfa hikoyasi tarzida berilishini ham kuzatish mumkin.

Syujetning eng zarur elementlaridan biri bu – kulminasiyadir. “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasining kulminasiyon nuqtasi “G‘azovot” bobida berilgan. Bob boshqa boblarga qaraganda hajm jihatdan biroz kichkina, lekin asar uchun asos bo‘lgan eng katta voqea shu bobda berilgan. Ahamiyatlisi shundaki hayotiy kulminasiyon voqea asarga ham hayajonli tarzda ko‘chgan. Fakt birlamchiligi bu o‘rinda ham yetakchilik qilgan. “Qo‘zg‘olon boshlanishidan bir necha kun avval mahalliy mansabdor shaxslar kelib, eshon tayyorlagan murojaatnoma yoki qasamyodga o‘z muhrlarini bosishdi. Andijon lageriga hujum paytida halok bo‘lgan mulla Ziyovuddin Maxsumdagi Qur’on ichidan chiqqan bu murojaatnomada shunday deyilgan edi”,[9] – dyeyiladi va murojaatnoma to‘liq beriladi. Hujjatlardagi ma’lumotlar va muallif bayoni tarang tarzda beriladi. Dukchi Eshon va unga ergashganlarning hayqiriqlar bilan qo‘zg‘olonga otlanishi voqealari bilan bobyakunlanadi.

Undan keyingi boblarda qo‘zg‘olon bilan bog‘liq yozishma, telegrammalar maxfiy, “mutlaqo maxfiy” nomi ostida beriladi. Bundan tashqari qaydlar, voqea

[7] Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013-yil 237-bet
[8] Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi 2017-yil 83-bet
[9] Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. Toshkent Adabiyot nashriyoti 2022-yil 54-bet

guvohlari yoki shu voqea atrofidagi odamlar, voqeaga guvoh bo‘lgan odamlarning aynan o‘zidan eshitganlarning tilidan berilgan matnlar keltiriladi.

Va nihoyat qissa yakunida yigirma sahifaga yaqin aniqrog‘i o‘n sakkiz sahifa ko‘lamida “Muhammadali Sobir o‘g‘li – milliy istiqlol kurashchisi” deb nomlangan oxirgi bobi keltiriladi. Bobni qissaning epilogi deyishimiz mumkin. Butun qissa mobaynida hujjatlilikdan chekinolmagan ortiqcha pafosga berilmagan muallif uchun syujetning bu unsuri juda qo‘l kelganligini alohida ta’kidlashimiz kerak. Bu o‘rinda ham hujjatlilik yetakchilik qiladi, lekin muallifning o‘tmishimizga boqib, millat boshidan kechgan kunlarni o‘rganib ich-ichidan achinishlarini yillari, raqamlar, voqealar ketmaketigiyu, chigal vaziyatlar bayonida ham sezilib turadi.

Umuman olganda, hujjatli qissada ham muallifning oldiga qo‘ygan vazifasiga qarab syujetning barcha turlari qo‘llanilishi yoki badiiy qissalar singari ba’zi turlari qo‘llanilgan holda ba’zilarini asarga tadbiq qilmaslik ham mumkin ekan. Syujet unsurlari borasida ham shunday deyish mumkin. Maullif o‘zining uslubidan kelib chiqqan holda syujetning ba’zi unsurlaridan unumli foydalanishi, ba’zilaridan esa umuman foydalanmasligi ham mumikin ekan. Tahlilga tortganimiz Alinazar Egamnazarovning “Siz bilgan Dukchi Eshon” hujjatli qissasida syujet unsurlaridan samarali foydalangan. Hujjatlarga asoslangan holda ko‘pchilik uchun qiziqarli, o‘qishli qissa yozgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli so‘zligi. – T.: Yangi asr avlodi. 2010 yil.
2. Egamnazarov A. Siz bilgan Dukchi Eshon. –T.: Adabiyot. 2022 yil.
3. Quronov D va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T.: Akademnashr 2013 yil.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. –T.: O‘qituvchi. 2005 yil.

NAZAR ESHONQUL IJODIDA YOPIQ MAKON VA UNING MA’NOVIY TALQINI

Nilufar Cho‘liyeva,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti

Annotatsiya: *Maqolada Nazar Eshonqul ijodida yopiq makon va uning ma’noviyxususiyatlari ijodkorning hikoyalari hamda qissasi tahlili orqali ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *badiiy makon, badiiy vaqt (zamon), badiiy makon shakllari, ochiq-yopiqmakon, ramziy ma’no.*

Nasriy asarlarda badiiy makon tanlovi va uning tasviri, ayniqsa, muhimdir. Makon asarda voqelikni yaratish muhitini, sujetning o‘ziga xosligini va qahramonlar xarakterini ham belgilashda yetakchi element. Ma’lumki, badiiy makon real makon xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. U chegaraviy jihatlarga ko‘ra ochiq yoki yopiq shakllarda bo‘ladi [Рыбальченко Т.Л. 3:53]. Nazar Eshonqul nasrida makon nafaqat voqealar kechadigan joy, balki qahramonning ruhiyatini, muallif dunyoqarashini matnda ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Zero, “Badiiy makon – ma’lum bir muallif dunyosining fazoviy tasvirlar tilida ifodalangan modeli” [Лотман Ю.М. 2:252-253]. Shuningdek, yopiq makon ko‘pgina asarlarda, “issiq”, “xavfsiz joy” sifatida odatiy taassurot uyg‘otsa, Nazar Eshonqul ijodida bu, aksincha, ramziy ma’no kasb etadi. Ijodkorning “Muolaja” hikoyasidagi badiiy makon haqida ham shunday deyish mumkin.

“Muolaja” hikoyasida yopiq, izolatsiyalangan makon – kasalxona “bemor”larni “davolash” uchun qurilgan bino. Bu kasalxona odatiy kasalxonalardan farq qiladi, uning bemorlari ham. Ya’ni bu kasalxonada bemorlarni davolash kaltaklash “muolaja”si orqali amalga oshiriladi: “ – Kaltaklash tibbiyotda hamisha qoralangan, - davom etdi u (ya’ni professor – N.Ch.). – Biroq bu ishni azbaroyi insonning sog‘ligi va istiqboli uchun qilayotganimiz sababli ham bizning muolaja xayrlidir. So‘nggi tajribalarimiz ko‘rsatyaptiki, jismdagi qon va asab harakatini tartibga solish uchun kaltaklash kasallikni tuzatishning zarur omillaridan biri bo‘lib qolish ehtimoli bor” [Eshonqul N. 4:145] Ko‘rinadiki, hikoyadagi kasalxona – issiq, xavfsiz joy, davolash maskani emas, balki tana orqali ruhni majruh qiluvchi makon sifatida tasvirlangan. Undagi bemorlarning o‘z “ozod dunyosi”ni ularning miyasidan jisman azob berish orqali yanchib yo‘qotish ko ‘zda tutilgan. Aslida, bu yopiq makon sho‘ro mustabid tuzumiga xos bo‘lgan, o‘zbek millatning “ko‘zi ochiq” farzandlarini jazolash obyektlarining ramziy tasviridir. Qahramonlarning tasviri, holati ham aynan shu

fikrlarga ishora etadi: “Uchinchi davr kasal uchun eng og‘ir davr, bu davrda u hushidan ketishi mumkin, lekin savalashdan to‘xtamaslik kerak. Bu davrda kasal faryod qiladi, yalinadi, uning xayolidagi sevimli “ozod dunyosi” asta-sekin parchalana boshlaydi, bizning xivchinlar uni parchalab tashlaydi. Uning o‘rniga butun vujudini og‘riq, xivchinning qulog‘i ostida tahdidli viz-viz etgan tovushi egallaydi” [Eshonqul N. 4:148]. Mazkur tanlangan makon orqali qahramonlar holati anglatilar ekan, muallif bu jarayonda o‘z qarashlarini bera olgan. Hikoyadagi voqelikka muallifning kinoyaviy munosabatda bo‘lish orqali jamiyat, millatning erkparvar fuqarolarining qorong‘u o‘tmishi va orzularining parokandaligini fojiaviy tasvirlaydi. Asardagi binoning ulkanligi, kimsasiz xiyobon va minoradagi to‘xtab qolgan soat tasvirlari esa makonning muayyan belgilarini chizish bilan birga sobiq tuzumning zulmkorligi, ma’nan tiriklikning to‘xtaganligini ifodalaydi. Jamiyatdagi bu kabi jaholat badnafslikning urchishiga sabab bo‘ladi, ochko‘z kimsalarning ko‘payishiga yo‘l ochadi. Muallifning “Qo‘l” hikoyasidagi asosiy masala ham shu mavzuda.

“Qo‘l” hikoyasidagi makon ham chegaralangan yopiq makon – Salom tegirmonchining uyi. Hikoyadagi asosiy voqealar shu xonadonda sodir bo‘ladi. Unga ko‘ra, Salom tegirmonchining uyida notanish qo‘l paydo bo‘ladi. Bu qo‘l shundoq ham nari-beri ro‘zg‘or tebratayotgan tegirmonchining risqiga sherik bo‘lib oladi. Dasturxonidagi taomlar-u nonini yeb bitiraveradi: “Begona qo‘l rostdan ham mavjud edi. Ular bilan qo‘shilib ovqat yer, sindirilgan nonni olar, go‘shtga sherik bo‘lar, hatto mevalardan ham tatib ko‘rar, dasturxonda yegulik qolmasa, g‘oyib bo‘lardi” [Eshonqul N. 4:441] Muallif bu majoziy tasvir orqali tekinxo‘r, birovning haqidan qo‘rqmaydigan badnafs kimsalarga, ularning jirkanch qilmishlariga ishora etadi. Hikoyada egasi ko‘rinmaydigan o‘g‘ri qo‘l, aslida, Salom tegirmonchini bu qo‘ldan qutilish uchun yordam bergan kimsalarning “qo‘li” ham deyish mumkin. SababiAzim rais, keksa folbin, Keldiyor mulla, mahalla noziri kabilar tegirmonchini o‘sha qo‘ldan xalos qilishlari uchun uning ziyofatlaridan bahramand bo‘lishadi, shu qo‘ldan qolishmaydigan darajada tegirmonchining noniga sherik bo‘lishadi. Shu tarzda bechorani rosa holdan toydirishadi. Hikoya oxirida tegirmonchini qo‘ldan qutqarish uchun uyini xarobaga aylantirishadi. Oqibatda o‘g‘ri qo‘ldan qutilish uchun yordam istagan tegirmonchi butkul parokanda bo‘lib, hatto uysiz qolib ketadi. Xalqning haqini yeb o‘rgangan mahalla raisi esa tegirmonchiga “yordam” sifatida chodir hadyaetadi. Umuman, hikoya jamiyatda ildiz otgan eng katta muammolar – adolatsizlik, nopoklik, xaromxo‘rlikni tanqid ostiga oladi. Asardagi yopiq makon – uy (Salom

tegirmonchining uyi) esa butun boshli jamiyatga, davlat(lar)ga ishora etadi. Demak, yopiq makon ramziy ma’noda berilganda kengayish xususiyatiga ega.

Nazar Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasida ham barcha voqealar uy – xonada kechadi. Qahramonni tashqi makon bilan bog‘laydigan vosita xona derazasidir. Ushbu qissa xronotopi sintetik shaklda voqelanadi. Ya’ni qissadagi real zamon-makonning noreal zamon-makon bilan uyg‘unlashuvi asar xronotopining sintetikligini ko‘rsatadi. Asarda Tersota qishlog‘ining qissa matnining u yoq-bu yog‘ida “qalqib chiqadigan” tasviri yoki ijara uy xronotopining ijarachi ona va qiz fe’l-atvorini tasvirlashda g‘ira-shira ko‘rinib qolgan, “eski, tanazzuli muqarrar uy” suvratidan boshqa real makonni uchratmaysiz. Qissa qahramonining Sulaymon bilan uchrashgan bog‘ yoki shaytonlar boshlig‘i bilan uchrashuv joyi (qandaydir bino yerto‘lasi)ning mavhumligi ham asarning aniq makonda yuz bermayotganligini ifodalaydi; ular konkret va batafsil muayyan geografik joy sifatida tasvirlanmaydi. Qahramon yashayotgan xronotop (ijara uy) uning o‘y-mulohazalarida aks etgan mavhum xronotop bilan aralashib, tutashib ketadi.

Retrospektiv vaqt oqimi orqali qahramon o‘tmishiga, bolaligiga, u kechgan Tersota makoniga ko‘z tashlaydi. Yana ortga qaytadi, shunda zamon-vaqt yanada konkretlashadi: “Shayton ham xonamda mana shunday yoz kechalarining birida, hali Sulaymon bilan tanishmasdan oldin... “beorom o‘tgan” tunlarda paydo bo‘lgan edi” [Eshonqul N. 5:164].

Muallif qissa syujetida bu kabi noreal tasvirlarni qo‘llab, qahramon “yashayotgan” zamon-makon bilan azaliy (Sulaymon payg‘ambar, Antoniy, Sezar, Kleopatra mavjud bo‘lgan) zamon-makonlarni osongina birlashtira oladi. Qissadagi ana shu uzoq va ulkan xronotop voqealar ro‘y berayotgan asosiy vaqt-zamon – tun bilan “niqoblanadi”. Qahramon tilidan aytiladi: “Tunda mening boshqalarnikiga o‘xshamaydigan umrim boshlanadi. Tunda men o‘tgan kunlarim va kelajagim bilan uchrashaman: ular xuddi so‘nayotgan yulduzlarday ko‘z oldimdan bir-bir uchib o‘tadi” [Eshonqul N. 5:163]. Umuman olganda, “vaqt o'tishi bilan makonning o'zgarishi; qahramonlarning makon haqidagi tasavvurini o'zgartirish; va eng muhimi -kosmos chegaralarida tasvirlangan voqealarning ochilishi bilan badiiy asarning syujet-fabula poetikasida makon ochiladi. Voqealar maydoni (syujeti) nafaqat «hodisalar doirasi» ni, balki qahramonlarning harakatlariga to'sqinlik qiladigan yoki osonlashtiradigan fazoviy muhitni (ob'ektiv, tabiiy, ijtimoiy) tavsiflaydi. Syujetnitahlil qilishda jarayon va hodisaning, harakatning joylashuvi va voqealar vaqti mos kelishi muhimdir” [Рыбальченко Т.Л. 3:57]. Tun, yolg‘izlik, uy yopiq makoni

qahramon ruhiy holatini yaqqol aks etishiga xizmat qilgan. Bu orqali asar g‘oyasi, muallif qarashlari ravshanlashgan.

Demak, “Tun panjaralari” qissasida ikkita xronotop chizig‘i ko‘zga tashlanadi. Bularning birinchisi, real (obyektiv) xronotop chizig‘i bo‘lib, u boshqa bir ikkinchi – syujet vaqti uchun noreal xronotop bilan uyg‘unlashadi va umumiylik (umum zamon-makoniylik) kasb etadi. Bu holat esa muallif “men”i va adabiy ideali bilan bog‘liqlik o‘laroq vujudga kelgan.

Nazar Eshonqulning “Ozod qushlar” hikoyasida ham o‘z uyidan ayrilgan sargardon inson obrazi aks ettirilgan. Hikoyada uy nafaqat issiq, xavfsiz joy, “uy – bu odamni qo‘llab-quvvatlovchi yoki barqarorlik illyuziyasini beradigan tasvirlarning timsolidir” [Башляр Г. 1:23], balki qadriyatlar, xotiralar saqlanadigan aziz, mo‘tabar makon, Vatan ramzi ham bo‘lib kela olgan. Mazkur hikoyada uy yopiq makonidan tashqari Q.maydoni ham tilga olinadi. Yopiq makon tegishlilik, chegaralanganlik mazmunini ifodalasa, Q.maydoni esa erkinlik, ozodlik, ruhan kenglik ma’nolarini ifodalaydi.

Xullas, badiiy asarlarda makon, odatda, matnni ikki tarzda mazmuniy boyitish vazifasini bajaradi: yuz berayotgan voqealar qahramon tomonidan analiz-sintez qilinar ekan, mavjud makon-muhit qahramon o‘ylari orqali anglashiladi. Bu asarning obyektiv mazmunini ta’minlaydi. Yana bir xususiyati badiiy makon psixologik qobiq bo‘lib, muallif g‘oyasini yanada aniqlashtiruvchilik vazifasini bajaradi. Nazar Eshonqulning hikoyani xolisona, betaraf bayonchilik yo‘lidan borishi, muallif dunyoqarashini bevosita emas, balki qahramon ongi orqali ochib berish uslubi badiiy makon tanlovida ham seziladi. Badiiy makonning ramziy ma’no xususiyatlari asarga yana bir qo‘shimcha ma’no yuklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Башляр Г. Поэтика пространства / Пер. с франц. – М.: «Российская политическая энциклопедия» (РОССПЭН), 2004. – 376 с.
2. Лотман Ю.М. В школе поэтического слова: Пушкин. Лермонтов. Гоголь: Книга. для учителя. - М., 1988.
3. Рыбальченко Т.Л. Образный мир художественного произведения и аспекты его анализа: Учебно-методическое пособие. – Томск: Изд-во Том. ун-та,2012. – 130 с.
4. Eshonqul N. Saylanma: I tom. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.
5. Эшонқул Н. Ялпиз ҳиди. Қиссалар ва ҳикоялар. –Тошкент: Шарқ, 2008. – 400 б.

ANVAR OBIDJON IJODIGA CHIZGILAR

Xurshida Xamrakulova,
Toshkent amaliy fanlar universiteti
filologiya fanlari doktori, professor
E-mail: xurshida2745@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon ijodi xususida fikr bildirildi. Asarlarining o‘rganilishi kabi masalalarga daxl qilingan. Ijodkorning turli yillarda yozgan asarlari, xatto shoir hayot mahalida shaxsiy arxividan olingan manbalardan ham foydalanildi. Shu asnoda shoirning badiiy mahoratiga oid xulosalar chiqarildi.*

Kalit so‘zlar: *Bolalik olami, bolalar she’riyati, nasr, qissa, hikoya, mitti roman fojia, pyesa, janrdagi yangilanishlar, yumor, hajv, adabiy tanqid*

Аннотация: *В статье освещается творчество народного поэта Узбекистана Анвара Обиджана, рассматриваются вопросы изучения его произведений. К анализу привлечены произведения, написанные поэтом в разные годы, даже источники из личного прижизненного архива литератора. Автором статьи были сделаны выводы о художественном мастерстве поэта.*

Ключевые слова*: Мир детства, детская поэзия, проза, новелла, повесть, мини роман-трагедия, пьеса, жанровые обновления, юмор, сатира, литературная критика.*

Abstract: *The article expresses an opinion on the work of the national poet of Uzbekistan Anvar Obidjon. The life and work of the poet are discussed, as well as the study of his works. The works written by the artist in different years, even sources from the poet’s personal archive were used. Anvar Obidjon’s poetry, prose, fairy tales and dramas have also been studied. At the same time, conclusions were drawn about the poet’s literary abilities.*

Key words: *Childhood world, children’s poetry, prose, short story, story, short novel tragedy, drama, genre renewal, humour, satire, literary criticism.*

Anvar Obidjon o‘zbek bolalar adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan serqirra ijodkor edi. Anvar Obidjon ijodini monografik tarzda o‘rganish ijodkor hayotlik vaqtidan, aniqrog‘i, 2000-yillardan boshlandi. Uning dastlabki tadqiqotchilari sifatida Zamira Ibrohimova (“Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar”), Abdug‘afur Rasulov (“O‘zlik sari yo‘l”), Qahhor Yo‘lchiyev (“Poetik olam sirlari”)larni ko‘rsatish mumkin. Bu o‘rinda Q. Yo‘lchiyev shoir ijodidagi ignabarg va uchchanoq she’rlarga to‘xtalgan bo‘lsa, A.Rasulov asosan shoirning hangomalariga urg‘u beradi. Shunga qaramay A.Rasulov bolalar adabiyotidagi muhim nuqtalarga e’tibor qaratgan, ijodkorning “Oltin yurakli Avtobola”, “Meshpolvonning janglari”, “Alamazon vauning piyodalari” singari asarlari haqida alohida-alohida tadqiqotlar yaratish mumkinligini qayd etib o‘tgan.

Zamira Ibrohimovaning “Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar” garchi muallif uni shoir adabiy portretiga chizgilar deb belgilagan bo‘lsa ham, bolalar olami, uning butun jilosini Anvar Obidjonning bolalar adabiyotiga oid asarlari misolida batafsil

ochib bergan tadqiqotlardan biri hisoblanadi. Munaqqid tadqiqotida shoirning bolalar tabiatini nozik his etishi, o‘z asarlarini qanday shaklda, qaysi janrda yozishidanqat’i nazar, bolalarning “kulgiga o‘ch xalq” ekanligini hech qachon unutmasligae’tibor qaratadi. Shuningdek, bolalar adabiyoti, uning taraqqiyotiga ham nazar tashlagan olima bu adabiyotning umumiy jihatlari bilan birga shoir ijodidagi xususiylikka, ya’ni qahramonlari portreti bir-ikki shtrix bilan yaxlit qiyofa kasb etishi,bola ruhiyatiga ta’sir qilishda portretga murojaat, shoir she’rlarining badiiyligiga xos yetakchi xususiyatlar yumor, ozgina quvlik, sho‘xlik, hazil, kinoya vositalariningmo‘lligiga e’tibor qaratadi. Tadqiqotda Anvar Obidjonning “Siz eshitmagan qo‘shiqlar”turkumi o‘zbek bolalar adabiyotini yangi pog‘onaga ko‘targani alohida qayd etiladi. Darhaqiqat, tadqiqotchining “*shoir hamma-hammasining o‘z qo‘shig‘i, boshqalarga aytgisi kelayotgan o‘z so‘zi borligini bolalar qalbi va ongiga navobaxsh satrlar orqali yetkazadi. Bu qo‘shiqlarni tinglar ekansiz, har bir “xonanda”ning hayotga bo‘lgan muhabbatini, olamda mavjudligiga shukronalikni tuyasiz hamda dunyodagi jamiki jonli-jonsiz narsalar ezgulikka, mehrga zor va tashna ekanligini chuqur his etasiz*”[6;23] degan fikrlari asosli. Eng muhimi, bu qo‘shiqlar kichkintoylarni tevarak-atrofga befarq, qaramaslik, shafqatliroq, rahmdilroq bo‘lish, tabiatni iloji boricha asrab-avaylash kerakligi borasida o‘zlari uchun muhim xulosalar chiqarishga undaydi. Z.Ibrohimovaning tadqiqoti shoir ijodini bosqichma-bosqich tahlil qilgan asarsifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik Baxtiyor Nazarov “Anvar Obidjon she’rlarida poetik go‘zallik” nomli maqolasida “bolalarga bag‘ishlab yozilgan beozorgina va benihoya go‘zal, hazil-mutoyibalarga boy she’rlari qatorida tagzaminida juda chuqur ijtimoiy ma’no va maqsadlar tovlanib turuvchi asarlari o‘z davridagi she’riyatimizni bezab turishi bilan bir qatorda muallifning ijodiy jasorati sifatida ham qimmatlidir” deb yozgan bo‘lsa, O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov haqli ravishda “Anvar Obidjon bilan faxrlanaman” deb yozgan edi. Miraziz A’zam ta’biri bilan aytganda, “bolalarning minnatsiz xizmatkori” bo‘lgan Anvar Obidjon bolalar she’riyatida o‘ziga xos maktab yarata oldi.

Anvar Obidjon yubileyi munosabati bilan o‘tkazilgan respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarining o‘tkazilib turishi ham shoir ijodiga yorqin munosabatni belgilaydi.

Anvar Obidjon turli yillarda chiqqan she’rlarini ma’lum bir tartibga solib, “Kulchalar”, “Do‘mboqchalar dunyosi”, “Ajoyibxona”, “Dalalardan bolalarga”, “Bulbulning cho‘pchaklari”, “G‘alati maktublar”, “Siz eshitmagan qo‘shiqlar”, “Gurungdagi gaplar”, “Ignalarim chiroyli”, “Kalamushlar kemasi”, “Mening

kolleksiyam”, “O‘zimizbop yallalar”, “Shirin so‘ylar jajjivoylar”, “Botirvoyning kundaligi”, “Polosonlik polaponlar”, “Egizakdir o‘tmish va ertak” kabi nomlar bilan atadi. Bu to‘plamlarda avval nashr qilingan asarlar bilan bir qatorda shoirning keyingi yillarda yaratgan she’rlari ham joy oldi. Kitoblarning har biriga to‘plamning xususiyatidan kelib chiqib qisqa so‘zboshilar yozdi. “Do‘mboqchalar dunyosi” kitobiga yozilgan so‘zboshi, birinchi galda, shoirning bosib o‘tgan ijodiy yo‘lidan chiqargan xulosasidir: “*Daraxtlarning hayoti ko‘chatlikdan, insonlarniki bolalikdan boshlanadi. Menimcha, odam ulg‘aygani sayin bolalikdagi xususiyatlarini qancha ko‘p saqlab qololsa, soddadil, ochiqyuz, samimiy kishi sifatida shuncha ko‘p yoqimtoy bo‘lib turaveradi. Agar aksincha bo‘lsa, har ehtimolga qarshi, unday kimsalardan nariroqda yurgan ma’qul deb o‘ylayman.*

Bolalarga atab talay asarlar bitdim, ularning qiziqdan qiziq qiliqlarini, ajibdan ajib odatlarini, shirindan shirin gaplarini bor nazokati bilan tasvirlab berishga chiranib keldim. Oxiri shu narsani anglab yetdimki, olamdagi eng mukammal, eng ajabtovur asar bolalarning o‘zlari ekan” Bu iqror ijod mohiyatini tushunishga yo‘l ochadi. Uzoq yillik ijodiy yo‘lga tugal mazmun baxsh etadi. Shoir o‘zi to‘g‘ri qayd etganidek, “olamdagi eng mukammal, eng ajabtovur asar bolalarning o‘zlari”dir. “*Sodda va lo‘nda gapirishni, dangal va samimiy kesatishni, g‘uborsiz kulishni bolakaylardan o‘rgangim keladi,* – deb yozadi shoir “Kulchalar” to‘plamiga yozilgan so‘zboshida. – *Kichkintoylardagi bu hayratomuz fazilat, ayniqsa, ularning serqaymoq aytimlarida yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. “Kulchalar” turkumiga jamlangan ixcham she’rlarim o‘sha termalar ta’sirida yozilganini, mayli, yaxshilikcha bo‘ynimga olib qo‘yaveray*[3.56].

Shoirning Anvar Obidjon bilan suhbatlarning birida shoir o‘zining har vaqt bolalar bilan birga bo‘lishga harakat qilganini, hatto talabalik yillari ijarada yashab yurganida ham o‘rtoqlaridan farqli o‘laroq ko‘p bolali odamlarning uylarida ijarada turishni ma’qul ko‘rgani, bolalar uning ijodiga turtki bergani haqida aytib bergan edi. Shoir she’r yozishi uchun muvozanatdan chiqara oladigan hayotiy voqea sodir bo‘lishi kerak. Bolalar hayoti, gap-so‘zlari, fe’l-atvorlari tutumidan o‘ta zavqlanish bolalar shoirini muvozanatdan chiqara oladi. Demak, shoirga bola ilhom beradi. Bolalar adabiyoti vakili hayotga bir tomondan, o‘z nuqtayi nazari bilan, ikkinchi tomondan, bolalarcha nazar tashlay olishi bilan yaratig‘iga mazmun bag‘ishlay olishi kerak. Buning uchun ijodkor bir yo‘la ikkita hayot, o‘zining va bolaning hayotini tengdan yashay olishi lozim. Shuni uddalagan ijodkor tom ma’nosi bilan bolalar adabiyotining vakili bo‘lishga munosib.

Shoir she’rlarida bola fe’l-atvoriga oid, tabiat manzarasiga xos topilmalar, ramziy obrazlarda xarakter qirralarining namoyon bo‘lishi, hayvonot va parrandalar olamining ajabtovur tabiati kabi xususiyatlar yetakchilik qiladi.

She’rda bola tabiatining namoyon bo‘lishi borasida Anvar Obidjon mahorati beqiyos. Ayniqsa, bolalarning sodda tabiati, atrof-olamga munosabati, bolalarcha dangallik, chiqargan hukmlari tasvirini bezavq o‘qish mumkin emas. Ijodkorning “Birinchi maqtov”, “Botirvoy yozgan marsiya”, “Fatxillaning kurkasi”, “G‘amxo‘rlik” kabi she’rlarda bu yaqqol namoyon bo‘ladi. Bola olamining poetik manzarasi tasvirida yumor katta o‘rin tutgan. Shoir kulgi qo‘zg‘atadigan o‘rinlarni mohirlik bilan topa biladi:

– Ko‘rinmaysan, Mamajon?
– O‘qiyapman, ammajon.
– O‘qishlaring durustdir?
– “Balli!”– dedi direktor.
– Nega “balli” dedi u?
– Shoshib kelar edi u,
Men darrov yo‘l bo‘shatib,
Salom berdim o‘xshatib! **(“Birinchi maqtov”)**[2;8]

Agar “Balli!” so‘zi she’rga ikki xil mazmun bag‘ishlashi bilan kulgi qo‘zg‘atsa, “Fatxillaning kurkasi”da kurka uchun Fatxilladan o‘ch olishning yechim sifatida qo‘yilishi kulgi qo‘zg‘aydi:

Kelib Norga arz qildi
To‘rt yasharli ukasi:
– Meni quvdi,
Atajon,
Patpillaning kulkasi.

G‘ijinib musht tugdi Nor:
– Boplab qasos olamiz.
Kurkani...
Yo‘q, yaxshisi,
Fatxillani solamiz. **(“Fatxillaning kurkasi”)**[1;11.]

She’rdagi hukm shoirning “Husanchaning po‘pisalari” asarida ham kuchaygan shaklda uchraydi:

Agar meni ursang, Hasan,
Yuragimda o‘ch yig‘aman.
Sezdirmay saryog‘ingni yeb,
Mushtlashgani kuch yig‘aman.

Anqayibroq turganingda,
Sutchoyingni ichvormayin.
Bitta saqich qarz beruvding,
Shu qarzimdan kechvormayin. **(“Husanchaning po‘pisalari”)[]**

Husanchaning Hasanga zo‘rlik qilishi, qo‘rqoq oldin musht ko‘tarar qabilidagi po‘pisalari shoirning “Diqqat” she’rida avjiga chiqadi. Endi quruq po‘pisa ish bermaydi:

– Jigarrang-ku
Bu tariq.
– Qo‘ysang-chi,
U – to‘q sariq.

– Men aytdimmi,
Jigarrang!!!
…Janjal tamom,
Endi – jang!

Anvar Obidjon she’rlarida tinish belgilarini “gapirtiradi”. Bu belgilarni chindan “tinglay olsangizgina” jonli lavhalar harakatini his qilasiz. Bolaning topqirligi, uning turli vaziyatdan oson chiqib keta olishiday qobiliyati shoirning “G‘amxo‘rlik” she’rida ham yaxshi namoyon bo‘lgan:

Kirib kelib
Ko‘chadan,
Norga dedi yosh Rustam:
– Xo‘tikchangni minaylik,
Tinib qoldi yomg‘ir ham.

Nor der:
– Avval topib kel
To‘rt poy eski etikni.
Loyda minish yaxshimas
Yalangoyoq ho‘tikni. **(“G‘amxo‘rlik”)**

Bolalar adabiyoti namunalari har doim ko‘z bilan ko‘rilganiday idrok qilinaveradigan, hayot manzaralariga mos bo‘laveradigan asarlar bo‘lavermaydi. Uning o‘ziga xos olami bor. Bu shunday olamki, unda bola dunyoni qanday anglayotgan bo‘lsa, nimani haqiqat sifatida ko‘rayotgan bo‘lsa shu muhim. Bu borada “Do‘mboqchalar dunyosi”ga kirgan asarlar fikrimizni tasdiqlaydi. Shoir “Xabar sotuvchi” she’rida yangi va eski gaplarni sotayotgan sotuvchining ajabtovur savdosi

bilan tanishtiradi. *“Surishtirmang narhini, Arzondan arzon. Xo‘rozqandga – rost xabar, Bodroqqa yolg‘on. Almashaman yangisin Kepaksiz unga, Eski gapni puch yong‘oq Yoki sovunga... ”*[2;4]. Shoir rost, yolg‘on, yangi, eski xabarlar orqali turli toifadagi obrazlarni gavdalantiradi. Bu xabarlar bolaning qulog‘iga ertakday eshitiladi. Shu tariqa bola-kitobxon vujudi quloqqa aylanib sotilajak xabarlarni kutadi. Shoir hayotda informatsiya katta kuchga ega ekanligini sodda bir yo‘sinda anglatadi. She’r davomida eng yangi xabarlardan biri Burgutni Kaptar tushida yeb qo‘ygani, yo‘lbars terisini yopingan quyon ko‘zgudagi aksini ko‘rib hushidan ayrilgani haqida noodatiy qiziqarli ma’lumotlar beriladi. Tasvirdagi qiziq lavhalar, hayvonlarga xos fe’l-atvor yengil mutoyiba shaklida ifoda etiladi:

O‘tgan kuni Tulkivoy
Opkelib xo‘roz,
Hiringladi Bo‘riga
Taltayib biroz.

Bo‘ri esa xush ko‘rmas
Hazil, kulkini.
Avval yedi xo‘rozni,
So‘ngra Tulkini.[2;4.]

Xullas, muallif bolalar sotib olsa zarar ko‘rmaydigan xabarlardagi yengil yumor bilan katta jiddiy umumlashmaga erisha oladi. Bu ramziy obrazlar shunchaki kulgi qo‘zg‘amaydi, balki unda inson fe’l-atvorini anglab borish yo‘llaridan saboq beriladi.

Anvar Obidjon she’rlari ko‘pqatlamliligi bilan ham yaqqol ajralib turadi. Bu jihatdan shoirning “Kalish afsonasi” she’ri ahamiyatlidir. Kalishvoy o‘zining kim ekanligini anglamagan, haddini bilmagan obrazdir.

Seni kiyib olishib,
Rosa kezib yurishdi.
Yo‘lakdagi xaslarni
Dangal ezib yurishdi,
Kalishvoy.

Pisand qilmay qararding,
Eh, o‘zingdan pastlarga...
Oxir seni yoqishdi
Qo‘shib o‘sha xaslarga,
Kalishvoy.[2;11.]

Shoir kalishvoy tipidagi kimsalarni kulgi ostiga olar ekan, har bandda ta’kidlanayotgan “Kalishvoy” so‘zida kuchli zaharxanda aks etayotganini payqash qiyin bo‘lmaydi. Muallif bunday kimsalar taqdiridan o‘zgalarni ogoh etadi.

Shoir hayotiy manzaralardan obraz yaratadi. O‘zi ko‘rayotgan manzaraga kitobxon e’tiborini tortadi. Insonni tabiatning o‘ziga xos olamiga yetaklaydi, undan go‘zallik topa oladi. Shoir ijodida bunga yuzlab misol topish mumkin. Bu o‘rinda Anvar Obidjonning “Osmondan tushgan sozanda”, “Muzbaldoqlar” she’rlari fikrimizga misol bo‘la oladi:

Ko‘rganmisiz
Turli sozni
Chala olgan mashshoqlarni?
Men barglardan chang yasayman,
Dutor qilib boshoqlarni.
Goh uraman chirmandani
Tomingizni tiriqlatib.
Tomchilarni o‘ynataman,
Ko‘lmaklarda
Diriklatib. **(“Osmondan tushgan sozanda”)**[2;9]

Shoir nazarida yomg‘ir – osmondan tushgan sozanda. U barglardan chang yasaydi, boshoqlarni dutor qiladi. Tomlarni tiriqlatib chirmanda qiladi. Shu tariqa ko‘lmaklarlarda tomchilarni dikirlatib o‘ynatadi. Kishi e’tiborga olmaydigan manzara shoir nazarida katta orkestrni harakatga keltiradi. Shuning uchun:

Lol qolasiz
Qiyoqlardan
O‘zim g‘ijjak yasab olsam.
Uzun-uzun zinalarni
Pianino qilib chalsam.

Meni oddiy yomg‘ir deysiz,
Bilmaysizki – sozandaman.
Sozandani sevar hamma,
Shuning uchun
Arzandaman. **(“Osmondan tushgan sozanda”)**[2;9]

degan fikrlarga kitobxon ishonadi. O‘zi ham shu manzarani qayta kuzatgisi keladi. Birgina yomg‘ir shuncha manzara yasay olishidan zavq tuyadi.

Turar goho osilib
Tomda – tarnov og‘zida.
Novdalarning shoxiga

Pilik taqar gohida.

Tom chetida – “muzburun”,
Tol shoxida – “muzbaldoq”...
Qush-u hayvonlar uchun
Bular balki muzqaymoq. **(“Muzbaldoqlar”)**

“Muzburun” va “muzbaldoq” obrazlari o‘ziga xos topilma sifatida kishi xotirasiga muhrlanadi.

Anvar Obidjon – o‘ta sinchi shoir. Ijodkor o‘zi tasvirlayotgan lavhadan zavq tuya olsagina kitobxonni ham shunga oshno qila oladi. Bu holat uning “So‘nggi axborot” she’rida bo‘rtib ko‘rinadi:

Bo‘lib o‘tdi qishloqda
Kecha zo‘r shamol.
Natijada ro‘y berdi
Anchayin kor-hol. [2;10]

Kor-hol shundan iborat ediki, shamolning zo‘ridan “Uzum boshi aylanib kasal bo‘lib “ qoladi, Olma shoxdan yiqilib “o‘sal” bo‘lib yotibdi. To‘qnashuvda “lat” yegan “abjir” Gilos, Anorga “chaplangan” Anjir, “Qornini shamollatgan Oshqovoq polvon”, “burni pachoq” bo‘lgan “Mulla Baqlajon”, uyquchi Tarvuzning yumalab borib Qovunning boshini yorib uyg‘onishi, noklarning “bir jom” bo‘lib yerga to‘kilishigacha tasvirga tortiladi. Faqat birgina Sabzi va Sholg‘omning zarar ko‘rmagani sababini bu o‘rinda shoir izohlab o‘tirmaydi. Bir tomondan kuzda yetilgan mevalar, ikkinchi tomondan fasldagi ob-havoning injiqligi shoirning kuz fasli manzarasini obrazli ifoda etgan.

Shamollatdi qornini
Oshqovoq polvon.
Pachoq qildi burnini
Mulla Baqlajon.
Uyqichiroq bir Tarvuz
Yumalab borib,
Uyg‘onibdi, Qovunning –
Boshini yorib.
Noklar yyerga to‘kildi
Bo‘lishib bir jom...
Ammo zarar ko‘rmadi
Sabzi va Sholg‘om.[2;10]

Anvar Obidjon ijod uchun o‘zgani anglash, uni tinglash muhim ekanligini hamisha his qilgan. Negaki, bolalar adabiyotida tinglay olishga katta sabr, tushuntirish uchun borliqni tushunish kabi omillar asarni yaratishdagi ilk bosqich

hisoblanadi. “Shirin so‘ylar jajjivoylar” turkumida “*Qani, bolalar, bu yoqqa o‘tiringlar-chi. Ana, qand-qurslar, naridagisi – o‘yinchoqlar. Istasalaring, tabiatni kezinglar. Ishqilib, mendan uzoqlashib ketmasangiz bo‘lgani.*

Bemalol chaqchaqlashaveringlar. Men shunchaki eshitib turaman xolos. Keyin, u yog‘ini o‘zim bilaman” deb yozgani ham bejiz emas.

Shoirning tabiat hodisalari, hayvonlar, parrandalar, jismlarning tovushini eshita olishi, uni ichdan his qila bilishi, erinmay tinglashi, uni kitobxonga anglata bilishi, ulardan jonli lavhalar yaratishda foydalana olishi bitta narsaga -– qahramonining kimligini anglatishda, portret chizishda, kulgi va hayrat bilan voqelikni tasdiqlashda shoirga qo‘l keladi. Shoirining “Siz eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi buning yaqqol isbotidir.

“Odamlar quvonganda ham, o‘kinganda ham, beixtiyor qo‘shiq ayta boshlashadi. Shu tufayli ashulalarning biri jo‘shqin, boshqasi mungliroq.

Ammo faqat odamlargina kuylashni biladi deb o‘ylasangiz, qattiq yanglishasiz. Masalan, Siz Koptok yoki Buzoqboshining, Sichqon yoki Shippakning xirgoyi qilganini ko‘rganmisiz? Payqab turibman, bu gapimdan so‘ng es-hushimning joyida ekaniga biroz shubha bilan qarayapsiz. Lekin men bundan aslo xafa emasman. Siz- ku, hali bolasiz, bundan bir necha yillar oldin hatto ayrim oliy ma’lumotli noshirlar ham menga nisbatan aynan shunday kayfiyatda edilar. Dalil-isbotlar ko‘rsatib, ularni so‘zimga zo‘rg‘a ishontirganman.

Sizlarga ham ashyoviy dalillar zarurga o‘xshaydi, ular esa menda juda ko‘p. Marhamat, o‘zingiz bir boshdan titkilab chiqaqoling”[3;101.].

Shoirning kamtargina so‘zboshisidan so‘ng oltmishdan ortiq jonivorlar va jismlarning qo‘shiqlari beriladi. Hamma qo‘shiqlar o‘zlarining sifatidan kelib chiqadi. She’rlarni o‘qir ekansiz, “Kakra-kak” (“Kaklik qo‘shig‘i”), “Bak-baka-bum” (“Chirmanda qo‘shig‘i”), “Ship-ship-ship” (“Shippak qo‘shig‘i”) kabi bir necha o‘nlab kuylarga guvoh bo‘lasiz. Bir bu turkumda emas, shoirning “Guldor Pufakcha” kabi she’rlarida ham tovushlarda jam bo‘lgan qiyofalar mavjud. Shoir tovushlar tinglash va anglashga o‘rgatibgina qolmaydi, bu tovushlar o‘z egasining betakror obrazlarini yaratishga xizmat qiladi.

Shoirning tovushlardan so‘z undira olish mahorati “Cho‘chqa”, “To‘tining talabalari”, “Chyet tili” kabi she’rlarida ham aks etgan. Odamdek gapirishni o‘rganmoqchi bo‘lgan bir necha jonivor To‘tiga yalinishadi. To‘ti bu mushkul ishga rozi bo‘ladi:

Qani, aziz talabalar,
“Ar-r-rabaliq” denglar-chi.
Qarg‘a dedi:

– Qar-r-rabaliq!
“Ir-r-rabaliq” dedi It.
“Xur-r-rabaliq” dedi Cho‘chqa,
Mayna dedi:
– Vit-vit-vit. **(“To‘tining talabalari”)**[1;22.]

Anvar Obidjon jonivorlarning asl tabiati ularning tovushlarida ham aks etishi, ular o‘zgacha bo‘lolmasliginining badiiy talqinini berar ekan, aslida qanday bo‘lsang, shunday ko‘rin degan falsafaga ishora qiladi. Shu bilan birga shoirning jonivorlar olamining katta kuzatuvchisi ekanligi, bu olamning sehrli musavviri sifatida bolalarni rom qilish qudratiga ega ulkan iste’dod egasi ekanligi ham ko‘rinadi.

– Ruschasiga “olcha” nima? –
Deb so‘radi Zag‘izg‘on.
– Vish-sh-nya, – deya
Javob qildi,
O‘ylab turib Suvilon.

– Xo‘sh,
“Makka”ning ruschasi-chi? –
Savol berdi satang G‘oz.
– Quqquruza, quqquruza! –
Deb qichqirdi yosh Xo‘roz. **(“Chet tili”)**

Anvar Obidjonning “Mulla baqaloq”(2018) to‘plamida bog‘cha yoshidagi bolalar uchun moslangan bir qator she’rlari o‘rin olgan. Bu she’rlarning hammasi to‘rt bo‘g‘inli bir zarb bilan o‘qiladigan she’rlar hisoblanadi. Anvar Obidjon qisqa satrlarda quyma obrazlar yaratishga erishgan.

Mushuk bibi
Miyov, dedi.
Menga qarang,
Kuyov, dedi.

Bozorga tez
Borib keling.
Shirin sichqon
Olib keling. **(“Kelinposhsha”)**[4; 10]

Odatda, bolalar uchun yozilgan she’rlarning sarlavhasi she’r mohiyatini ochishda katta o‘rin tutadi. Shoir sarlavhaga ko‘p vazifa yuklaydi. Natijada, she’r sarlavhasida tasvirdan chiqarilgan xulosa va hukm anglashilib turadi. “Velosiped buzilganda”*(“Yuz-qo‘lini Qilib moy, Urinar yosh Sotimboy. Kulib boqar Sotimga, Tagi ko‘chgan Botinka”)*, “Uch yoshlilar” *(“Olmaniyam G‘ajiyman, Holvaniyam*

G‘ajiyman... Dema nechta tishing bor? Seni nima ishing bor”), “Yaylovni sog‘ingan qo‘y” *(“Ishlar qalay, Desam Qo‘y – Javob berdi Surib o‘y: – Kamchilik yo‘q Oziqdan... Bezor bo‘ldim Qoziqdan”)* kabi she’rlarda muallif sarlavha tanlash mahorati bilan bir qatorda kutilmagan obraz (“Kulib boqar Sotimga, Tagi ko‘chgan Botinka”), bolaning dangalligi (Seni nima ishing bor?”), ozodlikka intilish (Bezor bo‘ldim qoziqdan”) kabi so‘zni saylab ishlatish mahorati ham aks etib turibdi. Bu holat shoirning boshqa to‘plamlariga kirgan asarlarida ham kuzatish mumkin.

“Ajoyibxona” shoir yaratgan she’riy to‘plamlar orasida alohida o‘ringa ega. Bu haqda shoirning o‘zi shunday yozadi: *“Qumursqadan tortib Filgacha, Itbaliqdantortib Kitgacha, Chivindan tortib Lochingacha – hamma-hammasi xuddi sizu biz kabiona Sayyoramizning teng huquqli farzandlaridir. Odamzod mana shu zamindagi eng oliy mavjudot ekan, o‘zga borliq jonzotlarni asrab-avaylash, “ojiz jigarbandalari”ga muttasil g‘amxo‘rlik qilish uning muqaddas burchidir. Turli jonivorlar haqida yozishga qattiq berilganim ana shu burchni ozmi-ko‘pmi his qilganimdan bo‘lsakerak.*

Jonzotlarga bag‘ishlangan ushbu turkumni “Ajoyibxona” deb atadim, chunki nihoyatda ajabtovur olam bu”[2;30.]. *T*o‘plamda ko‘plab she’rlar qatorida “O‘rmonda ziyofat”, “Hammomdagi mojaro”, “Bahonachilar kasalxonasi”, “Sport maktabi”, “Bo‘rining tabib bo‘lgani” kabi ko‘pchilikka manzur bo‘lgan she’riy ertaklari ham o‘rin olgan. Shoirning yana jonivorlar tabiatiga bag‘ishlangan, ularning gurungiga oshno qiladigan “Gurungdagi gaplar”, jonivorlar tarjimayi hollaridan iborat “Ignalarim chiroyli”, jonzotlarning yashash tarziga bag‘ishlangan ikkiliklardan iborat “Kalamushlar kemasi” turkumlari ham bir o‘tirishda o‘qib chiqiladigan, ajobtovur olamning sir-sinoatlariga o‘quvchini oshno qiladigan asarlardir.

Anvar Obidjon xayolot olami keng ijodkor. Mana shu kenglik bolani ham ortidan erashtiradi Go‘yo shoir ortidagi bola ertak olamiga sayohat qilayotgandek bo‘ladi. Shoir har bir turkumning yaratilishiga muayyan asos topadi va ularni so‘zboshilarda aks ettiradi. Muallif “*Jonzotlar gurunglashaverdi, gurunglashaverdi, men chetda yonboshlab, biri biridan qiziq gaplarni tinglayverdim, tinglayverdim,juda maza qildim. Uyga qaytganimdan keyin ham, tunda shularni anchagacha o‘ylabyotdim.*

*Uyqum kelavermagach, chiroqni yoqdim-u, eshitganlarimni bir boshdan yozishga tushdim”*deya kitobxonni ham hayratga qoldiruvchi “Gurungdagigaplar”dan so‘z ochsa, *“Xonada yolg‘iz edim. Kekkaygan bir Suvarak qo‘qqisdan ichkariga kirib keladi-yu, menga xilviroq qog‘oz uzatib, dedi:*

– Jonzotlar haqida she’rlar yozarmishsiz. Mana, tarjimayi holim, shunga qarab turib, bizgayam biron narsa to‘qivoring.

Tokchadagi idish-tovoqlarga jalanglab nazar tashlaganicha yalanib turgan xira Suvarakni picha mehmon qilib, yaxshilikcha iziga qaytarganimdan so‘ng, kutilmaganda miyamga bir fikr kelib qoldi: “Boshqa jonivorlarga ham iltimos qilib, tarjimayi hollarini yozdirib olsam-chi?” deb savol berdim o‘zimga. Axir, eng muhimi, she’r uchun ma’lumot to‘plash, tayyor gaplarni qofiyaga solishdan osoni bormi?

Qisqasi, bu topilma menga juda qo‘l keldi. She’rlarim ko‘paygani sayin barcha mahluqot bilan iloji boricha yaqindan do‘stlashib olish koni foyda ekanligini chuqurroq tushunib yetyapman”[2;181.], – deya “Ignalarim chiroyli” turkumida jonivorlarning turli sifatlarga ega tarjimayi hollaridan xabar beradi. Turkumdagi hamma tarjimayi hollar baravar uch banddan tuzilgan. Har bir bandga vazifa yuklangan. Birinchi bandda jonivor o‘zini tanishtiradi, ikkinchi bandda o‘z hayotidan kichik lavhani bayon qiladi, uchinchi bandda esa nimaga qodirligini isbotlashga harakat qiladi:

Qarchig‘aydan qo‘rqaman,
Och Sordan ham qo‘rqaman.
Poylab kelar
Orqadan,
Shunqordan ham qo‘rqaman.

Qirg‘iy degan jangari
Xavfliroqdir yanada.
Hakkadan ham,
Har holda,
Yurgan yaxshi panada.

Mushukdan ham qo‘rqaman,
Kuchukdan ham qo‘rqaman…
Ushlab olsam
Chivinni,
Shartta bo‘ynin qirqaman.**(“Chumchuqning tarjimayi holi”)**[3;182.]

“Dalalardan bolalarga” shoirning o‘zi ta’kidlaganidek, dala-bog‘larni kezib yurgan paytlarida “*nafaqat odamlardan, balki turli ekin va dov-daraxtlardan ham o‘nlab interv’yular olishga musharraf”* bo‘lgan suhbatlarning natijasidir. Turkumdagi qirq bir o‘simlik o‘zini erinmay ta’riflaydi. Shoir portret yaratishda ham benazir. Bir-ikki qalam tekkizadi-yu, qiyofa shundoqqini ko‘z oldingizda yorqin namoyon bo‘ladi. Har bir ta’rif, ta’rifni boyituvchi xulosalar o‘quvchiga zavq

bag‘ishlaydi. Bu turkumdagi she’rlarning juda ko‘plari maktab darsliklaridan o‘rin olgan. Quyida bitta namuna bilan tanishamiz:

Hasad qilar menga mosh.
Mevalarim qalamqosh.
Bir tupimda yuz uya.
Uya to‘la loviya.
Loviyalar qorako‘z.
Silkitmasdan, asta uz.
Yo‘qsa, uyni ochishar,
Tirqirashib qochishar. **(“Loviya”)**[3;26]

Turkumni erinmay o‘qib chiqsangiz, “oltin tojli” Bug‘doy, “to‘lpoqqina” Paxta, “oltin qoziq” Sabzi”, “qorin qo‘ygan” Tarvuz, “bir boshi naq bir jomcha” bo‘lgan Uzum, “beg‘am” Sholg‘om, “gullamay meva tuggan”Anjir, “hidi shirin” Sarimsoq”, “askiyaga usta” Pista, “Qovun katta enasi bo‘lgan” Handalak, “pachavaroq asab”li Qalampir, “bananga qondosh” Bodring, “Sinior Pomidor” kabi o‘nlab o‘simliklarning g‘aroyib tabiatidan bahramand bo‘lasiz.

Bir vaqtlar “Sharq yulduzi” jurnalida Usta Gulmat tilidan yozilgan g‘azallar chop etilgan edi. G‘azallarning haqiqiy muallifi Anvar Obidjon bu janrda ham o‘z qobiliyatini namoyish qilgan edi. Uning keyingi davrlarda yaratgan turkumi “Bulbulning cho‘pchaklari” yana g‘azal shaklidagi she’rlarga murojaat qilgan. Turkumga bag‘ishlangan so‘zboshida shoir shunday yozadi:

“*Ajdodlarimiz meros qoldirgan durdona asarlarning deyarli hammasi aruz vaznida bitilgan. Ayni paytda, bu vaznda bolalar uchun juda kam narsa yozilgan.*

Kichkintoy zamondoshlarim qalbida g‘azalga qay tarzda ko‘nikma hosilqildirish ustida bosh qotirib yurgan kezim, tasodifan bir Bulbulcha bilan tanishib qoldim-u, mushkulim oson ko‘chdi. Qarangki, qishloqda tug‘ilgan oddiy qushcha bo‘lishiga qaramay, u she’r to‘qishga juda havasmand ekan. Tag‘in, yozganlarining hammasi g‘azal shaklida deng”.

Garchi shoir kamtarlik bilan *“Ha, she’rlarning shakligina g‘azalga o‘xshaydi, ya’ni unda aruz qonun-qoidalariga to‘liq rioya qilinmagan. Yanglishmasam, shoir qushchaning o‘zi o‘sha qonun-qoidalarni chuqurroq o‘rganib ulgurmagan ko‘rinadi.*

Umuman, bunga ajablanmasak ham bo‘ladi. Axir, bu g‘azallarni dono va zakovatli Burgut emas, savodi o‘rtamiyona bir Bulbulcha yozgan-da”[3;158], deb qayd etsa ham, aslida shoir bolalar uchun aruzona go‘zal ohanglar bilan she’r yozishning o‘ziga xos uslubini taqdim qila olgan. Bu turkumda qirqqa yaqin g‘azal tipida yozilgan asarlar bolalar uchun bu yo‘lda ham chiroy asarlar yaratish

mumkinligini ko‘rsatadi. Bu haqda Zamira Ibrohimova shunday deb yozadi: o‘zbek bolalar shoirlarining 30-yillardan keyingi avlodi aruzga ishonchsizlik bilan qaradilar, bolalar tushunmaydi, deb o‘ylab, unga mutlaqo murojaat etmadilar. Bu qadimiy an’anani Anvar Obidjon «Bulbulning cho‘pchaklari» turkumida qayta tiriltirishga harakat qildi”. U bolalar qalbida mumtoz adabiyotimiz namunasiga nisbatan qiziqish uyg‘otishda ma’lum ahamiyatga egadir.

Jonivorlarning fe’l-atvorini o‘ziga mos sifatlashlar bilan ifoda etgan “Salomnomalar”, “Tumshuqlar”, “Bepul tomosha” kabi bir qator asarlar tasvirning haqqoniyligi, mutoyibaga boyligi, beg‘araz kulgini uyg‘otishi bilan qalbingizga huzur bag‘ishlaydi.

Beg‘araz kulgi shoirning qo‘shiqlardan iborat “O‘zimizbop yallalar”da ham,turli buyumlarga atalgan “Mening kolleksiyam” turkumlarida ham uchraydi. Ammo shoirning kishini chuqur mushohada qilishga majbur qiladigan kashfiyotlari borki, bolalikning o‘ziga xos sof olami uni fojia deb qabul qila olmasligi bilan fojianing ko‘lamini ko‘rsata oladi:

To‘rtinchi “B” sinfdan
Ketib qolding sen nega?
Masalan,
Men bilvoldim
Nedir “kesim” va “ega”.
To‘polonchi Ahmadvoy
Bo‘lib qoldi sal mulla.
Yarashib ham olishdi
Yursun bilan Abdulla.
Progulchi Rahimning
Injiqligi yo‘qoldi.
“Ikki”chi Homit esa
Kecha bitta “uch” oldi…
Maqsudaxon ayamiz
“Uch” qo‘ymasdi hech senga.
…To‘rtinchi “B” sinfdan
Ketib qolding, ayt, nega?!

(“Xolnisoning qabridagi sopolga yozilgan she’r”)[1;176.]

Odatda, kundaliklar kunma-kun, sanama-sana qayd etib boriladi. Anvar Obidjon ijodida “Botirjonning kundaligi” turkumi alohida o‘ringa ega. Bir yillik muddatni qamrab olgan turkum bir-birini takrorlamaydigan lavhalar tasviridan iborat. Uning asosiy qahramoni Botirjon. Kundaliklar orasida Botirning akasi Bahodir, ukasi Bunyod ismlari bu kundalik muallifning farzandlari hayotidan olib yozilganini

tasdiqlaydi. Turkumdagi alohida lavhalar bir sujet chizig‘iga tizilib shoir shaxsiyatiga daxldor asar sifatida ijod laboratoriyasiga olib kiradi.

Anvar Obidjonning uch yuzga yaqin bolalar aytimlaridan iborat “Polosonlik bolalar” turkumi bolalar folklori yashovchanligini isbotidir. Shoir ta’kidlaganidek, “*Aytimlarning eng qoyil qoldiradigan tomoni ularda boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarning deyarli uchramasligidir. Bu hol, birinchidan, bolalar o‘zbekchada ota-onalaridan ko‘ra tozaroq gapirishini bildirsa, ikkinchidan, termalarning aksariyati juda qadimda to‘qilganidan darak beradi”.* Shu ma’noda Anvar Obidjon xayrli ishga qo‘l urgan. Bolalar folkloriga e’tibor susaygan bir davrda bir qishloq tevaragidagi aytim va termalarni yig‘ish va tizmaga solish bugun jiddiy hodisadir.

Anvar Obidjon o‘zidan boy ijodiy meros qoldirdi. Turli janrlardagi asarlari, bir janr doirasidagi kashfiyotlari o‘z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Garchi shoir “Mening kolleksiyam” turkumiga yozga so‘zboshisida “*Hozircha har xil joylarga va turli buyumlarga yozilgan oldi-qochdi she’rlarni yig‘ish bilan shug‘ullanib yuribman”*[2;170], – deb kamtarlik qilgan bo‘lsa ham, ana shu shoir nazaridagi“oldi-qochdi” asarlar o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyoti tendensiyalarini belgilashdao‘rin tutadigan asarlar hisoblanadi.

Anvar Obidjon – faylasuf shoir. U bolalar olamidan katta falsafa topa oladi. Chunki bolalikni anglash o‘zlik sari yo‘ldir. Uning qahramonlari ham hayotni toza ko‘rishga oshiqadigan, tiyrak nazar sohiblari. Ko‘pincha, kelajak, kasb tanlash haqida so‘z borganda ko‘z oldimizda turli kasb egalari jonlanadi. Ammo Odam bo‘lish insonlikning muhim sharti ekanligi har doim ham e’tiborimizdabo‘lavermaydi. Shoir “Odam bo‘laman” she’rida ana shu falsafani uqtiradi. Uning “moy tomchigan kiyimda” ko‘p joylarni kezib shofyor bo‘lishni, “oyni quchish” istagida fazogir bo‘lishni, futbolchi bo‘lishni, shifokor bo‘lishni orzu qiladigan qahramoni nihoyat **“** – *Tag‘in o‘ylab ko‘raman, Hammasi ham yaxshi ish. Faqat yalqov bo‘lmayman, Hecham tortmang Siz tashvish, Men... odam bo‘laman,dada!”*[1] – deganida otasiga qo‘shilib kitobxon ham – Balli, azamat!” – deb yuboradi.

Anvar Obidjonning “Qishloq va bolalar”, “Ertaklar” kabi jiddiy she’rlari ham aslida bolalar va bolalik haqida. Xalqimizda “Bolalik uy – bozor, bolasiz – uy mozor” degan maqol bor. Buning zaminida millatning buguni, ertasi va kelajagihaqidagi falsafasi jam. Bolasizlik millat uchun faqat fojiagina emas, or-nomus masalasi bo‘lib ham kelgani asarlarda ko‘p uchraydi. Shoir esa uni kutilmaganda o‘ziga xos usulda – hajvga yo‘g‘rilgan xazin ohang bilan tasvirlaydi.

Bolalarsiz qolsa qishloq,
Bo‘lar ekan juda chatoq,
Xom yeyilmay, pisharkan nok.
Huvillab eng gavjum uylar,
Bog‘cha, maktab, ko‘cha-ko‘ylar,
Ishsiz yotar ekan koptok.

She’r davomida bo‘sh sinfda o‘yga tolib o‘tirgan o‘qituvchi *(“Qani, biron bola topsa. Bilmasa ham o‘tgan darsni, Chizib bersa tayoq rasmin, „A’lo!“ derdi, maqtab rosa.”*), ko‘zlari nam bog‘cha mudirasi *(“Boshliqlarga maktub yozdi: „Bolalarsiz qoldik, attang, O‘tiribman endi garang, Chiyillatib o‘ynab „g‘oz“ni”),* qog‘oz, temir tersak topishga o‘quvchi topa olmay turgan direktor, *“Bilsang, ichim to‘la alam, Qancha saqich, daftar, qalam Sotar edim xumparlarga“* deb javrayotgan sotuvchi, o‘ntacha multfilmni birdan qo‘ymoqchi bo‘lgan kinochi – bular bolalarsiz hayotizdan chiqib ketishiga shohid guvohlar o‘laroq gavdalangan hayotiy tiplar. Ammo bola faqat muayyan maqsad uchun kerak emas, balki bolaning borligi baxt ekanligini anglatuvchi nurli satrlar ham mavjud:

Bolalarsiz qizirmi to‘y?
Doshqozonda pishsa ham qo‘y,
Yurar hamma solib qovoq.
Kuyov-kelin saqlar sukut,
Bu qanday to‘y – o‘tsa jimjit,
Sinmay hatto bitta tovoq?

Pirovardida shoir voqealarning tushda sodir bo‘lganiga ishora qilsa ham, haqiqatda “*Bolalarsiz qolsa qishloq Bo‘lar ekan juda chatoq”* degan xulosasi hukm sifatida yangraydi.

Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga muhim hissa bo‘lib qo‘shildi. Shoir qoldirgan ijodiy merosi kelgusi avlodning ma’naviy xazinasini boyitaveradi, u yaratgan adabiy maktab hali ko‘p ijod ostonasidagi iqtidorlarni tarbiya qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anvar Obidjon. Bahromning hikoyalari. –T.: Yosh gavardiya, 1980
2. Anvar Obidjon. Masxaraboz bola. – T: Yosh gvardiya,1986.
3. Anvar Obidjon. Juda qiziq voqea (She’rlar va ertaklar). – T.: Yulduzcha. 1987.
4. Anvar Obidjon. O‘g‘irlangan paxlavon (she’rlar, doston va ertaklar). – T.: Cho‘lpon, 2006.

5. Anvar Obidjon. Mulla baqaloq. – T.: Akademnashr, 2018.
6. Anvar Obidjon. Kichkintoylar quvonchi. – T.: O‘zbekiston, 2019.
7. Z.Ibrohimova. Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar. – T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2005
8. A.Rasulov. O‘zlik sari yo‘l. – T.: “Adib”, 2012.
9. Bolalar olamining shaydosi. “O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2017.

XRONOTOP: BADIIY VA TARIXIY HAQIQAT

Sojida Samandarova,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:sojida.samandar0791@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy adabiyotda makon va zamon muammosi amerikalik adib Tomas Harrisning romanlari misolida Mixail Baxtinning xronotop nazariyasiga asoslangan holda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritildi. Tomas Harris asarlarida makon va zamonning ifodalanish ko’lami, makon va zamon chegaralarining belgilanishi va qamrovi, xronotoplarning syujet va janriy xususiyatlar bilan uyg’unligi hamda ularning psixologik trillerdagi badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etishi bo’yicha olib borilgan tahlillarning natijalari atroflicha yoritib berildi.*

Kalit so‘zlar: *xronotop, badiiy haqiqat, tarixiy haqiqat, psixologik triller, badiiy psixologizm, retrospeksiya, prospeksiya, psixologik portret, Tomas Harris, diskretiklik.*

Аннотация. *В данной статье проблема хронотопа в художественной литературе освещается с научно-теоретической и практической точки зрения, основываясь на теории Михаила Бахтина на примере романов американского писателя Томаса Харриса. Приведены результаты проведенного анализа масштабов выражения пространства и времени в произведениях Харриса, определения и освещения границ пространства и времени, гармонии хронотопов с сюжетными и жанровыми особенностями, их участия в создании произведений Харриса. Подробно освещены различные сцены реальности художественного мира в психологических триллерах.*

Ключевые слова: *хронотоп, художественная реальность, историческая реальность, психологический триллер, художественный психологизм, ретроспекция, проспекция, психологический портрет, Томас Харрис, дискретность.*

Abstract. *In this article, the problem of time and space in fiction has been covered from a scientific-theoretical and practical point of view, based on the theory of Mikhail Bakhtin, as an example of the novels of the American writer Thomas Harris. The results of the analyzes carried out on the scale of expression of space and time in Harris’s works, the definition and coverage of the boundaries of space and time, the harmony of chronotopes with the plot and genre features, and their participation in the creation of various scenes of the reality of the artistic world in psychological thrillers have been thoroughly covered.*

Keywords*: chronotope, literary reality, historical reality, psychological thriller, artistic psychologism, retrospection, prospection psychological portrait, Thomas Harris, discreteness.*

Kirish. Inson ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanar ekan, uning hayoti zamon va makondan tashqarida kechishi mumkin emas. Adabiyot esa so‘z san’ati sifatida ijtimoiy munosabatlarning badiiy in’ikosi o‘laroq dunyoga keladi. Makon va zamon o‘rtasidagi chambarchas bog‘liqlikni teran anglagan tadqiqotchi olim Mixail Baxtin ilk bor ushbu ikki tushunchani birlashtiruvchi “xronotop” (grekcha “chronos” – zamon, “topos”–makon) istilohini qo‘llaydi [2;121]. Demak, xronotop istilohining adabiyotshunoslikka olib kirilishi M. Baxtin nomi bilan bog‘liq. Mazkur atama

dastlab matematik tabiatshunoslik sohasida qo‘llanilgan bo‘lib, Albert Eynshteynning nisbiylik nazariyasi asosida fanga olib kirilgan hamda asoslab berilgan [3;43-44]. Badiiy adabiyotga esa u makon va zamonning ajralmasligini namoyish etish maqsadi o‘laroq kirib kelgan. Adabiyotshunos olim N.Gey badiiy asarni obrazlar ritmining zamon-makonda amalga oshiradigan qaydi, deb atash asnosida *“Obraz, albatta, shunday ma’noda berilganki, uning istalgan har qanday mazmuni kim bilandir bog‘langan, qayerdadir va qachonlardir sodir bo‘lganligini chamalaydi. Bu yozuvchi uchun zarur bo‘lgan uch boshlang‘ich miqdor – badiiy olamning uch o‘lchovidir. Mazkur o‘zgarmas son-miqdorlarsiz obraz o‘zini namoyon qila olmaydi”,* deya ta’kidlaydi [4; 239]. Zamon va makon badiiy syujetning tarkibiy qismi yoki unsurlaridan biri emas, balki uning omili, hayotiyligi va haqqoniyligi manbai hisoblanadi. Makon va zamon syujetga o‘z muhrini bosadi uni jonlantiradi, ta’sirchanligini oshirib, mazmunini boyitadi.

Har qanday hodisa badiiy zamon va makonda yuz beradi. Zamonning o‘zgarishi makonga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, negaki ikki tushunchaning dialektik birligi badiiyatning asosiy qonuniyatlaridan biri sanaladi. Badiiy asardagi shakl va mazmun birliklari singari makon va zamonni ham alohida estetik kategoriya sifatida emas, bir butunlikda o‘rganish maqsadga muvofiq. Badiiy asarning epik turida, jumladan, romanda xronotop ifodalanishining o‘ziga xos badiiy maydoni mavjud bo‘ladi. Ushbu maydonda boshqa adabiy turlarga qaraganda yozuvchining tasvir imkoniyatlari nisbatan kengroq bo‘ladi.

Asosiy qism. “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da makon va zamon tushunchalariga quyidagicha ta’rif beriladi: “Makon (fazo) va zamon (vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; makon (fazo) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o‘zaro joylashish tartibi, ko‘lami va miqyosini ifoda etsa, zamon (vaqt) o‘sha dunyoda sodir bo‘luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ketlikda ro‘y berishi va davomiyligini ifodalaydi. Makon (fazo) juz’iy holda ham, umumiy holda ham moddiy dunyoning holatiga bog‘liq. Fanda uzoq davr mobayniad faylasuflarimiz makon (fazo)ni zamon (vaqt)dan ajratib tushuntirib keldilar. Real makon (fazo) va zamon (vaqt)ning inson tasavvurida idroko etilishi perseptual hodisadir. Aniq fanlar va texnikaning rivojlanishi makon (fazo) va zamon (vaqt) haqidagi tasavvurlarni tubdan o‘zgartirdi. Makon (fazo) va zamon (vaqt)ning turli-tuman modellarini tadqiq qilishga keng yo‘l ochilishi natijasida bu ikki istilohning o‘zaro aloqador ekanligi isbotlandi*”*[10; 170].

Falsafaning borliqni tadqiq etuvchi sohasi bo‘lmish ontologiya (grekcha “*ontos*” – “*mavjudlik”, “logos” – “ta’limot*”) zamirida ham makon va zamon tushunchalar

yotadi. Hamma narsaning ibtidosi ham, intihosi ham yo‘qlik bo‘lib, u chekingan joyda borlik paydo bo‘ladi. Borliq shunday mavjudlikki, u yo‘qlikdan yo‘qlikkachadir. Borliqning asosiy sohalari tabiat, jamiyat va ongdir. Ularni birlashtirib turuvchi umumiy omil – bu ularning mavjudligidir. Harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong va boshqa narsalar borliqning atributlari, uning shu jism ekanligini anglatuvchi xususiyatlaridir. Moddiy jismlar va ularni tashqil etuvchi unsurlar o‘rtasidagi aloqadorlik harakatni akslantiradi. Makon va zamon fazo va vaqtning tashqi, nisbiy xususiyatlarinigina o‘zida aks ettiradi. Fazo narsalar joylashadigan joy, vaqt esa hodisalar sodir bo‘ladigan muddat ma’nosida qo‘llaniladi. Dialektik tafakkur sohibi bo‘lgan F. Gegel makon mustaqil bo‘lishi mumkin emasligini qayd eta turib, shunday deb yozadi: *“Hamma narsa vaqtda yuzaga kelmaydi va yuz bermaydi, balki vaqtning o‘zi shu shakllanish, yuzaga kelish va yuz berishdir”* [5*;* 150].

Vaqt tartibi va yo‘nalishi:



Xronotop dialektikasida badiiy adabiyotdagi badiiy zamon badiiy makon uyg‘unligida o‘zlashtiriladi. Ushbu dialektikada falsafa va estetika fanlaridagi an’anaviy “makon va zamon” tushunchalari “zamon va makon” tushunchasida yaxlitlashadi. Badiiy asarda makon yetakchilik qilib turgan o‘rinda zamon muammosi orqa fonga o‘tishi hodisasi kuzatiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, tadqiqot obyekti bo‘lmish Tomas Harris tetralogiyasi psixologik triller janrida yozilganligi hamdaushbu janr xususiyatlari to asar to o‘zining kulminatsion nuqtasiga yetib borgunicha syujet asta-sekin yoritib borilishini, bu vaqtda esa shubha va taranglik oshib borishi bilan sifatlanganligi uchun diskretik vaqt birlamchi hisoblanadi. “Qo‘zichoqlar sukunati” romanidan olingan ushbu parchalarda buning ifodasi aks etganligini ko‘rishmumkin:

“Pembri va Boyl tajribali turma nazoratchilari edi. Ularni ataylab doktor Lekterga ko‘z-quloq bo‘lishlari uchun Brashi-mauntin qamoqxonasidan olib kelishgandi. Ular Memfisga Lekterdan oldinroq yetib kelib, kamerani sinchiklab ko‘zdan kechirib chiqishgandi. Doktor Lekterni eski sud binosiga olib kelishganida uni ham yaxshilab tekshiruvdan o‘tkazishgandi. Avvaliga erkak hamshira uning to‘g‘ri ichagini ko‘rikdan o‘tkazdi, bu vaqtda ham uning egnidagi tiydirish ko‘ylaginiyechishmagandi. Uning ust-boshini ham qat’iy tekshiruvdan o‘tkazib, tanasi uzrametall detektor yuritishdi. Boyl va Pembri mahbus bilan darhol til topishib ketishdi. Tekshiruv jarayonida u bilan sokin va muloyim ohangda gaplashishdi...

Doktor Lekter panjaraga mahkamlanganidan so‘nggina Pembri stoliningyoniga borib, kameraning kalitini tortmadan oldi. Kamaridagi xalqaga rezina dubinkasini, cho‘ntagiga gaz balonchasini soldi-da, kameraga qaytdi. Kamera eshigini ochgach, Boyl patnisni olib kirib qo‘ydi. Eshikni qulflaganidan keyin Pembrikalitni qaytarib tortmaning ichiga qo‘ydi va mahbusning qo‘llaridagi kishanni yechdi. Doktor kishansiz bo‘lgan paytda kalit bilan kamera panjarasiga umuman yaqinlashmadi”[6; 283]. Ushbu parchada qahramonlar ado etayotgan xatti-harakatlar birin-ketin, uzviylik buzilmagan holda ifoda etiladi. Asarning boshqa bir o‘rnida esa T.Harris buning aksini qo‘llab, oniy ish-harakatlarni nihoyatda sekinlashtirib tasvirlaydi va bu orqali kulminatsion nuqta oldidan o‘quvchini qiziqtirib, intiqtiradi:

“*Endilikda kursisidan jilmay o‘tirgan doktor uchun vaqt keskin ravishda sekinlashib qolgandek va alohida-alohida lahzalarga bo‘linib ketgandek tuyuldi. Bu odatda inson hal qiluvchi qadamni qo‘yayotganida yuz beradigan holat edi. Unga musiqa ham o‘z ritmini yo‘qotmasdan mayda bo‘laklarga ajralib borayotgandek, kumushdek jarangdor ohanglar uning atrofini o‘rab turgan panjaralarning temir to‘siqlariga urilib, notalarga parchalanayotgandek tuyuldi. Yuzida hech qanday ifoda aks etmayotgan doktor Lekter o‘rnidan turib, tizzasining ustida turgan qog‘oz sochiqning polga asta-sekin uchib tushishini kuzatib turdi. Sochiq uzoq vaqt havoda muallaq qolib, stolning oyog‘iga yopishdi, hilpiradi, teskari ag‘darildi, nihoyat po‘latdan ishlangan polga tushdi. Lekter uni poldan olishga urinmadi”* [6;286].

Baxtin “Romanda zamon va xronotop shakllari” nomli asarida qadimiy yunon romanlarining janr tarmoqlarini belgilab beradigan tipologik turg‘un (barqaror) yetakchi xronotoplarni aniqlagan va tadqiq etgan. Bular sirasiga quyidagilar kiradi:

a) avantyur roman;

b) avantyur-maishiy roman;

c) biografik romandagi xronotoplar.

Avantyur zamon hududida biografik vaqt hisobga olinmaydi. Makon keng, vaqt tarixiy jihatdan mahalliylashtirilmagan, badiiy olamning miqyosi va xilma-xilligi mavhum ko‘rinish kasb etadi [1; 234-407]. Roman–yirik epik shakl. Uning badiiy hududida ulkan tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar, islohotchilik, milliy-ozodlik harakatlari, urush va tinchlik kabi muammolar o‘z ifodasini topadi. Ushbu fikr, asosan, romanning klassik (an’anaviy) turiga xos. Bunday badiiy shakl, o‘z-o‘zidan, ko‘lamdor va serqirra xronotopni taqozo etgan. Ayniqsa, katta epik janrning alohida badiiy shakli bo‘lgan roman-epopeyada bunday ko‘lamdor xronotopni yaqqol ko‘rsa bo‘ladi. Roman adabiy janr sifatida o‘z badiiy hududiga keng falsafiy-axloqiy, nazariy ta’limotlarni sig‘dirishga qodir. Unda qahramon qalbi butun teranligi bilan

mufassil, badiiy dalillangan holda aks etadi. Buni badiiy shaklning hajmiga bog‘lab izohlovchilar ham mavjud, biroq, yigirmanchi asrning ikkinchi yarmidan boshlab roman hajman kichraya boshladi va baribir o‘z maqomini saqlab qola oldi. Bunga u “roman tafakkuri” yoki “roman yuki” orqali erishgan. Bundan kelib chiqadiki, gap hajmda emas, aksincha badiiy tafakkurning kengligi va chuqurligidadir.

Natijalar va muhokama. Xronotopni turli kategoriyalar asosida tasniflash amaliyoti O‘. Nazarov hamda B. To‘rayevalarning ilmiy ishlarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Nazarov yigirmanchi asr milliy romanchiligida xronotopning an’anaviy, yonma-yon (parallel) va sinkretik shakllarini ajratib ko‘rsatgan. XX asrnin 60-yillarigacha o‘zbek romanlarida vaqtning xronologik tartibda tasvirlanishi, voqealarning ma’lum bir vaqt oqimida kechishi va retrospeksiya (eslash) yoki qoliplash singari xususiyatlar bilan sifatlanuvchi an’anaviy xronotop ustuvor bo‘lib kelgan. XX asrning 70-yillaridan esa badiiy matnlarda bir nechta xronotoplarning badiiy ifoda topishi, bir-biri bilan qorishib ketgan holda namoyon bo‘lishi, makon chegaralarining buzilib, asosiy e’tibor qahramon va personajlarning ichki ruhiy olami oqimlariga qaratilishi an’anaga aylandi [7; 28-29]. Adabiyotshunos olima B.To‘rayeva xronotopning ham badiiy asar strukturasining boshqa unsurlari singari muallifning olam tasvirini qayta ifodalash shakli ekanligini bayon etish asnosida u badiiy olam haqiqatining turli manzaralarini yaratishda ishtirok etishini, u so‘z san’atkorining o‘ziga xos ijod olamini tashkil etuvchi ajralmas tarkibiy qism sifatida ijodkor metodi va uslubining o‘ziga xos tomonlarini belgilaydi, milliy va umumbashariy g‘oyalar rivojiga xizmat qilishini ham ta’kidlab o‘tadi [8; 261]. A.Temirbolatning ilmiy-nazariy umumlashmasida xronotop inson ruhiy olami bilan bevosita mushtaraklikda tasvirlanishi hamda mega, makro va mikroxronotoplarning aloqadorligi ayonlashadi. Bular olam va odam munosabatlarini ruhiyat, jamiyat va koinot kengligida aks ettiradi. Birinchisi, makon va zamonda kechayotgan o‘zgarishlarni koinot va yer yuzi; ikkinchisi, insonlar o‘rtasida kechadigan real voqea-hodisalar; uchinchisi, inson ruhiyati bilan ong va tafakkuri ostidagi ziddiyatlarni ifodalaydi [9; 78].

Badiiy matn – roman maydonidagi xronotop shakli muallifning dunyoqarashi, adabiy-falsafiy konsepsiyasi, badiiy niyati bilan chambarchas bog‘liq. Buning isbotini Tomas Harrisning romanlari misolida ko‘rish mumkin. U moziyning aniq bir davrini badiiy asar uchun manba sifatida tanlab olar ekan, muayyan bir dunyoqarash, fasafa ehtiyoji, talablariga asoslangan. Uning tetralogiyasi yozilish tartibida umumiy retrospeksiya kuzatilsa ham, ya’ni dastlabki romanlar bo‘lmish “Qizil ajdarho” va “Qo‘zichoqlar sukunati” markazidagi qahramon Gannibal Lekterning yoshlik yillari,

uning ushbu ikki romandagi xatti-harakatlarini keltirib chiqargan bolalikkechinmalari to‘rtinchi romanda aks etsa ham, alohida olingan holatda har bir romanda voqealar ketma-ketligida uzviylik va izchillikka qat’iyan amal qilinadi, badiiy zamon xronologik, ya’ni izchil-davomiy xususiyatga ega. Romanlardagi voqealar oldinma-keyin tasvir etib boriladi, vaqt oqimi va qahramonlar hayoti uzviy ravishda ifoda qilinadi. Zarurat tug‘ilgandagina retrospektiv tasvirdan foydalaniladi: yozuvchi yoki biror personaj tilidan avvalgi zamonga oid voqea hikoya qilib beriladi. Shu o‘rinda badiiy xronotopning ikkinchi qismi bo‘lgan makon tasviridan Harris nechog‘lik mahorat bilan foydalanganligi xususida to‘xtalib o‘tish joiz. “Qizil ajdarho” romanida makonni bildiruvchi joylar asosan AQSHning turli shtatlari (Virjiniya, Alabama, Illinoys, Jorjiya)dan iborat bo‘lsa, keying uchta romanda voqealar silsilasi ta’sirida makon boshqa davlatlarga, xususan, Fransiya, Italiya va Livanga ham ko‘chishiga guvoh bo‘lishimiz mumkin.

Xulosalar. Xulosa shuki, badiiy asar ijtimoiy munosabatlar in’ikosi sifatida maydonga kelar ekan, unda muayyan bir zamonda muayyan bir makonda kechgan voqealar o‘z ifodasini topishi tabiiy. Falsafa uchun zamon va makon ijtimoiy voqelikka daxl qiluvchi tushunchalar bo‘lsa, adabiyot va estetika muammolari sarhadiga kirgan zamon va makon badiiy voqelikka aloqadordir. Ikkala sohada ham zamon va makon bir-birini to‘ldiruvchi hodisalar sifatida talqin etiladi hamda ularni bir-biridan ayro tarzda tasvir va tadqiq etish ilojsizdir. Xronotop adabiy-estetik kategoriya sifatida badiiy asar syujeti, qahramonlari, umuman olganda, butun adabiy- badiiy strukturasiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Shu sababli ilmiy-tadqiqot ishlarida bu muammoga e’tibor berish hamda o‘rganish adabiyotshunoslikning o‘zak asosiy xususiyatlarini ochish, aniqlash, shu asosda matn badiiyati darajasini belgilashda ayricha ahamiyatga ega. Badiiy zamon va badiiy makon asarni adabiy shakl sifatida shakllantiruvchi asosiy vositalar qatoriga kiradi.

Adabiyotlar:

1. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике. – М.: Художественная литература, 1975. –С. 234-407.
2. Бахтин М. Литературно-критические статьи. – М.: Художественная литература, 1986.–С.121.
3. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –Toshkent: “Akademnashr”, 2015.–B.43-44.
4. Гей Н. Исскусство слово. –М.:Наука, 1967. –С.239
5. Миронов А.В. Время и музыка в философии Ф. Гегеля // Наука. Искусство. Культура. 2016. №3 (11)–С.150. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/vremya-i-muzyka-v-filosofii-f-gegelya

6. Harris T. Qo‘zichoqlar sukunati. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2023.–B.283.
7. Nazarov O‘. Omon Muxtror romanlarida badiiy xronotop muammosi. Filol.fan.dok.diss. Qarshi, 2018. –B.28-29.
8. To‘rayeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi (Ch.Aytmatov va N.Norqobilov romanlari misolida). Filol.fan.dok.diss. Toshkent, 2022. –B. 261
9. Темирболат А.Б. Категории хронотопа и темпоралного ритма в литературе. Монография. – Казахстан: Алмати, 2009. – С.78.
10. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 9-jild. –Toshkent: O‘ME Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. –B.170

MUMTOZ EPIK POEZIYADA METAFORA

Sevara Baratova,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti kichik ilmiy xodimi,
E-mail: baratovasevara07@gmail.com

Annotatsiya: *Havola qilinayotgan maqolada poetik nutqning jon tomiri bo‘lgan metafora, uning poetik nutqda bajaradigan vazifasi, qalamkashlar tomonidan ishlatilish sabablari va yo‘llari xususida so‘z yuritilgan. Metaforaning nafaqat ot turkumida, balki sifat turkumida ham o‘ziga xos shakllari mavjudligi, metafora narsa-hodisa hamda belgi-xususiyatni qayta nomlash maqsadida ishlatilishi xususida mulohazalar ilgari surilgan. Metaforalarning mumtoz lirik va epik she’riyatda, ayniqsa, uxroviy asarlarda qanchalik muhim rol o‘ynashi tegishli misollar yordamida ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Metafora, o‘z ma’no, ko‘chma ma’no, bir ma’nolilik, ko‘p ma’nolilik, qayta nomlash, tafakkur, bilish, lirika, epik she’riyat, mahorat.*

Аннотация: *В данной статье говорится о метафоре, которая является жизненной силой поэтической речи, ее роли в поэтической речи, причинах и способах ее использования писателями. Высказаны соображения о существовании специфических форм метафоры не только в группе существительных, но и в группе прилагательных, а также об использовании метафоры с целью переименования вещи-явления и знака-свойства. На соответствующих примерах показано, насколько важную роль играют метафоры в классической лирике и эпической поэзии, особенно в религиозных произведениях.*

Ключевые слова и выражения *Метафора, буквальный смысл, переносный смысл, единый смысл, многозначность, переименование, мышление, знание, лирика, эпическая поэзия, навык.*

Abstract: *This article deals with metaphor, which is the life force of poetic speech, its role in poetic speech, the reasons and ways of its use by writers. Considerations are expressed about the existence of specific forms of metaphor not only in the group of nouns, but also in the group of adjectives, as well as about the use of metaphor for the purpose of renaming a thing-phenomenon and a sign-property. Relevant examples show how important a role metaphor play in classical lyric poetry and epic poetry, especially in religious works.*

Key words: *Metaphor, literal meaning, figurative meaning, single meaning, polysemy, renaming, thinking, knowledge, lyrics, epic poetry, skill.*

Kirish. Metafora she’riyatning jon tomiri, jismu joniga oroyish beradigan unsur hisoblanadi. “Poetik nutq ifodalanayotgan tushunchani konkret, badiiy obrazli ifodalashni talab qiladigan nutq”, [9,33] deyilganda ham metafora tushuniladi. Demak, poetik nutqda metaforalar birlamchi o‘rinni tutib, obrazlilik hamda ta’sirchanlikni bag‘oyat yuqori nuqtada yuzaga keltirishi bilan boshqa lingvopoetik unsurlardan ajralib turadi. Ayniqsa, mumtoz lirik va epik poeziyada metaforalarga alohida o‘rin berilgan, unga fikrni emotsional tarzda yuzaga chiqaruvchi unsur sifatida qaralgan. Shoirlar ushbu ko‘chimlar vositasida biror voqelik, timsollarni shu qadar ishonarli tarzda bayon qilib berganlarki, natija o‘laroq, muayyan poetik fikr

o‘quvchiga tushunarli bo‘lgan va uning ruhiyatiga ta’sir etuvchilik vazifasini bajargan.

Asosiy qism. Aslini olganda, metafora o‘xshashlik asosidagi ko‘chim hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda metafora istiora san’ati sifatida tilga olinadi. Ko‘rinadiki, metafora tilshunoslik va adabiyotshunoslik uchun umumiy hisoblanadi. A.A.Potebnya “Metafora – qisqargan o‘xshatish”, desa, E.Kassirer “Ko‘plab o‘xshatishlar metaforadan kelib chiqqan”, deb uning fikrini rivojlantiradi. Demak, metafora predmet yoki hodisaning yangicha nomlanishidir. Ana shu jarayonda metafora an’anaviy bo‘ladimi yohud butunlay yangicha shakl topadimi, nutqning ta’sirchan hamda obrazli tarzda ifodalash vazifasini bajaradi. Ayni paytda o‘quvchini tafakkur qilishga, mohiyatni anglashga undaydi. N.Mahmudovning qayd etishicha, “antik davrning barcha faylasuflari metaforani nutqning bezagi, nutqiy ko‘chim, badiiylik vositasi sifatida o‘rganib kelganlar. Ma’lumki, XX asrga kelib, ayniqsa, keyingi paytlarda, kognitiv tilshunoslikning shakllanishi bilan metaforaga qarash sezilarli darajada o‘zgardi. Agar an’anaviy tushunishda metafora termini ostida bir so‘zning boshqasi bilan almashtirishi nazarda tutilgan bo‘lsa, bugun aksariyat tadqiqotchilar metafora tom ma’noda fundamental bilish faoliyatining namoyon bo‘lishi ekanligini e’tirof etadilar”[Mahmudov, 8, 3]. Olimning bu fikrlari metaforaning tabiatini to‘kis ifodalab bera oladi. Zero metafora bir tomondan nutqni ixcham qilishga, ikkinchidan emotsional-ekspressiv bo‘yoq berishga, uchinchidan konnotativ vazifa yuklashga, to‘rtinchidan esa, hammasini umumlashtirib, kishining tafakkuriga ta’sir etaroq, ma’rifatli qilishga ko‘mak beradi.

Natijalar va Muhokamalar. Mumtoz she’riyatda, masalan, AlisherNavoiyning epik she’riyatida, shunday metaforalar ishlatilganki, ular kishiga estetik zavq berishi bilan bir qatorda, tafakkurda po‘rtanalar yasashga qodir topilma sifatida dunyoni bilishga undash vazifasini bajaradi. Shoir “bo‘ldum sango” radifli mashhur g‘azalining maqta’sida “G‘ussa changidin navoye topmadim ushshoq aro” [Navoiy, 3,37] deyar ekan o‘z-o‘zidan “g‘ussa changi” metaforasining mohiyatini anglashzaruriyati yuzaga keladi. *“G‘ussa”* so‘zi *“g‘am”*, *“muttasil tashvish chekish”* ma’nolarini berishi ma’lum. *“chang”* esa *g‘uborning quyug‘i*. *“G‘ussa changi”* Hazrat Alisher Navoiyning ko‘p sonli topilma metaforalaridan biri. SHoir bu birikmali metafora orqali o‘xshashlikni bo‘rttiradi, ya’ni ma’shuqadan ayrilganlik iztiroblarini quyuqlashtiradi. SHoirning adabiy bisotining tili kuzatilsa, bunday yaratiq metaforalarning son-sanoqsiz ekanini kuzatish mumkin.

Nafaqat Navoiy, mumtoz adabiyotning ko‘plab shoirlarining lirik hamda epik she’rlarida ma’shuqa yoki oshiq timsoli tasvirida kutilmagan metaforalar uchraydi.

Masalan, Bobur lirik she’riyatida “oy” so‘zining metaforik variantidan keng foydalangan:

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin eshitgaymen,
Ne kun bo‘lg‘ay visolingg‘a mani dilxasta yetgaymen. [Bobur, 4, 47]

Xuddi shu g‘azalida yana uchta metafora qo‘llanilgan va ularda oshiqning ma’shuqa oldida o‘zini naqadar past tutishi “itingdurmen” metaforasi vositasida obrazli ifodalagan holda, sochini “zanjir” deyar ekan, oshiqning ma’shuqa muhabbat domiga tushib, oyoq-qo‘li zanjirband qilingani, “ayriliq vodiysi” metaforasi orqali yuzaga kelgan hijronni ifodalashga muvaffaq bo‘lgan:

Itingdurmen, soching zanjirini bo‘ynimga mahkam qil
Ki, vodiyi firoqing qo‘rqarmenki,yitgaymen. [Bobur,4,48]

Bobur istifoda etgan metaforalarning evristik jihatlari ham e’tiborni tortadi. Xususan, lirik qahramonning “itingdurmen” metaforasi bejiz qo‘llanmagan. SHoir itdagi vafodorlik, kecha-yu kunduz xojasining uyini, uxlamasdan mol-dunyosini qo‘riqlab chiqishi, xojasi berganiga qanoat qilishi va boshqa odatlarini bandaga ko‘chiradiki, oshiq ham ma’shuqaga o‘zini xuddi itdek vafoli, sabr-toqatli, qurbatli qilib ko‘rsatadi. “Soching zanjiri”ga bog‘la va uni mahkam qil (shaytonning aldovlaridan o‘zing muhofaza qil, degan mazmunda) deganida ham kishining Yaratganga bandalik qilishining mustahkam bo‘lishiga o‘tinish mavjud.

Munis “oshiq” va “ma’shuqa” so‘zlarining metaforik variantlarini tubandagi sinonim shakllarda keltirgan:

Qaysi *gulning* men kibi bir *andalibi zori* bor,
Qaysi *bulbulning* seningdek bir *guli bexori* bor.

Bunda ma’shuqani “gul” deyilishi an’ana tusini olib, deyarli barcha shoirlarda uchraydi. Masalan, Bobur bir ruboiysida “Sen gulsen-u men haqir bulbuldurmen” deganda ham an’anaviy metaforaga murojaat qilgan. [Bobur; 3,97] Ammo “tikonsiz gul” metaforasi baytda yangilik bo‘lgan. Odatda, mumtoz shoirlar gulning tikonsiz bo‘lmasligiga ko‘p urg‘u beradilar:

Yorning vasli emas ozorsiz,
Gulshan ichra gul topilmas xorsiz. (Nodira)

Bu holat ma’shuqaning jafokorligi, zolimligiga obrazli ishora. Lekin Munis bu o‘rinda ma’shuqaning bevafo, deb emas, balki oshiqqa xayrixoh bir go‘zal sifatida tasvirlaydi. Lirik qahramonni bir o‘rinda “bulbul” metaforasi bilan, boshqa o‘rinda “andalib” metaforasi bilan ta’riflaydiki, bunday qilish muallifni noo‘rin takrordan qutqargan va poetik so‘zni alohida jilolantirib, jozibador bo‘lishini ta’minlab bergan.

Uxroviy hamda so‘fiyona she’riyatda metaforalar boshqacha tus olgan. Ularda asosan insonni komillikka undovchi hamda zamima axloqdan qochish va qutilishga da’vat etuvchi metaforalar istifoda etilganini kuzatish mumkin. Hoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida “Tuproq bo‘lgin olam seni bosib o‘tsin...” [3,77] misrasi bor. Bunda kishini tuproq bo‘lishga undash hokisorlik, gunohi kabiralardan biri kibrdan nari yurishga chaqiriq bo‘lsa, “olam” metaforasi uning atrofidagi kishilar-u boshqa zarar keltiruvchi holatlarni nazarda tutadi. Bunda ham tafakkur qilishga yo‘naltirilgan metaforalar ishlatilgani kuzatiladi.

Xuddi shunday metaforalarining yuzlab namunalarini So‘fi Olloyorning “Sabot ul-ojizin” asarida istifoda etilganini ko‘rish mumkin va bular orqali muallif o‘zining pand-nasihatlarini bag‘oyat xalqona misralarda, bag‘oyat takrorlanmas metaforalar qa’tida hamda tafakkur qilishga undovchi obrazli ifodalarda beradi. Chunonchi, bir baytida “tanur” (bugungi shakli “tandir”) so‘zini ishlatar ekan uni metafora qilib, “do‘zax” ma’nosida qo‘llaydi:

Uyalma ma’rifatni o‘granurdin,
Tanur joying bo‘lur qolsang tanurdin.[5,15]

Manbalarning guvohlik berishicha, do‘zax - dahshatli chuqurlik ichida olov yonib turadigan bir joy. Do‘zaxga mahkum qilingan bandalar shu olovga tashlanadi, ular qaynoq suv ichadi, bu yerda o‘sadigan zaqqum daraxtining (shaytonning boshiga o‘xshash) mevasi bilan ovqatlanadi. Zaqqum daraxtining mevasi zahardan ham zahar bo‘ladi; cheksiz azob chekadi; terilari kuyadi. Qur’oni karimda ta’kidlanishicha, “**Azobni totsinlar deb, terilari kuyib bitishi bilan o‘rniga boshqa (yangi) terilarni almashtirib turamiz**” [“Niso” surasi, 1, 56-oyat]. So‘fi Olloyor “tanur” metaforasi vositasida do‘zaxni litota qilib kichraytirayotgan bo‘lsa-da, inson zikr etilgan metafora orqali, jahannamni tasavvur qilishi mumkin.

Kitobda bu kabi metaforalar benihoya ko‘p, dedik. Bir o‘rinda “Hama a’zo raiyatdur, ko‘ngil - shoh” [5.111] deyar ekan, insonning ko‘nglini bevosita “shoh”deb ataydi, boshqa a’zolari (bosh, oyoq, ko‘z, qo‘l, og‘iz, til, burun va hakozolar)ni esa “raiyat”, deb ataydi. Ushbu metafora ham muallifning baytga yuklangan mazmun talabidan topilgan individual metafora sanaladi. SHu misraning davomida “Omonlig‘ bo‘lg‘usi shoh adlidin roh” [5, 111] deydi So‘fi Olloyor. Misradagi “shoh” (ko‘ngil), “adl” (ko‘ngilning pokligi), “roh” metaforalari, birinchi navbatda, yangiligi, ikkinchidan esa, dastlabki misradagi ma’niga muvofiq tushishi jihati bilan, uchinchidan esa, tafakkurga aloqasi bilan e’tiborni tortadi. SHu baytdan keyin kelgan qo‘shmisradagi mazmun fikrimizni to‘ldiradi: Agar sulton o‘zi qilsa yomonliq, Qachon bo‘lg‘ay raiyatda omonliq. [5,111]

Xulosalar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, metaforalar umumpoetik hamda individual metaforalarga ajratilib, umumpoetik metaforalar asrlar davomida bir xil vazifada ishlatilib kelingan bo‘lsa, individual metaforalar qalamkashning ijodiy topilmasi sifatida mahoratini belgilab beradi. Mumtoz she’riyatda keng qo‘llanib kelingan “gul”, “bulbul”, ”oy”, “quyosh”, “la’l” singari metaforalar umumpoetik metaforalar sirasiga kirsa, shoir uslubigagina tegishli metaforalar individual metaforalar sifatida uning so‘z tanlash va ularni o‘rinli ishlatishmahoratiga tegishli bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quroni karim (manolarning tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur). – T.: Toshkent Islom universiteti., 2004.
2. Hoja Ahmad Yassaviy. Umring yeldek o‘taro. – T.: Muharrir, 2019.
3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik, jild – T.: G‘G‘ulom nomidagi NMIU, 2011.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalari. – T.: Sharq, 1996.
5. So‘fi Olloyor. Sabotul-ojizin. – T.: San’at jurnali, 2007.
5. Rashid Zohid. Roviyuhur rayhon. So‘fi Olloyor “Sabotul-ojizin” sharhi. – T.: Sharq, 2018.
6. Islom ensiklopediyasi. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashr., 2004.
7. Mahmudov N. //Metafora va uning lingvopoetik imkoniyatlari.// “O‘zbek tili va adabiyoti” jurn., 2023-yil, 4-son.
8. Umarqulov B. Poetik nutq leksikasi. – T.; Fan, 1990.

ALISHER NAVOIY “NASOYIMUL MUHABBAT” ASARIDA “BOB” TUSHUNCHASI VA TALQINI

Shukur Jabborov,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning «Nasoyimul muhabbat» asaridagi uvays, bob, chiltan kabi iboralarning tasavvufiy ma’nolari ochib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *bob, pir, eshik, shayx, chiltan, abdol, darvesh, komillik, qutb, kod.*

Abstract: *This article reveals the mystical meanings of such phrases as uwais, bob, chiltan in Alisher Navoi’s work “Nasayimul Muhabbat”.*
Key words: *bob, pir, door, sheikh, chiltan, abdol, dervish, perfection, pole, code.*

Аннотация: *В данной статье раскрываются мистические значения таких словосочетаний как увайс, боб, чилтан в произведении Алишера Навои «Насайимул Мухаббат».*
Ключевые слова: *боб, пир, дверь, шейх, чилтан, абдол, дервиш, совершенство, полюс, код.*

Bizning diyorlarda “Bob” tushunchasi tasavvuf adabiyotida keng ifodalanadi. “Bob”ning lug‘aviy ma’nosi “Eshik” yoki “Darvoza” demakdir. Bunda bob o‘z ma’nosida emas, balki qiyoslash va ko‘chma ma’noda pir yoki shayx tushuniladi. Yana ham aniqroq aytganda, “pirlar”, “shayxlar”, “dunyo va oxirat yaxshiligiga yetaklaydigan eshik”, “saodat eshigi” degan ma’noni anglatadi.

Jumladan, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” tazkirasida 359-son bilan “Bob Farg‘oniy quddisa sirruhu” bobi (“bobi” deganda bu o‘rinda asarning bo‘limi ma’nosida qo‘lladik – Sh.J.) keladi. “Oti Umardur. Farg‘onada bo‘lur erdi. Ulyerda ulug‘ mashoyixni “Bob” derlar. “Kashful mahjub” sohibi der emishki: “Ul avtod ul arzdindur”. Shayxulislom debdurki: “Shayx Amu ani ko‘rib erdi. Ul dediki: Bir kun aning qoshida o‘lturub erdim. Birav kirdi va dedikim: Duoyi qilki, Sarkab keldi va Sarkab birav erdiki, kelib ul mulkka zarar yetkurur erdi va bob o‘chog‘ qirog‘ida o‘lturub erdi va oftoba dag‘i o‘chog‘ qirog‘ida erdi. Oyog‘in oftobag‘a urubyiqitti va dedikim: Ani yiqittim. Sarkab hamul dam shahar eshigida otdin sarnigun yiqildi va bo‘yni sindi”. “Kashful mahjub” sohibi debdurki: “Bobning ziyoratiga qasd qildim. Chun anga yettim. Dediki: “Ne ishka kelibsan?” Dedim: “To shayxni ko‘rgaymen surat bila va andin nazari topqaymen shafqat bila. Dedi: “Ey o‘g‘ul, men xud falon kundin beri seni ko‘radurmen va to seni mendin g‘oyib qilmag‘aylar,ko‘rgumdur va ul kunni hisob qildim, mening tavbamning ibtidosi kuni erdi. Andin so‘ngra dedi: “Ey o‘g‘ul, yiroq yo‘l qat’ qilmaq o‘g‘lonlar ishidur. Mundin so‘ngra ziyoratni himmat bila qilki, shaxs anga kari (ta’sir, yararli) qilmaski, ani ziyorat

qilg‘aylar va ashboh zuhurig‘a hech nima bog‘liq emas. So‘ngra xodimasig‘a dediki, ulcha bor, olib kelki, darvesh yesun. Bir taboq uzum kelturdi va toza chog‘i emas erdi va anda necha rutab (yangi pishgan) va Farg‘onada mumkin ermaski, rub bo‘lg‘ay”[1].

Yuqoridagi matn mazmunidan ma’lumki, bobga, ya’ni pirga munkirlik qilgan va jamaotga xavf solgan, kishilar mulkiga zarar yetkazgan inson bob tomonidan jazolangan. Yana ushbu bo‘limda anglashiladiki, ulug‘lar nazariga tushib nasibador bo‘lay deb bobning eshigiga kelgan ziyoratchining suskashligi isloh qilinib, o‘zini tarbiyalash va mavsum vaqti bo‘lmasa-da yangi pishgan uzum bilan unga karomatni ko‘rsatib ihlos-e’tiqodini parvarishlash jarayoni yoritilgan.

Bir zamonlar so‘fiy va darveshlar haqiqatan ham katta nufuz va obro‘ga ega edilar. Buni “Nasoyimul –muhabbat” asarini mutolaa qilib bilsak ham bo‘ladi. Muqtadir shayxlargina emas, qalandarlar, eshonlar, majzub “devonalar”, oddiy darveshlarni ham odamlar hurmat qilganlar. Shuning natijasi o‘laroq, tasavvuf, tariqatlar va uning tarkibida darveshchilik harakati keng quloch yoygan, xonaqo udumlari shakllanib, darveshlar alohida bir toifa – tabaqa sifatida jamiyatda muhim o‘rin egallagan. Biroq bu birdaniga yuzaga kelgan harakat emas, tasavvuf va darveshlik harakati uzoq tadrijiy tarixga ega. Olimlar tasavvuf tarixini dastlab ikki davrga ajratadilar: birinchi – zohidlik davri, ikkinchisi – oriflik va oshiqlik davri. So‘fiylarning o‘zini ham orif so‘fiylar, zohid so‘fiylar, rind so‘fiylar, oshiqlar, faqir so‘fiylar, faylasuf so‘fiylarga ajratish mumkin.

Avliy zot bo‘lmish Miralisher Navoiy “Nasoyimul –muhabbat” asarida 99-raqam bilan kelgan Ruvaym (r. t.) haqidagi yodnomada: “Ikkinchi tabaqadindur va kuniyati Abu Muhammaddur. Va Abu Bakr va Abulhasayn va Abu Shaybon ham debdurlar. Bag‘dodning mashoyixining kiboridindur. Faqih erdi, Dovud Isfahoniy mazhabida. Shayx ul-islom debdurki, ul o‘zin Junaydning shogirdi ko‘rguzur erdi, ammo aning yoronlaridindur va andin uluq. Va Abu Abdulloh Xafif (q s.) debdurki, hargiz ko‘zum kishi ko‘rmaydurki, tavhidda so‘z aytqoy, andoqki, (Ruvaymdan tasavvuf haqida so‘radilar. Aytdi: Mutasavvif biror narsani o‘ziniki deb bilmaydi va hech kim unga egalik qilolmaydi...” deyiladi. Qarang, bu o‘rinda “Mutasavvif biror narsani o‘ziniki deb bilmaydi va hech kim unga egalik qilolmaydi...” deyilmoqda. Bu inson ruhining sof erkinligi va asosan inson huquqi haqidagi ta’rifdir. Yoki shuasarning 49 betida 167-raqam bilan yodi kelgan G‘aylon Muvasvis (r. t. r.)ni misol qilaylik: “...Ani G‘ayloni Majnun ham derlar erdi. Iroq mashoyixiing mutaqaddimlaridindur. Xarobalarda bo‘lur erdi va elga omizishi yo‘q erdi. Va eldin

[1] Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat min shamoyim – ul futuvvat”. 11-jild. Alisher Navoiy nomidagi Til vaadabiyot instituti. -T., 101-bet. Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat min shamoyim – ul futuvvat” Nashrga tayyorlovchi Hamidxon Islomiy. – T.: Movarounnahr, -B. 236.

nima qabul qilmas erdi...” Buni qarangki, bu zotning elga minnati yo‘q, o‘zi ham minnat yuklamaydi, garchi bir ehtiyoji bo‘lsa ham buni elga bildirmaydi, yana birovdan narsa so‘ramaydi. Bu sufiylarning horiqi odatlaridan biri edi. Sufiylarning aksariyati yoshligidan qalbida haqiqatga tashnalik hissi borligi uchun ham riyozat atalmish dengizga, ya’ni “qo‘rqmasdan o‘zini chuqur daryoga” tashlagan toifadir. Ular har bir ilmni dadillik bilan o‘rgana boshlaydi, ular taqlidchi emas, har birtoifaning aqidasini yaxshilab tafakkurdan o‘tkazgan va qoniqmay yana o‘rgana boshlagan zotlardir.

Imom G‘azzoliyning uqtirishicha, ilm ikki xil bo‘ladi. Biri – taqlidiy ilm, ya’ni o‘tmishdan meros qolgan, ota-ona va ustozlardan olinadigan bilimlar. Ikkinchisi – kashf etilgan ilm. Taqlidiy ilm ko‘r-ko‘rona ergashish bilan bo‘ladi, kashf etilgan ilm esa har bir shaxsning qobiliyati, shuuriy izlanishi orqali qo‘lga kiritiladi. Darvoqe, hayotda juda ko‘p odamlar taqlidiy bilmilar bilan qanoatlanadilar. Chunki yangilik yaratmay, tayyor hunarlar, ilmlarni o‘rganib, ko‘p qatori yashash oson. Ammo taraqqiyot uchun, eng avvalo o‘z ruhini ozod qilish, insoniyat tafakkurini olg‘a siljitish uchun ilohiy va dunyoviy haqiqatlarni, mohiyatlarni izlash, kashf etish zarur. Bu esa “Nasoiymul muhabbat” asari kabi tazkiralarda nomlari zikr etilgan ko‘plab buyuk shaxslarning nasibasidir.

Hazrat Alisher Navoiy “avom” deganda savodsiz, ilmsiz oddiy xalqnigina nazarda tutmagan, balki ilohiyot tajalliyotini qalban his etolmaydigan, borliqqa zohiran (yuzaki) munosabatda bo‘lib, jamiyatning rasmu odatlarini bajarishdan nari o‘tolmaydigan kishilarni ham nazarda tutgan. Bunday kishilar (avom) qatoriga ilmiga amal qilmaydigan mullalaru ilmi botindan bexabar shayx va zohidlarni ham kiritgan. Bunga misol hazratning: “Zohid senga huru, menga jonona kerak,

Mayli jannat senga, menga mayxona kerak...” deyishidan ham payqash mumkin. Shuningdek, Alisher Navoiyning fikricha, “ahli xos”lar aslzodalar tabaqasi, shoh-amirlar emas, balki Alloh yo‘lida zaxmat chekuvchi dili va tili Xaq yodidan bo‘shamaydigan chin so‘fiylardir. So‘fiylar oddiy hayot kechirish uchun zarur bo‘ladigan tirikchilik vositalari, moddiy boylikka ega bo‘lganlari holda unga mehr qo‘ymaganlar, boylikni ko‘paytirish haqida emas, balki uni muxtojlarga tarqatish haqida ko‘proq qayg‘urganlar. Bu esa hukmdor va mulkdorlar uchun ibrat edi. Binobarin, so‘fiylar ta’limoti jamiyatni boshqarish, uning istiqboli uchun mas’ul bo‘lgan hukmdor va mulkdorlar uchun zarur edi.

Shayx Farididdin Attorning “Tazkiratul avliyo”, Shayx Abdurahmon Jomiyning “Nafohatul uns”, Shayx Miralisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarlarida aynan “bob” so‘zi eshik, ya’ni pir va uning darvozasi ma’nosida keladi. Darvoqe,

“darvesh” so‘zining o‘zi ham sufiyona asarlar lug‘atida “darvoza” so‘zi o‘zagidan olingani ma’lum.

Shuningdek, “Ming bir kecha” turkumidagi “Ali bobo va qirq qaroqchi” ertagining germenevtik jihatdan tahlil qilsak, unda bu yozma obidaning matni ostida juda ko‘p haqiqatlar yuz ochadi. Masalan, bunda salaf-ajododlarimiz sufiyona sirlarini kod shaklida ertak qatiga yashirganlari ma’lum bo‘ladi. Ushbu ertakning bosh qahramoni Ali bobo aslida Ali bobdir. Ya’ni Ali pir yoki Ali eshik desa ham bo‘ladi. “Qirq qaroqchi” esa chiltan, ya’ni qirq tan, qirq avliyo. Qaroqchi, g‘or va boshqa obrazlar ramziy ma’no kasb etadi. Jumboqli, sir-sinoatli, bir qancha tilsimni bag‘riga olgan bu g‘orning siri ertakda Ali bob tufayli ochilib qoldi.

Majlisda hozir bo‘lganlarning adadi yoki ertakda yashiringanlar miqdori Alibob bilan hisoblaganda qirq bir kishidir. G‘or siri esa ilmi laduniydir. Ya’ni tanlab olingan zotlargina bahramand bo‘ladigan ilohiy ilmdir. Ertakda “Sim-sim ochil” deydi, biroq aslida ismi a’zam o‘qilib “Tilsim ochil” deyiladi. Qirq kishi – chiltanlar haqida ma’lumotlar aziz zotlar, avliyolar haqidagi deyarli barcha adabiyotlarda uchraydi. Chiltanlar, ya’ni qirq tanlar dunyoda eng yashirin shafoatchi toifadir. Xudo bildirgan kishilargina ularning sirlaridan ogoh bo‘lishi mumkin. Ularning miqdori hech o‘zgarmaydi, azaliy taqdirga ko‘ra, jamoadan bir kishi vafot topsa o‘rnilariga yangi kishi qo‘shiladi. Chiltanlar ham hamma zamonda mavjuddirlar. Chiltanlarning mavjudligi haqida manbalarda dalillar juda ko‘p. Shayx Farididdin Attor “Tazkiratul avliyo”da shunday naqlni keltirdi: “Shayx Abu Bakr Varroq (Termiziy) bir kuni hazrati Muhammad Termiziyga: “Seni bir yerga olib borsam, men bilan borurmisan?” deganida “Borurman” deb javob berdi. Oldiga tushdi, birgalikda ketdilar. Bir mushkul yerlardan o‘tdilar. Nogoh bir daraxt tagiga yetdilar. Unda bir oltin taxt qurilgan bo‘lib, oppoq kiyimlar kiygan chiroyli, ko‘rkam bir kishi taxt ustida o‘ltirar edi. Uning xuzuriga borib salom berdilar. Ul kishi hazrati Muhammad Termiziyga ta’zim qilib, yoniga o‘tqazdi. Ko‘p turli so‘zlardan so‘zlashdilar. U hech ularning so‘zini tushunmadi. Bir soatdan keyin har tomondan to‘p-to‘p odamlar kelishdi. Qirq kishi bo‘ldilar. Taxt ustida o‘tirgan zot ko‘kdan yoniga ishorat qilgan edi, taomtushdi. Yedilar. Ko‘p turfa so‘zlarni so‘zlashdilar. Hakim Termiziy ijozat so‘radi. Izlariga qaytdilar. Ketayotib Abu Varroq Termiziyga qarab: “Yurgil sayyidlardan bo‘lding”, dedi. Bir soat ichida Termizga yetdilar. Unga (yana): “Bul borganimiz yer Termizdan bir oylik yo‘ldir”, dedi. “Bul borganimiz manzili qayer va ul taxt ustida o‘ltirgan kishi kimdir?” degan savolga javoban “Borganimiz yer Bani Isroil yurti, ul er (taxtda o‘ltirgan) Qutb edi, ul kelganlar esa qirqlar (chiltan) edi”[2], deydi.

[2] Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013y. – B. 464.

Shuningdek, qutblar (ularning soni har bir zamonda turli miqdorda bo‘lishi mumkin, bitta zamonda 4-5 nafar qutb yashashi ham kuzatilgan, hatto qutblar bitta makonda, bitta shaharda bo‘lishi ham mumkin holat) abdollar, g‘avslar, uvayslar (tushda yoki ona qornida belgi bergan zotlar), a’zamlar (ularning soni uch nafar, agar ismi a’zam ham qo‘shilsa to‘rt nafar), siddiqlar va hokazo. Bularning har biri alohida tadqiq etiladigan kategoriyalardir.

Mavzu bo‘linib ketmasligi uchun cheklanamiz. Boblar bilan bog‘liq manbalardan tashqari yurtimizda ziyoratgohlar ham mavjud. Deylik, “Arslonbob”, “Bandi kushod pirim” kabilarni misol keltirish mumkin. Ulug‘ boblardagi fazilat bu – komillik, mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, taqvo, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlar majmuidir.

Inson eng avvalo inson sifatida o‘zini o‘zi taftish qilish ustiga qurilgan ta’limot bu tasavvufdir. Yana ko‘p allomalar tasavvuf – butkul adab, to‘liq axloq deganlar. Shu ma’noda Navoiyning “Nasoyimul – muhabbat” asarida zikri keltirilgan Husayn Voiz Koshifiyning “Futuvvatnomai sultoniy” nomli asarida odamlar uch guruhga ajratilgan bo‘lib, ular: muoshirlar, mutarasmlar, muhaqqiqlardir. Muoshirlar – tariqat ahlining muxlislari bo‘lib, ular qalandar-darveshlarga muhabbat bilan qaraydilar, darveshlar suhbatida ishtirok etadilar, ularning xizmatlarini bajaradilar va savobga o‘zlarini sherik deb biladilar. Keyingi guruhga mansub kishilar esa mutarasmlardir. “Mutarasm” so‘zining ma’nosi esa rasmu rusumga ergashuvchi demakdir. Ammo mutarasmlar darveshlarning odatlariga zohiran taqlid qilsalar-da, botinan hol talabgoridirlar va shu toifaga ixloslari tufayli fayzdan bahramanddirlar. Uchinchiguruh muhaqqiqlar – Haqqa yetganlar, ularni oliy martabali so‘fiylar deb ta’riflash mumkin. Haqiqiy avliyolar, shayxi murshidlar asosan shularning ichidan yetishib chiqadi. Bu o‘rinda muhaqqiq so‘fiylarning najib sifatlari xususida to‘xtab o‘tish joiz deb hisoblaymiz.

Masalan, “Nasoyimul –muhabbat” asarida 51-raqam ostida kelgan yodnomada Abu Ali Sindiy (q. t. s.) haqida shunday deyiladi: “Shayx Ro‘zbehon Baqliy (q. s.) “Shathiyot” sharhida debdurkim, ul Boyazidning ustodlaridindur. Boyazid (q. s.) debdurkim, men Abu Alidin fano ilmini tavhidda o‘rganur erdim. Ul mendin “Al-hamdu” va “Qul-hu-volloh”ni...”

Bu ma’nodan anglashiladiki, ustoz degani hamma narsa faqat undan o‘rganiladi degani emas, ustoz ham o‘z o‘rnida shogirdidan biror fan yoki biror hunaro‘rganishi kuzatiladi. Va shu o‘rinda insonning invidual huquqi hamda erkinligiko‘zga tashlanadi. Shuning uchun ham bu toifa va bu yo‘nalish ahli o‘rganilganda doimiy qoliplar, stereotiplar, standartlar o‘z ahamiyatini yo‘qotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy «Nasoyimul muhabbat min shamoyim – ul futuvvat” Nashrga tayyorlovchi Hamidxon Islomiy. – T.: Movarounnahr, -B. 236.
2. Fariduddin Attor. Tazkiratul avliyo. – T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2013y. – B. 464.
3. Shukur Jabbor. Mansur Halloj siri. -T.: Sano standart, 2009. -B.48

ЖИЗНЬ И ТВОРЧЕСТВО ИСХАКХАНА ИБРАТА

Х.М.Махмудова,
Преподаватель академического лицея ТДШУ

Annotatsiya: *Milliy uyg‘onish davrining yorqin namoyandalaridan biri, ma‘rifatparvar shoir,olim,sayyoh, matbachi va muallim Ishoqxon Ibratning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar berilgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshi jahon sivilizatsiyasining taraqqiyotida keskin burilishlar davri bo‘lganligi, bu davrda chuqur islohotlar, ilm-fan taraqqiyotida tub sifatiy o‘zgarishlar ro‘y berganligi haqida so‘z yuritilgan. Ibratning asarlari mazmuni, g‘oyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tilgan. darsni tashkil etish hamda matnni o‘rgatish doir yondashuvlar, adidlarning asosiy maqsadi dunyoviy ilmlarni egallagan yoshlarni tarbiyalash va ularning ma’naviy ongini oshirish, o‘z vazifasini o‘tay olmay qolgan eskicha ta’lim tizimiga yangicha innovatsion g‘oyalarni singdirish ekanligi haqida fikrlar berilgan. Jadidlar milliy rivojlanish bilan qaramlikka qarshi kurashmoq lozimligini anglaganligi, bu g‘oyalar jadidlar siyosiy faoliyatining asosini tashkil etganligi haqida bayon qilingan.*

Annotation: *Information about the life and work of Ishaqkhan Ibrat, one of the bright figures of the national renaissance period, enlightened poet, scientist, tourist, printer and teacher, is given. It has been said that the end of the 19th century and the beginning of the 20th century were a period of sharp turns in the development of world civilization, during which deep reforms and fundamental qualitative changes took place in the development of science. The content and ideas of Ibrat's works are discussed separately. approaches to the organization of the lesson and the teaching of the text, opinions are given that the main goal of adids is to educate young people who have mastered worldly sciences and increase their spiritual consciousness, to instill new innovative ideas into the old education system that has failed to fulfill its mission. It was stated that the Jadids understoodthe need to fight against dependence with national development, and these ideas formed the basis ofthe political activity of the Jadids.*

От наших великих предков мы унаследовали богатое литературно-художественное наследство. Они до сих пор изучаются молодыми поколениями. Ведь духовное развитие и народное совершенство без них неполноценно. Наманганский край издавна богат литераторами, создавшими литературно-художественные шедевры. Тем более сама жизнь требует заниматься активным пропагандированием и последовательным исследованиемнаследия народа, его лучших представителей. Среди них особое место занимает Исхакхан Жунайдуллахужа угли Ибрат, о котором наш Президент Ш.Мирзияев сказал: “Этот великий просветитель создавал множество научных, педагогических и художественных произведений, а также опубликовал до сих пор редкостный 6 - язычный словарь”.

Действительно, эти слова имеют под собоу основу, потому что Исхакхан Жунайдуллахужа угли Ибрат (1862-1937) считается одним из ярких представителей эпохи национального возрождения, его творчество многогранно, его мировоззрение богато и разнообразно.

Исхакхан тура ибн Джунайдуллаходжа (Ибрат - его псевдоним, которым он подписывал свои статьи, поэтические и научные работы) родился в 1862 г., в кишлаке Туракурган близ Намангана в зажиточной семье опытного садовода. Ибрат – внук известного поэта Афсуса,который считался дворцовым поэтом эпохи Умар- хана. Родители Ибрата знали и любили литературу, писали стихи. Его мать, Хурибиби, была образованной женщиной, обучала сельских девушек в своем доме. В семейной атмосфере сформировался его интерес и любовь к поэзии и каллиграфии. Начальное образование получил в местном медресе и у матери. Позднее, переехав в Коканд, поступил на учёбу в большое медресе. В 1886 году, закончив учёбу в кокандском медресе, вернулся в родной кишлак. Приехав в свой кишлак, Ибрат начинает вести просветительскую деятельность среди населения. В конце этого же года он открывает школу, которая значительно отличалась по системе обучения от других школ, позднее школа обретает популярность и остальные местные школы переходят на систему обучения новообразованной школы Исхокхона Ибрата.

Конец 80-х - 90-е гг. стал для Ибрата годами открытия мира. В 1887 г. он вместе с матерью совершает хадж, в пути мать умирает от болезни. Ибрат не возвращается сразу же домой, а предпринимает путешествие по городам Востока и Запада. В путешествии он сначала побывал в Иерусалиме и Дамаске. Доехав до Стамбула, Исхокхон Ибрат начинает путешествие по Европе. Сначала заезжает в Софию, а от туда едет в Афины и Рим. Во время возвращения из Европы через Стамбул, он заезжает в такие города как, Багдад, Тегеран, Исфахан, Шираз и Карачи. Объездив Иран и Афганистан, Исхокхон Ибрат заезжает в Индию и живет некоторое время в Бомбее и Калькутте. Из Индии он едет в Кашгар. Во время своих путешествий Ибрат выучил в совершенстве такие языки, как греческий, турецкий, арабский, персидский, хинди и урду. Позднее изучает и русский язык. В 1896 г. он едет в Кашгар, посещает внутренние районы Китая. Из этих путешествий Ибрат привез не только знание иностранных языков (хинди, английского, диалектов китайского), его любознательность, стремление к знанию способствовали тому,

что в поле его зрения оказывались обычаи и традиции других народов, их быт и культура, социальные отношения. Особенно его впечатлили достижения науки и техники.

Ибрат принадлежал к тому типу людей, которые равно одарены в совершенно различных сферах деятельности. По свидетельству современников и, судя по его литературному и научно-просветительскому наследию, Ибрат хорошо ориентировался в мировой литературе, был наделен талантом лингвиста, о чем свидетельствует составленный им краткий словарь шести языков - арабского, фарси, турецкого, индийского, узбекского, русского. Его лингвистическая работа «Жоме-ул-хутут» и в наше время не выглядит архаизмом. Одаренный поэт принимал участие в поэтических состязаниях, был незаурядным публицистом, не говоря уже о том, что получил классическое восточное образование в медресе. Ибрат проявлял интерес к естественным наукам, увлекался химией и техникой.

В Туракургане поэт построил баню, другие здания, разбил большой сад. Будучи одним из первых типографов страны, Ибрат домла в 1908 году купил в Оренбурге литографическую машину и вез ее из Оренбурга до Коканда - на поезде, из Коканда в Туракурган - на верблюдах и в своем дворе открыл типографию “Исхокия”. Близкий друг Ибрата Хусаин Макеев приехал из Татарстана и руководил литографией типографии и работал наборщиком шрифтов. А чуть позже преподавал русский язык в той школе, которую открыл Ибрат. Ибрат издавал учебники, художественную литературу, открытки и открыл несколько книжных магазинов в Туракургане, Намангане, Янгикургане, Чусте и Папе. Позднее при типографии он создал библиотеку.

Эта типография действовала до 60-х годов прошлого века, в ней издавали научно-просветительские книги, брошюры, национальные газеты, для их распространения по всей Ферганской долине были открыты десятки книжных магазинов.

В 1912 году Ибрат публикует в собственной типографии «Матбааи Исхокия» свое уникальное произведение про историю письменности языковпод названием «Джоме-уль-хутут». В последующие двадцать лет своей жизни он пишет 14 научных, исторических и лингвистических книг. Среди них особенно известны такие книги, как «Тарихи Фаргона» («История Ферганы»), «Тарихи маданият» («История культуры»), «Мезон уз-замон» («Периоды в подробностях»), «Забонхои шарк» («Языки востока») и др. За это время он

также объединяет в один сборник под названием «Девони Ибрат» все своистихи, написанные за 30 лет жизни.

Если основателем узбекского языкознания считается Махмуд Кашгарий со своим произведением “Девону луғотит турк”, то такие представители, как Махмуд Замахшарий, Алишер Навоий, Захириддин Мухаммад Бабур подняли узбекский язык на более высокий уровень. С XX века началось изучение лингвистических творений узбекских просветителей, усилился интерес к исследованию своего наследия. Исакхан Ибрат, также как Махмудхужа Бехбудий, Абдулла Авланий, Абдурауф Фитрат и Ашурали Захидий хотел обогащать несколько отсталый узбекский язык, защищать его лексическую структуру и сравнивать его с другими языками. Это являлось отвагой и самоотверженностью для тех времён. Любой творец перед тем, как взять в руки карандаш, ставит перед собой вопрос “Что необходимо, что не нужно современному миру?

Исоқхон Ибратнинг «Жомеъ ул-луғат» асарида келтирилган турли ёзув намуналари

И нашему Ибрату это черта была свойственна. В 98 выпуске газеты “Туркестанская ведомость”, напечатанном 7 декабря 1890 года, был отзыв, который привлёк внимание Ибрата “Узбеки не дают покоя, требуя учебник, обучающий русскому языку на узбекском языке”. Нужно особо выделить, что у местного народа возник большой интерес к изучению языка на основе книги “Луғати ситтати ал сина” (1901 год, Ташкент). Исакхан Ибрат оказал помощь своему народу. Словарь составлен на основе 6 языков: арабского, персидского, индийского, тюрского, узбекского и русского. Поэтому среди пользователей он известен как шестиязычный словарь. День за днём из-за большого количества желающих, книга распространялась даже в рукописном варианте. Произведение состоит из 53 глав, в котором собрано более 1000 слов, словарь разделен на две части. Первая часть составлена по алфавиту. Каждой букве посвящена отдельная глава. Переводы неопределённых форм и будущее время глаголов даны сперва на персидском, потом на арабском, тюркском, узбекском, индийском и русском языках. Комфортность в том, что в словаре даны рабочие слова нашей повседневной жизни. Непонятные архаичные слова в нём отсутствуют. Приведём примеры со страниц 9 и 10 словаря:

tutmak – держать,

tutar – держит ёки держать.

tikmak – шить, tikar – шьёт.
topmak – находить,
topar – находит.
bermak– дать,
berur- даст
yiltiramoq- блестеть,
yiltirar – будет блестеть.
O‘g‘irlamoq – воровать,
O‘g‘irlar– будет красть.
Sog‘moq – доить, sog‘ar – будет доить.
yugurmoq – бегать, yugurar – будет бегать.

Переходим ко второй части словаря. Она состоит из 37 глав. В них даны слова действий и состояния, имена существительные, личные местоимения,дни, месяцы, названия человеческого организма, животных и насекомых на6 языках. Чтобы было понятно, мы ограничимся русско-узбекскими примерами из словаря.

taom – пища
un – мука
kulcha – лепёшка
qand – сахар.
shirguruch – молочная каша.
qatiq – кислое молоко.
somsa – пирожок.
Sho‘rva – суп.
qovurma – жаренное.
maza– вкус
och – голод.
dasturxon – скатерть.

Особенность словаря Исакхана в том, в том, что он составлен на основе арабской письменности. Языковед зная то, что в те времена большинство среднеазиатских народов пользовались арабской письменностью, иисполь зовал её, что и стало причиной популярности его произведения, среди просветителей своего времени именно этим он внёс свой вклад в развитие общения своих современников. В заключение подведём итоги, сделаем научно-теоретические выводы, определеим перспективы дальнейшего исследования, главные из которых сводятся к следующему:

- незаурядная личность Ибрата, его разносторонняя деятельность как просветителя, исследователя являются веским доводом против не так давно бытовавшего убеждения, что интеллектуальная, духовная жизнь в Туркестане в конце XIX - начале XX в. находилась в застое;

- Ибрат принадлежит к тому поколению национальной интеллигенции, из среды которой вышли реформаторы, сформировавшие джадидское движение. Участвуя в нем, Ибрат стремился на практике воплотить идеи прогресса в школьном образовании, в повседневной жизни простых людей;

- научные интересы Ибрата распространялись на области точных и гуманитарных дисциплин. Его работы «Тарихи Фаргона», «Тарихи маданият», «Мезон ул замон», многочисленные статьи написаны на основе знанияширокого круга источников по истории, культуре, литературе Востока и его родной Ферганы, а также на основе знакомства Ибрата с исследованиями зарубежных ученых;

- стремясь доказать необходимость научного и технического прогресса, заимствования всего лучшего, Ибрат одновременно призывал к сохранению своих культурных корней, своей самобытности. Будучи убежденным сторонником реформ, он не отрицал традиционное в угоду прогрессивному, так как полагал, что и традиция, и новация могут нести в себе как отрицательное, так и положительное влияние на жизнь общества.

Список литературы:

1. «О создании школы-интерната иностранных языков имени Исхакхана Ибрата в Туракурганском районе» Ташкент, 5 сентября 2017 г.,№698 Постановление Кабинета Министров Узбекистана
2. Vohidova K.A. Ibratning ibratli yo‘li // Fidokor. - 1999.
3. Dolimov U. Isxokxon Ibrat. T: Sharq;, 1994.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002
5. Voxidova K.A. Isxoqxon Ibratning «Lutati sitta al sina» nomli asarining bugungi kundagi ahamiyati // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. - 1995 - 10-11-12-son.

AXBOROT SOATLARIDA AJDODLAR ADABIY MEROSINI O‘RGANISHDA TYUTORNING ROLI

Shuhrat Jabborov,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Turkshunoslik fakulteti dekan o‘rinbosari
E-mail : shukur_jabbor@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tyutorlik tushunchasi, axborot soatlarida talabalarga ajdodlar adabiy merosini o‘rgatish prinsiplari va o‘ziga xos vazifalari yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *tyutor, axborot soati, tyutorlik faoliyati, talaba, ajdodlar merosi.*

Аннотация: *В этой статье освещается концепция тьюторства, принципы и конкретные задачи обучения студентов литературному наследию предков во время проведения информационных часов.*
Ключевые слова: *тютор, информационный час, тьюторская деятельность, студент, наследие предков.*

Abstract: *This article highlights the concept of tutoring, the principles and specific tasks of teaching students the literary heritage of their ancestors during information hours.*
Keywords: *tutor, information hour, tutor activity, student, ancestral heritage*

Bugungi kunda «tyutor» atamasining bir necha ta’riflari mavjud bo‘lib, ingliz tilidan tarjima etilganda tutor tom ma’noda ustoz, murabbiy, instruktor-yo‘l ko‘rsatuvchi ma’nolarida qo‘llaniladi. Pedagogik-psixologik atamalar lug‘atida «o‘quvchilarining bilimdon murabbiyi” deb ta’rif berilgan.

Xalqimiz azaldan buyuk zotlar va avliyolarga ehtirom bilan qarab, ularni ulug‘lash bilan qatorda, vafot etganlaridan so‘ng ham muntazam ziyorat qilib turish an’anasiga amal qilib kelgan. Ana shulardan kelib chiqib axborot soatlarida talabalarga buyuk allomalar, nomlari unitilib ketayotgan avliyo darajasidagi ulug‘ zotlar haqida ma’lumot berish talab etiladi.

Istiqlol sharofati bilan milliy o‘zligimizni anglash, ko‘xna tariximizni tiklash va o‘rganish imkoniyatiga sazovor bo‘ldik. Shunday ekan, talablarga axborot soatlarida bu haqda uqdirib, fikrlashish lozim bo‘ladi. Axborot soatlarida buyuk ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Shayx Najmiddin Kubro, Baxovuddin Naqshband kabi mutafakkirlarimizning nomlari tiklanib, ularning ma’naviy merosi o‘rganilishi uchun keng imkoniyatlar yaratib berilgani, bu to‘g‘rida barcha talablar ma’lumotga ega bo‘lishini ta’minlash tyutorlarning vazifasiga kiradi. Mustaqillik yillarida buyuk bobolarimiz xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari, ziyoratgoxlar jamiyatimiz ma’naviyatini yuksaltirishga, milliy ong,

o‘zlikni anglash va milliy g‘ururni yuksaltirishga bularni talaba- yoshlar ongida shakllantirishga xizmat qiladi.

Axborot soatlarida Movarounnahrdan yetishib chiqqan allomalarning hayoti va ilmiy merosi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, texnika va texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi davrda talabalarning ijtimoiy tarmoq va internet saytlaridan oqilona foydalanishi, turli axborot xurujlaridan ogoh va xushyor bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi.

Masalan, ajdodlar merosini o‘rganishda IX asrda Imom Termiziy “Sunani Termiziy” asari orqali Termiz hadis maktabini dunyoga tanitgan bo‘lsa, XII asrda Majiduddin Ja’far ibn Ali Musaviy astronomik tadqiqotlar uchun Movarou nnahrdagi ilk rasadxonaga asos solgani to‘g‘risida ma’lumot berish, talabalarni qiziqtirish lozim bo‘ladi. Tariximizni haqqoniy yoritishda xalqimizning yaratuvchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan qadimiy shaharlarimizdagi yodgorliklar, obidalar, inshootlarni qayta qurish, ta’mirlash, asl holida bunyod etish kabi ishlarga alohida e’tibor berildi. Bu bejiz emasdi. Chunki bu madaniy boyliklar tariximizning asl manbalari, jonli guvohlari, ilmiy asoslari hisoblanadi. Ma’lumki, mamlakatimizda 7198 ta tarixiy yodgorliklar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan 2357 tasini me’moriy obidalar, 3843 tasini arxeologik yodgorliklar, 998 tasini mahobatli tarixiy inshootlar tashkil qiladi. Bu raqamlar mamlakatimizni nafaqat Sharqda, balki butun dunyoda tarixiy madaniy yodgorliklarga boy o‘lkalardan biri sifatida namoyon etadi. Shular orasida tarixiy me’moriy obidalar alohida o‘rin tutadi.

Yuqoridagi ma’lumotlar talabalarga axborot soatlarida ta’kidlab borilsa ularda o‘zga madaniyatga taqlid qilishi kamayadi. Yurtimiz mustaqillikka erishishdan oldin sanab o‘tilgan me’moriy yodgorliklar, obidalarning aksariyati buzilgan, ta’mir qilinmagan, yarim vayrona holatlarda edi. Davlatimiz rahbarlari birinchi navbatda, ana shunday inshootlarni, yodgorliklarni qayta qurish, ta’mirlash, asl tarixiy asosda bunyod etishga e’tiborni qaratganini barcha talaba ham bilmaydi. Eng avvalo, bu boradagi ish respublikamizning eng yirik tarixiy shaharlaridagi yodgorliklardan boshlandi. Samarqanddagi Registon, Ruhobod, Xoja Ahror Vali, Jomye masjidi, Chorsu majmualari, Amir Temur, Bibixonim maqbaralari, Hizrati Hizr masjidi, Mirzo Ulug‘bek rasadxonasi, Nodir Devonbegi madrasasi, Buxorodagi ChashmaiAyub, Bolo hovuz, Chor minor, Ark, Labi hovuz majmualari, Kalon minorasi, Mag‘oki attor, Kalon, Qushbegi, Toqi-Sarrofon, Muzaffarxon masjidlari, Tolipoch darvozasi, Mir Arab, Mirzo Ulug‘bek, Ko‘kaldosh, Abdullaxon, Tosh saroymadrasalari qaytadan, asl tarixiy qiyofasida qad rostladi. Xivadagi Ko‘xna Ark, Tosh hovli, Qibla toza bog‘, Dishon qal’a, Nurullaboy majmualari, Ichon qal’a devori,

darvozalari, Juma masjidi, Muhammad Aminxon, Feruz, Islom Xo‘ja madrasalari, Qo‘qondagi Xudoyorxon o‘rdasi, Jomye masjidi, Norbo‘tabiy, Miyon Hazrat madrasalari, Qarshidagi Odina masjidi, qadimiy ko‘prik, Xojai Jarroh, Chor Gumbaz majmualari, Qilichboy, Bekmir madrasalari tarixning noyob merosi — nodir yodgorliklar, osori-atiqalar, inshootlar sifatida qayta tiklandi, ta’mirlandi, xalqimizning ma’naviy mulkiga aylandi. Xuddi shunday ulug‘vor ishlar Toshkentda Hazrati imom, Shayx Xovand Tohur, Zangiota majmualarida, Ko‘kaldosh madrasasida, Termizda Sulton Saodat, Qirq qiz, Hakim at-Termiziy majmualarida, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Dor ut-tilovat, Gumbazi sayyidon, Dor us-siyodat majmualarida ham olib borildi.

Ilojini boricha talabalar qiziqtirib, ana shu ziyoratgoh va qadamjolarga sayohat qilishlarini ham ta’minlash tyutorlar vazifasiga kiradi. Darvoqe, Samarqand shahridagi Shohi Zinda, Imom al-Buxoriy, Xoja Doniyor majmualari, Buxorodagi Labi hovuz, Kalon masjidi, Chor Bakr, Ark me’moriy yodgorliklari, Shahrisabzdagi Ko‘kgumbaz, Dor us-siyodat, Oqsaroy obidalar turkumi, Marg‘ilondagi Piri Siddiq, Said Ahmad meros obe’ktlari, Xivadagi Ichon qal’a shahristoni nodir yodgorliklari, Toshkentdagi Xasti Imom me’moriy inshootlari, Termizdagi termiziylar qadamjolari tarixiy ko‘rinishga monand tiklandi.

Bu ulug‘ ishlarning barchasi talaba-yoshlar va umuman xalqimiz uchundir. Ayni paytda, ulug‘ ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Sulton Uvays Qoraniy, Iso at- Termiziy, Mahdumi A’zam, Abu Xafs Kabir kabi allomalarimiz nomlari bilan ataladigan 50 dan oshiq muqaddas ziyoratgohlar ham qayta bunyod etilib, xalqimizning oyog‘i uzilmaydigan obod va go‘zal maskanlarga aylandi.

Yurtimizda mustaqillik yillarida madaniy meros obyektlarini qayta qurish, ta’mirlash va obodonlashtirish bilan birgalikda o‘tmishda yashab o‘tgan ulug‘ allomalar, mashhur ijodkorlar, buyuk siymolar merosini o‘rganish, nomlariniulug‘lash, xotiralarini abadiylashtirish borasida ham ulkan ishlar qilindi.

Tyutorlarning vazifasi ana shu obidalar haqida talabalarga ma’lumot berish, xolos. Ulug‘ mutafakkir, matematika va algebra fanlari asoschisi Muhammad Muso al-Xorazmiy, buyuk astronom, tarixda nomi qayta tiklangan alloma Ahmad Farg‘oniy, tabobat ilmining sultoni, tib ilmi qonunlarini yaratgan Abu Ali ibn Sino, o‘rta asrlar astronomiya ilmining ulug‘ namoyandasi Mirzo Ulug‘bek, mumtoz she’riyatning o‘lmas dahosi Alisher Navoiy haykallarining o‘rnatilishi mana shu davrda kechdi. Atoqli mutakallim Abu Mansur Moturudiy, buyuk faqih, “Hidoya” asari muallifi Burxoniddin Marg‘inoniy, ulug‘ muhaddis Imom al-Buxoriy, Xojagon tariqatining mashhur namoyandasi Abulholiq G‘ijduvoniy, naqshbandiya tariqatining

asoschisi Bahouddin Naqshbandiy, mutasavvuf alloma, ulug‘ shoir PahlavonMahmud, xalqqa ko‘p yaxshiliklar qilgan, Hazrati Imom nomi bilan mashhur bo‘lgan Shayx Qaffol Shoshiy maqbaralarining va muqaddas qadamjolarining tiklanishi, qayta qurilishi, obod qilinishi istiqlolga erishganimiz sababli yuz berdi. Tariximizning o‘lmas siymolari, xalqimiz va Vatanimiz ozodligi uchun kurashgan Jaloliddin Manguberdi, Sharqda qudratli va adolatli davlat yaratgan Amir Temur,ham shoir, ham davlat arbobi sifatida tanilgan Zahiriddin Muhammad Bobur majmualari, haykallari yurtimiz mustaqilligining sharofati tufayli tiklandi. Mana shunday buyuk mutafakkirlar, ulug‘ siymolarning xalqaro doirada bir necha yuz va ming yillik to‘ylari o‘tkazildi. O‘zbekiston dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk daholar yurti ekanligi e’tirof etildi.

Axborot soatlarida talabalarni ushbu ajdolarimiz ma’naviy merosiga qiziqtirish uchun so‘rovnoma usullaridan, interfaol metodlarda foydalanilsa ayni muddao bo‘ladi. Umuman, respublikamizda mustaqillik yillarida mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar qayta qurilib, ta’mirdan chiqarildi. Bu ishlar uchun bir necha yuz milliard so‘mlik mablag‘ sarflandi. Tarixiy merosimiz tiklandi, qadriyatlarimiz qaror topdi. Yurtimizda amalga oshirilgan ulug‘vor ishlar xalqaro miqyosda ham tan olindi.Mamlakatimizdagi to‘rtta qadimiy shahar — Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz xalqaro YUNESKO tashkiloti tomonidan Butun jahon moddiy madaniyat namunalariga ega bo‘lgan tarixiy shaharlar ro‘yxatiga kiritildi. 2007-yilda Toshkent shahri ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha Islom tashkiloti — AYSESKO tomonidan “Islom madaniyati poytaxti”, deb e’lon qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti va YUNESKO xalqaro tashkilotining qarorlariga ko‘ra, Samarqand shahrining 2750, Shahrisabz va Qarshi shaharlarining 2700, Buxoro, Xiva, Termiz shaharlarining 2500, Toshkent va Marg‘ilon shaharlarining 2200, 2000-yillik to‘ylari dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda nishonlandi.Bularning hammasi istiqlol yillarida O‘zbekistonning tarixini boyitish, yangilash bilan birgalikda uning dunyoviy nufuzini oshirdi, xalqaro darajada mavqeini yuksaltirdi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ma’lumotlarni talabalar ongi shuuriga singdirish orqali ushbu ajdodlarimizga ehtiromli, haqiqiy vorislarni tarbiyalash imkoni paydo bo‘ladi. Buning uchun esa tyutorlarni universitetning boshqa o‘qituvchilaridan ham ko‘proq mas’uliyatli vazifa kutib turibdi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. Ўзбекистан Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистан Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш туғрисида»ги ПФ-5847-сон Фармони// lex.uz
2. Inncheon declaration // Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
3. Лях А.Ю. Развивающий потенциал тьюторских технологий в системе обучения старших школьников // Образование и наука. 2013. № 10 (109). ст. 3751
4. Ковалева Т.М., Кобыща Е.И., Попова (Смолик) С.Ю., Теров А.А., Чередилина М.Ю. Профессия «тьютор». М. -2012. Тверь: «СФК-офис». -246 с
5. Сайфиддин Сайфуллоҳ. Етти пир. (Дунё муршидлари) –Тошкент: “Ўзбекситон” 2019. –Б. 285.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 30 sentyabrdagi 412-son buyrug‘iga 1-ilova. “Davlat oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom” [Elektron resurs] / https://edu.uz/uz
7. Urinova N.M., Abdullayeva X. Tyutorlik faoliyatining shakllanishi, uning tarixiy va zamonaviy xususiyatlari [Elektron resurs] / https://cyberleninka.ru/article/n/tyutorlik-faoliyatining-shakllanishi-uning-tarihiy-va-zamonaviy-hususiyatlari
8. Boymurodov A.X., G‘aniyev I.D., Rejabov M.Y. «Ustoz-tyutor-talaba» ilmiy faoliyati [Elektron resurs] / https://cyberleninka.ru/article/n/ustoz-tyutor-talaba-ilmiy-faoliyati.
9. Челнокова Е.А. Тьюторская деятельность педагога в условиях профильного обучения: дис. кандидат педагогических наук: 13.00.01 - Общая педагогика, история педагогики и образования. – Нижний Новгород, 2010. – 184 с.

SHUHRATNING “MASHRAB” ROMANIDA PORTRET YARATISH MAHORATI

Vazira Sultonova,
JDPU o‘qituvchisi

Annotatsiya: *O‘zbek adabiyoti tarixida shoir va yozuvchi sifatida o‘chmas iz qoldirgan,qalam tebratgan adiblarimiz juda ko‘pchilik. XX asr adabiyotimizning shunday zabardast darg‘alaridan biri – Alimov G‘ulom Aminjonovich (Shuhrat)dir. Adib nazm va nasrda birdek qalam tebratgan shoir, nosir, dramaturg hamda tarjimon. Shuhratning “Orzu va qalb” dostoni, “Mehrol” doston-ertagi, “Hayot nafasi”, “Qardoshlar” she’riy to‘plamlari, “Farzand”, “So‘lmas chechaklar”, “Oqibatli kishilar”, “Sening sevging”, “Ishqingda yonib” lirik kitoblari, “Kavkaz daftari”, “Buyuk muhabbat” kabi she’riy turkumlari, “Oltin zanglamas” “Jannat qidirganlar” singari kitobxonlar tomonidan doimo sevib mutolaa qilib kelinmoqda. Mazkur maqolada adibning tarixiy mavzudagi “Mashrab” tarixiy romani haqida ma’lumot keltirilgan. Asarda yozuvchining portret yaratish mahorati xususida mulohaza bildirilgan. Asardagi qahramonlarning ham tashqi ko‘rinishi tasviri, ham ruhiy kechinmalari tasviri haqida fikr bildirilib, tahlil maydoniga olib kirilgan.*

Kalit so‘zlar*: Shuhrat, Mashrab, roman, portret, Arzigul**,** tahlil, xulosa.*

Аннотатция: *Есть немало писателей, оставивших неизгладимый след в истории узбекской литературы, среди них Алимов Гулам Аминжонович (Шухрат) – один из крупнейших деятелей нашей литературы XX века. Литератор – поэт, прозаик, драматург и переводчик, писавший одновременно стихи и прозу. Такие эпические произведения Шухрата, как «Мечта и сердце», эпос- сказка «Мехрол», «Дыхание жизни», поэтические сборники «Кардошка», «Дитя», «Неизгладимая оспа», «Люди последствий», «Твоя любовь», «Ишкинда Яниб» Лирические книги «Кавказская тетрадь», «Буюк Мухаббат», «Алтын Зангламас» и «Искатели рая» всегда любимы и читаются читателями. В данной статье представлена информация об историческом романе писателя «Машраб». В произведении исследуется умение писателя создавать портреты. Было высказано мнение о внешнем виде героев произведения, а также описании их душевных переживаний, и они были выведены в поле анализа.*

Ключевые слова: *Слава, Машраб, роман, портрет, Арзигуль, анализ, вывод.*

Abstract: *There are many writers who left an indelible mark in the history of Uzbek literature as poets and writers. Alimov Ghulam Aminjonovich (Shuhrat) is one of the great figuresof our 20th century literature. Adib is a poet, prose writer, dramatist, and translator who wrote poetry and prose at the same time. Shuhrat's epic «Dream and Heart», epic-tale «Mehrol», «Breathof Life», poetry collections «Kardoshka», «Child», «Indelible Smallpox», «People of Consequences», «Your Love» , «Ishqingda Yanib» lyric books, «Caucasian Notebook», «Buyuk Muhabbat», «Altin Zanglamas» and «Paradise Seekers» are always loved and read by readers.This article provides information about the writer's historical novel «Mashrab». The work comments on the writer's ability to create portraits. An opinion was expressed about the appearance of the heroes in the work, as well as the description of their mental experiences, and they were brought into the field of analysis.*

Key words: *Fame, Mashrab, novel, portrait, Arzigul, analysis, conclusion.*

Ma’lumki, Mashrab nomi XVIII-XIX asrlarda tuzilgan tazkira va tasavvufiy yo‘nalishdagi asarlarda zikr etiladi. Bade Samarqandiyning “Muzokir ul-ashob” fikrimizning isbotidir. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma’lumotlar nihoyatda kam. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma’lumot beruvchi manba yo‘q. Uning o‘z asarlarini to‘plab, devon yoki biror majmua tuzganligi ma’lum emas. Faqat “Devoni Mashrab”, “Devonai Mashrab”, “Eshoni Mashrab”, “Hazrati shoh Mashrab” nomlari ostida xalq orasida qo‘lyozma va toshbosma shaklida tarqalgan qissalardagina shoirning hayot yo‘li va ijodiy faoliyati ma’lum tartib va izchillikda bayon etiladi, shu jarayonda asarlaridan namunalar ham keltiriladi. Qissalar keyinchalik o‘zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to‘qimalar, yangi-yangi rivoyat, naqllar, sarguzasht va latifasimon lavhalar bilan to‘ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab va uning ijtimoiy va ijodiy faoliyati xalq tasavvuridagi to‘qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht-rivoyatlar bilan qorishib ketgan. Bugungi kunga qadar Mashrab hayot yo‘li hamda ijodiy faoliyatini yoritib beruvchi ko‘plab badiiy adabiyot namunalari yaratilgan. Shuhratning “Mashrab” romani, Mirkarim Osimning “Singan setor” qissasi, Ibrohim G‘ofurovning “Gala”, “Alif” nomli hikoyalari, Aziz Tursunning “Mashrab” lirik dramasi shular jumlasidandir.

Shuhratning “Mashrab” romani adibning tugallanmay qolgan asaridir. Ushbu tarixiy asarida adib Boborahim Mashrab oilasi, turmush-tarzi, mutafakkirning bolalik yillari, ustozlari, savod chiqarishi va tahsili yuksalishi, o‘smirligi, ko‘nglidagi otashin muhabbati singari vaqealarni marjon singari tizib kitobxonga yetkazishga harakat qiladi. Asarni o‘qir ekansiz, go‘yo Mashrab yashagan davrga, uning oilasiga tushib qolasiz. Roman sodda tilda va uslubda bayon etiladi. Bu esa kitobxonni toliqtirmay, balki o‘z olami qa’riga olib kirib ketadi. Yozuvchi qahramonlarni ham ijtimoiy holati, kasb-koriga ko‘ra tasvirlaydi.

Muallif asarni ayni Bahor faslining yurtga kirib kelishi, uning insonlarga hamda ularning hayotiga o‘zgacha ta’siri, kishilar qalbidagi, turmushidagi o‘zgarishlarni tasvirlashga harakat qiladi. Asar boshlanishida adib Namanganqizlarining o‘ziga fazilatlari, shaddodliklari, milliylikka yo‘g‘rilgan yurish-turishlari, o‘zbekona odob-axloq, ibo-hayoni tasvirlab shunday yozadi: “… Namanganning tili chuchuk qizlari-ku, juda ochilib ketadilar. Qirq kokil qilib soch o‘rishi, satang qilib farq ochishini o‘shalarga chiqargan! Xipcha bellarini yanada xipcha va nozik qilib chiqqan beqasam nimchalar ularni sambitqomat qilib yuboradi. Ularning bu paytdagi yurish-turishlari va gap-so‘zlarida o‘zgacha bir latofat va nazokat bor” [3. b11].

Ko‘rinadiki, bu tasvirlar orqali ijodkor o‘zbek xotin-qizlarining portretini yaratishga harakat qiladi.

Portret – (fransuzcha portrait-surat) 1) adabiy qahramonning tashqi qiyofasi, ko‘rinishi, kiyim-kechagi, xatti-harakati, o‘zini tutishi va hokazolarning asardagi tasviri. Ijodkor portret yaratishda yuz, ko‘z, qosh, lab, burun kabi a’zolarni tasvirlash bilan cheklanmay, gavda, qo‘l, bosh harakatlari manerasi, gapirish ohangi va sur’ati, kulishi, yig‘lashi kabi inson ruhiyati bilan bog‘liq faoliyatlarga ham katta e’tibor qaratadi [2, b185]

Shuningdek, adib o‘zbek xonadoni ayollarining tasvirini nafaqat tashqiko‘rinish tomonidan, balki ularning uy tutishi, saranjom-sarishtaligi, mehnatsevarligi, oilasi uchun yelib-yugurishi, yo‘qdan bor qilishi, har bir narsani uvol qilmaslikka intilishi, tinim bilmay mehnat qilishi kabi fazilatlarini hayotiy voqealar asosida tasvirlashga harakat qiladi hamda, birgina, Mashrab onasining xatti-harakatlari orqali ochib beradi. “… Mashrabning onasi o‘sma, hojirayhon, kashnich ekadi, kuz kelsa, ro‘zg‘orda ishlatilmagan mayda no‘sh piyozni suqib qo‘yadi. … Ota ham “onangni dehqonchiligini ko‘r”, deb tegishib qo‘yadi” [3, b20]. “Onangni dehqonchiligi ko‘r” jumlasi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Asarda oddiy kosiblar turmush-tarzi, hayoti, ularni qiynagan turli qiyinchiliklar, qo‘li kaltalik, kambag‘alchilikning oqibatlari ham hayotiy chizgilar orqali tasvirlangan. Mashrabning otasi kosib bo‘lib, uni ijodkor shunday tasvirlaydi: “Valibobo bu yerda kosibchilik qiladi. …dam olish kunlarini bilmaydi. Ko‘zining nurini to‘kib, bir teshikdan ikki ip o‘tkazib chok tikadi, barmoqlarini qoraytib pardoz beradi. Mum va gulxayrining rangidan barmoqlari qorayib, tirnoqlari yeyilib ketgan. Ba’zan bozordan chehrasi ochilib kelmasa, ko‘pincha qovog‘idan qor yog‘ib darg‘azab qaytadi.

… Ana shu paytda basharasiga qarab bo‘lmaydi – unniqib ketadi. Za’faron rangi teg-tegidan ko‘kimtir tortib, shunday ham chuqur ko‘zlari ich-ichiga quduqdek botib ketadi”[3, b21].

Ko‘rinadiki, o‘sha zamonlarda turmush qiyinchiliklari oddiy xalqni juda ko‘p qiyinchiliklarga duchor etgan. Birgina Valibobo tasviri orqali barcha kosiblar, temirchilar, bo‘zchilar, jamiyki oddiy hunarmadlar, dehqonlar portretlari ifodalab berilgan.

Portret nafaqat qahramonning tashqi ko‘rinishi, balki ruhiy holati, ichki kechinmalari tasviri hamdir. Jumladan, asarda Mashrab Arzigulni ko‘rib qoladi. O‘zi istamagan holda qalbiga muhabbat kirib keladi. Ishq otashi uning butun vujudini

yondira boshlaydi. Yon atrof ham unga o‘zgacha nafosat, go‘zallik bilan ko‘rina boshlaydi.

“Mashrab bu qiziq lahzani tag-tomiri bilan idrok etib ololmas edi. Ancha yerga borgach, yana orqasiga, o‘sha tutga, qiz turgan shoxga qaragisi keldi, birnarsadan hayo qilgandek tortinib qaradi” [3, b15].

“Tiliga nuqul oddiy bo‘lmagan so‘zlar tizimi kelar, g‘azalga o‘xshab ohang kashf etib, yuragini to‘lqinlantirib yuborardi, har to‘lqinlantirganda ko‘ksi larzaga kelib, ko‘ngli yorishib ketardi. Ko‘ziga tushgan oddiygina buyumlar, olisdagi daraxtlarning uchlari, tom boshidagi kechagina qovjiragan giyohlar, osmondan goh-goh uchib o‘tgan qushlar, musichalar ku-kusi, hatto chelak botirganda to‘lqinga kelgan hovuzchadagi suv ham ajib latofat va go‘zallik kasb etar, allaqanday birohangda, g‘alati bir tilda so‘zlashayotganga o‘xshar edi” [3, b 18]

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mutafakkir Mashrab hayoti va ijodi,uning badiiy adabiyotdagi tasviri hamda talqinini bugungi kun talablaridan kelibchiqib, sof adabiyotshunoslik mezonlari asosida qayta o‘rganish asosiy vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Musurmonov E. Rahimbobo mashrab va uning badiiy adabiyotdagi talqini. – filologiya fanlari nozmodi limiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Samaradqand.1995.
2. Salayev F. Qurboniyozov G. Adabiyotshunoslik atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Yangi asr avlodi, 2010.
3. Shuhrat. Mashrab – T.: Sharq, 1998.
4. www. Ziyo.uz
5.

SUV OBRAZINING BADIIY-ESTETIK TALQINI

Matluba Ulkanboyeva,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
E-mail: matlubaulkanboyeva@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur maqola suv obrazining badiiy-estetik talqiniga bag‘ishlangan. Maqolada Furqat Alimardonning “Pichirlangan sirlar” qissasida qo‘llangan suv va quriyotgan Orol obrazi badiiy tahlil qilingan. Yoshlar nasrida adabiy an’ana va novatorlik masalasiga e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar:** badiiy adabiyotda suv timsoli, ramziylik, an’anaviylik va novatorlik, syujet sistemasi, ijtimoiy muammo, badiiy muammo, uslub.*

***Аннотатция:** Данная статья просвящена художественно-эстетической интерпрематsiи образа воды. В статье анализируется образ воды и высыхащего Арала, использованный в рассказе Фурката Алимардона «Пичирланган сирлар». Отмечается, что в молодежной прозе уделяется внимание вопросу литературной традиции и новаторства.*

***Ключевыу слова:** символ воды в литературе, символика, традиционализм и новаторство, сюжетная система, социальная проблема, литературная проблема, стиль.*

***Abstract**: This article is devoted to the artistic and aesthetic interpretation of the imagine of water. The article analyzes the image of water and drying Orol used in Furqat Alimardon’s story “Pichirlangan sirlar”. In youth prose, attention is paid to the issue of literary tradition and innovation.*

***Key words:** water symbol in literature, symbolism, traditionalism and innovation, plotsystem, social problem, literary problem, style.*

Nihol tuproq ostidagi urug‘ bag‘ridan bo‘y cho‘zadi. Ya’ni har qanday yangi asar umummilliy badiiy tafakkur tajribasidan oziqlangan holda yaratiladi. Boshqacha aytganda novatorlik an’anaviylikdan kuch oladi. Shu o‘rinda adabiy an’ana tushunchasiga to‘xtalib o‘tishimiz lozim. Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da adabiy an’ana terminiga quyidagicha izoh beriladi: “O‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan qismi”[1]. Suvning badiiy detal sifatida turli badiiy funksiya bajarishi tarixi xalq og‘zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham suv badiiy obrazidan muallifning badiiy niyatini ochishga xizmat qilivchi vosita sifatida foydalanilgan. Tabiiyki, bu adabiy an’ana zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham davom etmoqda. Adabiyotshunos olima Marhabo Qo‘chqorova “Neomif nasrda “suv” metaforik obraz

[1] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.11.

sifatida”[2] maqolasida dongdor shoirlar G‘afur G‘ulom va Oybek she’rlarida, shuningdek yangi o‘zbek nasrining peshqadam adiblari E.A’zam, X.Do‘stmuhammad, U.Hamdam, I.Sulton ijodida suv obrazining turfa ma’no qatlamlari kuzatilishini o‘rgangan. Ko‘rinadiki, o‘zbek adabiyotida suv obrazidan turli badiiy niyatda foydalanish adabiy an’anaga aylangan. Shuni ta’kidlash kerakki, har bir ijodkor mavjud adabiy an’anani shundoqligicha ko‘chirmay, undan ijodiy foydalanadi, biror jihatiga ko‘ra yangilik kiritadi. Chunki an’ana va novatorlik hamisha dialektik munosabatda bo‘ladi: “Novatorlik (lot. novator – yangilovchi, yangilanuvchi) – adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, adabiy jarayonda an’ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo‘lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli ta’sir o‘tkazib, keyinchalik an’anaga aylanuvchi muhim badiiy-estetik yangilik”[3].

Yosh yozuvchi Furqat Alimardonning kitobxonlarga taqdim qilinayotgan yangi “Pichirlangan sirlar” qissasi ham o‘zbek adabiyotida bot-bot murojaat qilingan suv muammosi, Orol dengizi fojeasiga bag‘ishlangan. Ushbu qissani Asqad Muxtor ning “Sharq dehqonining yer va suv haqidagi asriy orzu-armonlari, intilishlari voqealar silsilasini birlashtiruvchi o‘qqa aylantirilgan”(Ilhom Hasanov) “Amu” romani, Pirimqul Qodirovning Toshkent shahridagi yer-suv muammolari ko‘tarilgan “Olmos Kamar” romani, Shukur Xolmirzayevning “Ko‘k dengiz” hikoyalarining g‘oyaviy izdoshi sifatida baholash mumkin. Suv muammosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijtimoiy muammo sifatida tasvirlagan yosh yozuvchi katta adabiy avlod yozuvchilarining tajribasiga tayanadi. Shu bilan birga o‘z individual uslubini ham namoyon etadi. Quyida qissaning badiiy-g‘oyaviy tahlili va o‘ziga xosligi haqida so‘z yuritamiz.

Har qanday badiiy asar mohiyatida ezgulik targ‘ib qilinadi. Bir qarashda Furqat Alimardonning “Pichirlangan sirlar” qissasi suv muammosi ko‘tarilgan va unga badiiy yechim qidirilgan asardek taassurot uyg‘otadi. Ammo qissa problematikasida suv taqchilligi bilan birga suvdek zarur bo‘lgan ezgulik taqchilligi ham ko‘tarilganki, bugun texnikalashib ketayotgan, chin insoniy fazilatlar anqoning urug‘iga aylanib borayotgan hayotimizda bunday asarlarga ehtiyojimiz haddan ortiqdir.

Qissa ijtimoiy hayot tasviri bilan boshlanadi. “Tund boqayotgan” va “ertadan ko‘p narsa umid qilmayotgan” odamlar tasviri kitobxonni jiddiy va sovuq xabarga tayyorlaydi. Vatanning keyingi o‘n yillik hayotida jiddiy suv taqchilligi kutib turibdi. Hayotning to‘rt unsuridan biri bo‘lgan suv taqchilligi ertadan ko‘p umid qilolmayotgan odamlar va qissa qahramonining dilgir kayfiyatini izohlaydi. Muallif

[2] Bu haqda qarang: O‘zbek adabiyoti.Ta’sir va tipologiya. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – T.: “Muharrir nashriyoti”,2013. – B.193-204.
[3] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – B.205.

qissa qahramonining suv haqidagi mulohazalari bilan birga ijtimoiy hayotning badiiy tasvirini ham chizib boradi. Ko‘ngil hoy-u havaslari, qishloq xo‘jaligi muammolari, zo‘rniki bo‘lgan zamon, poraxo‘r mutasaddilar, xaromdan qo‘rqmaydigan imom, odam savdosi kabi maishiy voqealar quriyotgan dengiz va dengizga suv olib kelish haqida o‘ylayotgan qissa qahramoni atrofida kechadi. Yozuvchi nega bunday parallel tasvirni tanladi? Yuqoridagi voqealar bilan quriyotgan dengizning qanday aloqasibor? Buning sababi shundaki, qissada ijtimoiy muammo sifatida ko‘rsatilgan suv obrazi boshqa badiiy maqsadni ham ifodalaydi. Suv dunyo xalqlari mifologiyasida universal ramzlardan sanaladi. Suv – jonlantirish, yoshartirish xususiyatiga ega. Suv – yorug‘lik, poklik ramzi. Bu obraz haqidagi qarashlar dualistik xarakterga ega.Bunda suvga ofat keltiruvchi, inson hayotiga falokat olib keluvchi obraz sifatida qarash tendensiyasi ham mavjudligi[4] adabiyotlarda ta’kidlanadi. Ana shu qarashlarga asoslansak, qissada Orolning qurishi tabiatning insonlarga isyoni o‘laroq ro‘y berayotgani oydinlashadi. Chunki ma’naviy poklik bo‘lmagan joyda poklik ramzi bo‘lgan suv “qaytish”i tabiiy. Shuning uchun ham muallif jamiyatimizning og‘riqli nuqtalari va quriyotgan Orol fojeasini yonma-yon chizib boradi. O‘quvchi anglaydiki, Orolning qurishi ramziy ma’noda ma’naviy tanazzul bilan bog‘liq. Qissada ifodalanishicha suv taqchil! Qissada ifodalanishicha sadoqat taqchil, baxt taqchil (odamlar tund, ertadan ko‘p ham umid qilmaydi), adolat taqchil(zamon zo‘rniki!), ovozlar baland emas pichirlangan – dadil ovoz taqchil, ilm taqchil, yuraklarda iroda taqchil, ko‘zlarda umid taqchil! Bu taqchillikning parallel ifodalanishida ijodkorning badiiy tafakkurida faqat suv bilan bog‘liq muammo emas, balki insoniylik bilanbog‘liq ijtimoiy muammolar ham allaqachon kun tartibida ekanligidan dalolat beradi. Moddiy taqchillik ma’naviy taqchillikdan keyin boshlanadi. Xuddiki rivojlanish, kashfiyotlar avvalo tafakkurda paydo bo‘lib, keyin moddiylashgani kabi. Orol fojeasi ham tabiat haqida qayg‘urmaslik, insonning faqat o‘zini o‘ylashi, suvning noto‘g‘ri taqsimlanishi oqibatida yuzaga keldi. Orolning qurishi shunchaki sodir bo‘lmadi.Quriyotgan Orol yo‘qolib borayotgan odamiylik timsolidir.

Muallif badiiy adabiyotda ilmiy faktlardan foydalanish tajribasini qo‘llashga uringan. Tarixiy hujjatlar, ilmiy matnlardan namunalar keltirish orqali ijtimoiy muammoning ko‘lami keng ekanligiga kitobxon diqqatini qaratadi. Raqamlar ortidagi tasavvur har bir kitobxonni suv degan bebaho ne’mat qanchalik muhim ekanligiga chin ishontiradi, kitobxon ko‘nglini, ong-u shuurini egallab oladi.

[4] O‘zbek adabiyoti.Ta’sir va tipologiya. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – T.: “Muharrir nashriyoti”,2013. – B.193.

Tasavvufda suv sabr ramzi bo‘lib maqsadlarga erishish yo‘lini ifodalaydi[5]. Shundan kelib chiqsak, qissa qahramoniga muallif Orif ismini tanlashi ham badiiy maqsad ekanligi oydinlashadi. So‘fiylar dengizni majozan oliy manzil, deydi. Ularning fikricha, moddiy dunyo unsurlari – to‘lqin va tomchilar, jumladan inson dengizga singib ketadi. To‘lib oqayotgan orol dengizi obrazi ramziy ma’noda – qissa qahramonining oliy maqsadi, manzili.

Qissadan hissa, moddiyat tufayli adabiyotdan kechgan yosh yozuvchilar, Germaniyaga oydin hayot qidirib ketgan yosh olimlar, qishlog‘iga qaytib ketgan keksalar, o‘z o‘ylaridan nariga chiqolmaydigan “professor”lar, siyosatda paydo bo‘lgan “Boho cho‘ntak”lar bor ekan orzular dengizi to‘larmidi? Yo‘q! Qissa boshidagi umidsiz kayfiyat qissa xotimasida ham kitobxonni tark etmaydi, chunki muammo hali yechilgani yo‘q! Bo‘m-bo‘sh yurak bilan g‘alabaga erishib bo‘lmaydi! Bo‘sh yuraklarga insoniylik, mardlik, insof, ezgulik qaytmas ekan, Orol bizni tashlab ketaveradi! Bo‘sh yuraklarga adabiyot bilan kirib bormoqchi bo‘lgan Orif haq edi. Agar har qalbda tabiatga muhabbat uyg‘otilsa, suvga mehr uyg‘otilsa, xalq ezgulik yo‘lida birlasha olsa, ana o‘shanda “Yangi Jayhun” loyihasi amalga oshadi.

Xulosa shuki, Furqat Alimardon “Pichirlangan sirlar” qissasi problematikasida jamiyatning og‘riqli nuqtalari va suv bilan bog‘liq ijtimoiy muammoning badiiy ifodasini yaratgan. Quriyotgan Orol va ijtimoiy hayotning parallel tasviri va “quroq” syujet liniyalari yosh yozuvchining o‘ziga xos uslubini namoyon qiladi. Qissada suv obrazning ramziy ma’nolaridan ijodiy foydalangan va o‘zigacha mavjud bo‘lganadabiy an’anani davom ettirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. – 408 b.
2. O‘zbek adabiyoti.Ta’sir va tipologiya. Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari. – T.: “Muharrir nashriyoti”,2013. – 376 b.
3. Ashirov A. O‘zbek madaniyatida suv. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 240 b.

[5]Ashirov A. O‘zbek madaniyatida suv. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – B.119.

ABDULLA QODIRIY IJODINI O‘RGATISHDA INNOVATSION USULLARDAN FOYDALANISH

Nodira Djabbarova,
Ona tili va adabiyot kafedrasi o‘qituvchisi,
TDSHU akademik litseyi
E-mail: nodiraazamova80@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, Abdulla Qodiriy ijodini o‘rganish, tahlil qilish va shu asosida adabiyotimizdagi noyob va nodir asarlar bilan o‘quvchilarni yaqindan tanishtirish, ulardagi tub hamda yashirin ma’nolar xazinasining eshigini ularga ochishda ko‘maklashish, tarixdagi xalqimizning boshidan o‘tgan voqealar haqida ular yaqindan ma’lumot berish, asarlarning mazmun-mohiyatini tushuntirish yordamida turli yot g‘oyalarga nisbatan ma’naviy immunitetni hosil qilish, badiiy asarlarning ham botiniy, ham zohiriy ma’nolarini tushuna olish maqsadini ko‘zda tutadi.*

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, badiiy tahlil, obraz, botiniy ma’no, zohiriy ma’no.*

Аннотация. *В данной статье исследуется и анализируется творчество Абдуллы Кадыри, в которых читатели знакомятся с уникальными произведениями нашей литературы. Это помогает им открыть дверь в сокровищницу глубинных и скрытых смыслов, рассказывает им об исторических событиях, которые пережил наш народ, создаёт моральный иммунитет к различным чуждым идеям с помощью разъяснения сути произведений, способствует тому, чтобы суметь понять как внутренний, так и внешний смыслы произведений искусства.*

Ключевые слова: *джадидизм, художественный анализ, образ, внутренний смысл, внешний смысл.*

Annotation. *This article explores and analyzes the work of Abdulla Kadiri and on this basis, readers get acquainted with the unique works of our literature, help them open the door to the treasury of deep and hidden meanings, tell them about the events that our people have experienced in history, creating moral immunity to various alien ideas by clarifying the essence of the works, the goal is to to be able to understand both the inner and outer meanings of works of art.*

Key words: *Jadidism, artistic analysis, image, inner meaning, outer meaning.*

O‘zbek adabiyoti tarix yangilanayotgan badiiy tafakkur talablari asosida qayta idrok etilmoqda, asarlarning asl mohiyatini ochishga harakat qilinmoqda. “Adabiyotshunoslik uzoq vaqt mobaynida badiiy asarlarni asosan ijtimoiy nuqtayi nazardan tekshirishga moslashgan bo‘lsa, endi mavjud qoliplarni tark etaroq, badiiy matnga estetik talablar asosida yondashishga, har qanday xulosani matndan keltirib chiqarishga urinmoqda. Natijada,ko‘plab bitiklarning asl badiiy qiymati, bir qator adiblarning millat estetik taffakuri taraqqiyotidagi tarixiy o‘rni xolisona belgilanayotir”[1].

[1]Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006, 94-b.

Darslarda Abdulla Qodiriy asarlarini o‘rganish o‘qituvchi va o‘quvchi uchun ham o‘zgacha shavq va zavq beradi. Yozuvchi asarlarini tub mohiyatini tushunishda, albatta, badiiy tahlil hamda asarni sharhlash, obrazlarni ta’riflash katta yordam beradi. Maktab hamda akademik litsey darsliklarida adibning quyidagi asarlari berilgan. “Uloqda” hikoyasi, “Mehrobdan chayon” romanidan parcha, “O‘tkan kunlar” romanidan parcha.

Bu asarlarni o‘tishda, avvalo, yozuvchi hayoti haqida batafsil ma’lumot berish lozim. Abdulla Qodiriy - yorqin, barchaga keng ma’lum shoir va yozuvchi, dramaturg va publitsist, o‘zbek adabiyotida roman janri asoschisi. Qodiriyning asarlari o‘zbek xalqi hayotiga bag‘ishlangan. Yoshlik va o‘smirlik yillardagi muhit - savdogarlar, boylar va kambag‘al dehqonlar, iqtidorli hunarmandlar, doim muhtojlikda kun kechiruvchi kosiblar va yersiz dehqonlardan iborat bo‘lgan. Ushbu mehnatkash odamlar dunyosi, shuningdek, shahar ziyolilari bo‘lajak yozuvchi shakllanishida muhim o‘rin tutdi. Uning otasi bog‘dorchilikni juda yaxshi ko‘rgan, shu sabab, Qodiriyning o‘zini bog‘bonning o‘g‘liman, degan fikrlarini uchratish mumkin.

Asarlari:

“O‘tgan kunlar” (roman), “Mehrobdan chayon” (roman), “Obid ketmon” (qissa), “Girvonlik Mallaboy”, “Juvonboz”, “Baxtsiz kuyov”, “To‘y”, “Millatimga” va b.

Mukofotlari:

1991-yil 25-avgust kuni O‘zbekiston prezidenti farmoni bilan “Mustaqillik” ordeniga sazovor bo‘lgan.

Abdulla Qodiriy ijodini o‘tishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin: avvalo, dars Qodiriyning suddagi nutqi bilan boshlanadi. Ya’ni o‘qituvchi sabab va natija g‘oyasidan foydalangan holda birinchi natijani o‘quvchilarga aytadi. O‘quvchilarda esa o‘z-o‘zidan savol tug‘iladi? Nega bunday bo‘ldi? Shu onda o‘qituvchi sekin-astalik bilan adib hayotiga olib kiradi. Uyga vazifa qilib, badiiy asarni mutolaa qilish beriladi. Shu tariqa keyingi mavzular bilan o‘zaro bog‘liqlik vujudga keladi.

Abdulla Qodiriy (1894 –1938)

SO‘ZIM OXIRIDA ODIL SUDLARDAN SO‘RAYMAN : GARCHI MEN TURLI BO‘HTON, SHAXSIYAT VA SOXTALAR BILAN IKKINCHI OQLANMAYDURG‘ON , BO‘LIB QORALANDIM. LOAQAL ULARNING, QORALOVCHI QORA KO‘ZLARNING KO‘NGLI UCHUN BO‘LSA HAM MENGA ENG OLIY BO‘LG‘ON JAZONI BERA KO‘RINGIZ. KO‘NGLIDA SHAMSI G‘UBOROTI, TESKARICHILIK MAQSADI BO‘LMAG‘ON SODDA, VUJDONLI YIGITGA BU QADAR XO‘RLIKDAN O‘LIM IANSIQROQDIR. BIR NECHA SHAXSLARNING ORZUSICHA MA‘NAVIY, O‘LIM BILAN O‘LDIRILDIM. ENDI JISMONIY O‘LIM MENGA QO‘RQINCH EMASDIR.
ODIL SUDLARDAN MEN SHUNI KUTAMAN VA SHUNI SO‘RAYMAN.
1926-YIL 15-IYUN, SAMARQAND

(ABDULLA QODIRIYNING SUDDAGI NUTQIDAN).

Pyesasi:
- Baxtsiz kuyov

Hikoyalari
- Juvonboz
- Uloqda

ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. –T.: Yangi asr avlodi, 2006,
2. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1976,
3. Yo‘ldoshev Q. Tahlil mashaqqatlari. “O‘zAS” gazetasi, 1993/ 20.
4. Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. –T.: O‘zbekiston, 1994.
5. Qodiriy A,. O‘tkan kunlar. -T.: Cho‘lpon, 2004.
6. Qodiriy asarlar to‘plami. -T.: Yangi asr avlodi, 2022.

JADID ADABIYOTI NAMOYANDASI. ABDURAUF FITRAT – MA’RIFATPARVAR IJODKOR

Nozimaxon Kurganboyeva,
ona tili va adabiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi,
TDSHU akademik litseyi,
E-mail: kurganboyevanozimaxon@gmail.com

Annotatsiya. *XX asr o‘zbek milliy adabiyoti va adabiyotshunosligining tamal toshini qo‘ygan ijodkorlar safida Abdurauf Fitratning alohida o‘rni bor. U Sharq Uyg‘onish davri yetkazib bergan Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Farobiy, al-Xorazmiy, al-Farg‘oniy kabi daholardek qomusiy bilimga ega bo‘lgan millatparvar ijodkor edi. U adabiyot tarixining barcha davrlariga mansub ijodkorlar haqida birinchi manbalarga tayanib tadqiqot olib borgan olim sifatidagina emas, balki Sharq xalqlari tarixini, etnografiyasini, falsafasini, musiqasini chuqur bilgan inson sifatida ham ardoqlidir.Ma’rifatparvarlik sohasidagi uning sa’y-harakatlari ulkan milliy jasoratdir.*

Kalit so‘zlar: *Ma’rifatparvar, jo‘shqin faoliyat, birinchi o‘zbek proffesori, alloma, tashabbuskor, ilmiy meros.*

Аннотация*. Особое место в ряду творцов, заложивших основы узбекской национальной литературы и литературоведения XX века, занимает Абдурауф Фитрат. Он был деятелем, обладавшим такими же энциклопедическими знаниями, как и Абу Али Ибн Сина, Беруни, Фараби, аль-Хорезми, аль-Фергани, которые творили в эпоху Восточного Возрождения. Фитрата почитают не только как ученого, проводившего исследования, опираясь на первоисточники о творцах всех эпох истории литературы, но и как человека, глубоко знающего историю, этнографию, философию, музыку народов Востока. Его усилия в области просвещения – это огромный национальный подвиг.*

Ключевые слова: *Просветитель, активная деятельность, первый узбекский профессор, ученый, инициатор, научное наследие.*

Annotation*. Abdurauf Fitrat has a special place among the creators who laid the foundation stone of Uzbek national literature and literary studies of the 20 th century. He was a nationalist creator who had encyclopedic knowledge like such geniuses as Abu Ali ibn Sina, Beruni,Al-Farabi, al-Kharazmi, al-Farghani, whom the Eastern Renaissance brought. He is honored not only as a scientist who conducted research on the creators of all periods of literary history basedon the first sources, but also as a person who deeply knows the history, ethnography, philosophy, and music of the peoples of the East. His efforts in the field of enlightenment are a great national courage.*

Key words: *Enlightener, active work, first Uzbek professor, scientist, initiator, scientific heritage.*

XX asr boshidagi o‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotining asoschilaridan biri, o‘zbek milliy she‘riyati, prozasi, adabiyotshunosligi, tilshunosligi, maorifi, jamiyatshunosligi singari o‘nlab sohalarning rivojigaulkan hissa qo‘shgan adib Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1886-yil Buxoroda ziyoli oilada tug‘ilgan[1]. Otasi

[1] N.Karimov va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik). - T: O‘qituvchi, 2004. 73-86-betlar; N.Karimov va bosh. XX asr o‘zbek adabiyoti (11-sinf uchun darslik), - T.: O‘qituychi, 2002.

Abdurahimboy sarroflik (pul almashtiruvchi) va savdogarlik qilgan. Fitratning Abdurahmon ismli ukasi, Mahbuba ismli singlisi ham ziyoli kishilar bo‘lib yetishganlar.

Fitrat o‘zbek va fors tilini onasi Bibijon otin (Nastarbibi yoki Mustafbibi) dan o‘rganadi. Abdurauf Fitratning badiiy iste’dodining shakllanishida onasining xizmatlari beqiyosdir.

Abdurauf dastlab eski usuldagi maktabda, so‘ngra Mir Arab madrasasida o‘qiydi. Bu erda o‘zining noyob iste’dodi bilan mudarrislar e’tiborini tortadi. S. Ayniy “Buxoro inqilobi tarixi” kitobida Fitratning talabalik yillari haqida to‘xtalib, bunday deb yozadi: “Bu davrning hur fikrli yoshlaridan biri Abdurauf Fitratdir. Bu kishi Buxoro talabalari ichida eng qobiliyatli va fozillardan biri edi”. U 18 yoshlarida bir muddat otasining ishlariga yordam beradi, u bilan birga hajga ham boradi.1904-1907 yillar mobaynida Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya mamlakatlarida bo‘ladi.

Fitratning talabalik yillari ma’rifatparvarlik harakati qizg‘in tus olib, oynoma va ro‘znomalarga qiziqish kuchaya borayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bu to‘lqinlar, shubhasiz, ilm toliblari qalbida ham o‘ziga xos mavjlar yaratdi. Ularda millat va Vatan tuyg‘ulari uyg‘ona boshladi. Dunyoni ko‘rish, o‘zga yurtlar turmushining ilg‘or tomonlarini o‘rganib, o‘z yurtlarida tadbiq etish orzusi yoshlarga tinchlik bermasdi.

1909-yilda “Jamiyati xayriya” tashkil etildi. Uning maqsadi iste’dodli yoshlarni aniqlab, ularni chet elda o‘qitish edi. 1909-1913-yillarda adib “Tarbiyati atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) xayriya jamiyati orqali Turkiyaga jo‘natilgan besh nafar talabalardan biri sifatida Istanbuldagi “Dorulmuallimin” – muallimlar gimnaziyasida tahsil oladi.

Fitratshunos olim Hamidulla Boltaboyevning kuzatishlariga qaraganda, Fitrat Istambulda bilim olish barobarida mudarrislik ham qilgan ekan. Shu bois, u turk olimlari ichida katta hurmat va e’tiborga sazovar bo‘lgan.

1908 –yilda Turkiyada inqilob bo‘lib, uning aks-sadolari hali so‘nmagan, ayniqsa, yoshlar orasida o‘z ta’sirini ko‘rsatayotgan edi. Tabiiyki, buxorolik yoshlar dunyoqarashida ham bu harakat o‘z izlarini qoldirdi. U yerda zamondoshlari bilan birgalikda “Buxoro ta’limi maorif jamiyati degan uyushma tuzadi. Unda jadidchilik harakati keng targ‘ib qilindi.

Fitrat Turkiyadan qaytgach (1914), qizg‘in ishga kirishib ketadi. “Usuli jadida” maktablarini ko‘proq ochish, ularda bilim berishni yanada takomillashtirish

---

68-91-betlar; S.Olim va bosh. Adabiyot (Umumiy o'rta ta lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik-majmua). - T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 130-143-betlar.

choralarini izlaydi. U ham boshqa taraqqiyparvar kishilardek yangi avlodni tarbiyalash, ularni zamonning ilg‘or ilmlaridan bahramand etish tadbirlari bilan qiziqdi. Uning orzusi turkistonlik yoshlar ham Sharq, ham G‘arb oliygohlarida bilim olmoqliklarini ta’minlash edi, u o‘zining orzusiga qisman bo‘lsa-da erishdi.

Fitrat 1919-1920-yillarda Afg‘oniston hukumatining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimon, “Turon”, “Buxoroyi shari”, “Oina” kabi ko‘pgina gazeta va jurnallamitashkil etishda bosh-qosh bo‘ladi, 1918-yilda Toshkentda tashkil etilgan, Turkistonda til, adabiyot, san’at masalalari bilan ilk bor tashkiliy ravishda shug‘ullangan.

O‘zbekiston hududida vujudga kelgan dastlabki ilmiy muassasa va o‘ziga xos yozuvchilar uyushmasi bo‘lgan “Chig‘atoy gurungi” nomli ilmiy-ma’rifiy tashkilotga rahbarlik qiladi.Buxoro Xalq Respublikasining bir qator rahbar lavozimlarida ishlaydi.Buxoro amiriga berilgan ultimatum ham uning qalami bilan yoziladi.

Fitrat Shahrisabz va Karkida jadid maktablarini ochadi, “Yosh buxoroliklar” partiyasini tuzib, unga sarkotib bo‘ladi. 1917-1918-yillarda Samargandda chop etiladigan “Hurriyat” gazetasida bosh muharrir bo‘ldi. Fitrat “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi: Bolshevik balosi!,- deb yozgan.

Fitrat 1918-yilning bahorida Toshkentga chagiriladi va maorif va madaniy sohalarda faoliyat yuritadi, maktablarda, dorilfununda til va adabiyotdan dars beradi.

1919-yilning boshlarida Cho‘lpon bilan uchrashadi va ular bilan abadiy do‘st bo‘ladi.

1-o‘zbek proffesori. 1920-yil oxirlarida Fitrat Fayzulla Xo‘jayev taklifi bilan Buxoroga qaytib, Buxoro hukumatining yirik lavozimlarida ishlaydi, ikkala davlat arbobi tashabbusi bilan 60 nafardan ko‘proq yoshlar Germaniyaga o‘qishgayuboriladi.

1921-yilning mart oyidan Buxoro jumhuriyatida turk (o‘zbek) tili davlat tili deb e’lon qilinadi. Buxoro teatri ish boshlaydi[2].

1921-yilda Fitrat Buxoroda madaniyat ishlarini rivojlantirish maqsadida bir qator iqtidorli yoshlarni ishga taklif qiladi. Manon Uyg‘ur nomli davlat teatrida, Cho‘lpon esa “Buxoro axbori” ro‘znomasida faoliyat ko‘rsatadi. Uning mashhur “Xalq” she’ri Buxoro inqilobining bir yilligi munosabati bilan yozilgan edi.

Fitrat 1921-22 yillar oralig‘ida bir qator katta lavozimlarda ishlab o‘ziningdavlat arbobi sifatidagi iste’dodini ko‘rsata oldi, “….qurultoy qaroriga binoan (1922- yil 18-avgust) Buxoro MK a’zoligiga saylandi, 1922 –yil 19-sentabridan boshlab

[2] Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf.uchun darslik-majmua). - T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 132-bet.

Tashqi ishlar Xalq Noziri, Xalq xo‘jaligi Kengashining raisi, BXShJ Xalq xo‘jaligi Oliy Kengashining raisi o‘rinbosari, BuxMIJ raisining o‘rinbosari, BXShJ Mehnat Kengashi Prezidiumining a’zosi vazifalarida ishladi”[3].

1923-yil MK kotibi Ya.E. Rutzutak Buxoroga keladi.U o‘z nutqida Buxoro hukumati bir qator rahbarlarining, shu jumladan, Fitratning maorif noziri sifatidagi faoliyatida yo‘l qo‘ygan “xato” larini fosh etadi.Fitratga yopishtirilayotgan ayblar asossiz edi. Lekin u ishdan chetlatildi. Fitrat savdogar oilasidan bo‘lganligi uchun ham yuqori lavozimlarda ishlashi nojoiz deb topildi. Fitrat o‘zi faoliyat ko‘rsatgan tashkilotga asossiz qo‘yilgan ayblarni “non orasidan kir izlamak”, deya atagan edi. Adib: “Ne-ne yurtlarni kezdim, ko‘rdim, biroq Turkistonimiz kabi baxtsiz bir mamlakat yo‘qdir”, - deb nola qilgan. 1923-1924-yillarda Fitrat Moskva va Leningradda yashaydi. Sharq tillari institutida pedagoglik faoliyati bilan shug‘ullangan, hozirgi Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetida ma’ruzalar o‘qigan va o‘zbek ziyolilari ichida birinchilardan bo‘lib **professor** ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan. Shu bilan birga Moskvada chiqarilgan “Uchqun” hamda “Бухарская жизнь” (“Buxoro hayoti”) gazetalarida ham ishladi.U dars berish bilan birga ijod bilan ham shug‘ullandi. Uning “Abulfayzxon”, “Bedil. Bir majlisda”, “Qiyomat”, “Shaytonning Tangriga isyoni” asarlari Moskvada yozildi va ayrimlari chop etildi. Uning “Abulfayzxon”, “Bedil. Bir majlisda”, “Qiyomat”, “Shaytonning Tangriga isyoni” asarlari Moskvada yozildi va ayrimlari chop etildi.

Fitrat Moskvadan qaytgach, ilmiy-badiiy ijodni davom ettirdi. “Inqilob” oynomasi tahririyatiga a’zo bo‘ldi. Adabiyot nazariyasiga oid bir qator ma’ruzalar qildi.

1925-yilning boshlarida S.Siddiq bilan birgalikda Farg‘ona vodiysi va Buxoro bo‘ylab ilmiy ekspeditsiyaga chiqdi. U Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining noyob qo‘lyozmasini Namangandan topdi. “Qutadg‘u bilig” asarini o‘rganishga kirishgan, mo‘g‘ul tilining lug‘atini tuzishga tayyorgarlik ko‘rgan. U shoirni “kichik, nozli qanotiga butun bashariyatni qo‘ya oladigan, “o‘ksuz, yo‘qsul ko‘ngillarni” ko‘taradigan bir bulbuldir”, deb ta’riflagan.

1926-yilda Fitrat lotin yozuviga o‘tish qo‘mitasida Botu bilan birga ishladi. Bu erda u o‘zining yetuk tilshunos ekanini ko‘rsata oldi. “O‘zbek tilining sarfi”, “Sarfi zaboni tochiki”, “O‘zbekcha til saboqligi”, “Imlo konferensiyasi munosabati bilan” kabi asarlarini yaratdi.

[3] Olim va boshq. Adabiyot (Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf.uchun darslik-majmua). - T.: G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,O‘zbekiston nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. 132-bet.

30-yillar Fitrat uchun ayni kamolot yillari bo‘ldi. U bir qator yangi asarlar yaratdi. U maorif sohasida ham qizg‘in faoliyat ko‘rsatdi. Ilmiy tadqiqot, o‘qituvchilarning malakasini oshirish oliygohlari va dorilfununlarda dars berdi.

Abdurauf Fitrat 1927-yilda O‘zbekistonga qaytadi va Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi SamDU) da, keyinchalik esa Toshkentda Fanlar qo‘mitasi va Madaniyat institutida faoliyat yuritadi. Qomusiy bilim va badiiy iste’dod egasi bo‘lgan Fitrat ilk aspirantlarga rahbarlik qilgan[4].

1928-yilda u Samarqand dorilfununida faoliyat ko‘rsatadi. Sharq tillari va adabiyoti bo‘yicha ma’ruzalar qiladi. Musiqashunos olim sifatida “Shashmaqom”, “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, “Sharq musiqasi” kabi tadqiqotlarini yaratadiki,bu asarlar to hozirgi kungacha o‘z ilmiy qimmatini saqlab kelmoqda. Buxoroda musiqa maktabi ham ochgan.

O‘smirlik yillari u Mijmar (“Xushbo‘y o‘t yoqiladigan cho‘g‘don”) taxallusi bilan, so‘ngra Fitrat (“tug‘ma iste’dod”, “tug‘ma tabiat”) taxallusi bilan ijod qilgan. 1930-villarda vaqtli matbuotda, ketma-ket uyushtirilgan majlislarda Fitrat “millatchi”, “turkparast”, “islomparast”, “g‘arbning josusi” sifatida nohaq qoralanadi.

1937-yilning mash’um qora dovuli o‘zbek xalqining fidoyi farzandlari ko‘ksiga “xalq dushmani” tamg‘asini bosdi. Fitrat 1937-yil 24-aprelda qamoqqa olinadi va

Adibning hayoti va ijodini adolatli o‘rganish XXasrning 80-yillari oxirida boshlandi. Uch jilddan iborat “Tanlangan asarlar”i bosilib chiqdi.Adib asarlari 1991-yilda Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofotiga munosib topilgan.

2000-yilda Fitratning 2 jildlik “Tanlangan asarlar”i nashr qilingan. Abdurauf Fitratga “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni ham berilgan.

Ilmiy merosi. Fitrat yetuk ma’rifatparvar olim sifatida o‘zbek, tojik tili va adabiyoti bo‘yicha bir qator darsliklar yaratdi. Uning tilshunoslik, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, adabiyot tarixi, musiqa nazariyasi va tarixi, tarix, etnografiya, folklor, din kabi sohalar bo‘yicha olib borgan ishlari alohida qimmatga molikdir.

Fitrat 1917-yilda “O‘quv. Ibtidoiy o‘quv maktablarining so‘ng sinflari uchun” darsligini yaratdi. Shuni ta’kidlash kerakki, bu asar uning kelajakdagi tadqiqotlari uchun asos bo‘ldi. “Adabiyot qoidalari” 1926-yilda nashr etildi. Bu asar 1939- yilgacha adabiyot nazariyasiga oid yagona qo‘llanma sifatida qo‘llanildi. U to hozirgikunga qadar ham o‘z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.Fitrat yetuk aruzshunos sifatida ham bir qator ishlarni amalga oshirgan bo‘lib, “Aruz haqida” (1936) risolasi bu jihatdan ibratlidir. Bu asarning amaliyot uchun ahamiyati shundaki, unda vazn

[4] XX asr o‘zbek adabiyoti. I. T. Andijoniy – “Andijon” nashriyoti 1993 –yil “xalq dushmani” sifatida 1938-yil 4-oktabrda otib tashlanadi. Lekin sud qarori 5-oktabrda chiqariladi.

belgilaydigan *foilotun* kabi tilda ma’no anglatmaydigan so‘zlar o‘rniga doira ohanglarini (bak-baka-bum-bak kabi) kiritadi. Bu aruz va musiqa o‘rtasidagi yaqinlikdan kelib chiqib qo‘llanilgan.[5]

Fitratning ilmiy merosi haqida so‘z borganda, “Tilimiz” hamda “Yopishmagan gajaklar” naqolalari haqida to‘xtalish o‘rinlidir. “Tilimiz” 1919- yilda chop etilgan.Fitrat bu davrda “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining faollaridan biri sifatida millatning ma’naviy ko‘zgusi bo‘lgan til va adabiyot, uning ertangi istiqboli haqida jonbozlik ko‘rsatayotgan edi. Ajnabiy so‘zlarning tilimizga bostirib kirishi bir qator achinarli va tashvishlanarli holatlarni keltirib chiqarayotgan edi. Olim, qolaversa, badiiy so‘z ustasi sifatida bu holatga befarq qarab tura olmas edi. Tilning sofligi, keragidan ortiqcha chet so‘zlarni majburan kiritish va turkiy so‘zlarni surib chiqarishga qarshi harakat 20-yillarning boshlarida kuchaydi, shubhasiz, uning boshida M. Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat kabi taraqqiyparvarlar bo‘ldi. Fitrat ham o‘zining yuqoridagi maqolasini ana shu maqsadda yozgan. Til-millatning qalb ko‘zgusi. Uning boyligini namoyon etish va bu boylikdan zargarona foydalanish o‘sha millatning madaniy saviyasini ko‘rsata oladigan belgilardandir.

Har bir inson o‘z ona tilidagi ichki imkoniyatlardan foydalanmas ekan, u o‘z tilining qashshoqlashishiga zamin yaratadi. Nafaqat o‘zbeklar, boshqa bir qator millatlar ham til sofligi uchun kurashgan. Demak, Fitrat boshliq taraqqiyparvarlarning bu harakatida hech qanday g‘ayri maqsadlar bo‘lmagan.

Fitrat “Tilimiz” maqolasida arab va fors so‘zlarining turk tiliga kirib kelishi bilan bu til tarovati, go‘zalligiga putur yetganligini aytadi.

Fitratning “O‘zbek adabiyoti namunalari” kitobi bir qator bahslarga sabab bo‘ldi. 1929-yilda “Qizil O‘zbekiston” ro‘znomasida Boybo‘latovning yuqoridagi kitobga taqrizi bosilib chiqdi. G‘ayri niyatlarda yozilgan bu maqolaning boshidan oxirigacha asosiz fikrlar bayon qilingan edi. Garchi maqola yuqoridagi asar haqida bo‘lsa-da, asarni tahlil etuvchi, muallif mehnatini baholovchi fikr yo‘q edi.Muallifning maqsadi Fitratning nomini yomonotliqqa chiqarish edi. Shu bois bo‘lsa kerak, Fitrat Boybo‘latov maqolasiga raddiya bildirib bildirib, “Yopishmagan gajaklar” ni e’lon qildi.

Abdurauf Fitrat qomusiy olim bo‘lish bilan birga yetuk adib hamdir. Uning ilmiy asarlari yangi davr fani taraqqiyotiga qanday hissa qo‘shgan bo‘lsa, badiiy asarlariham XX asr o‘zbek milliy adabiyotining rivojiga salmoqli ulushini qo‘shaoldi. U zullisonayn ijodkor bo‘lgan. Uning ilmiy, badiiy asarlari tojik ko‘proq o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, asosan, turkiy tilning boy imkoniyatlarini targ‘ib qildi. U yangi

[5] XX asr o‘zbek adabiyoti. I. T. Andijoniy – “Andijon” nashriyoti 1993 –yil

davr adabiyotining bir qator sohalarida chinakam islohlar qila olgan adibdir. U ilmdagi kabi so‘z san’atida ham o‘z maktabini yaratdi. Bu maktab Cho‘lpon, Elbek, Oybek, Mirtemir, U.Nosir kabi vakillarni yetkazib berdi.

Fitrat Buxoroda o‘qib yurgan vaqtlarida “Mijmar” taxallusi bilan she’rlar yozgan bo‘lsa-da, ular deyarli saqlanmagan. Shoirning ilk to‘plami “Sayha”(“Chorlov”) nomi bilan 1910-yilda Istanbulda nashr etildi. Unda tojik tilida yozilgan she’rlar o‘rin olgan bo‘lib, har bir she’r yakunida turkcha (o‘zbekcha) izoh berilgan.

Adibning “Muxtasar islom tarixi”, “Ro‘zalar“, “Shaytonning tangriga isyoni” (1924, mustabidlik avj olgan zamonda badiiylik va shartlilikning murakkab, yashirin shakllariga murojaat etib yaratilgan, yuzaki qaraganda dahriynamo bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida tubida, zamirida ozodlikka intilish, mustaqillik uchun kurash g‘oyalari, Vatan va shaxs erki muammolari badiiy talqin etilgan asar), “Qiyomat” kabi asarlari diniy mavzuda yozilgan. Fitratning “Muxtasar islom tarixi” (1915) va “O‘qu” (1917) asarlari bolalar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Fitrat garchi o‘z asarlarida dini islom g‘oyalarini targ‘ib qilgan bo‘lsa-da, bir dinni ikkinchi dindan ustun qo‘ymadi. Diniy kelib chiqishlaridan qat’iy nazar inson insonligicha qolmog‘i kerak, degan tushuncha bilan yashadi.Uning yuksak odamiylik fazilatlarini qadrlash haqidagi fikrlari bir qator dramalarida, chunonchi, “Hind ixtilolchilari” dramasida ham o‘ziga xos tarzda rivojlantiradi. Muallif asar qahramoni Rahimbaxsh tilidan bir o‘rinda shunday deydi: “Insonlik majuslik va musulmonlikka qaramaydir”. Qahramonning bu gaplari qatida mustamlakachilarga qarshi kurashda birlashish g‘oyalari yotadi.

Abdurauf Fitrat Turkiyadan qaytgach, nafaqat ijtimoiy hayotda, balki so‘z san’atida ham bir qator islohlar o‘tkazilishi kerakligini his qildi. U usmonli turk she’riyatida keng qo‘llanilgan she’riy vaznlarni dadillik bilan o‘zbek she’riyatiga olib kirdi. Uning she’rlaridagi yangicha ohang va uslub o‘sha davr yoshlarining diqqatini tortdi.

Albatta, hayotdagi o‘zgarishlar, millat va Vatan tuyg‘ularini so‘z san’atiga toboro chuqurroq kirib borishi Fitrat she’riyatiga ham ta’sir etmay qolmadi. U ham XX asr boshlarida adabiyot dargohiga kirib kelgan tengdoshlari kabi davrning urib turgan yuragini she’riyatga olib kirishni maqsad qilib oldi. Uning qahramoni-zamon farzandi.

Millat va vatanning ertangi istiqboli haqida o‘ylovchi, bu yo‘lda kurashlarga tayyor turgan fidoyi inson. Fitratning she’riyati sharq badiyatiga xos latofatni o‘zida mujassam eta olgan she’riyat edi. U o‘zining davr muammolari haqidagi fikrlarini chiroyli timsollar vositasida berishga harakat qiladi:

Cholg‘i qili sening nozli tirnog‘ing-la titrarkan,
Umidimni qoplab turgan qora bulut yirtilsun!

Fitrat lirikasining qamrovi keng. U goh oshiq qalbidan otilgan ishqiyfaryodlarga zamon ruhini omuxta etsa, goh davr qadamlariga o‘z qadamlarini moslagan oshiqning sururlarini ko‘tarinki ohanglarda ifodalaydi. U chinakam insoniy muhabbatni tarannum etar ekan, sadoqat, vafo, iymonga doim chanqoq yashaydigan qalb kechinmalari tasvirida mahzun pardalarni kuchaytiradi:

Qizil gulim borlig‘imning sultoni,
Jonim sening xayolingda kuchaydi.
Yuragimning eng qimmatli armoni,
Nechuk menga marhamating ozaydi?!

Fitratning 20-yillardagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarini o‘zida aks ettira olgan she’rlaridan biri “O‘qitguvchilar yurtiga”dir. Bunda “Yosh buxoroliklar”ning qurolli qo‘zg‘olon haqidagi fikriga shoirning e’tirozi bir qadar o‘z ifodasini topgan:

Orqadoshlar, to‘planmaylik jangli o‘yin yiqqali,
El ko‘zini olg‘on qorong‘u pardalarni yirtqali.
Bir erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari,
To‘planaylik, turing elga to‘g‘ri yo‘llar ochqali.
Ellari mahvdan qutqaron ilm erur,
Bizlari ham bu kundan o‘zi qutqarur.

Shoir tabiat hodisalaridan ijtimoiy ma’no axtaradi, uni topadi va davr, inson muammolariga bog‘laydi. “Qor” she’rida tabiat holatlari o‘ziga xos tarzda jonlantiriladi, inson ruhiyatidagi nuqtalar bilan muqoyasa etiladi:

Kuchsiz, titroq, oppoq, kichik tomchilar,
Turmay, tinmay tuproq uzra yog‘adur.

“Mirrix yilduziga” she’ri haqida. She’r 1920-yilda yozilgan va “Go‘zal yulduz, yerimizning eng qadrli tuvg‘oni” misrasi bilan boshlanadi.U istiqlol ruhi bilan sug‘orilgan, salkam 70 yil davomida millatchilik ruhidagi asar sifatida baholangan bo‘lib, unda sotqin, ikkiyuzlamachi,zolim odamlar, “qardosh etin to‘ymay yegan qoplonlar” qoralangan.Fitrat ushbu she’rida XX asr boshlarida Toshkentda va Turkistonning boshqa chekkalarida bo‘layotgan xunrezliklardan kuyinib yozgan:

.... Bormi senda qorin-qursoq yo‘lida
Elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotganlar?

She’rda muallifning aynan Mirrix yulduziga murojaat qilishining sababi shuki, Mirrix (ya’ni Mars) mifologikqarashlarga ko‘ra jang-u jadal ramzidir. Mars sayyorasi

Shamsiy (Quyosh) yil hisobida Hamal (Mart) oyining homiy sayyorasi hisoblanadi. Shoir o‘z o‘lkasida bo‘lib o‘tayotgan xunrezliklar ko‘lamini urg‘ulab ifodalamoquchun uni jang-u jadallar makoni - Mirrix (qonday qizil sayyora!) bag‘ridagi hodisalarga qiyoslaydi.Fitrat “Mirrix yulduziga” she’rida o‘zimizdan chiqqan sotqinlar - yurtfurushlarni ham dadil fosh qiladi. Kelgindi hukumat qutqusiga – va’dalariga uchib, o‘z millati va xalqini bosqinchilarga ipsiz bog‘lab berishdan toymagan, “qorin-qursoq yo‘lida elin, yurtin, borin-yo‘g‘in sotqonlar” shoirning o‘tli nafratiga duchor bo‘ladilar. Ular el-u yurtni o‘zgalarga sotish bilan “borin-yo‘g‘in” - imonin, vijdonin, millatin sotdilar.

“Go‘zalim, bevafo gulistonim...” she’ri haqida

Go‘zalim, bevafo gulistonim,
Bog‘i umrimda toza rayhonim,
G‘am-u qayg‘ularim hujumindan
Sen eding mehribon nigahbonim.
Meni behuda tashlading-ketding,
Nega o‘ldirmading-da, tark etding.
Kel, gulim, kel, ayoqingg‘a yiqilay,
Bir zamon qo‘y: to‘lib-toshib yig‘lay.
Qo‘y, biroz qo‘yki, xoki poyingni
Surmadek yoshli ko‘zuma suray…

She’r barmoq vaznida bitilgan bo‘lsa-da, unda mumtoz she’riyatimizga xos bo‘lgan badiiy o‘xshatishlar, jonlantirish, istiora, qochirim singari adabiy san’atlardan keng foydalanilgan. Fitrat ushbu she’rida o‘z umrini bog‘ga qiyoslagan.

She’r tarixi haqida Mutal Burxonov (bastakor) xotiralari:

“Bu she’r opam Fotima Burhonovaga atalgan. Yuqorida aytganimday, amakilarim opamni Fitratga 1928 yili berishgan ekan. Bu paytda Fitrat 42 yoshda bo‘lib, ikki marta u‘ylanishga ulgurgan edi. Ammo nima sababdandir bir xotini bilan murosasi kelishmagan, ikkinchi xotini esa vafot etgan. Fotima opam bilan Fitrat uch yil shirin turmush kechirishgan, keyin ajralishgan.

Bu Fitrat uchun juda og‘ir zarba bo‘ladi. U ancha vaqtgacha o‘ziga kelolmay yuradi va yuragidagi bor dardini qog‘ozga to‘kib soladi. Shu tarzda “Nega tark etding meni?” degan she’riy maktub dunyoga keladi. Opam bu maktubni umrining oxiriga qadar ko‘z qorachig‘iday avaylab saqlagan. Men u kishining vafotlaridan so‘ng, qog‘ozlarini ko‘zdan kechirayotib, maktubni topib oldim va undan nusxa ko‘chirdim… va e’lon qildim.

“Abulfayzxon” fojiasi haqida

Muallif ta’rifi bilan aytganda,
“yo‘qsul o‘lkasining tarixidan besh pardali fojia bo‘lgan “Abulfayzxon” asari birinchi o‘zbek fojiasidir. U dastlab 1924-yilda Moskvada nashr etilgan. Bu asarni yozishda Fitrat Mir MuhammadAmin Buxoriyning “Ubaydullanoma”, Abdurahmon Tole’ning “Abulfayzxon tarixi”,Mir Vafo Karmonag‘iyning “Tuhfayi x oniy” asarlaridan manba sifatidafoydalangan.

Asardagi aksar voqealar va shaxslar tarixiy.

Hakimbiy, Rahimbiy,tarixchi Mirvafo, Ibrohimbiy tarixiy shaxslardir.

Davlat, Ulfat, Qozi Nizom singari obrazlar badiiy to‘qima obrazlardir.

Asarda XVIII asr Buxoro hayoti-ashtarxoniylar sulolasining oxirgi namoyandalaridan biri Abulfayzxon hokimiyatining tanazzuli va mang‘itlar sulolasining dastlabki bosqichi tarixiy haqiqat asosida badiiy aks ettirilgan. Asar g‘oyasi va pafosini ochishda Xayol obrazi kata ahamiyat kasb etadi. Asar oxiridagi “*Ey qop-qora saodat sensan*” degan fikr asarning fojiaviy pafosini belgilaydi, “*qop- qora saodat*” deganda yangi tuzumning va’da qilgan “saodat”i Turkiston xalqi boshiga qora kunlarni keltirganligi ramziy ishora tarzida ifodalangan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ismoil To‘lak Andijoniy.XX asr o‘zbek adabiyoti.-“Andijon” nashriyoti, 1993
2. Tulak. XX asr o‘zbek adabiyoti. –Andijon, 1993.
3. Qosimov. Milliy uyg‘onish: Jasorat, ma’rifat, fidoiylik. –T., Ma’naviyat, 2002.
4. Sh.G‘affarov. Istibdod davrida Turkistondagi ta’lim tizimi. – Samarqand.: SamDU nashr, 200.
5. Tog‘aev. va boshqalar. Darsda jadidchilik va uning mohiyatini o‘rganish.// “Xalq ta’limi”, 1993, 1-son.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. –T.: Universitet, 1999.
7. Guli Mahmudova. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti. –T., 2006.
8. Zunnunov A. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: “O‘qituvchi”, 1992.
9. Azizxodjaeva N.N. pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat – T., 2006.
10. Ziyodova T. “O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish”. T, 2000. – 163 b.
11. www.ziyo.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.
12. www.ziyonet.uz
13. Training Medhods: A. Review and Analysis. Article *in* Human Resourse Development Review Februare 2013
14. Usmanaliev Khusniddin Murodjon ugli. Creating a favorable atmosphere in the team, Innovations in Pedagogics and Psychology, 2019

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONIDAGI MUNOJOT BOBLARDA MANBA VA BADIIYAT MASALALARI

Shahlola Safarova,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti
E-mail: c_mcloud@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o‘rin egallaydigan «Xamsa» dostonlaridan «Farhod va Shirin» tarkibidagi munojot bobi g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan.Tahlil davomida misralarda keltirilgan fikrlarning manbalari, ya’ni Qur’oni Karim, Hadisi Sharif, tasavvuf ta’limoti bilan bog‘liq jihatlarga e’tibor qaratiladi. Doston tarkibidagi she’riy satrlar nasriy bayon qilinib, tahlilga tortiladi. Munojot bobi tahlilga tortilar ekan, o‘zbek kitobatchilik tarixida maxsus an’ana (an’anaviy kirish boblar: basmala, hamd, munojot, na’t) larning shakllanishi haqida ham fikr yuritiladi. Munojot bobida Alisher Navoiy Ollohning azamatlik qudratiga, ya’ni yo‘qdan bor, bordan yo‘q qiluvchi ulug‘ zot ekanligiga alohida e’tibor qaratgan. Ana shu jihatlar tahlilda inobatga olingan. Maqolada shoirning badiiy mahoratiga ham bahoberiladi.*

Kalit so‘zlar: *munojot, doston, badiiy mahorat, talmeh, tanosub, «Xamsa», «Farhod va Shirin».*

Аннотация: *В статье идейно-художественно анализируется глава «Муножот» из произведения «Фарход и Ширин» эпоса «Хамса», занимающего особое место в творчестве Алишера Навои. В ходе анализа уделяется внимание источникам мыслей, изложенных в аятах, то есть Священному Корану, хадисам, аспектам, связанным с учением суфизма. Поэтические строки эпоса описаны в прозе и проанализированы. В ходе анализа главы «Муножот» рассматривается также формирование особых традиций (традиционных вводных глав: басмала, хамд, муноджот, на'т) в истории узбекскойлитературы. В главе о молитве Алишер Навои уделил особое внимание великой силе Аллаха,то есть Великому, существующему из ничего и разрушающему все. Эти аспекты были учтены при анализе. В статье также дана оценка художественному мастерству поэта.*

Ключевые слова: *муножот, эпос, художественное мастерство, тальме, пропорция, «Хамса», «Фарход и Ширин».*

Anotation: *In the article, the dialogue chapter in «Farhod and Shirin» from «Khamsa» epics, which occupies a special place in Alisher Navoi’s work, is analyzed ideologically andartistically. During the analysis, attention will be paid to the sources of the thoughts presented in the verses, that is, the Holy Qur’an, Hadith Sharif, aspects related to the teachings of Sufism. The poetic lines of the epic are described in prose and analyzed. While analyzing the chapter ofMunojot, the formation of special traditions (traditional introductory chapters: basmala, hamd, munojot, na’t) in the history of Uzbek literature is also considered. Alisher Navoi paid special attention to the great power of Allah in the chapter of prayer, i.e. He is the Great One who exists from nothing and destroys everything. These aspects were taken into account in the analysis. The article also assesses the poet’s artistic skills.*

Key words: *munojot, epic, artistic skill, talmeh, proportion, «Khamsa», «Farhod and Shirin».*

Kirish: Ushbu maqolada “Farhod va Shirin” dostonining an’anaviy boblaridan biri bo‘lmish munojot bobi g‘oyaviy-badiiy tahlili qilinadi. Shoir fikrlarining manbasi “Qur’oni Karim”, hadisi shariflar ekanligi misollar orqali dalillanadi.

Nazm: Munojot insonning adam nihonxonasidin vujud koshonasig‘a kelmakda adami ixtiyoridin nishona demak va vujud shohrohidin adam xobgohig‘a bormoqda vujud iztiroridin fasona aytmoq va gunoh qilurda begunohlig‘in devonavor da’vo qilmoq va devona zanjirin sog‘ing‘ondek bu devonalig‘ **daf’in shar’** silsilasi bila **raf’i kull**i qilib junun uzri uchun **ahli hush** silsilasiga tortmoq

Nasr: Munojot. Insonning yo‘qlik nihonxonasidan borliq koshonasiga kirib kelishida o‘z ixtiyori yo‘qligi belgisini aytmoq va borliqning shoh-ko‘chasidan yo‘qlik yotoqxonasiga borishda vujud chorasizligi haqida hikoya qilmoq va gunoh qilib turib, begunohligini jinnilarcha da’*vo* etmoq va jinni bog‘lab qo‘yiladigan zanjirini sog‘ingandek ushbu devonalikning **daf’ini shariat silsilasi** bilan amalga oshirib, jinniligi uchun uzr so‘rash maqsadida **hushyor odamlar** silsilasiga tortilmoq.

ادْفَعْ بِالَّتِي هِيَ أَحْسَنُ السَّيِّئَةَ

Sen esa, yomonlikni go‘zal narsa ila **daf qil**. (Mu’minun surasi 96-oyat)

شَرَعَ لَكُم مِّنَ الدِّينِ مَا وَصَّىٰ بِهِ نُوحًا وَالَّذِي أَوْحَيْنَا إِلَيْكَ وَمَا وَصَّيْنَا بِهِ إِبْرَاهِيمَ وَمُوسَىٰ وَعِيسَىٰ

U zot sizlarga din etib O‘zi Nuhga vasiyat qilgan va senga vahiy qilgan narsamizni hamda Ibrohim, Muso va Iysolarga vasiyat qilgan narsamizni shariat qildi. (Shuro surasi 13-oyat) [3, b.241]

كِتَابٌ أَنزَلْنَاهُ إِلَيْكَ لِتُخْرِجَ النَّاسَ **مِنَ الظُّلُمَاتِ إِلَى النُّورِ** بِإِذْنِ رَبِّهِمْ إِلَىٰ صِرَاطِ الْعَزِيزِ الْحَمِيدِ ﴿١﴾

Bu kitobni senga odamlarni Robbilarining izni ila zulmatlardan nurga, aziz va maqtalgan zotning yo‘liga chiqarishing uchun nozil qildik. (Ibrohim surasi 1-oyat) [3, b.159]

Ilohiy, andakim yo‘q erdi budum,
Adam uyqusida erdi vujudim.
Ne ruhum gulshanidin dard paydo,
Ne jismim tufrog‘idin gard paydo.

Birinchi bayt quyidagi misralar bilan boshlanadi. Ilohiy (Olloh), insonning budum (borlik, mavjudlik)idan nishona yo‘q edi. Uning vujudi adam (yo‘qlik) uyqusida yotardi. Ruhi na dardni his qilardi, na jismini yaratish uchun tuproq bor edi. Qur’oni Karimning Nahl surasi 4-oyatida: Insonni nutfa (bir tomchi modda)dan yaratdi. U esa, banogoh, ochiq «raqib»dir. Baytda tazod san’atidan foydalanilgan.

Qur’oni Karimning An’om surasi 101-oyatida: (U) osmonlar va Yerning ixtirochisidir. Hamma narsani yaratdi. U hamma narsaning bilimdonidir. Ana o‘sha Alloh Rabbingizdir. Undan o‘zga iloh yo‘qdir. Bas, Unga ibodat qilingizlar! U har narsa uzra vakil (kuzatuvchi)dir. Ko‘zlar Uni idrok etmas. Ko‘zlarni U idrok etar. U daqiq narsalarni biluvchi va (hamma ishdan) xabardordir.

Nazm:

Vujudimda anosir band topmay,
Tanim ichra so‘ngak payvand topmay.
Bo‘lunmay tufrog‘im gardi fanodin,
Nasime yo‘q vujudumda havodin.

Nasr:

Vujudimda anosir (unsurlar: suv, havo, tuproq, o‘t) shakllanmagan, tanamdagi so‘ngaklar (suyak) bir-biriga payvand etilmagan edi. Tuprog‘im gardi fano (yo‘qlik to‘zonidan) ajralmagan bir vaqtda vujudim ham nafas olish imkoniyatiga ega emas edi. Buyuk Olloh tomonidan yaratilgan birinchi inson Odam alayhissalomdir. Alloh taolo farishtalariga loydan bir insonni, ya’ni barchamizning otamiz Odam alayhissalomni yaratib, uni yer yuzida Alloh taoloning hukmini yurituvchi – xalifa qilishini aytibdi. Shunda ular: “...Unda buzg‘unchilik qiladigan, qon to‘kadigan kimsani qilasanmi? Holbuki, biz Seni hamding ila poklab yod etib va Seni muqaddaslab turibmiz», dedilar. Shunda Alloh taolo ularga «Men sizlar bilmaydigan narsani bilaman” (Baqara surasi, 30-oyat) – dedi. Shunday qilib Alloh taolo Odamni juma kuni yaratdi va unga ruh, ya’ni jon kiritibdi. [1, b.82]

Ne tan, ne tanda bosh, ne bosh aro ko‘z
Ne yuz, ne yuzda lab, ne lab aro so‘z.
Ne jonu anda ne yuz dardi jonso‘z,
Ne ko‘ngul, ne anga ming neshi dildo‘z.
Borisini bir-biriga band qilding,
O‘qush hikmat bila payvand qilding.

Ushbu bayt yuqoridagi baytning uzviy davomidir. Ne tana, ne tanada bosh, ne boshda ko‘z, ne yuz, ne yuzda lab, ne lab so‘z ayta olardi. Tanada jondan uchqun ham yo‘q va bu tana dardni his qilmaydi. Ne ko‘ngul bor, ne unga ozor beruvchi nish (nayza). Sen (Olloh) shunday qudratli, buyuk zotsanki, yo‘qdan bor qilding, tananing barcha qismlarini bir-biriga payvand qilib, yaratiqlar ichida eng oliysi, mukammali bo‘lmish inson zotini yaratding. Qur’oni Karimning Luqmon surasi 28-oyat: (Ey, insonlar,) sizlarni yaratish ham, qayta tiriltirish ham xuddi bir jonni (yaratish va qayta tiriltirishning) o‘zginasidir (osondir). Albatta, Alloh eshituvchi va ko‘ruvchidir.

Nazm:

O‘zung surdung raqam torqoch bu noma,
Shaqiy yoxud **said** erkonga xoma.

Nasr:

Ularning barchasini birini biriga bog‘lab, ko‘p hikmat yo‘li bilan o‘zaro payvand ham etding. Bu dastur yozma ifodasini topgandan keyin esa kimning **gunohkor yoki baxtli** ekanini yozib qo‘yadigan bo‘lding.

عن عبد الله قال حدثنا رسول الله صلى الله عليه وسلم وهو الصادق المصدوق إن أحدكم يجمع خلقه في بطن أمه أربعين يوما ثم يكون في ذلك علقة مثل ذلك ثم يكون في ذلك مضغة مثل ذلك ثم يرسل الملك فينفخ فيه الروح ويؤمر بأربع كلمات بكتب رزقه وأجله وعمله وشقي أو سعيد فوالذي لا إله غيره إن أحدكم ليعمل بعمل أهل الجنة حتى ما يكون بينه وبينها إلا ذراع فيسبق عليه الكتاب فيعمل بعمل أهل النار فيدخلها وإن أحدكم ليعمل بعمل أهل النار حتى ما يكون بينه وبينها إلا ذراع فيسبق عليه الكتاب فيعمل بعمل أهل الجنة فيدخلها

Ibn Mas’uddan (r.a.) rivoyat qilinadi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Sizlardan biringiz onasi qornida ekanida qirq kun maniy holatida xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra quyuq qon bo‘lib, o‘sha kabi xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra parcha go‘sht bo‘lib, o‘sha kabi xalq qilinishi jamlanadi. So‘ngra farishta yuborilib, unga ruh puflaydi. Va to‘rt kalima, ya’ni rizqi, ajali, amali, baxtli yoki baxtsizligini yozish buyuriladi. Undan boshqa iloh yo‘q bo‘lgan Zot ila qasamki, sizlardan biringiz jannat ahlining amalini qiladi. Hattoki, u bilan jannat orasida bir gaz (o‘lchov) qoladi. Bas, uning o‘sha yozilgan kitobi ilgarilaydi-da, u do‘zax ahlining amalini qilib, do‘zaxga kirib ketadi. Sizlardan biringiz do‘zax ahlining amalini qiladi-da, hattoki u bilan do‘zax orasida bir gaz qoladi. Bas, uning kitobi ilgarilaydi-da, u jannat ahli amalini qilib, jannatga kirib ketadi», dedilar. Imom Buxoriy va Muslim rivoyatlari. [4, b.74]

Nazm:

Qilib hissu quvodin oni ma’yus,
Ham etting mahd zindonida mahbus.
Yetib besh-olti qatra sutga muhtoj,
Ul o‘lsa to‘q, agar ul bo‘lmasa och.

Nasr:

Hissu quvo (kuch, qudrat hissi) dan uni (inson nazarda tutilmoqda) mahrum etding. Bu ham yetmagandek, uni mahd (beshik)ka asir qilding. Besh-olti tomchi sutga muhtoj qilib qo‘yding. Shu sut bo‘lsa uning qorni to‘q, bo‘lmasa och. Ushbu baytlarda insonning dastlabki, go‘daklik chog‘i o‘z ifodasini topgan. Qur’oni Karimning Rum surasi 54-oyat: Alloh shunday zotdirki, sizlarni zaif narsadan (bir

tomchi suvdan) yaratdi, so‘ngra (sizlar uchun) go‘daklik (zaiflikdan) keyin (quvvat paydo) qildi. So‘ngra quvvatdan keyin yana zaiflik va qarilikni (paydo) qildi. U o‘zi xohlagan narsani yaratur. U bilimdon va qudratlidir. [3, b.273]

Nazm:

Ki, har qilg‘ong‘a hujjat ham tutarsen,
Bu hujjat ichra diqqat ham tutarsen.

إِنَّا نَحْنُ نُحْيِي الْمَوْتَىٰ وَنَكْتُبُ مَا قَدَّمُوا وَآثَارَهُمْ ۚ وَكُلَّ شَيْءٍ أَحْصَيْنَاهُ فِي إِمَامٍ مُّبِينٍ ﴿١٢﴾

Albatta, Biz, O‘zimiz o‘liklarni tiriltirurmiz va ular taqdim qilgan narsalarni va qoldirgan asarlarni yozurmiz. Har bir narsaning hisobini ochiq-oydin imomda olib qo‘yganmiz. (Alloh taolo o‘lganlar, tirilishlari va qilgan amallari uchun javob berishlarini, xabar bermoqda.) (Yosin surasi 12-oyat) [3, b.294]

Nazm:

Berursen goh anga do‘zax bila bim,
Qilursen goh jismin o‘tqa taslim.

إِنَّا أَعْتَدْنَا جَهَنَّمَ لِلْكَافِرِينَ نُزُلًا ﴿١٠٢﴾

Nasr:

Goh uni (bu yerda inson nazarda tutilmoqda) do‘zax azobi bilan bim (qo‘rquv, qo‘rqinch) qilursan, goh kuchsiz jismini o‘t, olovga taslim qilursan. Albatta, Biz jahannamni kofirlarga manzil etib tayyorlaganmiz. (Kahf surasi 102-oyat) va Qur’oni Karimning A’rof surasi 44-oyatida: Jannat ahli do‘zax ahliga (qiyomat kuni): «Rabbimiz bizga va’da qilgan narsa (jannat)ni biz haq ekanini topdik. Sizlar ham Rabbingiz va’da qilgan (ogohlantirgan do‘zax)ning haq ekanini topdingizmi?»
- deb nido qilurlar. Ular: «Ha», - deydilar. So‘ngra o‘rtalaridan bir jarchi (farishta chiqib) jar soladi: «Zolimlar uzra Allohning la’nati (yog‘ilsin)! (Jannat va do‘zax ahllari) o‘rtalarida parda (bordir). A’rof (arasot) uzra (jannat va do‘zaxdagilarning) har birini siymolari (alomatlari)dan tanib oladigan kishilar (bo‘lur). Jannat ahliga: «Sizlarga salom!» - deydilaru (kirishdan) tamagir bo‘lib, kira olmaydilar. Baytda nido san’atidan mohirona foydalanilgan.

Nazm:

Azal subhida malhuzungni keltur!
Arog‘a **«Lavhi mahfuz»**ungni keltur!

فِي لَوْحٍ مَّحْفُوظٍ ﴿٢٢﴾

Lavhul- Mahfuzdadir. (Lavhul- Mahfuz Allohni huzurida bo‘lib, unga hechqanday o‘zgarish kirishi mumkin emas.) (Buruj surasi 22-oyat)

Har bir narsaning hisobini ochiq-oydin imom (Lavhul- Mahfuz)da olib qo‘yganmiz. (Yosin surasi 12-oyat)

Nazm:

Junundin so‘zga bir dam bo‘lmay ogoh,
Gar ortuq so‘z dedim: **astag‘firulloh.**

وَاسْتَغْفِرِ اللَّهَ ۖ إِنَّ اللَّهَ كَانَ غَفُورًا رَّحِيمًا ﴿١٠٦﴾

Nasr:

Navoiy bu fikrlarni behuda da’vo deb hisoblab, ruju’ san’ati vositasida bu da’voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini so‘raydi. Junun (jinnilik, aqldan ozish)dan so‘z so‘zlashda ehtiyot bo‘lmagan bo‘lsam, astag‘firulloh (xudodan yaxshilik so‘ramoq, tavba) deyman. Allohga istig‘for ayt! Albatta, Alloh mag‘firatli va rahmli zotdir. (Niso surasi 106-oyat). [3, b.61] Astag‘firu lillah “Alloh kechirsin” Musulmon Allohdan o‘ziga mag‘firat tilaganida aytadi, nafaqat o‘ziga balki boshqa odam haqida gapirganda ham shunday deydi. [5, b.19] **Xuolsa:** Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ayta olamizki, Sharq adabiyotida asar yozishda, hamd bobdan so‘ng munojot boblarning kelishi an’anaviy hol edi. Navoiy ham shu an’anaga sodiq qolgan ijodkordir. “Munojot” so‘zining o‘zagi “najot”. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu bobda ijodkor Ollohdan qilgan yaxshi va yomon ishlari uchun afv va asarining uzoq yillar davomida avlodlarga xizmat qilishini so‘raydi.

Navoiy bu fikrlarni behuda da’vo deb hisoblab, ruju’ san’ati vositasida bu da’voni inkor qiladi va Allohdan unga marhamat qilishini so‘raydi. Junun (jinnilik, aqldan ozish)dan so‘z so‘zlashda ehtiyot bo‘lmagan bo‘lsam, astag‘firulloh (xudodan yaxshilik so‘ramoq, tavba) deyman. Allohga istig‘for ayt! Albatta, Alloh mag‘firatli va rahmli zotdir. (Niso surasi 106-oyat). [3, b.61] Astag‘firu lillah “Alloh kechirsin” Musulmon Allohdan o‘ziga mag‘firat tilaganida aytadi, nafaqat o‘ziga balki boshqa odam haqida gapirganda ham shunday deydi. [5, b.19]

Xuolsa: Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni ayta olamizki, Sharq adabiyotida asar yozishda, hamd bobdan so‘ng munojot boblarning kelishi an’anaviy hol edi. Navoiy ham shu an’anaga sodiq qolgan ijodkordir. “Munojot” so‘zining o‘zagi “najot”. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, bu bobda ijodkor Ollohdan qilgan yaxshi va yomon ishlari uchun afv va asarining uzoq yillar davomida avlodlarga xizmat qilishini so‘raydi.

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING “OMON OVCHINING O‘LIMI” HIKOYASIDAGI XARAKTER YARATISH MAHORATI

Roziboy Tangirov,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada Shukur Xolmirzayevning “Omon ovchining o‘limi” hikoyasidagi inson xarakterni yoritib berilgan inson ichki kechinmasi uning g‘ururi hamda shavqatsiz ovchi obrazi jamiyatdan uzog‘roq bo‘lishni oilaga mehr sadoqat hissi u insonda mujassamlashmagani ochib berilgan yozuvchi tog‘ havosi hayvonot olami bilan yashashi. “Qon tudadi”, “gunoh “, “ko‘z tegadi” degan so‘zlar u uchun hech qanday ma’no anglatmasdi. Ammasining duch kelgan jonlini o‘ldiravermasligini, ular ham Allohning yaratkan mahluqi ekanligi haqidagi aytgan gaplari ham zoya ketadi. Eng qizig‘i, unga boy qushlari tomosha qilish, ularni kuzatish yoqadi. Bir kuni u yana ovga jo‘nadi. Tog‘da yurganida qor ko‘chib, kiyik va boshqa hayvonlar joylaridan qocha boshladi. Omon ovchi birinchi kiyikni o‘ldirdi, ikkinchisini o‘ldirayotkanini qadimdan ovchi faqat bitta kiyik o‘ldirishi kerak degan gapni eslab ham ko‘rmadi.*

***Kalit so‘zlar:** hikoya, asar, insoniylik, tarbiyaviy mazmun, farzand tarbiyasi, ovchi, inson ruhiyati, Olatog‘ tabiati, uning yagona do‘sti, jonivorlar.*

***Annotation**: This article highlights the human character in Shukur Kholmirzaev’s story “The Death of a Safe Hunter”, reveals the inner experience of a person, his pride and the image of a ruthless hunter, a feeling of distance from society, a feeling of love and loyalty to the family, he was not embodied in the writer, mountain air with the animal world . The words “blood flows,” “sin,” “touch of the eyes” meant nothing to him. Her aunt's words that she does not kill any living creature she encounters and that they are God's creations are lost. The most interesting thing isthat he loves to watch and observe rich birds.*
One day he went hunting again. As he walked along the mountain, the snow began to move and deer and other animals began to run away. The hunter killed the first deer, and while he was killing the second, he did not even remember the old saying that a hunter should kill only one deer.

***Key words:** story, work, humanity, educational content, raising children, hunter, human psyche, nature of Olatog, his only friend, animals.*

***Аннотация**: Данная статья посвящена описанию человеческих характеров в повести Шукура Холмирзаева «Omon ovchining o‘limi», тому, как в данном произведении раскрывается внутренний мир человека, такие его черты, как гордость, ощущение отдаленности от общества, чувство любви и верности семье,*

***Ключевые слова:** рассказ, произведение, человечность, образовательное содержание, воспитание детей, охотник, психика человека, природа Олатога, его единственный друг, животные.*

KIRISH

“U o‘zi ham o‘lishi mumkinligini o‘ylamasdi. U o‘ldirishni… hayvonlarni, parrandalarni, xullas, Olatog‘da ov qilishga arzirli o‘lja borki, u qo‘liga miltiqniolishi bilan o‘zi anglamagan holda, yo‘lda nimanidir otish – o‘ldirishni o‘ylardi”.

Shu jumlalar bilan boshlanadigan “Omon ovchining o‘limi” hikoyasi qahramoni Omon ovchi tirik mavjudotlarni o‘ldirishga juda mukkasidan ketgan kishi edi. Yozuvchimiz ta’riflaganidek: “Mabodo ovdan quruq qaytsa – u bamisoli otasi o‘lganidek aza tutardi…”bir so‘z bilan aytganda nafsini jilovlay olmaydigan inson obrazi qiyoslasak ham bo‘ladi.

ASOSIY QISM

Shunday yomon fazilatlar egasi bo‘lgan Omon ovchining otasi Rahmon polvon ham bir so‘zli edi. U kurashda hech ham yiqilmagan. Ammo qirq yoshida bir polvoni yiqilib qo‘yganini ko‘tarolmay, omborga bo‘yra to‘shab, unga suv sepib, bo‘yraning ustiga bag‘rini berib oxri qon qusa-qusa o‘lib ketadi. Balki, Shu ojarlik otasidagi Shu xarakter ba’zi xislatlar o‘g‘liga o‘tgandir. Voqealar rivojida otasi unga, o‘n uch yoshli o‘g‘liga “indamas” miltiq olib beradi. Shu qiziqish bilan mohir mergan bo‘ladi. Undan hatto qishlo‘g‘idagi odamlar ham qo‘rqardi. Otasi vafotidan keyin o‘z-o‘zidan otasining kasbi qorovullik va bog‘bonlik faoliyatini davom ettirada. Onasi uni uylantiradi, lekin ayoliga ham, farzandiga ham uning mehri yo‘q edi. Ba’zi sabablarga ko‘ra, Olatog‘dagi odamlar Bandihon tomonlarga ko‘chib keta boshlaydi. Shu yo‘sinda davom etib, ma’lum vaqta qishloqda Omon ovchining uyidan bo‘lak hech qanday hovli qolmaydi. Ayolining: “Men kunduzi ham bu yerda qo‘rqaman, siz yo‘qsiz, o‘g‘limizning shuncha uzoq maktabga borib kelishi qiyin” – degan gapiga Omon ovchi: “Chidasang-shu, chidamasang jo‘na” – degan javob beradi. Ayoli uzoq o‘ylab, bo‘lmasa taloq qilishni so‘raydi. Ovchi esa hech narsani o‘ylab o‘tirmayketishiga rozilik beradi. O‘g‘lini olib qolish uchun unga miltiq olib bermoqchiligini aytadi. O‘g‘li esa onasi bilan ketishni xohlaydi. Omon ovchi o‘zi yolg‘iz qolganda ham ta’sirlanmaydi. Aksincha, yoshligida onasining ham ketib-qaytib keliganini eslab, darrov yana keladi deb o‘ylaydi. Shu alfozda yolg‘iz yashashga ham o‘rganib qoladi unga achinadigan yolg‘iz ammasining ham gaplariga quloq solmaydi. Kunlarini duch kelgan jonzotlarni o‘ldirish otish bilan o‘tkazadi.

“Qon tudadi”, “gunoh”, “ko‘z tegadi” degan so‘zlar u uchun hech qanday ma’no anglatmasdi. Amsining duch kelgan jonlini o‘ldiravermasligini, ular ham Allohning yaratkan mahluqi ekanligi haqidagi aytgan gaplari ham zoya ketadi. Eng qizig‘i, unga boy qushlari tomosha qilish, ularni kuzatish yoqadi.

MUHOKAMA

Bir kuni u yana ovqa jo‘nadi. Tog‘da yurganida qor ko‘chib, kiyik va boshqa hayvonlar joylaridan qocha boshladi. Omon ovchi birinchi kiyikni o‘ldirdi, ikkinchisini o‘ldirayotkanini qadimdan ovchi faqat bitta kiyik o‘ldirishi kerak, degan gapni eslab ham ko‘rmadi. U o‘dirgan hayvonlar noqulay joyga tushgani uchun uyiga olib ketolmadi. Ertasiga do‘sti, Hamdam bilan olib ketishga kelganda kiyiklarni g‘ajirlar ko‘zlarini o‘yib yeyotganini ko‘rdi. Qish tufayli barcha suv mavjud joylar muzlagan edi. Uyiga qaytayotganda muz yorilib ketdi. Xullas, ikki oyog‘i ham ishlamay gipslab tashlanadi. Do‘xtir olti oygacha tuzalmaysiz deydi. U uyda yolg‘iz, tashqariga chiqa olmay qoladi. Kunlar shu tarzda o‘taveradi. Kakliklar ham go‘yo ovozini balandlatib sayray boshlaydi. Kakliklar sayragani eshitib, miltig‘ini o‘qqa to‘ldiradi oyog‘i gips holida sudrala-sudrala ovga jo‘naydi. Tepalikka chiqib ikkita kaklikni otadi. Kakliklar soy bo‘yiga yaqin joyiga tushgani uchun olishga qiynalib tepalikdan dumalab ketadi. Uning ustiga qorlar yopishib katta aylana hosil bo‘ladi. U qorning ichida muzlab, qimirlayolmaydi. U bir necha kun shu holda qolip ketadi.

Shu qishloqqa qorovul qilip tayinlangan Ulton piyon soy bo‘yidan ketayotganda yulg‘inlar orasida g‘alati narsani ko‘rib qoladi va jon boricha qochib ketadi. Ertasiga u bilan kelgan odamlar Quriqsoyda ko‘ngilni aynituvchi manzarani ko‘radi. Bu esa ko‘plab masliqxo‘r g‘ajirlar bir kimsani cho‘qib-cho‘qib yeyayotgan manzara edi.

Bu hikoya shu yo‘sinda tugaydi. Inson bu dunyoga bir marta keladi. Hamma har xil hayot yo‘lini tanlaydi. Qahramonimiz Omon ovchi ham o‘zi uchun eng to‘g‘ri yo‘ldan yurdi.

NATIJA

Tabiatdagi har bir narsa va tirik mavjudotlar Alloh tomonidan mo‘jiza qilib yaratilgan. Bu asarda ma’naviy qashshoq qiyofasidagi Omon ovchini ko‘ramiz. Avvalo, bu dunyoda, jamiyatda shaxs bo‘lib kamol topishida har bir kishining oilasi muhim rol o‘ynaydi, muqaddas dargohda qilinadigan amallar, ishlar farzandlarga qanday ta’sir etishini o‘ylab ko‘rish kerak. Rahmon polvon oilasida ham bu kabi kamchiliklar yaqqol ko‘rinadi. Rahmon polvonlikda dovrug‘i ketgan bo‘lsa ham manaviy tomonidan zaif inson ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Kurashda mag‘lub bo‘lganini o‘z joniga teng qilib, undan voz kechyapti. U oilasini, farzandini o‘ylamadi. Eng muhimi, vaqtni, vaqitning beshavqat hukmini tan olmadi. Chunki kurash ham avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadirayatir. Bugun kimdir zafar qozonishi emas, milliy kurashimizning yuksalayotganiga, uni sevuvchi inson yana bittaga ko‘payayotganiga xursand bo‘lish kerak.

XULOSA

Hozirgi kunda tabiatni muhofaza qilish va uni asrash kabi dolzarb muammolar paydo bo‘lmoqda. Shukur Xolmirzayevning asarida tabiatdagi barcha narsalar o‘z o‘rniga ega qilib yozilgan. Oxirgi voqealarning nima bo‘lishi esa barchamizga saboqdir. O‘quvchilar bu asarni o‘qib, tabiatdagi barcha jonivorlarga achinadi. O‘qigan kishi tabiatda mavjud hodisalarga befarq bo‘lmaslikni tushunadi. Shu orqali yozuvchimiz ovchining qanday o‘lim topishi misolida har bir harakatimizning javobi borligini eslatib qo‘yadi. Xalqimizda: “Odobni odobsizdan o‘rgan” – degan maqol bor. Shukur Xolmirzayev bu hikoyasini salbiy tomonlama nosog‘lom oilaviy muhit, ma’naviy bo‘shlig‘i bor insonlar misolida o‘quvchini o‘z-o‘zidan to‘g‘ri yo‘lga olib chiqadi. Asarda shu joyida bunaqa qilmaslik kerak edi deya ko‘rsatib o‘tirmaydi. Voqealarni xuddi rassomday chizib yaxshilik, mehr- muhabat, yomonlik, oqibat kabi tushunchalarni o‘z rangi bilan ko‘rsatadi. Bugungi kunda biz yoshlar bu asarni o‘qib, oilada qanday muhit yaratishimizni, farzandlarni qanday tarbiyalashimizni, o‘z yaqinlariga mehr- e’tibordan boshqa narsa kerak masligini, ajdodlarimiz ishlatib kelgan “gunoh”, “qon tutadi” kabi tushunchalarning qanchalik ahamiyatliligini, eng muhimi, yashab turgan olamimiz dagi har bir jonzotning ham yashashga haqqi borligini ich- ichimizdan his qilishga odatlantirish lozim.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Shukur Xolmirzayev Tanlangan asarlar: 3 jildlik. 1-jild: hikoyalar. – T: “SHARQ”, 2003.-448 b.
2. Umumiy o‘rta talim maktablarining 8-sinf uchun adabiyot darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2019
3. Shukur Xolmirzayev “Yo‘ldoshlar” hikoyalar to‘plami.
4. Arxiv.uz sayti.

ADABIYOTNING AKSIOLOGIK VAZIFALARI

Shapoat Xakimova,
TDSHU akademik litseyi,
adabiyot o‘qituvchisi
E-mail: xakimovashafoat@gmail.com

Annotatsiya. *Bugungi kunda insonlar jamiyatda o‘z qadr-qimmatlariga erishishni istaydilar. Insonning jamiyatdagi qadri toptalsa, uning hayotdan noroziligi kuchayadi. Shuning uchun adabiyot ham bu masalani yoritishni o‘z vazifasi deb biladi. Ushbu maqolada adabiyotning aksiologik vazifalari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aksiologiya, qadriyatlar, qadr-qimmat, jamiyat, muammo, siyosat maddohi, o‘zlikni anglash, inson ruhi, e’zozlash, asosiy omil, bosh vazifa.*

Аннотация. *Сегодня люди хотят стать ценными в обществе. Когда ценность человека в обществе снижается, его неудовлетворенность жизнью возрастает. Поэтому литература также считает своей задачей осветить этот вопрос. В данной статье освещаются аксиологические задачи литературы.*

Ключевые слова: *аксиология, ценности, достоинство, общество, проблема, политика, самосознание, человеческий дух, уважение, главный фактор, главная задача.*

Annotation. *Today, people want to achieve their dignity in society. When a person's value in society decreases, his dissatisfaction with life increases. Therefore, the literature also considers it its task to highlight this issue. This article highlights the axiological tasks of the literature.*

Key words: *axiology, values, dignity, society, problem, politics, self-awareness, human spirit, respect, the main factor, the main task.*

Adabiyotning aksiologik vazifasi haqida gapirganda Qiyom Nazarovning quyidagi fikrlarini eslab o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lardi: “Aksiologiya so‘zi grekcha “Axio” ya’ni “qadriyat” va “logos” fan so‘zlaridan olingan bo‘lib, qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar majmuasidir. Bu fan inson shaxsiga ongli va qadrlash tuyg‘usi bilan yondashishni talab etadi. Qadriyatshunoslik aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi aksiologik bilish, qadriyatli yondashuv va boshqalar asosida to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar sistemasidir. Kishilar qadim zamonlardanoq o‘zlarini o‘rab turgan olam undagi narsa, voqea va hodisalar, odamlaro‘rtasidagi munosabatlarga baho berganlar, ularning qadri to‘g‘risida fikr yuritganlar. Qadimgi odamlar borliq haqida o‘ylaganlarida afsona, hikoyat yoki dostonlar so‘ylaganlarida olamning qadri, uning cheksizligi, koinot va odamzod aloqalari, inson umrining ma’nosi, mazmuni maqsadi hamda botirlik, oqillik, hokisorlik, yaxshilik, vafodorlik, vatanparvarlik kabi qadiyatlarga izoh berganlar. Xalq og‘zaki ijodida umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlarga e’tibor berilgan. Ularning mohiyati mazmuni turlicha talqin qilingan”. Inson qadri e’zozlanmasa u o‘zini xo‘rlangandek his etadi. Kelajakka bo‘lgan umidi yo‘qoladi. Shuning uchun, inson

qadrini ulug‘lash uning ruhini ko‘tarish jamiyatning bosh vazifasi bo‘lmog‘i kerak. Jamiyatning bu muammosi adabiyot uchun ham bosh omil hisoblanadi. Adabiyotning ham aksiologik vazifasi bor. Adabiyot insoniy qadriyatlarini ulug‘lashi kerak. Bu mavzu ajdodlarimiz tomonidan ham ilgari surilgan. Masalan, o‘zbek xalqi madaniyatining eng qadimgi davrlarini aks ettirgan “Alpomish” dostonida ham insoniy qadriyatlarni ulug‘lashga alohida e’tibor berilgan. Dostondan olingan ushbu parchaga e’tibor beraylik: Qultoy kiyimini kiyib olgan Alpomish Ultontozning to‘yiga kelib, to‘yxonaga kirsa, otasi Boybo‘ri egnida qora kiyim mesh ko‘tarib suv tashib yuribdi. Qullar Boybo‘rining bosh-ko‘zi aralash qamchilab urib-so‘kib borardi. Bu holni ko‘rgan Qultoy kiymidagi Alpomish taxtda o‘tirgan Ultontozga shu so‘zlarni aytadi:

Ustingga kiyganing yashil-ko‘k bo‘lar,
Podsholar bo‘shatgan xurma ko‘p bo‘lar.
Har o‘lkada senday beklar ko‘p bo‘lar,
Otasini urgan farzand oq bo‘lar.
Urma deyman Boybo‘riday biyingni,
Qariganda gangitmagil boshini.
Ko‘zdan to‘kma selob yoshini.
Azob berma bunday katta kishini,
Egniga ortibsan suvli meshini.
Xudo olgan polvon Alpomishini,
Qariganda qilgan ekan xizmatti.
Ko‘hna biyga ta’zir bermak uyatdir,
Sabil qilgan muna Boysin elatdi.
Polvoni kashalda o‘lib ham ketti,
Qariganda shuytib qildi xizmatti.
Qariganda yig‘latma vallamatni,
Qariganda xizmatingni qiladi.
Azob bersang hamma kuladi,
Otasini urgan qanday bo‘ladi.
Qara bo‘libdiku senga xizmatkor,
Bir nechalar o‘z holidan bexabar.
Bunga azob bemakliging ne darkor,
O‘g‘lidan ayrilib bo‘pti xoru zor.

Bu so‘zni Ultontozga aytib, borib otasining qo‘lidan meshni olib otasiga yordamlashdi.

Dostondan olingan parchani o‘qib ko‘raylikchi, aslini olganda Ultontoz ham Boybo‘rining o‘z bolasi-ku! Nima uchun Alpomishni davrida Boybo‘ri izzat- hurmatda otalik obro‘si bilan yashab, taxt Ultontozga o‘tganda xor-zorlikda hayot kechiradi. Nimaga? Ultontoz ham otasini e’zozlasa, uni siylab otalik hurmatini joyiga qo‘ysa bo‘lmasmidi?

-Yo‘q, Ultontoz bunday qilolmasdi.

-Nima sabab? Sababi shuki, Ultontoz Boybo‘rining nikohli xotinidan emas, nikohsiz cho‘risidan tug‘ilgan. O‘sha paytlarda garchi shariat qonuniga binoan cho‘ri xo‘jasi uchun halol hisoblansada, cho‘rining bolasiga xech kim aslzoda deb qaramagan. U ham onasi qatorida cho‘rining ishini qilgan, barcha yumushlarni qulday bajargan va qullar qatorida xo‘rlangan. Boybo‘ri biron martta bolam deb uning boshini silamagan, uni farzandi qatorida suyib erkalamagan. Ultontoz boyning erka bolasiga hasad bilan qarab, nafrat bilan katta bo‘lgan. Ultontozning yoshlikdan nafrat bilan to‘lgan qalbi u er bo‘lib yetilib, hokimiyat uning qo‘liga o‘tgan paytidabir vaqtlar o‘ziga adolatsizlik qilgan insonga nisbatan qanday yumshasin. Uningqalbidagi nafrat undan o‘ch olishni istamasinmi? Bundan ko‘rinib turibdiki, bolaning qalbi go‘yoki haydalgan shudgor, unga nima ekilsa o‘sha narsa unib chiqadi. Alpomish otasidan mehr ko‘rgani uchun mehr ko‘rsata oladi. Otadan mehrko‘rmagan farzand esa, otaga mehr ko‘rsata olmaydi. Inson bolasi dunyoga kelibdi- ki, o‘ziga qadr-qimmat ko‘rmasa, unda yovuzlik hissi kuchaya boradi. Mana shu haqiqatni badiiy asar orqali kitobxonga yetkazib berish, adabiyotning aksiologik vazifasi hisoblanadi. Mustaqillik adabiyoti davrida aynan shu muammoning yoritilishini yozuvchi Tohir Malik asarlarida kuzatamiz. “Shaytanat”ni o‘qib tahlil qilgan o‘quvchi “Nima uchun Asadbek yomon yo‘lga kirib ketdi?” degan sovolga, albatta, u yashagan jamiyatni aybdor deb biladi. Bir o‘quvchining ruchkasi yo‘qolib qolganligi uchun, aslida o‘sha ruchkani kim o‘g‘irlaganligini bilmagan o‘qituvchi “Xalq dushmanining bolasiga nafratingizni izhor qilinglar” deb barcha sinf o‘quvchilarini o‘z o‘rtoqlarining yuziga tuflatishi bilan adolatsizlikda ezilgan qalbiga nafrat urug‘ini sepadi. Bu nafrat urug‘i unib chiqib esa, qancha begunoh odamlarning qoni to‘kilishiga sabab bo‘ladi.

Faqat “Shaytanat” romanida emas, mustaqillikdan ilgariroq yozilgan “Alvido, bolalik” qissasida ham yozuvchi adabiyotning aksioligik vazifasini-yomonlik urug‘i ekilgan qalbdan yaxshilik kutib bo‘lmasligi misolida isbotlab bergan. Insonning qadr-qimmatini ulug‘lanishi u yashab turgan jamiyatga bog‘liq. Shu jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lgan oila va oilaviy muhit, atrof muhit va ta‘lim-tarbiya maskanlari, qolaversa, insonning ish joyi, uning qadr-qimmatini e’zozlamasa, hayot inson uchun

mazmunsiz bo‘lib qoladi. Shuning uchun umuminsoniy qadriyatlarni ulug‘lash, inson ruhiyatini tarbiyalash adabiyotning ham vazifasi bo‘lib qolaveradi. Zotan, a’zolari qadr-qimmatiga ega bo‘lgan jamiyatgina rivojlanadi va ravnaq topadi. Insonlari xo‘rlangan jamiyat esa tanazzulga yuz tutadi. Biz adabiyot darslarida badiiy asar orqali o‘quvchining qalbini tarbiyalab borishimiz kerak. Adabiyot siyosatning maddohi bo‘lmay inson qadr qimmatini, uning his tuyg‘ularini umuminsoniy qadriyatlarini ifoda eta olsagina o‘zining aksiologik vazifasini bajargan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qiyom Nazarov. Aksiologiya qadriyatlar falsafasi. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1998.
2. “Alpomish” dostoni. Toshkent, “Sharq”, 1998.
3. Tohir Malik. “Alvido bolalik”. Toshkent, “Sharq”, 2014.

OGAHIYNING “USTINA” RADIFLI G‘AZALI VA UNDAGI SHE’RIY SAN’ATLAR

Dilfuza Shakirova,
Toskent davlat sharqshunoslik universiteti o‘qituvchisi
E-mail: dilfuzashakirova025@gmail.com

Nargiza Hakimova,
Toskent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo‘nalishi1-bosqich talabasi
E-mail: nargiza_hakimova10@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ogahiy hayoti va ijodiga bo’lgan e’tibor haqida to’xtalinadi. Uning “Ustina” radifli g‘azali shoir ijodida katta o‘rin egallashi ta’kidlanadi. G‘azaldagi she’riy san’at va o‘xshatishlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar. *G‘azal, she’riy san’atlar, o‘xshatish, matla, maqta, arab harflari, tansub.*

Annotation. *Today, attention to Agahi’s life and work is growing every day. “Ustina” is a great gazelle in the poet’s work. A very important task is to analyze the poetic art and comparisons in the ghazal, to understand what the poet wants to express through it.*

Keywords. *Ghazal, poetic art, comparison, matla, Arabic letters, tanosub.*

Аннотация. *Сегодня внимание к жизни и творчеству Агахи возрастает с каждым днем. «Ustina» – великая газель в творчестве поэта. Очень важная задача — проанализировать поэтическое искусство и сравнения в газели, понять, что хочет через нее выразить поэт.*

Ключевые слова. *Газель, поэтическое искусство, сравнение, матла, арабские буквы, тансуб.*

Kirish. Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy barakali ijod qilgan sa’natkor sifatida Navoiyga qiyoslanadi. Ulug‘ o‘zbek shoiri, tarixnavis, tarjima maktabining asoschisi va davlat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy 1809-yil 17- dekabrda Xiva shahri yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida Erniyozbek mirob oilasida tug‘ilgan. Sharqning xilma-xil she’riy shakllaridan to‘liq foydalangani holda ularda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-didaktik, tabiat tasviri bilan bog‘liq mavzularni haqqoniy aks ettirdi.[1] Lekin shoir she’riyatining aksariyat qismi ishqiy mavzudadir. Ogahiy lirikasida ishq-muhabbat yetakchi motivlardan biridir. Bunga yaqqol misol sifatida “Ustina” radifli g‘azalini olishimiz mumkin.

G‘azal 9 baytdan iborat bo‘lib har bir bandida bir necha she’riy san’at va qiyoslashlardan foydalanilgan, har bir baytida “ustina” so‘zi radif sifatida takrorlanadi.

[1] Xayrullayevna, U. S. (2022). OGAHIY LIRIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *IJODKOR O‘QITUVCHI*, *2*(19), 643-648.

Asosiy qism.

Ushbu g‘azal ishqiy sarguzasht ruhida yozilgan bo‘lib yor ta’rifi bilan boshlanadi:

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina
Qatlim uchun nas keltirar nun eltibon sod ustina.

Ya’ni, shoir uchun yor bevafo. Arab alifbosidagi “nun” va “sod” harflari shakli ko‘z va qoshga ishora qilinib, biri ikkinchisi ustiga kelib shoir uchun o‘lim hukmini o‘qimoqda. Bu yerda arab harflari orqali kitobat san’ati yuzaga kelgan. Shuningdek aynan shu harflardan foydalanishning asosiy sababi shakl jihatdan ko‘z va qoshga o‘xshashidir. Shuningdek “nun” va “sod” harflari birgalikda “nas” ya’ni, qatil so‘zini hosil qiladi.

Qilg‘il tomosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvandi shamshod ustina.

Ushbu baytda yor qaddi-qomati ta’riflanmoqda. Ya’ni yor qomati shamshod daraxti kabi tikligi, yuzi esa go‘zalligi xuddi nozik gulni shamshod daraxtiga payvand qilinganiga o‘shatilmoqda. Bu esa tanosub san’ati orqali yuzaga kelmoqda.

Noz-u, ado-u ga’amzasi qasdim qilurlar dam-badam
Oh buncha ofatmi bolur bir odamizot ustina.

Baytda yorning noz, ado, g‘amzasi lirik qahramonning joniga ketma-ket qasd qilmoqda va buning natijasida oshiq “vah” deb yuboradi. Noz, ado, g‘amza so‘zlari orqali tanosub san’ati yuzaga kelgan bo‘lsa, oshiqning qiynoqlarga chiday olmay vah deyishi mubolag‘a san’atini yuzaga keltirgan. Tajohulu orif san’ati shoirning muddaosini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan[2].

Man xastag‘a jon asramoq yemdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod yetarhar lahza bedod ustina.

Keyingi baytda, ishqdan xasta bo‘lgan oshiqning jon asrashining dushvorligini, chunki “qotil ko‘zi bedod” (ma’shuqa) dan har lahza “bedod” (jabr ustiga jabr) etayotganligini ta’kidlaydi[3].

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shomu sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav’i faryod ustina.

Ushbu baytda, oshiqning gul yuzli yorga bo‘lgan sevgisidan, shomdan sahargacha iztirob chekadi. Baytda shom va sahar so‘zlari orqali tazod she’riy san’ati yuzaga keladi.

---

[2] Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). « USTINA» RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE*, *15*(2), 52-54.
[3] Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO ’Z USTASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *3*(28), 334-337.

Boshimg‘a yoqqan g‘am toshin mingdin biricha bo‘lmag‘ay,
Gardun agar ming Besutun yog‘dursa Farhod ustina.

Baytda mubolag‘a san’atidan mahorat bilan foydalanilganining guvohi bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, Farhod va Behustun orqali talmeh she’riy san’ati yuzaga kelmoqda.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamonu yaxshini
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.

Navbatdagi baytda shohga murojaat qilib, karam aylar chog„ida hammani – yaxshi yomonni teng tutishini so‘rab, tazod san’atini qo‘llaydi. O‘z fikrlarini tamsil –hayotiy dalillash asosida ifodalaydi. Ya’ni, mehr-quyosh nuri vayronu obod ustiga teng tushadi. Bunda mehr so‘zini qo‘llash orqali iyhom san’ati yaratildi. Shunday ekan, shoh ham barchaga teng karam ko‘rsatmog‘i lozimligini uqtiradi[4]. Shuningdek, “ey, shah” birikmasi orqali nido san’ati yuzaga kelmoqda.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,Sayr
et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Bu baytda inson zotiga qaratilgan, hech qachon eskirmaydigan buyuk saboq mujassam. Unda shoir olamning o‘tkinchiligini eslatish orqali, insoniyatni ezgulik bilan yashashga, umrning har bir kunini g‘animat bilishga da’vat etadi. Bu esa g‘azalning umumbashariy ahamiyatini ko‘rsatadi. Sulaymon payg‘ambarni eslatib o‘tish orqali talmeh san’ati yuzaga keladi.

Ne jur’at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zori noshod ustina

Qanday jur’at ila ochadi Ogahiy so‘z, yuz g‘am qilmish humum noshod ustina. Ogahiy hayotiy tahdidlarga sabab bo‘lishi mumkinligiga qaramasdan, haqiqiy she’r va shoir shuuridagi ulkan odamiylik burchini bajarishni vazifasi deb bildi.[5] **Xulosa.** Muhammad Rizo Ogahiyning “Ustina” radifli g‘azali shoir ijodining shoh asarlaridan biri. Shoir ushbu g‘azalda oshiqning mashuqaga yetishishdagi kechgan qiyinchiliklarini oshkor bayon etgan. Oshiqning nolasi va ma’shuqa ta’rifi ta’sirliroq bo‘lishi uchun shoir har bir baytda she’riy san’at va o‘xshatishlardan mahorat bilan foydalangan. Har bir baytda yorning ichki va tashqi go‘zalligi yanada go‘zalroq aks ettirilgan. Ogahiy ijodiga, g‘azal-u tariziy asarlariga bo‘lgan e’tiborning kundan kunga oshib borishi bejizga emasligining bu yaqqol misolidir.

---

[4] Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO ’Z USTASI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *3*(28), 334-337.
[5] Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). « USTINA» RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. *OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE*, *15*(2), 52-54.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Gulsara, Y., & Venera, T. (2023). « USTINA» RADIFLI G‘AZALI TAHLILI. OBRAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNЫE IDEI V MIRE, 15(2), 52-54.
2. Qo‘shnazarova, M. (2023). OGAHIY-SO ’Z USTASI. MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH, 3(28), 334-337.
3. qizi Fayzullayeva, M. O. (2023). UMUMIY O ’RTA TA’LIMMAKTABLARIDA MUHAMMADRIZO OGAHIY HAYOTI VA IJODINI O‘QITISHNING MAVJUD HOLATI. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 642-645.

BADIIY MATNDA ZID MA’NOLI SO‘ZLARNING POETIK AKTUALLASHUVI (Sh.Rahmon she’rlari misolida)

Jamila Yunusova,
O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti 2-kurs doktoranti
E-mail: Jamila2020yunusova@mail.ru

***Annotatsiya**: ushbu ishda o‘zbek tilining lingvistik boy imkoniyatlari shoir Shavkat Rahmon she’rlarida antonimlarning qo‘llanishi, ularning o‘ziga xosligi lingvopoetik tahlillar orqali ko‘rsatib berilgan.*

***Kalit so‘zlar**: antonimlar, kontekstual antonimlar, kontrastlik, antiteza , lingvopoetika, badiiy niyat.*

***Аннотация**: В данной статье показаны богатые лингвистические возможности узбекского языка в фокусе использования антонимов в стихах поэта Шавката Рахмана, их своеобразия посредством лингвопоэтического анализа.*

***Ключевые слова**: антонимы, контекстуальные антонимы, контраст, антитеза, лингвопоэтика, художественный замысел.*

***Annotation:** in this work, the rich linguistic possibilities of the Uzbek language are shown through the use of antonyms in the poems of the poet Shavkat Rahman, their uniqueness through linguopoetic analysis.*

***Key words**: antonyms, contextual antonyms, contrast, antithesis, linguopoetics, artistic intention.*

Badiiy matnlarda til vositalarining poetik aktuallashishi, estetik vazifa bajarishi badiiyati to‘q orginal obrazlar yaratilishiga sabab bo‘lgan. Badiiy matnning lingvopoetik tahlilida so‘z uning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari badiiy matnning estetik qimmatini ko‘rsatishda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, emotsional-ekspressiv ifoda hosil qilishda zid ma’noli so‘zlar faol ishtirok etadi.

Shunday ekan, adabiy asarning lisoniy tarkibi tahlili orqali uning badiiyati bo‘y ko‘rsatadi. Tilda har bir hodisaning o‘z vazifasi, ma’no ko‘lami, boshqa hodisalar bilan bog‘lanish asoslari bor. “Shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo‘lgan,badiiy didi, so‘z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan badiiy lavhalar so‘zning yangidan- yangi badiiy ma’nolarini paydo qila oladiki, o‘quvchi adibning faqat g‘oyasinigina emas, balki betakror tilning asiriga ham aylanadi. ”[3, b.45]

Shunday shoirlardan biri o‘z she’rlari bilan kitobxon ong-u shuurini, ko‘ngil halovatini o‘g‘irlagan shoir Shavkat Rahmondir. El sevar, jonkuyar, haqparvar shoir ijodida adolat uchun urib turgan yoniq yurak, uning dardchil hislari aks etadi, u har qanday kitobxon ko‘ngliga yuqadi. Shoir she’rlarining mag‘zi to‘qligi va poetik to‘yinganligi bilan ham ajralib turadi.

Ayni holatlarni shoir she’rlarida antonimlarning lingvopoetik tahlillari orqali ko‘rsatishni maqsad qildik. “Til birliklarining o‘zaro zid munosabatdagi ma’nolarni anglatishi asosida guruhlanishiga antonimiya deyiladi” [5,b.126] “Antonimlar badiiy nutqda yorqin ifodalilik vositasitalaridan biri sifatida keng foydalaniladi. Ular belgi, voqea-hodisa va shu kabilarni keskin qarshilantirish, kontras obrazlar yaratishda muhim ahamiyatga ega.” [1, b. 13]

Juda zarur sahardan boshlab
Ko‘chalarni suyib bosmog‘ing,
qotib qolgan *sovuq* yuzlarga
iliq tabassumlar osmog‘ing. (“Sehrgar”)

Ushbu she’rda *sovuq* va *iliq* so’zlari ko‘chma ma’no qirralariga ko‘ra zidlangan, betakror metafora yasalishiga asos bo‘lgan. Shoir uyqudan tugal uyg‘onmagan qiyofani – qotib qolgan sovuq yuzga, hayrat -havas bilan boqishni - iliqtabassumga o‘hshatadi. Natijada o‘quvchi tasavvurida go‘zaligini bilib nozlanib qadam bosish orqali chiroyini namoyish qilayotgan go‘zal tasviri namoyon bo‘ladi. Ifodadagi iliqlik kitobxonga ham ko‘chadi. Kuldirish, tabassum qildirish fe’llari mavjud, lekin “*tabassum osmoq*” yangi ifoda, shoir topilmasi. Bu tilimizdagi sinonimlar qatorini to‘ldirish bilan birga matnni poetik jihatdan to‘yintirib, suyumli bo‘lib o‘rnashishiga xizmat qilgan.

Shoir “*odimlamoq*” va “*chopmoq*” antonimiyasini boshqa bir she’rida mana bu tarzda lingvopoetik maqsadiga bo‘ysundirgan:

Uzoq yurdim keksa tog‘ sari,
goh *odimlab*, gohida *chopdim*,
nuragan tosh, qoya tagidan
go‘yoki tog‘ ko‘zlarin topdim. (“Ibtidoiy o‘tkir qoyalar”)

Matndagi “*tog‘ ko‘zlarini topdim*” jumlasi o‘quvchi e‘tiborini jalb qiladi. Lirik qahramon o‘tmishdagi sodir etilgan voqealarni, sir-asroslarni guvohlardan bilishni istaydi. Lirik qahramonning “*tog‘ ko‘zlarini topdim*” jumlasi oddiy metafora bo‘lmay, xalq tilida ishlatilib kelinadigan “tog‘-u tosh guvoh, ko‘rib turibdi” gapiga ishora. Bu o‘rinda “*tog‘*” so‘zida *ota-bobolar xotirasi, tarix* semalari gavdalangan. Shoir aytmoqchi bo‘lgan fikrining mantiqiy qolipi uchun shunday sintaktik konstruksiya hosil qiladiki, natijada “*odimlamoq*” va “*chopmoq*” so‘zlari matn ichida “*sekin* va *tez*” ko‘chma ma‘nolarida, matn tashqarisida esa bosh ma‘nosi bilan ham zidlashadi. Bunday poetik yechim vositasida antisemik juftliklar sezilarli darajada poetik aktuallashgan.

“Antonimlar voqea-hodisalar, belgilarni umumlashtirib, to‘la qamrab holda ko‘rsatish, vaqt chegarasining kengligi, umumiyligini, davomiyligini ifodalash uchun ham qo‘llanadi.” [1, b. 15] Quydagi parchada ham kunduz va tun so‘zlari zidlanib *umumiylik, davomiylik* ma’nolarini bergan.

Fursat esa-
shoshqaloq bola,
mevalarning xush bo‘yin tuyib,
atrofimda tinmay aylanar.
goh *kunduzni*, goh *tunni* kiyib… (“Ozodlik qo‘shig‘i”)

Shuningdek, “Muqaddima” she’rida ham shoir asli antisemantik bo‘lgan leksemalarni lingvopoetik maqsadda umumiy, bir mazmunda birlashtira olgan.

Yildirimday lahza suratin
yashirincha asrar xotira.
Meni *bor* ham *yo‘q* qiladigan
lahza porlab turar oldinda.

Bandagi *bor* va *yo‘q* so‘zlari “o‘zlik” ma’nolarini bergan.

Yoki shoir so‘zlarni okkazional qo‘llash orqali ularga kuchli poetik bo‘yoq bera olgan.

Shaldiroq kishanlar hukmiga
achinmay berasan yoshliging.
Yuzlaring burishmas og‘riqdan,
Farog‘at bag‘ishlar *ochliging*.

“Kun sayin ozadi yuragim ” she’rida antonimik juftlik biri bir misrada , boshqasi keying misrada paronim so‘zlar bilan qofiyadosh bo‘lgan. Ayni holat misralar orasida va mazmunda kontrastlik yuzaga kelishiga asos bo‘lgan. Antonim vaparonim so‘zlar qofiyadosh bo‘lib qo‘llanishi kuchli ekspressiv emotsionallikni hosil qilgan.

Kun sayin *ozadi yur*agim,
kun sayin vujudim *semirar*.
yurakni yolg’izlik ezadi,
vujudim lahzalar *kemirar*.

Shoir ijodida antonimlar salmoqli o‘ringa ega bo‘lib, ayni damda ular shoir til hodisalaridan o‘ziga xos tarzda tassarruf etish mahoratiga ham chizgilar bera oladi.

Ne davrlar qorni tagida
Muzlaganday qari qo‘toslar-
Sokin yotar Oloy tog‘lari,

Bag‘ri to‘la *g‘alayon*, saslar
Yana bir misolni ko‘raylik:
Qadim *qop-qora* ko‘ksingga
Cho‘g‘ kabi *qip-qizil* g‘unchalar,
Agar men bo‘lmasam, eshit, tun,
chiroyli bo‘lmasding bunchalar. (“Qasida”)

Ya’ni *qop-qora* so‘zi zerikarli hayot, qip-qizil so‘zi esa qizg‘in hayot ma’nolarida qo‘llanib, shu semalari zidlashgan. Natijada ifoda ravshanlanib, emotsional va ekspressiv boyoq hosil qilingan.

Ma’lumki, antonimiya hodisasi tilshunoslikda, asosan, bir turkumga oid so‘zlar o‘rtasidagi ma’noviy zidlik, qarama-qarshilik tarzida talqin qilinadi, ya’ni: *yaxshi – yomon, katta – kichik, uzun – qisqa, yosh – qari, kecha – kunduz, ayol – erkak, ketmoq – kelmoq, turmoq – o‘tirmoq, tug‘ilmoq – o‘lmoq* kabi. Ammo ma’noviy zidlik, qarama-qarshilik turli so‘z turkumlariga mansub so‘zlar o‘rtasida ham namoyon bo‘ladi, masalan: *yosh – keksaymoq, tor – kengaymoq, kulgi – yig‘lamoq, qora – oqarmoq, tong – kech kirmoq* kabi. Bunday holatdagi zidlik munosabatlari ba’zan “turkumlararo antonimiya” nomi bilan atalgan. Bunday holatlarni o‘zbek tilshunosligida dissertatsion tadqiqot doirasida o‘rgangan D.Abdullayeva bu hodisaga nisbatan birinchilardan bo‘lib, “antisemiya” terminini qo‘llagan, bu hodisaning o‘ziga xos jihatlari, lisoniy-mantiqiy imkoniyatlari va xilma-xil ko‘rinishlarini o‘zbek tili materiallarida asosli ravishda birma-bir ko‘rsatib bergan.

Albatta, antisemiya badiiy matndagi kontrastlik va boshqa badiiyatga xizmat qiladigan imkoniyatlarni chuqurroq va ko‘lamli o‘rganish chegaralarini kengaytiradi. Shavkat Rahmon she’riyatida poetik aktuallashuvni yanada kuchaytiradigan antisemik juftliklarning go‘zal namunalari mavjud. Mana birgina misol, shoirning “Yuksal, oppog‘im” she’rida shunday band bor:

Cho‘l, munchayam bo‘lmasang ayyor,
muncha bag‘ring sevgidan holi,
go‘zalsan-u, g‘oyat *makkorsan*
dog‘uli, sho‘x juvon misoli. (“Cho‘l”)

Matndagi ayyor leksemasi bir sinonimik qatordagi bir necha so‘z bilan zidlashadi, bu esa tasvirni quyuq va ohorli ifoda etishga hizmat qilgan. Go‘zal so‘ziga makkor, dog‘uli, sho‘x so‘zlari kontrastlik hosil qilgan.

Yoki “Hamal” she’rida shoir til unsurlaridan unumli foydalanib orginal ko antonim juftlik hosil qilganiga guvoh bo‘lamiz. Aslida, *tullamoq* va *gullamoq* so‘zlari matn tashqarisida ma’nolari zidlashmaydi. Shoir go‘zal bir poetik manzara hosil

qiladiki, bu so‘zlar antonim juftlikka aylanadi, natijada so‘zlar poetik aktuallashib lingvopoetik salmog’i ortadi.

Shoir sintaktik antitezalardan foydalangan holda insonga xos ruhiy kechinmalarni tabiat tasviriga ko‘chira olgan. Kontrastlik emotsional ohangdorlikni yaratib, poetik aktuallashgan.

Nurlarin *yi‘ib olar kun*,
osmon yerga tashlar soyasin.
Yulduzlarni *yoqib qo‘yar tun*,
Kesib qo‘yar oyning poyasin. (“Yoz ravishi”)

Shoir “Mashq” she’rida antitezadan unumli foydalanib, badiiy niyatini kontras tasvirlar orqali ifoda etadi. She’rda borliqning abadiy qonuniyatlaridan bo‘lgan ezgulik va yovuzlik, tug‘ilish va o‘lim, boylik va qashshoqlik, mehr va qahr o‘rtasidagi kurash va bularga inson qalbining munosabatini o‘ziga xos tarzda tabiat tovlanishlarining kontras tasviri orqali aks ettirilgan.

Qorong‘u bog‘,
xIlvatda
o‘t-o‘lanlar shovullar,
Go‘yo zulmat girvatida
yuzlashganday dovullar.

Tabiatdagi ziddiyatli tasvirlar rivojlantirilib, ziddiy munosabatlar inson xatti-harakatlariga ko‘chiriladi. Darajalanib borgan bo‘yoqdor poetik tasvirlar orqali inson ruhiyatiga chizgilar beriladi. “Qorong‘u bog’’ -tinch, sokin ko‘chma ma’nolari bilan “o‘t-o‘lanlar shovullar” sintaktik birligi bilan zidlik hosil qilgan.

Qorong‘ida *yig‘lar kim*,
kim keladir yiroqdan?
Charaqlaydi yildirim
To‘qnashganday pichoqlar.

Shoir fikrini yanada oydinroq ifodalash uchun tasvir maydoniga tabiat va insonning o‘zaro zid tasvirini qarama-qarshi qo‘yadi.

Telbaday *jim boraman*,
yurakka qon sig‘maydi,

Ayni tasvirlar orqali shoir fikrni rivojlantirib, ruhiy tasvir ta’sirini yanada oshirishga erishadi, o‘z o‘rnida ohangdorlik ham yuqorilab boradi. Kuzatilgan zid tasvir she’r so‘ngiga qadar hukmronlik qiladi.

She’rning oxirgi misralarida yozuvchi o‘zining badiiy niyatini oshkor etadi. Go‘yo shoir kitobxonni uning badiiy niyatini to‘la anglashi uchun asta-sekin tayyorlab boradi, she’rning ruhiy muvozanatiga moslashtiradi.

Shoir aytmoqchiki, tabiat va hayotning o‘z qonuniyatlari bor, bu qonuniyatlar oldida inson ojiz. Har qancha kuchli va ongli bo‘lmasin ularga ta’sir eta olmaydi. Lekin bu voqeliklarga inson qalbi ham bepisand qaray olmaydi.

Telbaday jim boraman,
yurakka qon sig‘maydi.

Azaliyat kurashlari ijtimoiy hayotda turli ko‘rinishlarda bo‘y ko‘rsatadi. Bu nohaqlik va yovuzlikdan nafaqat shoir qalbi tabiat ham kuzatib ozorlanadi, junbushga keladi.

Shoir badiiy niyati, ibtido bor joyda intiho ham bor. Hech narsa abadiy emas. Ezgulik va yovuzlik har doim yonma-yon yuradi. Inson o‘zining xatti-harakatlari, qilgan amallari natijasida yo mukofotlanadi, yo turli xil ko‘rinishlarda tovon to‘laydi. Taqdir sinovlari orqali inson hayot darsini, yashash mashqini o‘rganib oladi. Hayot mashqlari odamni “inson” sifatida shakllantiradi. Davriy charxpalak bo‘lgan bu ko‘hna dunyo o‘z “mashqlari” bilan insonni elagidan shu tarzda o‘tkazadi.

Ko‘rinadiki, til vositalardan zid ma’noli so‘zlar badiiy matnda emotsional-ekspressiv ifodalar hosil qilgan. Ijodkorning tildan foydalanish mahorati leksemalarning yangi semalari zidlanishida ko‘rinadi. Ular harakat va holatni zidlash orqali mazmuniy ifodani yorqinroq ifodalashga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov X, Mahmudov N. So‘z estetikasi. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Abdullayeva D. O‘zbek tilida antisemiya. Filol. fan. nom. diss... avtoref. Toshkent, 2010.
3. Yo‘ldoshev M.Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi:Filol.fan.d-ri…diss.-Toshkent 2009 .
4. Shavkat Rahmon. Saylanma. –T.: Sharq, 1996.-100 b
5. Tursunov U, A.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev.Hozirgi o’zbek adabiy tili.-Toshkent:O‘zbekiston, 1992, 81-82 betlar

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ СЛОЖНЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ – УЗБЕКАМ

Шахноза Якубова, Ташкентский государственный университет востоковедения,
старший преподаватель кафедры «Узбекский язык и литература»
E-mail: shya67@mail.ru

Аннотация. *В статье рассматривается применение современных педагогических технологий в обучении студентов-узбеков сложным предложениям русского языка. Особое внимание уделяется индивидуальному подходу и использованию цифровых образовательных ресурсов. Автор анализирует сложности, возникающие у узбекских студентов при изучении русского языка, и предлагает методики и технологии, способствующие более глубокому пониманию материала.*

Ключевые слова: *педагогические технологии, сложные предложения, РКИ, цифровые образовательные ресурсы, межкультурная коммуникация.*

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek o‘quvchilariga rus tilidan murakkab gaplarni o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalari muhokama qilinadi. Individual yondashuv va raqamli ta’lim resurslaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Muallif o‘zbek o‘quvchilarining rus tilini o‘rganishda duch keladigan qiyinchiliklarini tahlil qilib, materialni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiluvchi metod va texnologiyalarni taklif etadi.*

Kalit so'zlar*: pedagogik texnologiyalar, murakkab jumlalar, raqamli ta'lim resurslari, madaniyatlararo muloqot.*

Annotation. *The article discusses the use of modern pedagogical technologies in teaching complex sentences of the Russian language to Uzbek students. Particular attention is paid to an individual approach and the use of digital educational resources. The author analyzes the difficulties that Uzbek students encounter when learning the Russian language, and offers methods and technologies that contribute to a deeper understanding of the material.*

Key words: *pedagogical technologies, complex sentences, RFL, digital educational resources, intercultural communication.*

В настоящее время проблема обучения русскому языку как иностранному приобретает все большее значение в контексте глобализации и укрепления межкультурных связей. Особенно это касается студентов из Узбекистана, для которых русский язык является не только средством общения, но и ключом к пониманию культуры, истории и традиций России. Среди множества аспектов обучения русскому языку особое место занимает преподавание сложных предложений, представляющих значительную трудность для иностранных студентов, в том числе для студентов-узбеков.

Сложные предложения в русском языке характеризуются не только грамматической сложностью, но и высокой степенью выразительности, что

делает их незаменимым инструментом для точной передачи мыслей и эмоций. Владение сложными предложениями позволяет глубже понять особенности русской речи, культуры и менталитета. Однако для студентов, чей родной язык существенно отличается от русского по структуре и грамматике, изучение сложных предложений может стать серьезным испытанием.

Преподавание сложных предложений требует от преподавателя не только глубоких знаний русского языка, но и умения подобрать такие методики и подходы, которые были бы наиболее эффективны именно для студентов национальных групп. Это подразумевает необходимость использования инновационных педагогических технологий, способствующих активизации мыслительной деятельности студентов, развитию их языковой интуиции и способности к самостоятельному анализу.

В контексте обучения студентов-узбеков важно учитывать специфику их родного языка и культуры. Узбекский язык обладает своей уникальной структурой и системой выражения мыслей, что может как упростить, так и усложнить процесс изучения русских сложных предложений. Поэтому подход к обучению должен быть гибким и адаптированным, с учетом индивидуальных особенностей восприятия и обучения каждого студента.

Современные педагогические технологии предоставляют широкие возможности для эффективного преподавания сложных предложений. Интерактивные методы обучения, такие как онлайн-курсы, мультимедийные презентации, игровые приложения и виртуальные симуляторы, могут сделать процесс изучения более увлекательным и понятным для иностранных студентов. Также важную роль играет использование аутентичных материалов – книг, статей, видео и аудио записей на русском языке, которые позволяют студентам погрузиться в языковую среду и лучше освоить сложные конструкции.

Для того чтобы сделать обучение максимально эффективным, преподавателям необходимо также учитывать психологические аспекты обучения иностранных студентов. Мотивация играет ключевую роль в процессе освоения нового материала, особенно такого сложного, как структуры сложных предложений в русском языке. На этом пути важно создать поддерживающую и дружелюбную атмосферу в аудитории, где каждый студент чувствовал бы уверенность в возможности выразить свое мнение и задать вопросы, не боясь совершить ошибку. Важным аспектом является также культурная адаптация учебных материалов. Примеры из русской литературы, истории, кинематографа

не только обогащают знания студентов о России, но и помогают лучше понять контекст использования сложных предложений, их стилистические и эмоциональные нюансы. Таким образом, культурные сведения, интегрированные в процесс обучения, способствуют не только языковому, но и культурному обмену, укрепляя межкультурное понимание и сотрудничество.

В связи с этим преподаватели должны постоянно совершенствовать свои навыки и знания, исследуя новые методики преподавания и педагогические технологии. Кроме того, важно подчеркнуть значимость обратной связи от студентов, которая позволяет преподавателям адаптировать учебный процесс под индивидуальные потребности и предпочтения учащихся. Это особенно важно при работе со студентами-узбеками, у которых могут быть собственные представления о структуре языка и специфические трудности при изучении русских сложных предложений.

Заключительным аспектом, заслуживающим внимания, является использование комплексного подхода в обучении, сочетающего в себе как традиционные методы преподавания, так и инновационные педагогические технологии. Такой подход позволяет достичь наилучших результатов, сделать обучение максимально плодотворным и интересным для студентов.

Введение важных инноваций в процесс обучения русскому языку как иностранному, особенно в части преподавания сложных предложений, требует от преподавателей не только высокого профессионализма, но и творческого подхода, умения видеть и использовать новые возможности для достижения образовательных целей. В контексте межкультурной коммуникации и обмена знаниями такой подход становится не просто желательным, но и необходимым условием для формирования у студентов-узбеков глубокого и всестороннего понимания русского языка и культуры. Это, в свою очередь, способствует не только лингвистическому, но и культурному обогащению, развивает межкультурное взаимопонимание и поддерживает стремление к непрерывному образованию и самосовершенствованию.

В процессе обучения необходимо преодолеть множество барьеров, в том числе языковой, культурные различия и предрассудки. Педагогические технологии, адаптированные к специфике восприятия студентов-узбеков, могут сыграть ключевую роль в этом процессе. Они должны быть направлены на стимулирование активного участия студентов в учебном процессе, развитие их критического мышления и способности к самостоятельной работе с языковым материалом.

Особое внимание следует уделить развитию навыков анализа и интерпретации сложных текстов, что является важным аспектом владения сложными предложениями. Применение разнообразных учебных материалов, включая адаптированные тексты, мультимедиа и интерактивные задания, может существенно упростить этот процесс, сделать его более доступным и интересным для студентов.

Также необходимо акцентировать внимание на создании условий для практического применения полученных знаний. Реализация проектов, групповая работа, дискуссии на злободневные темы и ролевые игры позволяют студентам активно использовать изученные сложные предложения в реальных ситуациях общения, способствуя тем самым их глубокому усвоению и закреплению.

Важную роль в процессе обучения играет обратная связь, которая должна быть конструктивной и направленной на стимулирование дальнейших усилий и интереса к изучению языка. Поощрение любого прогресса в обучении, даже самого незначительного, помогает поддерживать мотивацию студентов и веру в собственные силы.

При преподавании сложных предложений студентам-узбекам можно использовать следующие педагогических технологий:

1. Работа с интерактивной доской. Цель: Разбор структуры сложного предложения «Когда наступит вечер, мы отправимся на прогулку, если не пойдёт дождь». План работы:

1. Создать схему предложения на компьютере перед уроком.

2. Объяснить студентам основную идею русских сложноподчинённых предложений, сопоставить их построение в русском и узбекском языке.

3. Использовать интерактивную доску для визуализации структуры предложения.

4. Попросить студентов выделить придаточные и основные части разными цветами.

5. Провести обсуждение функций каждой части предложения.

6. Закрепить знания с помощью работы над дополнительными примерами сложноподчинённых предложений.

2. Мультимедийные презентации. Их цель: объяснение использования сложноподчинённых предложений с различными видами связи типа «Мы поедем в парк, где вы сможете кататься на велосипеде, или посетим музей,

который недавно открылся». Работа с ними должна состоять из следующих этапов:

1. Создать до урока презентацию с примерами использования сложных предложений.

2. Ввести тему урока и объяснить цели занятия.

3. Показать презентацию, подчеркивая ключевые моменты.

4.Задать студентам задачи на создание собственных сложноподчинённых предложений по аналогии с представленными примерами.

5. Обсудить вопрос о том, как различные контексты влияют на значение и структуру сложных предложений.

6. Поработать над упражнениями, в которых студенты могут практиковать построение сложных предложений в разных ситуациях.

Использование мобильных приложений для изучения языков

Целью данной технологии является улучшение произношения и понимания сложных предложений через практику, например, поработать с предложением «Если вы хотите улучшить своё произношение, вам следует слушать аудиозаписи, в которых говорят носители языка, и повторять за ними».

1 шаг. Выбор приложения: Определите подходящее приложение для изучения языка, например, Duolingo, которое предлагает аудио от носителей языка.

2 шаг. Ознакомление: Представьте приложение студентам и покажите, как им пользоваться.

3шаг. Практика: Дайте студентам задание выполнить упражнения на произношение и понимание, используя предложенное сложное предложение.

4 шаг. Обсуждение: В аудитории обсудите, какие трудности возникли во время выполнения заданий и как их можно преодолеть.

5 шаг. Домашнее задание: Поручите студентам регулярно практиковаться с приложением дома, отслеживая их прогресс.

Применение этих технологий в обучении не только поможет студентам-узбекам глубже понять структуру и использование сложных предложений в русском языке, но и сделает процесс обучения интерактивным и увлекательным.

В заключение можно сказать, что преподавание сложных предложений русского языка студентам-узбекам является сложной, но в то же время чрезвычайно важной и ответственной задачей. Это требует от педагогов не только профессиональных знаний и умений, но и творческого подхода,

гибкости, умения видеть и понимать уникальные особенности каждого студента. Использование современных педагогических технологий, индивидуальный подход, учет культурных и лингвистических особенностей студентов-узбеков могут сделать процесс обучения не только эффективным, но и увлекательным, открывая перед студентами широкие горизонты для понимания и применения русского языка не только в академическом, но и в повседневном контексте.

В этой связи, роль педагога трансформируется из традиционного «передатчика» знаний в наставника, способствующего самостоятельному поиску, анализу и применению знаний в реальной жизни. Это подход, ориентированный на студента, подчеркивает важность активной учебной деятельности, где каждый учащийся вовлечен в процесс обучения, что способствует более глубокому пониманию и закреплению материала.

Список использованной литературы

1. Аксенова Н.Е. Методика обучения русскому языку как иностранному. -М: Высшая школа, 2020.
2. Белова, А.И. "Интерактивные технологии в обучении иностранных студентов", Санкт-Петербург: Герда, 2018.
3. Воробьева, О.П. "Сложные предложения в русском языке: теория и практика", Москва: Флинта, 2021.
4. Галкина, Е.В. "Цифровые образовательные ресурсы в преподавании РКИ", Владимир: Тригон, 2019.
5. Ермолова, Т.О. "Культурно-ориентированный подход в преподавании РКИ", Москва: Просвещение, 2017.
6. Захарова, И.Б. "Игровые технологии в обучении русскому языку как иностранному", Казань: Знание, 2018.
7. Иванова, Л.Е. "Методы активизации студентов на уроках РКИ", Екатеринбург: УрФУ, 2019.
8. Ларионова, М.А. "Применение мультимедийных технологий в обучении иностранных языков", Москва: РГГУ, 2020
9. Туйчибаева Ш. Ш. Методика работы над текстами в практическом курсе русского языка студентов национальных групп технических вузов. – 1994.
10. Туйчибаева Ш. Ш. DEVELOPMENT OF HEARING-ERFORMANCE SKILLS WHILE TEACHING RUSSIAN LANGUAGE. Издатель «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Том 5/ 2022, номер 24 С. 965-976
11.

OGAHIY DAVRI SHOIRLARI IJODIGA BIR NAZAR

Leylo Xamdam-Zoda,
TDSHU O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi

Feruza Tojiboyeva,
Sharq filologiyasi fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada serqirra ijodkor Ogahiyning yashagan davri, ilmga berilgan e’tibor va uning zamondoshlarining hayot yo‘li, faoliyati keng yoritib berilgan.*
Kalit so‘zlar: *Munis lirikasi, Bayoniyning tarixiy asarlari, Ogahiy merosi, Muhammad Rahimxon Soniy, Xivadagi adabiy muhit, tadqiqotlar.*

Annotation: *In this article, the life and activities of prominent composer Ogahiy during the period, as well as the attention given to him by scholars, are vividly depicted.*
Key words: *Poems of Munis, Bayoniy’s historical works, Ogahiy’s legacy, Mukhammad Rakhimxon Soniy, literary environment in Khiva, studies.*

Аннотация: *Данная статья посвящается жизненному пути и деятельности современников известного писателя Огахи.*
Ключевые слова: *лирика Муниса, исторические произвадения Баяни, наследие Огахи, литературная среда Хивы, исследование.*

Qalbi pok inson har doim quyoshga talpinadi, adabiyot bilan do‘st tutinadi. Buning bir qancha sabablari bo‘lib, biri adabiyot ummonida so‘z bilan yo‘g‘rilgan shunday ajib bir tuyg‘ular ifodalanishiki, inson qalbining tub-tubiga yetib boradi. Bunday kitobxonning qalbini “jiz” etishiga sabab bo‘ladigan, ko‘nglini to‘ridan joy oladigan asarlarni esa faqatgina asl ilm ahli yoza oladi. Shu paytgacha, XXI-asrgacha ne-ne olim-u fozillar, fuzaylo-yu daholar yashab o‘tdi. Tarix qancha buyuk insonlar bilan ro‘baro keldi, lekin tarix zarvaraqlarida faqatgina ijod uchun ijod qilgan shoir-u ilm ahli qoldi. Shunday insonlar Navoiy, Bobur, Fuzuliy, Lutfiy, Jomiy, Ogahiy, Munis va boshqalardir. Bir shoirning yetishib chiqishi, ijod qilishida davr masalasi juda muhim sanaladi. Ogahiy, Munis, Bayoniy kabi serqirra shoirlarda ham davr masalasi muhim ahamiyat kasb etgan.

“Bu atoqli ijodkorlarimizning vatani bo‘lmish Xorazm qadim zamonlarda O‘rta Osiyoning eng yirik markazlaridan biri bo‘lgan. Professor S.P.Tolstov va professor Ya.G‘.G‘ulomov uzoq vaqt tekshirishlar olib borib, Xorazmning qadim zamonlarda boy madaniyatga ega ekanligini yetarli dalillar bilan isbotlab berdilar. Professor Ya.G‘.G‘ulomov o‘z asarida bunday deb yozadi: “Xorazmda dehqonchilikning yuqori madaniyati juda qadim zamonlarda sun’iy sug‘orish asosida vujudga kelgan va xuddi Misr, Mesopotamiya hamda sharqning boshqa mamlakatlaridek taraqqiy

etgan”. Xorazmda fanning buyuk siymolari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, mashhur ensiklopedist olim Abu Rayhon Muhammad al-Beruniy, Allomayi Zamaxshariy kabi olimlar, shoirlar, tarixchilar, adiblar yetishib chiqqan.”[1].

Xorazmdagi siyosiy muhitni yaxshilash uchun xalq farovonligi, yurt obodonchiligi, ilm-fan, madaniyat, saroydagi ijodiy safni yanada kengaytirish yo‘lida har bir taxt tepasiga kelgan xon bosh qotirgan bo‘lsa-da, ularning harakati samarasiz kechgan ya’ni juda katta yutuqlarga erishilmagan. Podshoh oqil vazir bilan ikki karra kuchlidir deganlaridek, Muhammad Rahimxonning olib borgan siyosati o‘z “meva”sini bera boshlaydi. Xiva tarixida Muhammad Rahimxon davridaboshqalardan o‘laroq ijodga, ilm-ma’rifatga jiddiy qarala boshlandi, madrasalar, xonaqohlar qurilishi ko‘paydi. Oqil Munis o‘z atrofida ilmga chanqoq toliblarni to‘playdi. Uning ijodi o‘zgacha bir tarovati bilan insonni o‘ziga chorlaydi, ajralib turadi. O‘sha davrda, xonlikda saroydagi lavozimlar avloddan avlodga qolgan va shu tariqa zanjir bo‘lib lavozim egasi tayinlanib ketilgan. Munisning ota-bobolari saroyda miroblik ishlari bilan shug‘ullangan.

K.Munirov o‘zining asarida Munisning hayoti, ijodi haqida mufassal ma’lumot berar ekan, quyidagi ma’lumotlarni ham keltiradi: “XVIII asrning 2-yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda yashagan Amir Avazbiy o‘g‘li Shermuhammad (adabiy taxallusi Munis) atoqli tarixchi, iste’dodli shoir hamda ko‘zga ko‘ringan davlat arbobi edi. O‘zbek adabiyotinng taraqqiyotida va o‘zbek xalqlari tarixini yoritishda uning xizmatlari nihoyatda katta. Munis o‘zbek tilida ajoyib adabiy va tarixiy asarlar yaratdi va fors tilidagi ko‘pgina tarixiy asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qildi. Munis 1778-yilda tug‘ilgan”[2]. Munis tabiatan tirishqoq, ilmga chanqoq bo‘lgani uchun yoshligidan adabiyot bilan, she’riyat bilan do‘st tutindi. Munis tarixchi va shoirlar asarlariga muhabbat qo‘yib zo‘r ishtiyoq bilan o‘qiydi. U “Firdavs ul-iqbol” asarida o‘zining yoshligini, o‘sha davr muhitini ajoyib tarzda tasvirlaydi. Afsuski, Munis bu asarni oxiriga yetkaza olmay, yo‘lda vabo kasalligidan vafot etadi. Lekin o‘sha paytdagi Olloqulixon uni jasadini olib keltiradi va o‘z o‘sgan shahri Qiyotga dafn ettiradi. Munis o‘z davrining eng aziz kishilaridan bo‘lgan,hattoki Munisning o‘limi Olloqulixonni ham qattiq iztirobga slogan. Bu asari Odam ato yaratilishidan tortib, Qo‘ng‘irotlar sulolasigacha bo‘lgan tarixni aks ettiradi. Ogahiy bu asarni davomettirib yakuniga yetkazadi.Bu asar haqida gapirganda asarni Ogahiy qalamiga mansub, hammuallifdagi asar deb ataymiz.

[1] Q.Munirov. Ogahiy, Munis va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 5-6-betlar.
[2] Q.Munirov. Ogahiy, Munis va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 14-bet.

Munis shoir sifatida ko‘pgina she’rlar yozib qoldirgan. Uning she’rlari o‘zi tomonidan 1813-yil to‘planib, devon tartibiga keltirilgan va bu devonga u “Munis ul-ushshoq” deb nom bergan. Vengriya akademiyasi a’zosi A.Vamberi 1863-yili Tehrondan chiqib, Kaspiy dengizining sharqiy qirg‘og‘i bo‘ylab Xiva, Buxoro va Samarqandga qilgan sayohati vaqtida Xivada Munis asarlari bilan tanishadi va uning shoirlik qobiliyatiga qoyil qoladi. “Bizning tarixchimiz Yevropaga ham ma’lumdir. Vengriyalik olim Vamberi Sharqshunoslarning VIII kongressi munosabati bilan chig‘atoy tilida yozgar she’rida Munisning quyidagi she’rini keltiradi:

“Darveshligim chog‘ida anda kezarkan,
Xorazm jamolin ko‘zum-la ko‘rarkan,
Pisandida ko‘rdumki, Munis shoir zamon,
Xorazm madhin shundoq etti bayon:
“Bosh ko‘kka chekib Hisor, Xorazm,
Olamg‘adur iftixor Xorazm.
Firdavs barin nasimidin dam,
Har lahza urar bahor Xorazm.
Dar maxzani ilm maxzaridir,
Har maxfiyu oshkor Xorazm.
Ma’murai Hindu chin savodin,
Hijolatg‘a solib diyor Xorazm[3].

Xorazmda ana o‘sha paytda qalami o‘kir tarixchi, yozuvchilardan biri Bayoniy edi. Feruzshoh taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon II davrida Bayoniy, ham Ogahiy xon homiyligida badiiy tarixiy asarlar yaratishga muvaffaq bo‘lgan. Ko‘pgina tarjima qilingan asarlari ham Feruzshoh talabi bilan amalga oshirilgan. Bayoniy asarlari o‘zining haq so‘zini qo‘rqmay ayta olishligi bilan diqqatga sazovordir. Bir so‘z bilan aytganda, Bayoniy El dardini kuylaydi. “Har qismatga har kimning davroni sabab she’r un cheksa, shoirning armoni sabab bo‘lg‘ay”, - degan edi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov. Muhammad Yusuf Bayoniy 1840-yilda Xivada amaldor oilasida tug‘iladi. Avvaliga ta’limni o‘z uyida oladi, so‘ngra Sherg‘ozixon madrasasida o‘qiydi. Uning otasi ham she’riyat oshnosi bo‘lgan, ko‘p adabiy kechalar uyushtirib turgan, o‘zi ham she’rlar yozgan. Otasining ismi Bobojonbek bo‘lib, Eltuzarxonning nabirasi bo‘lgan. Muhammad Rahimxon Soniy taxt tepasiga kelgach, shoir ahllarini saroyga yig‘a boshlaydi. Tabiiyki, bu majlislarga

[3] Q.Munirov. Ogahiy, Munis va bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960. – 17-bet.

Bayoniy ham bora boshlaydi. Olgan ilmlarini boyitib, yanada takomillashtiradi. U xattotlik san’atini ustasi bo‘lgan bir qancha xat turlari, suls, kufiylarni nafislik bilan bita olgan. Zamondoshlari uning har sohadan xabardor bo‘lganini aytib, musiqa ilmidan ham xabari borligini, tanbur va g‘ijjakni yaxshi chalganidan hattoki qushlar nag‘ma qilishini aytganlar. Bayoniyning tarixiy mavzularda yozilgan “Shajarai Xorazmshoxiy” va “Xorazm tarixi” kabi asarlari bor.

“Bayoniyning 173 sahifadan iborat kulliyotida 178 g‘azal, 45 muxammas, 1mustazod, 10 musaddas, 2 musabba, masnaviy, ruboiy, tarjiband, qit’a va bahri tavil joylashgan. Asarlarga qo‘yilgan sarlavhalar qizil, matn esa qora siyoh bilan, oq-sariq fabrika qog‘oziga chiroyli nastaliq xatida bitilgan. Har bir g‘azal muallifning taxallusi bilan yakunlangan”[4]. G‘azal Bayoniy lirikasida yetakchi o‘rinda turadi. Shoir dilkash g‘azallar orqali muhabbatga sadoqat, insonlararo mehr-shafqat, do‘stlik, oliyhimmat bo‘lishlik, insonparvarlik, hayotsevarlik kabi g‘oyalarni ilgari surgan. Muhammad Yusuf (1840)ning o‘ziga “Bayoniy” taxallusini tanlashda biror bir yashirin ma’no bordek. Uning asarlariga nazar solar ekanmiz, har bir so‘zni shunday ochiq-oydin tushuntiradiki, muammoli, ya’ni tushunarsiz hech qanday jumla, ma’no qolmaydi, ya’ni qalbiga haqdan kelgan har bir so‘zi ravshanbayondir, so‘zda ravshanbayondir.

Xorazmda uzoq asrlar davom etib kelgan shajaraviy tarixnavislik bor. Bu chashmaning boshida Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiylar turadi. Ulardan qolgan muqaddas tarix kitoblarining qimmati juda baland. Bularga Markaziy Osiyo tarixining zukko bilimdoni V.V.Bartold yuqori baho berib, ulargacha mukammal tarix bitilmaganligini ta’kidlaydi. Bayoniyning “Shajarai Xorazmshoxiy” va “Xorazm tarixi” nomli asarlari Xorazm va Markaziy Osiyo xalqlari tarixini, XIX asr Xorazm adabiy muhitini o‘rganishda juda nodir manbadir. Bayoniy o‘z salaflari izidan borib, badiiy ijod bilan shug‘ullanibgina qolmay, Munis va Ogahiy yaratgan asarlardagi voqealarni qaytadan yozdi, to‘ldirdi, o‘z davri voqealari asosida tarixning yangi sahifalarini bunyod etdi[5]. Bayoniyning forsiy asarlarining o‘zi bir olam. Eng ulug‘ shoirlarimiz Lutfiy, Uvaysiy, Bobur, Ogahiy, Mashrab, Nodira, Munislar o‘zbek va forsiy tillarda ijod qilganlar. Adabiyotga nazar tashlasak, fors-tojik tilida ijod qilmagan shoir, shoiralarni uchratish qiyin. Bayoniy ham o‘z ajdodlariga munosib holda bir-biridan ajoyib zullisonaynlik qobiliyatidan foydalanib ijod qilgan, she’rlar bitgan. Xorazm tarixini mufassal tasvirlagan, xalq ma’rifati uchun doimo jon kuydirgan shoirlardan yana biri Ogahiydir. Fatxulla G‘anixo‘ayev o‘z asarida: “Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy XIX asr o‘zbek adabiyotining yirik

[4] N.Jumaxo‘ja. I.Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995. – 14-bet.
[5] N.Jumaxo‘ja. I.Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995. 21-bet.

namoyondasi va o‘sha davrda Xorazmda vujudga kelgan adabiy harakatning ilg‘or vakilidir. Ogahiy o‘zining yuksak iste’dodi sermahsul ijodi bilan, zabardast olim, talantli shoir, yetuk tarixchi, mohir tarjimon sifatida adabiyotimizda tarixida alohida o‘rin tutadi”[6]. Ogahiy 1809-yili Xivaning Qiyot qishlog‘ida tug‘iladi. Otasi Erniyozbek Mirob bo‘lib ish yuritgan. Otasi vafot etgach, amakisi va o‘z davrining jamoat arbobi bo‘lgan Munis qo‘lida tarbiya topadi. Tengqurlaridan zehni o‘tkirligi, xulqi bilan ajralib turgan ogahiyni Munis yoshligidanoq Navoiy asarlari bilan do‘stlashtirdi. Ogahiyning Munis qo‘lida tarbiya topishi uni saroydagi ilmiysuhbatlardan bahramand bo‘lish uchun ajoyib sharoit yaratadi. Bundan foydalangan Ogahiy tezda ijodga sho‘ng‘ib ketadi. Tezda lirik asarlari bilan shuhrat topa boshlaydi.

Ogahiyning lirik merosi o‘zbek va fors tillarida yaratilgan “Ta’viz ul-oshiqin”, ya’ni “Oshiqlar tumori” va “Ash’ori Forsiy” devonlarida jamlangan bo‘lib, 22 janrga oiddir. Bular orasida g‘azal, muxammas va ruboiy asosiy o‘rinni egallaydi, 84 ta muxammasning 31 tasi Navoiy g‘azallariga bitilgan bo‘lib, bu hol Ogahiyning Navoiyga bo‘lgan ehtiromidan bir nishona. Ogahiy she’riyatda o‘zgacha adabiyotimizda mavjud deyarli barcha janrlarga murojaat etgan, ularni davr talablari asosida mazmunan boyitib, shaklan takomillashtirdi[7]. Ogahiyni o‘zbek adabiyotida muxammas janrining va taxmisning asoschisi sifatida tan olinishi ham tasodifiy emas. Ogahiy shular bilan cheklanib qolmay, tarjimachilik sohasida ham qalam tebratgan. Dunyodagi eng dong‘i ketgan asarlarni nasriy va nazmiy usulda tarjima qilgan. Nazmiy tarjimalariga “Yusuf va Zulayho”, “Shoh va gado” asarlari kirsa, Mirxondning “Ravzat us-safo” asari nasrning yorqin namunasidir. Ogahiy bu asar ustida 20 yildan ortiqroq mehnat qilgan. Xususan, Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”, Sa’diy Sheroziyning “Guliston”, Vosifiyning “Badoye ul-vaqoye” asarlarini ham mahorat bilan tarjima qilgan.

Ogahiy Hindistonda hokimlik qilgan podsholardan Muhammadshoh Avrangzeb zamonida yashagan olimlardan Muhammad Vorisning “Zubdat ul-hikoyat” nomli asarini fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ogahiy, shuningdek, Kaykovusning o‘z o‘g‘li Gilonshoh uchun yozgan tarixda mashhur bo‘lgan “Nasihatnoma” yoki “Qobusnoma” deb ataluvchi asarini ham o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar 44 bobdan iborat bo‘lib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan hikoyalardan iboratdir. Ogahiy yana Muhammad Maxdiy Astobodiy tomonidan yozilgan “Tarixi Nodiriy”

[6] F.G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi. – Toshkent: 1986. 7-bet.
[7] F.G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi – Toshkent: 1986.

nomi bilan yuritiladigan asarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Bu asar Nodirshohning (1736-1747) hukmronlik qilgan davridagi tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi[8].

Ogahiy qay sohada ijod qilmasin go‘zallikka talpinadi.

Ogahiy go‘zallikka alohida ahamiyat beradi. Goh ijtimoiy hodisalar, goh tabiat o‘zgarishi, goh kishilardagi alohida fazilat, husni tavajjuh- bularning hammasi Ogahiy tanlagan estetik go‘zallikdir[9].

Har bir davr adabiyoti o‘zining bir ahamiyatli tomoni bilan ajralib tursa, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlari o‘z davrini haqqoniy aks ettirganligi, har ne yozsalar ham u haqiqat bo‘ladimi yoki shirin yolg‘on-barini ochiqchasiga aytganliklari bilan ahamiyatlidir.Shu sabablardan kelib chiqib, ularning nafaqat tarixiy, balki badiiy asarlari ham o‘z davrining, balki butun insoniyatning nodir boyligidir. Xulosa qilib shuni ayta olamizki, bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri bu asarlarni puxta o‘rganish, tanishib chiqishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Munirov. Munis,Ogahiy va Bayoniylarning tarixiy asarlari. – Toshkent: 1960.
2. Nusratillo Jumaxo‘ja. Iqboloy Adizova. So‘zdan baqoliroq, yodgor yo‘qdur. – Toshkent: 1995.
3. Fatxulla G‘anixo‘jayev. Ogahiy asarlarining tavsifi. – Toshkent: 1986.
4. Ogahiy abadiyati. – Toshkent. 1999.
5. Q.Munirov. Ogahiy. – Toshkent. 1959.
6. Atoqli shoir, tarixnavis, tarjimon. “Meros” nashiryoti. 1999.

[8] Q.Munirov. Ogahiy. – Toshkent: 1999. – 12-bet.
[9] Atoqli, Shoir, Tarixnavis, Tarjimon. “Meros” nashriyoti. – 1999. – 48-bet.

YASHAR KAMOL ASARLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Lola Aminova,
TDSHU, “Turk filologiyasi”kafedrasi dotsenti. Filol.f.n.
E-mail: lolahonim@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Turk yozuvchisi Yashar Kamol asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari, uning badiiy mahorati haqida fikr yuritilgan. Asarlardagi syujet yaratish masalasi, badiiy tasvir vositalari, yozuvchi tilining sodda va samimiyligi tahlil qilingan. Syujet yozuvchining mahoratini, uning ijodkor sifatidagi o‘ziga xos dunyosini ko‘rsatadigan asosiy omil sanaladi. Shuning uchun yozuvchining bir qancha asaridagi syujet qurilishi haqida so‘z boradi. Fikrlarning isboti sifatida asarlardan parchalar ham kelritilgan. Bundan tashqari yozuvchining asar g‘oyasini, voqealar silsilasini aks ettirishda ko‘pincha o‘zi yaxshi bilgan va guvohi bo‘lgan voqealarni aks ettirgani haqida fikr yuritilgan. Asarning ta’sirchanligini ta’minlashda, uning badiiy-estetik qimmatini oshirishda, yozuvchining badiiy mahoratini belgilashda syujet, konflikt, badiiy tasvir vositalari benihoya muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘z va iboralar*: syujet yaratish, badiiy tasvir vositalari, mahorat, badiyat, g‘oya.*

Annotation: *This article discusses the specific features of the works and artistic skills of the Turkish writer Yashar Kemal. The issue of creating a plot in the works, the means of artistic representation, the simplicity and sincerity of the writer’s language are analyzed. The plot is the main factor that shows the skill of the writer, his unique world as a creator. That is why there is talk about the construction of the plot in several of the writer’s works. Excerpts from the works are also cited as proof of ideas. In addition, it was thought that the writer, in reflecting the idea of the work and the series of events, often reflected the events he knew well and witnessed. It is said that the plot, conflict, and artistic image tools are very important in ensuring the effectiveness of the work, increasing its artistic and aesthetic value, and defining the artistic skill of the writer.*

Key words and phrases: *plot creation, artistic image tools, skill, creativity, idea.*

Kirish: Jahon adabiyotida durdona asarlar ko‘pdir. Har bir asar o‘zining qaysidir bir jihati bilan o‘quvchini o‘ziga rom qiladi. Bir-biriga o‘xshamagan voqealar silsilasi, yoki noodatiy, ba’zan g‘ayritabiiy bo‘lgan syujet qurilishlari har bir yozuvchining o‘ziga xos bo‘lgan qirrasini, mahoratini namoyon etadi. Badiiy tasvir vositalari, portret, peyzaj tasvirlari, qolaversa, tilning go‘zal namunalari bo‘lmish maqol, iboralar bilan boyitilgan asarlar, albatta, o‘quvchining mehrini qozonadi. Bunday asarlar qaysi tilda yozilmasin o‘z o‘quvchisini topadi va ko‘pgina chet tillariga tarjima qilinib jahon adabiyoti xazinasidan joy oladi.

Adabiy asarlarning o‘ziga xos xususiyati, avvalo, ularning hayot hodisalarini ta’sirchan, qiziqarli ifodalab berishi bilan belgilanadi. Asarda turmush voqealari, kishilararo munosabatlar, odamlarning kayfiyat, ichki kechinmalari qanchalik ishonarli, hayotiy ko‘rsatilsa, u o‘quvchilarni o‘ziga shunchalik jalb etadi. Biroq bu jarayon insonlarda juda murakkab kechadi.

Yozuvchi esa ularni muayyan g‘oya, ma’lum bir maqsaddan kelib chiqqan holda gavdalantiradi. Ya’ni ijodkor mavjud hayot hodisalarini ma’lum tartibga tushiradi, saralaydi.

Asosiy qism:

Turk adibi Yashar Kamol roman va qissalarida tasvirlangan hodisalar ham hayotning o‘zida sodir bo‘lganidan ko‘ra qiziqarli ko‘rinadi. Yozuvchining “Inja Mamad”, “Tayanch ustuni”, “Ilonni o‘ldirsalar” kabi bir qancha asarlaridagi voqealarni aynan hayotda sodir bo‘lgan hodisalar singari qabul qilish, ularda ishtirok etayotgan qahramonlarni real odamlar sifatida tasavvur etish mumkin. Adib bunga, avvalo, asarlarida o‘ziga xos syujet yaratish asosida erishgan. Chunki syujet yozuvchining mahoratini, uning ijodkor sifatidagi o‘ziga xos dunyosini ko‘rsatadigan asosiy omil sanaladi. Qiziqarli syujet bo‘lmagan joyda badiiylik ham yo‘q. Bundan asarning ta’sirchanligini ta’minlashda, uning badiiy-estetik qimmatini oshirishda, yozuvchining badiiy mahoratini belgilashda syujet benihoya muhim ahamiyatga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Yozuvchining ko‘plab asarlarining syujeti real hayot hodisalariga asoslangan. Asarlarning boshlanishidayoq yozuvchi tilining sodda va samimiyligi o‘quvchini o‘ziga rom qilib oladi. Yozuvchi bizni xotiramizda qadrdon bo‘lib qolgan xalq ijodiyotining mo‘jizalarga boy sehrli olamiga olib kiradi. Bu mo‘jizalar olamida biz, dastavval, sharq xalqlarining juda ko‘p ertaklaridan ma’lum bo‘lgan tasvirlarga duch kelamiz, masalan, uning “Ilonni o‘ldirsalar” qissasi shunday boshlanadi:

“Anavarza qoyaligining insonlaridan ham qoyalar hidi anqir edi. Bu hid bahor quyoshi taftida insonga juda yoqimli, shirin mast qiluvchi bo‘lib tuyuladi. Anavarza qoyaligining yomg‘iridan ham boshqacha hid anqiydi. Undan ham qoyalikning hidi keladi. Bulut ham ifor taratadi”. [4, b. 4]

Yashar Kamol qalamiga olgan voqealarni juda yaxshi biladi. Chunki u o‘sha voqealar ro‘y bergan joyda yashagan; shu voqealarning ko‘piga bevosita guvoh bo‘lgan. Tog‘larga qochib qaroqchilik yo‘liga kirib ketgan kishilarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan. Bu haqida turk adabiyotshunosi Sobit Bayyildiran shunday yozadi: Yozuvchining ilk romani “Inja Mamad”ga aynan qaroqchini bosh qahramon sifatida tanlashi tasodifiy emas. Avvalo, Yashar Kamol tug‘ilib o‘sgan kichkina qishloq Toros tog‘i etagida joylashgan. Bu tog‘ yozuvchining bolalik chog‘larida qaroqchilar makoni bo‘lgan. Kechalari qaroqchilar ularning uylariga kelishgan, qizg‘in suhbatlar qurib ertalabgacha qolib ketishgan. O‘sha voqealar bo‘lg‘usi yozuvchining xotirasiga singib, qalbidan o‘chmas bo‘lib joy olgan. Shuning uchun Yashar Kamol asarlaridagi qaroqchilar qiyofasi boshqa yozuvchilarning asarlaridagidan ko‘ra jonli bo‘lib ko‘rinadi. [2, b. 120]

Yashar Kamol asarlari ayni shu jihati bilan e’tiborli ekanligi, ayniqsa, uning qaroqchilar obrazi yaratilgan asarlari syujeti oddiyligi, voqealar mantiqan o‘zaro bog‘lanishi bilan ajralib turadi. “Inja Mamad” romani syujeti peyzaj tasviri bilan boshlanadi. Yozuvchi salkam bir yarim bobda Tavr tog‘i etaklari tutashgan O‘rtaer dengizi ko‘rinishlari, Tegirmono‘liq qishlog‘i manzaralarini tasvirlaydi. Adib jozibador manzaralar tasviridan keyin qahramonlar holati, tashqi ko‘rinishi bayoniga o‘tadi. Yashar Kamolning syujet yaratish mahoratining o‘ziga xos jihati shundaki, u hech qachon syujet avvalida asosiy qahramon nomini ma’lum qilmaydi. Qahramonlar nomini sir saqlash ham ijodkorning syujet yaratish bilan bog‘liq o‘ziga xos badiiy mahorati sanaladi. Ayrim adiblar, jumladan, o‘zbek adibi Abdulla Qodiriy ham o‘zi qalamga olayotgan voqealarning ma’lum bir tomonlarini sir saqlaydi va kitobxonni qahramonlari taqdiri bilan qiziqtiradi.[5, b. 33]

Yashar Kamol o‘zi yashagan muhit va xalqiga oid barcha urf-odat, an’analar, iboralar, olqish va qarg‘ishlarni ijodida aks ettirgan. Yozuvchi romanlarida qo‘llagan g‘ayritabiiy voqealarni og‘zaki ijoddagi afsona, rivoyatlar vositasida dalillashga intiladi. Yozuvchi mana shu an’analarning ichida qolib ketmay, uni zamonaviy hikoya uslublari bilan bog‘lashga harakat qiladi. Yashar Kamol haqiqat bilan afsonaning, odatiy voqea bilan fantaziyaning bir-biriga birikib ketgan dunyosini yaratib, o‘quvchining e’tiboriga havola qiladi.

Badiiy asarlardagi har bir voqea ma’lum bir konsepsiyadagi ma’noni aks ettirishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda yozuvchi mavjud hayot hodisalarini muayyan konsepsiya asosida ko‘rsatish uchun o‘sha hodisalarning kelib chiqish sabablarini badiiy tadqiq etadi. Masalan, “Inja Mamad”, “Ilonni o‘ldirsalar” kabi asarlaridagi qahramonlarning ijobiy jihatlari ularning tabiat go‘zalliklaridan ta’sirlanishi hamda oila muhitidagi samimiylik va halollik bilan bog‘liq ekanligi ko‘rsatiladi.

Yozuvchining “Inja Mamad” romani syujeti mohiyatini qalbi ezgu hislarga to‘la bir o‘smir yigitning qaroqchilar safiga kirib qolishi sababalarini ko‘rsatish belgilaydi. “Mening otam o‘lgan. Yolg‘izgina onam bor. Boshqa hech kimimiz yo‘q. Men Abdi og‘aning qo‘shini haydayman. Ikki yildirki qo‘sh haydab yer tozalayman. Buning ustiga Abdi og‘a meni har kuni o‘lguday uradi”, deydi Inja Mamad. Bu so‘zlar qahramon tilidan bayon etiladi. Ammo Yashar Kamol personajlarning gap-so‘zlarini shu tarzda qayd qilish bilan kifoyalanmaydi. U san’atkor sifatida ish tutib, alam, iztirobga to‘la qalbini oshkor etayotgan jabrdiyda bolaning o‘sha paytdagi tashqi va ichki holatini tasvirlaydi: “Shu gaplarni ayta turib ko‘zlari yosh bilan to‘ldi. Tomog‘iga bir narsa qadalganday bo‘ldi. O‘zini tutib qolmaganida ho‘ngrab yig‘lab yuborar edi”.

Yozuvchi bosh qahramon holati bilan shu tarzda tanishtirgandan keyin syujet tarmoqlarini kengaytira boradi. Ya’ni asarga boshqa qahramonlarni ham olib kiradi. Ularning taqdiri - qismati bilan bosh qahramonning kechmish-kechirmishlarini tutashtiradi. Natijada, o‘quvchi e’tiborini jalb etadigan syujet liniyasi hosil bo‘ladi.

Badiiy asarlar syujeti tuzilishi, voqealarning bayon qilinishi tarziga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. “Asarda voqelik tashkil qilinishiga qarab, syujetni ikki turga ajratish mumkin: ulardan biri – xronologik tur, ikkinchisi – murakkab psixologik tur. Syujetning murakkab psixologik turida yaratilgan asarlarga nisbatan xronologik turida yaratilgan asarlar ko‘proq uchraydi.” [1, b. 259] Yashar Kamolning “Inja Mamad” romani syujeti ko‘p jihatdan xronologik syujet turiga kiradi. Bu roman syujetining eng drammatik va eng jozibador nuqtasi ham Mamad va Hadicha muhabbati bilan bog‘liq voqealardir.

Har bir ijodkor asari qiziqarli bo‘lishi uchun hayotda kam uchraydigan voqealarni asari syujetiga olib kirishga intiladi. Yashar Kamol ham Ali cho‘loq, Hasan kabi qahramonlar misolida favqulodda tabiatli kishilar qiyofasini ko‘rsatgan. Ular o‘zlarining boshqalarga o‘xshamaydigan jihatlari bilan kitobxon diqqatini jalb qiladi. Yashar Kamol asosiy qahramonlarining ham, ikkinchi darajali qahramonlarining ham individual xususiyatlarini jo‘n tarzda bayon qilmaydi, aksincha, badiiy tadqiq etib ko‘rsatishga intiladi.

Tadqiqiy yo‘nalishdagi asarlarda hayotning muayyan muammolari tahlil qilinadi, ziddiyatlar qarama-qarshiliklarning mohiyati haqida so‘z yuritiladi. Voqealarning yuzaga kelishi sabablari to‘g‘risida mulohaza yuritish esa badiiy asarlar syujetining tarmoqlanib ketishiga olib keladi. Asar syujeti qanchalik keng tarmoqli bo‘lsa, u hayot hodisalarini shunchalik keng qamrab oladi. Yashar Kamolning “Inja Mamad” romani syujeti voqealarida ellikdan ortiq personaj ishtirok etadi. Ularning ayrimlari syujet chizig‘ida faol qatnashadi. Ba’zilarinig nomi esa ikki-uch o‘rinda tilga olinadi, xolos. Ular syujet voqealarida qay darajada ishtirok etishidan qat’iy nazar, hayot muammolari, kishilararo munosabatlar murakkabligining turli jihatlari to‘g‘risida tasavvur uyg‘otishi bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

“Syujetida konflikt bo‘lmagan asar ta’sirchan bo‘lmaydi” [3,b.174] deb yozadi adabiyotshunos Izzat Sulton. Yashar Kamol asarlari ham syujetidagi konflikti bilan o‘quvchilarni jalb etadi. Ularda bir-biri bilan murosasiz kurashadigan qahramonlar o‘rtasidagi to‘qnashuv ko‘rsatiladi. Adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlarda asarlardagi konfliktning uch xil ko‘rinishi mavjud bo‘lishi ta’kidlangan. Birinchisi, asar qahramonlari bilan ular yashayotgan muhit o‘rtasidagi ziddiyat, ikkinchisi, bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar orasidagi keskin kurash, uchinchisi, asar qahramonining o‘z ichki dunyosidagi qarama-qarshilik.

Yashar Kamol asarlarida, xususan, “Inja Mamad” romanida uch xil ko‘rinishdagi konflikt bir-birini to‘ldirgan holda namoyon bo‘lsada, bir-biriga qarama-qarshi xarakterlar o‘rtasidagi kurash shaklidagi konflikt yetakchilik qiladi. Romanda Mamad va Abdi og‘a o‘rtasidagi ziddiyat ko‘p o‘rinni egallaydi. Shuningdek, Mamad va boshqa qaroqchilar, Hadicha va uning onasi, Mamad va Ali cho‘loq munosabatlari ham ichki qarama-qarshiliklarga to‘laligi bilan e’tiborni tortadi.

Konflikt ana shu kabi xususiyatlariga ko‘ra syujetning o‘zagi, asosi sanaladi. Yozuvchi asarlari syujetining jozibadorligi ham ko‘p jihatdan konfliktning keskinligi bilan belgilanadi. Konfliktning pishiq-puxtaligi esa ijodkorning hayot hodisalarini muayyan g‘oya, nuqtayi nazar asosida tartibga tushirishidan kelib chiqadi.

Yashar Kamol asarlarida yana bir o‘ziga xos jihat ko‘zga tashlanadi. Bu ijtimoiy hodisalarning qahramonlar shaxsiy taqdiri bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilishidadir. Abdi og‘a singarilarning zulmi, zo‘ravonligi, Hasan kabilarning qoloq aqida va qarashlar tufayli ruhan ezilishi ijtimoiy voqelikning umumiy manzarasi sifatida ko‘rsatiladi. Yozuvchi bu kabi qahramonlari shaxsiy taqdiri orqali ijtimoiy hayotning yaxlit ko‘rinishini bir nuqtaga jamlab gavdalantiradi.

Xulosa:

Ta’kidlash joizki, Yashar Kamol asarlari doim adabiyotshunoslar diqqati markazida bo‘lib kelgan. Buning sabablaridan biri yozuvchi roman va qissalari syujeti murakkabligi, qalamga olingan voqealarning keskin drammatik xarakterga egaligi bilan bog‘liqdir. Bu kabi ilmiy e’tiroflar Yashar Kamol asarlari syujeti hayotning o‘zidan olingan tayyor voqealar ko‘chirmasi emasligi, ular adib o‘y-hayoli, tafakkuri mahsuli, ijodiy izlanishlari samarasi ekanligini bildiradi. Shu boisdan asarlar xilma-xil fikrlar kurashi sifatida o‘ziga jalb etadi. Syujetning mag‘zi, mohiyatini belgilagan bu qarashlar va fikrlarda real hayot haqiqati, zamonning murakkab ziddiyatlari yaqqol ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. 1-tom. – T.: Fan. 1978.
2. Kabakli A. Turk edebiyati/ - Istanbul: Inkilap kitabevi, 1991.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. T.: O‘qituvchi. B. 1977.
4. Yashar Kamol. Ilonni o‘ldirsalar. Qissa. – T.: Yangi asr avlodi. 2001.
5. Qo‘shjonov M. Hayot va mahorat. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1962.

TURK TILI FANIDAN AMALIY MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Sarvara Tashaliyeva,
Turk filologiyasi kafedrasi
katta o‘qituvchisi

Annotasiya: *Mazkur maqolada xorijiy til ta’limi, amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish, til o‘rganish kompetensiyalarini shakllantirish yo‘llari va metodlari haqida so‘z yuritiladi. Talabalarning til o‘rganishlari bilan bog‘liq muammolarni hal etish yo‘llari ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *so‘zlash, yozish va tushunish ko ’nikmalari, matn tuzish, yozma bayon, yozma ish shakllari.*

Annotation*: This article talks about ways and methods of foreign language education, organization of practical training, formation of language learning competencies. Ways to solve problems related to students’ language learning are shown.*

Key words*: speaking, writing and comprehension skills, composition, written statement, written work forms.*

Horijiy tillarni o‘rganishda ta’lim beruvchi bilan bir qatorda ta’lim oluvchining ham faoliyat shakli ahamiyatlidir. Ta’im samaradorligini oshirish uchun talabaning xohish-istagi, o‘rganishning qanday usullaridan foydalanishi ham juda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham qaysi mavzuni qanday metodlardan foydalanib o‘rgatish borasida fikr yuritar ekanmiz, talabaning ham imkoniyatlarini, talab va istaklarini hisobga olishimiz zarur. An’anaviy ta’lim tizimida talabaga o‘rganilishi kerak bo‘lgan ma’lumot berilar ekan , bu ma’lumotning aynan shu talabaning hayotidagi o‘rni, uning kundalik hayoti bilan bog‘liqligi ham tushuntirilib berilishi lozim.

Chet tilini o‘rganayotgan talabalar ma’lum bir grammatik mavzuni chuqur o‘zlashtirishlari uchun ana shu mavzuga aloqador til birliklarini o‘zlarining kundalik hayotlari bilan bog ’liq tarzda qo‘llay olish ko‘nikmasini hosil qilishlari maqsadga muvofiqdir. Ko‘pincha talaba u yoki bu mavzuni o‘rganadi, nazariy savollarga javob beradi. Ammo olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olmaydi. Bir qarashda darsdan kutilgan maqsadga erishilgandek lekin eng asosiysi yozma va og‘zaki nutq jarayonida ma’lumotlarni mustahkamlab borishidir.

Horijiy til ta’limidagi dolzarb muammolardan biri ham tilning yuzaki o‘rganilishiga olib keluvchi dars shakllaridir. Matn o‘qish, darslikdagi mashqlarni bajarish tarzidagi amaliy mashg‘ulotlar talabalar tomonidan tilning mukammal o‘rganilishi uchun yetarli emasligini ta’kidlash lozim. Bunday mashg ’ulotlarda olgan bilimlarini o‘z nutqlarida turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olmaslik esa bilimlarni tezgina unutilishiga sabab bo‘ladi.

Til insonlar hayotidagi juda muhim bir vosita ekanligini nazarda tutadigan bo‘lsak, horijiy tilni o‘rganuvchilar ham o‘rganilayotgan tilda so‘zlash, yozish va tushunish ko ’nikmalarini hosil qilishlari uchun o‘z hayotida ana shu tildan vosita sifatida foydalana olishlari kerak.

Buning uchun esa o‘qituvchi dars jarayonida har bir talabaga alohida e’tibor qaratishi, individual yondashib, ularning qiziqishlariga mos keladigan turli shakllardagi vazifa va topshiriqlarni ishlab chiqishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tilni o‘rganishda to‘rt kompetensiya mavjud bo‘lib, bular tinglash, so‘zlash, o‘qish va yozishdir. Tilni o‘zlashtirish saviyasi ana shu ko ’nikmalarning hosil qilinishi bilan bog‘liq. Bir kompetensiyaning egallanmaganligi boshqalarini ham egallashga to‘sqinlik qiladi. Faqat so‘zlashni bilsam bo‘ldi deyish noto‘g‘ri. Yani bularning barchasi o‘zaro chambarchas bog‘liq. Til kompetensiyalarini egallash nazariy bilimlarni egallashning o‘zi yetmaydi, albatta. Buning uchun nazariy ma’lumotlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan mustahkamlash va kundalik hayotda qo‘llay olishga erishish kerak. Gramatik mavzularni o‘rgangan talaba o‘z-o‘zidan gapirib ketmasligi aniq. So‘zlarni yodlash bilan ham bu natijaga erishib bo‘lmaydi. Demak, amaliy mashg ’ulotlarning sifatiga, tanlangan metodlarning talaba imkoniyati va qiziqishlariga mos kelishiga katta ahamiyat qaratishimiz kerak.

Talabalarni qiziqtirgan mavzularda insho yozish, o‘zlari sevgan mashhur kishilar bilan intervyu matnini tuzish, qiziqarli reklama va e’lonlarni yozish kabi topshiriqlar yordamida yozish ko‘nikmasini shakllandirish mumkin. Odatiy mashg‘ulotlarda bo‘lganidek, berilgan savollarga javob yozishdan ko‘ra yuqoridagi kabi vazifalarni bajarish talabalar uchun qiziqarli bo‘ladi. Darslikda berilgan matn yuzasidan savol-javoblarga qaraganda talabalarning ijodiy ishlari ularni ko‘proq o‘ylashga va til birliklaridan foydalanishga o‘rgatadi. Muhimi ular o‘zlari matn tuzish jarayonida so‘zlarni, iboralarni, kerakli qo‘shimchalarni izlaydilar va fikrlarini yozma bayon etadilar.

Xorijiy tilni o‘qitish jarayonida ham so‘z boyligini oshirishga katta e’tibor qaratilishi lozim. O‘rganilayotgan tildagi har bir so‘z bizga boshqa millatning madaniyati, dunyoqarashi haqida ma’lumot beradi. Tilning o‘ziga xos tizimi, grammatik, sintaktik xususiyatlarini o‘rganish bilan bir qatorda so‘z boyligini oshirishga qaratilgan faoliyat turlari amalga oshirilishi kerak bo‘ladi. Har bir so‘zni joyida qo‘llay olish , o‘rinli ishlatish ko‘nikmasini hosil qilish lozim. Notanish matnni o‘qish yoki tinglash jarayonida birinchi marta uchragan so‘zlarning ma’nosini bilmasak ham matnning umumiy ma’nosini tushunishimiz mumkin. Lekin so‘zlab berishda yoki yozma bayonda qaysidir so‘zni bilmasligimiz yaqqol ko‘zga tashlanadi. Kishi qanchalik ko‘p so‘z bilsa, fikrlarini shunchalik lo‘nda ifodalay oladi.

Yangi so‘zlarni o‘rgatishda nutqiy parchalar, matn va jumlalardan foydalanish. So‘zlarni alohida yozib shunchaki yod olish emas, balki ma’lum bir holat, vaziyat bilan bog‘liqlikda eslab qolish kerak. Masalan,Tana a’zolari nomlarini o‘rganishlari uchun “Doktorda” matni tavsiya etiladi.

O‘rganilishi lozim bo‘lgan so‘zlarning ro‘yxatini berib, talabadan yod olishini talab qilish unchalik samarali yo‘l emas. Chunki, har bir so‘zni eslab qolish uchun ma’lum bir sharoit (matn, dialog, audiomatn, mashq) bo‘lishi darkor. Talabalar u yoki bu so‘zni topa olmay qolishganda o‘sha so‘z uchragan matnni eslatishingiz bilan ularning yodiga tushadi.

So‘zlarni eslab qolishda ma’nodosh va zid ma’noli so‘zlarni yozib olish ham samarali usullardan biridir. Sinonim so‘zlarning qo‘llanilish o‘rinlari haqida misollar yordamida ma’lumot berish kerak. Tushuncha va narsalarni ifodalovchi sinonim so‘zlarning har birini alohida misollar bilan eslab qolish. Turk tilida millet halk ulus so‘zlarini quyidagi misollarda tushuntirish mumkin: Millet buna ne der. Türk halk müziği. Uluslararası ilişkiler ulusal bayramlar

Turk va o‘zbek tillari qardosh til ekanligi o‘rganuvchilarga ba’zan qulaylik tug‘dirsa ba’zan esa aksincha chalg‘itishi mumkin. Har ikki tilda mavjud lekin ma’nolari farqli chalg‘ituvchi so‘zlar juda ko‘p bo‘lib, ana shunday birliklarni ma’nolari bilan eslab qolishga katta e’tibor berilishi kerak. So‘zlarning eslab qolinishi va nutqda qo‘llanilishini ta’minlash uchun har doim mana shu o‘xshash va farqli jihatlarni yodda tutish kerak bo‘ladi.

Turk tili o‘qitish jarayonida talabalarning yozma nutqini o‘stirish, fikrlarini aniq va lo‘nda ifoda etish yo‘llarini o‘rgatish muhim vazifalar sirasiga kiradi. Amaliy mashg‘ulotlarda talabalarning o‘z fikrlarini, o‘y va qarashlarini erkin va chiroyli tarzda bayon etishlari uchun lozim bo‘lgan sharoitlarning ta’minlanishi, ularga turli mavzularda turlicha topshiriqlarning berilishi ana shu vazifani amalga oshirishga xizmat qiladi. Talabalar bilan olib boriladigan har bir mashg‘ulotda yozish ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalardan foydalanish turk tilida erkin yoza oladigan mutaxassislarni tayyorlashda eng muhim qadamlardan sanaladi.

Turk tili darslarida kompozisyon, anı, demeç, öykü, gezi yazısı kabi yozma ish shakllaridan foydalanish talabalarning turli uslublarda matn tuza olish qobiliyatini rivojlantiradi. Har qaysi shakldagi vazifalarni berishdan avval talabalarga aniq maqsadni, yozma ish shartlarini tushuntirib berish talab etiladi. Talabalarningbilim darajasiga ko‘ra yozma ish shakllari belgilanadi. Birinchi bosqich talabalariga mektup, günlük, gezi ikkinchi bosqich talabalariga hikaye, tasvir, karakter tasvirleri, skeç, açıklama uchinchi bosqich talabalariga esa tartışma, makale shaklidagi yozma ishlar olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy til ta’limida talabalarga ham og‘zaki, ham yozma nutqni o‘stiruvchi topshiriqlarning berilishi har tomonlama yetuk filolog kadrlarni tayyorlash yo‘lidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Yozma ishlarda kuzatilgan xato va kamchiliklarni tuzatish, talabalarga kerakli tushuntirish va ko‘rsatmalar berish ta’lim jarayonining asosiy qismlaridan biri bo‘lishi lozim. Talabalarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta’limning sifatini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J.Shabanov.Chet tilini o‘qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalar.T.,2010
2. Z.Xudoybergenova.Samarali ta’limning asosiy usullari va oliy ta’lim tizimida ularning tatbig‘iga doir..Sharq tillari va adabiyoti fanlarini o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari.T-2009.
3. Emin Özdemir,Adnan Binyazar. ’Yazılı anlatım bilgileri’Ankara.1998.
4. X. Imomova. Turk tilini o‘qitishda so‘z ma’nolarini ochib berish yo‘llari. Sharq tillari va adabiyoti fanlarini o‘qitish metodikasining dolzarb masalalari Toshkent,2009.
5. S.Toshalieva..Turk tilini o‘rgatishning ba’zi interfaol usullariga doir. Lingvist. Ilmiy maqolalar to‘plami.T,-“Akademnashr” 2012.

RUS GURUHLARIDA O‘ZBEK TILINI O‘QITISH METODIKASI

Shahnoza Gulyamova,
TDSHU akademik litseyiona tili va adabiyot o‘qituvchisi,
E-mail: shakhnoza.gulyamova.71@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda o‘zbek tili fanini o‘qitish metodikasi haqida ma'lumotlar keltirildi. Maqolada rus tilida o‘qitiladigan guruhlarda o‘zbek tili darslarining ajralmas qismi sifatida o‘qitish metodikasining usuli bilan bog‘liq muammolar tadqiq etilgan; vujudga kelish sabablari va ularni hal qilish usullari ko‘rsatilgan. Mazkur maqolada mavzuni o‘rganishga erishilgan natijalar umumlashtirilib, akademik litseylarda o‘zbek tilini o‘rganishdagi metodika o‘rganildi. Rus guruhlarda o‘zbek tili fanini o‘rganish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar berildi. Maqolada tafakkur va nutqni rivojlantiradigan, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga, so‘z boyligini oshirishga yordam beradigan metodlar berildi.*

Kalit so‘zlar: *metod, ko‘nikma, ijodiy faoliyat, DTS,* Nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, fonetika, leksika, grammatika, pedagogik mahorat, rasmli Rebus usuli, loyiha metodi.

Annotation. *This article provides information about the methodology of teaching the Uzbek language in groups where education is conducted in Russian today. The article examines the problems related to the method of teaching the Uzbek language as an integral part of the Uzbek language classes in Russian-language schools; the causes of their occurrence and methods of solving them are shown. This article summarizes the results of the study of the subject, and studies the methodology of studying the Uzbek language in academic lyceums. Methodical recommendations on studying Uzbek language in Russian groups were given. The article provided methods that help develop thinking and speech, work in groups and cooperation, and increase vocabulary.*

Key words: *method, skill, creative activity, DTS, Speech competence, linguistic competence, phonetics, lexicon, grammar, pedagogical skill, pictorial Rebus method, project method.*

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya sohasiga mustaqillikning dastlabki yillaridanoq alohida e’tibor berib kelinmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tili fanini noo‘zbek guruhlarida davlat tili sifatida o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi “Davlat tili to‘g‘risidagi” Qonunning talablarini bajarishning muhim omili bo‘lib xizmat qildi. Chunki, O‘zbekistonda 130 dan ortiq turli xil millat va elat vakillari istiqomat qilishadi. Ularning milliy urf-odatlari, madaniyatini hamda ona tillarini hurmat qilishni davlatimiz o‘z zimmasiga olgan. Shuningdek davlatimiz bosh qomusida “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” degan moddaning kiritilishi o‘zbek tilinining nufuzi va davlat tili sifatida obro‘sini yanada yuksakka ko‘tarishga xizmat qildi desak aslo xato bo‘lmaydi.

Ushbu konstitutsiyaviy burch va vazifalardan kelib chiqib O‘zbekistonda ta'lim 7 tilga olib boriladigan bo‘ldi. Noo‘zbek guruhlarda ularga o‘z ona tilini o‘qitish bilan birga o‘zbek tilini davlat tili sifatida o‘qitish ham yo‘lga qo‘yilishi mamlakatimizda Asosiy qonunimiz hamda “Davlat tili to‘g‘risidagi” Qonun talablarini bajarishda muhim dasturamal bo‘lib xizmat qildi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o‘zbek tili fanini davlat tili sifatida o‘qitish, bu fandan o‘quvchilarda ma'lum kompetensiyalarni shakllantirish uchun Davlat ta'lim standarti va o‘quv dasturlarida mazkur fanning maqsad va vazifalari belgilab berdi.

DTS talabiga ko‘ra, o‘zbek tili fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - ikki kompetensiyada mujassamlashdi.

1. Nutqiy kompetensiya - tinglab tushunish, o‘qish, gapirish va yozish ya'ni muloqot malakasini egallash.

2. Lingvistik kompetensiya- til materialini (fonetika, leksika, grammatika) va vositalarini nutqda qo‘llay bilish uchun yetarli bilimlarni o‘zlashtirish uchun, bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab tushunish, o‘qish, gapirish, yozish) egallashni nazarda tutadi.

Standartda nutqiy faoliyatning har bir turi yuzasidan til materiali, til vositalari va grammatik bilimlar, hosil qilinadigan zaruriy ko‘nikmalar belgilanadi.

Bunda o‘rganilayotgan so‘z va so‘z shakllarini to‘g‘ri talaffuz qilish hamda yozish, so‘zni grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllantirish, so‘zlarni o‘rinli tanlash, sintaktik-uslubiy jihatdan to‘g‘ri baholay olish, jumla tuzishda va nutq ohangini belgilashda adabiy til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanish talab etiladi.

Ushbu belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun o‘zbek tili darsliklarida grammatikaga oid ma'lumotlar berish bilan birga, nutqiy kompetentlikni rivojlantirish uchun adabiy-badiiy matnlar, o‘zbek shoir-u yozuvchilarining hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar ham berib boriladi. Bu ma’lumotlar bilan tanishgan o‘quvchi o‘zbek adabiy tilining hamda adabiyotining boy namunalarini ko‘rib o‘zbek tilidan nutqiy ko‘nikmalari rivojlantirib boradi. Ya’ni lingvistik kompetensiyasi bilan birga nutqiy kompetensiyasi ham shakllantirilib fan bo‘yicha zarur bilimlarni hosil qiladi.

Ta’lim o‘zbek tilidan boshqa tillarda olib boriladigan ta’lim muassasalari uchun O‘zbek tili fanini o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsad:

- ✓ o‘quvchilarning kundalik va kasbga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘zlashtirgan bilimlarini muloqot jarayonida qo‘llash malakasini rivojlantiruvchi nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish;
- ✓ o‘quvchilarning o‘zbek tilida og‘zaki va yozma savodxonligini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish;

✓ o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlari asosida o‘zini o‘zi mustaqil rivojlantirish, egallangan bilim, ko‘nikma va malakasini turli vaziyatlarda qo‘llay olishga qaratilgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda o‘zbek tilida ravon, savodli, mantiqiy izchil so‘zlay olishgina emas, balki ish qog‘ozlarini savodli yurita bilish ham zamon talabidir. Davlat tilini o‘rganish, unga amal qilish tabiiy ehtiyoj va zaruriyatga hatto aylangan majburiyatga aylanishi lozim.

O‘zbek tilida to‘g‘ri, ifodali so‘zlash va yozish, o‘zbek tilining sofligi, boyligiga befarq bo‘lmaslik, uning iste’mol doirasini kengaytirib borish davlatimiz, har bir millat vakillarining burchi sanaladi. Shuningdek o‘zbek millati va Davlat tili bo‘gan o‘zbek tiliga izzat-hurmat tariqasida boshqa millat vakillari o‘zbek tilini mukammal o‘rganishlari va so‘zlasha olishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xususan har yosh avlod vakillari o‘zbek tilidagi so‘z boyligini o‘stirish hamda til imkoniyatlaridan o‘rinli foydalanishga doimo harakat qilishlari lozim. Shu bois maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida rus guruh o‘quvchilariga o‘zbek tilini o‘qitish metodikalari bo‘yicha takliflar kiritiladi. O‘zbek tili ta’limi konsepsiyasi “O‘zbekiston O‘rta umumiy ta’lim maktabi konsepsiyasi” hamda “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”da ko‘zda tutilgan asosiy mezon va talablarga tayangan holda o‘zbek tili ta’limining mazmuni va metodlarini, shuningdek, yaxlit ta’lim tizimini o‘rgatish asos qilib olingan.

Konsepsiyaning bosh maqsadi O‘zbekistondagi maktab, maktabgacha, akademik litsey va kasb hunar kollejlarining rus guruhlarida o‘zbek tili ta’limining maqsadi, vazifalari, yo‘nalishlari, asosiy bosqich haqida prinsiplarini belgilab berishdan iborat.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi o‘ziga hos mustaqil fan sanaladi. Chunki bu fan maktabda “O‘zbek tili nima uchun o‘qitiladi?”, “O‘zbek tili ta’limi qanday tashkiliy shakllar vositasida amalga oshiriladi?” degan savollarga javoblar izlaydi.

Maktabgacha, maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlarida o‘zbek tilini o‘qitish “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”da belgilangan prinsiplarga tayanadi.

Ta’lim mazmunini shakillantirish zamonaviy pedagogikaga, xususan, o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida quyidagi 4 ta muhim tarkibiy qism hisobida amalga oshiriladi.

1. O‘quvchilar egallashi zarur bo‘lgan bilimlar tizimi (til faktlari, tushunchalar, qoidalar, ta’riflar)
2. Shu bilimlarga muvofiq keladigan ko‘nikma va malakalar.
3. Asosiy faoliyat usullari.
4. O‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlari (faoliyatlari) tizimi.

Ta’lim tizimining bu tarkibiy qismlari chiziqsimon emas, balki aylanasimon yahlitlikda bo‘lishi kerak.

O‘zbek tilini o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli va unumli foydalanish, ko‘nikma hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, komunikativ savodhonlikni oshirish, milliy istiqlol g‘oyasini, o‘quvchi shaxsini ma’naviy boyitishdan iborat.

Til o‘qitish metodikasining asosiy vazifasi ijodiy mustaqil fikirlarini og‘zaki va yozma shakllarda, adabiy til me’yorlari asosida to‘g‘ri ifodalay oladigan, so‘zning ma’no ko‘lami va darajalarini farqlaydigan adabiy nutq me’ni tarbiyalab yetkazishdir.

Yuqoridagi maqsad va vazifalardan kelib chiqib biz hozir ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning hayoti va ijodini o‘rgatish orqali o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda qo‘l keladigan ba’zi bir metod va usullar haqida o‘z tavsiyalarimizni o‘rtoqlashmoqchimiz.

Ma’lumki, Abdulla Oripov haqiqiy ma’noda o‘zbek adabiyotining darg'asi sifatida barchaga yaxshi tanish. Uning o‘ziga xos she'riyati, takrorlanmas so‘z qatorlari ko‘pgina kitobxonlarni o‘ziga mahliyo qilgan. Biz shoirni O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining muallifi sifatida ham yaxshi taniymiz. Noo‘zbek guruhlarda tahsil oluvchi o‘quvchilar, xususan rus sinflarida, o‘zbek tili darsliklardagi shoirning ijod namunalaridan parchalar orqali tanishtirilib boriladi. Lekin, eng ko‘p ma'lumotni 10-sinf o‘zbek tili darsligida oladilar.

Darslikda Adabiy o‘qish uchun “Abdulla Oripov hayoti va ijodi” uchun 2 soat ajratilgan. Ammo, bu mavzu uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kamroq hamda to‘liq shaklda berilmagan. O‘qituvchining o‘z pedagogik mahorati hamda fan bo‘yicha yetarli nazariy bilimlarning bo‘lishi ushbu mavzuni kengroq ochib berishida qo‘l keladi. Biroq faqat quruq nazariy ma'lumotlarni gapirib berish, yoki ma'ruza qilib yozdirish orqali o‘quvchiga bilim berish o‘zini oqlamasligi, tabiiy hol. Chunki bugunning o‘quvchisi har taraflama qiziquvchan va ko‘rgazmalilik hamda yorqinlikni sevadi. Shuning uchun o‘qituvchi mavzuni tushuntirishda qo‘llagan metodlari bu borada muhim o‘rin tutadi.

Biz hozir ushbu mavzuni o‘qitishda qo‘l kelishi mumkin bo‘lgan bir nechta innovatsion texnologiyalar haqida fikrlarimizni bo‘lishmoqchimiz.

1. **“Rasmli rebus” usuli.** Bu usulni ko‘pincha darsning “Mustahkamlash” qismida qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bilamizki, 10-sinf o‘quvchilarida psixologik jihatidan “o‘tish davri”ning oxirgi bosqichlari kechayotgan bo‘ladi. Ularni ma'lum bir o‘yinlar yoki buyruq berish bilan dars jarayoniga tortish qiyin. Bu usul orqali o‘quvchilar shoir ijodiga oid asarlarni rasmlarga qarab aniqlashi kerak bo‘ladi. Masalan, rebusda baliqcha, hovuz, tilla tanga rasmlari aks etgan bo‘lsa, demak bu yerda shoirning “Tilla baliqcha” she’ri tasvirlangan bo‘ladi.

2. **“Tezkor savol-javob” usuli.** Mazkur usulni biz darsning “O‘tilgan mavzuni takrorlash va uyga vazifa so‘rash” qismida qo‘llashni lozim ko‘rdik.

3. O‘quvchilarga shoirning hayoti va ijodi bo‘yicha savollar beriladi. O‘quvchilar esa savollarga tezkorlik bilan javob berishlari kerak bo‘ladi. Bunda o‘quvchilar javoblarini yozma tarzda berganlari maqsadga muvofiq, chunki bunda ularning o‘z sheriklarining javoblarini o‘zlashtirishi inobatga olinadi.

4. **“Qiziqarli krossvord” texnologiyasi.** Ushbu texnologiya orqali o‘quvchilar darsning “Yangi mavzu bayoni” qismida olgan bilimlarini mustahkamlashda qo‘l kelishi mumkin. Ya’ni, bunda sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘lingan.

Abdulla Oripov hayoti va ijodiga oid savollar o‘qituvchi tomonidan alohida qog‘ozlarga yozilgan tarzda beriladi. O‘quvchilar esa, ma’lum bir belgilangan vaqt davomida krossvordni to‘ldirishlari kerak bo‘ladi.

5. **“Loyiha” metodi.** Mazkur metodni biz darsning “Yakuniy qismi”da qo‘llashni lozim topdik. Chunki, darslikdagi adabiy o‘qish uchun berilgan ma'lumotlar nisbatan kam hajmda hamda dars vaqtining chegaralanganligi bois, o‘quvchilar keng va to‘liq ma'lumotlar olishi qiyin bo‘lishi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda ushbu metod yaxshi samara berishi mumkin. “Loyiha” metodi o‘quvchilarni mustaqil o‘rganishga va izlanishiga turtki bera oladigan metoddir. O‘qituvchi dars yakunida o‘quvchilarga shoirning hayoti va ijodiga oid bo‘lgan qiziqarli mavzuni o‘rtaga tashlaydi. Sinfdagi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi, guruh sardori tayinlanadi. Masalan, “Abdulla Oripov mohir tarjimon”. Bilamizki, shoir o‘zbek adabiyotiga mashhur tarjima asar Dante Aligerining “Ilohiy komediya” sini mahorat bilan o‘girib nom qozongan edi. Tarjimashunoslikning qiyinchilgi va mas’uliyati o‘quvchilarga tushuntirilgan holda, ularga shoirning boshqa tarjima asarlarini aniqlash va bu boradagi qiyinchiliklar haqida ma’lumotlar topish topshiriladi. Ularga foydalanish lozim bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxati beriladi. Keyingi darsgacha ularga berilgan topshiriqlar bo‘yicha ma’lumotlar topish, so‘ngra taqdimot loyihasini tayyorlash vazifasi yuklatiladi.

Metodning ahamiyati shundaki, bu bir nechta bosqichni qamrab olganligi hamda o‘quvchilarda mustaqil tadqiqotchilik qobilyatlarini rivojlantirishda qo‘l keladi.

Demak o‘zbek tili mashg‘ulotlarida o‘quvchini ijodiy va mustaqil fikrlashga yo‘naltrish, so‘z tanlash, gapda so‘zni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash, o‘z fikrini aniq, ixcham, ravon ifodalashga o‘rgatish til o‘qitish metodikasining birinchi vazifasi bo‘lsa, o‘quvchi-o‘quvchi, o‘qituvchi-o‘qituvchi tizimida o‘zaro muloqotni, bahs-u munozarani to‘g‘ri tashkil qilish, o‘quvchi tafakkurini rivojlantirish jarayonlarini oqilona boshqarish, fikr ifodalash malakasini shakllantirishni o‘rgatish, o‘quvchilarning o‘qituvchilik mahoratini va ilg‘or texnologiya bilan tanishtirib borish metodika fanining ikkinchi muhim vazifasi hisoblanadi.

Uzoq tarixga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy va g‘oyaviy to‘siqlarga qaramay, O‘rta Osiyodagi boshqa xalqlar kabi ilg‘or fikr egallashi, dunyodagi mashhur buyuk olim, shoir va san’at ahllarini yetkazdi, insoniyatga ilm-fan, madaniyat va adabiyot sohasida o‘lmas yodgorliklar taqdim etdi. Olim va shoirlar o‘z asarlarida o‘sha davr maktablaridagi ta’lim-tarbiya, ilmiy va badiiy asarlarni o‘rganishi haqida fikrlar bildirib, metodik fikrning rivojiga ta’sir ko‘rsatdilar.

Ta’lim mazmunining yangilanishi ta’lim jarayoni, shakli va usullaridagi zamonaviy yangilanishlarni, yangi pedagogik texnologiyalarining joriy etilishini taqozo etadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi rivojlanib borayotgan zamonaviy, mustaqil davlatimiz kelajagi va istiqboli porloq bo‘lishi uchun ayniqsa, yoshlarimizga berilayotgan ta’lim tarbiya yangi ertangi kunlarda ishonchni oqlay olsa demakki biz to‘g‘ri yo‘ldamiz. Bugungi kun hisob kitoblariga qaraydigan bo‘lsak, shaharlardagi va tumanlardagi rus tiliga va boshqa tillarga ixtisoslashtirilgan xususiy hamda davlat maktablarida ham asosiy fan hisoblangan O‘zbek tili darslari tashkil etilgan barchamizga ma’lum. Bundan tashqari, chet eldan xizmat safari orqali kelgan sayyohlar va mehmonlarni farzandlari ham o‘zbek tilini katta qiziqish bilan o‘rganmoqda.

Hozirgi kunda o‘zbek tili fani boshqa davlatlar ta’lim tizimiga ham barqaror ravishda kirib bordi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Bizni tilimiz boshqa Yevropa tillariga qaraganda ancha osonroq, va ko‘plab so‘zlarimiz arab, turk tillaridan o‘zlashganligi sababli turkiy tillar oilasi uchun notanish emas.

So‘ngi yillarda yurtimizda o‘zbek tili rivoji uchun amalga oshirayotgan ishlar va ona tilimizga qaratilayotgan hurmat e’tibor ko‘lami kengaymoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2017
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” va “Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi”. – Toshkent, 1997
3. “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standarti” to‘g‘risida. 2017 y, O‘zb. Resp. qonun hujjatlari to‘plami, 14-son, 280 modda
4. Muhitdinova X. va boshqalar. 10-sinf O‘zbek tili darsligi 2017, T; “Davr nashriyoti”, 142 b.
5. Abduraimova M. “Ona tili ta’limida ilg‘or pedagogik texnologiya”. Toshkent, 2005.
6. Xolmanova Z., Yusupova T. “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi”.

BEHBUDIYNING TIL SOHASIDAGI QARASHLARI

Normurod Avazov,
Geologiya fanlari universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi
E-mail: normurod.avazov.63@mail.ru

Annotatsiya: *Muallif tomonidan Maxmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobat ul atfol” asari jadid adabiyotida va til sohasida muhim ahamiyati o‘rganib chiqilgan. Unda millatimizning yoshlari uchun savodxonlik kitobi bo‘lib, bu bolalarning ma’rifati yo‘lidagi dastlabki qaldirg‘och darsliklardan edi. Unda xat urgatish saboqlari, maktub yozish qoidalari, ish yuritishga doir hujjat namunalari keng o‘rin egallaydi. Behbudiyning til sohasidagi qarashlari tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy, jadid; millat; o‘lka; ilm; ma’rifat; saboq; qoida.*

Annotation: *The author has studied the important importance of Mahmudhuja Bekhbudidjing "Kitabat ul Atfol" in the national literature and language field of Djadid. It contained a literacy book for the youth of our nation, and it was one of the first textbooks for children’s education. In it, teaching lessons, simple writing rules, and examples of how to manage a book occupy a large place. Behbudis views in the field of language are considered.*

Key words*: Turkestan, jadid; nation; acountry; the* science; immorality; inattention; perspective.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning til sohasidagi qarashlari alohida va muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayni paytdagi til va adabiyot jarayonining asoslarini tashkil etadi. XIX asning oxiri XX asrning boshlarida jadidlarning boniysi hisoblangan Behbudiy matbuot tashkil etishda, yangi usuldagi maktablarni joriy qilishda, jadid usulidagi maktablarda darsliklarni qo‘llashda o‘zbek milliy tilini shakllantirish jarayoniga ulkan hissa qo‘shdi. Uning bu yo‘nalishdagi “Ikki emas, to‘rt til lozim” (1913)[1], “Sart ” so‘zi majhuldir” (1914)[2], “Til masalasi” (1915) ilmiy maqolalari va “Kitobat ul – atfol” (1908)[3] (Bolalar uchun yozuv kitobi) kabi darsliklari shular jumlasidandir. Agarda Behbudiyning til borasidagi tadqiqotlariga bosqichma-bosqich e’tibor qaratadigan bo‘lsak, uning “Kitobat ul – atfol” (Bolalar uchun yozuv kitobi) darsligi ham til masalalarini o‘zida mujassam etadi.

Manbada Behbudiy ayni paytda tinish belgilarining o‘ziga xos nomlarini keltiradi:

Alomati savol – ?

Alomati nido, taajjub, xitob – !

Alomati mu’tariza –

Alomati mummayiza (ajratilgan) – “ ”

Ikki so‘zni farq qilaturgon alomat– –

Alomati murodafot(sinonim), ya’ni ikkisi bir pog‘onada– =

Ozgina turmoq uchun – ,

Bayon va tafsil uchun – :

Notamom so‘zlar, kinoya, mubham (noaniq) va mahzuf(tushub qolgan)lar alomati– ....

So‘zni oxiri yoki vaqfi tom alomati– .[4]

Mahmudxo‘ja Behbudiyni bilimdon tilshunos sifatida ham ko‘ramiz. U o‘zi tashkil qilgan “Oyina” jurnalida va “Samarqand” gazetasida tarix, geografiya, huquq, axloq masalalariga oid qiziqarli maqolalarni berish bilan bir qatorda til va adabiyot masalalariga doir materiallarni ham berib bordi. “Behbudiyning buyuk xizmati shundaki, o‘zining maqolalari, dramasi va o‘quv qo‘llanmalarida bu guruhlarning biriga yaqin turgan tilda ijod qildi”[5].

Aytish lozimki, adabiyot tarixida turli davrlarga taalluqli xatlar va ularning yozma namunalariga doir kitoblar to‘plamlarini uchratish mumkin. Bularda otaga, onaga, aka-ukaga, ustozga va hokazo maktub namunalari bor.

Xat namunalari, asosan, XIX asr boshida yangi sharoitda o‘z davriga mos til qoidalari asosida yozilgan.

Shuningdek, Behbudiy ham o‘zbek tilining qoidalari asosida “Kitobat ul atfol”ni ishlab chiqqan. Kitob 1917 - yilga qadar ham bir necha marotaba nashr etilgan. Biz uning 1908 - yil nashr etilgan ikkinchi nashri bilan tanishdik. Kitob eski o‘zbek (arab) yozuvida bo‘lib, o‘zbek va fors tillarida yozilgan. Muqovasida: “Majmuayi kitobat va inshodan birinchi juz maktabi ibtidoiya uchun” deb ko‘rsatilgan. Shuningdek, muharrir va noshiri mufti Mahmudxo‘ja Behbudiy yozilgan. Kitobning hajmi 27 bet, formati 27x18, yozuv hajmi o‘rtacha har bir sahifada 20 qator, kitob kirish, xat yozmoq shartlari, maktub yozishning tavsifi va odobi, oylarning nomlari, tinish belgilar va ish yuritishga doir hujjatlardan namunalarni o‘z ichiga oladi. Kitob o‘zbek va fors tillarida yozilgan. Darslik o‘zbek tilida qo‘llanilayotgan ilk namunalardan biri hisoblanadi. Unda o‘zbek tili va ish yuritishga doir hujjatlarning nazariyasi hamda amaliyoti keltiriladi. Bu kitob nafaqat til sohasida madaniy merosgina emas, amaliy ahamiyati jihatidan ham bugungi kunda qo‘l keladi.

Jadidchilik harakatining yirik arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy ikki til masalasiga alohida e’tibor qaratgan. U til o‘rganish, uning sofligiga erishish, tilning ijtimoiy aloqalar tizimida tutgan o‘rni masalalariga oid qimmatli fikrlar bildirdi. Behbudiy bu ijtimoiy hodisaga katta ahamiyat berib, o‘zining “Ikki emas, to‘rt til lozim”[6], kabi maqolalarida turli tillarning Turkiston hududidagi mavqeyini tahlil qilib, ularning jamiyat ravnaqidagi o‘rnini ko‘rsatishga harakat qildi. Chunki, millat taraqqiyotidagi asosiy omillardan biri jahon ilm-fani, taraqqiyoti, iqtisodi, siyosatidan xabardorligidir.

Til bilishning qanchalik zarur ekanligi Behbudiyning asosiy prinsiplaridan edi. U o‘zining “Ikki til emas, to‘rt til lozim” maqolasida ushbu masala to‘g‘risida fikrlarini bildiradi. Muallif turkiy tilni qadrlagan holda boshqa tillarni o‘rganishni ham ilgari suradi. Shuning bilan bir qatorda bu sohadagi kamchiliklarga ham o‘zining e’tiborini qaratadi. Behbudiyning ta’kidlashicha, “dars kitobi – arabiy, muallim – turkiy, taqriru tarjimani forsiyligi xiyla ajibdur”. Muallif aytadiki, “usuli ta’lim va tadrisni isloh etmak kerak”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy “Til masalasi” maqolasida ilmiy va adabiy tildan xalq jonli tilini farqlash masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Shuningdek, hech qaysi tilning sof holatda yashay olmasligi va taraqqiy qilmasligiga ham urg‘u bergan edi.

Behbudiy tilning jonkuyari sifatida o‘z matbuotida til sohasida, milliy tilning qadriyati to‘g‘risida boshqa mualliflarni ham chiqishlar qilishga undadi.

Ta’kidlash lozimki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ona tili muammolariga bag‘ishlangan maqolalari yaxlit bir tadqiqotlar olib borishga undaydi. Shuni aytish muhimki, ularning hammasi mantiqiy jihatdan olib qaraganda o‘zaro bog‘liklikni tashkil qiladi. Allomaning “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida to‘rt tilni bilishning asoslari tahlil etilsa, ya’ni dini ilmini bilish uchun arab tili; adabiyotni bilish uchun fors tilini; chor Rossiyasi bilan tarixiy aloqalar shakllanganidan rus tilini o‘rganish muhimligiga e’tibor qaratiladi.

Behbudiy “Sort” so‘zi to‘g‘risida maqolalari bilan tilshunoslik va tarixga katta hissa qo‘shdi va bu ikki sohaning kuchli bilimdoni ekanligini ko‘rsatdi. Shuningdek “Sort” atamasiga yakuniy nuqta qo‘ya oldi. Ya’ni, “Sort so‘zi ma’lum bo‘lmadi?” maqolasi bilan bu mavzuga ilmiy nuqtayi nazardan yondoshib, isbot qildi. Behbudiy ayni paytda turkiy xalqlarga nisbatan ishlatila boshlangan “sort” so‘zining kelib chiqishini o‘rganib, bu so‘zning turklar, ya’ni o‘zbeklar uchun ishlatilishi xato ekanligi ilmiy asosladi.

Shuningdek, XX asr boshida Turkiston o‘lkasida ona tilining holati, yillar davomida forsiy va arabiy tillarning unga ta’siri, turkiy tilning asl holatini saqlash kabi masalalar bo‘yicha chuqur tahliliy tadqiqotlar olib borilganligini alohida ta’kidlagan holda, allomaning sermazmun ijodini yanada o‘rganish maqsadga muvofiqligini aytmoq joizdir. Chunki ularning hanuz o‘zining qadrini yo‘qotmaganligi kelajak avlodga yetkazib, uni yanada o‘rganish dolzab masalalardan hisoblanadi.

Behbudiyning til konsepiyasida:

- har bir til sof holatda yashamaydi va taraqqiy qilmaydi;
- ilmiy va adabiy tildan xalq jonli tilini farqlash;
- adabiy tilni shakllantirish va taraqqiy ettirish;
- o‘zbek tilining ko‘p shevali til ekanligi;

- adabiy tilni shakllantirish va uning me’yorlarini ishlab chiqish;
- millat tiliga kirgan arab va forsiy so‘zlarning lug‘atdan chiqarilishi oqibati va bosqinchi atamalarning kirib kelishi;
- “kelar zamon uchun hozirlanayluk, o‘tgan zamon uchun emas”;
- tillarni o‘rganish millatning kelajagini belgilashi;
- tillarni bilmaslik millatni tanazzulga olib kelishi;
- til bilish Vatanga va millatga xizmat qilishi;
- til bilish orqali millat taraqqiy qilishi;
- tilni o‘rganish dushmanni bilishning avvali ekanligi;
- til orqali millatning shakllanishini belgilab berdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning boshqa tillarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari mustaqillik yillarida ro‘yobga chiqmoqda. Hozirgi paytda mamlakatimizda Sharq va G‘arb tillarini o‘rganishga qiziqish nihoyatda kuchayib ketdi. Xorijiy tillarni o‘rganish nafaqat iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga, balki madaniy sohaning muhim tarmog‘i bo‘lgan ta’lim tizimining rivojlanishi uchun ham ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, vatanimiz yoshlari Sharq va G‘arb mamlakatlariga borib o‘qish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ldilar, chet mamlakatlardagi oliy o‘quv yurtlari talabalari bilan aloqa qilishda internetdan foydalanish uchun qulay sharoit vujudga keldi. Behbudiyning xorijiy tillarni bilishning muhimligi va chet mamlakatlarda yoshlarning ilm olishlari uchun shart-sharoit yaratish to‘g‘risidagi orzulari mustaqillik yillarida amalga oshmoqda. Behbudiy millat taraqqiysini ilm-fanda, ta’limda deb bildi. Yaxshi ta’limning asosini esa til tashkil etadi. Negaki, til rivojlanmasa, ilmiy jihatdan boyimasa, boshqa fanlar ta’limida ham siljish bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Behbudiy M. Ikki emas, to‘rt til lozim. Tanlangan asarlar. J.I. –Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 396 - 398.
2. Behbudiy M. “Sart” so‘zi majhuldir. Tanlangan asarlar. J.II. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B.34 - 44.
3. Behbudiy M. Kitobat ul – atfol. –Samarqand, 1908. – B. 27.
4. Behbudiy M. Kitobat ul – atfol. // Sharq yulduzi. – Toshkent, 2020. – №5. – B.114.
5. Abdurahmonov G‘. Behbudiy va uning hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmatlari. // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1995. – №3. – B.8.
6. Behbudiy M. Ikki emas, to‘rt til lozim. Tanlangan asarlar. J.I. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 396 - 398.

“LEKSIKOLOGIYA” BO‘LIMINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISH VA NUTQINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Nargiza Abdusattorova,
TDSHU akademik litseyi,ona tili va adabiyot kafedrasi bosh o‘qituvchisi
E-mail: nargizaabdusattorova42@gmail.com

Annotatsiya. *“Leksikologiya” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish va nutqini rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusidagi mazkur maqolada ma’nodosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, paronim so‘zlar,zid ma’noli so‘zlar, ibora va tasviriy ifoda mavzularini o‘rganish yuzasidan ishlanmalar tayyorlash va tatbiq etish masalalari nazariy va metodik jihatdan o‘rganildi. Mavzuni yoritishda foydalanilgan materiallar, o‘yinlar ham taqdim etildi. Akademik litsey o‘quvchilariga “Leksikologiya” bo‘limini o‘rganish jarayonida qo‘llanadigan usullar amaliy tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar**:** *ma’nodosh so‘zlar, uyadosh so‘zlar, shakldosh so‘zlar, paronim so‘zlar, zid ma’noli so‘zlar, ibora va tasviriy ifoda.*

Annotation. *In this article, on the topic of opportunities to increase students’ vocabulary and develop their speech in the teaching of the "Lexicology" section, synonyms, nested words, similar words, paronymous words, antonyms issues of preparation and implementation of studies related to the study of the subjects of words, expressions and pictorial expression were studied theoretically and methodically. Materials and games used to cover the topic were also presented. A practical analysis of the methods used in the process of studying the "Lexicology" department was given to academic lyceum students.*

Key words: *synonyms, homonyms, antonyms, phrase and figurative expression.*

Ona tili kursining barcha sathlari qatori “Leksikologiya“ bo‘limini o‘qitishda ham o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqi ustida ishlash ustuvor yo‘nalishlardan biri sanaladi.

Mazkur bo‘limda o‘quvchilar duch keladigan dastlabki muammo so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolaridir. Berilgan so‘z birikmalarini (masalan, oltin haykal-oltin bosh-oltin boshoq;temir yo‘l-temir odam-temir xotira va h.k.) o‘z va ko‘chma ma’nosiga ko‘ra guruhlarga ajratish, ularni o‘zaro qiyoslash asosida so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolariga ta’rif berish, berilgan so‘zlarni o‘z va ko‘chma ma’nolarda qo‘llab gaplar tuzish, badiiy matnlarni tahlil qilish, so‘zlarni ko‘chma ma’noda qo‘llab matn yaratish singari ijodiy- amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z zaxirasini oshirish va nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

“Ma’nodosh so‘zlar” mavzusini o‘rganishda berilgan gaplar yoki matnda ajratilgan so‘zlarni ularning ma’nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma’nodoshlari bilan almashtirib, ma’no farqlarini izohlash, berilgan ma’nodosh so‘zlarni ijobiy va salbiy bo‘yoqli so‘zlarga ajratish, murojaat so‘z birikmalari hosil

qilish (masalan, mo‘tabar murabbiyim, muhtaram ustozim, mehribon tarbiyachim, hurmatli muallimim va h.k.), qarindosh-urug‘chilikka oid so‘zlarni (masalan, akajon, opajon, otajon va h.k.), qarindosh-urug‘ bo‘lmagan kishilarga nisbatan qo‘llab matn yaratish, oddiy va ko‘tarinki ma’noli so‘zlardan foydalanib matn tuzish singari ijodiy-amaliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Eng muhimi o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari lozim.Qolaversa, interfaol metodlarni qo‘llashda talabalarning yosh, psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, hayotiy tajribalari inobatga olinsa, dars samaradorligi yanada oshadi. Bu esa o‘qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo‘lishni taqozo etadi[1].

Interfaol usulda ta’lim berilganda ta’lim beruvchining roli butunlay o‘zgaradi, jarayonni boshqarib turadi, kerakli ko‘rsatmalarni berib boradi, savol-javoblarni muhokama qilishni nazorati ostiga olib vaqtni taqsimlab ish ko‘radi. V.A.Suxomlinskiy so‘zi bilan aytganda “Eng exshi o‘qituvchi o‘zining o‘qituvchi ekanligini esidan chiqarib qo‘ymasligidir”[2]. O‘qituvchi o‘zini o‘quvchilardan “tepa” pog‘onada tutmasdan, balki birga yonma-yon turib butun borlig‘ini o‘quvchilarga berib muloqot qila olishi kerak.

“Ma’nodosh so‘zlar” ustida olib boriladigan ijodiy-amaliy ishlar o‘yin tarzida tashkil etilsa, o‘quvchilarning bu topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish darajasi behad ortadi hamda o‘rganilayotgan til hodisalarini fahmlash imkoniyatlari yanada yuqoriroq bo‘ladi. Berilgan so‘zlarni yoki gapdagi muayyan bir so‘zni uning ma’nodoshi bilan almashtirish, gapdagi so‘zlarni birin-ketin ma’nodoshlari bilan almashtirib, ma’no farqlarini sharhlash (masalan, Tongda turish-yaxshi odat. Ertalab barvaqt uyqudan uyg‘onish- ajoyib xislat. Subhidamda uyg‘onish-olijanob fazilat), berilgan gaplarda ajratilgan so‘zlarni qavsda berilgan so‘zlar bilan almashtirib, so‘zning ijobiy yoki salbiy bo‘yog‘ini aniqlash, berilgan murojaat so‘z birikmalarining qatorini davom ettirish, oddiy bo‘yoqli so‘zlarni badiiy so‘zlar bilan almashtirish kabi o‘yin xarakteridagi ijodiy- amaliy ishlardan foydalanish ijobiy natija beradi. Shu mavzuga oid o‘yin-topshiriqlardan ayrim namunalar keltiramiz:

“Nuqtalar o‘rnini so‘zlar bilan tez to‘ldir”o‘yini. O‘qituvchi o‘quvchilar hukmiga ma’lum bir umumiste’mol so‘zni beradi-da, shu so‘zning barcha ma’nodoshlari o‘rniga nuqtalar qo‘yib chiqadi. O‘quvchilar nuqtalar bilan ajratilgan nechta so‘z o‘rni bo‘lsa, uni ma’nodosh so‘zlar bilan to‘ldirishadi. Masalan,

tabrikladi, ..., ..., ...;

sezdi, ..., ..., ...;

[1]Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: Fan, 2006.– B. 11.
[2] Suxomlinskiy V.A. Innovatsion pedagogika v mire. Moskva, 2000.c.

yorug‘,..., ..., ...;

Namuna: yorug‘-nurli-charog‘on-yorqin-munavvar-porloq-ravshan-nurafshon Nuqtalar o‘rnini ma’nodosh so‘zlar bilan to‘ldira olgan o‘quvchi yoki o‘quvchilar guruhi o‘yinda g‘olib sanaladi.

“Mazmunan qarindosh, shaklan begona” o‘yini. Bu o‘yinni tashkil etishda ham sinf o‘quvchilari guruhlarga ajratiladi. O‘yinni boshlagan qator (guruh) muayyan mavzuda gaplar tuzishadi, ikkinchi qator mazmunni saqlagan holda so‘zlarni ma’nodoshlar bilan almashtirish orqali gap shaklini o‘zgartirishadi. Keyin o‘yinda vazifalar almashtiriladi. O‘qituvchi har bir shakli o‘zgartirilgan gap uchun ball qo‘yib boradi va o‘yin oxirida eng ko‘p ball olgan guruh g‘olib sanaladi.

“Sen qanday murojaat qilasan” o‘yini. O‘quvchilarga berilgan murojaat so‘z birikmalari qatorini davom ettirish vazifasi yuklatiladi. Masalan,o‘qituvchi tomonidan “Mehribon tarbiyachim” so‘z birikmasi berilgan bo‘lsa, o‘quvchilar bu qatorni “Mo‘tabag murabbiyim”, “Muhtaram ustozim”, “Aziz o‘qituvchim”, “Hurmatli muallimjonim”, “Sevimli ustozim” kabilar bilan to‘ldirishadi.

“Erkala va koyi” o‘yini. O‘qituvchi birinchi qatordagi o‘quvchilarga ota-ona tomonidan kichik yoshdagi bolalarni erkalovchi so‘zlarni, 2-qatorga dangasa bolalarni koyishni ifodalovchi so‘zlarni ro‘yxat qilishni topshiradi.

Erkalash va koyishni ifodalovchi so‘zlarni ko‘p topgan guruh o‘yin g‘olibi sanaladi. Namunalar:

Erkalashni ifodalovchi so‘zlar: oppog‘im, do‘mbog‘im, toychog‘im, ko‘zmunchog‘im, qo‘zichog‘im, shirinim.

Koyishni ifodalovchi so‘zlar: uyingga bug‘doy to‘Igurlar, bolasi tushmagur-ey, pandavaqi bo‘Ima, landovur, lapashang, ovsar, dangasa, ishyoqmas.

“Dominanta” (asos so‘z) o‘yini. Bu o‘yin ham sinonimlar o‘rganilgach o‘tkazilsa, o‘quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo‘ladi. O‘qituvchi dominanta atamasi haqida tushuncha bergach, bir necha sinonimik qatorni o‘quvchilarga yozdiradi va dominanta so‘zlarni alohida ro‘yxat qilishni topshiradi. Kim xatosiz aniqlab chiqsa, shu o‘quvchi o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

Berilgan so‘zlar:

1. sovg‘a, hadya, tortiq, armug‘on, tuhfa, in’om
2. ovoz, tovush, un, sado, sas, nido;
3. begona, yot, o‘zga, birov, kishi, notanish, ag‘yor;
4. samo, ko‘k, osmon, falak, gardun;
5. o‘tinch, iltijo, iltimos, tavallo, zor;
6. xo‘rak, yemish, ovqat, taom, ne’mat, tomoq;
7. temperatura, harorat, taft, hovur;
8. jigarband, xesh, qarindosh, urug‘, avlod, tug‘ishgan, jigar, jigargo‘sha;

9. to‘zon, g‘ubor, chang, gard;
10. aqcha, yakan, pul, mullajiring;
11. ziyo, shu’la, nur, yog‘du;
12. jinoyat, ayb, gunoh, yoziq;
13. narsa, buyum, mol, mato (matoh).

Dominanta so‘zlar: sov’ga, ovoz, begona, osmon, iltimos, harorat, qarindosh, chang, pul, nur, ayb, buyum, yuz.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish choralaridan biri **uyadosh so‘zlar** ustida ishlashdir. Uyadosh sozlar bir mavzu, bir jins yoki turdagi so‘zlar bo‘lib, o‘quvchilarni har bir umumiy ma’noli so‘zning xususiy ma’nolari ustida ishlashga undaydi. Masalan, atoqli otlarning kishi nomlari, jug‘rofiy nomlar, tashkilot nomlari, lavozim nomlari, samoviy va fazoviy jism nomlari kabi bir qator uyalari mavjud.

O‘quvchilar nutqini uyadosh so‘zlar bilan boyitishning yo‘llari juda ko‘p. Masalan, gapda yoki matnda ajratilgan umumiy ma’noli so‘zlarga xususiy ma’noli so‘zlar topish, ma’lum bir uyadagi so‘zlarning izohli lug‘ati yoki shu so‘zlarning ro‘yxatini tuzish, berilgan xususiy ma’noli so‘zlarning umumiy ma’nosini aniqlash, ayni bir so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, ma’nodoshlari, qarama-qarshi ma’nolari va uyadoshlarini topish kabi mustaqil ish turlari o‘quvchilar nutqini bunday so‘zlar bilan boyitishda alohida o‘rin egallaydi. Ayniqsa, berilgan matnda ajratilgan so‘zlarni ularning uyadoshlari bilan almashtirish, tavsiya etilgan uyadosh so‘zlar yordamida (masalan, osmon jismlari: Quyosh, Oy, Mars, Yupiter va h.k.) matn yaratish kabi amaliy ishlar o‘quvchilarning nutqiy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Tabiat manzarasi (bog‘, sahro, dala, o‘rmon, tog‘ va h.k.) tasvirini berish ularning uyadosh so‘zlardan nutqiy faoliyatda foydalanish malakalarini kengaytiradi.

Bu mavzuni o‘rganishda o‘quvchilarni bir necha guruhga ajratib, aytiladigan so‘zlarni turar joy, yashash joyi, ta’lim dargohi, dam olish joyi kabi guruhlarga ajratib yozish topshiriladi. So‘zlar: shahar, uy, maktab, bog‘, qishloq, hovli, universitet, teatr, ko‘cha, yotoqxona, vayrona, kinoteatr, mahalla, hovuz, o‘lka, ko‘l... Birinchi guruh shu so‘zlar orasidan faqat turar joylarni ifodalovchi so‘zlarni ajratib yozishsa, 2-guruh dam olish joylarini, 3-guruh yashash joylarini, 4-guruh esa ta’lim dargohlarini ifodalovchi so‘zlarni ajratib yozadi.

Keyingi bosqichda har bir guruhdagi so‘zlar ro‘yxati o‘quvchilar tomonidan mustaqil holda davom ettiriladi va ular muayyan miqdorga etkaziladi.

Mazkur mavzuni o‘rganishda har bir guruhga ma’lum bir umumiy ma’noli so‘zlar berib, (masalan, qovun, qush, gul, dorilar va h.k.) uning xususiy ma’nolarini topish o‘quvchilarga topshiriladi.

“So‘zdan marjon tizing” o‘yini. Bu o‘yinda o‘qituvchi o‘quvchilarga so‘zlarning aralash to‘plamini tavsiya etadi va uyadosh so‘zlarni alohida, ya’ni marjon tizgandek yozishni aytadi. O‘quvchilar yozishadi va navbat bilan o‘qib berishadi. Qaysi o‘quvchi tez harakat qilib, marjonni xatosiz tizib chiqsa, o‘yin g‘olibi bo‘ladi.

Namuna: Tabiat manzarasiga oid so‘zlar: *bog‘, dala, o‘rmon, tog,qir, adir, tepalik* va h.k.

Gullarning nomlari: *karnaygul, gultojixo‘roz, safsargul, nastarin, qalampirgul, atirgul, nilufar* va h.k.

Daraxt nomlari: *o‘rik, olxo‘ri, gilos, behi, tut, olma* va h.k.

Qovunning turlari: *ananas, oqurug‘, ko‘kcha, cho‘gir, amiri, bo‘rikalla, asati, handalak* va h.k.

Sabzavotlarning nomi: *kartoshka, sabzi, sholg‘om, karam, piyoz, pomidor, rediska* va h.k.

Qushlaming nomlari*: laylak, turna, chumchuq, qirg‘iy, lochin, burgut, kabutar, musicha, olaqarg‘a, so‘fito‘rg‘ay, kakku* va h.k.

Suvda suzuvchi jonivorlar: *baliq, kit, delfin, akula, morj* va h.k.

Dorilarning nomlari: *analgin, pentalgin, sitramon, validol, levomisin, vitamin (darmon dori), no-shpa* va h.k.

O‘quvchilarni **qarama-qarshi ma’noli so‘zlar** (antonimlar) bilan tanishtirish maqsadida o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar tanlash, shu asosda berilgan matn yoki gaplarni o‘zgartirish, matndan qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni ajratish, matndan qarama-qarshi ma’noli so‘zlar birga ishlatilgan holatlarni ajratib, ularning imlosini sharhlash, shunday so‘zlarni birga ishlatib yangi so‘zlar yasash, ular ishtirokida gap yoki matn yaratish, juft so‘zlarning yasalishi, ma’nosi va imlosini tushuntirish, juft so‘zlar hosil qilib matn yaratish, “O‘zbek xalq maqollari” kitobidan qarama- qarshi ma’noli so‘zlar ishlatilgan maqollarni topish (masalan, Yaxshi do‘sting kuldirar- yomon do‘sting kuydirar. Achchiq til-zahri ilon, chuchuk tilga-jon qurbon. Bir yaxshi gap esdan chiqmas- bir yomon gap va h.k.), ularning ma’nosini sharhlash, ma’lum bir mavzuga oid shunday maqollar ro‘yxatini tuzish kabi amaliy topshiriqlarni ishga solish mumkin. Bulardan tashqari, nuqtalar o‘rniga zarur so‘zni topib qo‘yish (masalan, Paxsa uy yozda..., qishda ... bo‘ladi. ... bilan yursang yetarsan murodga, ...bilan yursang, qolarsan uyatga kabi), gapda yoki matnda o‘z va ko‘chma ma’noda ishlatilgan so‘zlarga qarama-qarshi ma’noli so‘zlar tanlash, shu asosda matn va gaplarni o‘zgartirish (masalan, 1. Saylga hamma qatnashdi-Saylga katta-kichik qatnashdi 2. To‘yga hamma keladi-To‘yga do‘st-dushman keladi kabi), mustaqil ish turlari ham o‘quvchilar nutqini qarama-qarshi ma’noli so‘zlar bilan boyitishda muhim omil sanaladi.

O‘quvchilar so‘z boyligini oshirishda **shakldosh so‘zlar** ustida ishlash ham muhim ahamiyatga ega. Matnda ajratilgan so‘zlarning (masalan, ot, olma, yoz, chaqmoq va h.k.) ma’nolari ustida ishlash, ularning har biriga ma’nodosh va uyadosh so‘zlar tanlash, tanlangan so‘zlar ishtirokida gaplar tuzish, so‘z o‘yinlari tashkil etish, tuyuqlarda ishlatilgan shakldosh so‘zlarning ma’nolarini sharhlash o‘quvchilar nutqini bunday so‘zlar bilan boyitishda muhim o‘rin egallaydi.

Ma’lumki, o‘quvchilar nutqida uchraydigan xatolarning talaygina qismini talaffuzi yaqin, ma’nosi bir-biridan farq qiladigan **paronim so‘zlar** (masalan, tanbur-tambur, tire-teri, azim-azm, dakki-daqqi, zirak-ziyrak, juda-judo va h.k.) tashkil etadi. Shuning uchun “Leksikologiya” bo‘Iimini o‘rganish jarayonida bunday so‘zlarga alohida e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Berilgan paronim so‘zlar ma’nosini sharhlash, ular yordamida gaplar tuzish, bu so‘zlarning ma’nodoshlari va uyadoshlari ustida ishlash kabi amaliy ishlar o‘quvchilarning ana shunday so‘zlardan nutqda to‘g‘ri foydalanishlariga yordam beradi. Masalan, “dakki bermoq”, “dakki yemoq” so‘z birikmalarini “daqqi ot”, “daqqi odam” birikmalari bilan qiyoslang. Dakki va daqqi so‘zlarining tamomila boshqa-boshqa so‘zlar ekanligini isbotlang yoki aro-ora—oro so‘zlari ishtirokida gaplar tuzing, ularning boshqa-boshqa so‘z ekanligini isbotlang. Bu so‘zlaming har biriga ma’nodoshlar topishga harakat qiling, kabi.

“Leksikologiya” bo‘limining eng dolzarb muammolaridan yana biri **atamalar** masalasidir. Mazkur mavzuni o‘rganishda berilgan so‘zlarni qaysi fanga mansubligiga qarab guruhlarga ajratish, so‘z va atama orasidagi munosabatni aniqlash, uyadosh atamalar tanlash va ular yordamida matn yaratish singari topshiriqlardan foydalaniladi. Ayniqsa, ma’lum bir fan sohasida tor, ko‘pchilik odamlar boshqacharoq ma’noda keng qo‘llaydigan so‘zlar ustida ishlash, ularning tor va keng qo‘llanish ma’nolari asosida gaplar tuzish (masalan, Dehqon xalqi rizqini yerdan topadi—Quyosh sistemasining to‘rtinchi sayyorasi Yerdir va h.k.).

“Geografiya”,“Matematika”,“Musiqa”,“O‘zbekiston tarixi” darsliklaridan olingan ma’lum bir matnda fan sohasida xususiy-tor ma’noda qo‘llanilgan so‘zlarni ro‘yxat qilish atamalar mohiyatini anglashga yordam beradi.

Mazkur mavzuni o‘rganishda ma’lum bir qatordagi o‘quvchilar ayni bir so‘zni umumiste’mol (iste’mol doirasi keng) so‘z sifatida qo‘llab gaplar tuzishsa, ikkinchi qator shu so‘zlarni tor ma’noda qo‘llab gaplar tuzishadi. Namuna: 1. Qo‘y-qo‘zilarni ko‘paytirsak, go‘sht-yog‘ mo‘l bo‘ladi. Ikkini ikkiga ko‘paytirsak, to‘rt bo‘ladi. 2. Yer insonni boqadi, uni to‘ydiradi. Yer o‘z o‘qi atrofida aylanadi.

“Atamalar” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga yaqin bo‘lgan kasb- kor yoki soha nomlari lug‘atini tuzdirish juda foydali va samaralidir. Shuning uchun o‘quvchilarga tanish yoki yaqin bo‘lgan kasb-korga oid so‘zlar (novvoylik,

temirchilik, dehqonchilik va h.k.) ro‘yxatini tuzish, ularning ma’nosini izohlash va shu so‘zlar ishtirokida matnlar yaratishga oid topshiriqlar ancha samarali va foydalidir.

Olinma so‘zlar ustida ishlash ham o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Bu mavzuni o‘rganishda berilgan gaplar yoki matnlardan rus va o‘zbek tillari uchun mushtarak bo‘lgan so‘zlarni ajratish, rus tili orqali xorijiy tillardan kirib kelgan so‘zlarning ma’nosini sharhlash, o‘zbek tiliga arab yoki tojik tillaridan kirgan so‘zlarning imlosi va ma’nosi ustida ishlash, jurnal, gazetalardan muayyan matnni o‘qib, ulardagi olinma so‘zlarni aniqlash, rus tilidan, fors-tojik tilidan, arab tilidan kirgan so‘zlarni alohida ro‘yxat qilish, olinma so‘zlardan foydalanib, gap va matnlar tuzish kabi amaliy ishlardan unumli foydalanish mumkin. Ayniqsa, turli sohalar bo‘yicha olinma so‘zlar ro‘yxatini tuzish, bu so‘zlarning ma’nosi ustida ishlash, o‘zbekcha-arabcha-tojikcha-ruscha ma’nodosh so‘z qatorlari hosil qilish (masalan, kishilik-odamiylik-insoniylik-gumanizm) singari ijodiy-amaliy ishlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishda muhim o‘rin egallaydi. Olinma so‘zlar ustida ish olib borilar ekan, shuni ham uqtirish lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar nutqda u yoki bu fikrni ifodalash uchun o‘zbekcha so‘z mavjud bo‘lsa-da, ammo ruscha so‘zlardan foydalanadilar. Bu holning oldini olish ko‘proq sinonimik qatorlardagi turli tillarga mansub so‘zlarni nutqiy faoliyatda qo‘llash orqali amalga oshiriladi.

O‘quvchilar lug‘at boyligining muhim qismini **ibora va tasviriy ifodalar** tashkil etadi. Ibora, odatda, bir so‘zga teng keladigan so‘zlar qo‘shilmasi bo‘lib, u nutqimizni boyitadigan, go‘zallashtiradigan va ta’sirchanligini oshiradigan muhim vositalardan biri sanaladi. O‘quvchilar nutqini iboralar bilan boyitish maqsadida berilgan iboralarni so‘zlar bilan almashtirish yoki, aksincha, so‘zlar o‘rnida iboralarni qo‘llash, iboralarning ma’nosini sharhlash, berilgan iboralarga yaqin ma’noli iboralar tanlash, berilgan iboralarga qarama-qarshi ma’noli iboralar tanlash kabi topshiriqlardan foydalanish mumkin.Jumladan,

Xaridor xursand bo‘Idi. Xaridorning chehrasi ochildi.

Bolalar xafa bo‘lishdi. Bolalarning hafsalasi pir bo‘ldi.

O‘quvchilar quvonishdi. O‘quvchilarning boshi ko‘kka etdi.

Sarvinoz bilan Sitora yaqin do‘st. Rahima bilan Nafisaning oralaridan qil o‘tmaydi.

Tasviriy ifodalar ham nutq go‘zalligini ta’minlovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. O‘quvchilar mexanik haydovchi so‘zini po‘lat ot chavandozi, zangori kema kapitani, televizor so‘zini zangori ekran, oinayi jahon, shifokor so‘zini salomatlik posboni, ko‘mir so‘zini qora oltin, pilla so‘zini kumush tola, rassom so‘zini mo‘yqalam sohibi, qushlar so‘zini qanotli do‘stlar kabi tasviriy ifodalar bilan

almashtira olsagina, nutqda undan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishga erishadi. O‘quvchilar nutqini bunday vositalar bilan boyitishda predmet nomini tasviriy ifoda yoki tasviriy ifodani predmet nomi bilan almashtirish, ularning ma’nolarini sharhlash, tasviriy ifodalarni qatnashtirib, gap va matnlar tuzish o‘ta foydalidir.

Xulosa qilib aytganda, bu qiziqarli o‘yinlar mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, mushohada qilish,tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T. “O‘zbekiston” 2016-yil.

2. Ona tili fanidan Davlat ta’lim standarti: Uzviylashtitilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 10-19.

3. Ona tili fanidan umumiy o‘rta ta’lim maktabining o‘quv dasturi: Uzviylashtitilgan Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari. – Toshkent, RTM, 2010. – B. 20-41

4. Abdurazzoqova D. Kichik guruhlarni tashkil etish qoidalari “Umumta’lim fanlari metodikasi”, 2013-yil

5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006

6. H.Ahmedova. O‘zbek tili o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2012, – 27-33-betlar.

7. Ishmuhammedov.R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari”. – T, 2009, 3-b.

8. To‘xliev B., Shamsieva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi (o‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 174-b.

9. Xodiyev B., Golish L. Mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. – T.: “Fan” nashriyoti, 2010, 255-b.

10. Ziyodova T. “O‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish”. T, 2000. – 163 b.

11. www.ziyo.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi portali.

12. www.ziyonet.uz

13. XV International Conference “Linguistic and Cultural Studies: Traditions and Innovations”, LKTI 2015, 9-11 November 2015, Tomsk, Russia.

14. Lecture and Assessment – two effective methods in the professional training Article · January 2009 Dan Iulian Alexe University Vasile Alecsandri of Bacau, Gloria Rata University of Bacau.

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК ИНОСТРАННЫЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ, НАУЧНОМ И КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОМ ПРОСТРАНСТВЕ РЕГИОНА

Шахсанам Алиева,
преподаватель кафедры русского языка и литературы, академический лицей ТГУВ,
E-mail: alievashokhsanam@gmail.com

Аннотация. *Статья посвящена проблемам организации деятельности учебных заведений в новых условиях преподавания и укрепления значения русского языка как иностранного в поликультурном пространстве, адаптации учеников к новой для них образовательной, языковой и культурной среде. Отмечается необходимость реализации различных видов деятельности с учениками как особой системы, которая включает различные направления, формирующие вторичную языковую личность.*

Ключевые слова: *русский язык как иностранный, вторичная языковая личность, межкультурная коммуникация, поликультурное пространство.*

Annotatsiya. *Maqola o‘quv yurtlari faoliyatini yangi o'qitish sharoitida tashkil etish va ko'p madaniyatli makonda rus tilining chet tili sifatida ahamiyatini mustahkamlash, o'quvchilarni ular uchun yangi ta'lim, til va madaniy muhitga moslashtirish muammolariga bag'ishlangan. O‘quvchilar bilan turli xil faoliyatni ikkilamchi lingvistik shaxsni shakllantiradigan turli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan maxsus tizim sifatida amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan.*

Kalit so‘zlar: *rus tili chet tili sifatida, ikkilamchi lingvistik shaxs, madaniyatlararo aloqa, ko'p madaniyatli makon.*

Annotation. *The article is devoted to the problems of organizing the activities of educational institutions in new conditions of teaching and strengthening the value of Russian as a foreign language in a multicultural space, adapting students to a new educational, linguistic and cultural environment for them. The need to implement various types of activities with students as a special system, which includes various areas that form a secondary linguistic personality, is noted.*

Key words: *Russian as a foreign language, secondary linguistic personality, intercultural communication, multicultural space.*

Русский язык как иностранный занимает особое место в современном мире, становится отправной точкой не только в преподавании русского языка как иностранного, но и в создании особой атмосферы межкультурной коммуникации, в основе которой лежат знание русского языка и русской культуры, интерес к стране изучаемого языка.

Русский язык, будучи эксплицитно и имплицитно связанным со всеми сферами жизни человека и общества, представляет собой лингвокультурологический феномен, который играет культурно-интегрирующую роль в эпоху современных глобальных межкультурных взаимодействий.

Сложные процессы межкультурной коммуникации – явные и скрытые конфликты как на уровне культур, так и на уровне использования того или иного языка, постоянное столкновение уже сформированных у человека ценностей с элементами иной культуры, иного уклада жизни, отраженного в изучаемом языке, в то же время развитие полилога культур – делают язык важным инструментом регулирования всех сфер жизни. Преподавание и изучение русского языка как иностранного способствуют культурно-информационному взаимодействию разных народов, формированию единого коммуникативного пространства.

Поэтому деятельность образовательных учреждений, реализующих программы по русскому языку как иностранному, оказывается многовекторной, направленной не только на обучение учеников русскому языку как средству коммуникации в различных ситуациях, но и на развитие вторичной языковой личности. Необходимость формирования понимания и принятия культурно-нравственных ценностей, отраженных в языке и культуре страны изучаемого языка, актуализации внутреннего потенциала русского языка как отражения богатого культурного наследия русского народа, определило направления организации образовательного, научного и культурно-просветительского пространства как особой системы.

Образовательное пространство, связанное с преподаванием русского языка как иностранного и проверкой уровня владения русским языком как иностранным, включает множество аспектов, важнейшими из которых являются подготовка бакалавров по направлению «Русский язык как иностранный», обучение иностранных слушателей на подготовительном отделении для учеников и проведение тестирования по русскому языку на различные уровни владения.

Кроме языковой подготовки, программа предусматривает и литературоведческую подготовку студентов. Изучение таких дисциплин, как «Русская литература», «Введение в литературоведение», расширяет кругозор иностранного студента и помогает формировать представление о русской ментальности.

Образовательная программа имеет практико-ориентированный характер, поэтому большое внимание уделяется различным типам практик студентов. Практики закрепляют знания и умения, приобретаемые обучающимися в результате освоения теоретических курсов и специальных дисциплин, вырабатывают практические навыки и способствуют комплексному формированию компетенций обучающихся.

Одной из проблемных зон обучения русскому языку как иностранному остается адаптация к незнакомой образовательной, культурной и социальной среде. При вхождении в иную культуру у учеников и слушателей возникают трудности в силу причин разного характера: недостаточная для определения тактик и стратегий коммуникации информация о стране, влияние стереотипных представлений, недостоверная и часто искаженная (иногда даже негативная) информация о другой культуре.

Формирование культурно-просветительского пространства, помимо большого количества мероприятий, нацеленных на развитие культуры межнационального общения, приобщение обучающихся к истории, традициям и культуре различных народов, предполагает включение лингвокультурного компонента при обучении русскому языку и организации самостоятельной работы иностранных студентов и слушателей. В этом случае при изучении иностранного языка вторичная языковая личность формируется посредством знакомства не только с культурными фактами страны изучаемого языка как таковыми, но и с культурно-ценностной информацией, извлекаемой из отдельных единиц языка и языковой системы в целом, чему способствуют интерактивные формы занятий в формате киноклуба, цикл занятий «Русская песня», преподавание русской фонетики иностранцам с использованием техники битбоксинга и т.п.

Стратегия успешного обучения русскому языку как иностранному предполагает сочетание учебной и внеучебной работы, которая включает не только организацию и проверку самостоятельной работы обучающихся, но и другие формы включения студентов и слушателей в языковую среду с целью мотивирования учеников к общению с носителями изучаемого языка.

Важно включение учеников в образовательное и культурно-просветительское пространство в качестве не пассивных получателей знаний, а активных участников формирования такого пространства,

поэтому слушатели и студенты постоянно вовлечены в проектную деятельность в рамках аудиторной и внеаудиторной работы. Современная методика преподавания русского языка как иностранного особое внимание уделяется коммуникативным и интенсивным методам обучения, которые нацелены на практическое овладение языком и использование его в различных ситуациях. Метод проектов способствует развитию умений самостоятельно отбирать, критически осмысливать и обобщать информацию на изучаемом языке. Важно, что в рамках проектной деятельности обучающиеся участвуют в моделировании социального взаимодействия в малой группе, приобретая знания в ходе самостоятельного решения поставленных преподавателем практических задач.

Поиск решения поставленной учебной задачи, самостоятельный выбор способов достижения цели, работа в коллективе при подготовке проекта дают возможность обучающимся исследовать языковой материал, открывать закономерности языковой системы. Проекты обучающихся участвуют в различных конкурсах и форумах (Международный студенческий форум «Наследники», Международный конкурс проектов и творческих работ «На перекрестке культур»). Студенты занимаются проектной деятельностью в рамках Студенческого исследовательского центра русского языка и межкультурной коммуникации. Вовлечение слушателей и студентов в решение предлагаемых учебно-методических и культурно-просветительских проблем снимает у обучающихся психологическую напряженность, создает особую атмосферу доверия и сотрудничества, способствует повышению мотивации изучения русского языка.

Организация образовательного, культурно-просветительского пространства как особой системы невозможны без серьезной учебно-методической и научно-методической деятельности преподавательского коллектива. Тема научной работы «Межкультурная коммуникация: лингвистический и методический аспекты» как один из аспектов темы

«Русский литературный язык на рубеже веков» объединила исследование самых разных аспектов, связанных с РКИ.

